2024-yil. 11-son

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

Yozgi ta’til maroqli va mazmunli o‘tsin !

2024-YIL 11-SON

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Nargiza BERDIYEVA

Tahrir hay'ati:

Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Bahodir Jovliyev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Okila Turakulova
Yuldosh Raxmatov
Ramziddin Abdusatorov
Feruza Manukyan

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Muharrirlar:

Bibimaryam RAHMONOVA
Yulduz RAXMATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Dolzarb mavzu

Qahramon Ismoilov. Yaponiya oliy ta'lim tizimi: zamonaviy yondashuvlar.....3
Maxmud Ravshanov. Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'at-it turk" asaridagi fe'llarning leksik-semantik tavsifi.....6

Tilshunoslik

Umidjon Yigitaliyev. Shaxs ijodiy tafakkuri tushunchasi va uning lingvo-kognitiv tavsifi.....7
Dilafruz Rahmatullayeva. O'zbek tilidagi "ilm-ma'rifat" sememali leksemalarning sintaktik funksiyalari.....10
Marhabo Umurzoqova. O'xshatishlar lisoniy shaxs milliy-madaniy mansubligini ifodalovchi vosita sifatida.....13
Farida Saidova. Umumiy izohli lug'atlarda sinonim so'zlarni izohlashga graduonimik yondashuv.....17
Akbarjon Hasanov. Badiiy matnda jonlantirishlar lingvopoetikasi.....18

Adabiyotshunoslik

Shoiraxon Toshxujayeva, Maxbubaxon Tojiboyeva. Bir g'azal sharhi.....22
Durdona Rasulmuxamedova. Tarixiy dramada ijodiy personajlarning o'rni..24
Marhabo Meliboyeva. "O'g'uznoma" dostoni syujetining genezisi haqida....26
Nigora Xolmatova, Feruza Qurbonova. Fiqralar.....29

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Nargis Kudratxodjayeva. Leksik matnlar yordamida talabalar nutqini o'stirish.....31
Dilshod Nabiyev. Ta'limda qo'llanuvchi kompyuter vositalarining turlari va klassifikatsiyasi.....33
Durdona Gafforova, Shoxida Mamadjanova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili leksik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari.....36
Fazliddin Ataullayev. Ta'lim sifatini ta'minlashda pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini ingliz tilida o'qitish va dual ta'lim orqali rivojlantirishning samarali usullari.....38
Eldorbek Khamitov. Dictation method and its pecularities.....40
Shukurjon Akramov. O'zbek tilida sodda gaplar va ularning o'rganilishi masalasi.....43
Maxmudaxon Sobirova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....45
Feruzaxon Xoshimova. Raqamlashtirish sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning dasturiy metodik ta'minotini takomillashtirish texnologiyalari.....47
To'lqinjon Badalxodjayev. Informatika kursida sun'iy intellekt asoslarini o'qitish metodikasi.....49

Tadqiqot

Zikriyo Sharipov. Til grammatik strukturasini tasvirlash usullari.....51
Nargiza Uzoqova. 5-sinf ona tili mashg'ulotlarida foydalaniladigan sinonimlar o'quv lug'ati uchun birliklar tanlashning lingvistik asoslari.....55
Yulduz Do'smuradova. Badiiy matnda paramatn elementlari va ularning ahamiyati.....57
Muxayyo Mamajonova. O'zbek badiiy asarlarining fransuz tiliga tarjimalarida

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
https: //oak.uz/pages/4802

Ilmiy-metodik elektron jurnal

muomala madaniyati milliy xususiyatlarining ifodalanishi....59
Ma'mura Sidiqova. Tilshunoslikda termin bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlar....61
Oybek Boyatov. Majzub Namangoniyning takrir va talmeh san'atlaridan foydalanish mahorati....63
Abdurahmon Ochilov. Maktablarda innovatsion jarayonni tashkil etishning falsafiy-metodologik jihatlari....66
Ro'za xonim Mavlonova. Mardumlig' shevasidan olis pari yoxud odamvashlig'-u mardumdorliqqa da'vat....68
Sumbul Muxammedova. "Sayod va Hamro" dostonidagi ayrim frazemalar tahlili....71
Mahbuba Quvondiqova. Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarining mazmun mohiyati va o'rganilishi....75
Kamola Axmedova. Mutrubiy Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sida nazariy, poetik masalalarning yoritilish tamoyillari....78
Shamshoda Hamdamova. O'zbek ilmiy fantastikasiga jahon adabiyotining ta'siri....80
Dilnavoz Shahobiddinova. Ingliz tilida jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy masalalari....83
Ozoda Shukurboyeva. Adabiyot va adabiy ta'limda sun'iy intellektning qo'llanishi....86
Nizomiddin Rajabov. Tilshunoslikdagi variantlilik va dublet hodisalari leksik munosabat turlari sifatida....89
Oydin Nurullayeva. O'zbek va ingliz tillari frazemalarning ba'zi ma'no mushtarakliklari....92
Dilnavoz Fayziyeva. Nasriy asarlarda urush mavzusi va uning qiyosiy-tipologik tahlili....94
Dilnoza Ro'zimatova. Ijtimoiy maqomning pragmalingvistik tadqiqi....97
Dilrabo Saydullayeva. "Nasoyim ul-muhabbat" da zikri keltirilgan ayrim ijodkor so'fiylar ijodi misolida hikmat janrining poetologik tadqiqi....101
Nasima Qodirova. Buxorolik shoir Shamsiddin Shohin hayoti va ijodiga doir ayrim qaydlar....105
Ilhomjon Madrahimov. Grammatik kategoriya – lisoniy paradigma turi....108
Zulfizarxon Azizova. Sharq olimlarining pedagogik qarashlari....112
Baxtiyor Omonov. Geologiya sohasiga oid terminlarning ilmiy tavsifi....114
Azizbek Toshpo'latov. Tabibiy ijodida musammatlar....116
Baxriddin G'apporov. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida o'zlashma so'zlarning ahamiyati....118
Gulnora Madumarova. Rahbarlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari....121
Mansur Turg'unboyev. Voleybol o'yini malakalari texnikasiga dastlabki o'rgatish uslublarining ahamiyati....123
Muhayyo Ergasheva, Nilufar Maxmudova. Olamning milliy-lisoniy manzarasi va makon konsepti....125
Nilufar Samiyeva. Tilshunoslikda aforizmlarning o'rganilishi....127
Абдухалил Атаматов. Сравнение требований рынка труда и содержания существующих образовательных программ....129
Наргиза Раджапова. Значение русского языка среди мировых языков и необходимость его изучения....132
Malohat Badalbaeva. Teaching emergency terms in english: ensuring effective communication in critical situations....133
Dilshoda Khudoyberdiyeva. About the usage of household appliance lexemes in forming idiomatic expressions in english language....136
Lola Mirzayeva. Improving the professional communication of future tour guides in the field of tourism....139
Dilnavozxon Yokubjonova. Teaching listening skills for juniors....142
Nilufar Xaydarova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda geymifikatsiyadan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari....144

Kichik tadqiqot

Ro'zigul Primova. Qo'chqor Norqobil asarlarida urushning inson ruhiyatiga ta'siri tasviri....147
Mukarramoy Xo'jabekova. Art-terapiya fanini amaliy mashg'ulotlarda o'rganish, mustahkamlash texnologiyasi....148
Surayyo Mirzayeva. Semiotika....150
Sharifjon Kenjaboyev. Kasbiy kompetensiya va identitetlik tushunchalarining ilmiy tahlili....152
Mohigul Hoshimova. XIX-XX asrlarda doston janrining tadrijiy taraqqiyoti....155
Nigora Xamidova, Sevara Pirnazarova. Phonetic features of verbal irony in english....157
Maftuna Toshtemirova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik texnikalari...159
Zulfiya Asamatdinova. Tarjimada inson qiyofasi va xarakterini ifodalash....161
Qaxramon Mashrapov. Texnik oliy ta'lim muassasalarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitishning zaruriy ahamiyati....163
Shahnoza Xodjayeva. Ispan tilini o'qitishda multimedia texnologiyalarining ahamiyati....165
Shahnoza Nusratova. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi xususida ayrim mulohazalar....167
Nargiza Boymuratova. Lutfiy she'riyatida irfoniy

mazmunning badiiy talqini.....169
Saida Imomova. Said Ahmadning "Ufq" romanida ota obrazi ruhiyati talqini.....170
Surayyo Tursunova. Bolalarning jismoniy rivojlanishida psixologiyaning o'rni.....172
Lutfiya Xoliqova. Zamonaviy ta'limda yangi interaktiv metodlarning avvalgi turdagi metodlardan afzalliklari.....174
Asaloy Xudoyberdiyeva. Topishmoqlarda ortiqchalik va tejamkorlik tamoyillarining kuzatilishi.....175
Mohichehra O'rolova, Normat Yo'ldoshev. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson va tabiat munosabatlarining poetik talqini.....177
Dilnura Sotimboyeva. O'g'uz lahjasida o'xshatish va kesatishga oid maqollarning o'ziga xos xususiyatlari.....179
Dilnavoz Xaytaxmatova. Omon Matjon she'riyatida muhabbat motivi.....180
Shohista Aduqodirova. Ta'limga oid saytlarda pragmalingvistik xususiyatlarning ifodalanishi.....182
Azizbek Ibragimov. Orzu lirikasida ishq mavzusi....184
Sevinch Muxtorova. Devonai haqqo'ylar.....186
Dilnura Madaminova. Isajon Sultonning "Toshkelinchak" hikoyasi tahlili.....188
Dostonbek Axmadov. Mirzakalon Ismoiliyning 30-yillar davri ijodi.....190
Dildora Husanova. Barcha shodlik senga bo'lsin.....192
Sabinabonu Qaxramonova. Botin metaforasining surrealistik tasviri.....194
Sarvinoz Jamolova. "Mahbub ul-qulub" da "tavozu" talqini.....197
Sardor Hamroyev, Ruxshona Muxiddinova. Understanding and supporting individuals with pragmatic language disorders.....198
Gulhayo Jabborova. A comparative linguocognitive analysis of fear in uzbek and english artistic discourse.....201
Akhmad Baisov. Harmony of theme and idea in the story.....202
Lutfullina Yulia. Intellectual development of junior schoolchildren in mathematics lessons in the context of the implementation of a competency-based approach.....204
Rufina Abdullayeva. Munis Xorazmiy tuyuqlari badiiyati.....206
Madina Alimova. Andragogikada ikkinchi tilni o'qitishda xorij tajribasi.....208
Zarina Tursunova. Representation of sadness in english and uzbek languages.....210
Mehriniso Khusenova. The goals and objectives of terminology and lexicography as a field of linguistics.....211
Oysha Rajabova. Xorijiy tillarni o'rganishning imkoniyatlari.....212

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Qahramon ISMOILOV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
E-mail: ismoilovqahramon9@gmail.com

YAPONIYA OLIY TA’LIM TIZIMI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (TOP-100 talikka kiruvchi oliy ta’lim muassasalari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada nufuzli TOP-100 talikka kiruvchi Yaponiya oliy ta’lim muassasalari: Tokio, Toxoku, Kyoto va Xokkaydo universitetlarining umumiy tavsifi, ta’lim strukturasi, xalqaro reytingdagi o‘rni, faoliyat tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlari, xalqaro grantlari, dasturlari, gender tenglik va hokazolar haqida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *TOP-100 talik, Tokio, Toxoku, Kyoto va Xokkaydo universitetlari, ta’lim strukturasi, xalqaro reyting, xalqaro grantlar va dasturlar, Nobel mukofoti, Meiji hukumati, Global Universitet, Imperator universiteti, kampus,“The Japan times” gazetasi, mamlakatlar va mintaqalar, bakalavriat va magistratura maktablari, kafedra, fakultet, aspirantura, talaba, professor-o‘qituvchi, gender, ayol, “Quacquarelli Symonds”, Osiyo, “Global yaponshunoslik”.*

Annotation: this article discusses the prestigious TOP-100 ranked higher education institutions in Japan: Tokyo, Tohoku, Kyoto and Hokkaido Universities. It provides an overview of their general description, educational structure, international rankings, and global achievements within their operational system, international grants, programs, gender equality and notable faculty.

Keywords: *TOP-100 ranking, Tokyo, Tohoku, Kyoto and Hokkaido Universities, educational structure, international rankings, international grants and programs, Nobel Prize, Meiji government, Global University, Imperial University, campus, "The Japan Times" newspaper, countries and regions, undergraduate and graduate schools, departments, faculties, graduate programs, students, professors, teachers, gender, woman, "Quacquarelli Symonds", Asia, "Global Japanese Studies".*

Аннотация: в данной статье обсуждаются престижные высшие учебные заведения Японии, входящие в ТОП-100 рейтинга: университеты Токио, Тохоку, Киото и Хоккайдо. Приводится общее описание их структуры образования, международного рейтинга, а также глобальных достижений в их операционной системе, международных грантов, программ, гендерное равенство и выдающегося преподавательского состава.

Ключевые слова: *рейтинг ТОП-100, университеты Токио, Тохоку, Киото и Хоккайдо, структура образования, международные рейтинги, международные гранты и программы, Нобелевская премия, правительство Мэйдзи, Глобальный университет, Императорский университет, кампус, газета "The Japan Times", страны и регионы, бакалавриат и магистратура, кафедры, факультеты, аспирантура, студенты, профессоры, преподователи, гендер, женшина, "Quacquarelli Symonds", Азия, "Глобальные японские исследования".*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish mamlakatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu vazifani amalga oshirishda Yaponiya davlatining tajribasini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Mazkur kichik tadqiqotda Yaponiya oliy ta’lim tizimining shakllanishi, tuzilishi, zamonaviy yondashuvlari, hozirgi holati hamda TOP-100 talikka kiruvchi universitetlarining yutuq va muammolari tahlil etilgan. Yaponiyaning ilg‘or universitetlari – Tokio, Toxoku, Kyoto va Xokkaydo universitetlari misolida ta’lim tizimidagi muvaffaqiyat omillari va ilg‘or tajribalar o‘rganildi.

Asosiy qism. Tokio universiteti – Yaponiyada joylashgan davlat tadqiqot universiteti bo‘lib, 1877-yilda tashkil etilgan birinchi Imperator universitetidir. Hozirda Yaponiya hukumati tomonidan “TOP Global Universitet” loyihasining TOP toifa universiteti sifatida tanlab olingan. Universitetda 10 ta fakultet, 15 ta aspirantura ixtisosligi mavjud bo‘lib, unda 30 000 ga yaqin talaba tahsil oladi, ulardan 4200 ga yaqini xalqaro talabalardir. Xususan, 2010-yildan buyon 80% dan ortig‘ini tashkil etuvchi xususiy mablag‘ bilan ta’minlangan xalqaro talabalar soni 10 yil ichida 1,75 barobarga oshdi va universitet xalqaro talabalarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratib kelmoqda. Uning beshta kampusi Xongo, Komaba, Kashiva, Shirokane va Nakanoda joylashgan. Bu Yaponiyadagi tanlangan va nufuzli universitet hisoblanadi. 2021-yil holatiga ko‘ra, Tokio universiteti bitiruvchilari, professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari orasida o‘n yettita Bosh vazir, 18 nafar Nobel mukofoti laureati, to‘rtta Pritsker mukofoti sovrindori, besh nafar kosmonavt va bir “Fields” medali sovrindori bor .

Universitet 1877-yilda Meiji hukumati tomonidan hozirgi nom ostida tibbiyot, turli an’anaviy olimlar va zamonaviy ta’lim bo‘yicha eski davlat maktablarini birlashtirgan holda tashkil etilgan. U 1886-yilda “Imperator universiteti” deb o‘zgartirildi, keyin esa 1897-yilda Imperator universiteti tizimi yaratilganda Tokio Imperator Universiteti, deb o‘zgartirildi. 1923-yil sentabrda zilzila va keyingi yong‘inlar Imperator universiteti kutubxonasining 750 000 ga yaqin jildlarini yo‘q qildi. Yo‘qotilgan kitoblar orasida 10 000 ga yaqin kitoblardan iborat Xoshino kutubxonasi (Xoshino bunko) ham bor edi. Kitoblar universitet kutubxonasining bir qismi bo‘lgunga qadar Xoshino Hisashining sobiq mulki bo‘lib, asosan, Xitoy falsafasi va tarixiga oid edi.

1947-yilda Yaponiya Ikkinchi Jahon urushida

mag‘lubiyatga uchragach, u o‘zining asl nomini qayta oldi. Universitet Meydzi davrida tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning ildizlari Astronomiya agentligi (1684), Shoheizaka tadqiqot idorasi (1797) va G‘arbiy kitoblar tarjimasi agentligida (1811) bo‘lgan . Bu muassasalar Tokugava Syogunati (1603-1867) tomonidan tashkil etilgan davlat idoralari bo‘lib, Yevropadan kitob olib kirish va tarjima qilishda muhim rol o‘ynagan.

“The Japan times” gazetasiga ko‘ra, 2012-yil fevral oyida universitetda 1282 nafar professor-o‘qituvchi bor edi. Ulardan 58 nafari ayollar edi. 2020-yil may oyida professor-o‘qituvchilar sonini solishtiradigan bo‘lsak, 1298 nafar professor orasida 108 nafar ayol bor, bu deyarli ikki baravar ko‘paygan. Universitet doimiy ravishda gender farqini yopmoqda va 2021-yil apreliga kelib uning direktorlarining yarmi ayollar edi.

2012-yil kuzida, birinchi marta Tokio universiteti to‘liq ingliz tilida o‘qitiladigan va xalqaro talabalarga mo‘ljallangan ikkita bakalavriat dasturini yo‘lga qo‘ydi – Komabadagi ingliz tilidagi dasturlar (PEAK) – Sharqiy Osiyodagi Yaponiya bo‘yicha xalqaro dastur (Xalqaro dastur Atrof-muhit fanlari bo‘yicha). 2014-yilda Tokio universiteti qoshidagi Fanlar maktabi Global fan kursi (GSC) deb nomlangan to‘liq ingliz tilidan bakalavr ta’lim dasturini joriy qildi .

Tokio universiteti qoshidagi Kosmik nurlarni tadqiq qilish instituti 2021-yil 28-mayda yangi jahondagi yetakchi xalqaro ilmiy tadqiqot loyihasi uchun “Hiper-Kamiokande” qurilmasini qurishni boshladi, u 2027-yilda o‘z tajribalarni boshlaydi.

Toxoku universiteti – Yaponiyadagi uchinchi eng qadimiy imperator universitet bo‘lib, mamlakatdagi eng nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. U dastlab 1736-yilda tibbiyot maktabi sifatida tashkil etilgan.

U Tokio shimolidagi ikkinchi yirik shahar Sendayda joylashgan. Imperator universiteti sifatida o‘zining butun tarixi davomida u “ochiq eshiklar” siyosatini o‘z zimmasiga oldi va Yaponiyada ayollarni va chet ellik talabalarni qabul qilgan birinchi universitet edi. Universitet mamlakatdagi oliy ta’limni xalqarolashtirish maqsadida “Global 30” loyihasida 13 ta universitetdan biri sifatida tanlandi. Tashabbusning bir qismi sifatida universitet to‘liq ingliz tilida o‘qitiladigan xalqaro darajalarni taklif etadi.

Kelajakdagi global yetakchilik dasturi ilg‘or molekulyar kimyo, amaliy dengiz biologiyasi, xalqaro mexanika va aerokosmik muhandislik bo‘yicha arizalarni qabul qiladi, ularning barchasi ingliz tilida o‘qitiladi. Dastur uchun alohida tanlangan loyiha yo‘nalishi mavjud.

Universitetda 2015 yil holatiga ko‘ra 90 ta turli mamlakatlar va mintaqalardan 1500 dan ortiq xalqaro talabalar bor edi. U yerda jami 10 000 ga yaqin bakalavriat, 4 000 magistratura va 2 600 doktorant tahsil oladi. Universitet Senday shahrida beshta asosiy kampusga ega. Talabalar odatda ushbu kampuslarda fanlar bo‘yicha bo‘linadi, ulardan biri tibbiyot va stomatologiya, boshqa biri ijtimoiy fanlar, fan va muhandislik, yana biri qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan.

Universitetda ko‘plab taniqli olimlar, pedagoglar, yozuvchilar va siyosat arboblari ta’lim beradilar. 2011-yilda mintaqada sodir bo‘lgan zilzila va sunami tufayli universitet bir muddat yopildi. Aksariyat kampuslar zilziladan zarar ko‘rmadi, biroq ba’zi binolar vayron bo‘lgandi. Lekin dars va barcha mashg‘ulotlar bir necha oydan keyin qayta tiklandi.

Kyoto universiteti – Yaponiyaning Kyoto shahrida joylashgan davlat tadqiqot universiteti bo‘lib, 1897-yilda asos solingan, u sobiq Imperator universitetlaridan biri va Yaponiyadagi ikkinchi eng qadimgi universitetdir. Kyoto doimiy ravishda Yaponiyadagi eng yaxshi ikki, Osiyodagi eng yaxshi o‘ntalik va dunyodagi eng yaxshi ellikta oliy ta’lim muassasasi qatorida turadi .

O‘zining “akademik madaniyat erkinligi” shiori asosida tashkil etilgan Kyoto universiteti hozirda o‘nta fakultet, o‘n sakkizta oliy ta’lim maktabi, o‘n uchta ilmiy-tadqiqot instituti va yigirma ikkita tadqiqot va o‘quv markazlariga ega uchta kampusdan iborat. Kyoto universiteti kutubxonasi 7 million jildga ega bo‘lib, Yaponiyaning ikkinchi yirik akademik kutubxonasidir . Bundan tashqari, Kyoto universiteti birinchi uchta tayinlangan milliy universitetlardan biridir. U Yaponiya hukumati tomonidan TOP Global Universitet loyihasida eng yaxshi universitet sifatida tasniflangan. 2019-yil mart oyi holatiga ko‘ra, universitetning umumiy sof aktivlari 316 milliard ienni tashkil qildi. Ta’lim va tadqiqot sohasida xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlagan Kyoto universiteti Yaponiyadan tashqaridagi turli akademik muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Kyoto universiteti hozirgi kunga qadar Yaponiyaning 5 ta bosh vaziri va Tayvanning 1 ta prezidentiga tahsil bergan va jahon darajasidagi tadqiqotchilarni yetishtirish bilan mashhurdir. Universitet bitiruvchilari 2019-yil oktabr holatiga ko‘ra, 19 ta Nobel mukofoti, 2 nafar “Filds” medali va 1 nafar “Gauss” mukofoti sovrindori bo‘lib, u Osiyodagi barcha universitetlar orasida eng ko‘p Nobel mukofoti sovrindorlarini yetishtirgan universitet hisoblanadi. Taniqli siyosatchilar va olimlardan tashqari, universitet o‘z bitiruvchilari orasida hurmat qozongan tibbiyot va huquqshunoslar, yozuvchilar, rassomlar va biznes rahbarlarini ham hisobga oladi. Kyoto universiteti 2017-yilda Time's Higher Education's Alma Mater (Global Executives) indeksida dunyo miqyosida o‘n ikkinchi o‘rinni egalladi.

Xokkaydo universiteti – Xokkaydoning Sapporo shahridagi Yaponiya milliy universitetidir. Bu Yaponiyadagi beshinchi Imperator universiteti bo‘lib, u mamlakatning eng yaxshi oliy ta’lim yoki tadqiqot muassasalari bo‘lishi uchun tashkil etilgan edi. Xokkaydo universiteti “The Japan University Rankings” reytingida 5-o‘rinni egallagan. Shuningdek, u Yaponiya hukumatining “TOP Global Universitet loyihasi” tomonidan “Eng yaxshi turdagi” universitet

sifatida tanlangan. Asosiy kampus Sapporo shahrining markazida joylashgan.

2021-yil holatiga ko‘ra, ikki nafar bitiruvchi va professor-o‘qituvchilar kimyo bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishdi.

Universitetning tarixi Ezoning Xokkaydo sifatida Yaponiya hududiga rasmiy qo‘shilishi bilan boshlanadi. Xokkaydo taraqqiyot komissiyasi direktori Kuroda Kiyotaka 1870-yilda Amerikaga sayohat qilib, yangi yerlarni joylashtirishning Amerika modeliga e’tibor qaratdi.

1907-yil sentabrda Toxoku imperator universiteti Sapporoda qishloq xo‘jaligi fakultetini ochdi. Toxoku Imperial Universiteti 1918-yil 1-aprelda qishloq xo‘jaligi fakultetini Xokkaydo Imperial Universitetiga berdi. U to‘qqiz imperator universitetlaridan biri edi. Tibbiyot maktabi 1919-yilda tashkil etilgan bo‘lib, o‘sha paytda qishloq xo‘jaligi texnikumi qishloq xo‘jaligi fakultetiga aylangan. Undan keyin muhandislik fakulteti, fan fakulteti va nihoyat, 1947-yilda huquq va adabiyot fakulteti tashkil etildi. Xokkaydo universitetining hozirgi nomi ham 1947-yilda qo‘llanila boshlandi. 1953-yilda Oliy maktab tashkil etildi .

2014-yilda universitet Bosh vazir Shinzo Abe tashabbusi bilan boshlangan Super Global Universitetlar dasturi doirasida tanlab olindi va uning maqsadi Yaponiya universitetlarining dunyo bo‘ylab eng yaxshi 100 taligiga kirishiga yordam berish ekanligini ta’kidladi. Dasturga ko‘ra, u eng yaxshi universitet toifasida yoki “A” turida ro‘yxatga olingan – “Top turi” jahon universitetlari reytingida eng yaxshi 100 talikka kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan jahon darajasidagi universitetlar uchun mo‘ljallangan. Har bir “A” turdagi universitet 2023-yilgacha har yili 420 million ¥ (4,2 million AQSH dollari) oladi .

2020-yil iyun oyida Xokkaydo universiteti prezidenti Toyoxaru Nava Yaponiya ta’lim vaziri Koichi Xagiuda tomonidan ish joyidagi vakolatini suiiste’mol qilgani uchun ishdan bo‘shatildi va 2004-yilda milliy universitetlar mustaqillikka erishganidan beri ishdan bo‘shatilgan birinchi milliy universitet prezidenti bo‘ldi. Uning o‘rnini sobiq neyroxirurg va Xokkaydo universiteti kasalxonasi direktori Kiyoxiro Xoukin egalladi.

Xulosa. Yaponiya ta’lim tizimi va universitetlarining bugungi holati, yutuqlari va muammolarini o‘rganish O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish uchun muhimdir. Ushbu maqolada Yaponiyaning ilg‘or universitetlari - Tokio, Toxoku, Kyoto va Xokkaydo universitetlarining tarixi, tuzilishi va yutuqlari haqida qisqa ma’lumot berildi. Yapon universitetlarining bu muvaffaqiyatlari ta’lim tizimidagi xalqaro integratsiya, zamonaviy yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga katta e’tibor berish orqali amalga oshirilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu tajribalarni o‘rganish va qo‘llash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etish orqali sifat va samaradorlikni oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “The University of Tokyo”. The University of Tokyo. Retrieved 2019-07-12.
2. T.Tachibana.Todai and Emperors - Life and Death of Imperial Japan, pp. 22-62.
3. “Global Science Course". S.u-tokyo.ac.jp. Retrieved 15 November 2018.
4."Historical Sketch". About Kyoto University. Kyoto University. 2004. Retrieved July 17, 2007.
5. Kyoto University https://www.kyoto-u.ac.jp/ja/about/data/book. Retrieved October 12, 2021.
6. "Hokkaido University". Archived from the original on 2012-08-06. Retrieved 15 July 2015

Maxmud RAVSHANOV,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

MAHMUD KOSHG‘ARIY “DEVONU LUG‘AT-IT TURK” ASARIDAGI FE’LLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola lug‘atshunos va filolog alloma Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” kitobida to‘plangan fe’llarning leksik-semantik guruhlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Xususan, harakat fe’llari, nutq, holat, tafakkur va sifat, tasvir va taqlidiy so‘zli fe’llarining LSGlari tahlil qilinadi. Lug‘atdagi fe’llarning semantik xususiyatlari hozirgi o‘zbek tilidagi fe’llar bilan mos keladi.

Tayanch so‘zlar: *“Turkiy tillar lug‘ati”, “Devonu lug‘at-it turk”, turkiy xalqlar, turkiy til, fonetika, grammatika, morfologiya, leksik-semantik guruhlar, fe’l, semantika.*

Annotation: this scientific article is devoted to the study of lexicosemantic groups of verbs collected in the book of lexicographer and philologist Mahmud Kashgari “Divan lugat at-Turki”. In particular, lexico-grammatical groups of verbs of movement, speaking, action, state, thinking and quality, image and onomatopoeia are analyzed. The semantic features of the verbs of the “Dictionary” correlate with the verbs of the modern Uzbek language.

Keywords: *“The dictionary of Turkic languages”, “Divan lugat at-Turki”, Turkic peoples, Turkic language, phonetics, grammar, morphology, lexico-semantic groups, verb, semantics.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению лексико-семантических групп глаголов, собранных в книге лексикографа и филолога Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-Турки». В частности, анализируются

лексико-грамматической группы глаголов движения, говорения, действия, состояния, мышления и качества, образа и звукоподражания. Семантические особенности глаголов «Словаря» соотносятся с глаголами современного узбекского языка.

Ключевыйе слова: *«Словарь тюркских языков», «Диван лугат ат-Турк», тюркские народы, тюркские языки, фонетика, грамматика, морфология, лексико-семантические группы, глагол, семантика.*

O‘rta asrlarning eng buyuk durdona asari Mahmud Koshg‘ariyning “Turkiy tillar lug‘ati” (“Devonu lug‘at-it turk”) turkiy xalqlar tarixida dialektologik, izohli, etnografik, etimologik tarixiy-lisoniy sohalarni qiyosiy-tipologik o‘rganish yuzasidan birinchi universal lug‘atdir.

“Devonu lug‘at-it turk” asari adabiy tilni ham, asosiy turkiy shevalarni ham qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til va sheva elementlarining nisbati har bir shevaga o‘rtacha 10-12 adabiy til so‘zini tashkil etadi, ya’ni umumiy turkiy adabiy tilga alohida ahamiyat beriladi. Bu holat turkiy adabiy tilining o‘sha davrda bu hududda qanchalik keng va kuchli bo‘lganligini to‘liq asoslaydi [2.56-61].

«Devonu lug‘at-it turk» asarining ayrim masalalari A.N. Kononov, A. M. Shcherbak, B. A. Serebrennikov, D. M. va boshqa sharqshunoslar va turkologlarning tadqiqotlarida mukammal o‘rganilgan [3.3-9].

Fe’llarga oid masalalar faqat tasodifiy yoki qisqa-qisqa bo‘lim sifatida ko‘rib chiqilgan. Bularning barchasi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mahmud Koshg‘ariy o‘z kitobini yaratish uchun ko‘p yillar davomida material to‘plagan. U turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yog‘monlar, qirg‘izlarning shahar va qishloqlarini kezib, ularning yaylovlarida ko‘chib yurib, turli sheva va shevalarni adabiy til bilan qiyoslab o‘rgangan va o‘zining lug‘ati uchun nihoyatda boy ma’lumotlar to‘plagan. Mahmud Koshg‘ariy: «Men ularga shunchalik e’tibor berdimki, turk, turkman, o‘g‘uz, chigil, yog‘ma, qirg‘iz qabilalarining tillari menga juda yaqin bo‘lib qoldi» – deydi [4.80].

“Devon”ning g‘oyasi muallifning o‘z madaniyati va tiliga bo‘lgan muhabbati, ular bilan faxrlanishidan dalolat beradi. Rus tilshunosi, tarixchi-arabshunos, arab qo‘lyozmalari bo‘yicha mutaxassis V.I.Belyayev va N.K. Dmitriyevlar Koshg‘ariy ijodi haqida ma’lumot beradi [1. 179].

“Lug‘at» ikki qismdan: so‘z boshi va lug‘atdan iborat. Lug‘atdagi so‘zlar ketma-ketligi arab leksikografiyasi tamoyillarga asoslanadi. Boshida ikki harfli so‘zlar, keyin uch, to‘rt, besh va hokazo. Muallif morfologiya sohasida o‘sha davr an’anasiga ko‘ra so‘z turkumlarini uch qismga ajratadi: fe’l, ot, bog‘lovchi. Lug‘atda fe’llar juda ko‘p ishlatiladi. “Lug‘at”da fe’llarni ma’nosiga ko‘ra birlashtirish, quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratilgan:

1) bardï – bordi, ol ewkä bardï – u uyga va boshqa joylarga ketdi [4. 210];

2) araladï – ikki narsa orasiga o‘tish uchun oraladi [4.127];

3) kezdi - kezmoq, ol yerig kezdi – u yerni kezdi [4. 211]

4)) učdï – uchmoq, quš učdï – qush uchdi [4. 80];

5) qačišti– qochmoq, olar bir-birdin qačišti – ular bir-biridan qochdilar [4. 234];

II. Gapirish fe’llari^

1) ayttï – so‘ra, ol meŋä söz ayttï –so‘radi [4. 97];

2) arqadï – qarg‘amoq, ol arï qarğgadï, arqadï – uni so‘kdi [4. 118];

3) alqašdï – olqishladi, ol meniŋ birlä alqiš alqašdi – u meni maqtadi [4. 104];

III.Harakatni bildiruvchi fe’llar:

1) ičdi – ichmoq, er suw ičdi – odam suv ichdi [4. 80];

2) bičdï – qirqmoq, er et bïcdï – odam go‘sht kesdi [4. 209

3) ačdï – ochmoq, qapuğ ačdi – eshikni ochmoq [4. 80];

4) kördi –ko‘rmoq, ol meni kördi –u meni ko‘rdi. [4. 211];

5) qaqtï –urmoq, o anï bašra qaqtï – u uning boshiga urdi [4. 299];

6) yazdï – yozmoq, ol bitig yazdï – u xat yozdi [4. 344];

7) taturdum – ovqatlantirmoq, men aŋar aš taturdum – uni palov bilan ovqatlantirdim [4. 228];

8) qučušdi – quchoqlashmoq, ol meniŋ birlä qučušdi – u men bilan quchoqlashdi [4. 234];

9) berdi – bermoq, ol myeŋä yarmaq berdi – u menga pul va boshqa narsalar berdi [4. 386];

10) sorušladï – qovurmoq, ol tarïğ sorušladï –u yeyish uchun bo‘g‘doy boshog‘ini qovurdi [4. 436];

11) köklädi bog‘ladi, ol egär köklädi – u egar tasmasini bog‘ladi [4. 425];

IV. Holat, sifat va tafakkur fe’llari:

1) buštï-tarïndi – xafa bo‘lmoq, er išta buštïtarïndi – odamning kayfiyati ishda buzildi [4. 251];

2) uyattï – uyalmoq, ol mendin uyattï – u mendan uyaldi. [4. 97];

V.Taqlid so‘zli fe’llar:

baqïrdï – bo‘kirmoq, teräy baqïrdï – tuya bo‘kirdi [4. 388];

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fe’l nazariyasi va tarixi nuqtayi nazaridan o‘rta asr davri turkiy fe’llari hozirgi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi zamonaviy tillar, jumladan, o‘zbek tili ham qadimgi turkiy tilning davomi hisoblanadi. Shuning uchun ham Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari o‘rta asrlarda turkiy xalqlar tillarini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дмитрев Н. К. Строй тюркских языков. Москва. «Восточная литература», 1962. 607 с.
2. Искакова Б.Д., Карипжанова Г. Т.Семантические группы глаголов в труде М. Кашгари «лугатит турк» // Филология. Востоковедение. 2016. Т. 11, № 3. S. 56–61.
3. Кононов А. Н. Изучение «Дивани лугатит турк » Махмуда Кашгарского в СССР //Советская тюркология. 1973. №1. S. 3–9.
4. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk (Turkiy so‘zlar devoni) – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017. 483-b.

Umidjon YIGITALIYEV,
Qo‘qon DPI dotsenti, PhD
E mail: yigitaliyevumidjon35@gmail.com

SHAXS IJODIY TAFAKKURI TUSHUNCHASI VA UNING LINGVO-KOGNITIV TAVSIFI
(onto-gnoseologik aspekt talqinida)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilida “shaxs” tushunchasining onto-gnoseologik va lingvo-kognitiv tavsifi misollar asosida ochib beriladi. Bunda sharq islom madaniyati, sharq falasafiy tafakkuri va g‘arb falsafiy dunyoqarashi uyg‘unlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *shaxs, tushuncha, lingvo-kognitiv tabiat, sharq falsafasi, g‘arb falsafasi, konsept, kognitiv tahlil, verbal munosabat.*

Аннотация: в данной статье на основе примеров раскрывается онто-гносеологическое и лингвокогнитивное описание концепта «человек» в узбекском языке. В этом сочетаются восточно-исламская культура, восточное философское мышление и западное философское мировоззрение.

Ключевые слова: *личность, концепт, лингвокогнитивная природа, восточная философия, западная философия, концепт, когнитивный анализ, речевая установка.*

Annotation: this article, based on examples, reveals the onto-epistemological and linguo-cognitive description of the concept “person” in the Uzbek language. This combines Eastern Islamic culture, Eastern philosophical thinking and Western philosophical worldview.

Keywords: *personality, concept, linguocognitive nature, Eastern philosophy, Western philosophy, concept, cognitive analysis, speech attitude.*

Kirish. Obyektiv olam, shaxs hayot kechirayotgan jamiyatni ilmiy tahlil etish va bilish intellektual faoliyatning eng oliy shaklidir. Bu faoliyat oddiy bilishdan, ya’ni kundalik hayot ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bilish istagidan, birinchi navbatda, o‘z maqsadi va tizimli ravishda amalga oshirilishi bilan tubdan farq qiladi. Ikkinchidan esa, ilmiy bilish jarayonida maxsus vosita va usullarga murojaat qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Islomiy sxolastikadan oldingi yillarda islomiy va dunyoviy ilmlarda jahonga mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz – Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Umar Xayyom, Beruniy, Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy kabi allomalarning olamshumul asarlari [1;2;3] buning yorqin guvohidir. Chunonchi, Abu Nasr Forobiy o‘zining «Ixso al-ulum» («Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida») asarida shunday ta’kidlaydi: «Bilki, (olamda) substansiya (javhar) va aksidensiya (javhar bo‘lmagan, oraz) hamda substansiya, aksidensiya yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo‘qdir»[1:25],- deb mulohaza yuritadi.

Shunday asos bilan Forobiy barcha fanlarning moddiy asosi bir ekanligini ta’kidlaydi va bosqichma-bosqich sonlar, yulduzlar, musiqa, tabiatshunoslik, Haqni bilish (falsafa – U.Y.), til, mantiq haqidagi fanlarni bir manba – substansiyaning turli qirralaridan kelib chiqqanligini isbotlaydi [1:28].

Bu iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, buyuk vatandoshimiz olam haqidagi ilmlarning birligini ularning yagona moddiy borliqning turli qirralarini o‘rganish bilan birlashishini e’tirof etadi. Bu fikrlar bosh manba – borliq barcha fanlar uchun bir bo‘lganligi sababli fanlar taraqqiyotida umumiylikni, ularning bir-biriga samarali ta’sirini ko‘rish va izohlashga imkon beradi.

Zero, tilshunoslarimiz ta’kidlaganlaridek: “Fan sohasida qo‘llaniladigan bilishning vosita va amallari umumlashmasi ilmiy tadqiqotlar metodini tashkil qiladi. Tadqiqot metodi, albatta, o‘rganish uchun tanlangan obyektga monand tarzda turli xil bo‘lishi mumkin. Shuning bilan birgalikda, tadqiq metodining tanlanishi tadqiqotchining borliqqa (obyektga) bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi”[8].

Ta’kidlash lozimki, fanni jamiyat ehtiyojlari asosida ijodiy tafakkurga ega bo‘lgan kishilar yaratadilar. Ko‘p hollarda bu jarayon tabiat yoki jamiyat, boshqacha aytganda, olam va odamzotning tahlili tarzida ro‘y

beradi.

Fanni keng tarixiy doirada o‘rganish g‘oyasi hozirgi davr mantiqiy-metodologik tadqiqotlarda chuqur ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ilmiy-ijodiy jarayon bilan bog‘liq masalalar tahlili, ayniqsa, muhim rol o‘ynamoqda.

Qadimgi yunon faylasuflari Platon, Aristotel inson ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etganlar. Sharq falsafasida ham ushbu masala olimlarning diqqatini tortgan. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy olimlarni ijodiy tafakkur mahsullariga qarab, uch guruhga bo‘ladi. U: «Ba’zilar o‘zidan oldin tadqiq qilinmagan narsalarni o‘rganib, o‘zidan keyingilarga meros qilib qoldiradi. Boshqalar o‘zidan oldingi ustozlar asarlariga sharh beradi va bu bilan qiyinchiliklarni yengillashtiradi, yopiq narsalarni ochadi, yo‘lni yoritadi va ko‘pchilik foydalanishi uchun imkoniyat yaratadi va yana kimdir ba’zi kitoblardagi noaniqliklarni aniqlaydi va umuman unutilayozgan narsalarni yangilik sifatida kiritadi”,-deb ta’kidlaydi [8].

Abu Nasr Forobiy esa ijodiy tafakkurga: “Bir narsani bilish nutqiy quvvat bilan, yo bo‘lmasa, xayol surish – tahayyul quvvati bilan va yoki tuyg‘ular – hislar bilan qo‘lga kiritiladi. Agar aqliy quvvat bilan idrok etiladigan narsalar xususiyatiga ega bo‘lgan bir narsani bilish istalganda, orzu qilingan narsani o‘zida saqlagan fe’l aqliy quvvatda bo‘lgan boshqa bir quvvatdan tug‘iladi. Mana bu ijodiy quvvat sanaladi. Ana shu bilan fikr yuritish, tush ko‘rish, tekshirish, xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi», -deb ta’rif beradi [1:25].

Sharq falsafasining yetuk vakili Abu Rayhon Beruniy dunyoqarashida ijodiy tafakkur masalasi alohida o‘rganilgan. Mazkur muammoning mohiyatini tadqiq qilishda olim kuzatuv, sinov-tajriba, aql-farosat prinsiplariga tayanadi. Faylasufning ijodiy tafakkur borasidagi qarashlari obyektiv jarayonlarni talqin etishda odamzotning aqliy tafakkuri idrok qila olmaydigan g‘oyalarni, turli-tuman hamda tamoman yangicha ilmiy fantaziyalarni o‘zida birlashtirgan. Beruniyning e’tiroficha, muayyan bilimga ega bo‘lmaslik – noxolis, boshqacha aytganda, g‘ayri ilmiy asoslashga etaklaydi. Mazkur holat esa ijodiy fikrlashga to‘sqinlik qiladi[3].

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, Sharq falsafiy tafakkurida ijodga (ijodiy tafakkurga – U.Y.) murakkab tuzilishga ega tushuncha sifatida qaralgan.

Ijodiy tafakkur borasidagi qarashlar sharqda, shuningdek, g‘arb falsafasida ham maxsus o‘rganilgan. O‘rta asrlarda Foma Akvinskiy[5], yangi davrda F.Bekon, R.Dekart, D.Yum, J.Berkli, V.F.Shelling[4] kabi faylasuflarning asarlarida mazkur muammoga jiddiy e’tibor qaratilgan.

Xususan, nemis faylasufi V.Shelling tashkillashuv tizimining belgilovchi xususiyatini ijodiy tafakkurda ko‘radi. Olim: “Faylasufning ijodi xuddi individuallikni yaratuvchi rassom ijodi kabi ilm-fanga yoki praktik jarayonlarga yo‘naltirilgan tafakkur sistemasi sanalib”, shunga binoan, “san’at sistemasi – bu ijoddir”[4], deb hisoblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijodiy tafakkurning sistemaliligi va tarixiyligini o‘rganish uning ijodiy protsessdagi tayanch metodologik xususiyatlaridan biridir. Umuman olganda, ijodiy tafakkurda ratsionallik va irratsionallik, mantiqiylik va intuitivlik munosabatlari borasidagi qarashlar xususida M.Botvinnik, V.Bikov, S.Povarin, E.Smirnov va shu kabi g‘arb faylasuflari ham o‘z fikr-mulohazalarini bildirganlar. CHunonchi, V.Bikov ruhiy holatning ijodiy tafakkurda ustivorligini alohida ta’kidlasa, E.Smirnov[8] esa tafakkur faolligini oshirishda ratsional bilimni tan oladi. Bizningcha, ijodiy tafakkur ruhiy holat bilan birga, ratsional bilimning o‘zaro mushtarakligida namoyon bo‘lishidir.

Mamlakatimizda ijodiy tafakkurning mantiqiy-gnoseologik jihatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Chunonchi, O.Fayzullayev tafakkur inersiyasi va uni bartaraf qilish yo‘llarini, M.Abdullayeva ilmiy ijodning ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liqligini, J.Tulenov dialektik tafakkur uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini, Z.Davronov ilmiy ijod metodologiyasi kabi qilingan ishlar diqqatga sazovordir. G.Rasulova reduksiyali tafakkur uslubini, E.Rasulev ijodiy tafakkur namoyon bo‘lishining shaxsiy darajasini, K.Tulenova va D.Turdiyevlar iqtisodiy tafakkurning o‘ziga xos tomonlarini tadqiq etganlar[8].

Prof. N.Shermuhammedova tafakkurning ilmiy shakllanish uslubini, A.Turashbekova va T.Sultanovalar ijodkor ziyolilar tafakkur uslubi, V.Xayrullayeva xilma-xil jarayonlarda tafakkur egiluvchanligining namoyon bo‘lishi, A.Azizqulov ilmiy ijodiyotda ratsionallik va noratsionallikning o‘zaro munosabati kabi masalalar bo‘yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakillari A.Oripov va E.Vohidovlar esa badiiy ijodda ijodiy tafakkurning o‘ziga xos namoyon bo‘lishini o‘z asarlari misolida tahlil etganlar[8: 46].

Muhokama va natija. Borliqni inson tomonidan, boshqacha aytganda, ijodiy tafakkur nuqtayi nazaridan o‘rganish barcha fanlarning muhim vazifasidir. Qolaversa, bu jarayonni o‘rganish uchun maxsus fan – gnoseologiya mavjud bo‘lib, u o‘ziga xos tadqiq muammolariga ega.

Gnoseologiya yunoncha gnosis – «bilish», logos – «ta’limot» so‘zlaridan olingan bo‘lib, bilish haqidagi ta’limot demakdir. Gnoseologiya, umuman, bilish nazariyasi, bilish falsafasi sanaladi. U insonning bilish tabiati va imkoniyatlari, bilimning voqelikka munosabatini o‘rganuvchi, uning haqiqiyligi va ishonchliligini aniqlash yo‘llari, usullari to‘g‘risidagi falsafiy fandir[7: 46].

Darhaqiqat, olam-odam tizimida dunyoni

anglash, subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlar dialektikasi, boshqacha aytganda, tilning gnoseologik va ontologik tabiatga ega ekanligi kabilarni tadqiq etish tilshunoslikning markaziy muammolaridan biri ekanligi isbotlanmoqda. A.Nurmonov tilning onto-gnoseologik tabiati va uning metodologik asosini quyidagicha izohlaydi: “Til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega murakkab fenomendir. Ontologik tabiatga ega murakkab tilga gnoseologik nuqtayi nazardan yondashilganda, birinchidan, insonning til orqali olamni bilishi, tilning obyektiv borliq uzvlarini nomlash (onomasiologik) vazifasi, ikkinchidan, tilning shu til egalarining olam haqidagi bilimlari to‘plami ekani (akkumulyativ vazifasi) yoritiladi”[8].

Olim bu haqida mulohaza yuritar ekan, yana quyidagi fikrlarni ham alohida ta’kidlaydi: “Tilning ontologik xususiyati deganda, uning o‘ziga xos ichki tuzilishiga ega obyektiv hodisa ekani tushuniladi. Tilning ontologik tabiati gnoseologiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki til haqidagi fan tilning ontologik tabiati haqidagi fandir. Shuning uchun falsafada ontologiya va gnoseologiyaning bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekani e’tirof etiladi.

Ontologiya borliq to‘g‘risidagi umumiy ta’limot, borliqning fundamental asoslarini, umumiy mohiyatini va mavjudlik kategoriyalarini o‘rganuvchi falsafaning bo‘limi sifatida gnoseologiya masalalari uchun asos, manba bo‘lib xizmat qiladi. Gnoseologiyaning barcha tushunchalari va tamoyillari o‘zining ontologik talqiniga, ontologik jihatiga ega. Demak, gnoseologiya va ontologiya falsafaning o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikki bo‘limidir. Ularning uzviy bog‘liqligi shundaki, gnoseologiya ontologik, ontologiya esa gnoseologik tabiatga ega” [7]. Ilmiy bilish tushunchasi faqat insonga xos bo‘lgan jarayon bo‘lib, u inson tomonidan jonli tabiatga ham, jonsiz tabiat – olamga ham birdek qo‘llaniladi. Ilmiy bilish bilim orqali ro‘yobga chiqadi.

Yaqin-yaqinlargacha tilshunoslik fani u yoki bu til tizimini ichki tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ya’ni uning substansional xususiyatlarini, semantik-funksional tomonlarini alohida-alohida tahlil va tadqiq qilib keldi. Bugungi kunda jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan nazariy tilshunoslik fani bunday metodologiyaga qoniqmaydi.

Prof. N.Shermuhamedovaning fikricha, fan metodologiyasi samarali bilish faoliyatining umumiy tamoyillarinigina belgilab berishga qodir, ammo u tadqiq qilinayotgan obyektni bilishning muayyan yo‘llarini belgilab bera olmaydi. Har bir obyekt tadqiqi alohida yondashuvni, maxsus usul va vositalar majmuasidan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli metodologiyani tahlil tamoyillari va metodlari tizimi haqidagi ta’limot sifatida ta’riflash ma’qulroq. Uning doirasida ilmiy izlanish va bilim olishning nazariy asosi, umumiy yondashuv tamoyillari belgilanadi.

Metodologiyaning muhim vazifalaridan biri bilim manbaini aniqlashdir. Ushbu masalaning yechimini falsafadan izlamoq darkor, zero, falsafiy nuqtayi nazardan har qanday bilim manbai obyektiv voqelik va uning inson ongidagi aksidir.

Xulosa. Borliqning inson ongidagi aksi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita («ko‘zgudek toza») bo‘lishi mumkin emas. Bu aks bilish subyektining obyektga munosabati ta’sirida bo‘ladi, ammo ushbu ta’sir doirasi inson imkoniyatlariga bog‘liq, ma’lum chegarada kechadi.

Gnoseologiyada hissiy bilish jarayonida yuzaga keladigan obraz va bilish obyekti o‘rtasidagi munosabat masalasiga alohida e’tibor qaratiladi: “Hissiy bilish shakllari to‘g‘risida tashqi dunyo obrazlari sifatida gapirilganda, «obraz» ga obyektga moslik xos emas, balki obyektga uning muvofiqligi xos ekanligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. «Obraz» – oynadagi nusxa emas, lekin «belgi» ham emas, balki narsaga xos in’ikosdir”[8].

Borliqning inson tomonidan idrok etilishi, bu idrok sezgi organlari yoki biror-bir asbob vositasida bo‘lishidan qat’iy nazar, doimo subyektivdir. Lekin bu bilan voqelik to‘g‘risida obyektiv ma’lumotga ega bo‘lish mumkin emas, biz bilayotganimiz voqelik bo‘lmasdan, faqatgina his-tuyg‘u, sezish natijasidir degan xulosaga kelish noto‘g‘ridir.

Voqelikni subyektiv bilish jarayoni tajriba nazoratidadir va ushbu jarayon natijasida biz voqelik haqidagi obyektiv bilimga, aniq ma’lumotga ega bo‘lamiz, obyektiv haqiqatni bilib olamiz. Obyektiv haqiqat dunyo haqidagi bilim mazmunidir va bu bilim subyekt bilan bog‘liq emas. Lekin ushbu bilimni to‘plash jarayoni bevosita subyekt faoliyati, uning dunyoqarashi va qanday vositalardan foydalanilayotganligiga bog‘liq. Ushbu faktorlarning barchasi ilmiy tadqiqot natijalarida o‘z aksini topadi va bizning voqelik haqidagi bilimimiz qay yo‘sinda shakllanishini belgilaydi. Shu sababli bilish faoliyatining har bir bosqichi obyektiv haqiqatga ma’lum darajada yaqinlashish va unga intilishning kuchayishiga imkon beradi.

Xullas, zamonaviy falsafa fani “shaxs” lingvistik atomining tilda ifodalanish xususiyatlarini aniq belgilab berish qudratiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Forobiy Abu Nasr.Fozil odamlar shahri. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.152-bet.
2. Ал-Хоразми Мухаммад ибн Муса. Математические трактаты. – Ташкент: Фан, 1983. – С.29.
3. Beruniy Abu Rayhon. Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 42-bet.
4. Шеллинг Ф.В. Философия искусства. – Москва: Наука,1996. – С.180.
5. Аквинский Фома. Философская сумма. – Москва: Наука, 1997.–758 с.

6.Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. 216-bet.
7. Shermuhammedova N.A. Gnoseologiya – bilish nazariyasi. –Toshkent:Universitet, 2008. 4-bet.;
8. Umidjon Yigitaliyev. O‘zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (Monografya). –Toshkent: “Lesson press”, 2023. 130-b.
9.Yigitaliyev U.S. Grammatik shakllar paradigmasi va unda “shaxs” lingvistik zarrasining ifodalanishi //. Qo‘qon DPI ILMIY XABARLAR jurnali 2(6)-2022. –Qo‘qon. 104-107-betlar.;
10.Yigitaliyev U. O‘zbek tilida “shaxs” lisoniy zarrasining semantik-sintaktik qurilmalarda ifodalanishi // ILM SARCHASHMALARI// –Urgench,2022. 7-son. 116-119-betlar
11. Yigitaliyev U. Bir bosh bo‘lakli gaplar semantikasida “shaxs” aktantining ifodalanishi (stilistik aspekt) O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI //-Oz. R FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti. –T.: 2022. 4-son. 93-98-betlar.
12. Umidjon Yigitaliyev. The transposition of the concept of "man" in the uzbek language in the semantics of verb tense forms. ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 423-431 423.
13. UmidjonYigitaliyev, Shohruhbek Umidjanov (2023). The Role Of The Concept "Man" In The Functional-Semantic And Associative-Verb Expression Of The Forms Of The Category Of Cases.Journal for Educators, Teachers and Trainers,Vol. 14(5). 18-22

Dilafruz RAHMATULLAYEVA,
Qo‘qon DPI dotsenti

O‘ZBEK TILIDAGI “ILM-MA’RIFAT” SEMEMALI LEKSEMALARNING SINTAKTIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya: maqolada “ilm-ma’rifat” sememali leksemalarning gapdagi sintaktik funksiyalari obligator va fakultativ valentliklari hamda badiiy matndagi o‘rni to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *valentlik, obligator, fakultativ, predikat, argument, subyekt valentligi, obyekt valentligi, belgi valentligi, o‘rin valentligi, payt valentligi.*

Аннотация: в статье рассматриваются обязательные и факультативные валентности лексем с символом «наука-просвещение» в предложении, а также их роль в художественном тексте.

Ключевые слова: *валентность, обязательный, факультативный, предикат, аргумент, валентность субъекта, валентность объекта, валентность знака, валентность места, валентность времени.*

Annotation : the article examines the obligatory and optional valences of lexemes with the sememe "science and education", their syntactic functions in speech and their place in the literary text.

Key words : *valence, obligatory, optional, predicate, argument, subjective valence, objective valence, attributive valence, local valence, temporal valence.*

O‘zbek tilidagi “ilm-ma’rifat” sememali lug‘aviy birliklarning semantik-struktur tahlilida valentlik munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, har qanday lisoniy birlikning valentligi orqali uning ma’lum sintaktik va semantik strukturasi to‘ldiriladi. Bu, ayniqsa, fe’llar doirasida keng kuzatiladi.

O‘zbek tilshunosligida valentlik, uning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari xususida bir qator monografik tadqiqotlar mavjud[2,3,4,7,8,9]. Professor M.Mirtojiyev valentlikka ta’rif berar ekan, uni so‘z ma’nosining mantiqiy uzvi sifatida baholaydi [5;4]. Olim mazkur risolasida valentlik tiplarini ko‘rsatar ekan, leksik-semantik valentlik, vositali semantik valentlik, shakl semantikasi valentligi, nutqiy-semantik valentlik singari tiplarini ajratadi. Xususan, leksik-semantik valentlik tarkibiga agens, obyekt, mazmun, adresat, o‘rin, qurol, sabab, vosita, holat valentliklarini; vositali semantik tipiga maqsad, sabab, miqdor valentligini; shakl semantikasi valentligi tipiga agens, payt, adresat, holat valentliklarini; nutqiy -semantik valentlik tiplariga vositali va sintaktik valentliklarni kiritadi.

Professor R.Rasulov o‘zining o‘zbek tilidagi holat fe’llarining obligator valentliklari[8], professor S.Muhamedova harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlari[7], Q.Hakimov frazeologizmlarning grammatik[10], Sh.Ganiyeva frazeologizmlarning semantik valentliklari[1] tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarida valentlik, fe’l va ot so‘z turkumi hamda frazeologik birliklarning tahlili batafsil yoritilgan bo‘lib, biz quyida shu va boshqa yuqorida keltirib o‘tilgan valentlikka doir monografik tadqiqotlarda aytilgan fikrlarga “ilm-ma’rifat” sememali lug‘aviy birliklar tahlili orqali ayrim fikr-mulohazalarimizni qo‘shishga intilamiz.

Tadqiqotimiz davomida o‘zbek tilidagi “ilm-ma’rifat” sememali lug‘aviy birliklarning valentligi masalasiga ikki xil asosda yondashdik:

1) mazkur leksik birliklarning predikat yoki uning argumenti vazifasida kelishiga asosan;

2) ularning faol va nofaol valentligi asosida.

Bizga ma’lumki, faol valentlik aksariyat hollarda fe’l turkumidagi harakat va holat anglatuvchi birliklarda

kuzatiladi. Shu bilan birga ba'zan nomlovchi birliklardan – ot, ot o'rnidagi olmoshlarda ham uchraydi.

"Ilm-ma'rifat" sememali leksemalar mutanosib holda fe'l yoki ot predikat vazifalarida kelishi, ana shu asosda ularning faol va nofaol, obligator va fakultativ valentliklari to'ldirilishi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "ilm-ma'rifat" sememali lug'aviy birliklar yordamida fe'llarning sub'yekt, obyekt, belgi, payt, miqdor valentliklari; otlarning belgi, miqdor, o'rin valentliklari to'ldirilishi kuzatiladi.

Masalan, O'sha paytdayoq shogirdi bor haqiqatni tag-tubigacha anglab yetgan edi gapida anglab yetmoq fe'l predikatining quyidagi valentliklari to'ldirilgan:

– subyekt valentligi: shogirdi anglab yetgan edi;
– obyekt valentligi: bor haqiqatni anglab yetgan edi;
– belgi valentligi: tag-tubigacha anglab yetgan edi;
– payt valentligi: o'sha paytdayoq anglab yetgan edi.

Bu gapdagi obyekt valentligini to'ldirayotgan bor haqiqatni birikmasi tarkibidagi bor leksemasi gapdagi haqiqatni so'zining belgi va miqdor (hammasi) valentliklariga ham ishora qilgan.

Shuningdek, buyuk alloma, mashhur shoir, taniqli yozuvchi, iste'dodli talaba birikmalarida "shaxs" semali leksemalarning belgi valentliklari; ilmiy daraja, akademik daraja, oliy ma'lumot, o'rta ma'lumot birikmalarida mavhum "predmet" semali leksemalarning belgi valentliklari; boshlang'ich maktab, o'rta maktab, oliy dargoh birikmalarida "ta'lim" va "joy" semali leksemalarning belgi valentliklari to'ldirilishi juda ko'p ko'zga tashlanadi.

Professor M.Mirtojiyev ko'rsatib o'tganidek: "O'timli fe'llar hamma vaqt obyekt valentligiga ega bo'lishi barobarida, namoyon bo'lgan aktanti tushum kelishigi bilan shakllanadi. Ayrim hollarda tushum kelishigi implisit berilishi ham mumkin" [5,19].

Masalan:

Biroq hanuzgacha qalam ko'tarib,
O'zicha kelmagan bu joyga o'zbek.
(A.Oripov, Tafakkur madhi)

Ushbu she'riy satrlarda qalam ko'tarmoq birikmasiga diqqat qilamiz. Qalam leksemasi ko'tarmoq harakat fe'lining obyekt valentligini to'ldirib, ya'ni ko'tarmoq fe'li hokim bo'lak sifatida qalam so'zini o'ziga ergashtirib kelgan. "Ilm-ma'rifat" sememali "narsa" semasiga ega bo'lgan qalam leksemasi ko'tarmoq so'zining valentligini to'ldirishga xizmat qilgan.

Fe'l valentliklari haqida gapirganda, fe'llarning o'timli-o'timsizlik holatini e'tiborga olish zarur. Quyidagi parchada ham shu holatni kuzatishimiz mumkin:

Bobolarning bobosi ham unga avloddir,
Ibtidoni bilmaydi u, bilmas intiho.
(A.Oripov, Xalq)

Shoir A.Oripovning "Xalq" she'ridan olingan misralarda bilmoq "ilm-ma'rifat" sememali harakat fe'lining bo'lishsiz, inkor shakli ishtirok etgan. Har ikki o'rinda ham o'timsiz fe'lning obyekt valentligi to'ldirilgan: ibtidoni bilmaydi; bilmas intiho.

Bularning o'rtasidagi farq shundaki, she'riy matn, vazn hamda qofiyaning talabi bilan, shuningdek, shoirning badiiy maqsadiga ko'ra birinchi o'rinda obyekt valentligini to'ldirishga xizmat qilayotgan bo'lak ibtidoni vositasiz to'ldiruvchi eksplisit(belgili) bo'lsa, ikkinchi o'rinda aynan shu vazifani bajarayotgan intiho vositasiz to'ldiruvchisi implisit(yashirin) holda berilgan.

"O'zbek tilidagi fe'llar semantikasi ham obyekt bildiruvchi so'z gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelmasligi uchun sabab bo'lishi ayrim o'rinlarda kuzatiladi. Ayniqsa, fe'llar kechim ifodalagani holda, uning obyekti ham kechimdan iborat bo'lsa, shunday obyektni bildiruvchi so'z vositasiz to'ldiruvchi vazifasida namoyon bo'lmasligi mumkin. Yana fe'llar nisbat shaklida qo'llansa ham, ulardan anglashilgan harakat-holat obyekti turli bo'laklar vazifasini bajarishga ko'chadi. Chunki fe'l nisbatlari sub'yekt va obyekt munosabatlari, ularning qanday gap bo'lagi vazifasida namoyon bo'lishiga qarab tasnif qilinadi" [6,140].

Biz masalaga shu nuqtai nazardan qaraganimizda, "ilm-ma'rifat" sememali lug'aviy birliklar nutqdagi sintagmatik voqelanishi asosida ma'lum vazifa bajaradi. Ularning sintaktik funksiyasi orqali faol yoki nofaol valentliklari, shuningdek, semantik farqlari namoyon bo'lishi mumkin. Bunga aniqlik kiritishda predikatning ifodalanishini hisobga olish zarur.

"Ilm-ma'rifat" sememali birliklar fe'l predikatlar yoki ularga bog'langan argumentlar funksiyasini bajaradi. Masalan:

Bugun senga
Faqatgina she'r bag'ishladim,
Kerak bo'lsa,
Jonni fido qilgim keladi.
(E.Vohidov, Men jilg'aman)

Ushbu parchada she'r bag'ishlamoq birikmasi qatnashgan bo'lib, she'r argumenti vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, bag'ishlamoq fe'lining obyekt valentligini implisit ifodalagan.

"Ilm-ma'rifat" sememali leksemalar predikatning payt valentligini to'ldiradi:

Muallim bo'lgansiz, bitta kostyumni
Rosa yigirma yil tepkilab kiygan.
Biror shogirdingiz besh olgan kuni
Qalbingiz Napoleon faxrini tuygan.
(A.Oripov, Qishloq ziyolilari)

Bu o'rinda muallim, shogird, besh olmoq tarzidagi lisoniy birliklar tahlil uchun ma'lum darajada asos bo'lib, keyingi misralar yordamida o'z fikrlarimizni izohlaymiz. Chunki bu yerda tuymoq fe'l predikatining obyekt valentligi ega vazifasidagi qalbingiz so'zi, to'ldiruvchi vazifasidagi Napoleon faxrini birikmasi orqali to'ldirilgan. Ayni vaqtda, payt holi vazifasidagi biror shogirdingiz besh olgan kuni birikmasi tuymoq fe'l predikatining payt valentligini to'ldirishga xizmat

qilgan.

Quyidagi parchada esa bir qator mazmuniy guruhlarga mansub “ilm-ma’rifat” sememali leksemalar ishtirok etgan:

Bugina emas, yozuvchi bu adiblar ijodi mohiyatini chuqur anglab yetgan, ularning ayrim asarlari xususida teran fikr-mulohazalar bildirgan (XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, Abdulla Qodiriy).

Ushbu gapda “shaxs” semali yozuvchi, adib; “narsa” semali ijod, asar, mohiyat, fikr, mulohaza; “harakat” semali anglab yetmoq, bildirmoq; “belgi” markaziy semali, “ilm-ma’rifat” chegara semasiga ega bo‘lgan chuqur, teran kabi qator lug‘aviy birliklar ishtirok etgan.

Ko‘rinadiki, biz tahlil etayotgan semantik guruhga tegishli lisoniy birliklar predikat (anglab yetmoq, bildirmoq) ham, uning argumentlari (yozuvchi, adib; ijod, asar, mohiyat, fikr, mulohaza; chuqur, teran) ham bo‘lib kelgan. Ushbu gapda anglab yetmoq predikatining subyekt valentligi ega vazifasidagi yozuvchi so‘zi orqali; obyekt valentligi to‘ldiruvchi vazifasidagi mohiyatini so‘zi orqali; belgi valentligi hol vazifasidagi chuqur leksemasi orqali to‘ldirilgan. Shu bilan birga, bildirmoq predikatining subyekt valentligi yozuvchi so‘zi vositasida; obyekt valentligi fikr-mulohazalar birikmasi vositasida to‘ldirilgan.

Ikkinchi tomondan esa, fikr-mulohazalar birikmasining belgi valentligi teran leksemasi orqali to‘ldirilmoqda. Demak, “ilm-ma’rifat” sememali leksemalarning ot valentligi haqida ham bemalol fikr yuritishimiz mumkin bo‘ladi.

Badiiy uslub, ayniqsa, she’riy matnlarda lisoniy birliklarning konnotativ ma’no ifodalari juda ko‘p uchraydi. Masalan:

Biling:

Komil, fozil bashar yulduzlariga
Sharqning o‘zi ona bo‘lgan hamisha.
(Zulfiya, Xotiram siniqlari)

Bu parchada ham bashar yulduzlari tasviriy ifodasi qatnashgan bo‘lib, bu ifoda Sharqning buyuk allomalari, fozil kishilariga ishora qilgan. Demak, “shaxs” semali bashar yulduzlari ifodasining belgi valentligi komil, fozil leksemalari orqali to‘ldirilgan.

Nasriy matnlarda:

Ulug‘ daholarimizni shunchaki tilga olmaydi, yorqin, ixcham misralarda ular buyukligini ta’riflaydi (XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, Zulfiya).

Bu gapda daho, misra ot leksemalarining belgi valentligi ulug‘, yorqin, ixcham so‘zlari orqali to‘ldirilgan. Bu leksemalarning hammasi gapda aniqlovchi vazifasini bajargan.

Ey, men bilgan,
Bilmagan dunyo!
Zarradan to koinot qadar,
Ham ayon, ham tilsimot qadar
Fikrat bovar qilmagan dunyo!
(E.Vohidov, Ey. Men bilgan, bilmagan dunyo)

Shoir E.Vohidov qalamiga mansub bu parchada bilgan, bilmagan, fikrat singari “ilm-ma’rifat” sememali so‘zlar qatnashgan. She’riy matn yoyiq shakldagi murojaat (undalma) bo‘lib, dunyo leksemasining belgi valentliklari men bilgan, bilmagan(dunyo); zarradan to koinot qadar, ham ayon, ham tilsimot qadar, fikrat bovar qilmagan(dunyo) yoyiq birikmalar orqali to‘ldirilgan. Demak, birikmalar tarkibidagi tegishli so‘zlar bizning tahlilimizga asos bo‘lgan. Shoirning mahorati hamda badiiy tasvirni kuchaytirish maqsadida aql bovar qilmagan iborasi fikrat bovar qilmagan tarzida mohirona o‘zgartirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘aniyeva Sh.A. O‘zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish): Filol.fan. bo‘yicha falsafa dokt.. diss. avtoref. – Farg‘ona, 2017.
2. Karimjonova V.A. O‘zbek tilida o‘rin kelishikli birikmalar semantikasi: Filol.fanl.nomz.... diss.avtoref. – Toshkent, 1994.
3. Kuchkartayev I.K. Semantika glagolov rechi v uzbekskom yazыke (komponentnыy i valentnыy analiz): Avtoref.diss.... d-ra filol.nauk. – Tashkent, 1978.
4. Mirtojiyev M.M., Muhamedova S.X. O‘zbek tilida so‘z valentliklari. – Toshkent, 2011.
5. Mirtojiyev M.M. O‘zbek tilidagi fe’l valentliklari. – Toshkent: Universitet, 2007.
6. Mirtojiyev M. M. Gap bo‘laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. – Toshkent: Universitet, 2008.
7. Muhamedova S.X. O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol.fanl.dokt.... diss.avtoref. – Toshkent, 2007;
8. Rasulov R. O‘zbek tilida holat fe’llari va ularning obligator valentliklari. – Toshkent: Fan, 1989.
9. Sharipova O‘. O‘zbek tilidagi yumush fe’llarining ma’no valentliklari: Filol.fanl.nomz.... diss.avtoref. – Toshkent, 1996.
10. Hakimov Q. M. O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanliklari: Filol.fanl. nomz.... diss.avtoref. – Toshkent, 1994.

Marhabo UMURZOQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
umurzakova.markhabo@mail.ru

O'XSHATISHLAR LISONIY SHAXS MILLIY-MADANIY MANSUBLIGINI IFODALOVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya: maqolada o'xshatishlarning lisoniy shaxs milliy-madaniy mansubligini ifodalashdagi o'rni masalasiga e'tibor qaratilgan. O'xshatishlarning lingvokulturologik jihatlari, lisoniy shaxs voqelanishidagi ahamiyati yoritilgan. Turg'un hamda xususiy-muallif o'xshatishlarining badiiy matndagi o'rni, xususan, lisoniy shaxs milliy mansubligini ifodalashi tahlillar asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, lingvomadaniyat, o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, madaniyat, til.*

Аннотация: в статье акцентируется внимание на роли сравнений в выражении национально-культурной идентичности языковой личности. Выделены лингвистические аспекты сравнений и их значение в реализации языковой личности. На основе анализа выявляется роль устойчивых и частно-авторских сравнений в художественном тексте, в частности выражения национальной принадлежности языковой личности.

Ключевые слова: *языковая личность, лингвокультурология, сравнения, устойчивые сравнения, культура, язык.*

Annotation: the article focuses on the role of comparisons in the expression of the national-cultural identity of a linguistic personality. The linguistic aspects of comparisons and their significance in the realization of linguistic personality are highlighted. Based on the analysis, the role of stable and privately-authored comparisons in a literary text, in particular the expression of the nationality of a linguistic personality, is revealed.

Key words: *linguistic personality, linguoculturology, comparisons, stable comparisons, culture, language*

Milliy til muayyan bir madaniyatning tildagi subyektiv talqini, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarning ifodachisidir. Til cheksiz imkoniyatlar yig'indisi, murakkab va mukammal hodisa sifatida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Uning tilsimotga boyligi, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, bilimlarni avloddan avlodga yetkazuvchi xazina ekanligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Professor N. Mahmudov tilga "xalqning tamomila o'ziga xos sa'jiyasi, milliy mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, ruhiyati, tafakkur tarzi va taxayyul tamoyili, idrok intizomi kabi favqulodda muhim xususiyatlari bevosita ana shu xilqatda rost tajassumini topadi" [2:167], deb baho berganlar.

"O'xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslash" [3:102] bo'lib, badiiylikni ta'minlashda, voqelikni qiyos, o'xshatish asosida tasvirlashda, shuningdek, lisoniy shaxsning milliy-madaniy mansubligini ifodalashda qadimiy tasvir vositalaridan biri o'xshatishlarning o'rni beqiyos. O'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning semantik-struktur, lingvomadaniy xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Badiiy matnda lisoniy shaxs nutqida qo'llanilgan o'xshatishlarini tadqiq qilish mazkur lisoniy shaxs mansub bo'lgan madaniyat haqida tasavvur beradi. D.Xudoyberganova o'xshatish va metaforalarning aynan shu jihatlariga to'xtalib, quyidagicha fikr bildirgan edi. "Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi" [5:46]. Olamni idrok qilish har bir shaxsda o'ziga xos yo'sinda kechadi, bu kognitiv jarayon natijasi esa nutqda har bir til egasining lisoniy kompetensiyasiga bog'liq tarzda aks etadi.

Ma'lumki, o'xshatishda voqelik, narsa-hodisa, predmet yoki shaxs muayyan bir narsaga o'xshatiladi, ya'ni shu o'xshatilayotgan obyektning obrazli qiyofasi shakllantiriladi. Turg'un o'xshatishlardagi obrazlar esa "madaniyat olamiga olib kiruvchi ochqich bo'lib xizmat qiladi. Obrazlar o'xshatishlar semantikasiga joylangan madaniy axborotni, millatning madaniy me'yorlarini, uning mentalitetidagi ustuvor qadriyatlarni, umuman, olam haqidagi tasavvurlarni tushunish imkonini beradi"[4:63]. Badiiy asarlarda esa turg'un o'xshatishlar bilan birga yozuvchining ijodkorlik qobiliyati, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli bilan vujudga kelgan o'xshatishlar ham ko'p

qo‘llanilib, bu muallif yoki personaj lisoniy shaxsini voqelantirishda muhim omil sanaladi. F. Usmanov lisoniy shaxs, qadriyat va baho tushunchalari o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratgan. “Inson uchun fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan qiyoslash amaliyotining hosilasi bo‘lmish o‘xshatishlar yordamida o‘zining ko‘p variantli nominatsiyasiga ega tushunchalarni aniqlash millat hayotidagi qadriyatli dominantalarni aniqlash demakdir”, deb hisoblaydi [4:100].

Badiiy matnda o‘xshatishlar lisoniy shaxsning individual xususiyatlarini, shaxs sifatida boshqalardan farqli jihatlarini, voqelikka, borliqqa nisbatan subyektiv bahosini ifodalashda muhim vosita sanaladi. O‘xshatishlar vositasida lisoniy shaxsning ijtimoiy mavqeyi, diniy, milliy mansubligi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Ko‘prikning shaharga tushish tarafida o‘pirilib tushgan ko‘k gumbazlar sabzisi qolmagan, yanagi erta qishgacha keraksiz o‘raday og‘zini ochib turadi (B.Qobul). Ko‘prikdan qo‘rqqanidan yig‘lashni ham unutgan go‘dakdek bo‘lib tushdim (B.Qobul).

Keltirilgan o‘xshatishlar 7-8 yoshlardagi bola nutqida qo‘llanilgan bo‘lib, bola borliqdagi narsa-hodisalarga bolalarcha nigoh bilan baho bergan. Sabzi ko‘miladigan o‘ra va binolarning nurab, koshinlari to‘kilgan, ma’lum qismi ochilib qolgan gumbazlarni qishloqda o‘sgan, qish bo‘yi sabzi saqlanadigan o‘raning bo‘shagan holatini ko‘rgan bolagina qiyoslay oladi, bir-biriga o‘xshata oladi. Bu bola lisoniy shaxsini berishda muhim vosita sifatida qo‘l kelgan. Ikkinchi o‘xshatishda esa bevosita baho munosabati ham ifodalangan bo‘lib, o‘zining holatini qattiq qo‘rquv oqibatida yig‘lashni unutgan go‘dak holatiga o‘xshatgan.

Badiiy matnda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsini berishda o‘xshatishlar muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Quyidagi misolda qo‘llanilgan o‘xshatishli qurilma bolaning yoshiga ishora qilish bilan birga yashash joyi haqida ham axborot tashiydi. Opam qo‘limdan siltab ko‘p savol bermasligimni ta’kidlancha, labini burib, yuzini qishloqning eng xunuk kampiri Qoramomoning betiga o‘xshatib, achchig‘i, jahli chiqayotganiligini bildiradi (B.Qobul). Bu gapdan so‘zlovchining yosh bolaligiga ishora qiluvchi birlik sifatida opam qo‘limdan siltab, ko‘p savol bermasligimni ta’kidlagancha gaplarini olish mumkin. Bunda so‘zlovchi yosh bolaligi opasi qo‘lidan ushlaganligi, ko‘p savol berayotganligi bilan anglanadi. Qishloqning eng xunuk kampiri sifatlovchi-aniqlovchisi esa yashash hududiga ishora qiladi. Quyidagi misolda ham qo‘llanilgan o‘shatish lisoniy shaxsning yashash hududiga ishora qiladi. Kalish oyoq kiyim sifatida qishloq hududlarida kiyiladi, uning og‘zining ochilib qolganligi eskiligiga ishora qilish bilan birga o‘xshatilayotgan subyektga nisbatan baho munosabatini ham ifodalagan. Endi gaz suv ichib bo‘lgandimki, budka orqasidan og‘zi ko‘na kalishday tarvaqayib o‘zimizning juhud ko‘rindi (B.Qobul).

Inson tabiati xilma-xil bo‘lgani kabi ularning voqelikka munosabati ham xilma-xildir. O‘xshatishlar inson ruhiyatini, shaxs sifatidagi xarakter-xususiyatlarini aks ettirishda, ma’naviy-axloqiy jihatlarini ko‘rsatishda muhim vosita sanaladi. Lisoniy shaxsning yuqorida sanalgan xususiyatlarini aks ettirishi bevosita nutqida namoyon bo‘ladi. Quyidagi misolda qo‘llanilgan xususiy-muallif o‘xshatishi ham muallif-hikoyachi nutqining o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qilgan. Ko‘ylaklar jiqqa ho‘l bo‘lmagan vaqtlar beqiliq xushtorday o‘zicha qizlarning bir g‘uchchasiga tegib, bir quymichni quchib yurgandi (B.Qobul).

Badiiy asarda qahramon yoki muallif nutqida qo‘llanilgan o‘xshatishlar ularning olam haqidagi tasavvurini, atrofidagi voqelikka munosabatini ifodalash bilan birga madaniy-milliy mansublik haqidagi axborotlarni ham tashiydi. O‘zbeklarda qoshining qoraligi, yoysimonligi go‘zallik timsoli bo‘lib, qoshning qoraligi, shaklini ifodalash uchun zulukdek, qunduzdek, popukdek (ko‘p hollarda ko‘z bilan juft holatda), sichqonning dumidek (ingichka), qalamdek, qaldirg‘och qanotidek, kamalakday, kamondek, yoydek kabi o‘xshatishlar qo‘llaniladi. Zulukday o‘xshatishi qora, tim qora rangdagi har qanday predmet, jonzotga nisbatan ishlatilib, o‘zbek tilida tashqi o‘xshashlik (belgi) hamda ichki o‘xshashlik (xususiyat) ifodalash uchun qo‘llaniladi. Belgi asosida o‘xshatilganda zulukday o‘xshatishi qora rangdagi ot, mashinaga nisbatan zulukday ot, zulukday qop-qora mashina, zulukday osilgan mo‘ylov tarzida, xususiyat ifodalaganda zulukdek yopishib olmoq, zulukdek qonini so‘rmoq shaklida qo‘llanilishi mumkin. Quyidagi misolda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsining o‘zbek millatiga mansubligini uning nutqida qo‘llanilgan zulukday o‘xshatishi ta’minlagan … qoshiga tig‘ tegmagan qizlarning oldiga yigitning bo‘zi, bo‘risi yaqinlashganda qop-qora qoshlarning qon hidini sezgan zulukday qo‘zg‘alishi bir qiyqiriq (B.Qobil).

“O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da ari uyasi(ini)dek o‘xshatishining uch ma’nosi berilgan. Bu o‘xshatish g‘uvullagan ovoz chiqarmoq, g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron solmoq; tasavvurda g‘uvullagan kabi ovozni tuymoq, ya’ni inson miyasiga nisbatan; to‘p, to‘da holida tartibsiz va tig‘iz harakat qilmoq kabi ma’nolarni ifodalaydi [1:29]. Quyidagi misolda ari inidek o‘xshatishi buzilgan sifatlovchisi bilan birga kelib, voqelikni bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qilgan hamda so‘zlovchining salbiy munosabatini

ifodalagan. Bu o‘rinda muallif-hikoyachi lisoniy shaxsining milliy-madaniy mansubligi keyingi gapda keltirilgan chilladagi kuyovlar birikmasi bilan yanada oydinlashgan. Ma’lumki, to‘ydan keyin, yangi chaqaloq tug‘ilganda qirq kun chilla saqlash an’anasi o‘zbeklarga xos bo‘lib, boshqa millat vakillaridan ajralib turuvchi xususiyat sanaladi. Bekoriga ular turadigan shiypon oldi buzilgan ari inidek g‘uj bo‘lmaydi-yov. Bo‘z yigitlar-ku mayli, chilladagi kuyovlarga balo bormi? Oxiri yaxshilikka bo‘lsin (B.Qobil)

O‘zbek tilida murda leksemasi ishtirok etgan o‘xshatishlar ko‘p emas. Murdadek o‘xshatishi jismoniy harakatsiz, qotib yotish hamda rangning odatdagi holatdan oqroq darajaga kirishi bilan bog‘liq o‘rinlarda qo‘llaniladi. Quyidagi misolda qo‘llanilgan o‘xshatish xususiy-muallif o‘xshatishlaridan biri bo‘lib, yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan ayol lisoniy shaxsi nutqida qo‘llanilgan. Millatning dunyoqarashi, ongi haqida tasavvur paydo qilishda turg‘un o‘xshatishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, ijodkorning elita lisoniy shaxs sifatida namoyon bo‘lishida xususiy-muallif o‘xshatishlarining o‘rni katta. Inson o‘z his-tuyg‘ulari bilan idrok qilinadigan hamda aqliy faoliyati natijasi bo‘lgan hamma narsa, xususan, dunyoning umumiy manzarasidan tortib, voqelikdagi mavhumlashtirilgan individual belgilar va xususiyatlargacha bizning ongimizda assotsiativ tarzda birlashtirilishi mumkin. Milliy nigoh bu shunchaki olamni ko‘rish emas, asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, an’analar ta’sirida dunyoni o‘zicha ko‘rish, uni o‘zicha baholashdir. Quyidagi misolda yaxshi yuvilmagan kir yaxshi yuvilmagan mayitga o‘xshatilgan. Yuvilganda oqarmagan kirning yuvilib ko‘mishga tayyorlangan mayit o‘rtasidagi o‘xshashlikni topish, ikki bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalarni assotsiativ tarzda birlashtirish uchun hayotiy tajriba, amaliyot lozim. Yozuvchi hayotiy tajribaga ega ayol lisoniy shaxsni voqelantirishda mana shunday ohorli, original o‘xshatishdan foydalangan. Yuvgan kirim yaxshi oqarsin desang, uch qayta yuv. Erinma. Uch suv ko‘rmagan kir yaxshi yuvilmagan mayitday yelkasi tirishib yotadi, hidiyam o‘ziga yoqmay (B.Qobul). Bu o‘rinda lisoniy shaxsining voqelanishida buyruq gap hamda alohida gap sifatida shakllantirilgan erinma fe’li ham alohida ahamiyatga ega. Yuvilgan kirning tozaligi va mayitning yuvilishi bilan bog‘liqlik asosidagi o‘xshatish milliy-madaniy mansublik, aniqrog‘i, diniy-e’tiqodiy mansublik haqida tasavvur beradi.

B.Qobulning “Bog‘dagul” asarida qo‘llanilgan o‘xshatishlar lisoniy shaxsning jinsi, yoshiga ishora qilish bilan birga hududiy mansubligini ham aniqlashda yordam beradi. O‘zbek lingvomadaniyatida ayol, qizlarning yuzi olmaga o‘xshatiladi. Bunda olmaning qizilligi, tarangligi muhim belgi sanaladi. Quyidagi misolda keltirilgan olmadek o‘xshatishi Baxmalsoyni bir sovuq ko‘rgan sifatlovchisi bilan kengayib, lisoniy shaxsning hududiy jihatdan mansubligini ifodalashda qo‘l kelgan. Bog‘dagul ko‘chaga chiqdi degandan Jarko‘chaning ikki yoqasi tomoshaga chiqqan bo‘y qizlarga, yoqqan yigitini otini eshitsayam beti Baxmalsoyni bir sovuq ko‘rgan olmasiday qizarib ketadigan bo‘ysiralarga, burnidan tatog‘i oqqan bolalarga, bir qo‘lida moynon, bir qo‘lida so‘rg‘ichni mahkam ushlagan ishtonsiz, Mardonchasiga aytganda ko‘tyalang churvaqalarga to‘lib ketadi. (B.Qobul)

O‘xshatishlar dunyoni aks ettirishning eng qadimiy, shu bilan birga navqiron usullaridan biri bo‘lib, unda muayyan xalqning tafakkur tarzi, olam haqidagi tasavvurlari aks etgan bo‘ladi. O‘xshatishlar badiiy asarda lisoniy shaxsning muayyan millatga, madaniyatga mansubligini ko‘rsatuvchi, uning individualligini ta’minlovchi muhim vositadir. Lisoniy shaxs nutqida o‘xshatishlarning ko‘p qo‘llanilishi o‘zi mansub madaniyatga oid bilimlardan xabardorlik darajasi haqida ham axborot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
2. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z. 2017. – 176 б.
3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. 246-b.
4.Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.
5. Худойберганова Д. Ўзбек тилида бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.
6. Qobul B. Bog‘dagul. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/bahodir-qobul/bahodir-qobul-bogdagul-hikoya/

Farida SAIDOVA,
Renessans ta'lim universiteti v.b. dotsenti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
saidovafarida95@gmail.com

UMUMIY IZOHLI LUG'ATLARDA SINONIM SO'ZLARNI IZOHLASHGA GRADUONIMIK YONDASHUV

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida sinonim so'zlarni izohlashga darajali yondashuv xususida fikr yuritiladi. Sinonim leksemalarning umumiy izohlarini tiklashda ularning darajalanish xususiyatini ham e'tiborga olish va shu orqali graduonimik munosabatning sinonimiya tabiati bilan uyg'unligi ochib berish maqolaning asosiy masalasi sifatida qo'yildi. Muammoga o'ziga xos misollar orqali yechim izlangan.

Kalit so'zlar: *sinonim, darajalanish, lug'at, izoh, semantik tavsif, shartli qisqartmalar.*

Аннотация: в данной статье рассматривается уровневый подход к толкованию синонимов в общетолковых словарях узбекского языка. Основной задачей статьи было восстановление общих объяснений синонимических лексем с учетом их градационной природы и тем самым выявление совместимости градуонимических отношений с природой синонимии. Решение проблемы искали на конкретных примерах.

Ключевые слова: *синоним, классификация, словарь, аннотация, смысловое описание, условные сокращения.*

Annotation: this article discusses the level approach to the interpretation of synonyms in general explanatory dictionaries of the Uzbek language. In restoring the general explanations of synonymous lexemes, taking into account their gradational nature and thereby revealing the compatibility of the graduonymic relationship with the nature of synonymy was put as the main issue of the article. A solution to the problem was sought through specific examples.

Key words: *synonym, classification, dictionary, annotation, semantic description, conditional abbreviations.*

Tildagi o'zgarish (so'zning eskirishi / yangi so'z paydo bo'lishi) davr talabi va boshqa omillar bilan bog'liq. Tilshunoslik taraqqiyoti ham shunday. Dunyo tilshunosligida bo'layotgan o'zgarishning ko'pida inson va til munosabati aks etadi. Tilning insonga, insonning tilga ta'siri tilshunoslikdagi chayir qoidalarni o'zgartirib yubordi. U inson bilan chuqurroq bog'landi (albatta, biz nazarda tutgan inson tilshunos emas). Hozirgi kunda aksar tadqiqot amaliy, ya'ni tilning inson uchun ahamiyati va samaradorligi fonida olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida ham "nazariyadan amaliyotga", "lisoniy imkoniyat – shaxs – nutq" tamoyili asosida ish ko'radigan amaliy filologiya oyoqqa turmoqda .

Lug'atlar har bir tilning so'z boyligi, imkoniyatlari doirasini belgilab beruvchi milliy manba hisoblanadi. Lug'atlar yillar o'tgani sari eskiradi va yangilanadi. Lug'at tuzish, lug'at maqolalari uchun izohlar va misollarni tanlash kabi masalalar o'zbek lug'atchilik amaliyoti uchun muhim va dolzarb. Globallashuv, internet asrida, tabiiyki, turli yangi lug'atlariga ehtiyoj tug'iladi va uning natijasi o'laroq zamonaviy leksikografiyaning yutuqlaridan biri korpus lug'atlarining yaratilayotgani bo'ldi. Ammo korpusga kiritilayotgan so'zlar, mavjud imkoniyatlar asosida joylanadi. O'zbek milliy korpusini mukammal darajaga olib chiqish uchun, millliy lug'atchilik an'analariga oydinlik kiritish lozim.

O'zbek lug'atchiligi tarixida XX asr alohida o'rin egallaydi. Chunki bu davrda turli maqsadlar ko'zda tutilgan sohaga oid terminlar lug'atlari, imlo lug'ati, tarjima lug'atlar, izohli lug'at, xususiy filologik lug'atlar yaratildi va bu lug'atlardan haligacha foydalanib kelinmoqda.

So'zlararo leksik-semantik munosabatlarning an'anaviy turlaridan biri sinonimiya hodisasining zamonaviy leksik-semantik munosabatlardan giponimiya va graduonimiya bilan o'xshash tomonlari mavjud. Jumladan, leksik-semantik qatorning mavjudligi, yetakchi so'zning o'rni aniq sezilib turishi hamda qatorda mavjud leksemalarning ma'noviy birbiriga yaqinlik xususiyatlari bu uchta munosabatning birlashtiruvchi belgilari hisoblanadi. Ammo giponimiya, graduonimiya hodisalari sinonimiyadan farqli ravishda zamonaviy tilshunoslikda paydo bo'ldi. Tilshunoslikda graduonimiya so'zlararo ma'noviy munosabatlarning alohida bir ko'rinishi sifatida ajratilgunga qadar, belgini darajalab ifodalovchi so'zlar sirasi sinonimlar doirasida o'rganilar edi .

Graduonimiya hodisasining ahamiyati, mazmunmohiyati sinonimlarga yaqin turadi. Shunga qaramasdan graduonimiya sinonimiyaning, sinonimiya graduonimiyaning tarkibiy qismlari orasidan joy oladi. Ideografik sinonimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri leksema semalarining ijobiylik va salbiylik bo'yog'iga ko'ra darajaviy o'sishi hisoblanadi. O'zbek tilining sinonimlar lug'atida ham, rus tilining sinonimlar lug'atida ham ma'nosi darajalanuvchi so'zlar ko'p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Darajalanish hodisasi maxsus ajratilmagach, shu turkum so'zlar sinonimik uyalarga sochib yuborilgan. Chunki sinonimlar ma'nolari bir-biriga mumkin qadar yaqin bo'lgan so'zlarni o'z ichiga oladi .

Sinonimiya va graduonimiya orasidagi asosiy farqni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: sinonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasining ayni bir denotatni, bir voqelikni turlicha ifodalab, atab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlar bilan bog‘langan so‘zlar paradigmasi a’zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Bir qarashda sinonimiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o‘xshaydi- denotatlar bir xil bo‘lsa –sinonimiya, denotatlar har xil bo‘lsa-yu, bu denotatlar o‘zaro sifat belgilarining miqdori har xil bo‘lsa – graduonimiya . Darajalanish borliqdagi har bir hodisada namoyon bo‘ladi.

O‘TILda sinonimlarning talqini xususida yuqoridagi qismlarda atroflicha so‘z yuritilgan edi. O‘zaro ma’nodosh so‘zlarning berilishida darajaviy yondashuvga ba’zi misollar berilgan, ammo sinonimlarga xuddi shu holatda yondashuv kuzatilmagan. O‘TILda shunday izoh beriladi: … asosiy so‘zning ma’nosiga berilgan izoh havola etilgan so‘zning ma’nosiga tegishli ekani, ikkinchidan (uslubiy belgi bilan), havola etilayotgan so‘zning o‘ziga xos xususiyati qayd etiladi. Bu bilan izohning mukammalligi ta’minlanadi. Ana shunday imkoniyatlar bo‘lmagan taqdirda, ma’nodosh so‘zlarning har biriga (uning ma’nosiga) izoh berish talab etiladi. Mas., yaxshi, durust, soz so‘zlari o‘zaro sinonimlardir. Ular belgining darajasi nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanadi. Bu farqni biron belgi bilan emas, o‘ziga xos izoh bilan berish mumkin. Misol:

YAXSHI 1 Ijobiy belgi-xususiyatli…

DURUST Biroz yaxshi, yomon emas…

SOZ 1 Juda yaxshi …

Lug‘at kirish qismidagi ushbu ta’rif O‘TILning ichki lug‘at maqolalarida uchramaydi. Mualliflari o‘zaro ma’nodosh so‘zlarning darajalanish imkoniyatini inobatga olgan holda xuddi shu shaklda (yuqoridagi misol) berishni taklif qiladi. Leksik sinonimlarning izohlarida ham ayrim darajaviy ishoralar mavjud. Masalan, inoq-ahil-qadrdon sinonimik qatorining O‘TILdagi izohlarida quyidagilar aniqlandi.

1. **INOQ** 1 O‘zaro do‘stona munosabatda; ahil.
2. **AHIL** [a. – yaqin, inoq] O‘zaro juda totuv munosabatli, inoq-ittifoq.
3. **QADRDON** [a. + f.–qadrini biluvchi, baho beruvchi; yaxshilikni biluvchi] 1 O‘zaro qadr-e’tiborli, bir-birini juda qadrlaydigan.

Inoq so‘zining izohida hech qanday ishora mavjud emas, biroq qolgan ikkita so‘zning izohida juda yordamchi so‘zi ishtirok etgan. Juda so‘zi inoqqa nisbatan ahil va qadrdon so‘zlaridagi belgining kuchli darajada ekanligiga ishora qilmoqda.

Istalgan lug‘aviy paradigma kabi graduonimik lug‘aviy paradigma ham ochiqdir. Mavjud qatordagi birlashadigan so‘zlar miqdori har bir shaxs uchun, nisbatan xususiy bo‘lib, shaxsning til bilimi, kasb-kori, ijtimoiy faoliyati bilan bog‘liq .

Demak, izohlarda aynan darajalanishga doir belgilar bo‘lmasa-da, ishoralarning mavjudligi haqiqat. So‘zlarning izohi darajaviy o‘suvchanlik yoki kamayuvchanlik asosida keltirilsa, quyidagi qurilmalardan foydalanish ma’qul:

- -roq qiyoslash qo‘shimchasi;
- Kichik, katta so‘zlari;
- …ga qaraganda, …ga nisbatan, …ga ko‘ra kabi qurilmalar;
- -cha kichraytirish qo‘shimchasi;
- -gina kichraytirish-erkalash qo‘shimchasi;
- juda yordamchi so‘zi.

Ushbu qurilmalardan foydalangan holda ot so‘z turkum doirasida sinonimik qator izohi namuna sifatida qayta tiklandi:

Atama – termin – istiloh ishlatilish doirasining kamligiga ko‘ra ko‘ra darajaviy o‘sib borish qatori.

ATAMA 1 ayn. termin.
2 Umuman, nom.

TERMIN [lot. terminus – chek, chegara] Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama.

ISTILOH [a. – odatdagi so‘z qo‘llash; atama, termin] esk. kt. Termin, atama .

Yuqoridagi izohlar O‘TILdan olindi va ayon bo‘lganidek ushbu so‘zlar izohida ishlatilish doirasining kamligini anglatuvchi ishoraviy belgi mavjud. Istiloh so‘zining izohida esk. kt. qisqartmasidan foydalanilgan va o‘z-o‘zidan bu so‘zning qo‘llanilish doirasini aniq ko‘rstaib turibdi.

Bundan tashqari O‘TILda sinonimlarni izohlashda foydalaniladigan

– kt. – kitobiy so‘z, ibora shartli qisqartmasi

– s.t. – so‘zlashuv tilida (og‘zaki nutqda) qo‘llanadigan so‘z, ibora shartli qisqartmasi

– shv. – shevaga oid so‘z, ibora shartli qisqartmasi

– esk. – eskirgan so‘z, ibora shartli qisqartmalardan foydalanilgan va bu shartli belgilar so‘zlararo darajalanish hodisasini qisman bo‘lsa-da izohlab bera oladi. Qisman deyilayotganining asl sababi, izohlar sinonimlarga yondashilgan holatda tuzilgan. Sof darajalana oluvchi sinonimlarning darajalanish imkoniyati nazarda tutilmagan. Shuning uchun izohlarda ham mavjud darajalanish xususiyatiga ega bo‘lgan sinonimlarning shu tomoni ham yoritilishi maqsadga muvofiq.

1. **ATAMA** 1 Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan, terminga nisbatan kengroq qo‘llanuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi.
2. **TERMIN** [lot. terminus – chek, chegara] Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan

bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama.

3. **ISTILOH** [a. – odatdagi so‘z qo‘llash; atama, termin] esk. kt. Termin, atamalarning ma’lum doirada, ma’lum shaxslar tomonidangina qo‘llanishi.

Ushbu izohlarni tiklashda –ga nisbatan qurilmasidan hamda -gina kichraytirish qo‘shimchasidan foydalanildi.

Sinonimik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonimik paradigma so‘zlarining umumiy denotatga (atalmishga) ega bo‘lib, o‘z paradigmasi ichida asosan uslubiy bo‘yoqlar, qo‘llanish doirasi bilan farqlansa, graduonimik paradigmadagi so‘zlar turli denotatlarni atab keladi, lekin bu denotatlar orasida farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlaridadir. Graduonimik lug‘aviy paradigma so‘zlari atab, nomlab kelgan denotatlar orasidagi sifat farqlari miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlariga aylanishi oqibatidir .

O‘TIL mualliflari izohlar takroridan qochish uchun sinonimlarga havola berishni lug‘atga kiritishgan edi. Ammo lug‘at yaratilgan paytda so‘zlararo leksik-semantik munosabatlarning faqat an’anaviy turlari aniqlangan, zamonaviy turlari endi dunyo yuzini ko‘rayotgan edi. Shu sababdan ba’zi izohlarda darajaviy yondashish alomatlari uchraydi, ba;zilarida uchramaydi. Milliy boyligimiz O‘TILning yanada takomillashuvi uchun so‘zlarga darajaviy yondashuv ham zarur talablardan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Saidova F. O‘zbek tili leksik sinonimlarining leksikografik talqini. So‘z san’ati Xalqaro jurnal. 4-son, 1-jild.

2.Файзуллаев М. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состаяния в русском и узбекском языках: Дисс. …канд.филол.наук. – Ташкент, 1994.

1.Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. –Номзодлик дисс. авторефф. -Т.: 1996, – 42 bet.

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1,2,3,4,5-том. Тошкент .”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2020.

Akbarjon HASANOV,
Qo‘qon universiteti
Ta’lim kafedrasi dotsenti, f.f.n.

BADIIY MATNDA JONLANTIRISHLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya: maqola badiiy matnda hissiy-subyektiv mazmunni yuzaga chiqaruvchi badiiy-tasvir vositalaridan biri bo‘lgan jonlantirishlarning lisoniy va lingvopoetik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Unda jonlantirishlarning lisoniy mohiyati, tarkibiy tuzilishi yangi qarashlar bilan o‘rganilgan. Buning natijasi o‘laroq, jonlantirishlar ko‘chim turi emas, balki sintaktik hodisa ekanligi ma’lum darajada o‘z tasdig‘ini topgan. Maqolada jonlantirishlarning lingvopoetik xususiyatlari o‘zbek realistik hikoya ustasi Abdulla Qahhor hikoyalari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *jonlantirish, jonlantirish – sintaktik hodisa, jonlantirish qurilmasi, metafora, allegoriya, apostrofa, personifikatsiya, badiiy asar tili, lingvopoetika, badiiy tasvir vositalari.*

Аннотация:статья посвящена лингвистическим и лингвопоэтическим особенностям анимации, которые являются одним из художественно-изобразительных средств, создающих эмоционально-субъектное содержание художественного текста. В ней языковая сущность и структурная структура возрождений изучаются с новых позиций. В результате в определенной степени подтвердилось, что ревитализации являются не разновидностью миграции, а синтаксическим явлением. В статье лингвопоэтические особенности мультипликации изучаются на примере рассказов узбекского мастера реалистического рассказа Абдуллы Каххора.

Ключевые слова: *оживление, оживление - синтаксическое явление, прием оживления, метафора, аллегория, апостроф, персонификация, язык художественного произведения, лингвопоэтика, средства художественного изображения.*

Annotation: the article is devoted to the linguistic and linguopoetic features of animations, which are one of the artistic-visual tools that create emotional-subjective content in the artistic text. In it, the linguistic essence and structural structure of revivals are studied from new perspectives. As a result, it has been confirmed to a certain extent that revitalizations are not a type of migration, but a syntactic phenomenon. In the article, the linguopoetic features of animations are studied on the example of the stories of the Uzbek realist story master Abdulla Qahhor.

Keywords: *revitalization, revitalization - syntactic phenomenon, revitalization device, metaphor, allegory, apostrophe, personification, language of artistic work, linguopoetics, means of artistic representation.*

Adib ijodidan lavhalar

Bugungi kun o‘zbek tilshunosligining taraqqiyoti to‘rtta eng muhim tendensiyalar asosida rivoj topayotgani, shulardan biri – o‘zbek tilini o‘rganishning amaliy bosqichida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar asosida bevosita kuzatishda berilgan nutqiy hodisalar zamiridagi lisoniy mohiyatlarni idrok etishga intilish olimlarimiz tomonidan e’tirof etilmoqda . Ana shunday nutqiy hodisalardan biri bo‘lgan matn va uning qurilishini o‘rganish o‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda rivoj topayotgan matn lingvistikasi, pragmalingvistika, lingvopoetika va kognitiv tilshunoslik sohalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etyapti. Buning natijasi o‘laroq, shaxs va til munosabatiga e’tibor kuchaymoqdaki, bu tilshunoslik fanini idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan boyitmoqda.

Badiiy asar tilini lingvopoetik tahlil qilishga e’tibor kuchaygan hozirgi davrda shaxsning tilga munosabati uning idrok etish, ijod qilish va yaratish qobiliyatlarida namoyon bo‘lmoqda. Chunonchi, badiiy matn yozuvchining borliqni obrazli, yuqori darajadagi his-tuyg‘u, ekspressiya, g‘oya asosida ko‘rishi, o‘zlashtirishi, reseptiv (idrok etish) iste’dodi mahsulidir.

Badiiy asar tilini o‘rganish XX asrda keng tus oldi. Bu masalaga V.V.Vinogradov jiddiy yondashdi. U badiiy asar tilini umumfilologik yo‘nalishda o‘rganishning tashabbuskori bo‘ldi. Masala mohiyatini faqat adabiyotshunoslik yoki sof tilshunoslik aspektida o‘rganishni inkor etgan holda, bu fan har ikkisiga ham yaqin turishini, ayni paytda, har ikki fan sohasi qo‘lga kiritgan ilmiy-amaliy yutuqlarga tayanishini o‘zining ishlarida alohida ta’kidlab o‘tdi . Badiiy asar tilini o‘rganishdan maqsad uning tahlili jarayonida asar g‘oyasi bilan bog‘liq hissiy-subyektiv mazmunni ifoda etuvchi u yoki bu lisoniy vositalarni ko‘rsatib berish ekanligini L.V.Shcherba va V.V.Vinogradov o‘z tadqiqotlarida alohida e’tirof etadilar .

So‘nggi yillarda badiiy asar tili va unda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda. Ma’lumki, jonlantirish badiiy nutqning eng muhim tasviriy-ifodaviy vositalaridan biri hisoblanadi. Lekin hali-hanuz jonlantirishlarning nazariy hamda amaliy jihatlari yetarli darajada tadqiq etilgani yo‘q.

O‘zbek tilshunosligida bir guruh olimlar va tadqiqotchilar jonlantirishni metaforaning maxsus turi sifatida izohlaydilar . M.Mirtojiyev esa, jonlantirishni metaforaning mazmuniy bir turi sifatida ko‘rsatadi . M.Yo‘ldoshev metaforalarni talqin etishda M.Mirtojiyevning metaforaning mazmuniy tasnifi uchun keltirgan odatiy metaforalar, jonlantirish va sinestetik metaforalarni qayd etadi . Umuman, yuqoridagi olimlarning barchasi jonlantirishni metafora qurshovida izohlasalar, L.Djalolova jonlantirishni metaforadan keskin farq qilib, uni mustaqil tasviriy vosita sifatida talqin etadi. Darhaqiqat, jonlantirish metaforadan farqli hodisa. L.Jalolova to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “unda insonga xos harakat, his-tuyg‘u, so‘zlash, fikrlash jonsiz predmetlarga ko‘chirilsa ham, lekin ular orqali inson tushunilmaydi” .

Allegoriya va apostrofaga jonlantirishning bir ko‘rinishi sifatida qaralishi kerak. Chunki ularda adabiyotshunoslik tili bilan aytganda intoqqa xos xususiyatlar mavjud. Binobarin, allegoriyada hayvonlar yoki jonli predmetlar insonga xos so‘zlatilsa, apostrofada jonsiz narsaga jonli narsadek murojaat qilinadi. Bunda “jonlantirilgan predmet murojaat qilayotgan kishiga nisbatan passiv bo‘ladi” . Demak, jonlantirish, allegoriya, apostrofa insonlarga xos xususiyatning hayvonlarga, narsa-hodisalarga ko‘chishi bilan integral belgiga ega, biroq ular ifodalanish usullariga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi hodisalardir.

Masalaning yana bir e’tiborli tomoni, jonivorlar, jonli va jonsiz narsa-hodisalarga xos xususiyatning insonlarga ko‘chirilishi masalasidir. Bunda, bizningcha, jonlantirish uchun hech qanday asos yo‘q. Balki unda metafora hodisasi kuzatiladi, ya’ni “jonli obyekt jonsiz obyektni o‘ziga nomdosh qilib oladi” . Bunda, asosan, holatning intensivligi nuqtayi nazaridan fe’l-metaforalar hosil qilinadi . Bunga jonlantirishning bir ko‘rinishi – personifikatsiya deb qarash o‘zini oqlamagandek ko‘rinadi . Personifikatsiya rus filologiyasida aynan shaxslantirish ma’nosi bilan qo‘llanilib, jonli va jonsiz predmetlarda insonga xos xususiyatlarning aks etishini o‘rganadi .

Biz jonlantirishlarni talqin etishda ularning o‘xshatish qurilmalari bilan bog‘liq jihatlarini kuzatdik. Ma’lum ma’noda ular ham metafora singari o‘xshatish asosiga quriladi. Lekin bu bilan jonlantirishni metafora yoki o‘xshatishga tenglashtirish to‘g‘ri emas, albatta. O‘xshatishning komponent tuzilishidan foydalangan holda uning komponent tuzilishini quyidagicha belgiladik: jonlantirish subyekti – A; jonlantirish qiyosi – V; jonlantirish asosi – S. Jonlantirishda doim A va S verbal shaklda ishtirok etadi. Masalan: Oftob g‘arbga yonboshlaganda ikki yo‘lovchi dashtdan chiqib tepalikka yo‘l oldi («Maston»). Bunda jonlantirish subyekti – oftob, jonlantirish asosi – yonboshlamoq bo‘lib, jonlantirish qiyosi verbal ifodaga ega emas. Berilgan jumladagi yashirin propozitsiya orqali odam kabi jonlantirish qiyosini ilg‘ash mumkin. Agar jonlantirish qiyosi verbal ifodalanib, {AVC} shaklga ega bo‘lsa, jonlantirish va o‘xshatish qavatlashadi, ularning muhim belgilari jonlantirish asosi bilan belgilanadi: Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi («Dahshat»). Bunda jonlantirish subyekti – shamol, jonlantirish qiyosi – bo‘ri, mushuk; jonlantirish asosi – uvillar, pixillar, vag‘illar. Ayni paytda ular o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni va o‘xshatish asosi ham bo‘lib kelgan.

M.Yo‘ldoshev jonlantirishlarni ot so‘z turkumi doirasida belgilaydi . L.Jalolova esa, ularni fe’l so‘z turkumi doirasida izohlaydi . Bizningcha, jonlantirishlar ot va fe’l so‘z turkumining o‘zaro sintagmatik munosabatidan hosil bo‘ladi. Jonlantirishlarda ma’lum ma’noda predikativlik mavjud. Shu bois ular sintaktik hodisa bo‘lib, ish-harakat va uning bajaruvchisi o‘rtasidagi sintagmatik munosabatda o‘z in’ikosini topadi. Albatta, bunda leksemalarning o‘zaro aloqalanishida ulardagi “jonlilik” va “jonsizlik” semalari zid bo‘lsa-da, ular badiiy nutq uchun me’yoriy holat hisoblanadi. Badiiy so‘z ustalari ana shu sintagmatik aloqa birligidan obrazlilikni, ifodalilikni vujudga keltirishda ijodiy-individual foydalanadilar. Chunki jonlantirish badiiy asarda ijodkor g‘oyasini, maqsadini amalga oshirishda muhim omil sanalib, betakror obrazli ifodalar yaratadi. Jumladan, A.Qahhor ijodida jonlantirishlarning eng yaxshi namunalarini uchratish mumkin.

Adibning birgina “Dahshat” hikoyasida tabiat hodisalari jonlantirilib, peyzajning dramatizm bilan uyg‘unlashuvi zo‘r mahorat bilan chizilgan: Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi (“Dahshat”).

Hikoyada jonlantirish subyekti – shamol, jonlantirish asoslari – chiyillaydi, g‘uvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi. Jonlantirish asoslarining bunday uyushishi manzara tasvirini kuchaytirgan hamda gradatsiya hodisasini yuzaga chiqargan. Bu manzara orqali kishi dilida hosil bo‘ladigan g‘ashlik go‘yo bo‘lajak dahshatli hodisaning darakchisiday tuyuladi. Hikoya ekspozitsiyasidayoq, yozuvchi ideolektiga xos illokutiv maqsadni anglaymiz.

Yozuvchi keyinroq kelib chiqadigan dodxo bilan uning kichik xotini Unsinoy o‘rtasidagi to‘qnashuv uchun zamin yaratish maqsadida yana shamol manzarasining jonli tasvirini berishga o‘tadi hamda voqealar rivojidagi keskinlikka hamohang ravishda tasvir obyektiga ham dinamik tus beradi: Shamol goh och bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan

mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa, hech narsa ko‘rinmas edi (“Dahshat”). …Shamol bir xuruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa [bo‘yra] darchani tirmalagancha sidirilib pastga tushib ketdi (“Dahshat”).

Berilgan birinchi leksik qurshovda jonlantirish {AVS} qolipga ega. Bunda yuqorida aytganimizdek, o‘xshatish usuli jonlantirish bilan qavatlashgan holda kelib, tasvirning aniqligi, o‘zgaruvchanligi, keskinligini bo‘rttirib ifodalagan. Keyingi misolda ikkita jonlantirish qurilmasi mavjud bo‘lib, ular {AS} shaklga ega. Bunda jonlantirish subyektlari – shamol, bo‘yra; jonlantirish asoslari – urdi, tirmalagancha. Bu ikki misoldagi shamol bilan bog‘lik jonlantirish hodisalari yuqoridagi tasvirlarga qaraganda ancha jiddiy tus olgan. Chunki ulardagi tasvirning quyuqlashishi hikoya personajlari ruhiyatiga kuchli ta’sir etadi. Mana shu yerda tabiat dahshati bilan dodxo xonadonidagi “tiriklar go‘ristoni”ning dahshati paralellashadi. Ular bir bo‘lib, personajlarni dahshat komiga tortadi. “Hamma o‘tirgan yerida go‘yo bir qarich cho‘kkanday bo‘ladi”.

Unsin dodxoni o‘z shartiga ko‘ndirgandan keyin o‘z erki uchun kurashish maqsadida “tiriklar go‘ristoni” dahshatini ortda qoldirib, qabriston tomon yo‘l oladi. Biroq bu dahshat bilan parallellashgan tabiat dahshati o‘z kuchini ko‘rsatish uchun Unsin bilan to‘qnashadi: Pishqirayotgan shamol har huruj qilganida Unsinni tentiratar, talay joyga surib tashlar edi (“Dahshat”).

Go‘yo endi shamol Unsinning Ganjiravonga jo‘nash, ota-onasi, dugonalarini ko‘rish umidi bilan kurash olib boradi. Unsinni bu yo‘ldan ozdirish uchun uni kuchli xuruj bilan tentiratar, talay joyga surib tashlar edi. Lekin bu hol o‘z erki uchun kurashayotgan ayol uchun ahamiyatsiz edi.

A.Qahhor kishilarning tashqi qiyofasini tasvirlashda ham jonlantirishlardan mohirona foydalangan. Bunda yozuvchining peyzaj yaratish san’ati kabi portret ham harakatda beriladi.

Uning bitta-ikkita ***qora tuk chap b****erib qolgan oppoq cho‘qqi soqoli… Yopirimey, soqol ham odamga shuncha yarashadimi-ya!..(“To‘yda aza”). Yuzini keksalikdan ko‘ra ko‘proq* ***ko‘rgiliklar g‘ijimlab*** *tashlagan bu chol bilan u o‘tgan yil bahorda… tanishgan edi* (“Tomoshabog‘”).

Keltirilgan birinchi leksik qurshovda hikoya qahramoni Muxtorxon Mansurovning tashqi qiyofasi jonlantirish vositasi yordamida nihoyatda original chizilgan. Bunda jonlantirish subyekti – qora tuk hamda jonlantirish asosi – chap bermoq o‘zaro sintagmatik aloqaga kirishib, ijobiy ma’nodagi jonlantirish qurilmasini hosil qilgan hamda personajning tashqi qiyofasini harakatda tasvirlagan. Ikkinchi leksik qurshovda esa, personajning tashqi qiyofasi uning ruhiyati bilan uyg‘un holda tasvirlangan. Bunda jonlantirish subyekti – ko‘rgiliklar, jonlantirish asosi – g‘ijimlab tashlamoq leksemalari salbiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan jonlantirish qurilmasini hosil qilgan. Bu salbiylik personajning faqat tashqi qiyofasini tasvirlash uchun keltirilgan emas, balki uning tushkun ruhiyatiga sabab bo‘lgan voqelikka bir ishora. Hikoya fonida uning turmush adolatsizliklariga uchragani, yolg‘iz farzandidan bevaqt ajragani ma’lum bo‘ladi. Bu ko‘rgiliklar qalbida og‘riqli iztirob qoldiradi. Qalb og‘rig‘ining personaj tashqi qiyofasida zohir bo‘lishi jonlantirish vositasida nihoyatda original ifodalangan.

Umuman, yozuvchi jonlantirish usuli orqali faqat peyzaj yaratishni bosh maqsad qilib olmaydi, balki undan voqealar rivojiga turtki berish, personajlar ruhiyatini ochish, asarning umumg‘oyasiga xizmat qiluvchi tasviriy vosita yaratishda unumli foydalanadi. Har bir jonlantirishni o‘z o‘rnida qo‘llab, hikoya badiiyatini, uning estetik ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 29.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С. 322.
3. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном… дисс. – Самарқанд, 2004. – Б. 16.
4. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1957. – С. 4; Шу муаллиф. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 186.
5. Джалолова Л. Абдулла Қодирийнинг «Ўткан кунлар» романининг лингвистик тадқиқи: Фил.фан. номзоди… дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 88.
6. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Фил.фан.номзоди… дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 119.
7. Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик табиати: Фил.фан.номзоди… дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 5.
8. Миртаджиев М.М. Переносные значения и их манифестация в узбекском языке: Автореф.дисс… док.фил.наук. – Ташкент, 1989. – С.13.
9. Шчерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – М.: Наука, 1957. – С. 97;

Shoiraxon TOSHXUJAYEVA,
QDPI dotsenti, PhD;
Maxbubaxon TOJIBOYEVA,
QDPI dotsenti

BIR G‘AZAL SHARHI

Annotatsiya: ushbu sharhda Qo‘qon adabiy muhitining lirik shoirlaridan biri, xattot, muarrix Husaynquli Muhsiniy qalamiga mansub bir g‘azal tahlil qilingan. Adabiy tahlil o‘qituvchilarga mumtoz matnlarni o‘rganishda va o‘rgatishda amaliy yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, lirik shoir, mumtoz matn, ishq, oshiq, azob, hijron, dard, visol.*

Аннотация: в данной рецензии анализируется газель, написанная Хусайнкулы Мухсини, одним из лириков литературной среды Кохана, каллиграфом, историком. Литературный анализ оказывает практическую помощь учителям в изучении и преподавании классических текстов.

Ключевые слова: *газель, лирик, классический текст, любовь, возлюбленный, боль, горе, визал.*

Annotation: in this review, a ghazal written by Husaynkuli Mukhsini, one of the lyric poets of the Kokhand literary environment, calligrapher, and historian, is analyzed. Literary analysis provides practical help to teachers in learning and teaching classical texts.

Key words: *ghazal, lyricist, classical text, love, beloved, pain, grief, visual.*

Gul yuzungni ishqida chektim base afg‘on subh,
Ayladi kasbi navokim bulbuli nolon subh.

Bo‘lmadi fayzi nasibim, kechalar tong otqucha
Yo magar sindurdi ahdin va`dayu paymon subh.

Urmadi o‘lg‘on dil-u jonimg‘a ul jon naqshini,
Ko‘rguzub jonbaxshlig‘ini jonima jonon subh.

O‘lisham yorim-la betole` meni baxti qaro,
Chiqmadi iqbolima ul axtari tobon subh.

Men xoki darida tortadurman intizor,
To qachon so‘rg‘ay malohat taxtida sulton subh.

Muhsiniy qilsa giribon chok, ayb etmang anga,
Negakim, ko‘rmish bayozi safhai devon subh.

G‘azal vazni

Gul yu zung ni ish qi da chek tim ba se af g‘on subh,
-V - - / - V - - / - V - - / - V ~
Ay la di kas bi na vo kim bul bu li no lon subh.
-V - - / - V - - / - V - - / - V ~
Foilotun / foilotun / foilotun/ foilon
Foilotun / foilotun / foilotun/ foilon
Ramali musammani mahzuf

Lug‘at

axtari tobon – yorqin yulduz
jonbaxsh – jon kirgizuvchi
aftoda – bir ahvol, zaif, nochor
xoki dari – eshik tufrog‘i
betole’ - baxtsiz
safhai devon – devon sahifasi

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari mumtoz so‘z san’atimiz taraqqiyotida Qo‘qonda yashab ijod etgan shoirlarning alohida hissasi bor. Bu davrda o‘zbek adabiyotining yetakchi ijodkorlaridan Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy, Zokirjon Furqat, Ubaydullo Zavqiy kabi shoirlar ijodi o‘sib, kamolga yetishdi. Ularning ijodida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, endigina rivojlanib kelayotgan yangi munosabatlar, xalq turmushidagi turli yangiliklar aks eta boshladi. Shunday shoirlardan biri Husaynquli Sulaymonquli o‘g‘li Muhsiniy (1865-1917)dir.

Muhsiniy g‘azaliyotining ham asosiy mazmun-mohiyatini ishq tashkil etadi. “Subh” radifli g‘azali ham mana shunday g‘azallar turkumiga mansub. Uningcha, oshiqlik – komil insonga xos xususiyatlarning birlamchisi.

Gul yuzungni ishqida chektim base afg‘on subh,
Ayladi kasbi navokim bulbuli nolon subh.

Radif sifatida tanlangan subh − vahdat nurining taralishi, ilohiyot tajallisi. Shuning uchun tong (subh) orifona she’riyatda ko‘p qo‘llanadi. Ilohiy yor diydoriga tolib odam bu nurga yetishish uchun ko‘pdan ko‘p ruhiy qiynoqlar, hijron azoblarni boshdan o‘tkazishi kerak. Sharhlanayotgan g‘azalda lirik qahramonning ana shu ahvoli, ruhiyati baytma-bayt tasvirlanadi.

Ishqqa mubtalo bo‘lgan oshiq go‘yoki, gul ishqida navo kuylashni o‘ziga kasb qilib olgan bulbulga qiyoslanadi. Dunyoning barcha xursandchilik va shodliklaridan voz kechadi. Unga g‘am-anduhlik hayot – qismat. U ma’shuqa hajrida har qancha azob cheksa ham, bu ranj-mashaqqatlarni o‘zi uchun bir sinov deb biladi. Chunki bu holat oshiq taqdiriga azaldan bitilgan. Bu esa ishq domiga asir bo‘lgan oshiq uchun sharaf. Sharafli hayotida azob, hijron, dard bor, visol esa yo‘q.

Bo‘lmadi fayzi nasibim, kechalar tong otqucha.
Yo magar sindurdi ahdin va`dayu paymon subh.

Bu toifadagi oshiqlar uchun visol emas, ishqning o‘zi maqsad.

Qalbi ishqqa to‘la oshiq tongga qadar uyqudan voz kechadi, bedorlikni o‘z ishi deb biladi. Lirik

qahramon ishq vodiysida sargardon kezarkan, o‘zini adoqsiz g‘amlar qo‘yniga tashlaydi va hijrondan zorlanmaslikka intiladi.

Urmadi o‘lg‘on dil-u jonimg‘a ul jon naqshini,
Ko‘rguzub jonbaxshlig‘ini jonima jonon subh.

Oshiqning ko‘ngli va joni tinimsiz ravishda jononga qarab intiladi, jononsiz jonning unga keragi yo‘q. N.Komilovda quyidagi fikrlarni uchratamiz: “Jonning doimiy suratda jononga talpinishi, visolga tashnaligini insonning o‘z idealiga, butun fayz-u fazilati, pok axloqi, ichki ma’naviy dunyosining ko‘rkam, nurafshonligi bilan jozibali bo‘lgan Do‘st sari intilishi, Do‘st − kishining sevgan yori ham, e’tiqod-imon timsoli, mukammal inson ham, odamzot hech qachon to‘ymaydigan hayot ham, ezgulik, adolat va haqiqat yoki Xudo hamdir.” Muhsiniyning Jonon obrazida ham bu tushunchalarning bari mujassam. Shoir “jon” so‘zining takroriyligidan jozibali poetik manzara yaratgan. She’rda o‘ziga xos bir yozg‘irish, arz qilish bor. Uning bunday go‘zal va ohangdor chiqishiga takrir va ishtiqoq san’atlari yordam bergan. Takrir biror so‘zning o‘rniga qarab takrorlanib kelishi natijasida tasvirni kuchaytirish ko‘zda tutiladigan san’atdir. Baytda “jon” so‘zi uch joyda kerakli ma’noni kuchaytirish, ajratib ko‘rsatish maqsadida ishlatiladi. Bu so‘zning sodda so‘z shaklida, juft so‘z qismi, so‘z birikmasida tobe so‘z vazifasida kelishi tasvir imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi. “Jonbaxsh”, “jonon”, “jonim” so‘zlaridagi asos “jon” so‘zidan olingan. Biroq bu qaytariqlar bizga noxushlik tug‘dirmaydi, aksincha, zavq uyg‘otadi, ko‘ngilda iliq kayfiyat paydo qiladi. “So‘z − tafakkur xizmatida san’at − fikr va g‘oyaning ko‘rki, targ‘ibotchisi” (N.Komilov) ekanligini isbotlaydi. Baytda bir asosli, talaffuzi, shakli o‘xshash so‘zlarni tajnis usulida qo‘llay olish bir san’at bo‘lsa, buni muhim ijtimoiy-axloqiy g‘oya bilan bog‘lab rivojlantirish orqali go‘zal bir tasvirni vujudga keltirish shoirning badiiy kashfiyotidir. Lirik qahramon yuragidagi dard baytma-bayt kuchayib, jon va jonon mojarosi zo‘rayadi, oshiqlik iztirobi va ma’shuqa istig‘nosi orasidagi ziddiyat taranglashadi.

O‘lisham yorim-la betole` meni baxti qaro,
Chiqmadi iqbolima ul axtari tobon subh.

Oshiq o‘zini tolesiz va ishq bobida omadi chopmagan kabi an’anaviy tasvirlar ekan, umid baribir unga kuch bag‘ishlab turadi. Ya’ni qora baxtimni yorug‘ aylagani yulduz kabi ko‘rinmadi deya kuyunadi shoir.

Men xoki darida tortadurman intizor,
To qachon so‘rg‘ay malohat taxtida sulton subh.

Shoir ishq va oshiqlik, uning ruhiy holati, ma’shuqaning go‘zal, ayni damda bevafo va jafokashligi, ishq tufayli qalb va ruhning kamolotga erishuvi to‘g‘risida baytlar yozganda ma’shuqani podshoh, olamlar sultoni deya ko‘klarga ko‘tarib ulug‘laydi, o‘zini esa ostonasining tuprog‘ida intizorlik bilan ahvolini so‘rashiga umid bog‘lab yashaydi.

Muhsiniy qilsa giribon chok, ayb etmang anga,
Negakim, ko‘rmish bayozi safhai devon subh.

Lirik qahramon o‘zini ishq tufayli yoqavayron bo‘lgan holatiga hech bir hayratsiz boqishlarini, ayb sanamasliklarini, chunki devonning ham bag‘ri uningdek parokanda, ya’ni ochilgan-sochilgan sahifalardan tashkil topgandir, deb izohlaydi. Ruhiy holatiga tabiatdan, hayotdagi timsollar bilan qiyoslashga urinadi.

Muhsiniyning ishqiy mavzudagi bunday g‘azallarida ma’shuqa – bir bahona. Aslida, ko‘proq Yaratganga muhabbat, uning sinovlariga tayyorlik, tayin etgan qismatiga sabr, bergan rizqiga qanoat singari holatlar she’riy misralarga jo bo‘ladi. Oshiq yorning qiyofasida Alloh jamolini ko‘radi. Chunki tasavvufga ko‘ra dunyo go‘zalliklari ilohiy go‘zallikning belgilaridir. Zotan, dunyoning o‘zi Allohning tajallisidir. Go‘zal ma’shuqaning ta’rifini kuylash, aslida Yaratganni vasf etmoqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муҳсиний. Барҳаёт гулшан. (Девон). – Фарғона, 2008
2. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996
3. Муҳсиний Девон. Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди № 7392 рақамли қўлёзма
4. Ҳаққул И. Мушоҳада ёғдуси. (Адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар). – Т.: “Фан”, 2009.
5. Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т.: “Маънавият”, 2004.
6. Маҳмуд Асъад Жўшон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. – Т.: “Чўлпон”, 2000.

Durdona RASULMUXAMEDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
e-mail: rasulmukhamedova74@bk.ru

TARIXIY DRAMADA IJODIY PERSONAJLARNING O‘RNI

Annotatsiya: temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Turfa xil ma'lumotlar nafaqat tarixiy asarlarda, balki badiiy adabiyot namunalarida ham uchraydi. Maqolada buyuk tarixiy siymo Amir Temurning dunyo xalqlari taqdirida tutgan o‘rni yozuvchi Odil Yoqubovning “Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” dramasi orqali ochib beriladi. Dramani tahlil qilish orqali ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda Amir Temurga berilgan noto‘g‘ri baho va talqinlarga chek qo‘yiladi.

Kalit so‘zlar: *tarixiy haqiqat, badiiy ijod, asar tahlili, janr, drama, konflikt, badiiylik.*

Аннотация: существуют разные мнения об Амире Темуре, основателе империи Тимуридов. Различную информацию можно найти не только в исторических трудах, но и в примерах художественной литературы. В статье раскрывается роль великого исторического деятеля Амира Темура в судьбах народов мира через драму писателя Адиля Якубова «Фатихи Музаффар яхуд бир париваш асири». Путем анализа драмы будет положен конец неверным оценкам и трактовкам, данным Амиру Темуру в научных, исторических и художественных произведениях.

Ключевые слова: *историческая правда, художественное творчество, анализ произведения, жанр, драма, конфликт, художественность.*

Annotation: there are different opinions about Amir Temur, the founder of the Timurid Empire. Various information can be found not only in historical works, but also in examples of fiction. The article reveals the role of the great historical figure Amir Temur in the destinies of the peoples of the world through the drama of the writer Adil Yakubov “Fatihi Muzaffar yahud bir parivash asiri”. By analyzing the drama, the incorrect assessments and interpretations given to Amir Temur in scientific, historical and artistic works will be put to an end.

Key words: *historicity, image, literature, historical truth, artistic creativity, interpretation, analysis of the work, genre, drama, folklore, conflict, artistry.*

Kirish. Amir Temur o‘zligimizni anglash, milliy an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasidagi ulug‘vor ishlarda xalqimizga ma’naviy kuch bag‘ishlab kelayotgan ulug‘ siymolardan biridir.

Tarixga nazar tashlasak, XX asr o‘zbek adabiyotida Amir Temur siymosi ko‘plab nohaqliklarga duchor bo‘lgan. Bunga o‘sha davr siyosati sabab bo‘lib, sohibqironning tarixdagi o‘rni, ko‘rsatgan xizmatlari va shaxs sifatidagi bahosi noto‘g‘ri talqin qilingan. Vaholanki, Amir Temur buyuk imperiyani barpo qilgan, yirik davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi bo‘lgan. U mohir sarkarda, yurtimizda mo‘g‘ullar istibdodiga barham bergan, o‘zining o‘chmas nomini abadiyatga muhrlagan, faxrimiz, g‘ururimiz, xalqimiz dahosining timsoli va ma’naviy qudratimiz ramzi hisoblanadi. Amir Temur ilm-fan homiylari, olimlar, shoir va yozuvchilar, hunarmand va ustalarga g‘amxo‘rlik qilishda ham mashhur bo‘lgan.

Istiqlolga erishgach, Temur va temuriylar davri haqida ilmiy, tarixiy, publitsistik va badiiy asarlar yaratishga barcha soha vakillari – tarixchilar, faylasuflar, adabiyotshunos olimlar ham bel bog‘ladilar. Chunki Temur va temuriylar davri tarixi hozirgi kungacha bitmas-tuganmas mavzu bo‘lib qolmoqda. XX asrning oxirgi yillariga nazar tashlasak, sohibqiron haqida yozilgan badiiy asarlarda Amir Temur faqat salbiy obraz sifatida tasvirlangan. Faqat Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirkarim Osim, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov kabi ijodkorlar tariximizni yaxshi bilganliklari uchun Amir Temur obrazini ijobiy ifodalashga harakat qildilar.

Mustaqillik sharofati bilan adabiyotimiz xazinasi yangi-yangi asarlar bilan boyitilib, Amir Temur va temuriylar tarixiga bag‘ishlangan ilmiy-badiiy asarlar yaratish juda yoqimli bo‘ldi. Shu jihatdan o‘zbek adabiy “Temurnoma”si rivojida dramatik janrlarda yozilgan asarlar alohida o‘rin tutadi. Odatda tarixiy mavzudagi asarlarda tarixiy shaxslar faoliyatiga keng o‘rin beriladi. Asar qahramoni bo‘lgan tarixiy shaxsning shaxsiy hayoti, oddiy inson sifatidagi jihatlari chetda qoldirilgan. Odil Yoqubovning “Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” asarida bunday emas. Chunki muallif bu asarida Amir Temur davrining murakkabligi bilan birga sohibqiron shaxsi, insoniy fazilatlarini ham o‘ziga xos tarzda tasvirlab bergan. “Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” asarida qahramon hayoti, ichki dunyosi, o‘ziga xos qarashlari, hayotga munosabati badiiy ijod orqali ifodalanadi. Asardagi barcha voqealar muallifning tasavvur mahsuli. Bu voqealarning ishonchli burilishlariga olib keldi.

Endi savol tug‘iladi: Odil Yoqubov betakror nosir bo‘lsa, nega Amir Temur haqida doston, lirik qissa, qissa, roman yozmay, dramaturgiya janriga murojaat qildi? Savol juda o‘rinli va tabiiy. Bizningcha, Amir Temur

hayoti va faoliyatining olamshumul ahamiyatiga oid tarixiy, ilmiy, badiiy ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish, ma'lum bir badiiy-konseptual xulosa chiqarish, asar yaratish asaridagi yirik tarixiy-badiiy haqiqatni jamlagan. Drama o'zining turkum xususiyatlari bilan Amir Temur hayotining bir necha lahzalarini sahnada jonlantirish orqali dunyo xalqlari taqdiridagi o'rni va rolini to'la aks ettira oladigan janrdir. Shuning uchun muallif Sohibqiron Temur haqidagi asar yaratish uchun dramaturgiyani tanladi.

Asosiy qism. Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri" spektakli ikki sahna va to'rt pardadan iborat. Muallif Amir Temur haqidagi rivoyat va hikoyalar asosida tarixiy voqelikni mazkur folklor materiallariga singdirgan. Drama Bibixonim haqidagi mashhur afsonaga asoslangan bo'lib, unda Sohibqironning Rumo yurishi, Sulton Boyazid qissasi va Xitoyga aniq tarixiy ma'lumot berish uchun sayohat kiritilgan.

Dramaturgiya janrining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, qahramonlar o'z xatti-harakatlari, nutqlari orqali o'zini namoyon qiladi va bu jarayonda tasvirlangan davr ruhi tomoshabinga voqealar ko'lami haqida keng tasavvur beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Odil Yoqubov dramasida Sohibqiron hayotining nafaqat so'nggi yillaridagi faoliyati, balki bu ulug' jangchi hayotining deyarli barcha davrlari Amir Temur va uning atrofidagilar nutqi bilan yoritilgan. Binobarin, dramaturgiyadan xabardor o'quvchi yoki tomoshabin Amir Temur hayoti va uning saltanati davri haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, dramaturgiya janrining yana bir muhim xususiyati asarni jamoaviy idrok etishdir. Binobarin, drama janridagi asarlar voqealarga mos keladimi, tomoshabin didi, xayrixohligi yoki e'tirozi pirovardida asar taqdirini hal qiladi. Bu borada Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar yoxud bir parivash asiri" asari dramaturgiya janri talablariga to'la javob beradi. Negaki, Amir Temur hayotining tasvir obyekti sifatida olingan barcha nuqtalari bevosita tarixiy manbalar, u haqidagi xalq rivoyatlari bilan tasdiqlangan.

Asarda tarixiy faktlarga badiiy ohang berish bilan birga, qahramon hayoti, ichki dunyosi, o'ziga xos qarashlari, hayotga munosabati badiiy ijod orqali ifodalanadi. Asardagi barcha voqealar muallifning tasavvur mahsuli. Bu voqealarning ishonchli burilishlariga olib keldi. Dramani mutolaa qilar ekanmiz, Amir Temur, Sulton Boyazid, Mirzo Shohrux, Chingizxon kabi tarixiy shaxslar bilan uchrashamiz. Muallif asarning asl mohiyatini o'quvchiga yetkazish uchun bu obrazlarni to'liq ochib berishga harakat qilgan. Lekin asosiy vazifa Suluvko'z, Saragul, Aqchagul, Bibi Sardor kabi ijodkorlarga yuklangan.

Chunki badiiy ijodsiz o'quvchini hayajonga soladigan, o'qishga undaydigan asarni bosh ko'tarmasdan yozish juda qiyin. Dramaning yana bir qimmatli jihati shundan iboratki, voqea-hodisalar tasviri to'g'riligi bilan bir qatorda voqea sanalari ham aniq berilgan. Shu jihatdan asar Amir Temur hayotiga qiziquvchilar uchun noyob manba, qimmatli qomus bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temurning Rumoga borishi sabablari Odil Yoqubovning "Fotihi Muzaffar..." dramasida o'zgacha tarzda tasvirlangan. Yozuvchi "Ulug'bek xazinasi" romanini yozganida Temur va temuriylar haqida ko'plab materiallar to'plagan va ko'plab tarixiy manbalar bilan tanishgan edi. Shunga qaramay, u o'z dramasida butunlay boshqa yo'lni, xalq og'zaki ijodidan foydalanish usulini tanladi. Shuning uchun u Rumoga yurish sabablarini Amir Temurning Suluvko'zga aytgan tush tafsilotlari orqali asoslashga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida drama ruhiga, asar zamirida yotgan rivoyat yo'nalishiga mos keladi.

Odil Yoqubov dramasi folklor materialiga asoslanganligi uchun Sohibqironning Yildirim Boyazid bilan Ankuriya yaqinidagi jangi ham folklor ruhida tasvirlangan. Dramada Amir Temur jang kunlarida katta ov uyushtiradi. Bu ov ham ramziy ma'noga ega bo'lib, bir o'zi Sohibqiron "ikki yuzga yaqin qirg'ovulni otib", ularni Sulton Boyazid dasturxoniga keltirishni buyurgan. Albatta, Amir Temurning Rumo safari g'alaba, Boyazidning mag'lubiyati bilan yakunlangani tarixiy haqiqatdir. Bu tarixiy fakt muallifga ma'lum bo'lib, Amir Temur bu yurishga katta tayyorgarlik ko'rgan va jang boshlanishidan oldingi kechada yolg'iz Allohga duo qilgan.

Avvalo shuni aytish kerakki, o'zi va yurti taqdiri hal qilinayotgan bir paytda hech bir sarkarda ov qila olmaydi. To'g'ri, Rumo yurishi boshida, ya'ni Sohibqiron Jom viloyatidan qaytib, Furot daryosidan o'tib, ov uyushtirgan va bu ovda juda katta ov qilingan. Demak, ov payti bilan Sulton Boyazidning mag'lubiyati va uning asirlikda bo'lgan davri o'rtasida deyarli bir yildan ko'proq vaqt bor. Ma'lum bo'lishicha, Odil Yoqubov dramada bu tarixiy ma'lumotni hisobga olmagan va Amir Temurning urush paytida ov qilayotganini tasvirlagan. Natijada, sahnada yotgan, voqelik bilan uzviy bog'langan yetakchi konflikt – Sohibqiron va Boyazid o'rtasidagi kurash biroz sekinlashadi.

Asardagi yetakchi konflikt uchun dramaturg xalq orasida keng tarqalgan Bibixonim afsonasini tanladi. Drama asosida yaratilgan folklor materiali bevosita ana shu rivoyat bilan bog'liq. Sohibqironning suyukli, donishmand rafiqasi Suluvko'zning prototipi Saroymulkxonim (Bibixonim) bo'lib, Amir Temur Ankuriya jangida g'alaba qozonib, ov qilib yurganida, Suluvko'zning cho'risi Saragul Sohibqiron huzuriga keladi. Bu bilan u ikki vazifani bajaradi: biri Suluvko'zning begunohligini Sohibqironga yetkazish, ikkinchisi esa Amir Temurning askari, sevgilisi Qalqonbek bilan uchrashish.

Saragulning xabarini eshitgan Sohibqiron Shayx

Nuriddinni Samarqandga jo‘natadi. Shu bilan birga, u oxirgi hukmni o‘zi chiqarishi haqida ogohlantiradi. O‘z aybiga iqror bo‘lgan Suluvko‘z Amir Temur Samarqandga qaytganida vafot etdi. Suluvko‘zning bunday fojiali o‘limi dramada to‘liq oqlanadi. Chunki, birinchi navbatda, Suluvko‘z bilan me’mor o‘rtasidagi voqea haqida saroyda turli gap-so‘zlar yurardi. Ularning boshida Bibi Sardor turardi. Demak, Suluvko‘z Amir Temur davrida o‘zini hech qanday tarzda oqlay olmaydi. Shuning uchun u o‘limni afzal ko‘rdi. Ikkinchidan, Amir Temur uni kechirgan bo‘lsa ham, Suluvko‘z uning yuzidagi qora dog‘ni qanday oqlay oladi. Bu belgi u bilan Amir Temur o‘rtasida qon to‘kilgan gunoh edi.

Xulosa. Demak, Odil Yoqubov dramasida yetakchi konflikt Suluvko‘z voqeasi bilan bog‘liq bo‘lib, Amir Temurning Ankuriyaga, so‘ngra Xitoyga tashrifi tarixiy yorug‘lik qoldirishga xizmat qilgan xolos. Shuning uchun dramaturg ko‘p tarixiy faktlarga unchalik aniq yondashmaydi. Masalan, Amir Temur va Yildirim Boyazid haqidagi barcha tarixiy manbalarda mag‘lub bo‘lgan Sulton Sohibqiron huzuriga asir sifatida keltiriladi.

Shunda Amir Temur sultonni haqorat qilmaslik uchun darhol uning qo‘l-oyog‘ini bo‘shatib, hurmat bilan kutib oladi. Odil Yoqubov dramasida Sulton Boyazidning o‘zi Sohibqiron qarorgohiga tashrif buyuradi. Bu xabarni eshitgan Shohruh Mirzo Boyazidni Amir Temur ovdan qaytguniga qadar qora panohga yuboradi. Dramadagi obraz Sulton Boyazid va Amir Temur o‘rtasidagi tarixiy uchrashuvga to‘g‘ri kelmaydi.

Odil Yoqubov bir qancha tarixiy romanlar yozgan, qalamini juda yaxshi o‘tkirlagan. Binobarin, u dramaturgiyada yetakchi konfliktni tashkil etuvchi folklor ruhidagi voqealar bilan tarixiy ma’lumotlarni ustalik bilan uyg‘unlashtira oldi. Bir so‘z bilan aytganda, Odil Yoqubovning “Fotixi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” dramasi mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida badiiy jihatdan o‘ziga xos bosqich bo‘ldi, deyishga jiddiy asos bo‘ladi.

Odil Yoqubovning “Fotixi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” dramasida tarixiy shaxsning hayoti, oddiy inson sifatidagi ichki dunyosi, o‘ziga xos xarakter xususiyatlari, hayotiy falsafasi keng ochib berilganligi bilan ajralib turadi. Asar sohibqironning hayotini, olib borgan siyosatini badiiy aks ettirishi bilan qimmatlidir. Shuningdek, bu asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima masalasi ham uyg‘unlashtirilgan. Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubovning “Fotixi Muzaffar yoxud bir parivash asiri” dramasi mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasini boyitgan badiiy namunadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin [History and literary interpretation] – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1995. 183-bet.

2. Ahmedov B. Amir Temur (tarixiy roman). [Amir Timur (historical novel)] – T.: “Meros”, 1995.

3. Izzat Sulton. Tarix va zamonaviylik [History and modernity] “Gulistan”, 1981. №1.

4. Rasulmuxamedova D.T. O‘zbek adabiyotida tarixiy shaxs talqini. [Interpretation of historical person in Uzbek literature] //O‘zMU xabarlari, 2020 yil, [1/6] 250-bet.

5. Rasulmuxamedova D.T. Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy rivoyatlarning o‘rni. [The role of historical legends in creating the image of Amir Timur] // Til va adabiyot ta’limi, 2020, Issue.1, 24-26-betlar.

6. Rasulmuhamedova D. AMIR TIMUR AS AN OUTSTANDING PERSONALITY //InterConf. – 2021. – S. 666-673.

Marhabo MELIBOYEVA,
Qo‘qon DPI

“O‘G‘UZNOMA” DOSTONI SYUJETINING GENEZISI HAQIDA

Annotatsiya: “O‘g‘uznoma” dostoni syujeti genezisini yoritish asarning asl mohiyatini anglashda yordam beradi. Dastlab, “syujet” va “genezis” tushunchalarining mohiyati haqida, ularning “O‘g‘uznoma” poetikasini tadqiq etishda qay darajada o‘rni borligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *“O‘g‘uznoma”, doston, poetika, syujet, genezis, voqea, marosim, timsol, obraz, qadimgi turk davridagi kultlar – daraxt, bo‘ri, osmon.*

Annotation: elucidation of the genesis of the plot of the epic "Oguznoma" helps to understand the true nature of the work. At first, the essence of the concepts of "plot" and "genesis" and their role in the study of the poetics of "Oguznoma" will be considered.

Keywords: *"Oguznoma", epic, poetics, plot, genesis, event, ritual, symbol, image, cults of the ancient Turkic period - tree, wolf, sky.*

Аннотация : выяснение генезиса сюжета эпоса «Огузнома» помогает понять истинную природу произведения. Сначала будет рассмотрена сущность понятий «сюжет» и «генезис» и их роль в изучении поэтики «Огузнома».

Ключевые слова: *«Огузнома», эпос, поэтика, сюжет, генезис, событие, ритуал, символ, образ, культы древнетюркского периода – дерево, волк, небо.*

Ma’lum bir asar poetikasi, ya’ni badiiyatini tadqiq qilishda badiiy asarni yaxlit holda olib, tizimli o‘rganish katta samara beradi. Badiiy matnning tizimli (sistem) tahlili o‘rganuvchidan sinchkovlikni talab qiladi va matnning asl mohiyatini yorqin aks ettirishda muhim o‘rin tutadi.

“O‘g‘uznoma” dostoni syujeti genezisini yoritish asarning asl mohiyatini anglashda yordam beradi. Dastlab, “syujet” va “genezis” tushunchalarining mohiyati haqida, ularning “O‘g‘uznoma” poetikasini tadqiq etishda qay darajada o‘rni borligi to‘g‘risida to‘xtalmoq lozim.

Syujet asar mazmunini tashkil etuvchi voqealar tizimi bo‘lib, uning asosini motivlar tashkil qiladi. Syujet genezisi deyilganda, voqealar tizimining paydo bo‘lishi va shakllanish tarixi nazarda tutiladi.

Epik asarlarning syujet va motivi haqida mutaxassis-olimlarning fikrlari turlicha. Biroq ko‘pchilik tadqiqotchilar rus olimi A.N.Veselovskiyning bu boradagi fikrlariga asos sifatida suyanishadi.

U motivlarning syujetni yuzaga keltiruvchi eng asosiy bo‘g‘in ekanini ta’kidlab: ”Motivlar birlashib, syujet xalqasini yuzaga keltiradi”, degan edi . Olim motivlarni syujetining eng kichik bir bo‘linmas qismi sifatida talqin etadi. V.Propp va B.Putilovlar esa Veselovskiyning qarashlarini rivojlantirib, motivlarning o‘zgaruvchan ekanligini, syujetning kichik bir bo‘lagi bo‘lish barobarida o‘zlari ham bo‘laklardan, qismlardan tashkil topishga e’tibor qaratdilar. “Motivlar syujetning mag‘zidir” deydi B.Putilov .

Iste’dodli folklorshunos olim Jabbor Eshonqul ham bu masalada o‘z fikrini bildirib, shunday fikrlarni bayon etadi: “Epik asar syujeti, albatta, biror makon va zamonda kechar ekan, bu harakat shubhasiz, motivlarning harakati orqali amalga oshiriladi .

“O‘g‘uznoma” dostoni syujeti genezisi haqida to‘xtaluvdan oldin qadimgi turkiy xalqlar tarixiga bir nazar solsak. Dostondagi voqealar rivojini, har xil marosimlarni turkiy xalqlar, xususan, xunlar tarixidagi voqealar va marosimlar bilan solishtirganimizda doston syujeti genezisi oydinlashgandek bo‘ladi.

Turkolog olim A.M. Shcherbak fikrlariga ko‘ra, dostonning yozuv xususiyatlari To‘xtamishxon davri, uning yorliqlari bilan o‘xshashdir, ya’ni doston yozuvi va tili XIV asrga daxldor. Uning bu fikrlarida jon bor. Chunki O‘gal Bahouddinning anglatishicha, uyg‘ur yozuvi bilan yozilgan O‘g‘uz dostonida Islomiyatning hech bir izi yo‘qdir va uning Chingizxon davridan so‘ng yozilgani borasida ham hech shubha yo‘qdir . Shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu kitobiy doston garchi XIV asrda yozilgan bo‘lsa-da, uning syujeti genezisi ancha oldingi davrlarga borib taqaladi.

“O‘g‘uznoma” dostonidagi O‘g‘uz xoqon timsoli ko‘pchilik olimlar tomonidan tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. Ko‘plab olimlar O‘g‘uz xoqon obrazi orqali ma’lum bir tarixiy shaxs gavdalantirilgan, degan fikrni ilgari suradilar. Ular O‘g‘uz xoqon timsolida xun hukmdori Mode (N.L.Bichurin), Yuan-Shidagi Buqaxon (V.V.Radlov), Iskandar Zulqarnayn (Rizo Nur), Chingizxon (I.Marvart, D.Sinor) kabi tarixiy shaxslar yotishini ta’kidlaydilar. N.Ya.Bichurin Mode va O‘g‘uzxonning ayni bir kishi ekanligini aytadi .

Yana bir olim Ziyo Ko‘kalp “Milliy tatabbular” nomli kitobining 1-jildida Bichurindan bexabar holda Mode va O‘g‘uzxonning ayni bir shaxs ekanligini yozgan edi. O‘gal Bahouddin bu fikrlar eng mantiqli va aqlli fikrlardir deydi.

“O‘g‘uznoma” dostonidagi O‘g‘uz xoqon amalga oshirgan ishlar – uning turli yurtlarga yurish qilib, markazlashgan davlat tuzishi, umrining oxirida hokimiyatni farzandlariga topshirib, davlatni qay tarzda boshqarish kerakligi haqidagi bergan yo‘l-yo‘riqlari, dostondagi marosimlar tasviri miloddan avvalgi VII asrdan milodning 48-yiligicha O‘rta Osiyoda hukmronlik qiligan xunnlarning hamda davlatning asoschisi Mode (Mete, Mochun) faoliyatini eslatadi. Xitoy tarixchilarining ma’lumot berishicha, Mode xunnlarning yo‘lboshchisi Tumanning boshqa xotinidan yana bir o‘g‘li tug‘ilganidan keyin Modeni Yuechjiga surgun qilishadi. Bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng u bu yerdan qochib ketadi. Mode otasi Tumanni, ukalari hamda o‘gay onasini o‘ldirib, hokimiyatni egallaydi. U turli mamlakatlarga yurish qilib, ulkan Xun imperiyasiga asos soldi. O‘g‘uz xoqon obrazi va Mode o‘rtasidagi umumiylikni ko‘rsatuvchi yana bir dalil: dostondagi O‘g‘uz xoqon olti o‘g‘ilning uchtasiga oltin yoyni sindirib berdi va ularni “Buzuqlar” deb atab, o‘ng tarafga o‘tirgizadi. Qolgan uchtasiga kumush o‘qlarni bo‘lib beradi va “Uchuq” deb atab, chap tarafga o‘tirgizadi. Xun imperiyasida ham idora usuli o‘ng – so‘l tashkilotlarga bo‘lib berilgan. Xunlar hukmdori Modening amalga oshirgan faoliyati, markazlashgan davlat tuzish uchun qilgan ishlari, harakatlari, vatanparvarligi turkiy xalqlar qalbida chuqur iz qoldirgan. Shuning natijasida Mode faoliyati asos bo‘lgan “O‘g‘uznoma” dostoni shakllangan.

“O‘g‘uznoma” dostoni syujeti genezisini yoritishda yordam beradigan yana bir timsol, obraz mavjud. Bu dostonning muqaddimasida O‘g‘uz xoqonning tug‘ilishi bilan bog‘liq motivda uchraydi. Bu – Oy xoqon obrazidir.

Turkolog olimlar o‘rtasida O‘g‘uz xoqonning otasi haqida turli qarashlar mavjud. Uyg‘ur yozuvida aytilgan “O‘g‘uznoma” dostonida O‘g‘uz xoqonning bobosi Oy xoqon deb nomlangan. Ayrim manbalarda esa uning otasi Qora xoqon deb beriladi. Ma’lumki, uyg‘urlar miloddan avvalgi 763 yildan e’tiboran moniylik dinini qabul qilishgan. Shu sabab dostondagi Oy xoqon moniylik dinining izlaridan biri sifatida baholanadi. Chunki Oy Tangri moniylikda e’tiqod qilingan tangri edi. Bundan tashqari, shomon diniga e’tiqod qilgan Turk va Mo‘g‘ul qabilalarida ham Quyosh ona va

Oy ota borasida so‘z ochiladi. Yana Oltoylarda va Yenisey daryosi bo‘ylarida aytilgan afsonalarda erkak qahramonlarining eng zo‘rini Oy xon (Au - Nan) deb atashar edi.

“O‘g‘uznoma” dostonining umumiy tuzilishi haqida gapiradigan bo‘lsak, dostonga urug‘chilik jamiyatidagi mif va afsonalar asos bo‘lgan. Tuzilish jihatidan “O‘g‘uznoma” Kultigin yodgorligiga o‘xshaydi. Dostondagi mifologik motivlar va obrazlar O‘g‘uzning aniq bir geografik muhitdagi faoliyati shundan dalolat beradi. Kul tigin yodgorligi boshlanmasida mifik jarayon (Tangri – ota, yer - ona) yetakchilik qilganday. “O‘g‘uznoma”ning boshlanmasida ham shunday xususiyat bor. Shuning barobarida yana aytish mumkinki, urug‘larning paydo bo‘lishiga oid afsonalar bilan turkiy urug‘lardan Ashin urug‘ining paydo bo‘lishiga oid afsona o‘rtasidagi uyg‘unlik, qadimgi turk davridagi kultlar – daraxt, bo‘ri, osmon kultlarining qadimgi turkiy yodnomalarda va “O‘g‘uznoma”da umumiyligi ham doston syujeti genezisini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan fikr va dalillarni umumlashtirib, doston syujeti genezisi haqida, taxminan, quyidagicha to‘xtamga kelish mumkin. “O‘g‘uznoma” dostoni, garchi eski uyg‘ur yozuvida, taxminan XIV asrda bitilgan bo‘lsa-da, uning syujeti genezisi, bizningcha, islomiyatdan avvalgi qadimgi turkiylar davriga borib taqaladi. Doston syujetida yetakchi o‘rin tutgan motivlar, obrazlar, kultlar tahlili voqealar tizimini qadimgi turkiylar davrida, ya’ni VII-VIII asrlarda shakllanganligini ko‘rsatadi. Buni dostonda shomonlik mifologiyasining izlari ko‘rinib turganligi ham tasdiqlaydi.

Biz yuqorida “O‘g‘uznoma” dostoni syujeti genezisini ijtimoiylik asosida yoritib berishga harakat qildik. Mazkur jihatni badiiylik asosida ham aks ettirish mumkin. Bunda doston syujetidagi motivlar, obrazlar tahliliga suyaniladi. Zero, syujet genezisini uning asosini tashkil qilgan motivlar va obrazlarni chetlab o‘tib, yoritib bo‘lmaydi.

Masalan, dostondagi “O‘g‘uzxonning tug‘ilishi” motivini olaylik. Mazkur motiv “Avesto”dagi va Moniylar tavbanomasidagi Xo‘rmuzdning tug‘ilishi asosida shakllangan. Xuddi Axrimanga qarshi kurashuvchi, dunyoni yovuzlikdan qutqaruvchi sifatida Xo‘rmuzd tug‘ilgani kabi xalqni yirtqich domidan qutqarish uchun O‘g‘uzxon dunyoga keladi.

Dostondagi kurash motivining shakllanishida zardushtiylik, shomon, moniylikdagi ezgulik va yovuzlik xudolari, ezgu va yovuz ruhlar o‘rtasidagi kurash yotadi.

“O‘g‘uznoma” dostonidagi tush motivining shakllanishida, biznigcha, shomonlik dinining alohida o‘rni bor. Mazkur motivning yuzaga kelishi va shakllanishida shomonlik mifologiyasi asosida yaratilgan qadimgi turkiy adabiyot namunasi – Fol kitoblari alohida rol o‘ynagan. “O‘g‘uznoma” dostonida O‘g‘uz qavmi oqsoqoli Ulug‘ Turkning ko‘rgan tushi vositasida O‘g‘uzxon davlati, avlodlarining keyingi taqdiri ramziylik asosida yoritib berilgan.

Dostondagi kultlar, obrazlar tarixi ham syujet genezisini badiiylik asosida yoritib berishga ko‘maklashadi. Dostondagi tog‘, daraxt, suv kultlari; bo‘ri, qush timsollari qadimgi turkiy adabiyot namunalarida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Irq bitig”dan quyidagi misolni keltirish mumkin:

Agar tog‘ degan tush kelsa,
Ta’biri shunday bo‘lar:
Tog‘lik yerdan tog‘ yuksalar,
bo‘rtiq paydo bo‘lur,
Tuproq ustida tuproq paydo bo‘lur .

yoki “Bilga xoqon” bitigida shunday o‘rinlar bor: “Sandal yog‘ochi keltirib, shuncha xalq sochini, qulog‘ini, yanog‘ini kesdi”. Tog‘, daraxt kultlari shomonlikda, turkiy mifologiyada o‘rta olam, inson naslining davomiyligi ramzi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “O‘g‘uznoma” dostoni syujetining genezisi, shakllanishi badiiy jihatdan qadimgi turkiy adabiyot davrida yuz bergan. “O‘g‘uznoma” syujeti turkiy xalqlar folkloridagi dostonlar syujetining boyishida asos bo‘lib xizmat qilgan.

“O‘g‘uznoma” dostoni badiiy xususiyatlarini o‘rganish qadimgi turkiy xalqlarning tasavvurlar dunyosini tadqiq qilishimizda yordam beradi. Dostonda badiiylik nimada ko‘rinadi? Doston syujetining asosini tashkil qilgan mifologik motivlar obrazlar, kultlar asar badiiyatini belgilaydi. Ular zamirida yotgan mifik mazmun, ramziylik nafaqat ajdodlarimiz, umuman, insoniyatning ruhiy dunyosini, tasavvurlar olamini o‘rganishimizga ko‘mak beradi. Zero, qadim ajdodlarimiz atrofini o‘rab turgan koinotning sir-sinoatlarini, tabiatdagi hodisalarning sabablarini bilishga intilish asnosida o‘z ichki dunyolarini kashf qilishga uringanlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –Л., 1940. 94 с.
2. Жаббор Эшонқул. Ўзбек халқ достонларида туш мотиви // Ўзбек тили ваадабиёти, 1993, №...., 128-бет.
3. Путилов Б. Мотив как сюжетообразующей элемент // Типологические исследование по фольклору. –М., 1975. стр.142.
4. Ўғал Баҳоуддин. Турк мифологияси. –Анқара, 1993. 128-бет.
5. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-жилд. –Тошкент: “Фан”, 2003. 71-бет.

Nigora XOLMATOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Feruza QURBONOVA,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

FIQRALAR

Annotatsiya: mazkur maqolada Erkin A’zamning "Ertalabki xayollar" to‘plamiga kirgan fiqralar tahlil etildi. Maqolada ularga xos muhim badiiy-publitsistik xususiyatlar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: *Erkin A’zam, badiiy publitsistika, fiqra, ijtimoiy muammo, ma’naviy-axloqiy muammo.*
Аннотация: в данной статье проанализированы предложения, вошедшие в сборник Эркина Азама «Утренние сны». В статье выделены их важные художественные и публицистические особенности.
Ключевые слова: *Эркин Азам, художественная журналистика, художественная литература, социальная проблема, духовно-нравственная проблема.*
Annotation: this article analyzed the sentences included in Erkin A'zam's "Morning Dreams" collection. The article highlights their important artistic and journalistic features.
Key words: *Erkin A'zam, art journalism, fiction, social problem, spiritual and moral problem.*

Mazkur maqolada Erkin A’zamning "fiqra" nomi ostida chop etilgan hajman mitti, ammo mazmunan atom kuchiga teng bitiklari va maqolalariga to‘xtalmoqchimiz. Binobarin, "Ertalabki xayollar" to‘plamiga muallifning 40 dan ziyod fiqralari "Shap-shap degancha..." fasliga kiritilgan. Shuni alohida qayd etish joizki, Erkin A’zam fiqralarni "Tafakkur" jurnalining "Muharrir minbari" rukniga moslab yozdi. Ular hajman nihoyatda ixcham, ammo mazmunan kuchli. Abdulla Qahhor ta’biri bilan aytganda, ularda "atomning kuchi bor". Jumladan, muallifning "Boy bo‘lay desangiz...", "Inson o‘zing", "Shoshmasdan shoshiling", "Uyat bo‘ladi", "Jannat qidirib", "Jonajon" ukaxonlar", "Hoziriylar", "Maniy kasha sog‘inchi", "Zarchopon" kabi o‘nlab fiqralari ijtimoiy-maishiy hayotda uchraydigan muhim ma’naviy-axloqiy, maishiy-ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangani bilan e’tiborni tortadi. Erkin A’zam o‘zbek milliy turmushida uchraydigan xo‘jako‘rsinga qilinadigan ishlarga qaqshatqich zarba beradi. Jumladan, yubiley va to‘y-hashamlarda sovg‘a tariqasida beriladigan to‘n kiydirish, tog‘ora qilish kabi urf-odatlarni tanqid qiladi. Publitsist millatimiz hayotida uchraydigan bunday keraksiz urf-odatlarning yo‘q bo‘lib ketishini istaydi. Masalan, muallifning "Zarchopon" maqolasida yubiley munosabati bilan to‘yona qilinadigan "Zarchoponlar"ning hayotimizda ne qadar ahamiyati bor, degan savolni qo‘yadi. Erkin A’zam badiiy ijodiy uslubiga xos kinoya, tanqidiy ruhni fiqralarida ham kuzatish mumkin. Masalan, yozuvchi shunday yozadi: "Lekin gap faqat zarchopon ustida ekan-da, deb o‘ylamang. Zarchopon - ehtirom belgisi, qutlug‘ udumimiz, albatta. Qolaversa, u hali holva. Milliy turmushimizda, afsuski, riyoga o‘xshab ketadigan bunaqa xo‘jako‘rsin sipogarchiliklar bir dunyo! Kelinchakning hayitida nomchiqararga yuboriladigan behisob, ko‘pincha uvol ketadigan, besamar tog‘oralar ham shu siradan.

Ajabo, yigirma birinchi asrga ham shu kabi yaltir-yultir "tog‘ora"lar bilan o‘tdig-a! Bu hol taraqqiyotmi yoki tushovmi?

Ellikka kirdingizmi, oltmishga? Yelkani shaylayvering..." . Kuzatib turganimizdek, Erkin A’zam bunday keraksiz an’analardan voz kechish kerakmikan, degan savolni qo‘yadi. Millatning ko‘zini ochishga harakat qiladi. Umuman olganda, Erkin A’zamning har bir fiqrasida muammoli bir vaziyatga tanqidiy qarash, analitik tahlil bo‘rtib ko‘rinadi. Deylik, "Hoziriylar" maqolasida muallif "faqat bugunini o‘ylaydigan kaltinbin kishilar"ni tanqid qiladi. Erkin A’zam mazkur fiqrada o‘tish davri odamlarida urchigan "bugungi kun kayfiyati bilan yashay boshlagan zamondoshlarimiz"ni qattiq tanqid ostiga oladi. Muallif maqolani "faqat bugungi kun g‘ami bilan emas, ertangi kun tashvishi bilan ham yashaylik" deb publitsistik da’vat bilan yakunlaydi.

Shuningdek, muallifning “Uyat bo‘ladi” fiqrasi e’tiborni tortadigan maqolalardan biri. Maqola ustoz Abdulla Qahhorning “Uyat” degan maqolasini eslash bilan boshlanadi. Erkin A’zam Abdulla Qahhorning "Uyat" haqidagi maqolasini quruq fakt sifatida eslamaydi. Ilk bor ushbu maqola teksti bilan adibning shaxsan o‘zi oynayi jahon orqali o‘qib eshittirganida tanishgani, o‘sha paytda muallifning dilidan kechgan hissiy kechinmali xotiralar bilan boshlanadi. Jumladan: "Ustoz Abdulla Qahhorning "Uyat" degan maqolasi bor. Unda mazkur tushunchaga axloqiy jihatdan yondashilib, bu insonni hayvondan ajratib turuvchi tuyg‘udir, degan yo‘sinda tavsif berilgan.

Men maqolaning mazmunini dastlab televizor orqali adibning o‘z og‘zidan eshitgan edim. O‘shanda ne-ne dolzarb ijtimoiy-madaniy muammolar qolib, ustozimizning anchayin bir axloqiy mavzuda, qolaversa, bolalik-yoshlik chog‘larimizda har qadamda eshitadiganimiz tanbehnamo bir so‘zga ("Uyat bo‘ladi!") bu qadar urg‘u berib so‘z yuritgani menga erish tuyulgani rost" .

Erkin A’zam nima uchun yana shu mavzuga qaytdi? Takror murojaat etdi. Yozuvchining o‘zi bu savolga

fiqrada javob beradi. Adib uyat hissi bilan yashash insonni hayvondan ajratuvchi eng muhim tuyg‘u ekanligiga urg‘u beradi.

Muallif fiqralarini yaxlit holda kuzatganimizda, ularda adibni o‘ylantirgan, iztirobga solgan man’aviy, axloqiy, ijtimoiy muammolarni ko‘rish mumkin. Masalan, "Hoziriylar" fiqrasida adib o‘tish davri odamlarida kuzatilgan "toshi yengilroq" kimsalarni tanqid qiladi.

"...Ov", "...ov", "-vich", "-vich" fiqrasida hujjatlarda hamon ruscha tilda imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozib kelinayotgan ism-familiyalarga to‘xtaladi. Yozuvchi odamning ismi-sharifidayoq milliy o‘zlikni ko‘radi. Shuning uchun adib shunday yozg‘iradi: "Axir, milliy o‘zlik degani - o‘zimizdan, o‘zimizning nomimiz, har birimizning ismi sharifimizdan boshlanmaydimi? O‘zini bilgan mardum ismini buzib yoki o‘zgacha - yot maqomga solib atashlariga qanday chidaydi? To‘g‘ri, bu ishning ma’lum rasmiyatchiliklari bor - vaqt kerak, hafsala kerak. Lekin shunga hafsala qilmagan... millat sanaladimi? Ertaga bir kun buni avlodlarimizga nima deb tushuntiramiz?" . Umuman olganda, adibning har bir fiqrasida o‘z zamondoshiga, millatdoshiga murojaati bo‘rtib turadi. Erkin A’zam badiiy publitsistikasi obrazli, ta’sirchan tili bilan o‘quvchining e’tiborini tortadi. Deylik, muallifning "Namkashlik" fiqrasini olaylik. Unda publitsist har narsani o‘ziga olaveradigan odam bilan namkash devorni qiyoslaydi: "Bilasiz, poydevor mustahkam bo‘lmasa, zarur choralari ko‘rilmasa, devor avval zax uradi, sho‘rlaydi, bora-bora suvog‘i ko‘chib, o‘piriladi, bir kuni qarabsizki, nurab tushibdi.

Ayrim odamlar ana shunday namkash devorga o‘xshaydi. Saratonning shamolidan ham nam tortadi. Chunki tagzamin mo‘rt, sust. Kim haqdadir nimadir deyildimi, bas, uni darhol o‘ziga oladi, darhol voy-voylab, qarshi chora qo‘llamoqni boshlaydi" . Erkin A’zam fiqralarning mazmundor, ta’sirchan chiqishi uchun hatto maqola matniga xalq og‘zaki ijodi namunalaridan qisqa afsonalar, maqollarni ham kiritadi. Ammo bu kiritmalar shunchaki, qog‘oz qoralash, sahifani to‘ldirish uchun emas. Bunday kiritmalar fiqralar badiiy-publitsistik zalvorini oshirish uchun xizmat qiladi. "Namkash" fiqrasida muallif "Ibn Arabiy" haqidagi afsonani qistirma qilish orqali fiqraning yanada o‘qimishliligini, ta’sirchanligini ta’minlaydi. Shuningdek, afsonaning qisqa bayonidan so‘ng, fikrini xulosalash maqsadida shunday xalq maqolidan foydalanadi: "Chumchuqdan qo‘rqib tariq ekmaganidek, biri Gulxaniyga shogird tushib zarbulmasal bitsa, biri fantastikaga o‘tib osmoni falak tasviriga kirishsa, real hayotni kim yozadi? Nuqul shunday asarlarni o‘qiyverganidan Yer odami o‘zga sayyoralikka aylanib ketmaydimi?"

Erkin A’zam "O‘zim o‘qimaganman, lekin - zo‘r!" fiqrasida "sig‘inchoqlik, pirparastlik" ijtimoiy kasalini tanqid qilsa, "Munosib bo‘laylik" fiqrasida g‘arbparastlik, taqlidchilik, begonaparastlik ijtimoiy illatlariga zamondosh e’tiborini qaratadi. Agar mazkur tilga olingan fiqralar zimniga teran nazar tashlasak, muallif har bir maqolasida milliylikka, milliy zamindan uzilmaslikka da’vat etadi. Qisqasi, yozuvchi olomoncha madaniyatga, olomoncha fikrlash va olomoncha taqlidchilikka qaqshatqich zarba beradi. "...Biri dilda" firqasida yozuvchi ikkiyuzlamachilik, munofiqlik singari ijtimoiy illatlarni fosh etsa, "Zar yamoqlar" fiqrasida soxta shuhratparastlikni jiddiy tanqid qiladi. Unda shunday deyiladi: "Shuhrat - cholvordagi ko‘zga tashlanib turadigan zar yamoqdir", degan ekan bir vaqtlar Pushkin. Cholvorida zar yamog‘i bor odam shaxs atalaveradimi?

Gap keldi, aytaylik: mamlakat sahnasi ham, jahon sahnasi ham milliy sharaf niqobidagi g‘irromliklar bilan emas, chinakam ijodiy mehnat, aql-zakovat bilan zabt etilsa, halol, umrboqiy bo‘ladi" .Nazarimizda, Erkin E’zamning globallashuv jarayonida sodir bo‘layotgan olomonchilik, millatning aynishi, milliy zamindan, milliy o‘zlikdan uzilish kabi jiddiy muammolar haqidagi badiiy-publitsistik g‘oyalari bora-bora kuchayib, "Shovqin" romanida badiiy roman, duragay obrazlar qiyofasida mujassamlashdi. Zero, romanda yozuvchi madaniyatlar, san’atlar, odamlar tobora bir-biriga yaqinlashuvi, integratsiyalashuv jarayonida sodir bo‘lgan duragay obrazlarning dahshatli fojiasini "Shovqin" romanida maromiga yetkazib, ifodalab berdi. Kuzatib turganimizdek, Erkin A’zam ijodida fiqralar shunchaki, bir sahifalik yoki bir yarim sahifalik quruq publitsistik chiqishlar doirasida qolib ketdi. Aksincha, fiqralarda o‘rtaga tashlangan ko‘pdan-ko‘p global, umuminsoniy muammolar va g‘oyalar kun kelib Erkin A’zamning badiiy ijodida qissa, roman, hikoya bo‘lib yaralishiga katta zamin vazifasini ham o‘tadi.

"Marhamatsiz tomoshabinlar" fiqrasida esa o‘zim bo‘laychilik, xudbinlik, loqaydlik kayfiyatiga tushib qolgan zamondoshlarimiz tabiatida urchib ketgan salbiy xususiyatlarni fosh etadi."Farqi bor! Bor!" fiqrasida esa o‘zi erkin fikrlay olmaydigan temirtan - robot odamlarni tanqid qiladi: "Dunyoviy istilohda bunaqalar "zombi" deb ataladi. Mudom birovning tizginida yuradigan irodasiz qul, o‘zi erkin fikr qilolmaydigan temirtan banda - robot. Manqurt desayam bo‘ladi.

O‘zimning bir jiyanim bor, es-hushli tuppa-tuzuk yigit, talaba - baobro‘ bir o‘quv dargohida tahsil ko‘radi. Lekin nima gap so‘ramang, javobi bir xil: "Farqi yo‘q". "Ertaga darsga borasanmi yoki bekor kuningmi?" "Siz nima desangiz - shu. Farqi yo‘q."O‘qishni bitirgach qolib ilmiy ish qilmoqchimisan yo qishloqqa ketasanmi?" Farqi yo‘q" . Kuzatib turganimizdek, Erkin A’zam fiqralar matnida hayotiy faktlardan ham unumli foydalanadi. Deylik, yuqoridagi fiqrada mustaqil fikrlay olmaydigan kishilar fojiasini bir yaqin qarindoshi xarakterida kuzatgan hayotiy misol bilan dalillab ketadi. Erkin A’zam fiqralarining badiiy-publitsistik kompozitsiyasini chuqur o‘rganish natijasida shu xulosaga keldikki, ularda obrazli badiiy til bilan

birgalikda hayotiy muammolar va dalillar, nihoyatda siqiq, ixcham tarzda beriladi. Yozuvchi yaratgan har bir fiqrada davrning muhim jarohatlari, illatlari haqida kuyinchaklik bilan yozilganini anglash mumkin. Erkin A’zam fiqralari deyarli o‘n yildan ziyod vaqt mobaynida "Tafakkur" jurnalining brendiga aylandi. Ammo so‘nggi yillarda "Muharrir minbari"dan olib tashlangan fiqralarning ahamiyati yozuvchining oradan ancha yillar o‘tgan bo‘lsada, yozuvchining o‘z vaqtida dolzarb muammolarga e’tibor qaratgani ayon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аъзам Э. Фарқи бор! Бор! / Эрталабки хаёллар. - Тошкент: Ўзбекистон, 2015. - Б. 214.
2. Аъзам Э. "...Ов", "...ов", ..."-вич", "-вич" / Эрталабки хаёллар. - Тошкент: Ўзбекистон, 2015. - Б. 182.

Nargis KUDRATXODJAYEVA,
ToshDTU dotsent, f.f.n.

LEKSIK MATNLAR YORDAMIDA TALABALAR NUTQINI O‘STIRISH

Annotatsiya: davlatimizda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

Kalit so‘zlar: *nutqiy savodxonlik, leksik imkoniyat, ixcham matn, bayon, hikoya;*

Annotation: the increasing social status of the Uzbek language in our country, the introduction of the new Uzbek alphabet and spelling rules based on the Latin script, and the transition to the state language in business operations require that all specialists, regardless of their nationality, master the Uzbek language thoroughly. is doing.

Keywords: *verbal literacy, lexical ability, concise text, narrative, story;*

Аннотация: повышение социального статуса узбекского языка в нашей стране, введение нового узбекского алфавита и правил правописания на основе латиницы, переход на государственный язык в предпринимательской деятельности требуют от всех специалистов, независимо от их национальности, владения узбекским языком.

Ключевые слова: *речевая грамотность, лексические способности, сжатый текст, повествование, рассказ;*

O‘zbek tili fanini davlat tili sifatida puxta egallash uchun har bir talaba o‘zbek tilining og‘zaki va yozma nutq shakllarini to‘liq o‘zlashtirishi, uning so‘z boyligidan grammatik bilimlar asosida to‘g‘ri foydalana bilishi, kundalik turmush va tanlangan ixtisosligiga oid mavzularda o‘zbekcha erkin muloqotga kirisha olishi zarur.

Ta’limning oliy bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni yanada takomillashtiriladi. Bunda ilgarigidek maktabda olingan bilimlarni mustahkamlash yo‘lida borilmaydi, aksincha litsey va kollejda egallagan bilimlari asosida oladigan ixtisosliklari doirasida bog‘lanishli nutqni o‘stirish ko‘zda tutiladi. O‘zbek tili ta’limi mazmunini talabalarning nutqiy savodxonligini, grammatikani o‘qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o‘zbekcha nutqni tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozish amallarini uyg‘unlashtirib o‘rgatish bilan ajralib turadi. Bunda ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib tushunishi, ixtisoslik sohasida matn yaratish va hujjat tuzish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko‘chira olish kabi murakkab talablar qo‘yiladi. Bu o‘z navbatda talabalarning o‘zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to‘g‘ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o‘rinli foydalanishni qanchalik puxta o‘zlashtirganliklariga bog‘liq bo‘ladi. Bularning barchasi ta’limning yuqori bosqichida o‘zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimning hayotiyligi, kengligi va qiziqarliligi, o‘qitilishi usulining zamonaviyligi, audio-vizual vositalarning samarali qo‘llanilishi bilan ta’minlanadi.

Talabalar og‘zaki va yozma nutqining rivoji olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasi bilan bog‘liqdir. Talaba maxsus tayyorlangan savol-topshiriqlar asosida berilgan mashqlarni bajarar ekan, grammatik qonuniyatlarni amaliyotda qo‘llashga harakat qiladi. Bu savol va topshiriqlar talaba uchun yo‘nalish beradi. Bunday ishlarda talaba nisbatan tor doirada mustaqil harakat qiladi. Agar mustaqil ravishda so‘z boyligini oshirib, yangicha matn yaratishga muvaffaq bo‘lsa, mavzuni o‘zlashtirish darajasi ham yuqori bo‘ladi. Mavzu yuzasidan gap, o‘zaro bog‘liq gaplar, ixcham matn, bayon, hikoyalar tuzishni talabalarga har mavzudan keyin o‘rgatish ularning nutqini to‘g‘ri shakllantirib boradi. Talaba nutqini rivojlantirish uning so‘z boyligini boyitish bilan chegaralanmaydi. Nutq rivoji, avvalo, fikrlash-tafakkur, idrok, ong kabi psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Talabalar nutqini rivojlantirish uchun uni kuzatish, o‘ylash, fikr yuritishga majbur qiladigan

mavzularda dastlab og‘zaki hikoyalar, keyinroq yozma matnlar yaratishga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, ijodiy-amaliy ishlar matn yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Matnlar yaratish ijodiy-amaliy ishning eng qiyin bosqichi bo‘lib, u talabadan avval nima haqida yozish kerakligini, keyinchalik esa o‘z fikrini qanday ifodalash lozimligini aniqlashni talab qiladi. Bu esa qoidalarni bilish bilan birga, ma’lum darajada so‘z boyligiga ega bo‘lishni, so‘z birikmalari, iboralar, frazeologizmlar, omonimlar, paronimlar, sinonimlardan o‘rinli foydalana olishni, atrof va voqelik haqida, mutaxassislik fanlari to‘g‘risida tasavvur, bilimga ega bo‘lishni, kuzatuvchanlikni, mushohada qilishni taqozo etadi. Agar shu xususiyatlardan birortasi bo‘lmasa, tuzilgan matn sifati talab darajasida bo‘lmaydi.

Turli mavzularga bag‘ishlangan rasmlarda nimalarni ko‘rayotganliklarinigina emas, balki ko‘rish orqali nimalarni his qilayotganliklarini, tasvir ularda qanday ichki kechinmalar uyg‘otganligini ham ifodalay bilishlari kerak. Ijodiy yozma ishning bu ko‘rinishi uchun tavsiya qilinadigan rasmlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

a) suratlar rangli tasvirda bo‘lishi; b) tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi (talabaning ma’naviy dunyosini boyitishi, go‘zallikni ko‘rishga, his qilishga o‘rgatishi va his-tuyg‘ularni so‘zlar vositasida ifodalay olish kabilar ko‘zda tutiladi); v) san’at asarlari turlari, janrlari va ularning mualliflari bilan tanishish imkoniyatini berishi; g) chegaralanmagan ijodiy erkinlik berishni nazarda tutishi kerak.

Rasm asosida ijodiy matn yaratishga tayyorgarlik jarayoni, bizning nazarimizda, bosqichli ravishda tashkil qilinishi kerak: Birinchi bosqichda, matn yaratishdan avval surat asosida suhbat o‘tkazilib, lug‘at yaratilib, ikkinchi bosqichda lug‘atdagi so‘zlar ma’nosini izohlash lozim bo‘ladi. Yakunlovchi uchinchi bosqichda lug‘atdagi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni iboralar, ularning ma’nodoshlari bilan almashtirish, uyadoshlar qatorini tuzish yuzasidan mustaqil ish tashkil qilish.

Rasm asosida matn tuzish jarayonida talabaning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish maqsadida ijodiy ish jarayonini uch bosqichga bo‘lish ma’qul:

1-bosqich: tasvirlangan holatga qadar bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar haqida bildirilgan mantiqiy fikr va mulohazalar;

2-bosqich: tavsiya qilingan rasmdagi holat tavsifi va unga munosabat;

3-bosqich: mazkur holat davomi haqida talabaning mustaqil bayoni.

Bu uch bosqichli ish talabaning mushohada qilish doirasini, dunyoqarashini kengaytiradi.

O‘zbek tili ta’limida namoyish etiladigan tasviriy vositalar ham talaba dunyoqarashini kengaytiradigan, uni san’atning shu turi bilan yaqindan tanishtiradigan haqiqiy san’at asari bo‘lishi shart. O‘qituvchi rasm asosida topshiriq berar ekan, quyidagilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi: a) talabaning savodxonligini oshirish; b) o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirish va mustahkamlash; v) talabaning yozma matn tuzish malakasini rivojlantirish; g) mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va h.k.

Agar maqsad shulardangina iborat, ya’ni tor bo‘lsa, ko‘rgazmali qurol sifatida foydalanilgan tasviriy san’at asarlari faqat ma’lum mavzuni o‘zlashtirishga xizmat qiladi, xolos. Shuning uchun tasviriy vosita bilan ishlash jarayoni keng maqsadni qamrab olgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi yuqorida sanab o‘tilgan maqsadlar bilan bir qatorda talabalarga: d) tasviriy vositaning janri (imkoniyat darajasida uslubi haqida ham) haqida boshlang‘ich ma’lumot berishi; e) musavvirning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini aniqlashi; j) san’at asariga shaxsiy munosabat bildirishga talabani o‘rgatishi kerak. Agar o‘qituvchi sanab o‘tilganlarni bir butun, yaxlit holda amalga oshirishga muvaffaq bo‘lsa, u talabalarining mazkur fan yuzasidagi bilimlarini mustahkamlagan va ularni keng ko‘lamda o‘ylashga ham o‘rgatgan bo‘ladi. Binobarin, ta’limga ana shunday yondashish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir.

Har bir pedagog dars mashg‘uloti davomida talabalar ongida bilim, ko‘nikma, malakalarni ketma-ket uzviy holda hosil qilishni o‘z maqsadiga aylantiradi. Bu haqida buyuk nemis pedagogi A. Disterverg o‘qituvchida dars berishga, o‘ylashga majbur eta olish, eng muhimi, talabada mustaqil ishlash istagini uyg‘otish zarurligini bundan bir yarim asr muqaddam ta’kidlagan edi. Zamonaviy darsning talabi ham bu ulug‘ olim fikriga monanddir. Yana olimlarning fikricha, har qanday dars quyidagi 10 ta talabga javob berishi lozim:

1.Tarbiyaviy maqsadning ta’lim bilan mushtarakligi. 2.Mavzu mazmunining ilmiyligi. 3. Darsda nutq obyektini hayot bilan bog‘lash. 4.Kasbiy yo‘nalishga e’tibor berish. 5.Talabalarni mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashga jalb etish. 6.Mavzu mazmuniga mos metod va usullardan foydalanish. 7.Fanlarning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash. 8.Mavzuning tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liqligi. 9. Ekologik tarbiya. 10. Estetik tarbiya.

Yozma va og‘zaki nutqni shakllantirish, rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladigan ijodiy ishlar, suhbatlar, munozaralar uchun tanlanadigan mavzular ana shu 10 ta talabga javob bersa, ular asosida yozilgan yozma ishlar talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xullas, nofilologik yo‘nalishda ta’lim olayotgan rusiyzabon talabalarning yozma ixtisoslik nutqini o‘stirishda yuqoridagi usullardan foydalanish rejalashtirilgan mavzularni puxta egallash va amalda qo‘llashda katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006-y, 15-b.

2.Usmonova O., Kudratkhodjayeva T. "Innovate methods on efficient teaching of languages". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021, USA.

3.Usmonova O.Y., Kudratxodjayeva N..A., Usmonova Z.N. Methods of developing the reading culture of students. Central European Management Journal.Vol. 30 Iss. (2022) 2818-2822-б.

Dilshod NABIYEV,
BuxDPI tayanch doktoranti,
Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIMDA QO‘LLANUVCHI KOMPYUTER VOSITALARINING TURLARI VA KLASSIFIKATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya tizimida innovatsion texnologiyalar sohasidagi ilg‘or tajribalar, ta’lim tizimini samarali tashkil etish va ta’lim vositalari haqida so‘z yuritilgan va ularning ilmiy nazariy tahlili qilingan.

Tayanch iboralar: *multimedia, texnologiya, virtual materiallar, kompyuter vositalari, ta’lim vositalari, axborot, audiovizual, model, klasssifikatsiya, axborot-kommunikatsiya va hokazo.*

Аннотация: в данной статье рассказывается о передовом опыте в области инновационных технологий в системе образования и обучения в общеобразовательных школах, эффективном внедрении системы образования и образовательных инструментов, а также производится их научно-теоретический анализ.

Ключевые слова: *мультимедиа, технологии, виртуальные материалы, компьютерные средства, образовательные средства, информация, аудиовизуальные средства, модель, классификация, информационно-коммуникативные средства.*

Annotation: this article talks about the best practices in the field of innovative technologies in the education and training system in general education schools, the effective implementation of the education system and educational tools, and their scientific theoretical analysis is made.

Key words: *multimedia, technology, virtual materials, computer tools, educational tools, information, audiovisual, model, classification, information-communication.*

Hozirgi kunda ta’lim muassasalarining ilg‘or pedagogik jamoalari ishlash amaliyotida turli zamonaviy kompyuter vositalaridan keng foydalanish tobora ko‘proq qo‘llanilmoqda. Shu munosabat bilan kompyuter vositalarining majmuaviy qo‘llanilishi masalasi alohida e’tiborga molik bo‘ladi.

Pedagogikada bugungi kunda "o‘qitish vositalari" tushunchasining bir ma’noli ta’rifi yo‘q. Birinchi toifa mualliflar uni tor ma’nosida, qo‘llab o‘qitishning umumta’lim va tarbiyaviy maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan vosita-asboblarini nazarda tutadi. Ikkinchilari esa, kompyuter vositalariga moddiy vosita-asboblaridan tashqari insonga obyektiv voqelikni vositali va bevosita bilishni amalga oshirishga imkon beruvchi fikrlash faoliyatini amalga oshirishning aqliy vositalarini qo‘shadilar. Uchinchi toifasi, kompyuter vositalarini o‘quvchi materialini o‘zlashtirishi uchun foydalanadigan o‘qish vositalari hamda sof ma’noli kompyuter vositalariga ajratadilar. To‘rtinchi toifasi esa kompyuter vositalarini keng ma’noda ko‘rib chiqib, bu atama bilan o‘qitishning butun mazmuni va bo‘lgan loyihasini hamda o‘qitishning vosita-asboblarini o‘zinigina belgilaydilar. Mavjud ta’riflarda esa bu tushuncha asosan kompyuter vositalariga taalluqli bo‘ladi. Bunda ularnig funksional vazifalari hisobga olinmaydi. Bundan tashqari kompyuter vositalari majmuini qo‘llashning nazariy muammolari pedagogik amaliyotlarda yetarlicha yoritilmaganligi bilan bir qatorda nazariy va ishlab chiqarish ta’limi darslarida o‘qitishning vositalarini majmuiy qo‘llash uslubiyoti masalalarini ochib beradigan ishlarning yetarli emasligi bilan birga kompyuter vositalarini o‘quv ma’lumotlari manbalari sifatida foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil ishlash jarayonida ulardan majmuaviy foydalanish uslublarining ilmiy asoslari ishlab chiqilmagan.

O‘quv fanining kompyuter vositalari majmuasini loyihalashtirishda boshlangan hujjat – ta’lim jarayonining mazmunini zamonaviy ishlab chiqarish, ilmiy-texnik taraqqiyotning malakali mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan talablariga muvofiq belgilaydigan o‘quv dasturdir. Kompyuter vositalari majmui dasturiy materialning butun asosiy mazmunini qamrab olishi lozim. Majmuiylik bu holda o‘quv dasturining har bir o‘quv mavzusi bo‘yicha kompyuter vositalarining zaruriy eng kam to‘plami bilan ta’minlangan bo‘lishi zaruratida ifodalanadi.

Kompyuter vositalarining ta’lim-tarbiya

jarayonining tarkibiy qismi sifatidagi asosiy didaktik vazifalari quyidagilardan iborat:

– kompyuter vositalari qo‘llanishisiz qiyin o‘zlashtiriladigan u yoki bu predmet yoki hodisa timsolini eng to‘liq va chuqur tushunilishi sifatida o‘quvchilar uchun o‘quv materialining ko‘rgazmaliligi va oson tushunilishi darajasini oshirish;

– o‘quvchilarning bilish faoliyatining qondirilishi va eng yuqori darajada rivojlantirilishi, chunki aynan bu faoliyat egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi va sifatini belgilaydi;

– o‘quvchilar mehnatini o‘quv materialini o‘rganish tezligini oshirishga imkon berishi uchun intensivlashtirish;

– o‘qituvchilarni sof texnik ishlarning katta hajmidan ozod etuvchi ma’lumot manbai. O‘qituvchi kompyuter vositalari har bir turining didaktik imkoniyatlarini qanchalik yaxshi bilishiga qarab ularni qo‘llash samaradorligining yuqori darajasiga bog‘liq bo‘ladi;

– o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish vositasi.

Barcha o‘qitish vositalarning vazifasi, maqsadiga ko‘ra farqlanadigan quyidagi uchta guruhini ajratish mumkin: o‘quv materialini bayon etish jarayonida ma’lumotlarni uzatish uchun; o‘quvchilar mustaqil ishlarini tashkil etish va o‘tkazish uchun; ta’lim jarayonini nazorat qilish va boshqarish uchun.

Turli-tuman kompyuter vositalari orasida kompyuter vositalari alohida guruhni tashkil etadi. Kompyuter vositalari vazifalari ta’limda ko‘rgazmalilikni amalga oshirish bilan cheklanib qolmaydi, qator hollarda ular ma’lumotning mustaqil manbai, ta’limni individuallashtirish vositasi bo‘ladi. Kompyuter vositalari pedagogni ba’zi ikkinchi darajali vazifalaridan xalos etib, ayni paytda uning ta’lim jarayonini boshqarish va rahbarlik qilish vazifalarini kuchaytiradi. Ta’lim jarayoniga kompyuterlar va o‘quv dasturlarining yetarli miqdordagi o‘quv dasturlarini kiritish ushbu vazifalarni to‘laroq amalga oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlar ta’lim muassasalarini zamonaviy kompyuter vositalari bilan ta’minlash, ulardan keng foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bular qatorida kompyuterlar, multimedia, videoproektor, skaner, kodoskop, lingafon xonalari bilan jihozlanmoqda.

Zamonaviy kompyuter vositalaridan dars davomida kompyuter vositalaridan, kompyuter dasturlaridan, didaktik vositalardan, mini plakatlardan, slaydlardan foydalanish, o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirishda katta yordam ko‘rsatishini hammamiz ham yaxshi bilamiz. Undan tashqari seminar va anjumanlarda kompyuter vositalaridan foydalanish biz uchun qulaylik yaratdi.

Ta’lim vositalarining turlari. Ta’lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan ta’lim vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim vositalari – o‘qitilishi va o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarni beruvchi har qanday axborot tashuvchi vositalardir. Ta’lim vositalarini foydalanilishi jihatidan quyidagi 3-qismga ajratish mumkin:

– ta’lim beruvchi uchun;

– ta’lim oluvchi uchun;

– dars o‘tkazish uchun.

Ta’lim beruvchi uchun vositalar: o‘quv-metodik qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o‘quv dasturlari, dars rejasi, ma’ruza matni.

Ta’lim oluvchi uchun vositalar: darsliklar, o‘quv qo‘llanma, jadvallar, yo‘l-yo‘riq xaritalari, topshiriq varaqlari. Dars o‘tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audivizual vositalar, kompyuter vositalari, real vositalar. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchi uchun mo‘ljallangan ta’lim vositasi ta’lim beruvchi uchun ham, dars o‘tkazish uchun ham talab etiladi. Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to‘ldirishi kerak. Bundan tashqari ta’lim vositalarini xususiyatlariga ko‘ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar.

Ta’lim vositalari olti turga bo‘linadi:

- matnli vositalar;
- tasvirli vositalar;
- audiovizual vositalar;
- yordamchi (jihoz) vositalar;
- modelli vositalar;
- haqiqiy vositalar;

Amaliy mashg‘ulotlar metodi o‘quvchilarga umumiy texnika ijodiy ta’lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy metod bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi sifatida barcha predmetlar jumladan, mehnat ta’limi darslarini o‘qitish mazmuni ham mukammallashib bormoqda. Ushbu o‘quv fanining maqsadi o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari va jarayonlari hamda kasblar bilan dastlabki tanishtirish, kasb tanlashga tayyorlash, ularda mehnatni qadrlashni, uning jamiyatdagi o‘rnini bilishni, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish orqali ularni kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari ta’limining asosiy vazifalari:

– o‘quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo‘llash haqida bilimlar berish;

– kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari

va asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda to‘g‘ri bajara olish;

– algoritmik tuzilmalar, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish;

– kompyuterning dasturiy ta’minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qulay olishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

– axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o‘rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni rivojlantirishga qaratilgan va ta’lim-tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llaganda o‘quvchi eshitish, ko‘rish, ko‘rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni interfaol usullarda tashkillashtirish uchun ma’lum bir shart-sharoitlar mavjud. Shunday ekan, axborot kommunikatsion ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish hozirgi zamon yutuqlariga asoslangan holda davr talabiga mos keladigan pedagogik mahoratning nazariy amaliy asoslarini hamda uning shakllanish jarayonini yaratish eng dolzarb vazifalardandir. Informatika kompyuter texnikasini qo‘llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to‘plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan shug‘ullanuvchi fandir. Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hayotimizning barcha jabhalari, jumladan, ta’lim jarayoniga keng tatbiq etishga katta e’tibor qaratilgan edi.

Zero, zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash talabalarga bilim berish sifatini oshirish, uning mazmun mohiyatini takomillashtirish, ta’limni zamonaviy o‘quvchilar darajasida tashkil etish, ta’lim muassasalarida ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik, axborot texnologiyalarini joriy etish, ularda interfaol usul va vositalardan foydalanish ko‘zda tutilgan. Shu sababli, bugungi kunda ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan “Informatika” fani o‘qituvchilari oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

– o‘quvchilarning mustaqil bilim olish, o‘rganish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda fanning o‘rni va ahamiyatini oshirish;

– mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va o‘tkazish;

– o‘quvchilarning faolligini oshirish, o‘zlashtirish darajalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va shakllarni qo‘llash;

– ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir ta’lim vositasi talab darajasida ishlab chiqilib, o‘z o‘rnida va samarali foydalanilsa, ta’lim jarayonida mazmunni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Ta’lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta’rif berilgan kompyuter vositalari hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko‘rgazmali qilishga, o‘quv materialining o‘zlashtirilishini yengillashtirishga va ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Ko‘rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi, chunki bu vositalardan foydalanishning mohiyati, ta’lim oluvchilarda bilimlarni ko‘rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O‘QUVCHILAR O‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.

2. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.

3. Paxlavonovich, N. D. (2024, March). THE ISSUE OF ORGANIZING CLASSES OF GENERAL EDUCATION SCHOOLS IN AN ELECTRONIC SYSTEM. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 161-163).

4. Pahlavonovich, N. D. (2022). SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI LOYIHALASHDA QO‘LLANILADIGAN YONDASHUVLAR. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 25-28.

Durdona GAFFOROVA,
University of Business and Science
til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi;
Shoxida MAMADJANOVA,
University of Business and Science
til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING INGLIZ TILI LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada xorijiy til leksik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida leksik ko‘nikmalarning fanlararo aloqalar kontekstidagi ahamiyati ta’kidlangan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va shakllanish shartlari tavsiflangan, xorijiy til leksik kompetensiyasini fanlararo asosda qurishning afzalliklari asosida. Bu talabalarning lingvistik xususiyatlari hamda o‘quv va bilish faoliyatlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *leksik kompetensiya, leksik ko‘nikmalar, lug‘at, dinamik birlik, professional jarayon, kommunikativ kompetensiya.*

Аннотация: в данной статье подчеркивается важность лексических навыков как неотъемлемой части иноязычной лексической компетентности в контексте межпредметных связей, описываются их специфические особенности и условия формирования, приводятся преимущества построения иноязычной лексической компетентности на междисциплинарной основе. Это включает в себя учет лингвистических особенностей студентов, а также их учебной и познавательной деятельности.

Ключевые слова: *лексическая компетентность, лексические навыки, словарный запас, динамическая единица, профессиональный процесс, коммуникативная компетентность.*

Annotation: this article emphasizes the importance of lexical skills as an integral part of foreign language lexical competence in the context of interdisciplinary connections, describes their specific features and conditions of formation, and cites the advantages of building foreign language lexical competence on an interdisciplinary basis. This includes taking into account the linguistic characteristics of students, as well as their educational and cognitive activities.

Key words: *lexical competence, lexical skills, vocabulary, dynamic unit, professional process, communicative competence.*

Zamonaviy sharoitlarda talabalar oldida turgan vazifalar professional lug‘at asosida shakllanadi, barcha turdagi nutq faoliyatlarini egallash hamda professional kommunikatsiya ko‘nikmalarini egallashni o‘z ichiga oladi. Universitet bitiruvchisi uchun qo‘yilgan bu talablar kelajakdagi mutaxassislar orasida yuqori darajadagi professional va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish zarurati bilan belgilanadi, bu esa xorijiy tilda professional lug‘atni o‘zlashtirmasdan amalga oshmaydi. Xorijiy til leksik kompetensiyasi professional va kommunikativ kompetensiyaning lingvistik asosini tashkil etadi. Ular dinamik birlik sifatida ko‘rilishi mumkin: leksik kompetensiya talabalarning kommunikativ faoliyati jarayonida shakllanadi va leksik kompetensiya rivojlanishi bilan takomillashadi, ya’ni ularning shakllanishi o‘zaro bog‘liq. Professional leksik kompetensiya – bu talabalarning tegishli lug‘at, ko‘nikmalar va ularning asosida shakllangan kompetensiyalarni qo‘llash qobiliyatini ifodalovchi yaxlit tushuncha bo‘lib, turli holatlarda o‘z kelajakdagi professional faoliyatlariga tegishli nutq tajribasini qo‘llay olishni o‘z ichiga oladi.

Fanlararo yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi va o‘quvchilarning bilimlarini kengaytirish, ularni real hayotga tayyorlash hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. Ushbu yondashuvni qo‘llash orqali turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va integratsiya ta’minlanadi, bu esa o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar tomonidan fanlararo yondashuvni samarali qo‘llash o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, turli fanlar bo‘yicha olingan bilimlarni sintez qilish va ulardan amaliy foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur maqolada fanlararo yondashuvning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilarga berilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu tavsiyalar hamkorlikni rivojlantirish, integratsiyalashgan dars rejalari, kontekstual o‘rganish, interaktiv o‘yinlar va munozaralar, fanlararo loyihalar, tarjima mashqlari, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyadan foydalanish, refleksiya va baholash hamda madaniy hamkorlik kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Leksik kompetensiya – bu talabalarning so‘zning kontekstual ma’nosini aniqlash, uni boshqa tillar bilan taqqoslash va ma’lum bir millat madaniyati uchun milliy xususiyatni ajratib ko‘rsatish qobiliyatidir. Lug‘atni o‘zlashtirish xorijiy tilni o‘qitish kontekstida tizimli shakllantiruvchi ahamiyatga ega. Bu odamlar o‘zaro muloqotda ushbu ma’nolarni ishlatishlariga asoslanadi. So‘z idroki va so‘z ishlatish leksik vositalardan foydalanib, g‘oyani shakllantirish va dizaynlash jarayonlari bilan

chambarchas bog‘liq. Kommunikativ kompetensiyaning lingvistik komponentiga leksik komponentning tabiiy integratsiyasini hisobga olgan holda, so‘nggi talaba dialogdagi xorijiy til ishtirokchisini tushunish va nutq xulq-atvorining noyob modelini yaratish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Buning uchun tilshunoslikning asosiy tushunchalari matnini (usullar, turlari, matnda gaplarni bog‘lash usullari va boshqalar) tahlil qilish va ko‘nikmalar va kommunikatsiya ko‘nikmalarini to‘g‘ri bilish, turli sohalar va muloqot vaziyatlariga tegishli og‘zaki muloqotni bosqichma-bosqich shakllantirish zarur. Kommunikativ kompetensiya – bu nutq o‘zaro ta’sirining turli kontekstlarida lingvistik kompetensiyani qo‘llash qobiliyati bo‘lib, ijtimoiy xulq-atvor normalarini va ifodaning kommunikativ maqsadga muvofiqligini hisobga oladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonida yetakchi komponent – bu nutq (kommunikatsiya) ko‘nikmalari va qobiliyatlari bo‘lib, ular o‘z navbatida barcha turdagi nutq faoliyatlarida ifoda va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Leksik komponent barcha nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatida tadqiqot natijalariga asoslanadi, bu xorijiy tilni o‘rganishda juda yuqori korrelyatsiyalar paydo bo‘lishini tasdiqlaydi va uning turli parametrlari aniqlanayotganda ularning munosabatlarining tabiatini aniqlaydi. Lekson – bu so‘zlar va leksik birliklar kombinatsiyasidir, ular funksional jihatdan ularga o‘xshashdir. Ikkinchisi esa narsalar, voqealar, ularning belgilarini nomlashi mumkin bo‘lgan so‘zlar, barqaror iboralar yoki boshqa lingvistik birliklar bo‘lib, «leksik birlik» va «so‘z» tushunchalari sinonimlar bo‘lib, ular almashtirilishi mumkin. Maxsus adabiyotlar professional lug‘at uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va talabalar o‘z mutaxassislik sohasida ma’lum bir lug‘atni egallash haqida gapirishadi, bu asosan terminlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu maqola kontekstida «terminologik lug‘at» tushunchasini tushuntirish muhimdir, bu odatda yagona ma’noga ega bo‘lib, kontekstdan qat’i nazar, professional faoliyat sohasida aniq tushunchalarni beradi. Lingvistik asosning leksik komponentiga oid ta’riflar va urg‘u berish fonida, «til kompetensiyasi» va «leksik kompetensiya» tushunchalarini semantik jihatdan ajratish zarur. An’anaviy talqinda lingvistik kompetensiyaning mohiyati o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ma’lum elementlar to‘plamidir. Til kompetensiyasi – bu faoliyat (kommunikatsiya) jarayonida amalga oshiriladigan bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalar majmui, shaxsiy kommunikatsiya vazifalariga muvofiq ma’lumotlarni o‘zgartirish qobiliyati, til tahlili va sintezi qoidalari to‘plamidir. Jumla tuzilishi va tahlili – bu til tizimini aloqa maqsadlarida ishlatishga imkon beruvchi birliklardir. Til kompetensiyasidan farqli o‘laroq, leksik kompetensiya – bu talabalarning so‘zning kontekstual ma’nosini topish, uning ma’nosini ikki tilda taqqoslash va so‘zni tegishli kontekstda ishlatish qobiliyatini belgilovchi leksik bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalar to‘plamidir. Boshqacha qilib aytganda, bu o‘quvchilarning lug‘atni o‘zlashtirish harakatlarining leksik birliklar bilan tashkil etilishi va o‘zaro bog‘liqligidir; bu leksik birlikning ma’nosini, uning grafik tuzilishi va talaffuzini, so‘zning grammatik shakllarini va boshqa leksik birliklar bilan bog‘lanish qoidalarini bilishni o‘z ichiga oladi. Ta’riflar taqdim etilganiga qaramay, «leksik kompetensiya» tushunchasi faqat leksik bilimlar va ko‘nikmalarni qamrab olgan bo‘lsa, to‘liq bo‘lmas edi, shuning uchun leksik kompetensiya murakkab, struktural shakllanish sifatida talabalarning lingvistik, nutq tajribasi va shaxsiy sifatlarini ham o‘z ichiga oladi. Ba’zi tadqiqotchilar (A.E.Sizemina, A.N.Shamov) xorijiy til leksik kompetensiyasini shakllantirishda shartli ravishda bir necha darajalarni ajratib ko‘rsatganlar, ularning asosida talabalarning nutq faoliyatida xorijiy til lug‘atidan amaliy foydalanishga oid kommunikativ muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish jarayonidan foydalaniladi. Tilshunos V.D.Arakinning fikricha, leksik kompetensiya talabalarning xorijiy til lug‘atini amaliy nutq faoliyatida qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin. Birinchi bosqichda talabalarga yangi so‘zlar va iboralar taqdim etiladi. Bu bosqichda asosiy e’tibor talabalarning so‘zlarning ma’nosini, talaffuzini va yozilish qoidalarini tushunishlariga qaratiladi. Ikkinchi bosqichda talabalar o‘rgangan so‘zlarni turli kontekstlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu bosqichda mashqlar va amaliy topshiriqlar yordamida talabalarning yangi lug‘at birliklarini muloqotda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Uchinchi bosqichda talabalar o‘rgangan so‘zlarni mustaqil ravishda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu bosqichda talabalar turli mavzular bo‘yicha yozma va og‘zaki nutq topshiriqlarini bajaradilar, bu esa ularning so‘z boyligini mustahkamlashga yordam beradi.

Leksik kompetensiyani rivojlantirishning yuqorida keltirilgan bosqichlari talabalarning nutq faoliyatidagi muvaffaqiyatli kommunikatsiyani ta’minlashga yordam beradi. Bu jarayonning samaradorligi o‘qituvchining ta’lim texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishi, o‘quv materiallarining sifatli tanlanishi va talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishiga bog‘liq. O‘qituvchining asosiy vazifasi talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchi turli xil ta’lim usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, interaktiv usullar, guruhli ish, rolli o‘yinlar, munozaralar va boshqalar talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi talabalarning yoshi, qiziqishlari va bilim darajasini hisobga olishi muhimdir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham leksik kompetensiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter dasturlari, interaktiv ta’lim resurslari va internet orqali ta’lim olish imkoniyatlari talabalarning o‘quv jarayonini yanada

qiziqarli va samarali qiladi. Buning natijasida talabalar o‘rganilgan lug‘at birliklarini turli kontekstlarda qo‘llash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, leksik kompetensiyani rivojlantirishda talabalarning mustaqil ishi ham katta ahamiyatga ega. Talabalar mustaqil ravishda lug‘at o‘rganish, yangi so‘zlarni yozib olish, ularni turli kontekstlarda qo‘llash va mustahkamlash bo‘yicha mashqlar bajarishlari kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va maslahatlar berishi muhimdir. Talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishda ularning motivatsiyasi va o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi talabalarning qiziqishlarini oshirish uchun turli xil o‘yinlar, musobaqalar, ijodiy topshiriqlar va boshqa qiziqarli mashg‘ulotlardan foydalanishi mumkin. Bu esa talabalarning o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishini ta’minlaydi va ularning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Fanlararo yondashuvni qo‘llash o‘quvchilarning leksik kompetensiyasini oshirishda va ularning umumiy bilim darajasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchilar turli strategiyalar va tamoyillarni qo‘llashlari lozim. Hamkorlik, integratsiyalashgan dars rejalari, kontekstual o‘rganish, interaktiv o‘yinlar va munozaralar, fanlararo loyihalar, tarjima mashqlari, ilmiy tadqiqotlar, texnologiyadan foydalanish, refleksiya va baholash hamda madaniy hamkorlik kabi usullar o‘qituvchilarga talabalarning bilimlarini kengaytirishda yordam beradi.

O‘qituvchilar tomonidan fanlararo yondashuvning samarali qo‘llanilishi o‘quvchilarning turli fanlar bo‘yicha olingan bilimlarni sintez qilish va ulardan amaliy foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo yondashuvning ilmiy asoslarini tushuntirish va talabalarga ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatlarini yaratish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash va ilmiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion va samarali usul sifatida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sizemina A.E., Shamov A.N. “Xorijiy til leksik kompetensiyasini shakllantirishning zamonaviy usullari”// Tilshunoslik, 2020.

2. Arakin V.D. “Xorijiy til o‘qitish metodikasi”. – Moskva: Tilshunoslik nashriyoti, 2019.

3. Togayeva S.S. “Xorijiy til leksik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari”. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, 2024.

4. Jurazoda M.I. Universal educational actions: a modern approach to the development of students’ cognitive abilities. CRJP 2024, 5, 41-45. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-05-08

5. Жураева М. «Обзор методичек и пособий по преподаванию языкознания и литературы до 2000» // Boshlang ‘ich sinf o ‘quvchilarida universal ta’lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – C.331-333.

6. Журазода М.И «Методологические основы универсальных учебных действий». (2024). Retrieved 2 April 2024, from https://research-edu.com/index.php/conf1/article/view/62

Fazliddin ATAULLAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Ijtimoiy gumanitar yo‘nalishlarda xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI INGLIZ TILIDA O‘QITISH VA DUAL TA’LIM ORQALI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Oliy ta’lim tizimidagi olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar va amalga oshirilgan ishlar yoritilgan bo‘lib, aynan ingliz tilini o‘qitish va dual ta’lim yutuqlari va uning ta’lim sifatidagi ahamiyatiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, fan, ishlab chiqarish, ta’lim sifati, dual ta’lim, investitsiya, innovatsiya.*

Annotation: this article highlights the current reforms and achievements in the higher education system, emphasizing the importance of English language teaching and dual education and its importance as education.

Keywords: *higher education, Science, production, education quality, dual education, Investment, innovation.*

Аннотация: в данной статье освещаются текущие реформы и достижения в системе высшего образования, подчеркивается важность преподавания английского языка и дуального образования и его значение как образования.

Ключевые слова: *высшее образование. Наука, производство, качество образования, дуальное образование, инвестиции, инновации.*

Oliy ta’lim sohasi har bir mamlakat taraqqiyotining muhim bo‘g‘ini sanaladi. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar davlat idoralari xususiy tashkilotlarga mutaxassislar yetishtirib berar ekan, mazkur tarmoqlar rivoji ham bevosita kadrlar salohiyati bilan bog‘liq. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanish konsepsiyasi oshirilayotgani bejiz emas.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham oliy ta’lim tizimidagi islohotlar alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur strategiyaning 46-maqsadida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini oshirish to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul parametrlarini oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Albatta, bu sa’y-harakatlar natijasida, yaqin yillarda oliy ta’lim tizimidagi islohotlar samarasi nafaqat ushbu sohaning o‘zi, balki, mamlakat taraqqiyotini belgilab beruvchi boshqa muhim tarmoqlar yuksalishida ham o‘z aksini topadi deyish mumkin.

Sharq faylasufi Konfutsiy: “Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong’u tundir” degandi. Haqiqatdan ham, bilim ilm olish baxtga erishish, farovon yashashning sanalgan yo‘li oltin kalitidir. Bu jarayonning to‘g‘ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta’lim, xususan, oliy ta’lim tizimiga, unda bo‘y ko‘rsatayotgan islohotlarga bog‘liq.

Bilim olish taraqqiyotning bosh omilidir. Hadisi sharifda ham “Avvalo olim bo‘l, laoqal ta’lim oluvchi yoki tinglovchi ilm-u ulamoni sevuvchi bo‘lgin” deyiladi. Bunday da’vat har birimizni ta’lim olish va ilmli insonlarni qadrlashga undab turadi. Qayerda ilm-u ma’rifat kuchli bo‘lsa, o‘sha yer baxt maskani hisoblanadi. Uchinchi renessansga kuchli bilim va tafakkur orqali erishilishini muhtaram Prezidentimiz ko‘p bora ta’kidlaganlar. Shuning uchun, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichida yoshlarni bilimli va yetuk inson sifatida rivojlantirish biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

Endi bevosita tizimda amalga oshirilgan va oshirilayotgan yangiliklarga to‘xtalsak. Bunga kelib, Respublikada oliy ta’lim muassasalarini soni 200 ga yaqinlashdi. Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar yangidan yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2021-yildan buyon oliy ta’lim muassasalariga kredit-modul tizimi to‘liq tatbiq etildi. Uning joriy qilinishi bilan jahon oliy ta’limiga integratsiyalashuvimiz bo‘yicha katta qadam tashlandi. Elektron ta’lim keng ko‘lamda joriy etilmoqda.

Hozirgi kunda, oliy ta’lim muassasalarida 40 mingga yaqin professor-o‘qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Joriy o‘quv yilida 4582 nafar chet tili bo‘yicha sertifikatga ega yoshlar magistratura bosqichiga qabul qilindi. Bunday yoshlar oliy ta’lim muassasalari uchun munosib pedagogik kadrlar zaxirasi bo‘lib xizmat qiladi. Professor-o‘qituvchilarni maqomini hisobga oshirish, ularning jamiyatdagi obro‘sini yaxshilash borasida ko‘p ishlar qilindi.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni o‘rganish borasida tillarni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirish, eski usullarni yangilash kabi jarayonlar jadal tus olmoqda. Chet tillarini o‘rgatish metodikasini yaxshilash tilni o‘zlashtirishda ega bo‘lish kerak bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘stirishga xizmat qiladi. Xorijiy tillarni o‘rgatishga qo‘yilgan talablar aksariyat hollarda to‘rtta ko‘nikmani: tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Lekin shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xorijiy tillarni o‘rganishdagi eng katta vazifalardan bo‘lmish dars mashg‘ulotlarida vaqtni taqsimlash ko‘nikmasi bir oz nazardan chetda qolgan. Aytish mumkinki, bunday holat butun dunyoda kuzatilib, ushbu muammoga olimlar o‘z tadqiqotlari natijasi o‘laroq yechim topishga intilganlar.

G.Kuk tarjimaning “vaqtni rejalashtirish”ni (gapirish, tinglash, yozish va o‘qish bilan bir qatorda) g‘oyasini ta’kidlab o‘tadi va uni Fridrixga bog‘laydi. L.Venuti vaqtni taqsimlashni shunchaki lingvistik transkodlash shakli emas, balki ijodiy faoliyat ekanligini ta’kidlaydi. Bir necha yillik pedagogik faoliyatimiz davomida filologiya yo‘nalishi bitiruvchilarining aksariyati vaqtni boshqarish mahoratlari bir oz oqsashini kuzatdik. Buning asosiy sababi, talabalarga metodikani to‘g‘ri qo‘llash nazariyasining yetarlicha berilmasligi, berilsa ham amaliyotda keng qo‘llanilmasligi, qo‘llanilgan taqdirda ham, vaqt mezonlariga ko‘ra baholanmasligi deb bilamiz.

A.Pim va boshqalar 2013-yilda o‘tkazgan tadqiqotlarida o‘nta namuna mamlakatlarni o‘rganishi natijasida Finlyandiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlardagi o‘qituvchilar darsda vaqtni taqsimlash haqida juda ko‘p fikr bildirgani, Fransiya, Ispaniya va Germaniyada esa o‘z gapirilganini kuzatadilar. Bu taqsimotning qiziq tomoni shundaki, 2012-yilgi EF English Proficiyency Index (EF ingliz tili malakasi indeksi) ma’lumotlariga ko‘ra, ingliz tilini o‘rganishda eng yaxshi natijalarga erishgan ba’zi mamlakatlar vaqtdan foydalanish bo‘yicha ham yuqori bahoga ega bo‘lganlar. Masalan, Finlyandiya ikkala ro‘yxatda ham birinchi o‘rinda turadi.

Vaqtni taqsimlash chet tili mashg‘ulotlariga qay yo‘sin va usullarda kiritish kerakligi borasida bir qator olimlarning fikrlari vaqtni taqsimlash metodikasini ishlab chiqishga yordam beradi. Xususan, A.Pim: “Talabalarni spontan tarzda, real hayotda yoki rol o‘ynash vositasida vaqtni taqsim qilishga undashimiz kerak. Talabalarga turli xil vaziyat berishimiz, keyin o‘zaro farqlarni muhokama qilishimiz kerak. Shu tariqa, chet tilidagi har bir ibora, ifoda uchun ajratilgan vaqt bor, degan fikrga kelamiz. Shu tufayli, o‘quvchilarga

darsda vaqtni taqsimlash jarayonida kontent qo‘shish va o‘chirishga ruxsat berishimiz kerak.” - deydi. Ushbu taklifga binoan, biz o‘quvchilarga tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi ko‘plab tafovutlarni aniqlash va o‘rganishga imkon yaratamiz.

So‘nggi yillarda yurtimiz oliy ta’lim tizimida sodir bolayotgan muhim o‘zgarishlardan biri bu-dual talim tizimining tashkil etilganligidir. Dual ta’lim qisqa muddat ichida yosh mutaxassisda qimmatli tajriba va ko‘plab professional ko‘nikmalar bilan birga akademik darajada va kasbiy malakaga ega bo‘lish imkonini beradi.

Ma’lumki, Germaniya mehnat bozorida ta’limning mazkur turi katta ahamiyatga ega. Kyoln Iqtisodiy taraqqiyotlar instituti tamonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim bitiruvchilari ko‘pincha nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiynaladilar. Bu esa ta’lim va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasini kuchayishini taqozo etmoqda. Yevropada bu borada qator muvaffaqiyatli islohotlar olib borilmoqda.

Germaniyada dual ta’lim tizimi 50 yil davomida muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Bu tizim qator Yevropa mamlakatlari shuningdek, Xitoy, Indoneziya, Kolumbiya, Ekvador va Peru kabi davlatlarda ham qabul qilingan. Bugungi kunda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’limning afzalliklari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida kasb-hunar ta’limi loyihalari uchun innovatsion tanlovni boshlagan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi alohida qayd etgan.

Dual ta’lim dasturining nazariy o‘quv amaliy qismi professional ta’lim muassasasida malaka hamda kompetensiyalarni shakllantirish, boshqacha qilib aytsak, ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismi korxona yoki tashkilotga amalga oshiriladigan o‘qitish turi hisoblanadi. “Dual ta’lim dasturi” esa ta’lim muassasasi va korxona, yoxud tashkilotga bitiruvchiga ma’lum bir mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarishga qaratilgan professional ta’lim tayyorgarligining asosiy mazmunini belgilovchi ta’lim standartlari malaka talablari o‘quv reja o‘quv dastur modullari o‘quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to‘plamidir.

Ta’lim sifatini ta’minlash ustuvor vazifa. Yetishtirilayotgan kadrlar har jihatdan raqobatga tayyor bo‘lishi kerak. O‘quv jarayonida ta’lim sifatini ta’minlash omillari hisobga olinmoqda. Birinchidan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar takomillashmoqda. O‘quv jarayonining asosiy hujjati bo‘lgan o‘quv rejalardagi fanlarning soni qisqartirildi, mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rgatishga e’tibor qaratildi. To‘rt yil davomida talaba 240 kredit to‘plasa boldi. Bunda belgilangan fanlarni talab darajasida o‘zgartirishi yetarli. Ikkinchidan, professor o‘qituvchilar ortiqcha qog‘ozbozlikdan xoli bo‘lishdi, barcha jarayonlarning elektron tartibi yo‘lga qo‘yildi, ularning faoliyatiga aralashuvlar cheklandi. Bu esa, o‘ylaymanki, ta’lim sifatini ijobiy yo‘l bilan yuqori darajaga ko‘tarishga yana bir omil bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-SON
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi PQ-5847- son farmoni
3. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar / Nazarov Q. tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2005.
4. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.

Eldorbek KHAMITOV

A teacher of Chirchik state pedagogical university

khamitoveldorbek@gmail.com

DICTATION METHOD AND ITS PECULARITIES

Annotation:dictation shows potential for the acquisition of L2 grammatical structures, both consciously and subconsciously, due to many theoretical and practical factors. Conventional dictation may be dull, yet it offers numerous stimulating variations. ESL instructors can promptly incorporate four grammar-oriented dictation exercises into their teaching resources. This article will analyze the role of dictation in ESL grammar training, as well as other dictation tactics (such as dictogloss) that have been created to assist ESL students in acquiring English grammatical structures and addressing methodological deficiencies. This information is intended to assist teachers who are interested in using dictation into their teaching practices.

Keywords: *language acquisition, technique, engaging activities, dictation, dictogloss*

Аннотация: диктант демонстрирует потенциал для усвоения грамматических структур второго языка как сознательно, так и подсознательно, благодаря многим теоретическим и практическим факторам. Обычный диктант может показаться скучным, но он предлагает множество стимулирующих вариаций. Преподаватели второго языка (английский) могут быстро включить в свои учебные материалы четыре грамматических диктанта. В этой статье будет проанализирована роль диктанта в обучении грамматике второго языка, а также другие тактики диктовки (например, диктоглосс), которые были созданы для помощи студентам изучающие второго языка в усвоении английских грамматических структур и устранении методических не-

достатков. Эта информация предназначена для помощи учителям, которые заинтересованы в использовании диктовки в своей педагогической практике.

Ключевые слова: *овладение языком, техника, увлекательная деятельность, диктант, диктоглосс.*

Annotatsiya: diktant ko‘plab nazariy va amaliy omillar tufayli ikkinchi tilning grammatik tuzilmalarini ongli ravishda va ongsiz ravishda egallash imkoniyatini ko'rsatadi. Muntazam diktant zerikarli bo'lib tuyulishi mumkin, ammo u juda ko‘p rag'batlantiruvchi variantlarni taklif qiladi. Ikkinchi til (ingliz) o‘qituvchilari tezda to‘rtta grammatik diktantni o‘z o‘quv materiallariga kiritishlari mumkin. Ushbu maqolada diktantning ikkinchi til grammatikasini o‘rgatishdagi o‘rni, shuningdek, ikkinchi til o‘quvchilariga ingliz tilining grammatik tuzilmalarini o‘zlashtirish va uslubiy kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaratilgan boshqa diktant taktikalari (masalan, diktogloss) tahlil qilinadi. Ushbu ma’lumotlar diktantni o‘qitish amaliyotida qo‘llashga qiziqqan o‘qituvchilarga yordam berish uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *tilni o‘zlashtirish, texnika, qiziqarli mashg‘ulotlar, diktant, diktogloss*

Most ESL teachers in this communicative era certainly view dictation as an old-fashioned and sterile technique of language learning. Our dislike of dictation may stem from high school French.

“dictdes” or FL dictations. Those exercises followed the customary format: the teacher read a passage phrase by phrase, the students reproduced it, and the passage was somehow rectified. This method doesn’t seem to promote communication, interaction, or creative language use, which we encourage in modern ESL/EFL training. Our dislike may also originate from the underlying idea that dictation is mostly for listening comprehension work. The report by S. Schecter (1984) says that dictation is unattractive under this assumption since there are many more engaging listening activities [7].

The recent publication of superb dictation books suggests a comeback. First, old dictation books by Davis and Rinvolucri (1988) Dictation [5]: New Methods, New Possibilities dispels many of our worries about dictation’s instructional suitability. Comparative with 69 classroom activities using dictation procedures of various types, it shows that dictation should be considered a general method that allows a wide variety of techniques, many of which are potentially interesting and motivating because they promote meaningful communication between students and creative language use. The second book was presented by Wajnryb (1990) Grammar Dictation, similarly answers our questions, but differently. It concentrates solely on “dictogloss” dictation, which is engaging, motivating, communicative, and—most importantly—designed for ESL grammar instruction [9]. Dictogloss is a clever method [8].

HOW DICTATION TEACHES GRAMMAR

Before discussing my chosen methods, I’d like to briefly discuss rationale: why might dictation be effective for teaching grammatical structures?

The “grammar of expectancy” (Oller, 1975, 1978), which encompasses syntactic, semantic, and pragmatic knowledge, instantly comes to mind as a theoretical construct relevant to this subject [4]. Learner expectancy grammar, Oller states that “continually formulating, modifying, and reformulating hypotheses about the underlying structure and meaning of input signals” is the foundation of predictive capability (Oller, 1978). Dictation enables learners to pay attention to both the forms and semantic and pragmatic meanings of grammatical structures, which is a great way to practice and improve this capacity. Dictation increases grammatical ability holistically, not as a separate skill. According to the sayings by Larsen-Freeman, modern theory holds that grammatical structures must constantly be learned in conjunction with semantic and pragmatic variables, including sociolinguistic and discourse-related meanings [3].

Moving on to the language acquisition model by second, dictation passages may provide intelligible input, which promotes grammar learning [6].

Subconscious structural acquisition: Select texts that challenge ESL students will have some “i+1” structures which provide meaning and active participation in dictation. Krashen says intelligible input becomes “intake” and acquisition is automatic under such situations [6]. However, dictation encourages conscious structural learning. Students doing dictation exercises must transcribe the text accurately, and follow-up work commonly comprises form-focused corrections. According to Sharwood’s report, focusing on formal elements promotes the “conscious” grammatical “ness-raising” [2]. Many believe that conscious structures can become implicit (“acquired”) through practice and experience, notwithstanding Krashen’s claim that learning cannot become acquisition. This “rule internalization,” as it’s known, may just be the development of “automaticity” or “control” of grammatical knowledge [1], [2]. Dictation may give receptive (hearing) and productive (writing) experience for such control. These considerations, plus others that cannot be listed, substantially support the premise that dictation has potential value for grammar instruction. Perhaps we should briefly mention the method’s general benefits. It works for any size and skill level of group. Teachers may like how dictation exercises relax students (they must be quiet and focused). Most significantly, teachers can easily create

and manage dictation activities. This list might easily include more practical benefits, but let’s focus on the four strategies suggested earlier.

DICTOGLOSS

I will conclude with dictogloss, the most advanced dictation method. This treatment is common in Australia, where it originated. Australian teacher-trainer Ruth Wajnryb promotes it in her book Grammar [9].

Dictation (1990) covers the approach in detail and suggests sixty dictation “activities,” twenty at each level—pre-intermediate, intermediate, and advanced. ESL teachers interested in this method should consult this great sourcebook.

To teach grammar, Dictogloss was created. Students must rebuild the text, like dicto-comp after dictation rather than during it, albeit the two methods differ in several ways. The dictogloss technique has four steps, which I believe I have described well enough for interested teachers to try technique in classes.

Initial preparation involves the teacher introducing the topic and creatively interpret the passage. This engages pupils’ background schema and improves comprehension. “T” additionally pre-teaches unfamiliar text vocabulary and divides students into 3–4 groups.

Students hear a short text with several occurrences of the target structure (or structures) twice at regular speed during dictation. During the first reading, students listen for meaning without writing. On the second reading, they write down key words and phrases to reconstruct the text. Nouns, verbs, adjectives, and other content words are best for this, whereas prepositions, articles, and other function terms should be omitted since pupils won’t have time to duplicate everything. Then, in the reconstruction stage, students write their own versions of the text in small groups. To “reconstruct a version of the text from their shared resources” [8], they combine their notes. One student in each group scribes the group’s text after discussion and negotiation. Intragroup cooperation is what distinguishes dictogloss from dicto-comp in text interpretation and reconstruction.

The analysis and rectification stage compares the group versions, focusing on the target structure. Many methods can be used in the final step. Representatives from different groups could write their views on the chalkboard and compare them sentence by sentence. You may also utilize overhead transparencies with all first lines on one, all second sentences on another, etc. Photocopies and other methods are conceivable. Regardless of T’s strategy, students should compare versions and analyze language choices. This will help them realize their mistakes and (hopefully) internalize the correct rules through “consciousness raising”.

CONCLUSION

Today, ESL teachers develop their students’ structural knowledge through experiential, communication-based activities, while traditional language-teaching students crave “grammar lessons.” Dictogloss satisfies both preferences: it is experiential, communicative, and oriented toward active creativity, while also focusing on grammatical structures in a deliberate and methodical manner.

Dictation seems promising for teaching ESL grammar in general. The method above is simple to use in the classroom and help pupils focus on target structures. This brief evaluation should inspire ESL teachers to try these and other dictation method to spice up their grammar lessons.

THE LIST OF ABBREVIATIONS

L2 – second language
FL – foreign language
ESL – English as a secondary language
EFL – English as a foreign language
T – a teacher

REFERENCES

1. B. McLaughlin, T. Rossman, and B. McLeod. (1983). Information processing in second language learning. Language Learning, 33(2), 135-158.
2. Bialystok, E. M. Sharwood Smith. (1985). Interlanguage isn’t Second-language acquisition construct state of mind evaluation. Applied Linguistics 6(2):101-117.
3. D. Larsen-Freeman. (1991). Teaching grammar. In M. Celce Murcia, Teaching English as a foreign language (2nd ed., pp. 279-296) NY: Newbury House.
4. J. W. Oller Jr. (1975). Grammar-based dictation test expectancies. English Language Teaching Journal 36(1):25-36. J. W. Oller Jr. (1978). Language testing, pragmatics. In B.
5. Per Davis and Marco Rinvolucri. (1988). Dictation: New approaches, possibilities. Cambridge University Press.
6. S. Krashen. (1982). Second-language principles and practice acquisition. Pergamon Press, Oxford.
7. S. Schecter (1984). Intermediate-level listening exercises American English. Cambridge University Press. M. Sharwood Smith. (1981). Higher consciousness and second language student. Applied Linguistics 2(2):159-168.
8. Wajnryb, R. (1988). Teaching language with dictogloss: Communicative grammar based on text. English Teaching Forum 26(3):35-38.
9. Wajnryb, R. (1990). Grammar-dictation. : Oxford University Press

Shukurjon AKRAMOV,
Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.

O‘ZBEK TILIDA SODDA GAPLAR VA ULARNING O‘RGANILISHI MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tili sintaktik sathida sodda gaplar masalasi, tilshunoslikdagi qarash va yondashuvlar, gapning sintaktik strukturasini gap bo‘laklari asosida o‘rganish, gap bo‘laklariga ajratish mezonlarining hamma tillar uchun umumiy, barcha e’tirof etadigan nazariy asoslari masalasi, sodda gap tasnifi hamda ularning ayrim ko‘rinishlariga oid fikr-mulohazalar bayon etiladi

Kalit so‘zlar: *sistem-struktur metod, struktural sintaksis, predikativlik, argumentlar, funksionallik va nofunksionallik, gap markazi, so‘z kengaytiruvchisi va gap kengaytiruvchisi.*

Annotation : in this article, the issue of simple sentences at the syntactic level of the Uzbek language, the views and approaches in linguistics, the study of the syntactic structure of a sentence based on sentence fragments, the issue of the theoretical foundations of the criteria for dividing sentences into fragments, common to all languages, recognized by all, simple the classification of sentences and opinions on some of their forms are presented

Keywords: *system-structural method, structural syntax, predicativeness, arguments, functionality and non-functionality, sentence center, word expander and sentence expander.*

Аннотация : в данной статье рассматривается вопрос простых предложений на синтаксическом уровне узбекского языка, взгляды и подходы в лингвистике, исследование синтаксической структуры предложения на основе фрагментов предложения, вопрос теоретических основ критериев деления. предложения на фрагменты, общие для всех языков, признанные всеми, простые, представлена классификация предложений и мнения о некоторых их формах

Ключевые слова: *системно-структурный метод, структурный синтаксис, предикативность, аргументы, функциональность и нефункциональность, центр предложения, расширитель слова и расширитель предложения.*

Bugungi kunda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilshunoslik sohasida ham o‘z yechimini kutayotgan masalalar talaygina. Bu borada jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham munozarali o‘rinlar ko‘plab uchraydi. Ana shunday muammoli masalalardan biri gapning sintaktik bo‘linishi masalasidir.

Har bir gapda ma’lum obyektiv mazmun moddiy vositalar – sintaktik shakllar vositasida ifodalanadi. Gapning ana shu moddiy ifodalanish tomoni uning sintaktik tuzilishi hisoblanadi. Sintaktik tuzilish ham o‘zaro munosabatda bo‘lgan bir necha unsurlardan tashkil topgan bir butunlikdir. Sintaktik tuzllishning unsurlari tilshunoslikda uzoq vaqtlardan buyon turli terminlar bilan nomlanib o‘rganib kelindi: gap bo‘laklari (an’anaviy tilshunoslikda), sintaksema (Muxin), sintaktik forma (G.Zolotova) va boshqalar. Ko‘p yillardan buyon tilshunoslikning bu masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganildi. O‘zbek tilshunosligida gap bo‘lagi sohasining ilk tadqiqotchilaridan biri Abdurauf Fitratdir. U gap bo‘laklarini “bosh so‘zlar” va “to‘ldirg‘ich so‘zlar”ga ajratadi. Shuningdek, G‘.Abdurahmonov, H.Abdurahmonov, H.Ne’matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, SH.Iskandarova, H.Usmonovalar ishlari diqqatga sazovor. Tilshunosligimiz tarixidan ma’lumki, gap bo‘laklari bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Til tizimida rivojlanish yuksalgan sari o‘zgarishlar ham davom etaveradi. Ilmiy tadqiqotlarning amaliy bosqichdan nazariy bosqichga ko‘tarilishi tilshunoslikning katta nazariy yutuqlarga erishuviga zamin yaratadi.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligi g‘arb va sharq tilshunosligi qo‘lga kiritgan eng yaxshi yutuqlarni e’tiborga olmog‘i lozim. Shu tufayli bugungi kunda o‘zbek tilini an’anaviy metodlar orqali o‘rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng qo‘llanilayotgan sistemaviy-struktur metodlar asosida o‘rganish tobora kengayib bormoqda. Tilga va uning birliklariga sistema sifatida yondashuv shu kunga qadar tilshunoslik uchun qorong‘i bo‘lib kelayotgan jihatlarni aniqlashga yordam beradi.

Sintaksisning vazifasi sintaktik birliklarning nimalardan tashkil topishini o‘rganish bilan birga, ularning boshqa birliklar bilan munosabatini ham ochib berishdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbek tilshunosligidagi gapning sintaktik tuzilishini gap bo‘laklari termini ostida o‘rganish an’ana tusini olgan va unga hozirgi kungacha hech qanday e’tiroz yo‘q. O‘zbek tilining haqiqiy ilmiy sintaksisining yaratilishi prof. A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarovalar nomi bilan bog‘liqdir. Gap bo‘laklarining o‘rganilishida A.G‘ulomovning xizmatlari katta.

Prof.A.G‘ulomovning sintaktik qarashlari rus tilshunoslari, xususan, A.A.Potebnya, A.A.SHaxmatov, V.V.Vinogradov g‘oyalari ta’sirida shakllandi. Shuning uchun ham A.A.Potebnya, A.A.SHaxmatov, V.V.Vinogradovlarning gap bo‘laklari haqidagi qarashlari o‘zbek tilshunosligiga tatbiq etildi. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi atamalari professor A.G‘ulomov tomonidan o‘zbek tilshunosligiga kiritildi.

A.G‘ulomov ham gap bo‘laklarini belgilashda

tobelanish munosabatidan tashqaridagi gap unsurlarini, gap bo‘laklari tarkibiga kiritmadi. Gap bo‘laklari gap tuzilishidagi rollariga qarab bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘lindi. Bosh bo‘laklarga ega va kesim, ikkinchi darajali bo‘laklarga esa aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol kiritildi.

Gapni bo‘laklarga ajratish masalasi uzoq davrlardan buyon tilshunoslar diqqatini jalb qilib keladi. Shuning uchun ham bu masala bo‘yicha xilma-xil qarashlar vujudga keldi.

Traditsion tilshunoslikdagi gap bo‘laklariga va ularni bosh hamda ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratishda kuzatiladigan xilma-xillik bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratishning obyektiv mezonlaridan kelib chiqadi. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning differensial belgisi sifatida ularning predikativ asosga kirish kirmaslik, gapning konstruktiv yadrosini tashkil etish-etmaslik belgilari ko‘rsatiladi. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratish masalasi predikativ asosni turlicha tushunishga ko‘ra bir cho‘qqili va ikki cho‘qqili nazariyalarga tayanuvchi yo‘nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

Bir cho‘qqili nazariyaning vujudga kelishi tilshunoslik tarixida juda katta rol o‘ynadi. Bu nazariya predikativlikka ikki mantiqiy a’zo - subyekt va predikat o‘rtasidagi munosabat sifatidagi an’anaviy qarashga va shunga muvofiq, gap bo‘laklarini ham bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratishga, gaplarni esa bir sostavli va ikki sostavli tiplarga bo‘lishga chek qo‘ydi, gapning ontologik tabiatini to‘g‘ri ko‘rsatishga, uning tuzilishidagi darajalanishni obyektiv yoritib berishga yo‘l ochdi.

Hozir fanimizda gapning tarkibiy (struktur)qismlarini ajratishda:

a) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, bog‘lanmagan bo‘laklar;

b) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, uchinchi darajali bo‘laklar;

d) gap bo‘laklari va bo‘lakning bo‘laklari;

e) funksional va nofunksional (amaliy va noamaliy) bo‘laklar;

f) gapning markazi, gap kengaytiruvchilari va so‘z kengaytiruvchilari kabilarni farqlash nazariyalari keng ommalashgan. Fanda shakllangan va ma’lum davr yashagan har bir ilmiy yondashuv va yo‘nalishning, har bir talqinning o‘ziga xos durdonasi, samarali urug‘i mavjudligi fanlar tarixidan ma’lum. Shuning uchun fanda ko‘p yo‘nalishlilik shakllangan va rivojlangan davrda turli xil talqin va tavsiflarni qiyosiy o‘rganish, har bir yo‘nalishdan unumdor talqinlarni saralash va ulardan sohaning chigal masalalari yechimini berishda oqilona va tadbirkorona foydalanish alohida ahamiyat va mohiyat kashf etadi va ilmiy taraqqiyotning keskin ilgarilashiga va yuksalishiga turtki bo‘ladi.

Gapni bo‘laklarga ajratishda qaysi asosga tayanish juda muhim rol o‘ynaydi. Shu vaqtga qadar tilshunoslikda gap bo‘laklarini belgilashda bosh mezon sintaktik birliklarning tobe aloqasi sanalardi. Tobe aloqaga kirishmagan sintaktik birliklar gap bo‘laklari rubrikasidan chetda qoldi. Bu esa butunni bo‘laklarga ajratish prinsipiga zid keladi. Chunki mantiqiy nuqtayi nazardan butunni bo‘laklarga shunday bo‘lish kerakki, bironta bo‘lak uning tashqarisida qolmasin. Shuning uchun ham o‘zbek tilshunosligida ayrim mualliflar tomonidan uchinchi darajali bo‘lak tushunchasi olib kirildi va an’anaviy gap bo‘laklari sirasiga kiritilmaydigan, grammatik aloqadan tashqaridagi gapning uzvlari, uchinchi darajali bo‘lak hisoblandi . Akademik G‘.Abdurahmonov gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarini alohida tipdagi bo‘laklar ekanligini ta’kidlaydi . Sintaktik tuzilish birliklarini gap asosida tahlil qiluvchi tilshunoslar, asosan, beshta gap bo‘lagi: ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol haqida fikr yuritdilar va bu gap bo‘laklarining gap tuzilishidagi rollariga qarab ikki darajaga - bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratadilar. Lekin mavjud adabiyotlarda gap bo‘laklarini faqat bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratishdagina emas, balki ikkinchi darajali bo‘laklarning ichki tasnifida ham xilma-xillik tadqiqotchining nima asosida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga hamda ikkinchi darajali bo‘laklarni turlarga ajratishidan kelib chiqadi.

Turkiy tillarda kesim bosh bo‘lak, qolgan bo‘laklarni ikkinchi darajali bo‘laklar hisoblagan professor A.Nurmonov esa shunday xulosaga keladi: Xullas, gapning sintaktik strukturasini gap bo‘laklari asosida o‘rganish, gap bo‘laklariga ajratish mezonlarining hamma tillar uchun umumiy, barcha e’tirof etadigan nazariy asoslari yo‘q. Bizning fikrimizcha, turkiy tillarda gap predikat va uning argumentlari birligi sifatida qaralar ekan, uning sintaktik strukturasini ham xuddi shu sintaktik asosda o‘rganish maqsadga muvofiq. U holda gap sintaktik strukturasini elementlarga ajratishning uch bosqichi bo‘ladi: birinchi bosqichda gap tarkibidagi predikatlarni (kesimni) ajratish, ikkinchi bosqichda uning argumentlarini ajratish, uchinchi bosqichda argumentlarning o‘z ichki argumentlarini belgilash.

So‘nggi davrda gap bo‘laklarini o‘rganish bo‘yicha an’anaviy andazalardan chiqishga intilish A.Hojiyev, N.Mahmudovlarning “Semantika va sintaktik pozitsiya”, N.Mahmudovning “Funksional va nofunksional to‘ldiruvchilar haqida”, H.Ne’matov va boshqalarning “Gap strukturasi va turkiy tillar sintaksisining dolzarb masalalari”, H.Ne’matov, R.Xolmurodovlarning “Holni gap bo‘lagi sifatida ajratish mezonlari”, A.Ahmedovning “Nominativ gaplarning alohida bir turi”, K.Hayitmetovning “Determinantlar gapning aktual bo‘linish nazariyasi aspektida”, M.Boshmonovning “Gap bo‘laklari ma’nosi sistem qurilma sifatida” kabi ishlarida hamda R.Sayfullayeva, M.Abuzalova, B.Mengliyev, O.Bozorov, Sh.Akramov,

M.Saidovalarning ilmiy ishlarida ko‘zga tashlanmoqda. Bularning barchasi gap qurilishiga, xususan, ikkinchi darajali gap bo‘laklarining mavqeyi masalalariga yangicha yondashish imkoniyatini beradi. Endi biz aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holni valentlik nazariyasi hamda gapning eng kichik qurilish qolipining kengayishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishga harakat qilishimiz zarur. Bu jarayonda asosiy e’tibor, shubhasiz, valentlik nazariyasiga – so‘z valentligiga, ya’ni ma’lum bir so‘zning ma’noviy xususiyatlariga ko‘ra nutqda boshqa turdagi so‘zlar bilan birikish imkoniyatlariga qaratiladi. Yuqoridagi fikrlar 2013-yilda chop etilgan “Zamonaviy o‘zbek tili. Sintaksis” kitobida o‘z aksini topdi. Kitob mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan bo‘lib,“Gap bo‘laklari”,“So‘z va gap kengaytiruvchilarining muvofiqlashuvi va farqlanishi”, “Gapning kirish va kiritma kengaytiruvchilari” mavzulari prof. M.Qurbonova, dots. Sh.Akramov, f.f.n. B.Yorov, M.Bolibekovalar tomonidan yaratildi.

Umuman olganda, so‘nggi yillarda ham sintaksis bo‘limi bo‘yicha ko‘plab yutuqlarga erishildi. Tilshunosligimizda yangilikka intiluvchanlik juda kuchli. Ushbu yangiliklar oldimizga yanada katta mas’uliyat va dolzarb masalalarni qo‘ymoqda va izlanishga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov SH.T. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol([WPm] valentlik aspektida). ND. – Toshkent.1997- yil.

2.Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). – T, O‘qituvchi, - 1995, 232-bet

3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. I tom. –Toshkent:”Akademnashr”,2012. 307-bet.

4.Sayfullaev A. R. Gapning uchinchi darajali bo‘laklari//Sovet maktabi, - 1967. - № 1. 34-36-119-betlar

5.Sayfullaeva R. Abuzalova M. Gapning eng kichik qurilish qoliplari haqida. O‘zbek tili va adabiyoti - 1991. 4-42-46-betlar.

Maxmudaxon SOBIROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH JARAYONIGA TA'SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko‘rsatuvchi omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, metod, kompetensiya, pedagogik mahorat, immitatsion metodlar, amaliy metodlar, ta'lim vositalari, diagnostika.*

Annotation: this article discusses the factors influencing the process of professional competence development of the future elementary school teacher.

Key words: *professional competence, method, competence, pedagogical skills, imitation methods, practical methods, educational tools, diagnostics.*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy kompetentligining rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar guruhidagi ijtimoiy aspekt quyidagi omillarni belgilaydi:

Ishlab chiqarish (pedagogik) amaliyot esa, oliy kasbiy ta'limning asosiy o‘quv dasturining tarkibiy qismi hisoblanadi va talabalarning nazariy hamda amaliy tayyorgarliklarini pedagogik oliy ta'lim muassasasidagi butun o‘qish davrida ularning amaliy pedagogik faoliyatlari bilan birlashishini ta'minlaydi. Pedagogik amaliyotning qurilishini, shuningdek uning vazifalari va funksiyalarining ilmiy asoslanishi O.A.Abdullina, V.A.Slastenin va boshqalar ishlarida ifodalangan.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shuni ayta olamizki, ishimiz jarayonida tadqiqotchi tavsiya etayotgan samarali shakl va metodlardan foydalangan holda talabalar o‘zlaridagi nazariy bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash va kelgusi kasbiy faoliyatiga ham tatbiq eta olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu tariqa, psixologik-pedagogik adabiyotlar, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari fikrlari tahlili natijasida ijtimoiy- pedagogik omillar guruhining pedagogik aspekti sifatida quyidagilarni ajratdik: oliy ta'lim muassasasining ta'lim muhiti; o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish shakllari va metodlari; pedagogik amaliyotni tashkil etish shakllari va metodlari.

Maktab jamoasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili fanidan bilim va ko‘nikmalarni egallashlarida turli xil muammolarga duch keladilar. Bu esa o‘qituvchi tomonidan kasbiy mahorat, kasiy bilimning yetishmasligi oqibatida o‘quvchilarning o‘zlashtirishida seziladi. O‘quvchilarning bilimlarni egallashlaridagi qiyinchiliklar va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlanmaganligini ko‘rsatuvchi bir

qator omillar mavjud.

O‘quvchining o‘zlashtirishiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi omillar.

Aytilgan subyektiv shaxs sifatlarini qisqacha ochib beramiz, ularning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga ta'sirini aniqlaymiz.

I.A.Zimnyayaning fikriga ko‘ra, pedagog shaxsining asosiy subyektiv sifatlaridan biri kasbiy-pedagogik faoliyatning cho‘qqisiga erishishning muhim omili bo‘lgan – “shaxsiy yo‘nalganlik” hisoblanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan shaxsning yo‘nalganligi – “bu joriy vaziyatlardan erkin, barqaror, insonning dunyoqarashi ifodalanadigan, inson faoliyatini uning qiziqishlari, moyilliklari, ishonchi va idellariga mos ravishda yo‘naltiradigan motivlar yig‘indisidir”.

Mazkur nisbatan umumiy psixologik muammo (shaxsning yo‘nalganligi) doirasida tadqiqotchilar A.A.Bodalev, A.K.Markova, V.A.Slastenin va boshqalar tomonidan, o‘qituvchi shaxsining pedagogik yo‘nalganligi, uning psixologik mazmuni, rivojlanish sharoitlari va dinamikasi o‘rganiladi.

Masalan, A.K.Markova pedagogik yo‘nalganlikni o‘qituvchilik kasbiga, asosiysi, o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga faol yo‘naltirilgan motivatsiya sifatida (ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqalar) belgilaydi.

Demak, yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy qadriyatli motivlarning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida aks etishi to‘laqonli va tarbiya birligini ham ta'minlab bera oladi.

Pedagogikada qadriyatlar muammosi D.V.Kiryakova va boshqa olimlar tomonidan shaxsning qadriyatli yo‘nalishlari, kasbiy yo‘nalishlarni anglash mazmunida o‘rganiladi. A.V.Kiryakova rivojlanishning yuqori bosqichidagi qadriyatli yo‘nalishlar shaxsni xatti-harakatlarga undashi, uning e'tiqodlariga aylanishi mumkin deb hisoblaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Oliy ta'lim muassasasida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazkur jarayonga qadriyatli munosabatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak, chunki faqatgina shaxsiy ahamiyatli qadriyat bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyatning ichki tartibga soluvchisi (bo‘lajak kasbiy faoliyatga barqaror motiv) sifatida xizmat qiladi. Bu qadriyatlar va qadriyatli yo‘nalishlarning oliy ta'lim muassasasida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ahamiyatli ta'sir ko‘rsatishi to‘g‘risida guvohlik beradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar va boshlang‘ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarining so‘rovnomalari tahlili bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko‘rsatuvchi psixologik-pedagogik omillar guruhidagi psixologik aspekt quyidagi omillar bilan belgilanishi to‘g‘risidagi xulosaga kelish imkonini beradi: pedagogik faoliyatning psixofiziologik asoslari; kasb tanlash motivlari; talabaning moyilliklari, qiziqishlari, qadriyatli yo‘nalishlari.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatuvchi qolgan shaxsning subyektiv sifatlarini, ya'ni kasbiy-pedagogik va kasbiy bilim va ko‘nikmalarni aniqlaymiz.

Pedagogik ko‘nikmalarning birinchi guruhi: pedagogik vaziyatda muammoni ko‘ra olish va uni pedagogik vazifa sifatida belgilash ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni belgilashda o‘quv-tarbiya jarayonining faol rivojlanuvchi, shaxsiy motivlari va maqsadlariga ega ishtirokchisi sifatida o‘quvchiga yondashish ko‘nikmasi; pedagogik vaziyatni o‘rganish va qayta o‘zgartirish ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni bosqichli va operativ aniqlashtirish, noaniqlik sharoitida optimal pedagogik qaror qabul qilish, pedagogik vaziyatning o‘zgarishi davomida pedagogik maqsadlar va vazifalarni qulay qayta tashkil etish; qiyin pedagogik vaziyatlardan to‘g‘ri chiqa olish ko‘nikmasi; pedagogik vazifalarni hal etishning yaqin va uzoq natijalarini oldindan ko‘ra olish ko‘nikmasi va boshqalar. Pedagogik oliy ta'lim muassasasi talabasi uchun pedagogik vaziyat sifatida o‘quv vaziyati, ya'ni psixologik asosi o‘qituvchining talabalar bilan talabalarning bir-birlari bilan o‘zaro aloqalari, munosabatlari va muloqotlari hisoblangan o‘quv jarayonining o‘zgaruvchilarining tashkiliy tizimi xizmat qiladi.

Pedagogik ko‘nikmalarning ikkinchi guruhi. “Nimani o‘rgatish” guruhi: o‘quv materiali mazmuni bilan ishlash ko‘nikmasi; turli manbalardan qabul qilinayotgan axborotlarni pedagogik talqin qilish qobiliyati; o‘quvchilarda umumta'lim va maxsus ko‘nikmalar hamda malakalarni rivojlantirish, fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish va boshqalar.

“Kimni o‘qitish” guruhi: o‘quvchilardagi alohida psixik funksiyalarni (xotira, tafakkur, diqqat, nutq va boshqalar) va faoliyat turlarining yaxlit xarakteristikalarini (o‘quv, mehnat), o‘quvchilarning bilimlilik va tarbiyaliliklarini o‘rganish; o‘quvchilarning nafaqat mavjud darajasini aniqlash, balki yaqin rivojlanish sohasini, bir rivojlanish darajasidan boshqasiga o‘tish sharoitlarini aniqlash, o‘quvchilarning ehtimoliy qiyinchiliklarini oldindan ko‘ra bilish va odatiy qiyinchiliklarini hisobga olish; o‘quvchilarda mavjud bo‘lmagan faoliyat darajalarini loyihalash va rivojlantirish ko‘nikmalari; o‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini boshqarish chegaralarini kengaytirish; zaif hamda iqtidorli o‘quvchilar bilan ular uchun individual dasturlar ishlab chiqib ishlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2. Blum A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol. 3.
3. Абдуқуддусов О.А. Интегратив ёндошув – чуқур билим, яхши фазилатларни ривожлантириш омили. // Халқ таълими. – 2000. 3-сон.
4. Абдуллаева Б.С. Формирование информационной компетентности школьника. Formation of information competence of students // Eastern European Scientific Journal. AURIS Kommunikations- und Verlagsgesellschaft mbH Dusseldorf. Germany: Ausgabe 3.2018.
5. Абдуллина, О.А. Мониторинг качества профессиональной подготовки / О.А. Абдуллина // Высшее образование в России. - 1998. — № 3.

Feruzaxon XOSHIMOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti
Pedagogika kafedrasi assistent o‘qituvchisi
e.pochta: xoshimovaf@gmail.com

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DASTURIY METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya: bugungi davrda jamiyatimiz tashabbuskor, ijodkor, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar va kreativ yechimlarni topishga tayyor, yangi demokratik jamiyatda yashashga qodir va ushbu jamiyat uchun foydali bo‘lgan mutaxassislarga ayniqsa keskin ehtiyoj sezmoqda.
Kalit so‘zlar: *raqamlashtirish sharoiti, raqamli texnologiyalar, dasturiy metodik ta’minoti, elektron ta’lim resurslari, loyihalar, innovatsion g‘oyalar,raqobat va rag‘batlantiruvchi muhit, ijodiy salohiyat, ijodiy tajribalar.*
Аннотация: сегодня наше общество предприимчиво, креативно, готово находить новые подходы и творческие решения для решения сложных социальных и экономических проблем, готово жить в новом демократическом обществе, и это общество особенно полезно, поскольку оно находится в тяжелом положении. нуждаться.
Ключевые слова: *условия цифровизации, цифровые технологии, программно-методическое обеспечение, электронные образовательные ресурсы, проекты, инновационные идеи, конкурентная и стимулирующая среда, творческий потенциал, творческий опыт.*
Annotation: today, our society is enterprising, creative, ready to find new approaches and creative solutions to solving complex social and economic problems, and is ready to live in a new democratic society, and this society is especially useful for it sa is in dire need.
Keywords: *digitization conditions, digital technologies, software and methodological support, electronic educational resources, projects, innovative ideas, competitive and stimulating environment, creative potential, creative experiences.*

Jamiyatda zamonaviy va samarali o‘qituvchini tayyorlash zarurati fonida pedagogik faoliyatning ijodiy salohiyatini o‘rganish uchun ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqda va natijada ijodkorlikni oshirish talabi bilan bog‘liq muammoli masala yuzaga keladi. Bu muammoli masalalardan biri bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari shaxsiyatining zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirilishidir.

Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning dasturiy metodik ta’minotini takomillashtirish uchun bir qancha texnologiyalarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1. O‘quv jarayonining raqamli muhitda tashkil etilishi:

– Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish.

– Digital platformalar, elektron ta'lim resurslari, virtual sinf xonalari, masofaviy o‘qitish tizimlarini qo‘llash.

– Amaliy mashg‘ulotlar, loyihalar, tajribalar uchun raqamli vositalardan foydalanish.

2. Ijodiy yondashuvni rag‘batlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish:

– Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, yechimlarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

– O‘quvchilarning ijodiy potensialini namoyon etishlari uchun sharoit yaratish.

– Innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash:

– Muammoli ta'lim, loyihali o‘qitish, interfaol metodlar, virtual laboratoriyalar kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

– Raqamlashtirish sharoitida ushbu

texnologiyalarni qo‘llash usullarini takomillashtirish.

– Texnologiyalarning ijodiy o‘quv faoliyatni rag‘batlantirish imkoniyatlarini oshirish.

4. Raqamli vositalar va ta'lim resurslaridan samarali foydalanish:

– Multimediali, animatsiyali, interaktiv elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish.

– Raqamli vositalar orqali ijodiy faoliyatni yanada rivojlantirish.

– Yangi texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish:

– Raqamlashtirish sharoitida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha o‘quv-uslubiy seminarlar, trening va kurslar o‘tkazish.

– O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish.

– Innovatsion g‘oyalarni qo‘llash va ijodiy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Yuqorida berilgan texnologiyalar bilan birga raqamli texnologiyalar tarkibiga kiruvchi quyidagi vositalar ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirishning samarali texnologiyalari sifatida xizmat qiladi:

1. Elektron ta'lim resurslari:
   - Interfaol multimedia darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar
   - Onlayn videodarslar va ma'ruza materiallar
   - Virtual laboratoriya mashg‘ulotlari
   - Elektron test va amaliy topshiriqlar
2. Masofaviy o‘qitish platformalari:
   - LMS (Learning Management System) - o‘quv jarayonini boshqarish tizimlari.
   - MOOC (Massive Open Online Courses) - katta jamoalar uchun ochiq onlayn kurslar.
   - Videokonferensiya tizimlari.
3. Mobil ilova va ilovalar:
   - O‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar
   - O‘quv topshiriqlarini bajarish va topshirish uchun ilovalar
   - Bilimlarni baholash va keyingi faoliyatni rejalashtirishga yordam beruvchi ilovalar
4. Kreativ va innovatsion yondashuv:
   - Robotexnika, 3D-modellashtirish, kodlash va boshqa STEAM yondashuvlar
   - Ijodiy loyihalar, amaliy mashg‘ulotlar va musobaqa tashkil etish
5. O‘zaro hamkorlik va axborot almashinuvi:
   - Ijodkor o‘qituvchilar uchun yagona makonlar yaratish
   - Ochiq ma'lumotlar bazalari va kutubxonalar

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodkorligini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirishda dasturiy metodik ta’minotni takomillashtirish ustida izlanish olib borar ekanmiz, quyidagicha amaliy tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun digital kompetensiyalar rivojlantirilgan onlayn kurslar, seminarlar tashkil qilish:

– Yangi raqamli vositalar, dasturiy ta'minotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish

– Interfaol dars, loyiha, o‘yin-mashg‘ulotlar yaratish uchun metodikalarni o‘rgatish

– Raqamli resurslarni topish, tanlash, moslash va samarali qo‘llash usullarini o‘rgatish

2. Kreativ va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun ijodkorlik muhitini yaratish:

– Robotlar, 3D-printerlar va boshqa qurilmalarni taqdim etish

– Loyihalar, startaplar, musobaqalarni tashkil qilish uchun sharoit yaratish

– O‘qituvchilar uchun maslahat va tavsiyalar beruvchi ekspertlarni jalb qilish

3. Innovatsion g‘oyalarni ilovalar, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatish va jamoaviy ijodiy jarayonni jadallashtirish:

– O‘qituvchilar uchun yagona virtual makonlar tashkil qilish

– G‘oyalar, tajribalar, loyihalar, manbalarni ulashish uchun imkoniyatlar yaratish

– O‘qituvchilar orasida raqobat va rag‘batlantirish tizimini joriy etish

4. Metodik adabiyotlar, ko‘rgazmalar, konferensiyalar orqali ijodiy tajribalar almashish imkoniyatlarini yaratish:

– O‘qituvchilarning ijodiy loyihalarini namoyon qilish

– Yangi texnologiyalarni namoyish qilish va ulardan foydalanish yuzasidan maslahatlar berish

– Ijodiy g‘oyalar, fikrlar, innovatsion yechimlar muhokamasi uchun sharoit yaratish

Ushbu yondashuvlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, ijodiy fikrlash va innovatsiyalar yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.H. Ayupov, S.Q. Tursunov. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, “Nodirabegim” nashriyoti, 2020, 377- bet.

2. Adizov B. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. –Toshkent, 2003. 276- bet.

3. Tarnoff John. STEM to STEAM. Recognizing the Value of Creative Skills in the Competitive. — [URL]: (http://www.huffingtonpost.com/john-tarnoff/stem-to-steam-recognizing_b_756519.html).
4. Вишнякова, Н.Ф. Креативная акмеология. Психология высшего образования / Н.Ф. Вишнякова. - Мн.: Народная асвета, 2007. - 300 с.

To‘lqinjon BADALXODJAYEV,
Andijon davlat universiteti,
Informatika kafedrasi dotsenti (v.b.)

INFORMATIKA KURSIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSLARINI O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya: maqolada informatika kursida sun'iy intellekt tizimining elementlarini o'rganishga uslubiy yondashuv muhokama qilinadi. Maqolada intellektual tizimlar va texnologiyalar tuzilishi va mazmuni informatika fanidan umumiy ta'lim kursining yangi bo'limi sifatida keltirilgan. Maqolada maktab informatika kursiga intellektual texnologiyalar va tizimlar bo‘yicha alohida bo‘lim kiritish, ixtisoslashtirilgan ta’limga mos keladigan informatika o‘qitishda ta’lim natijalariga erishish mezonlarini modernizatsiya qilish va ta'lim samaradorligining yangi mezonlarini joriy etish zarurligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: *tizim, texnologiya, sun'iy intellekt, tuzilma, mazmun, o'qitish, chuqur mashinali o'rganish.*

Аннотация: в статье рассматривается методический подход к изучению элементов системы искусственного интеллекта в курсе информатики. В статье отмечается необходимость включения в школьный курс информатики отдельного раздела, посвященного интеллектуальным технологиям и системам, модернизации критериев достижения образовательных результатов в обучении информатике, пригодных для профильного образования, а также введения новых критериев образовательной эффективности.

Ключевые слова: *система, технология, искусственный интеллект, структура, содержание, обучение, глубокое машинное обучение.*

Annotation : the article discusses a methodological approach to studying the elements of the artificial intelligence system in the informatics course. The article mentions the need to include a separate section on intellectual technologies and systems in the school informatics course, to modernize the criteria for achieving educational results in informatics training suitable for specialized education, and to introduce new criteria of educational efficiency.

Key words: *system, technology, artificial intelligence, structure, content, teaching, Deep Machine Learing.*

Sun'iy intellekt (SI) - bu axborot texnologiyalari tizimi qiyin va o'ta xavfli vaziyatlarda odamni almashtirish uchun mo'ljallangan tizim. Hayotning turli sohalarida sun'iy intellektdan foydalanish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalari rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ishlab chiqarish jarayonlari soddalashtiriladi, ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, mutaxassisning ishi aqlli tizimlar bilan almashtiriladi.

Informatika kursida sun'iy intellekt asoslarini o'rgatish bir necha ma'noda ko'rib chiqilishi mumkin:

1. O`rganish predmeti sifatida;
2. Ta’lim vositasi sifatida;
3. Hozirgi zamon ilm-fanining natijasi sifatida.

1. SI asoslari o'rganish predmeti sifatida.

SIni yaratish mavzusi juda tez rivojlanmoqda va bu jarayonning barcha jihatlarini informatika kursi doirasida ko'rib chiqishning iloji yo'q. Keling, SI asoslarini uning dasturiy ta'minoti (DT) tekisligida o'qitishni ko'rib chiqaylik, bu yerda komponentlar aqlli algoritmlardir.

Informatika o'qituvchisining vazifasi talabalarda SI dasturiy ta'minoti turlari haqida tushunchani shakllantirish va ulardan ba'zilari misolida (Sun'iy intellekt platformalari, Chatbotlar, chuqur o'rganish dasturlari, mashinalarni o'rganish dasturlari) raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

Informatika kursida sun’iy intellektni yaratish algoritmini o‘rgatishda o‘z-o‘zini optimallashtirish jarayonlarini tashkil etishni ta’minlash uchun avtonom robot qurilmalarini loyihalash masalalarini ko‘rib chiqish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va qisqa vaqt ichida qaror qabul qilish uchun SI algoritmlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

2. SI o'rganish vositasi sifatida ko'proq elektron ta'limda qo'llaniladi.

Elektron ta'lim, ta'lim jarayonining an'anaviy shaklining kengaytmasi sifatida sun'iy intellektdan foydalanishni o'z ichiga oladi. O‘quv jarayoniga an’anaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning mutanosib ravishda joriy etilishi informatika fanlari bo‘yicha ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. SI yaratish algoritmi informatika fanining jadal rivojlanayotgan sohasi bo'lib, hozirda joriy etishning dastlabki bosqichidadir.

Informatika fanini o'qitishda sun'iy intellekt algoritmlarini qo'llashning asosiy turlari:

1. Shaxsga yo’naltirilgan ta'lim - informatika o'qitish metodikasi har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasi

va ehtiyojlariga mos ravishda qurilganligini nazarda tutadi.

2. Moslashuvchan ta'lim SI yordamida har bir o'quvchining proksimal rivojlanish zonasini kuzatish, shuningdek, kerak bo'lganda o'quv materialini moslashtirish yoki o'qituvchiga o'quvchi uchun tushunish qiyin bo'lgan o'quv materiali haqida ma'lumot berish mumkinligini nazarda tutadi.

3. Universal ta’lim har bir talabaning o’quv ma’lumotlariga qulay tarzda kirishini nazarda tutadi, ya’ni intellektual dastur foydalanuvchilarga o‘z kompyuterida bir ilovaning boshqa ilovalar bilan o‘zaro aloqasi bo‘yicha operatsiyalarni bajarish imkonini beradi. Bunday dasturlarga misollar: real vaqt rejimida subtitrlar yaratadigan, ularni taqdimot ostida ko'rsatadigan Microsoft PowerPoint plaginlari – Taqdimot Tarjimon, shuningdek, Azure Cognitive Services, bulutga asoslangan sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanish, bu o'qituvchilarga ijodiy intellektga ega dasturlarni yaratishga imkon beradi.

4.Avtomatlashtirish. SI algoritmlariga asoslangan dasturiy ta'minot platformalari talabalar o’zlashtirishini kuzatish va tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun avtomatlashtirilgan virtual murabbiylarni taklif qiladi.

Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyalashuvi ko'plab imkoniyatlarni ochib beradi va ulardan biri virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyasidir.

Virtual reallik - bu real hayotning kompyuter simulyatsiyasidir. Bu foydalanuvchilarni o'ziga singdirib, ular simulyatsiya qilingan haqiqatda bo'lgandek his qiladi. To’ldirilgan reallik mavjud voqelikning ustiga kompyuterda yaratilgan elementlarni u bilan o‘zaro aloqada bo‘lish orqali yanada mazmunli qilish uchun qo‘yiladi.

Ularning orasidagi farq: virtual - mavjud bo'lmagan dunyoga sho'ng'ishni anglatadi va to’ldirilgan - jismoniy dunyoga virtual narsa qo'shishni anglatadi.

Ushbu texnologiyalarning ikkalasi ham o'quv jarayoniga nisbatan bir qator afzalliklarga ega, xususan:

Talabalarning yuqori faolligi. O'quv va ijodiy komponentlarning kombinatsiyasi tufayli VR va TR ilovalari o'quvchilarning yangi material bilan tanishishda ham, uni mustahkamlash jarayonida ham e'tiborini va qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi.

Samarali ta'lim jarayoni. Ta'limdagi VR va TR vizualizatsiya va sho'ng'ish orqali yuqori o'quv natijalariga erishishga hissa qo'shadi. Texnologiyalarning o'ziga xosligi shundaki, ular real dunyoda davom etayotgan jarayonlarni tushunishni kengaytirishga yordam beradi.

Ta'limning har qanday darajasida foydalanish imkoniyati. VR va TR ma’lum bir yosh guruhi bilan cheklanmaydi va ta'limning barcha darajalarida samarali qo'llanilishi mumkin.[6]

Informatika kursida SI asoslarini o'rganish jarayoni quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– SI elementlari bo'yicha o'qitish natijalarini aniqroq kafolatlash va o'quv jarayonini yuqori sifatli tashkil etish;

– ilmiy asosda o‘quv, intellektual tizimlarining (IT) turli konstruksiyalarini tahlil qilish va sintez qilish;

– SIni yaratish va amaliyotda qo'llash texnologiyasining ta'lim va ijtimoiy muammolarini birgalikda hal qilish;

– shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

– mavjud axborot, tarmoq va texnik resurslardan optimal foydalanish;

– ta'lim va ijodiy muammolarni hal qilish uchun zamonaviy intellektual platformalarni tanlash.

Xulosa. Shunday qilib, informatika kursida SI elementlarini alohida bo'lim sifatida o'rganish turli fan sohalarida foydalanilishi kerak bo'lgan turli xil aqlli texnologiyalar (intellektual, sanoat, statsionar) va intellektual tizimlarning ilmiy asoslarini o'zlashtirishda, shuningdek ularni amalda qo’llash malakalarini egallashda katta ahamiyatga ega. Sun'iy intellekt ta'limni o'zgartirish, uning qulayligi va sifatini oshirish uchun kuchli vositadir. Biroq, ushbu texnologiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun turli jihatlar, jumladan, foydalanish imkoniyati, ma'lumotlar maxfiyligi va o'qituvchilar malakasini oshirishni hisobga olish kerak. Kelajakda ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish rivojlanishda davom etadi va talabalar hamda o'qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Computer Vision: Algorithms and Applications” by Richard Szeliski. 2010
2. “Deep Learning for Computer Vision” by Rajalingappaa Shanmugamani. 2018
3. “Foundations of Statistical Natural Language Processing” by Christopher D. Manning and Hinrich Schütze. 1999
4. “Hands-On Computer Vision with TensorFlow 2” by Benjamin Planche. TensorFlow. 2019
5. “Speech and Language Processing” by Dan Jurafsky and James H. Martin. 2022
6. Бадалходжаев Т.И. Технологии искусственного интеллекта в образовании// Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. № 20(243). URL: https://internauka.org/journal/science/internauka/243

Zikriyo SHARIPOV,
O'zDJTU katta o'qituvchisi

TIL GRAMMATIK STRUKTURASINI TASVIRLASH USULLARI

Annotatsiya: maqola o'zbek adabiyotida psixologik germenevtikaning yangi parametrlarini belgilashga qaratilgan. Unda badiiy asarni tushunishning badiiy tafakkur imkoniyatlari ochib beriladigan qirralari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *mumtoz, lirika, qiyosiy tipologik, radif, vazn, matla', satirik, falsafiy, ishqiy, avtobiografik, parokanda, yakpora, maqta'.*

Аннотация: целью статьи является определение новых параметров психологической герменевтики в узбекской литературе. Освещаются аспекты понимания произведения искусства, раскрывающие возможности художественного мышления.

Ключевые слова: *классический, лирический, сравнительно-типологический, радиф, вес, матла, сатирический, философский, романтический, автобиографический, пароканда, якпора, мактаъ.*

Annotation: the article aims to define new parameters of psychological hermeneutics in Uzbek literature. It illuminates the aspects of understanding a work of art that reveal the possibilities of artistic thinking

Keywords: *classical, lyrical, comparative typological, radif, weight, matla', satirical, philosophical, romantic, autobiographical, parokanda, yakpora, praise. makta'.*

Grammatika barcha xalq va millatlarning tillaridagi so'z shakllari va birikmalarining yasalishidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganadi yoki ayrim grammatik kategoriyalarning ifodalanish uslubi ko'p tillarga xos ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lum bir kategoriya (masalan, otlardagi ko'plik yoki rod kategoriyalari) ko'p tillarga xos ekanligini ko'rsatib beradigan grammatika turidir. Traditsion yoki tarixiy umumiy grammatika o'rta asr sxolastik grammatik nazariyasi asosida tuzilgan bo'lib, grammatik kategoriyani mantiqiy kategoriya asosida belgilaydi va hamma tillarga xos deb hisoblaydi va mazkur kategoriyani mantiqiy, psixologik hamda falsafiy fikrlar asosida o'rganadi. Falsafiy grammatika asosan til va tafakkur o'rtasidagi aloqalarni falsafa va tilshunoslikka oid kategoriyalarning umumiy uyg'unligi va zidligini o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu sohada ingliz tilida qilingan asosiy ishlardan biri daniyalik olim Otto Yespersenning "Grammatik falsafasi" (The philosophy of grammar) asaridir. Bu asarida Yespersen mantiqiy-falsafiy aloqalar bo'lmish yunktsiya va neksusning ingliz tilida qanday ifodalanishini, so'zlarning uch rangi (darajasi) o'rtasidagi mantiqiy va grammatik uyg'unlikni ko'rsatib bergan. Ushbu grammatikaning asosiy vazifalaridan biri tushuncha kategoriyasining lingvistik kategoriya bilan ifodalanishi hamda ifodalanmasligi va bu kategoriyalar orasidagi qonuniyatni aniqlashdan iborat. (1)

Tarixiy grammatika o'z navbatida diaxronik va sinxronik grammatikaga bo'linadi. 1.Tarixiy – diaxronik grammatika so'zlarning shaklini, tarkibini va so'z turkumlarini hamda grammatik kategoriyalarning asrlar mobaynida o'zgarish va mavjud bo'lgan qoidalarini o'rganadi.

2.Tarixiy sinxronik grammatika ma'lum davrni olib, o'sha davrdagi grammatik hodisalarni o'rganuvchi fan tarixiy grammatika deb ataladi.(2)

Qiyosiy grammatika ikki xil til tizimni bir-biri bilan taqqoslash bilan shug'ullanadi va u o'z navbatida tarixiy-qiyosiy grammatik va tipologik-qiyosiy grammatikaga bo'linadi.

1. Tarixiy-qiyosiy grammatika qardosh tillarning grammatik shakllari tarixiy-qiyosiy metod asosida bir-biri bilan taqqoslanib o'rganiladi. Ayniqsa, XIX asrda u juda rivojlandi va asosan, hind-yevropa tillaridagi grammatik, fonetik, leksik o'xshashliklarni topish, tillarning asosi bo'lmish "bobo" tillarni aniqlash bilan shug'ullandi. Tillar tizimidagi o'zaro o'xshashlik tomonlarini topish katta rol o'ynaydi. Masalan, brat-bridor-brother.

2. Qiyosiy-tipologik grammmatikaning asosiy ish obyekti qardosh va noqardosh tillar tizimini o'rganish bilan shug'ullanishdan iborat va bu grammatika ular orasidagi allomorfik va izomorfik xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Qiyosiy-tipologik jihatdan kategoriyalarni yaratishda mazmun planidan ifoda planiga ko'chadi, ya'ni tushuncha kategoriyasida ularning ifodalanishida grammatik shakllarni inventarizatsiya qiladi. Masalan, ko'plik kategoriyasini inventarizatsiya yoki sanab o'tadigan bo'lsak, kategoriya faqat otlarga tegishli emasligini ko'rishimiz mumkin. Grammatik ko'plik kategoriyasi fe'lga ham, sifatga ham, olmoshlarga ham taalluqlidir. (3)

Tilshunoslikning xuddi shu jabhasida faol tadqiqot ishlari olib borgan o'zbek olimlaridan J.Bo'ronov va A.Abduazizov, O'.Yusupov kabi tipolog olimlarni sanab o'tishimiz mumkin. Amaliy grammatikaning ikki turi mavjud: tavsifiy (deskriptiv) va normativ grammatika. Amerika tilshunosligida deskriptiv lingvistik oqim paydo bo'lguncha amaliy grammatika bizning normativ grammatikamizni anglatar edi. Hozirgi paytda deskriptiv grammatika tilning grammatik yarusini qat'iy sistemalashtirish va til tizimiga xos elementlarni juda mukammallashtirmasdan soda va istisnolarsiz bayon etish bilan shug'ullanadi.

Nazariy grammatika tildagi mavhum va muammoli hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Masalan,

“nisbat kategoriya” muammosi, zamon shakllari muammosi yoki qurilmalardagi gap bo‘laklari muammosi. Nazariy grammatikalar lisoniy hodisalarni talqin qilish tarziga ko‘ra turli xil bo‘ladi. Hozirgi zamon tilshunosligida grammatik nazariyalarni tasniflashga bir necha bor qo‘l urilgan. Binobarin, nazariy grammatikaning quyidagi turlarini ko‘rsatish mumkin. Formal (struktural) grammatika tilning hamma hodisalarini lisoniy ramzlarning iyaki munosabatlaridan kelib chiqib, voqelikka, so‘zlovchining psixologiyasiga va uning tafakkuriga bog‘lamagan holda talqin qiladi. Semantik (mentalistik) grammatika formal grammatikaga qarama-qarshi o‘laroq, til hodisalarini voqelikka bog‘langan holda ularning ichki munosabatlarini inobatga olmasdan talqin etadi.(4)

Mantiqiy grammatika morfologik faktlarning mantiqiy kategoriyalarini hamda butun gap mazmunini o‘rganadi. Ammo, mantiqiy grammatika faqat mazmun planida ish ko‘radi. Biz yuqorida ko‘rib chiqqan grammatika turlari grammatikaning eng ko‘p tarqalgan turlari, ya’ni avvaldan ma’lum bo‘lgan va dunyo tilshunoslari tomonidan e’tirof etilgan grammatikalardir. Bulardan tashqari, grammatikaning assotsiativ, sinxronik, formal, ichki va tashqi kabi boshqa bir qancha turlari ham mavjud.

Tilning uch asosiy elementi bir xildir, faqat nutqda reallashadi. Nutq, yo‘q vaqtida ularning taqdiri nima bo‘ladi? Nutqdan oldin va keyin til elementlari, yuqorida aytilgandek, xotirada saqlanadi, ya’ni nerv markazida ichki qobiliyat, potensial imkoniyat tarzida mavjud bo‘ladi. Masalan: biron sabab bilan gapirish qobiliyatini yo‘qotgan kishi tilni yo‘qotmaydi. Buni shundan ham bilsa bo‘ladiki, u so‘zlovchining gapiga (tovush tili orqali aytgan gapiga) monesiz tushunadi va unga tildan boshqa vositalar bilan, chunonchi, imo-ishora bilan javob ham beradi. Gapirish qobiliyatini yo‘qotgan kishida so‘zlar yordamida suhbatdoshiga javob berish, ya’ni o‘z fikrini so‘z bilan bildirish imkoni yo‘q. Bunday kishi o‘z xotirasida so‘zning artikulyatsion (talaffuz etilishi) va akustik (eshitgandagi) obrazlarini saqlaydi-yu, biroq nutq organlari yordamida so‘zning artikulyatsion-akustik obrazini yangidan real faktga, tovushlar signaliga aylantira olmaydi. Faqat mana shu kamchilikka qarab uni tildan ajralib qolgan kishi deyish sira ham mumkin emas. Binobarin til aytilib, gapirilib turgan narsagina emas, degan xulosa chiqadi. So‘zlar, grammatik qoidalar va fonetik vositalar yig‘indisi ma’nosida til, hammadan burun psixik (kishining ruhiy faoliyatiga doir) faktdir. U shuning uchun psixik hodisaki, uning elementlari (so‘zlar,grammatik vositalar va boshqalar) har bir kishining xotirasida akustik obrazlar sifatida saqlanadi. (1)

Tilni shu xilda psixik hodisa deb baholashning bir katta kamchiligi bor. Bu kamchilik shundan iboratki, yuqoridagi fikr butun elementlari bilan xotiradagina mavjud bo‘lgan narsadan qanday qilib tovush materiyasidan iborat bo‘lgan real nutq hosil bo‘ladi, degan savolga javob bermaydi.

Xotirada saqlangan so‘zlar morfemalar (o‘zak va affikslar), fonemalar obrazidan nutq tuziladi, deb hisoblanadigan bo‘lsa, xotiradagi hodisa bilan real nutq orasida yana bir narsa bo‘lishi lozim. Demak, xotiradagi til elementlarining obrazlari nutq faoliyati vaqtida real elementlarga aylanadi. Zotan, real elementlar aslida birlamchi bo‘lib, ularning ongdagi obrazlari ikkilamchidir va ular real elementlar tufayli hosil bo‘ladi. Shunday qilib, til ikki xil material orqali mavjud. (2)

Bular:1. Psixologik “material”. Bu - so’z, morfema va fonemalarning xotiradagi obrazi bo‘lib, bu obrazlardan tashkil topgan til potensial imkoniyat sifatida “ichki” til deb ham atalishi mumkin. Biroq uni “ichki” nutq bilan aralashtirmaslik kerak.

2. Moddiy material. Bu – nutq yaratish chog‘ida belgili tovush qobig‘iga ega bo‘lgan real talaffuz qilinayotgan so‘zlar, morfemalar (allomorflar) va tovushlar (fonemalarning variantlari - allofonlar) dan iborat. Real nutq real til elementlaridan tashkil topadi va real til elementlariga bo‘linadi. Xuddi tosh yoki ganch haykal uchun, yog‘och (taxta) stol uchun material bo‘lganidek, real til elementlari ham nutq uchun materialdir. Masalan: Ertalab kuchli shamol turdi. Mazkur gap real nutq sifatida talaffuz qilingan real tovush materiyasiga egadir. Ammo ajratishdan hosil bo‘lgan har bir element o‘sha nutq o‘tib ketganidan keyin o‘z material qobig‘ini yo‘qotib, ma’lum obrazlar sifatida doimiy ravishda xotirada saqlanadi. Xotiradagi bu elementlar endi moddiy hodisa bo‘lmay psixik hodisadir. Tilning mohiyati, umuman olganda murakkab, u tabiiy xususiyatlar bilan ijtimoiy xususiyatlarni o‘zida birlashtiradi. Shuning uchun tilga bu xususiyatlarni aks ettiradigan, umumlashtiruvchi ta’rif berish lozim. Chunonchi, til ma’no bilan bog‘langan akustik-artikulyatsion birliklar yoki ularning psixik obrazlaridan tarixiy yo‘sinda tashkil topgan ijtimoiy aloqa vositasidir. (3)

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi uning kollektivda, jamiyatda yaratilganligi unga fikr ifodalash, aloqa vositasi sifatida xizmat qilishidadir. Tilning ijtimoiy xususiyati tabiiy xususiyatidan prinsipial farq qiladi. Bu farq shundaki, til faqat butun bir sistema sifatidagina ijtimoiy funksiya bajaradi. Uning ayrim birliklari – fonemalari ham, yakka so‘zlari ham, grammatik vositalari ham o‘z hollaricha kishilarning borliq haqidagi hukmlarini ifodalay olmaydi – nimanidir tasdiqlay yoki inkor qila olmaydi. Tilning elementlari butun til sistemasi ichidagi “ichki funksiya”nigina bajaradi. Masalan, fonemalar ma’lum sharoit va pozitsiyada ma’no ajratadi, morfemalar so‘z formasi ichida funksional qismlar sifatida qo‘llanadi, so‘zlar gapda gap bo‘lagi vazifasini – grammatik ega, kesim yoki ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasini bajaradi. (4)

Tilning funksiyasini uning faqat bitta elementigagina asoslanib belgilash mumkin emas. Tilni ishoralar (znaklar) sistemasi deb hisoblash kerakmi, yo‘qmi ekanligi ham xuddi shunday masalalardan biri. So‘z hamma vaqt ham tovush va ma’nodan iborat bo‘lgan butunlik deb hisoblanmagan. Ko‘pincha, so‘z deganda tovush kompleksining o‘zigina anglanib, uni til ma’nosida ham tushunganlar. Shuning uchun modomiki, so‘z tovush kompleksidan iborat bo’lgan ishora ekan, demak, til ham ishora (“znak”)lar sistemasidan iborat, degan xulosaga kelingan.

Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda ko‘p munozaralarga sabab bo‘lgan taqlid so‘zlar xususida mulohazalarimizni quyida bayon qilamiz.

Har bir millat o‘z yashash tarzi, ijtimoiy turmushi, madaniy saviyasi qisqa qilib aytganda o‘z mentalitetiga ega. Shunga asosan, har bir milliy tilning lug‘at boyligida shu millatga xos bo‘lgan xususiyatlar aks etadi.

Masalan, sigir tovushiga taqlidning turli tillarda o‘xshash va farqli tovushlar bilan ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin:

O‘zbek tilida: mo‘- mo‘

Rus tilida: mu –mu

Ingliz tilida: moo [mu:]

Taqlid so‘zlar o‘zbek tilida bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so‘z sifatida baholanadi. Buning bir nechta asosi bor.

Taqlidlar jamiyatning har bir a’zosi tomonidan tushuniladigan turli ma’noga ega leksemalardir. Masalan, taq-tuq, tuq-tuq, to’q-to’q, taqlidi orqasida nimadir yotgani va ma’lum bir borliq hodisani ifodalayotgani shu tilning barcha a’zolari uchun tushunarli.

Taqlid so‘zlar obyektiv olamdagi narsa va hodisalar harakatining tovush tomoniga taqlid etish orqali yuzaga kelgan so‘zlardir. Taqlidiy so‘zlarda ifodalangan tovush jonli va jonsiz tabiatning harakatidan yuzaga keluvchi turli - tuman ovoz va ohanglardan iborat. Shunga ko‘ra, taqlidiy so‘zlarni ikki katta guruhga ajratamiz :1) jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar; 2) jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar.

Jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bunday tasviriy so‘zlarning bir guruhi insonlar tovushlariga taqlid qilish natijasida vujudga keladi. Bular ikki xil: insonlar nutqi va ruhiy holati bilan bog‘liq tovushlarga taqlid: xi-xi, ha-ha-ha, qah-qah,(kulish), gangir-gungir (gaplashish), piq-piq (yig‘lash) kabilar.

Insonlar harakati va qo‘zg‘alishidan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid: gurs-gurs, tap-tap, dir-dir, dag‘-dag‘ va boshqalar. Qizlar piq-piq kulishdi.(S.A.). Shov-shuv ko‘tarildi, hamma o‘sha tomonga yopirildi (As.M.)

Taqlid so‘zlarlarning bir guruhi qush va parrandalar tovushiga taqlid qilish natijasida vujudga kelgan.:ku-ku, g’a-g’a, bit-bildiq, qu-qu...

O‘sha jo‘ja bo‘ynini qimirlata olmay, chiyillab, oyisining oldiga keldi: -chiy-chiy, churq-churq, voy oyijon...(“G‘uncha”)

Hayvonlar ovoziga hamda ularning harakati bilan bog‘liq tovushlarga taqlid qilinadi: ba, ba-ba, vov-vov, qang-qang, miyov-miyov, dik-dik va boshqalar.

Jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bu gruppa taqlidlar har xil jismlarning tovushlariga taqlid qilish natijasida vujudga keladi.

Jismlarning bir-biriga urilishi, sinishi, qisilishi, ishqalanishi, kesilishi, uzilishi natijasida hosil bo‘lgan tovushga taqlid qilinadi: taq-tuq, chirt-pirt, shiq-shuq, ding-ding, qisr-qisr, g‘iyq-g‘iyq va shu kabilar.

Shipning qayeridir “qirs” etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi. (A.Q.). Eshik “g‘iyq” etdi. (A.Q.)

Taqlidiy so‘zlar tovushning atamasi emasligi va nominativlik xususiyatiga ega emasligi bilan undovlarga yaqin tursa ham ma’no va grammatik xususiyati bilan undan farq qiladi. Undovlar so‘zlovchining his-hayajonini bildirsa, taqlidiy so‘zlar ixtiyoriy va ixtiyorsiz yuz bergan hayqiriqlar, jonli va jonsiz narsalar tovushiga, har xil harakat, shu’la, holatga taqlidni bildiradi. Taqlidlar tuzilish jihatidan yakka, takroriy va juft bo‘ladi.

Yakka taqlidiy so‘zlar birgina so‘zdan iborat bo‘ladi: piq, paq, taq, chars, gumbur kabi.

Takroriy taqlidiy so‘zlar shu so‘zlarning takrorlanishi asosida tuziladi, bunda fonetik o‘zgarish bo‘lishi, so‘z bir necha marta takrorlanishi mumkin: shov-shuv, taq-tuq, g‘ir-g‘ir, duv-duv kabi.

Juft taqlidiy so‘zlarda bir necha taqlidiy so‘z juftlashadi: guv-guv, duv-duv, cho‘lp-cho‘lp, guppa-guppa kabi.

Saida Zunnunova she‘riyati xususida so‘z yuritar ekanmiz, ularni tahlil qilish jarayonida shoiraning so‘z sehrgari ekanligiga, so‘zlarni chertib-chertib ishlatganiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Ayniqsa, shoiraning o‘zbek tili grammatikasi qoidalarini yaxshi bilganligi e’tiborga molikdir. Shoira she‘rlarida otlarni qo‘llaydimi, sifat, fe’l, ravish yoxud ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, modal so‘zlar, undovlar yoki taqlidiy so‘zlarni qo‘llaydimi, ularning har birida Saida Zunnunovaga xos uslub sezilib turadi.

Saida Zunnunovaning, ayniqsa, olmoshlarni qo‘llashi e’tiborni tortadi. Shoira she’rlarini tahlil qilish jarayonida olmoshlarning kishilik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, o‘zlik, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari kabi turlaridan foydalanganligining shohidi bo‘lamiz. Ko‘pgina she’rlarida shoira predmetlarni yoki uning belgisini jamlab, yakkalab, ajratib ko‘rsatuvchi belgilash olmoshlaridan (hamma, barcha, bari ba’zi, har kim, har nima) foydalangan:

Har kim yaxshi deb atasa meni,

Hech rozi bo‘lmasdim o‘zim o‘zimdan.

Shu ikki satrning o‘zida shaxs yoki predmetni aniqlab, yakkalab ko‘rsatish uchun ishlatiladigan o‘z so‘zi, ya’ni o‘zlik olmoshidan ham o‘rinli foydalangan. Bunda olmoshlarga oldin ko‘plik, keyin egalik, so‘ng kelishik affiksi qo‘shilish qoidasiga amal qilingan: o‘z+im, o‘z+im+dan. Shoiraning mahorati shundaki, u o‘zlik olmoshiga affikslarning qo‘shilish qoidasiga qat’iy rioya qilib, takror so‘z yasagan.

Shoira sen va men kabi kishilik olmoshlarini qo‘llaganda kishilik olmoshlarining egalik affikslarisiz ishlatilishi qoidalarini buzmagan: Masalan: Bilmaysan, bu menman, gullar bargiga

Seni bir ko‘rmoqqa qo‘ndim dur bo‘lib.

Shoira bir qator she’rlarida men kishilik olmoshini qo‘llaydi. Masalan, shoiraning «Urug‘» sarlavhali she’rini olaylik:

Beo‘y uloqtirdi uni allakim,
Bilmadi, orzusi faqat shu edi.
Ona yer ko‘ksiga labini bosib,

Endi men yashayman, o‘lmayman, deydi. Shoira she’rda men kishilik olmoshidan tashqari predmet yoki shaxslarni ko‘rsatuvchi u, shu olmoshlarini ham mahorat bilan ishlatgan.

Gumon olmoshlari odatda nutq protsessida mavjud bo‘lgan, ammo so‘zlovchi uchun noaniq, noma’lum bo‘lgan predmet yoki belgini ko‘rsatadi. Uning ma’nosi ba’zan kontekstdan ham anglashilmaydi. Saida Zunnunovaning yuqorida misol keltirib o‘tgan «Urug‘» she’ridagi allakim gumon olmoshi bunga misol bo‘la oladi. Chunki u allakimning kimligini hech kim bilmaydi. Balki u mendirman, balki siz yoki odamdir, bularning hammasi noma’lumligicha qoladi.

Saida Zunnunova gumon olmoshlariga -dir, -alla, -ov, - or kabi elementlar qo‘shilishi orqali yasalgan kimdir, nimadir, birov, allanarsa kabi olmoshlardan ham o‘rinli foydalangan.

So‘roq va gumon olmoshlarini yonma-yon qo‘llash orqali ham shoira betakror satrlar bitgan va bu o‘rinda olmoshlarning ma’no imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalana olganligini quyidagi satrlarda kuzatish mumkin:

Kimnidir yelkasin tutgan yo‘limda,
Kimlarning mehnati ichgan ko‘zimni.
Kimlarning qalbiga, ishiga boqib,
Oynadan ravshanroq ko‘rdim o‘zimni.

Shoira she’rlarida satrlardagi ohangni ta’minlash, olmoshning nutqda o‘ziga xos tarzda voqelanishiga erishish maqsadida turli olmoshlarni mahorat bilan ishlatilgan. Masalan:

Hayotdan nolisa birov suymayman,
Ayniqsa, sog‘ bo‘lsa qo‘li - oyog‘i,
Hayot siylar bizni quvonch, baxt bilan,
Ne ajab bo‘lsa goh alami, dog‘i.

Shoiraning «Hayotdan nolisa birov» sarlavhali she’ridagi birov olmoshi quyidagi shaklda yasalgan: bir+ov. Shuningdek, yuqorida keltirilgan parchada biz kishilik olmoshi biz+ni shaklida, ya’ni tushum kelishigi affiksi bilan ifodalangan. Ba’zi holatlarda shoira olmoshlardan takror o‘rnida foydalanadi. Masalan, shoiraning «Uyqum qochib ketdi» she’rida shunday satrlar bor:

Sen tufayli men ishq,
Sen tufayli men baxt.
Yo‘llarim ham tugab qolurdi sensiz,
Sensiz orzularim, aqlim ham karaxt,
O‘ylarim qanoti tolurdi sensiz,
Dilda borligingning o‘zi bir huzur.

Ko‘rinib turibdiki, shoira men va sen kishilik olmoshlarini qo‘llash orqali she’rining ohangdorligini ta’minlay olgan.

Umuman olganda, shoira olmoshlarni qo‘llash orqali ularni o‘z maqsadi sari yo‘naltira olgan va ularda so‘z qudratini mahorat bilan ko‘rsata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. –Т.: 1982. 34.
2. Биноий Камолиддин. Шайбонийнома. ЎзР.ФА кутубхонаси.
3. Гадамер Х.Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. – Москва: 1988.
4. История американской литературы. Под ред. Н.И.Самохвалова. Ч.1-2. – Москва: 1971.
5. История зарубежной литературы XX века 1917-1945.–Москва: 1990.
6. История русской литературы XIX века (1-2-половина)-Москва: 1973- 1978.
7. Yo‘ldoshev M. Cho‘lponning badiiy til mahorati. – Toshkent: 2000.
8. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент : 1960.
9. Захириддин Мухаммад Бобур. Мухтасар. Факсимил нусха. – Тошкент : Фан. 1071.
10. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: 2005.
11. Васильева А.Н.Художественная речь.-Москва: Русский язык.1983.
12. Ванспенкерен К. Америка адабиёти (тарж: проф. Ҳ.Кароматов) – Т.: 1994. 13. Виноградов В.В. Язык и стиль русских писателей.-Москва:1982.
14. Виноградов В.В.О языке художественной литературы.- М.: 1988.
15. Винокур Г.О. Филологические исследования. –Москва:1988.
16. Винокур Г.О. О языке художественной прозы. –Москва: 1991.
17. Тисельтон Э. Герменевтика. – Черкасси: 2008.

18. Jahon adiblari adabiyot haqida.-Toshkent: Ma'naviyat. 2010.
19. Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск: 1984.
20. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. –Москва: 1986.
21. Шпет Г.Г. Герменевтика и ее проблемы // Контекст. Литературно-теоретические исследования.-Москва : 1989-1992.
22. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –Toshkent : 1982.
23. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent : 1968.
24. Михайлов А.А. Современная философская герменевтика. –Минск: 1984.
26. Парандовский Ян. Алхимия слова // Мировые писатели о литературе. - Т.: Маънавият. 2010.
27. Сафаров Ш. Когнитивная лингвистика.Джизак: 2006.
28. Словарь иностранных слов. – Москва: Русский язык. 1983.

Nargiza UZOQOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

5-SINF ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA FOYDALANILADIGAN SINONIMLAR O'QUV LUG'ATI UCHUN BIRLIKLAR TANLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada sinonim so'z, so'z tanlash, ona tili darslarida sinonimlar lug'atidan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikrlar bayon etilgan.
Kalit so'zlar: *sinonim, lug'at, izoh, ma'no, tamoyil, tushuncha, so'z, leksema, omil, usul, uslub*
Аннотация: в данной статье рассматривается подбор синонимов, использование словаря синонимов на занятиях родного языка и его эффективность.
Ключевые слова: *синоним, словарь, объяснение, значение, принцип, понятие, слово, лексема, фактор, метод, метод.*
Annotation: in this article, the selection of words in synonym dictionaries, the use of synonym dictionaries in mother tongue lessons and its effectiveness are discussed.
Keywords: *synonym, dictionary, comments, meaning, concept, word, lexful, factor, method, style.*

Sinonim deganda bir leksema emas, o'zaro ma'nodoshligiga ko'ra birlashgan ikki yoki undan ortiq leksemalar qatori tushuniladi. Lug'atda so'z tanlash, birinchidan hajm, xronologik chegaralar va manbalarga bo'lgan talabni qoniqtirishi, ikkinchidan, qatori tarkibidagi sinonimik birliklarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari, shuningdek, formal-grammatik shakllari borasida chegaralarni qat'iy belgilab olishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan o'quv sinonimik lug'at uchun material tanlash deganda quyidagi uch omilni e'tiborga olish talab etiladi.

1. *Lug'at maqsadiga mos dominantani aniqlab olish.*
2. *Sinonimik qatorlarni shakllantirish.*
3. *Ma'nodoshlik paradigmasidan joy olishi mumkin bo'lgan leksik yoki frazeologik birlikni tanlash.*

Sinonimik qator boshida, odatda, dominant joylashadi. Dominantaning o'zi qator hosil qila olmaydi, shu bilan birga uning ma'nodoshlari ko'p bo'lishi ham mumkin. Biroq ularning hammasi ham o'quv lug'ati so'zligiga qo'yiladigan talabga javob bermaydi. O'quv lug'ati so'zligini shakllantirishning bosh mezoni har qanday holatda ham lug'at foydalanuvchisi mansub bo'lgan ta'lim bosqichi uchun mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarga tayanishi bilan bog'liq.

Tilshunos G. Mirxanovaning "Rus tilshunosligida sinonim so'zlar o'quv lug'atlarining tadrijiy rivojlanishi" deb nomlangan maqolasida "Tilshunoslikda sinonim so'zlar masalasi necha davrlardan buyon o'rganib kelinmoqda. Ularning umumlashmasi bo'lmish sinonimik lug'atlar fonetik va orfografik jihatdan farqlanuvchi, lekin bir-biriga o'xshash yoki ma'nosiga yaqin bo'lgan so'zlarni izohlaydi. Sinonimik lug'atlarning bunday ta'rifini biryoqlama ta'rif desak to'g'ri bo'ladi. Chunki bu ta'rif sinonim so'zlarning mohiyatini o'zida to'liq qamrab ololmaydi. Sinonim so'zlar ta'rifini keltiradigan bo'lsak, o'zbek tilining turli izohli lug'atlarida bunday so'zlarga turlicha yondashilganini ko'rish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"(har ikkala nashr, ya'ni 1981-yilgi 2 jildli hamda 2006-yilgi 5 jildli nashr) da sinonimlar quyidagicha izohlangan: 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da sinonim so'zlarga "tovush sostavi, talaffuz jihatidan boshqa-boshqa, ammo ma'nosi bir, o'xshash yoki juda yaqin so'zlardan har biri" deb ta'rif keltirilgan bo'lsa, 2006-yilda chop etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi sinonimlar ta'rifi "shakli har xil, ma'nosi bir xil yoki biroz farqli bo'lgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi" deb tavsif berilgan. Ushbu ikki lug'atlardagi sinonimiya, sinonimika, sinonimlik

kabi tushunchalarga oldingi lug‘atda qisqa izohlar berilgan bo ‘lsa, 2006-yilgi nashrda bu tushunchalar “ma’nodosh” tushunchasiga nisbatlangan holda sharh qilingan, biroq 1981-yilgi lug‘atdan farqli ravishda mazkur lug‘atdagi “ma’nodosh” tushunchasining izohida uning sinonimiya bilan bog‘liqligi haqida gapirilmagan…” deya keltirilgan.

O.Shukurov va B.Boymatovalarning istiqlol yillarida nashr etilgan “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” so‘zligini shu nuqtayi nazardan tahlil qilishga urinamiz. Ushbu lug‘at mualliflari o‘quv lug‘ati uchun asosiy manba sifatida 1974-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” va 1981- yilda nashr etilgan ikki jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga tayanilganligini ta’kidlaydilar va mazkur lug‘atning “O‘zbek tili sinonimlar izohli lug‘atdan izohsiz sinonimik qatorlardan tashkil topganligini, yangi qatorlar bilan boyitilgani, sinonimik qatordagi bosh so‘z qora rangda ajratilgani, lug‘at bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida ma’nodosh so‘zlarning o‘z yoki o‘zlashma qatlam ekanligi ko‘rsatilgani, birdan ortiq sinonimik qatorda bosh so‘z bo‘lgan sinonimlar alohida-alohida va Rim raqami bilan berilgani bilan farqlanishini izohlaydilar. Masalan: Gumon[f-t], dargumon [f-t], noma’lum [f-t-a], noaniq[f-t-a] .

O‘zbek tilining yangi avlod sinonim o‘quv lug‘atlari so‘zligini shakllantirishda bir necha mezonlarga asoslaniladi. Avvalo, ta’lim oluvchi mansub bo‘lgan ta`lim bosqich darsliklari, xususan, ona tili, adabiyot, tarix, odobnoma, nutq o‘stirishga qaratilgan darsliklar, shuningdek, qo‘shimcha o‘qish uchun, tavsiya etilgan ijodi o‘rganilayotgan yozuvchi va shoirlarning asarlarida foydalanilgan sinonim so‘zlar va iboralar birinchilardan bo‘lib lug‘at so‘zligi tarkibidan joy oladi. 5-sinf o ‘quvchilari uchun lu‘atga beriladigan so‘zlar nisbatan osonroq bo‘ladi. Ularning endigina boshlang‘ich sinfdan chiqqanliklari ham hisobga olinadi. 5-sinf o‘quvchilari uchun sinonimlar izohli lug‘atini tuzishda, albatta, ular o‘qigan boshlang‘ich sinf darsliklariga ham e’tibor qaratiladi. Bu o‘z navbatida, qaytariqlarning oldini oladi. O‘quvchi 4-sinfda o‘rgangan so‘zlarini 5-sinfda yana qayta-qayta o‘rganmasligi uchun. Biroq sinonim o‘quv lug‘atlar so‘zligini shakllantirishda faqat darslikka tayanish bilan cheklanib bo‘lmaydi. Aniqrog‘i, bu yerda so‘z birgina leksemani tanlash haqida emas, unga ma’nodosh bo‘lgan birliklardan tuzilgan paradigma a’zolarini aniqlash haqida keladi. Bu jarayon bilan bog‘liq eng katta muammo qator tarkibidan qat‘iy joy oladigan ma’nodoshlarini saralash.

Gulandom Mirxonova tomonidan tuzilgan yana bir o‘quv lug‘ati mavjud. Ushbu qo‘llanma “O‘zbek tilining sinonim so‘zlar o‘quv lug‘ati” deb nomlanadi. Ushbu qo‘llanma umumiy o‘rta ta‘lim maktablari tayanch sinf o‘quvchilarining foydalanishi uchun mo‘ljallangan.

ABADIY

Vaqt e’tibori bilan oxiri, poyoni bo‘lmagan; hayotga o‘xshab doimiy, yo‘q bo‘lmaydigan

Abadiy – mangu – umrbod – toabad – ilalabad

ABADIYLASHTIRMOQ Avlodlarga mangu qoldirmoq; unutilmaydigan, yo‘qolmaydigan qildirmoq

Abadiylashtirmoq – mangulashtirmoq – manguga qoldirmoq

JALA

Shiddat bilan yog‘adigan yomg‘ir

Jala– sel

JANJAL

Bir-biri bilan aytishish, o‘zaro urishish

Janjal – to ‘polon – g ‘alva – mojaro – g ‘avg ‘o – mashmasha – sho ‘rish

Bunda asosiy manba sifatida yuqorida aytib o‘tgan manbamiz, ya’ni professor Azim Hojiyev tomonidan 1974-yilda tuzilgan va hozirgacha o‘zbek adabiy tili uchun xarakterli bo‘lgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” dan foydalanildi. Bundan tashqari, 2007-yilda Qarshi davlat universiteti professor o‘qituvchilari tomonidan tuzilgan o‘quv lug‘atlaridan foydalanildi, deb yozadi muallif. o‘tgan davr mobaynida tilimizda paydo bo‘lgan va yangi qo‘shilgan so‘zlarning sinonimik qatori berildi. Masalan:

G ‘ING-PING

Har xil vaj-bahona, mayda gap; aniq bo‘lmagan gap, voqea va narsa ma’nosini bildiradi. **Alay-balay – u-bu – g‘ing-ping – g‘iring-piring.**

Har bir sinonimik qatorda dominant so‘z berildi, keyin shu so‘zning izohi hamda sinonimik qator berildi.

AQL

Inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati; fikrlash qobiliyatining amali

Kalla – bosh –miya – es – aql – ong – fahm – tamiz - xirad

Lug‘atda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid asosiy sinonimlar qatori tuzildi va bu lua‘atni yanada to‘ldirib borish maqsadga muvofiq ish hisoblanadi. Qo‘llanma sodda holatda tuzilgan, ya’ni so‘zga qisqacha ta’rif va uning ma‘nodoshlari berilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanmada tayanch sinf darsliklarida deyarli uchramaydigan so‘zlar ham kiritib o‘tilgan. Mening fikrimcha, o‘quv lug‘ati har bir sinf uchun alohida qo‘llanma shaklida tuzilishi kerak. Darsliklar o‘rganib chiqilib, sinonim so‘zlar yozib chiqilib umumiy bir sinf uchun bir kitobcha shaklida chop etilsa o‘quvchilar uchun zaruriy manba hisoblanar edi. Nafaqat o‘quvchilar uchun balki o‘qituvchining ham dars samaradorligi oshar edi. O‘quv lug‘atlaridan foydalanish o‘quvchi ongida mavhum qolgan har bir so‘zni anglatish va uning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi, fanni o‘zlashtirishi ham osonlashadi.

O‘zbek tilidagi so‘zlar, iboralar, barqaror birikmalarda shaxs ma’naviyati bilan bog‘liq tushunchalar obrazli, ta’sirchan aks etgan. Bu, ayniqsa, izohli sinonimlarda yaqqol ko‘zga ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimov.Sh. Sinonimlar o‘quv lug‘atini takomillashtirish zarurati. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” xalqaro konferensiyasi materiallari (2021, № 01). 377-381-bet.
2. Akobirov S.F. O granitsax i istochnikax tolkovogo slovarya uzbekskogo yazыka // Tyurkskogo leksikologiya i leksikografiya. – M., 1971.
3. Akobirov S.F. O‘zbek tilining izohli lug‘atida frazeologiya // “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, 1966, №6. 24-29 bet.
4. Akobirov S.F. O‘zbek tilining izohli lug‘atida qo‘shma so‘zlar // “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari”, 1965, №6. 36-40-bet.

Yulduz DO‘SMURADOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti tayanch doktoranti
O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
E-manzil: ydusmuradova1991@gmail.com

BADIIY MATNDA PARAMATN ELEMENTLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy matn va uning sintaktik xususiyatlari, paramatn va uning elementlari haqida fikr yuritilgan. Til – millatning ma’naviy boyligi ekanligi, til nafaqat vosita, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixi ekanligi haqida ham fikrlar berilgan. Paramatn elementlarining badiiy matnda tutgan o‘rni, uning ahamiyati tilshunos olimlar tomonidan keltirilgan fikrlar orqali bayon etilgan. Yozuvchi Tohir Malikning “Shaytanat” asaridan olingan misollar orqali paramatn elementlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, paramatn, gradatsiya, antiteza, epigraf, lingvistik tahlil, intertekstuallik.*

Аннотация: в данной статье речь идёт о художественном тексте и его синтаксических свойствах, о паратексте и его элементах. Дана информация о том, что язык является духовным богатством языка, а также о том, что он является культурой, традицией, образом жизни и историей нации. Излагаются мнения учёных-лингвистов о роли паратекстовых элементов в художественном тексте, и их значении. Элементы паратекста анализируются на примерах из произведения «Шайтанат» писателя Тахира Малика.

Ключевые слова: *художественный текст, паратекст, градация, антитеза, эпиграф, лингвистический анализ, интертекстуальность.*

Annotation: this article is about a literary text and its syntactic properties, about paratext and its elements. Information is given that language is the spiritual wealth of the language, as well as that it is the culture, tradition, way of life and history of the nation. The opinions of linguistic scientists about the role of paratextual elements in a literary text and their meaning are presented. Elements of paratext are analyzed using examples from the work “Shaitanat” by writer Tahir Malik.

Keywords: *litarary text, paratext, gradation, antithesis, epigraph, linguistic analysis, intertextuality.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, til tizimini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish turli xalqlar tillarining milliy-madaniy xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Til milliy-lingvomadaniy jamiyat taraqqiyotini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgu sifatida hamisha olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘tgan asrda boshlangan milliy o‘zlikni anglash va uni saqlab qolishga intilish harakatlari zamirida tilga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi, aniqrog‘i, til tadqiqiga oid izlanishlar yangi rakursga ko‘tarildi. Til o‘zida jamiyatdagi voqelikni aks ettirishi bilan bir qatorda, bevosita uning ta’sirida o‘zgarishlarga ham uchrab boradi. Ma’lum millatga xos xarakterni, uning mental qiyofasini aks ettirish barobarida u ba’zi manbalar bilan boyib borsa, ba’zi yo‘qotishlarga ham yo‘liqadi. Intertekstuallik va pretsedent birliklar nazariyasi ham ana shunday qarashlar zamirida shakllandi. Tilshunoslarning pretsedent birliklarga, xususan, pretsedent nomlarga katta qiziqish bilan qarashlari turli til vakillarining muloqoti natijasida sodir bo‘luvchi lingvomadaniy jarayonlar bilan izohlanadi. Biz izoh berib o‘tmoqchi bo‘lgan birliklarimizdan biri – paramatndir. Paramatn elementlar muallif, o‘quvchi, ba’zan esa nashriyot o‘rtasida bog‘lanishni yaratuvchi integral bir qismdir. Paramatn va uning badiiy matndagi elementlari haqida jahon tilshunosligida ko‘plab qarashlar mavjud. Jumladan, Kurilovich (1962), Teliya (1986), Xaleyeva (1989), Kubryakova (2010), Ter-Minasova (2000), Karaulov (2010) va boshqalar. [3:9] Paramatn o‘quvchiga kontentning qiymati haqida ma’lumotlar

bera oladi va bevosita asar bilan tanishib chiqishga undaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra paramatnlar matndan oldingi va matndan tashqari kabi qismlarga bo‘linadi. [3:11]. Kirish, sarlavha, epigraf va boshqalar matndan oldingi jarayon bo‘lsa, xulosa, yordamchi qismlar, foydalanilgan adabiyotlar esa matndan keyingi elementlarga kiradi. Biroq bu bo‘linishni barcha olimlar ham tasdiqlamaydi, chunki aksariyat hollarda muallifning xohishiga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy qism. Rus tadqiqotchilaridan biri Pokalyuxina Mariya “Ingliz tili ommaviy axborot va ilmiy tadqiqotlarida paramatn elementlarining lingvopragmatik aspekti” nomli avtoreferatida paramatnning quyidagi turlari haqida aytib o‘tgan:

a) gradatsiya;
b) antiteza;
c) epigraf;
d) bibliografiya [3:35].

Dastavval, gradatsiya haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Gradatsiya – lotincha so‘z bo‘lib, “zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish” degan ma’nolarni bildiradi. Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon hisoblanadi [2:31]. Buni yanada yorqinroq tushunish uchun Tohir Malikning “Shaytanat” asariga yuzlanamiz:

– Nomusni jondan aziz bilgan ayol xiyonatga duch kelsa nima bo‘larkin? [4:149]

Ushbu misolda adib nomusni shu darajada yuqoriga ko‘taradiki, hatto jondan-da azizligini ta’kidlaydi.

– Ming yillar muqaddam o‘tgan Yevripid degan shoir: “Nomussizlik gar ilashsa nikoh ipiga, ayol qalbi shu qadarli qonsiragayki, topolmaysiz yer yuzida bunaqasini”, deb aytgan edi. [4:45]

Antiteza – mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo‘yish, zidlash hodisasiga aytiladi.

— Shoir bo‘lib tug‘ilmasaydim, Ko‘rmas edim bunchalar xo‘rlik... [9-bet]

Bilamizki, voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo‘shimchalar, zidlovchi bog‘lovchilar, so‘z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko‘zlagan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi [1:82].

— “O‘ynamasa kim o‘zganing nayiga, Shum niyat-la tushadilar payiga!” [4:2]

Yuqoridagi misolda nay va pay, bir-biriga aloqasi bo‘lmagan ikki tushuncha zidlantirilyapti. Nega? Nima uchun yozuvchi bu ikki tushunchani qarama-qarshi qo‘yyapti? Avvalo, nay va pay so‘zlari tovushlar jihatdan go‘yo bir-biriga yaqinday tuyuladi. Birinchisi cholg‘u asbobi bo‘lsa, ikkinchi izlash ma’nosini beradi. Ya’ni, yozuvchi bu yerda razil insonlar doim yomonlikni o‘ylashi haqidagi fikrlarni aytmoqchi bo‘lsa, ikkinchi tomondan har kim o‘z qalbiga quloq tutishi kerakligini ham bildirgan.

— ...Men sizni o‘ylasam Charog‘on bo‘ladi olamim. Men sizni o‘ylasam Qora qon bo‘ladi olamim... [4:44]. Bunda ham xuddi shunday: charog‘on va qora qon so‘zlari o‘zaro antitezani yuzaga keltiryapti.

Biz “Shaytanat” qissasini badiiy matnining eng yuqori namunasi, deb ta’kidlashga asoslarimiz yetarli. Chunki mukammal badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida uning tilidagi leksik birliklarni leksikologiya qonun-qoidalariga monand ravishda ma’nodosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, tarixiy va arxaik so‘zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar, chet va vulgar so‘zlar ajratib olinadi va asarda qanday maqsadga yo‘naltirilganligi izohlanadi.

Xulosa. Biz “Shaytanat” qissasida qo‘llanilgan leksik birliklarning tahliliga to‘xtalar ekanmiz, ularning badiiy asar matnida lisoniy, kommunikativ hamda estetik vazifalarni bajarishini alohida ta’kidlaymiz. Adib tomonidan qo‘llangan lug‘aviy birliklar qahramonlar dunyoqarashini aks ettirish, ularning nutqini individuallashtirish hamda illustrativ funksiya bajarishini ham kuzatishimiz mumkin. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida har bir elementga alohida e’tibor qilinish lozim. Chunki badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbonova M, Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent, 2014.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent, 2008.
3. Покалюхина Мария Вячеславовна Автореф: Паратекстовые элементы в англоязычной научно популярной литературе: лингвопрагматический аспекта. Самара. 2014.
4. Tohir Malik “Shaytanat”. – Toshkent, 2000.

Muxayyo MAMAJONOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Roman-german filologiyasi fakulteti,
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
mamajonovamuxayyo7@gmail.com

O‘ZBEK BADIIY ASARLARINING FRANSUZ TILIGA TARJIMALARIDA MUOMALA MADANIYATI MILLIY XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI
(A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek badiiy asarlarining fransuz tiliga tarjimalarida o‘zbek muomala madaniyati milliy xususiyatlarining ifodalanishi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning fransuz tiliga tarjimasi misolida tadqiq qilinadi. Shuningdek, mazkur badiiy asarni fransuz tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimon tomonidan ishlatilgan usullar haqida va tarjimashunoslikdagi ba’zi muammolar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek badiiy asarlari, badiiy tarjima, muomala madaniyati, millat, mentalitet, o‘ziga xoslik, usul, vosita, “O‘tkan kunlar”.*

Аннотация: в данной статье рассматривается выражение национальных особенностей узбекской культуры обращения в переводах узбекских художественных произведений на французский язык на примере Романа Абдуллы Кадыри “Минувшие дни” и его перевода на французский язык. Также речь пойдет о методах, применяемых переводчиком в процессе перевода данного художественного произведения на французский язык, и о некоторых проблемах переводоведения.

Ключевые слова: *произведения узбекского искусства, художественный перевод, культура обращения, нация менталитет, самобытность, метод, средство, “Минувшие дни”.*

Annotation: this article explores the expression of national characteristics of Uzbek treatment culture in translations of Uzbek fiction into French using the example of Abdullah Qadiri’s novel “Bygone days” and its translation into French. It also talks about the methods used by the translator in the process of translating this work of art into French, and about some problems in translation.

Keywords: *uzbek fiction, artistic translation, culture of treatment, mentality of the nation, self-ownership, method, medium, “Bygone days”.*

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti azaldan o‘zining boy merosi, badiiy asarlari bilan jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shib kelgan. Bugungi kunga kelib, jahon adabiyoti na’munalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida ma’lum yutuqlarga erishib kelinmoqda, biroq o‘zbek badiiy asarlarini bevosita jahon tillariga tarjima qilish va o‘zbek badiiy adabiyotining imkoniyatlarini jahonga namoyon qilish yetarli darajada emasligi, ayniqsa fransuz tiliga tarjima qilish juda sust ekanligini ta’kidlash joiz.

Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot na’munalaridagi kommunikativ ta’sirning yorqin ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan badiiy-estetik zavqni berish sanaladi. [6. 6. 2011]

Badiiy matnlar janriy-shakliy jihatdan nasriy, nazmiy, dramatik va hokazo tiplarga bo‘linadi. Matn tiplari tarjima usul va vositalarini erkin tanlashga izn bermaydi. Har bir adabiy tur va janrning o‘z qonuniyatlari kabi shakllari ham tarjimada aynan saqlanishi lozim. [6. 8. 2011]

Tarjimon, eng avvalo, o‘z ona tilisini, shuningdek, badiiy asardagi har bir elementni, har bir ishlatilgan so‘z mag‘zini yaxshi anglagan bo‘lishi, so‘zda ifodalanayotgan xalq madaniyatini chuqur anglagan bo‘lishi zarur. Ayniqsa tarjima jarayonida so‘z tanlash va qo‘llash juda muhimdir. Bir millat madaniyatigagina xos bo‘lgan tushuncha nomlarini boshqa tilda aks ettirish bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Mazkur holat o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilingan asarlar misolida ham namoyon bo‘ladi, ma’lum millatga xos bo‘lgan, boshqa millat xalqlarida uchratish mumkin bo‘lmagan ba’zi hodisa, predmet nomlarini to‘laqonli aks ettirish imkonsizligicha qoladi. Bu fikrimiz isboti sifatida A.V. Fedorovning fikrlarini ham keltirishimiz mumkin: “Bunda gap voqelikning o‘zini tarjimasi haqida emas, balki aynan voqelikning nomlarini tarjimasi haqida borishi kerakligini yana bir bor ortiqcha ta’kidlash lozim, chunki voqelik – ekstralingvistik tushuncha va u tabiatdagi har qanday narsa bir tildan boshqasiga o‘tmaganligi kabi u ham tarjima qilina olmaydi”. [2.1983,51]

Shu o‘rinda aytish joizki, har bir til va til egalariga mansub nozik jihatlar, xususan, mentalitet, dunyoqarash, qadriyat va e’tiqodlari mavjudki, buni tarjima jarayonida to‘liq ifodalab bo‘lmaydi, biroq eng munosib va muvofiq so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz talqin qilmoqchi bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida ham yuqorida ta’kidlangan bir qator o‘zbek millatigagina xos jihatlar tarjimon tomonidan imkon qadar ochib berishga urinishlari sezilib turadi. Ammo muomala madaniyatini

mazkur tarjima asarda batamom ifoda etilgan deyish qiyin. Ma'lumki, bu asar muomala madaniyatidan tashqari o'zbek millatining o'zligini, e'tiqod va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan asardir.

Muomala – insonlar o'rtasidagi aloqalar paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ularning hayot faoliyatidagi ehtiyojning murakkab jarayoni bo'lib, o'zga kishilar bilan ma'lumot almashish, ularni tushunish va idrok etishning hamkorlikdagi strategiyasidir. [3. 14. 2009]

Agar insonda muomala madaniyati shakllanmagan yoki shakllangan bo'lsada, zaif va mukammal bo'lmasa, bu holda odamlardan mehr-oqibat ko'tarilib, haqiqiy insoniy munosabatlarga putur yetadi.

J. Tulenovning ta'kidlashicha, "Anashu ikki asos (inson jismi va ruhi) inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqada qolib ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surib tashlanadi. Ruhiy, ma'naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatdir". [7. 215. 200]

Mana shunday yuqori darajadagi muomala madaniyati aks etgan na'munalarni Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan parchalar va ularni fransuz tiliga tarjima qilinganda qanday ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

– *Bizni kechirasiz, bek aka, - deb Rahmat uzr aytdi, - vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.*

Otabek ularga yuqoridan joy ko'rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda:

– *Tinchsizlamadingizlar, bil'aks quvontirdingizlar, - dedi. [5. 5. 2019]*

– *Excusez-nous, bek de vous avoir dérangé, - dit Rakhmat. – Nous sommes venus, semble-t-il, mal propos.*

Atabek protesta avec aimabilité, en invitant ses hôtes à prendre ses places d'honneur:

– *Tout au contraire, vous ne m'avez pas dérangé, mais, réjoui. [4. 1990]*

Otabek Hasanalidan so'radi:

Tuzukmisiz, ota ?

– *Xudoyga shukur, - dedi Hasanali, boyagidan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.*

– *Ba'zi yumushlar buyursam…*

– *Buyuringiz o'glim.*

– *Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.*

– *Xo'b, begim. [5. 5. 2019]*

Atabek s'adressa au vieil homme:

– *Comment allez-vous, très honoré ?*

– *Dieu merci, on se sent mieux. Je me suis probablement simplement asphyxié.*

– *Pouvez-vous me rendre un service ?*

– *Ordonnez, mon maître !*

– *Merci, père. Faites-nous du thé. [4.1990]*

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashqandan keyin so'radi:

– *Bu kishi kimingiz bo'ladir, bek aka ?*

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:

–Qulimiz.

–Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

– *Qulingiz ?*

– *Shundog'. [5. 6. 2019]*

Le vieil homme sortit et Rakhmat, après s'être respectueusement enquis de nouveau sur la santé d'Atabek, lui demanda :

– *Qui est cet homme ?*

Atabek jeta un coup d'œil vers la porte et, seulement après s'être assuré que le vieil homme ne pourrait pas l'entendre, il répondit :

– *C'est Hassanali, notre esclave.*

Khamid montra un étonnement extrême :

–Votre esclave *?*

–Oui. [4.1990]

– *Uylanishdagi ixtiyorimiz, - dedi Rahmat, - ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladirg'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlarig'a yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguchi yigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men: ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim…ammo xotinim ota-onamg'a muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol, men ham xotinimga muvofiq emasdirman…* ***So'zingiz to'g'ri, bek aka.***

– *Le fait est que le mariage chez nous dépend de la volonté des parents, - dit Rakhmat. – Et peu leur importe si la fiancée plaît ou non à leur fils, essentiel est qu'elle plaise à eux. On ne demande l'avis ni du jeune homme, ni de la jeune fille, ils n'ont pas le droit de dire même un mot ! On ne serait admettre raisonnable une telle coutume. Prenez mon cas… J'ai épousé une jeune fille choisie par les parents. Et bien que ma femme leur plaise, elle ne me convient pas. Il se peut que je ne lui convienne pas moi non plus…* ***Vous avez bien dit, bek !*** [4.1990]

Yuqorida bir qator misollar yordamida ko'rib o'tilganidek, badiiy asarni fransuz tiliga o'girishda tarjimon transliteratsiya, izohlash va tasvirlash usullaridan foydalangan holda asar mazmunini ochib bergan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima murakkab jarayonligini hisobga olib o'zbek tarjimachiligiga yanada ko'proq e'tibor qaratish, xususan, fransuz tiliga o'zbek badiiy asarlarini tarjima qilishni kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davronova Z.B. “Fransuz tiliga tarjima qilingan o‘zbek asarlarida milliy-madaniy voqeliklarning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli maqola Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika jurnali 1-son, 2024.
2. Федоров А.В. “Основы общей теории перевода” Москва, 1983.
3. Husanov B., G‘ulomov V. “Muomala madaniyati” Toshkent-2009.
4. “Les jours passés” “L’Ouzbékistan soviétique” Edition 7, 1990.
5. Qodiriy A. “O‘tkan kunlar” – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.
6. Sirojiddinov Sh., Odilova G., “Badiiy tarjima asoslari” Toshkent:., 2011.
7. Tulenov J. “Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot” T:Mehnat, 2000.

Ma’mura SIDIQOVA,
Toshkent shahar Oriental Universiteti,
Sharq tillari kafedrasi o‘qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA TERMIN BILAN BOG‘LIQ ILMIY-NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya: ushbu maqola tilshunoslikda terminologiya bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, hozirgi kunda bu sohaning rivojlanishi, termin va atama so‘zlarining farqlari va terminologiyaning rivojlanish bosqichlari haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, termin, atama, tilshunoslik, leksika.*

Аннотатсия: в данной статье изложены научно-теоретические взгляды, связанные с терминологией в лингвистике, развитием этой области на сегодняшний день, различиями между терминами и терминами, а также этапами развития терминологии.

Ключевые слова: *терминология, термин, термин, лингвистика, лексика.*

Annotation: this article includes scientific and the oretical views related to terminology in linguistics, the development of this field to date, the differences between terms and terms, and the stages of the development of terminology.

Keywords: *terminology, term, term, linguistics, lexicon.*

Hozirgi taraqqiy etgan adabiy tillarda terminologiya masalasi muhim rol o‘ynaydi. Terminologiya odatda “ilmiy til” deb ataluvchi muhim qatlamni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun tilshunoslikda terminning til tizimidagi o‘rni, uning umumiy til xususiyatlari, terminning ilm-fan taraqqiyotiga ta’siri, texnika ishlab chiqarish, ta’lim, boshqaruv sistemalaridagi ahamiyati, yangi terminlarning hosil bo‘lishi kabi masalalar doim o‘rganib kelinadi.

Bu sohani sharhlashdan avval termin o‘zi nima degan savolga javob topish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu savolga ko‘plab aniq va uncha aniq bo‘lmagan javoblar berilgan. Termin so‘ziga berilgan ta’riflar ichida quyidagi ta’riflar haqiqatga yaqinroqdir.

Termin – bu kasbiy (professional) ahamiyatga ega bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasi bo‘lib, kasbiy tushunchani anglatadi, shakllantiradi va ma’lum bir obyektlar, ular orasidagi munosabatlarni, ma’lum bir soha nuqtayi nazaridan bilish jarayonida ishlatiladi .

Terminologiyaning yana bir ta’rifi – ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarga oid tushunchalarning aniq ifodasi bo‘lgan so‘z yoki so‘z birikmasiga termin deyiladi. Termin deganda nomlanayotgan kontseptsiyani (qarashlar, fikrlar yo‘nalishi tizimi; fikr yuritish, dunyoni tushunish, anglash usuli) belgilaydigan va konseptual sohani qat’iy cheklaydigan, umumiy lug‘atning omonim so‘zining ma’nolaridan ajratilishini ta’minlaydigan, aniq ta’rif berilgan har qanday so‘z bo‘lishi mumkin. Sun’iy ravishda yaratilgan so‘z ham termin bo‘lishi mumkin.

Terminning ta’rifi umumiy tilda bir xil nomdagi so‘zga xos bo‘lgan noaniqlikni yo‘q qilish bilan birga, nomlangan obyekt haqida umumiy tasavvur beradi (u aniq va moddiy yoki mavhum aqliy konstruksiya bo‘lishi mumkin).

Determinologizatsiya (barcha hodisalarning o‘zaro obyektiv qonuniy aloqadorligi va sababiy bog‘lanishi to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot) bilan termin o‘zining qat’iy konseptualligini, tizimliligini va noaniqligini yo‘qotadi; undagi tushuncha soddalashtiriladi; oldingi termin kundalik tilda tushunishga moslashadi. Terminologik ma’noga ega bo‘lgan bunday so‘zlar umumiy lug‘atning boshqa so‘zlari kabi ta’rifni emas, balki izohlashni talab qiladi.

Binobarin, nom – bu leksik birlik bo‘lib, uning yordamida biz ko‘rinadigan obyektni nomlaymiz va obyektni tasniflash tizimidagi aniq o‘rnini tushunmasdan va boshqa obyektlar bilan bog‘liq holda idrok qilamiz. Nomlar leksika turkumiga kiradi, shuning uchun ularning tushunchalar bilan aloqasi zaiflashadi. Bundan farqli o‘laroq, terminlar kognitiv jarayonni aks ettiruvchi va tizimda ma’lum o‘rin egallagan holda

logotiplar (belgi) toifasiga kiradi.

Har bir fan, soha yoki kasb o‘z terminlariga, shu terminlar jamidan iborat leksikaga ega bo‘ladi. Bunday maxsus leksika fanda terminologiya deb ham yuritiladi. Ular huquq terminologiyasi, lingvistik terminologiya va boshqalar.

Shu o‘rinda termin va atama so‘zlariga izoh berish bilan, ularning farqlari xususida ham to‘xtalib o‘tish zarurdir. Ma’lumki, “termin” so‘zi rus leksikasiga oid so‘z bo‘lib, uning muqobili sifatida o‘zbek leksikasiga oid bo‘lgan “atama” so‘zini olish yoki olmaslik xususida tilshunos olimlar o‘rtasida ko‘plab bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan va termin so‘zini atama so‘ziga almashtirishni ma’qullab bo‘lmaydi, degan xulosaga kelingan. Chunki, birinchidan, atama umuman “narsa-hodisa, belgi va harakat kabilarni atovchi so‘z” degan ma’noga ega. Masalan: olma, katta, kelmoq so‘zlari narsa, belgi va harakatning atovchisi (atamasi) hisoblanadi. Termin so‘ziga nisbatan bunday deya olmaymiz. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, termin bu biror sohaga oid tushunchaning aniq va barqaror ifodasidir. Atama so‘zi termin haqida aytilgan ta’rif va xususiyatga ega emas. Xuddi shuning uchun ham, “termin” ma’nosida ilgari qo‘llangan istiloh va atama so‘zlari, vaqti kelib, terminga qo‘yiladigan talablarga to‘la javob bera oladigan shu so‘z (termin so‘zi) bilan almashtirilgan edi. Bundan tashqari, dunyoning deyarli barcha tillarida, jumladan turkiy tillarda terminga xos yuqorida keltirilgan ma’noda shu so‘z (termin so‘zi) qo‘llanadi, ya’ni u haqiqiy ma’noda baynalminal so‘z hisoblanadi. Atama so‘zi umuman nom ma’nosini bildiradi. Yuqoridagi dalillarga tayanib, bu ilmiy ishni yozishda ham termin so‘zidan foydalanamiz.

Terminlarning hosil bo‘lishi nazariy bilimlarning o‘sishi, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq deb o‘ylash xatodir. O‘tmishda ham, hozirgi vaqtda ham har qanday soha o‘z terminologiyasiga ega bo‘lgan. Ko‘pgina odatiy nutqda ishlatiladigan so‘zlar kasbiy nutqda termin bo‘lishi mumkin. Terminlar muayyan bir sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi so‘zlar bo‘lsada, lekin bu so‘zlarning qo‘llanilishi shu soha kishilari doirasi bilan chegaralangan bo‘lishi shart emas. Bunda ikki xil holatni kuzatish mumkin:

1. Ayrim terminlarning ma’nosi shu sohaga aloqasi bo‘lmagan kishilar uchun ham tushunarli bo‘ladi va ko‘pchiilik tomonidan foydalanilaveradi. Masalan, botanikaga oid terminlar: g‘o‘za, bug‘doy, o‘rik; san’atshunoslikka oid terminlar: sahna, afisha, aktyor; nikoh masalasiga oid terminlar: bolig‘, bolig‘a, nikoh; meditsinaga oid: ukol, narkoz; savdo-sotiqqa oid terminlar: ko‘tara, badal, taklif, aksept va boshqalar.

2. Ayrim terminlar faqat shu sohaga oid kishilar uchungina tushunarli bo‘ladi va shu soha kishilari nutqidagina qo‘llaniladi. Masalan, tilshunoslikka oid: fonema, morfema, o‘zak, urg‘u; kimyoga oid: oksid, indikator; islom huquqi nikoh masalasiga oid: kafoat, ishg‘or nikoh, mut’a nikoh; savdoga oid: kredit, chakana, depozit.

Shuni aytish kerakki, umumiste’moldagi so‘zlar ma’lum bir sohaga oid tushunchani ifodalaydigan so‘z sifatida qo‘llanilib, terminga aylanishi mumkin. Bunday hollarda u dastlabki ma’nosi bilan umumiste’moldagi leksikaga, maxsus (terminologik) ma’nosi bilan esa terminologik leksikaga oid bo‘ladi. Masalan, kundalik nutqda ishlatiladigan “tom”, “devor”, “shift” kabi oddiy so‘zlar quruvchilar va arxitektorlar nutqida termin hisoblanadi. Bir soha odamlari orasida ishlatiladigan terminlar o‘zaro faoliyat jarayonida munosabat-aloqani ta’minlab beradi va o‘sha ishning samaradorligiga ta’sir etadi. Shunday qilib, lug‘at tarkibidagi ma’lum bir so‘z umumiste’moldagi so‘z ham, termin ham bo‘lishi mumkin ekan.

Terminologiya masalasining shu kunga qadar murakkabligi va hal qilinmagan tomonlari mavjudligiga qaramay shuni ta’kidlash mumkinki, termin bu kasbiy tafakkurning quroli va natijasidir. Shuning uchun ham bu soha mutaxassislari termin so‘z yoki so‘z birikmasi bilan ifodalangan bo‘lishidan qat’iy nazar, u ochiq oydin ma’noga ega bo‘lishi va yagona tushunchani ifodalashi kerakligini ta’kidlaydilar.

Termin bu til birligini belgilab va nomlab beruvchi leksik birlikdir. Terminlarning yasalishi umumiy so‘z yasalish qoidalariga bo‘ysunadi. Terminlarning morfologik xususiyati ot so‘z turkumlari kabi hamma tillar uchun yagona bo‘lgan grammatik qurilma qoidalariga bo‘ysunadi. Terminlarning sintaktik holati ham so‘zlarning nutqdagi oddiy holatidan farq qilmaydi. Demak, terminologiya til ichidagi til emas, balki tilning alohida leksiko-frazeologik qatlamidir va u insonlarning kasbiy ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. Bu degani terminlarda o‘ziga xos xususiyatlar, odatiy leksikadan farqlanuvchi tomonlar yo‘q degani emas. Oddiy so‘zlarda bo‘ladigan ma’no nozikligi, emotsionallik va hayajonni ifodalash kabilar terminlarda uchramaydi. Terminning ma’nosi umumiy ishlatiladigan so‘zlar ma’nosiga qaraganda, o‘ta aniq bo‘ladi, unda qo‘shimcha ma’nolar bo‘lmaydi. Ma’lum bir sohaga oid terminlar o‘zaro so‘z yasovchilik va tushuncha munosabatlari jihatidan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, “grammatika”, “morfologiya”, “sintaksis” kabi tilshunoslik terminlari o‘zaro so‘z yasovchilik jihatidan bir-biriga tobe, bog‘liq bo‘lmasada, ma’no, tushuncha jihatidan o‘zaro bog‘liqdir. Lekin buning aksi, ya’ni so‘z yasalish jihatidan bog‘lanish bo‘lib, tushuncha bog‘liqligi yo‘q bo‘lishi mumkin emas. “Morfema”, “morfologiya”, “morf” kabi terminlar so‘z yasalishi nuqtayi nazaridan bog‘liq bo‘lsalarda, ularda tushuncha bog‘liqligi ham mavjud.

Terminlar qo‘llanilishi sohasiga ko‘ra ikki katta guruhga bo‘linadi:

1. Ilmiy terminlar – ilm-fanga oid terminlardir.

a) Tilshunoslikka oid: fonema, fonetika, leksika

semantika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis va hokazo.

b) Adabiyotshunoslikka oid: sifatlash, o‘xshatish, mubolag‘a, tajnis, talmeh, roman, hikoya.

v) Tarixga oid: kapitalizm, feodalizm, kommunizm.

Shu va shu kabi boshqa ko‘plab ilm-fan sohalariga oid terminlar ilmiy terminlar deb ataladi.

2. Professional terminlar. Ma’lum kasb-hunarga va mutaxassislikka oid monosemantik so‘zlar professional terminlar bo‘lib, ulardan ba’zilari bilan quyida tanishishimiz mumkin:

a) kulolchilik kasbiga oid: angob, taqsir (sopol idishlarning yuziga beriladigan bo‘yoq), gulbo‘ta (tog‘dan chiqadigan ko‘kimtir oq tusli loy);

b) poyabzaldo‘zlik kasbiga oid: bigiz, qolip, beshlik, dastak, giocho‘p;

v) tikuvchilikka oid: igna, mato, bichim, andoza, chok, ip.

Endi fiqhiy terminlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, u tarixan rivojlanishning ikki bosqichini o‘z ichiga oladi.

1. Klassik davr;
2. Zamonaviy davr .

O‘rta asrlarda diniy ilm hisoblangan islom huquqi, arab tilshunosligi, tarix, adabiyot, falsafa va boshqa fanlarga oid manbalar an’anaviy arab tilida yozilgan. Ularda o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan terminlarning ko‘pligi shu davrda arab tilshunosligida terminologiya sohasi ancha taraqqiy etganligini ko‘rsatadi.

Terminlar – bu faqat aniq belgilangan ma’nolar bilan aloqa o‘rnatadigan ilmiy tilning idealidir va muayyan tushunchalarni xuddi shu so‘zlar – atamalar bilan nomlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кодуков М. Общее языкознание. –М., 1974. –С.105.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. 280-b.
3. Tursunova U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston, 1992.
4. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: Fan, 1996. 190-b.
5. Dadaboyev Hamidulla. O‘zbek terminologiyasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek Tili va Adabiyoti Universiteti, 2019
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tizim.

Oybek BOYATOV,
University of Business and Science
til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

MAJZUB NAMANGONIYNING TAKRIR VA TALMEH SAN’ATLARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Annotatsiya: ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan, tasavvufiy shoir Majzub Namangoniy ijodida uchraydigan takrir va talmeh san’atlari haqida. Shoir ijodida badiiy san’atlarni guruhlarga ajratish, ularni qo‘llashda badiiylikning ustunliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *muxammas, g‘azal, takrir, talmeh, musaddas, she’r, janr, band, bayt.*

Annotation: this article discusses the art of takrir and talmeh, which can be found in the works of Majzub Namangani, a mystical poet who created in the literary environment of Kokand. The poet's work explores the division of artistic arts into groups and the advantages of artistry in their application.

Keywords: *mukhammas, ghazal, takrir, talmeh, musaddas, poem, genre, stanza, verse.*

Аннотация: в данной статье речь идет об искусстве такрир и тальмех, встречающемся в творчестве поэта-мистика Маджзуба Намангани, творившем в литературной среде Коканда; говорится о трудах поэта, направленных на классификацию видов художественного искусства, о приоритете художественности в их использовании.

Ключевые слова: *мухаммас, газель, такрир, тальмех, мусадды, поэма, жанр, строфа, стих.*

Lirik janrlarning jozibadorligini oshirish, ma’nolarini anglab yetish bevosita badiiy san’atlar bilan bog‘liq. Majzub Namangoniy – bade’lik ilmini chuqur egallagan, she’riyatda o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llay olgan ijodkor. Shoir she’riyatning barcha janrida: xoh g‘azal, xoh murabba’, xoh muxammas, xoh musaddas yoki masnaviy kabilarda ijodkorga xos fikrni go‘zal badiiy san’atlar bilan ifodalaydi. Bu orqali ijodkor o‘zida ilmi bade’ nechog‘liq baland ekanini ko‘rsatdi. Mumtoz lirik janr an’analarni munosib davom ettirish barobarida unga yangicha olam bag‘ishladi. Shoir ijodida badiiy vositalaridan unumli foydalanilgani ularni o‘zaro bog‘liq holda mufassal o‘rganishni taqozo etadi. Chunki “...g‘azallarda obraz yaratish uchun shoir foydalangan badiiy tasvir vositalarining barchasini e’tiborga olmay turib, ularning murakkab tarzda birikishidan hosil bo‘lgan fakturasini (o‘ziga xos xususiyatlarini) vujudga

keltirgan ma’nolar aloqadorligi va ularning tovlanish rishtalarining barchasini ajratib olish mumkin emas” .

Adabiyotshunoslik tarixida she’riy san’atlar haqida fikr yuritilganda turli baxs-munozaralar mavjud. Bu san’atlarning miqdori haqida olimlar turlicha fikrlar bildirib o‘tgan. Xususan, A.Xojiyevning “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” asarida 48 ta she’riy san’at haqida fikr bildiradi. V.Rahmonovning “She’r san’atlari” asarida 76 ta san’at haqida to‘xtalganligini, Y.Is’hoqovning “So‘z san’ati so‘zligi” kitobida esa 54 ta san’at turini izohlaganligini kuzatishimiz mumkin. She’riy san’atlar miqdori turli olimlarda turlicha raqamlar bilan izohlangan. Biz esa bu san’atlarning miqdori haqida A. Xojiyevga ergashishimiz mumkin. Badiiy san’atlarni guruhlarga taqsimlab o‘rganishda ham turli olimlarda turlicha miqdorlarni aniqladik. Badiiylik ilmini A.Xusayniy uch katta guruhga bo‘lganligini “… Ajam shuarosi tashbih, istiora, kinoya yanglig‘ eng mashhur va ko‘p uchrayturg‘an zotiy go‘zalliklarni oriziy go‘zalliklar bila qo‘shupturlar va alarning majmu’in sanoiy derlar. Qisqasi, nutq go‘zalliklari uch qism bila cheklanur ul jihatdinkim, har go‘zallik yo faqat lafz go‘zalligidur, yo faqat ma’no go‘zalligidur yohud lafzu ma’no yig‘indisining go‘zalligidur ” va barcha san’atlar shu uch guruhdan ajrab chiqqan deyish mumkin.

Badiiylik ilmini manbalar asosida o‘rgangan olim Y. Is’hoqov she’riy san’atlarni matndagi vazifasi bilan aloqada kelishiga ko‘ra o‘n guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi. Yana bir adabiyotshunos Z. Mamajonov tomonidan she’riy san’atlar tasnif etilganda, olim badiiylik ilmini o‘n ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi. Professor D.Yusupova esa “Aruz vazni va mumtoz poetika” qo‘llanmasida ham uch guruhga bo‘lib o‘rgangan. San’atlarning barchasi shu uch guruhdan ajrab chiqqan.

Majzub Namangoniy lirikasida bu uch guruhga kiruvchi badiiy san’atlarni kuzatish mumkin. Tadqiqotchi Y. Muhammadiyeva ham “Feruzning badiiy mahorati” dissertatsiyasida Feruz ijodida san’atlarning qo‘llanishiga ko‘ra shartli ravishda ikkiga bo‘lib o‘rgangan. Biz ham bu tasnifga qo‘shilgan holda, Majzub Namangoniy she’rlarini quyidagicha tasnifladik. Ijodkor ijodida ayrim she’rlari boshdan-oxirigacha bir she’riy san’at asosiga qurilganligini yoki bir necha she’riy san’atlardan foydalanganligini kuzatish mumkin. Shunga ko‘ra, ijodkor lirikasida she’riy san’atlarning qo‘llanilishi shartli ravishda ikki guruhga ajratgan holda o‘rganildi.

She’rni boshdan-oxir lafziy san’atlar asosiga qurish. Majzub devonida boshdan-oxir bir she’riy san’atga asoslangan she’rlar bir nechta ekani shoirning ushbu she’riy usuldan unumli va mahorat bilan foydalanganini ko‘rsatadi.

Jumladan, ijodkorning:

Qadam yo‘lig‘a qo‘yg‘on talabgorlar,
Muhabbat o‘tidin dilafgorlar,
Qachon g‘ofil o‘ldi ul bedorlar,
Ki hushyorlardurki, hushyorlar,
Xabardorlardur, xabardorlar.

bayt bilan boshlanuvchi muxammasi buning yorqin isbotidir. Ushbu muxammas boshdan-oxir takrir san’ati asosiga qurilgan. Atoulloh Husayniy ta’biricha, bu san’atning “...ma’noning takriri, ya’ni ani muqarraru muhaqqaq qilmoq yangliq nukta uchun lafzni takrorlamoq” ekani e’tiborga olinsa, Majzub ham takrirdan ayni maqsadda foydalangani ayon bo‘ladi. Baytda yaratganning roziligi uchun qadam qo‘ygan talabgorlar, tasavvufiy ishq o‘tidin kuygan dilafgor (dili vayrona)lar, uyg‘onib o‘zni taniganlar qachon g‘ofil bo‘ldi? Ushbu bandda takrir san’ati hushyorlar va xabardorlar so‘zining takroridan vujudga kelgan. Takrir san’atidan tashqari yana g‘ofil va bedor so‘zlari orqali tazod san’atini, qachon so‘rog‘ini berish orqali tajohili orif san’atini ham qo‘llagan. Mazkur muxammasning keyingi bandida shoir mana bunday yozadi:

Guruhiy qilur mug‘bacha xizmatin,
Tutor pos piri mug‘on xizmatin,
Ki izlar xudojo‘y kishi suhbatin,
Xaridorlardur, xaridorlar,
Vafodorlardur, vafodorlar.

Ushbu bandda “xaridor”, “vafodor” so‘zlarining ikki martadan takrorlanishi lirik qahramon ichki kechinmalarini, uning atrofdagilarga mazmunni ta’sirchan ifodalashiga xizmat qilgan. Aslida, ushbu bandda boshqa badiiy san’atlar, masalan, tanosub (mug‘baha, xudojo‘y), ishtiqoq (mug‘bacha – mug‘on) kabi san’atlar imkoniyatidan ham ustalik bilan foydalanilgan.

Takrirning mazmunni kuchaytirish, ta’kidlash maqsadlariga, badiiy so‘zning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Majzubning ushbu san’atdan samarali foydalanish sabablari oydinlashadi. Mana bu baytda oshiq ruhiyati va qismati butun murakkabligi bilan suratlangan:

Soqiy manam, sog‘ar manam, oriy manam manam manam,
Hojiy manam, muxrim manam, oriy manam manam manam.

Ushbu baytda “manam” so‘zini takrorlash orqali ifoda etilayotgan fikrning ta’sirini oshirganligi kuzatiladi. Soqiy – may quyuvchi, sog‘ar – may quyilgan piyola, Hojiy – haj qiluvchi, muxrim – ehrom kiygan ham menman. Ya’ni Soqiy tasavvuf adabiyotida Allohga yetishish, unga ergashish ma’nolarini bildiradi. Yuqoridagi baytda esa, Haq taologa ergashishga kirishgan va ergashish yo‘lini tutgan menman deya izohlaydi.

Takrir san’ati Qo‘qon adabiyotida Muhyi, Nodim Namangoniy, Muqimiy, Amiriy ijodida ham keng qo‘llangan. Bu san’at, birinchidan, shoir bildirmoqchi bo‘lgan fikrni ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qilsa, ikkinchidan, o‘quvchining diqqat-e’tiborini muallif

ko‘zda tutgan asosiy mazmunga qaratadi. Uchinchidan, g‘azalda o‘ziga xos ohangdorlikni ta’minlaydi. Bu hol, o‘z navbatida, Majzubning nechog‘liq mahoratli shoir bo‘lganini ko‘rsatadi.

Lirikada talmeh san’atini qo‘llash – buyuk tarixiy shaxslar, tarixiy voqea va joylar, mashhur adabiy-badiiy obrazlar ismlarini keltirish mumtoz she’riyatda o‘ziga xos an’ana tusini olgan. Talmeh san’ati haqida turli olimlar turlicha fikr bildirib o‘tgan. Jumladan, A.Hojiahmedov ta’rifiga ko‘ra, “Talmeh she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir” deya ta’riflangan bo‘lsa, “Badoyi’ us-sanoyi’”da ham ushbu san’at “kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she’r yoki mashhur maqolga ishorat etmaktin iborattur” deya ta’riflangan. Ayni paytda Atoulloh Husayniy “Izoh” va “Tibyon” sohiblari maqolg‘a ishoratni talmihqa kiritmapturlar” , V.Rahmonov esa talmehga “maqolg‘a ishorat”ni kiritmaydi: “shoir qahramon siymosini gavdalantirishda uni o‘tmishdagi mashhur adabiy, diniy yoki tarixiy qahramonlar bilan qiyoslaydi, o‘xshatadi; goho o‘sha o‘tmish qahramonlari ismi-shariflari aytilmay, ular bilan bog‘liq voqealar esga olinishi ham mumkin. Har ikki holda ham talmeh san’ati sodir bo‘ladi” (23). Majzubning buyuk salaflari bo‘lgan din ulamolarini talmeh san’ati bilan ziynatlangan baytlar alohida ta’sir kuchiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Biroq, butun g‘azalda islom dini ulamolari, sahoba va tobeinlar nomini talmeh san’ati asosiga qurilishi mumtoz she’riyatda nisbatan kam kuzatiladigan noyob hodisa. Majzub Namangoniyning devonidagi ilk masnaviy talmeh san’ati bilan ziynatlangani jihatidan she’riy an’analarning yangilanishiga misol bo‘la oladi:

Tufayli Muhammad alayhissalom,
Aning oli, as’hobig‘a ham salom.

Tufayli Abu Bakrim, yori g‘or,
Tufayli Umar adlda nomdor.

Tufayli uchunchi xalifaki Usmon
Shinovari g‘avvosi daryoi Qur’

Tufayli xalifa Aliy Shohi mardon,
Saxo ma’dani, maxzani judu ehson.

Tufayli o‘shal Zaynul – ibodi imom,
Ki maydoni irfonda uluvvi xirom.

Tufayli imomiyki Boqir erdi,
Hama ilm-u fan ichra mohir erdi.

Tufayli imomiyki Kozim oti,
Quyosh kabi ko‘ngli asar suhbati.

Ushbu masnaviy Majzubning she’riyatdagi darajasi baland ekaniga dalil bo‘la oladi. Negaki, har bir misra mazmuni nomi keltirilgan har bir shaxsning ijodda erishgan yuksak martabasiga mos va muvofiq. Jumladan, doimo har bir ish payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ga salom bilan boshlanishini ta’kidlagan holda, Majzub dinda yuksak maqomga ko‘tarilgan sahobalar: Abu Bakr, Umar, Usmon va Ali nomlarini tilga oladi. Birinchi xalifa Abu Bakr g‘orda toat va ibodatda yashaganligini, Umar esa butun islom olamida adolat bilan nom chiqarganligini bildirib o‘tadi. Musulmon olamining muqaddas kitobi Qur’on uchinchi xalifa Usmon tomonidan yaxlit bir kitob holida kelganligini shoir go‘zal o‘xshatish ya’ni daryodagi g‘avvosga mengzaydi. Saxovat va ehsonda xalifa Aliga tengi yo‘q deya ta’riflaydi.

Ushbu baytlarda nafaqat badiiy san’atlar qo‘llanishi borasida shoir mahoratini ko‘rsatadi, balki Majzub Namangoniyning ilohiy ishq borasidagi qarashlari mohiyatini ifodalagani bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Стеблева И. Семантика газелей Бабура. – Москва: Наука, 1982.
2. Ҳожиаҳмедов А. Шеър санъатлар ва мумтоз қофия – Тошкент: Шарқ, 1998.
3. Рахмонов В. Шеърий санъатлар – Тошкент, 2001.
4. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент, 2014.
5. Ҳусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
6. Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий таснифи ва тавсифи. Дисс. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори. – Тошкент, 2017.
7. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018. 176-bet.
8. Muhammadiyeva Y. Feruzning badiiy mahorati. Dissertatsiya. 83-bet.

Abdurahmon OCHILOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
erkin tadqiqotchisi

MAKTABLARDA INNOVATSION JARAYONNI TASHKIL ETISHNING FALSAFIY-METODOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya: ta'limda innovatsion jarayon – ta'lim sifatini oshirishga va ta'lim tashkiloti va butun ta'lim tizimining rivojlanish maqsadlariga erishishga olib keladigan innovatsiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zlashtirilishi, joriy etilishi va ko'lamini kengaytirishning o'zaro bog'liq bosqichlarini amalga oshirishdan iborat.

Maqolada maktablarda innovatsion jarayonni tashkil etishning falsafiy-metodologik jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *g'oya, mezon, innovatsiya, texnologiya, sinov, samaradorlik, yangilik.*

Innovatsiya pedagogika fani va amaliyotining rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi eng muhim xususiyat sifatida doimo pedagogik faoliyatga xos bo'lib kelgan. Zamonaviy ta'limda innovatsiyalar tobora keng tarqalmoqda. Hozirgi kunda aynan innovatsiyalar ta'lim jarayonidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, uning natijalarini jamiyat talablari va shaxsning individual ehtiyojlariga moslashtirish, ijtimoiy foydali va muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish muammolarini hal etishga chaqiriladi.

Zamonaviy innovatsiyalar maktab o'quvchilarining o'qishga bo'lgan qiziqishining susayishi, maktab intizomining susayishi, oilaning tarbiyaviy mas'uliyatining susayishi, maktabni mehnatdan, ishlab chiqarishni zamonaviy tashkil etish va texnologiyasidan ajratib qo'yishda, ta'lim ishlaridagi rasmiyatchilikning ko'payishi sababli paydo bo'ldi.

Mamlakatimiz yetakchi olimlaridan J.Yo'ldoshev "innovatsiya (ingliz tilidan olingan "Innovation" yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishni o'zgartirish amaliyot va nazariyaning asosiy qismi", innovatsion faoliyat esa, "yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, deb belgilaydi. Amaliyotning yangilanayotgan me'yorlarni mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishiga qaratilgan faoliyatdir", deb ta'kidlaydi [3].

Tadqiqotchi E.G'affarov "Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi yangilikdir" [8], deb ta'rif bergan. Innovatsion faoliyat bu avvalo faoliyatdir. Bu faoliyat bir paytda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy faoliyatdir. Shuningdek, bu faoliyat innovatsiyalarni yaratish yoki amalga oshirish ilmiy tadqiqotlar va ijod bilan bog'liq hamdir.

Ta'limda innovatsion jarayon – ta'lim sifatini oshirishga va ta'lim tashkiloti va butun ta'lim tizimining rivojlanish maqsadlariga erishishga olib keladigan innovatsiyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, o'zlashtirilishi, joriy etilishi va ko'lamini kengaytirishning o'zaro bog'liq bosqichlarini amalga oshirishdan iborat.

Innovatsion jarayon rivojlanishining uch bosqichini ajratib ko'rsatish muhim, ular:

• yangi g'oyaning paydo bo'lishi (qidirilishi), mezonlarga ko'ra tanlash;

• innovatsiyani ishlab chiqish va o'zlashtirish (innovatsiya mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish);

• amalga oshirish va masshtablash (sinov, tarqatish va samaradorlikni baholash).

Ta'limdagi innovatsion faoliyat – bu innovatsion jarayonning barcha bosqichlarini amalga oshirishni ta'minlashga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar tizimidir. Bu innovatsion g'oyani, yangilikni innovatsiyaga aylantirishni ta'minlaydigan, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini ta'minlaydigan faoliyatdir.

Maktablarda innovatsion jarayonni tashkil etishda har bir subyekt ma'lum turdagi innovatsion faoliyatni amalga oshiradi. Ta'lim va yo'nalish subyektlariga ko'ra maktabda innovatsion faoliyatning quyidagi turlarini ajratish kerak:

• maktab rahbari, ta'lim organlari mutaxassislarining innovatsion boshqaruv faoliyati;

• innovatsion pedagogning innovatsion pedagogik faoliyati;

• innovatsion jarayonga jalb qilingan talabalarning innovatsion ta'lim faoliyati.

Innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish uchun resurslari ilmiy-uslubiy yordam bera oladigan maktab va pedagogika oliy o'quv yurtlari o'rtasida o'zaro hamkorlik zarur. Shu munosabat bilan maktabda innovatsion jarayonni rivojlantirishning barcha bosqichlarini amalga oshirish innovatsion faoliyatning yana ikkita turi bilan birga bo'lishi kerak:

• tadqiqotchi olimning uslubiy faoliyati;

• olim-pedagogning ilmiy-pedagogik faoliyati.

Innovatsion faoliyatning zaruriy sharti pedagogik yangiliklarni tarqatish va takrorlashdir. Buning uchun ta'lim muassasasida moddiy-texnikaviy, moliyaviy, iqtisodiy, axborot sharoitlari, kadrlar resurslari, barcha ta'lim subyektlari, ta'lim munosabatlari ishtirokchilarining, ya'ni ta'lim organlari mutaxassislari, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalarining intellektual va shaxsiy sifatlaridan iborat innovatsion ta'lim muhitini yaratish zarur.

A.I.Prigojinning fikriga ko‘ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg‘un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o‘rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o‘ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

V.A.Slastenin innovatsiyani yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanishga qaratilgan maqsadga muvofiq, yo‘naltirilgan jarayoni majmui deb biladi. Muallifning fikriga ko‘ra, har qanday innovatsiya yangi vositalar yordamida ijtimoiy subyektlarning ehtiyojini qondirish va intilishlarini rag‘batlantirish maqsadini ko‘zlaydi [7].

Maktablarda innovatsion jarayonni tashkil etishda uslubiy yondashuvlarning sifat xususiyatlari va imkoniyatlarini o‘rganish, innovatsiyalarning ikki darajasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

• ta’lim tashkilotlaridagi innovatsiyalar;

• umumiy ta’lim tizimidagi innovatsiyalar.

Fundamental tadqiqotlar davomida ta’lim tashkiloti darajasida innovatsiyalarni samarali amalga oshirishga loyiha va faoliyat yondashuvlarining integratsiyasi yordam berishi aniqlandi.

Innovatsion jarayon mantig‘i ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va optimallashtirish g‘oyasiga bo‘ysunadi va ta’lim tizimini yangilash yo‘lini, shu jumladan, g‘oyani ilgari surish, loyihani ishlab chiqish, innovatsiyani o‘rganish, uni amalga oshirish va tuzatish, yangi tajribani tarqatish va muntazamlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion jarayon dinamik tizimdir [4; 5; 7]. Uning tarkibida quyidagi tuzilmalarni ajratish mumkin:

– faoliyatga asoslangan (motivlar, maqsadlar, vazifalar, mazmun, shakllar, usullar va natijalar majmui);

– subyektiv (maktabda amalga oshirilayotgan innovatsion jarayonning barcha subyektlari yig‘indisi: direktor, uning o‘rinbosarlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar, homiylar, maslahatchilar, ekspertlar, ta’lim boshqaruvi xodimlari va boshqalar);

– darajasi (innovatsiya ishtirokchilarining darajalari to‘plami: a) shahar, tuman, maktab; b) ma’muriyat, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar maktab ichidagi innovatsion jarayonning subyektlari sifatida; v) individual daraja, kichik guruh darajasi, sinf darajasi, maktab darajasi va boshqalar);

– substantiv (innovatsion o‘zgarishlar mazmunining tarkibiy qismlari to‘plami);

– boshqaruv (boshqaruv funksiyalari va harakatlari majmui);

– innovatsion hayot siklining tuzilishi (innovatsion g‘oyaning paydo bo‘lishidan to eskirishigacha bo‘lgan innovatsion rivojlanish bosqichlari majmui);

– tashkiliy (innovatsion faoliyatni tashkil etish bosqichlari majmui: diagnostika – prognoz – tashkilotning o‘zi – amalga oshirish – umumlashtirish – amalga oshirish) va boshqalar.

Y.K.Babanskiy, P.I.Kartashov, V.V.Kraevskiy, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin, L.S.Podimova asarlari asosida pedagogik innovatsiya muammosida ikkita asosiy jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) pedagogika fanining yutuqlarini ta’lim amaliyotiga joriy etish;

2) ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish, umumlashtirish va tarqatish.

Inson faoliyati va ongining har qanday sohasida fan va amaliyot bir-birini to‘ldiradi, butun insoniyat bilimining ushbu sohasining rivojlanishini ta’minlaydi. Binobarin, ta’kidlangan ikkala jihatni ham o‘zaro bog‘langan va bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi yagona innovatsion jarayonning asosiy komponentlari sifatida ko‘rib chiqish mantiqan to‘g‘ri.

T.I.Shamova va N.P.Kapustinlarning fikricha, har qanday pedagogik innovatsiya quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

1) innovatsion g‘oyani shakllantirish;

2) maqsadni belgilash;

3) innovatsion loyihani ishlab chiqish;

4) eksperimental amalga oshirish (bunda innovatsion g‘oya eksperimental sinovdan o‘tkaziladi, innovatsion loyihaga tuzatishlar kiritiladi va innovatsion faoliyatni optimal tashkil etish tuzilmasi shakllanadi);

5) yangi tajribani takrorlash va tarqatish (bunda yangi tajriba ko‘p marta takrorlanadi, tarqaladi, ommaviy ish tajribasiga kiradi, faqat bir guruh innovatorlar emas, balki ko‘pchilikning mulkiga aylanadi); bu bosqichda innovatsion faoliyat tizimida yangi tarkibiy elementlar va yangi aloqalarning paydo bo‘lishi hali ham mumkin;

6) muntazamlashtirish (innovatsion loyiha tashkil etilgan tarkibiy bo‘linmalarda, barqaror ta’lim tizimi sifatida, bosqichma-bosqich innovatsiyalar toifasidan an’analar toifasiga o‘tishda amalga oshirilganda).

Sanab o‘tilgan bosqichlar innovatsion jarayonning mantiqiyligini aks ettiradi va uning umumiy tuzilishini tashkil qiladi. Biroq, umumta’lim maktabining rivojlanishida rasmiy tuzilishdan tashqari, innovatsion jarayonning mazmuni va innovatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlarni, shaxsiy xususiyatlarni va munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilganligi muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – T.: TDPU, 2004.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste'dod, 2008. 180-b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004. 104-b.13-b.
4. Kotlyarova I.O. Pedagogicheskaya innovatika. – Chelyabinsk: YuUrGU, 2003.– 78 s.
5. Lazarev V.S. Upravlenie innovatsiyami v shkole. – M.: Sentr ped. obrazovaniya, 2008. – 352 s.
6. Mavlonova R.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. – T., 2007.
7. Osipov Yu.M. Osnovi innovatsionnogo menedjmenta: ucheb. posobie. – Tomsk: Izd-vo Tomskogo gos. un-ta sistem upravleniya i radioelektroniki, 2003. – 170 s.
8. G'affarov E. Innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya va innovatsion faoliyat: ilmiy-nazariy yondashuvlar. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 10-son. 153-157-b.

Ro'za xonim MAVLONOVA,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
Mustaqil tadqiqotchi, faxriy ustoz

MARDUMLIG' SHEVASIDAN OLIS PARI YOXUD ODAMVASHLIG'-U MARDUMDORLIQQA DA'VAT...

(Adabiyot muallimlari e'tiboriga taqdim)

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azali tahlilga tortilgan. Boshqa navoiyshunos ustozlarimizning tahlillariga qo'shimcha tarzda yangi fikrlar ham qo'shildi.
Kalit so'zlar: *"Qaro ko'zum" g'azali, mardum, "vatan qilg'il", g'amzada, rasan, hino.*

Shunday mavzular borki, bizni qayta-qayta murojaat qilishga undaydi. Oradan vaqtlar o'tishi bilan avvalgi mulohazalaramiz o'zimizni qoniqtirmay qoladi. Oldingisidan ichimiz chiqmaydi, yana nimadir ochilmay qolgandek tuyulaveradi. Shunday asarlardan biri hazrat Navoiyning "Qaro ko'zum" g'azalidir. Bu she'r shoir g'azaliyoti ichra eng ko'p va xo'p tadqiq etilgan asari sarasiga kiradi. Hozirda uning o'n beshdan ortiq talqinlari mavjud. Lekin shoir devonlarini o'qir ekanmiz yana yangi qarashlar yuzaga kelaveradi. Yana nimalarnidir aytish lozimdek, yana motivlar haqidagi qrashlarni aniqlashtirish zaruriyati bordek ko'rinaveradi. Shu bois ixlosmand muxlislar va hamkasblar e'tiboriga g'azal matla'siga munosabat haqidagi ba'zi mulohazalarimizni bayon qilmoqni niyatladik. G'azal matla'sidan chiqib keluvchi ikkita savol doimo shorihlar aro bahsga sabab bo'lib keladi:

*1. Nega qora ko'zli yor **mardumlig'ni** fan darajasida kasb (odat) etmog'i shart ?*

2. Qorako'z nima sababdan oshiq ko'zi (qarosi) da mardum kabi o'rnini topishi kerak ?

Birinchi misradan o'rin olgan **mardumlig'** – insoniylik, odamiylik, odamoxunlik, odamshavandalik, muloyimlik fazilatlaridir. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz Navoiy **odamiyliq, odamliq, odamvashliq, mardumluq, mardumdorlig', mardumafkandlig'** (mardlik) singari so'zlarni bir "beadab-u tund xuy" qattiqko'ngil malak siymo pari siyrat yorga nisbatan ko'p qo'llaganlarining guvohi bo'lamiz. Bu inson jinsidan bo'lmagan bag'ritosh manzur odamiylig', odamvashlig', mardumdorlig' (muloyimlik) odobidan mutloq bexabarligi borasida kop noliydilar, qalban azoblanadilar. Go'yo bani Odam naslidan bo'lmagan bunday xilqatli Yor o'zining parixuyligi bilan oshiq(shoir) qa bisyor ozor beradi ekan. Shoir talqinicha, bu Pari odamvashlig'lar shevasidan olis, uni aslo bilmaydi:

Ey Navoiy, ul Paridan **odamlig' ko'rmasang,**
Ayb emas, ul hurdur yoxud malak, **inson emas.** (I-239-g'.)

Demak, mardumlig'i yo'q yor yo **hur,** yo **malak.** Bu joyda ulug'lanayotgani yo'q aslo, shunchaki qiyoslanmoqda. Sabab: malak, hur yoki parilar "mardumlig fani"dan mosuvo. Ularda "odamlig'" ("inson emas") munosabatlari mavjud emas. Mana shoir nima demoqchilar. Davom etaylik:

Vafo ko'z tutgan andin hushidin begonai bo'lg'ay,
Paridin odamlig' istab devonai bo'lg'ay.(I-648-g'.)
Odamvashlig' pari ruxsorlardin xo'b erur,
Chun bu ishni ul **pari ruxsorlig' bilmas, netay?** (II-644-g'.)
Netib habib visolin tama' qilay meni shaydo,
Ki telba **beadab-u tund xuy erur pari asru.**(II-510-g'.)

Bunday pari timsolidagi yorning o'ta beadab-u devonavash fe'lidan ranjigan, charchagan oshiq ma'shuqaga munosabatda ajz-u niyoz yo'lidan, oh-u zor shevasidan emas, tashviq-targ'ib orqali muloyimli (axloqli)lik yo'li ila bu Parini bashar fazilat-u axloqi – **mardumlig'ni fan darajasida kasb etmoqlikka da'vat etadi.** Bani (odam) mardum odatlariga amal qilmoq shevasiga chorlaydi. Hatto, ayrim g'azallarda bu borada oshiqning o'zi ibrat bo'lmoqqa intiladi.

Masalan: II- 578 - g‘azalda shunday:

Ko‘ngluma xoling xayoli kirsa mardumlug‘ qilib,
Ko‘z uyida ani mardumlar ichinda asratay, – deydilar.

Oshiq: “Mardumlig‘ ko‘rsatib xayolimga kirgan xoling timsolini ko‘z uyimdagi qorachig‘im ichida (doimiy) asratayin”, – demoqda. Mana oshiq mardumlig‘ining namunaviy misoli. Demak, yuqoridagi iqtiboslar va mulohazalarga asoslanib birinchi savolga Oshiq begonaxuy pariga jinsi inson bilan ishq munosabatlariga kirishish uchun, albatta, mardumlig‘ni fan darajasida kasb etmog‘i lozimligi uqtirilmoqda ekan. Shoir fikricha, parilar bilan ishqiy munosabatlar baribir muvaffaqiyatsiz yakun topadi:

Ey Navoiy, bas erur telbalik (oshiqlik)emdi, berma
Ul parivashqa chekib nal‘u afg‘on tanqis. (II-245-g‘.)

Bunday munosbatlardan horigan shoir: “Hech qaysi odamlig‘da emas insoncha xo‘b”, yoki: “Kimiki insondurur uning mahbubi ham inson kerak”, – deydilar. Shu bois, bizningcha, odamiylig‘ga targ‘ibning bosh moyasi (shoir ijodi laboratoriyasining semantik tadrijiy silsilaviyligiga ko‘ra) parixuy yorga qaratilgan ekan... Shu asoslarga ko‘ra, matla’ birinchi misrasining nasriy bayonini: “Ey qora ko‘zli Pari, kelgin-u qarshimda pari paykar tarzida emas, odamiylikni fan darajasida odat etgan yor (qiz) sifatida gavdalan” deb talqin etsak va bu tasavvurni tabiiy qabul qilsak, barcha bahslar barham topadi... G‘azaldagi qorako‘z nima uchun oshiqqa odamvashlig‘ ko‘rsatmog‘i zarur degan savolga shoir ijodiy laboratoriyasi xususiyatlaridan kelib chiqib yana bir shunday javob ham aytish mumkin. Shoir I devonada 52 ta, II devonada 63 ta g‘azalda yorga pari, ey pari, (parivash, pari ruxsor, pari ro‘y, pari paykar, hurzoda, pari ruh) kabi nom (tashbeh, sifatlash)lar bilan murojaat qiladilar. Agar bunga III va IV devondagi shunday g‘azallarni ham qo‘shsak, ular soni 200 dan oshadi. Odatda, g‘azallarda shoir orzusidagi Yor surati va siyratiga bir romantik-axloqiy poklik, g‘ayritabiiy kamolot, qo‘l(lab) yetmas idealdagi go‘zal xilqatga rag‘bat va ishtiyoq o‘z tajassumini topgan. Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, hatto shoir orzusidagi qizni zaminiy yor emas balki to‘g‘ridan to‘g‘ri bir arshiy go‘zal pari tarzida tasvirlash, uni bir benuqson hurvash suluv timsolida tasavvur etib, unga ishq iztiroblarini bayon qilish, muhabbat kechinmalarini to‘kib solish holatlari bor. Bu malak siymo pari ruh hur ruxsor go‘zalning faqat bir kichik “nuqsoni” bor... U ham bo‘lsa, odamlig‘, odamvashlig‘, mardumdorlig‘ (muloyimlik) fanidan mutloq bexabarligi, olisligi. Chunki u inson (bashar) jinsidan emas-da... Eslang: Ayb emas, ul hurdur yoki malak, inson emas...

Mana shu muammo – begonavashlig‘ doim oshiqqa bisyor ranj, dard, azob, iztirob beradi. Niyozmandlik qila-qila horigan oshiq (shoir) endi yolvorish yo‘lidan emas, da’vat, muloyimlik, bashariy sifat-u fazilatlarni egallash (fan etmoq)ga chorlov shevasini tutadi. Oqibatda, shoir bu pari ruxsor malak siymo yordan faqat birgina o‘tinch va orzumandligi borki, u ham bo‘lsa, oshiqqa odamiylik va muloyimlik (mardumdorlik) shevasida munosabatda bo‘lishini, agar uni eplolmasa, “mardumluq”ni fan darajasida kasb etmoqqa chorlaydi. Endi mana shu qizga pari (hur, malak) deb murojaat qilinishi har bir g‘azalda muttasil takrorlanavermagan va bu mazmunan shart ham emas. Biroq shoir idealidagi bu talab (me’yor) va murojaat deyarli ko‘plab g‘azallar mazmuniy mundarijasiga tadrijiy singdirilganligini muxlis yodda saqlashi, uni shunday ehtimolda tushunishga urinib bunga jiddiy e’tibor qilmog‘i o‘rinli, bizningcha. Shoir g‘azallarini o‘qir ekanmiz, Navoiy: yor, ey yor, deb ishqiy izhorlarini, sevgi tuyg‘ularini boshlar ekanlar u kishining dunyoqarashi va orzusidagi Yor sifatlari hamda fazilatlari maqomidan kelib chiqib g‘azallarida nazarda tutilgan qiz ana shu malak siymo bir pari (hurzoda) ekanligini chuqur anglab, his qilib ko‘pincha asardagi yor obrazini mana shu (yuqoridagi) o‘lchamda tasavvur-u taxayyul qilingan holda qabul etmoqqa urinmoq g‘azal tahlilida bizni savqi tabiiy holda to‘g‘ri yechimga olib boradi... Shoir ijodini kuzatar ekanmiz bu iddaomizni asoslovchi ko‘plab dalil-iqtiboslar mavjudligining guvohi bo‘lamiz:

Odamiylig‘din meni shod istamang, ey do‘stlar,
Ki meni majnun **pari hijronidin shodmen.** (II-472-g‘.)

Qo‘y basharni, gar maloyik domi ermas yaxshidur,
Ul pari mundoqki zulf etmish parishon har taraf. (I-305-g‘.)

Ul pari odamvashlig‘lar aylab qildi xash,
Har sorikim bir **malakvash bor edi devonavash.** (II-248-g‘.)

Ul pari paykarki bo‘lmish ins-u jondin xo‘broq,
Bor aningdek xo‘bkim **mumkin yo‘q ondin xo‘broq.(II-315-g‘.)**

Oshiq nazdida undan-da yaxshi (xo‘b)rog‘i bo‘lishi mumkin bo‘lmagan ana shu pari ruh “ins-u jondin xo‘broq” paridan oshiqning faqat bir o‘tinchi bor, bir talab-iltimosi borki, u ham bo‘lsa, bul **Pari odamvashlig‘** (mardumlig‘) **ni fan darajasida o‘rganib insoniylikni odat etmog‘i lozimligidir.**

Ey pari, bir telba(oshiq) gar ovora bo‘ldi g‘am yema,
Odamvash (lig‘) **lar bila nozuk mijozingni ovut.** (I-71-g‘.)

Men o‘lar holatda-u jon qasdi aylar **ul pari,**
Odamliq ko‘rgazurkim, bir nafas **mehmonimen.** (I-499-g‘.)

Gar mening sho‘xi sitamgarim **parizod o‘lmasa,**
Mumkin ermas, odamiy bo‘lmog‘lig‘ ul miqdor

sho‘x.(I-109-g‘.)

Mening jununuma gar ul pari erur bois,
Halokima qad ila paykari erur bois.(I-91-g‘.)

Shoirning bunday yor axloq-u fazilatlariga o‘ta talabchanligi, balki, Navoiy didining juda nozikligidan yoki pari, hur va malaklarda maishiy hayot mavjud emasligidan (insoniy maishiy hayot odamni gunohlarga yetaklaydi-da), balki shoir dunyoqarashi, pok sevgi hosilasining natijasi yoxud pok ruhga qovishish(hulul) orzusi kabi shaxsiy ehtiyojiy taxayyullar sabab yuzaga kelgandir, ehtimol. Bunday xulosalarga bizni ayrim g‘azallardagi ma’noviy ishoralar yetaklaydi:

Ul **pari** ishqida ermastur **malak** ham **mahramim,**
Kimiki **ishqi pok** erur **sirri** aning **pinhon** kerak.(II-382-g‘.)

Parimi yoki malak, yo‘qsa **ruhi pokmidur**,
Ki zohir o‘lmadi **muncha latofat insondin.**(II-495-g‘.)

Shoir o‘zidagi bunday nozik ta’b-u hislar uchun ahyon-ahyon o‘z qalbini ham malomatlaydi:

Telbalik (oshiqlik) o‘ltursa ham b**o‘ynung‘a qonim, ey ko‘ngul,**
Bor ekan odam nega mayli parizod aylading ? (II-347-g‘.)

Navoiyning bunday g‘ayritabiiy ishq-u muhabbatini anglab yetmoq biz oddiy odamlarga emas. O‘zlari qayd etganlaridek u kishining “o‘zga (ma’naviy)olami bor”:

Havoyi ishqing aro o‘zga olamim bordur,
Ki ashkim- anjum erur, oh -dudi aflokim.(I-425-g‘.)

Xullas, mana shu bashar jinsidan bo‘lmagan o‘z ijodi (“olami”)dagi huriliqo malak siymo Paridan mehribonlikni, muloyimlikni, odamvashlig‘ni, mardumdorliqni bir so‘z bilan – mardumlig‘ni istaydilar, umid qiladilar. Yor agar bu fazilatlarni eplolmasa, bilolmasa mardumlig‘ – odamgarchilik odobini fan darajasida o‘rganishga chorlaydi, DA‘VAT etadilar. Iqtiboslardan ko‘rinadiki, Navoiy yor deganlarida biz yuqorida shoir misralariga asoslanib siymosini chizgan sho‘x bir ideal go‘zal Parini nazarda tutadilar ekan. Bizningcha, ijodkorning mana shu ideal orzumand istak, xohish va me’yorlaridan kelib chiqib g‘azallarida garchi misrada pari so‘zi o‘z ifodasini yozma ravishda topmagan bo‘lsa-da, parilik, malakruhlik, parivashlik, pariruhlik, hurlik, hurzodalik, pari paykar, pari ruxsor BIR MALAK SIYMO PARI yor obrazi ehtimolda surat va siyratda mavjud deb qarash va shunday qabul qilib munosabatda bo‘lmoq Navoiy mulohazalarini to‘g‘ri tushunish va tog‘ri anglash sari yo‘l ochadi. Shu ma’noda “Qaro ko‘zum” g‘azali matla’sidagi qorako‘zga murojaatni ham: “Ey qaro ko‘zli pari...” deb boshlasak va shoir orzusiga ko‘ra uni shunday qabul qilsak, bunday sharh shoir ijodiy laboratoriyasidagi ko‘pgina g‘azallarning umumiy semantik ma’no mundarijasiga, mazmuniy silsilaviyligiga, shoir orzusidagi ishqiy syujetlar an’anaviyligiga putur yetkazilmagan bo‘lurdi, bizni to‘g‘ri tahliliy yechimga yetaklardi. Shoir ideal talablari va yuqoridagi izohlarimizdan so‘ng g‘azal matla’sini qayta kuzatsak, endi hamma bahslar o‘z-o‘zidan barham va bartaraf bo‘ladi, tortishuvlar to‘g‘ri yechim topadi va “EMDI” qorako‘z nega mardumlig‘ni fan darajasida kasb etmog‘i lozimligi savqi tabiiy tarzda o‘z mazmuniy o‘zanini egallaydi. Endi o‘zingiz bir kuzating-a... Mazmuniy tabiiylikdan huzur va taskin topib badiiy bahra olasiz-da:

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlig‘ emdi fan qilg‘il.
“Ey qaro ko‘zli Pari, xush kel-u (tashrif uchun rahmat-u, biroq) **emdi koshki odamvashlig‘ va bashariy axloq – mardumlig‘** (muloyimlik, odamgarchilik, insoniylik) **shevasini ham bir oz kasb etsang, bilsang, egallab olsang edi-ya...”**

Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

“Qani endi ko‘zum qarosi (gavhari, diydasi)dan Pari PAYKARI tarzida emas, odamvashlig‘ mardum (qiz)dek o‘z siymong (timsoling) o‘rnini topsang (egallasang) edi”. Xullas, mana o‘zingiz guvoh bo‘lyapsizki, qorako‘zni tajalli nazariyasiga, so‘filik suluki silsilasiga, Navoiy tasavvufidagi visol onlariga, tasavvuf falsafasiga, yuksak orzulangan botiniy yor – Haqqa, ilohiy ma’shuq lutf-u ehsoniga, asl moya bilan birlashish – vahdadi vujud istagiga, Komil inson va Qadga, ilohiy XILQATga mengzamay ham sharhlasa bo‘lar ekan... Barcha tabiiy javoblar shoir g‘azallari qatida “sirri pinhon” ekan, aziz shoir muxlislari. Endi o‘zingiz hazrat nazmiy gulshanidan tanlangan daliliy iqtiboslarni bir kuzatib ma’naviy huzur va zavq oling!!

Ul malak siymo PARIkim xalq aning hayronidur,
Jonlar oshubi vale oshufta jonim jonidur.(I-188-g‘.)
Oshiq bo‘ldum **ul malak siymo PARI ruxsorig‘a,**
O‘ylakim o‘t shu‘lasidin elga garm o‘lgay dimog‘. (II-296-g‘.)

Rashkidin bexud tilarmen xalqnikim qilmag‘ay,
Jinsi odam **ul PARI paykar malak siymoni yod** (I-128-g‘)

Yuzing –haq nuri , jisming – nuri pok, ey ruhdek g‘oyib,
Seningdek **bir malak siymo parivash yo‘qtur insonda.** (I-529-g‘.)

Tosh yebon atfol gomi birla jon bersam ne tong?!
Kim **PARI vaslig‘a jonni komron qildim havas.** (I-229-g‘.)

Ey Navoiy, **qilmag‘aylar** (ulus) ayb agar devona(oshiq)men,
Ul PARI vasfin o‘qug‘on(anglag‘on) **soyi Devonimdin el**(xalq). (I-370-g‘.)

Sumbul MUXAMMEDOVA,
NDPI tayanch doktoranti

“SAYOD VA HAMRO” DOSTONIDAGI AYRIM FRAZEMALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazemalar va ularning ahamiyati, bugungi kunda jahon va o‘zbek tilshunosligida frazemalar bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar haqida ma’lumot berilib, ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. Shuningdek, “Oshiqnoma” turkum dostonlariga kiruvchi “Sayod va Hamro” dostonidagi ayrim frazemalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *til, frazeologiya, frazema, frazeologik birikma, parema, doston, “Oshiqnoma”, “Sayod va Hamro”.*

Annotation: this article provides information about idioms and their importance, as well as the research conducted on idioms in world and Uzbek linguistics today. Also, some phrases in the epic “Sayod and Hamro”, which are included in the epics of the “Ashiqnoma” series, were analyzed.

Keywords: *language, phraseology, phraseme, phraseological combination, paremia, epic, “Ashiqnoma”, “Sayod and Hamro”.*

Аннотация: в данной статье представлена информация об идиомах и их значении, а также исследованиях, проводимых по идиомам в мировой и узбекской лингвистике сегодня. Также были проанализированы некоторые фразы из эпоса «Сайод и Хамро», вошедшего в былины серии «Ашикнома».

Ключевые слова: *язык, фразеология, фразеология, фразеологическое сочетание, паремия, эпос, «Ашикнома», «Сайод и Хамро».*

Kirish. Til kishilar o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lib, fikrni boshqalarga yetkazishga xizmat qiladi. Til milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazinadir. Xalqlarning kelib chiqish tarixi, san’at, madaniyat, urf-odat, an’ana, qadriyatlari, badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodiyoti haqidagi ma’lumotlarni o‘zida aks ettirib, to‘plab, avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy-madaniy semantikasidir [8:5]. Til qurilishining lug‘at sathida leksik va frazeologik qatlamlar mavjud. Lug‘at sathidagi frazeologik qatlam (uni o‘rganuvchi soha ham) frazeologiya deb yuritiladi [7:7]. O‘zbek tili izohli lug‘atida ham iboralarga shunday ta’rif berilgan: Ibora – [so‘z, so‘z birikmasi] biror tushuncha yoki fikr ifodalovchi, odatda, so‘zlarning turg‘un birikmasi (so‘z birikmasi yoki gapga teng jumla) [1:463].

Frazeologik birliklar tilshunoslikda alohida soha sifatida shakllanib, taraqqiy etib bormoqda. Frazeologizmlarni o‘rganishda uning asoschisi Sharl Ballini xizmatlari beqiyosdir [4:4]. U o‘zining “Fransuz stilistikasi” (1909) asarida so‘z birikmalari, ularning tadqiq etuvchi vositalar haqida qimmatli fikrlarini bayon qilgan. Frazeologik birliklar va ularning shakllanish yo‘llarini qiyosiy tahliliga, A.A.Grigoryeva, N.A.Xomyakova, I.V.Gorodskaya, J.D.Kozimagamedova, M.I.Gritskoning asarlari bag‘ishlangan. Shuningdek, A.N.Smirnitkiy, Z.N.Anisenova, A.V.Kumachova, T.N.Derbulova, N.N.Amosova, N.Jshanskiy kabi olimlarning asarlarida frazeologik birliklar klassifikatsiya qilingan [4:5].

Frazeologik birikmalardan o‘rinli foydalanish nutqning ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Frazeologizmlar gap tarkibida yaxlit holda bir so‘roqqa javob bo‘ladi va bitta gap bo‘lagi vazifasida keladi.

– Ey bobo, bu bog‘ podshohning bog‘idir, tez chiqib ketgil, agar bog‘bon ko‘rsa teringa somon tikur, – dedilar [“Oshiqnoma” 1-kitob, 18-bet]

Bu yerda kesim vazifasida kelgan.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalar frazeologizm (frazeologik birikma)lardir [8:7]. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma’no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Har bir ijdkor o‘z asarlarida frazemalardan foydalanar ekan, ularning tashqi va ichki jihatdan mukammallashishiga hissa qo‘shadi. Ijodkor frazemadan foydalanish jarayonida unga yangi ma’no yuklay olsa va bu ma’no frazema tabiatiga mos kelsa, garchi sekinlik bilan bo‘lsa-da, semantik kengayish yuz beradi. Semantik kengayishning bosh omillaridan biri og‘zaki nutq bo‘lsa, yana bir muhim omili yozma adabiyotdir [2:106].

N.Mahmudov o‘zbek tilidagi iboralarning lug‘atlarda berilish lug‘aviy tavsifi tizimini shakllantirishda quyidagi o‘lchov mezonlarni keltiradi [5:13]:

1. Frazeologizm.
2. Frazeologizmning ma’no tavsifi-definitsiyasi.
3. Frazeologizmga daxldor etimologik ma’lumotlar (zarur bo‘lsa).
4. Frazeologizmning gender xususiyati.
5. Frazeologizmning so‘zlovchining ijtimoiy yoki

boshqa maqomiga aloqasi.

6. Uslubiy xususiyati.

7. Frazeologizmning emotsional-ekspressiv jihatlari.

8. Frazeologizmning variantlari (bor bo‘lsa).

9. Frazeologizmning sinonimi.

10. Frazeologizmning antonimi.

11. Frazeologizm semantikasidagi polisemiya.

12. Frazeologizmning semantik-pragmatik, emotsional-ekspressiv va boshqa xususiyatlarini dalillovchi misollar.

N.Mahmudov so‘zning lug‘aviy tavsifiga qaraganda iboralarning lug‘aviy tavsifi anchayin murakkabligini ta’kidlab, o‘zbek tilidagi iboralarning bunday tavsifini mukammal bir tarzda amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi [5:13].

O‘zbek tilshunosligida hozirgi kunga qadar Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, S.Ayniy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oybek, G‘afur G‘ulom, Oydin, Zulfiya, Komil Yashin, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Said Ahmad, Muhammad Yusuf, Oydin Hojiyeva kabi XX asr o‘zbek shoir va yozuvchilarining asarlarida qo‘llangan frazemalar ma’lum darajada tadqiqot obyekti bo‘lgan [3:13].

Muhokama va natijalar. Bugungi kunda o‘zbek tilidagi frazemalar tadqiqi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, “Oshiqnoma” turkum dostonlarida mavjud frazemalar alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Quyida “Sayod va Hamro” dostonidagi ba’zi frazemalar tahlil qilingan.

“Ko‘ngl(i)ga tegmoq” iborasi “Oshiqnoma” turkum dostonlarida ko‘p uchraydigan faol iboralardan biri. Bu ibora ikki xil ma’noga ega. I nima? (ovqat) yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo‘ymoq. Iboraning birinchi ma’nosiga “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da “medasiga tegmoq” iborasi sinonim sifatida keltirilgan.

II Inson his-tuyg‘ulariga, ruhiyatiga, ichki kechinmalariga ta’sir ko‘rsatish yoki ko‘nglini og‘ritmaslik, biror so‘z bilan xafa qilishdan andisha qilish maqsadida qo‘llaniladi. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da varianti sifatida “ko‘ngilga tegmoq” iborasi keltirilgan [7:278]. “Sayod va Hamro” dostonida ushbu iboraning ikkinchi ma’nosi, ya’ni ko‘nglini og‘ritishdan, xafa qilishdan qo‘rqish ma’nosi ko‘proq qo‘llangan holatlarni uchratamiz. Masalan,

Har nechuk bo‘lsa ham Hamrojonning ko‘nglina teymayin, – deb, Salbiniyozjon zor-zor, chun abru navbahor yig‘lab, bir g‘azal aydi. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 11-bet]

“Ko‘ngliga tegmoq” iborasining sinonimlari sifatida – ko‘ngilga tegmoq, ko‘nglini og‘ritmoq, dilini og‘ritmoq, diliga ozor bermoq kabi iboralarni ham misol qilishimiz mumkin.

“Ko‘ngli parishon” iborasi “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da insonning tashvish, o‘y-xayollar girdobida qolgan vaziyatlarda, fikri tarqoq holatlarda qo‘llanilishi izohlangan [7:282]. Masalan, “Sayod va Hamro” dostonida Hamroning Qizilolma shahriga ketish chog‘ida izidan zor yig‘lab qolgan Salbiniyoz g‘azal aytadi va ushbu iborani qo‘llaydi.

Ko‘nglim parishondur, ko‘zum yo‘ldadur

Bor, Hamrohim, sog‘ bor, omon kelgaysan. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 11-bet]

“Ko‘ngli parishon bo‘lmoq” iborasiga – xayoli parishon bo‘lmoq, xayolini sochmoq iboralari sinonim bo‘la oladi.

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida “qo‘l” leksemasi bilan bog‘liq frazemalarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, dialektal “al” leksemasi shaklida qo‘llanilgan. Masalan, “aldan chiqarmoq”, “al bermoq”, “al ko‘tarmoq”, “al quvshirmoq”, “al uzatur bo‘lmoq” iboralari fikrni ta’sirchan, ifodali yetkazishga xizmat qilgan. Bu iboralar o‘g‘uz lahjasiga mansub Xorazm vohasi shevalarida ko‘proq uchraydi.

“Aldan chiqarmoq” iborasi “qo‘ldan chiqarmoq”ning dialektal ko‘rinishi sanalib, “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da bu iboraning quyidagi ma’nolari izohlangan:

I nima? – qo‘ldan chiqmoq. Birinchi ma’nosiga – qo‘ldan boy bermoq, qo‘ldan berib yubormoq, qo‘ldan ketmoq, qo‘ldan chiqib ketmoq iboralari sinonim bo‘la oladi.

II kim kimni? “kimningdir hukmida, ixtiyorida bo‘lmay qolmoq”. Ibora ma’nosi birinchisi ikkinchisiga qaraganda kuchli, har ikkalasi ham umumnutqqa xos. Har ikkala ma’nosi ham biror narsani yo‘qotish, qo‘ldan boy berish, boshqaruv yoki nazoratdan chiqarib yuborish jarayonida qo‘llaniladigan frazeologik birlikdir [7:440].

“Aldan chiqarmoq” iborasining ikkinchi ma’nosiga – quruq qolmoq, nazoratdan chiqmoq, boshqaruvdan chiqib ketmoq iboralari sinonim bo‘la oladi. “Sayod va Hamro” dostonida ushbu iboraning ikkinchi ma’nosi, ya’ni “kimningdir hukmida, ixtiyorida bo‘lmay qolmoq” ma’nosi ko‘proq qo‘llanganligini kuzatamiz.

Dostonda Salbiniyoz Hamroni yo‘qotayotganini sezib, bir g‘azal aytadi va ushbu iborani qo‘llaydi.

Qo‘rqim ko‘pdur sen chiqarsan alimdan.

Bor, Hamrohim, sog‘ bor, omon kelgaysan. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 11-bet]

“Al bermoq” iborasi ham dostonlarda juda ko‘p o‘rinlarda faol qo‘llanilgan bo‘lib, “qo‘l bermoq” iborasining dialektal ko‘rinishi hisoblanadi. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ushbu ibora ikki xil ma’noda izohlangan.

I kim? kimga? dastpanjasini uzatmoq.

II kim? kimga? murid bo‘lmoq (eski). [7:428]

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida iboraning birinchi ma’nosida qo‘llangan holatlarni kuzatamiz. Masalan,

Mani olsang hiyla berib, al berib,

Boshing qo‘ysang oyog‘iga yolvorib. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 219-bet]

“Al ko‘tarmoq” iborasi ham she’riy misralarda faol qo‘llanilgan bo‘lib, “qo‘l ko‘tarmoq” iborasining dialektal ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu ibora ham lug‘atlarda ikki xil ma’noda izohlangan.

I kim? kimga? 1. Urmoqchi bo‘lmoq; 2. Zarba yetkazish harakatida bo‘lmoq.

II kim? 1. Tarafdor yoki qarshi ekanini bildirmoq (ovozga qo‘yishda); 2. Gapirmoqchi ekanini bildirmoq (yig‘ilishda, darsda).

“Sayod va Hamro” dostonida ushbu iboraning uchinchi voz kechmoq, kechib ketmoq ma’nosida qo‘llanilgan holatni kuzatamiz. Masalan, Sayodxon Hamrodan undan voz kechishini so‘rab, bir g‘azal aytadi va ushbu iborani qo‘llaydi.

Turkmanning xo‘jasi qaydin kelursan?

Olloni sevarsan, mandin al ko‘tar [“Oshiqnoma” 1-kitob, 15-bet]

“Al qo‘vshirmoq” iborasini ham “Oshiqnoma” turkum dostonlarida faol qo‘llangan holatlar mavjud bo‘lib, “qo‘l qovushtirmoq” iborasining diakteal ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu ibora lug‘atlarda uch xil ma’noda izohlanadi.

“Qo‘l qovushtirmoq” – 1. Kim? kimga? Qo‘llarini tirsakdan egib, ustma ust qoringa qo‘yib hurmat ifodalamoq.

2. Kimga? Mutelik bilan itoat qilmoq.

3. Biror tadbir-chora ko‘rishga intilmaslik, loqayd munosabatda bo‘lmoq.

Varianti: qo‘l(i)ni qovushtirmoq kim? (o‘zining) [7:430].

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida ushbu iboraning ikkinchi “mutelik bilan itoat qilmoq” ma’nosi qo‘llanilgan.

– “Ta’zim ila marhabo, – deb al qo‘vshirib, ey Shahzodai Royi Chin”, – deb bu javobni aydi. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 129-bet]

“Al uzotur bo‘lmoq” iborasi ham “qo‘l uzatmoq” iborasining dialektal ko‘rinishi bo‘lib, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

I kim? 1. Nimaga? biror narsani bevosita olish uchun qo‘lini bor bo‘yi yo‘naltirmoq. Varianti: qo‘l cho‘zmoq.

2. Kimga? Salom-alik qilish uchun qo‘lini bor bo‘yi yo‘naltirmoq. Varianti: qo‘l(i)ni cho‘zmoq kim? [o‘zining] kimga?

3. Kimga? (ayolga) shahvoniy tuyg‘u bilan muomala qilmoq. Varianti: qo‘l cho‘zmoq.

II Qo‘l uzatmoq 1. Nimaga? O‘z manfaati yo‘lida foydalanishga harakat qilmoq.

2. Kimga? Najot istab murojaat qilmoq [7:432].

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida “qo‘l uzatmoq” iborasining dialektal ko‘rinishi “al uzotur bo‘lmoq” shaklida quyidagicha qo‘llanilgan:

– Ammo Vazirbacha haromzoda murodim hosil bo‘ldi, – deb Qariya yonina borib al uzotur bo‘ldi [“Oshiqnoma” 1-kitob, 148-bet].

“Sayod va Hamro” dostonida “nola chekmoq” iborasi ham ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Bu ibora ma’nosi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tili paremiologik lug‘ati”, “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da ham izohlanmagan. Bu ibora ruhan ezilish, iztiroblar ichida qolgan inson ichki his-tuyg‘ularini ifodalashda qo‘llaniladi. “Sayod va Hamro” dostonida Salbiniyozning ruhiy holatlari quydagicha ifodalaniladi:

Majnundayin cho‘ldan-cho‘lga kezaram,

Chiqib har yon cheksam nola, oh emdi. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 12-bet]

“Nola chekmoq” iborasiga – nola qilmoq, oh urmoq, oh tortmoq, oh chekmoq, faryod qilmoq, faryod chekmoq kabi iboralar sinonim bo‘la oladi.

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida “joni chiqmoq” iborasi she’riy misralarda ko‘p qo‘llanilgan iboralardan biri. Bu ibora “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ikki xil ma’noda izohlangan. I kimning? yoki nimaning? (jonlining) o‘lmoq, so‘nggi marta nafas chiqarmoq ma’nosini ifodalaydi.

Iboraning ushbu birinchi ma’nosiga – jon bermoq, jon uzulmoq, vafot etmoq, arshi a’loga ketmoq, narigi dunyoga ravona bo‘lmoq, narigi dunyoga rixlat qilmoq, omonatini topshirmoq kabi iboralar sinonim bo‘la oladi.

II Kimning [nimaga? yoki nimadan?] nihoyatda qattiq g‘azablanish, darg‘azab bo‘lishini anglatadi. “Joni chiqmoq” iborasining ikkinchi ma’nosiga jon pon(i) chiqib ketdi, jon pon(i) chiqarib yubormoq iboralari variantdosh iboralar hisoblanadi. G‘azabi qaynadi, g‘azab(i)ni qaynatmoq, jon(i) halqum(i)ga keldi, jon(i)ni halqum(i)ga keltirmoq iboralari ikkinchi ma’noga sinonim iboralar hisoblanadi [7:232].

“Sayod va Hamro” dostonida bu iboraning har ikkala ma’nosi ham qo‘llanganligini uchratamiz. Salbiniyozning o‘z yoridan ayrilgan vaqtda zor-zor yig‘lab, Oshiq Ahmadga qarab aytgan so‘zlarida “joni chiqmoq” iborasining birinchi ma’nosi ifodalangan.

Jasadimdin chiqdi jonim,

Shirin jonimdan ayrildim. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 13-bet]

Yoki,

Hamro dor ostida osig‘liq turgan otasini ko‘rib, afv etishini so‘rab Sayodxonga qarata aytgan so‘zlarida ham “jon chiqmoq” iborasining birinchi ma’nosi qo‘llanilgan.

Nozli yora arz etguncha jon chiqar,

Aytayinmi, aytmayinmi, na dersan? [“Oshiqnoma”

1-kitob, 26-bet].

Sayodxon va Hamro qochib tog‘da qo‘nim topadilar. Ularning izlaridan otliqlar quvib kelayotganini ko‘rgan Hamro Sayodxonga qarata “Kel, qochaylik”, – deb bir so‘z aytadi va o‘z so‘zlarida ushbu iboraning ikkinchi “g‘azablanmoq, jahli chiqmoq” ma’nosida qo‘llaydi.

Man bilmadim ular nechuk balodir,
Har nar’a jonim oladir.
Endi mani jonim chiqib boradir,
Kel qochali, jon Sayodim na dersan? [“Oshiqnoma” 1-kitob, 60-bet].

“Oshiqnoma” turkum dostonlaridagi kiruvchi ko‘plab dostonlarda “jon(i)ni olmoq” iborasining ham faol qo‘llanish holatlarini uchratamiz. “Jon(i) ni olmoq” iborasi “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da uch xil ma’noga ega. I kimning? “kim?” o‘ldirmoq, II kim? ruhan juda qattiq ezib yubormoq, III nima? Jismonan juda qattiq ezib yubormoq ma’nolarida qo‘llaniladi [7:231]. “Sayod va Hamro” dostonida bu iboraning birinchi va ikkinchi ma’nosi she’riy misralarda faol qo‘llanilgan. Masalan,

Sayodxonning Oshiq Ahmadga aytgan so‘zlarida ushbu ibora o‘lmoq, jonini olmoq kabi birinchi ma’nosida qo‘llanilgan.

Chaqiraman ikki qardoshim kelur,
Boshingni uzubon joningni olur. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 16-bet].

Yoki,

Sayodxonning bog‘ga yolg‘iz kirganini ko‘rgan Hamro, Sayodxonga qarata aytgan g‘azalida ham iboraning birinchi “o‘ldirmoq” ma’nosi qo‘llanilgan.

Bir qiyo boqishing oladir jonim,
Dedigim fitna so‘z tildin aybdir. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 37-bet].

Yoki,

Sayodxon Hamroning zindonda ekanligi yodiga tushib, undan xabar olishni buyuradi. – Ey Hamrojon holing nechuk?, – deb so‘raganlarida aytgan so‘zlarida iboraning ikkinchi “ruhan juda qattiq ezib yubormoq” ma’nosi qo‘llanilgan.

Mamatshohning qizi mani mast aylar,
G‘amzalari jon olmoqqa qast aylar. [“Oshiqnoma” 1-kitob, 28-bet].

“Jon(i)ni olmoq” iborasiga – jonini bermoq, jon uzilmoq iboralarini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frazemalar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topadigan, so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan turg‘un bog‘lanmalarning umumiy nomi. Ular nutqqa tayyor holda kiritiladi, ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, ta’sirchanlikni oshiruvchi, nutqqa emotsional-ekspressiv bo‘yoq beruvchi birliklar hisoblanadi. Asrlar davomida sayqallanib, bir qolipga kelib qolgan frazemalar og‘zaki nutqda, ayniqsa, yoshi ulug‘ keksalarimiz nutqida faol qo‘llaniladi. Shu bilan birgalikda badiiy adabiyotda ham tasviriy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Yozuvchilar o‘z asarlarida badiiylikni oshirish, qahramon nutqini kitobxonga to‘liq yetkazib berish maqsadida frazemalardan unumli foydalanadilar va ayrim frazemalarni asarga moslab qisman o‘zgartiradilar.

Shu kunga qadar, o‘zbek tilining frazeologik birliklari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, hozirgi kungacha o‘zbek tili frazeologik birliklari to‘liq to‘planmagan. [7:15] Xususan, “Oshiqnoma” turkum dostonlarida qo‘llanilgan iboralar ham salmoqli bo‘lib, hozirgacha tadqiqot obyekti sifatida to‘liq o‘rganilmagan. Ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarimizni keyingi avlodga to‘liq yetkazish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Madvaliyev, D.Xudoyberganova. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom A-D. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom”, 2022. 463-bet.
2. I.O‘razova. Sayfi Saroyi va Navoiy asarlaridagi ba’zi frazemalar qiyosiy tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. №3 106-bet.
3. I.O‘razova XIV asrning II yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi. 10.00.01 – o‘zbek tili filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati.
4. Kobilova, A. Frazeologizmlarning shakl va ma’no munosabati [Matn]: monografiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. 4-bet.
5. N.Mahmudov. Iboralar va ularning lug‘aviy tavsifiga chizgilar // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2022. №3. 13-bet.
6. S.R.Rozimboyev. “Oshiqnoma”. 1-kitob. – Urganch. 118-bet.
7. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova, I.O‘razova, K.Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati // –T.: “G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 278-bet.
8. X.Berdiyorov, R.Rasulov. O‘zbek tilining paremilogik lug‘ati. – Toshkent: “ O‘qituvchi”, 1984. 5-bet.

Mahbuba QUVONDIQOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
mustaqil tadqiqotchisi
Ilmiy rahbar: fil. fanlari doktori, dots, Z.Q.Teshaboyeva

IMOM AL-BUXORIYNING “AL-JOME’ AS-SAHIH” ASARINING MAZMUN MOHIYATI VA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asarining mazmun mohiyati, ahamiyati hamda uning o‘rganilishi yoritib berilgan. Bundan tashqari muallif hayoti, asarning yozilish sabablari, unga oid tarjimalar va amalga oshirilgan ilmiy ishlar borasida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *hadis, muhaddis, sahih, roviy, sunnat, islomshunos, diniy asar, tarjima, jome’, tafsir, siyrat.*

Annotation: in this article the meaning, importance and study of Imam al-Bukhari’s work “Al-Jame’ as-Sahih” are explained. The author’s life, the reasons for writing the work, translations and scientific works related to it are also discussed.

Keywords: *hadith, muhaddis, sahih, narrator, sunnah, Islamic scholar, religious work, translation, jame’, tafsir, sirat.*

Аннотация: в данной статье разъясняются смысл, значение и изучение произведения Имама аль-Бухари “Аль-Джаме ас-Сахих” и обсуждается жизнь автора, причины написания произведени, переводы и связанные с ним научные труды.

Ключевые слова: *хадис, мухаддис, сахих, рассказчик, сунна, исламский ученый, религиозная работа, перевод, джаме, тафсир, сират.*

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotiga, kitob o‘qish va uni targ‘ib etishga katta e’tibor berilmoqda. Xalqimiz orasida nafaqat badiiy balki diniy mazmundagi asarlarga bo‘lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Albatta, bu borada eng ishonchli va kerakli manbalarni topib o‘qish hamda ularning mazmun-mohiyatini anglash juda muhimdir. Diniy adabiyotlar orasida Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih”asari alohida o‘rin egallaydi.

Asar va uning ahamiyati haqida so‘z yuritishdan avval muallif hamda uning asar yaratish borasidagi sa’y-harakatlari haqida biroz to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) – islom olamining yirik mutafakkiri, muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan.

Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. Al-Buxoriy 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, hadislarni o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar – Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. [1]

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani “Al-jome’ as-Sahih”dir. Bu asar islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi. Manbalarda keltirilishicha, Al-Buxoriy ushbu asarni 16 yil davomida turli davrlar va turli hududlarda yozib tugallagan. Asar ichidagi hadislarni ishonchli bo‘lishiga nihoyatda katta ahamiyat qaratgan. Shunchaki, kimdandir eshitgan hadislarini kitobga kiritmagan. Nafaqat uni aytgan roviylarning uchrashganlarini hisobga olgan balki bu hadisni aytib berayotgan muhaddisning ham ishonchli, rostgo‘y insonligini tekshirib, ishonch hosil qilgach hadisni kitobga jamlagan. Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli “Al-jome’ as-sahih” asari “Eng ishonchli hadislar to‘plagan” nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislar hadislarning roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi.

Imom al-Buxoriy hayotiga oid ma’lumotlar bilan tanishish jarayonida shunga duch keldikki, muallif ushbu asarni yozishga umrining katta qismini sarflagan. Yuzlab, hatto, minglab ustozlardan ta’lim olgan. O‘qib-o‘rganishdan, izlanishdan aslo to‘xtab qolmagan. Ilm istab ko‘plab yurtlarni kezib chiqqan. Bir necha tarixchilarning ta’kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga

safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi.

Bundan tashqari, Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi.

Imom al-Buxoriy ushbu asarni yozishga ustozi turtki bo‘lgani haqida aytib o‘tgan. Ibrohim ibn Ma’qaldan rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriyni hadislarni to‘plashga undagan narsa haqida o‘zi: “Biz Is’hoq ibn Rohavayhni huzurida edik, Is’hoq ibn Rohavayh: “Bizga ba’zi do‘stlarimiz: “Agar sizlar Rasulullоh (sallallohu alayhi vasallam)ning sunnat hadislarini jamlaydigan muxtasar bir kitob yozsalaringiz”, deb aytdi”, dedi. Mana shu gap meni qalbimga o‘rnashib qoldi va o‘sha kitobni jamlashga kirishdim”, deydi [2, 147-bet].

E’tiborli tarafi shundaki, “Al-Jome’ as-sahih” to‘plamiga kiritilgan hadislar soni bo‘yicha turli ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniyning hisobiga ko‘ra “Al-jome’ as-sahih”dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalar qo‘shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. Yana bir manbada hadislar soni quyidagicha berilgan: “Al-jome’ as-sahih”ga 7275 ta kiritilgan hadis Muhammad ibn Fuodga ko‘ra, yetti ming besh yuz oltmish uchtadan iborat.” Hofiz Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon “Muqadimatu ibn Saloh” kitobida: “Buxoriyning sahihidagi hamma hadislar yetti ming ikki yuzi yetmish beshta. Agar undan takrorlanuvchi hadislarni chiqarib tashlansa, to‘rt mingta qoladi”, deydi. [3, 8-sahifalar] “Al-Jome’ as- sahih” asarining nusxalari turli bo‘lganligi ham mana shunday turli fikrlarga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Aslida hadislarning raqami imom Buxoriy tomonidan qo‘yilmagan, shuning uchun bu kabi qarama-qarshiliklar kelib chiqishi tabiiy holdir. Bugungi kunda nashr qilingan hamda tarqalgan nusxalarda 7563 hadis raqamlangan holda keltirilgan.

Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX-XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (s.a.v) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olim-u ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar.

Mazkur asarni to‘qson mingga yaqin talaba Imom Buxoriyning o‘z og‘zidan tinglagan. Ulardan Muhammad ibn Yusuf Farobiy va Ibrohim ibn Ma’qil Nasafiy kabi asar rivoyat qiluvchilar yetishib chiqdi.

Hadislar jamlangan boshqa asarlar ham muvjud bo‘lib, lekin ularning barchasi ham “Jome’”nomini olmagan. Asarning bunday atalishi uchun ham bir qancha shartlar mavjud bo‘lgan. “Sahihul Buxoriy”ning “Jome’” deb nomlanishiga sabab, ahli hadislar tomonidan to‘rt fanga bo‘lib o‘rganilgan va har bir fan bo‘yicha alohida kitob tasnif qilingan. Ular: Sunnat, Tafsir, Siyrat, Zuhd va Raqoiq fanlari.

Imom Muslimning “Sahih” to‘plami yuqorida zikr qilingan ko‘plab ilmlarga oid hadislarni o‘z ichiga olsa-da, tafsir va qiyomat belgilariga oid hadislar mavjud bo‘lmagani bois u “Jome’” deb atalmasligini Muborakfuriy “Tuhfa Ahvaziy” asarida qayd etib o‘tadi. [4, 64-66-sahifalar]

Shu kunga qadar, ushbu asar bir qancha diniy mazmundagi kitoblarning yozilishiga turtki vazifasini o‘tagan. “Al-Jome’ as-Sahih” dunyoda eng ko‘p tadqiq etilgan asarlardan biridir. Unga bitilgan sharhlarning eng mashhurlari quyidagilar: Hofiz ibn Hajar Asqaloniyning “Fath al-boriy fi sharhi Sahih al-Buxoriy”, Badriddin Muhammad Ayniyning “Umdat al-qoriy sharhi sahih al-Buxoriy” kabi asarlaridir. [5, 480-sahifa]

Asarning ahamiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘zida qamrab olgan hadislar mazmun-mohiyatiga ko‘ra, hayotimizda eng zarur qo‘llanmalardan biri bo‘la oladi, deyish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al-Jome’ as-Sahih” kitobi islom dinida Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi.

Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”. Yuqorida bildirilgan fikrlardan shu ma’lum bo‘lyaptiki, “Al-Jome’ as-Sahih” kitobi bashariyat ya’ni insonlar tomonidan yozilgan asarlar ichida eng yuksagi deb e’tirof etilmoqda.

Bu kitob Islom dinida bo‘lgan yoki unga endigina qadam qo‘ygan musulmonlar uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Asarning bir necha xorijiy tillarga tarjima qilingani ham uning dunyo ilm-fanida muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

“Sahihul Buxoriy” dastlab ingliz tiliga Muhammad Taqiuddin al-Hilali va doktor Muhammad Muhsin Xon tomonidan “The Translation of the Meanings of Sahih al-Bukhari: Arabic-English” (“Sahihul Buxoriy ma’nolari tarjimasi”: Arabcha-inglizcha) nomi bilan 1971-yilda arab tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan.

2019-yilda Nyu Yorkdagi Arab Virtual Tarjima Markazi “Sahihul Buxoriy”ning birinchi to‘liq ingliz tiliga tarjimasini “Encyclopedia of Sahih Al-Bukhari” (“Sahihul Buxoriy Ensiklopediyasi”) nomi bilab tarjima

qilib nashr etdi. Ushbu asarda izohlar, maxsus atamalar ro‘yxati hamda barcha roviylarning tarjimayi hollari keltirilgan. Buyuk bobomizning mazkur to‘plami “Hilol” nashriyotida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hamda bir guruh tarjimonlar tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ilk bor arabcha matni bilan birgalikda to‘liq holda chop etildi.

“Sahihul Buxoriy” asarining o‘rganilishiga kelsak, ushbu kitob bo‘yicha ikki yarim mingdan ortiq ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Asar ko‘plab olim va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va u bo‘yicha kitob va maqolalar nashr ettirilgan. Jumladan, O‘zbekiston xalqaro Islom Akademiyasi magistranti Jaloliddin Xolmo‘minov tomonidan “Al-Jome’ As-Sahih” asarining o‘ziga xos jihatlari” nomli maqolasida ushbu asarning mohiyati, tarkibi, yozilish sabablari, boshqa hadis kitoblaridan farqli jihatlari yoritib berilgan. Sh.Mirzayev tomonidan “Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asarining shaxs kamolotidagi o‘rni” mavzusida yozilgan maqolasida Buxoriyning qarashlari va g‘oyalari hamda ularning bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

O‘zbekiston xalqaro Islom Akademiyasi islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO kafedrasi katta o‘qituvchisi, t.f.PhD N.N.To‘rayev tomonidan yozilgan “Imom Buxoriy “Al-Jome’ As-Sahih” to‘plamining o‘zbek tilidagi tarjimalari qiyosiy tahlili” nomli maqolada Imom Buxoriyning “Al-Jome’ As-Sahih” asarining O‘zbekistondagi amalga oshirilgan tarjimalarining qiyosiy tahlili, ular orasidagi farqli jihatlari, ularda kelgan roviylar silsilasi, hadislarning tartib raqamlari va ularning tarjma to‘plamlari orasidagi o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy asoslari, hadislar kelgan o‘rinlar va uning fazli, islom dinida va O‘zbekistonda hadis ilmlari rivojlanishdagi o‘rni, so‘nggi davrlarda qilingan ilmiy tadiqotlar va ularning tushunishdagi tafovutlar va insonlarga yetkazib berishdagi yengilliklar va bu tadqiqotlar amalga oshirgan yili va tarjimonlar jamoasi kabi masalalar yoritilgan.

Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi el-yurti bag‘riga qaytdi. Buxoriyning boy ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan 1998-yil 4-noyabrda Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi tuzildi. Jamg‘armaning asosiy vazifasi Qur’oni Karim va Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari tarjimalarining akademik nashrlarini tayyorlash, buyuk islomshunoslar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda ilmiy anjumanlar o‘tkazish va shular yordamida yosh avlodni milliy an’analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Bundan tashqari 2017-yil Samarqand viloyati, Payariq tumani, Xo‘ja Ismoil shaharchasida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ishga tushirildi. Ushbu markazni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad movarounnahrlik alloma, muhaddis olim Imom Buxoriy hamda O‘zbekiston va musulmon dunyosidan yetishib chiqqan mutafakkir va allomalarning ilmiy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo‘shgan hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ‘ib qilish, kelgusi yosh avlodni millatlar va dinlararo bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ma’naviy-ma’rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Markaz binosida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun barcha zamonaviy qulayliklarga ega va zaruriy axborot texnologiyalari hamda mebellar bilan jihozlangan xonalar, zamonaviy kutubxona, Imom Buxoriy hayoti va faoliyati bilan bog‘liq eksponatlar joylashgan muzey tashkil etilgan. [6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih"asari asrlar davomida ishonchliligi jihatidan ham, o‘zida zaruriy ma’lumotlarni jamlagan asar sifatida ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ushbu kitobni o‘qish, o‘rganish hamda uning mazmunini anglash barchamiz uchun muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ps://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/imom-ismoil-al-buxoriy-810-870, 03 Ноября 2013, Ubaydulla Uvatov,http://www.ziyouz.com
2. (Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulhodiy ad-Dimashqiy. “Al-Favaidu ad-Daroriy fiy tarjimati Imom Buxoriy”. Darun navadir. 147-bet.)
3. (Hofiz Abu Amr Usmon ibn Abdurahmon ash-Shahrazuriy. “Muqadimatu Ibn Saloh”. “Saodah” nashriyoti. Misr 1326 – hijriy. 8-bet.)
4. Al-Muborakfuriy. Tuhfat al-Ahvaziy. Muqaddima. – Bayrut: Dor al-fikr. Nashr yili ko‘rsatilmagan. – J. 1. 64-66-betlar.
5. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. Dinshunoslik. Qomusiy lug‘at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017, 480 bet. ISBN 978-9943-5105-3-1.
6. https://www.bukhari.uz/?p=2485

Kamola AXMEDOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
kamola.axmedova1993@gmail.com

MUTRUBIY SAMARQANDIYNING “TAZKIRAT USH-SHUARO”SIDA NAZARIY, POETIK MASALALARNING YORITILISH TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada XVI asrga kelib mumtoz adabiyot nazariyasiga oid qarashlar ancha shakllanib borganligiga guvoh bo‘lamiz. Tazkiralarda adabiy tanqid ancha rivojlanib, badiy janrlar va badiy san’atlar tazkiranavislar tomonidan tahlilga tortilganini kuzatamiz. Jumladan, Mutrubiy Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasida ham adabiyot nazariyasiga oid ma’lumotlarga duch kelamiz. Ushbu maqolada tazkiraning XVI asr adabiy muhitida o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati xususida so‘z boradi. Undagi nazariy masalalar tadqiq etiladi.

Tayanch so‘zlar: *tazkira, ilmi aruz, fiqh, irfon, ilmi bade, vajh, ta’miya, tadvir, mudavvir.*

Annotation: in this article, we will witness that by the 16th century, views on the theory of literature in our classical literature have been formed. Literary criticism is highly developed in tazkiras, literary genres and arts are written down for analysis by tazkiranavis. Mutrubiy Samarkand’s book “Tazkirat ush-shuaro” contains information about the theory of literature. The article mainly talks about its special place and importance in the literary environment of the 16th century. Also, this article gives comments on the social origin of the poets.

Keywords: *tazkira, ilmi Aruz, fiqh, irfan, ilmi bade’, wajh, tamiya, tadvir, mudavvir..*

Аннотация: в данной статье мы станем свидетелями того, что к XVI веку в нашей классической литературе сформировались взгляды на теорию литературы. В тазкирах высоко развита литературная критика, тазкиранави для анализа записывают литературные жанры и искусства. Книга Мутрубия Самарканди “Тазкират уш-шуаро” содержит сведения о теории литературы. В статье преимущественно говорится о ее особом месте и значении в литературной среде XVI века. Также в данной статье даются комментарии относительно социального происхождения поэтов/

Ключевые слова: *тазкира, илми Аруз, фикх, , ирфан, илми Баде, ваджх, тамия, тадвир, мудаввир.*

XVI asrlarga kelib mumtoz adabiyot nazariyasiga oid qarashlar ancha shakllanib bordi. Tazkiralarda nasr ancha rivojlanib, manoqiblar va tazkiranavislar tomonidan ancha sayqallanib yozilgan. Tazkiralarda ham davr poetikasiga oid ma’lumotlar ko‘proq uchrab turadi. Bilamizki, “Poetika” – yunoncha so‘z bo‘lib, “ijod qilish san’ati” ma’nosini bildiradi. Poetika ijodning qanday qilib san’atga aylanishi haqidagi fandir” . Mutrubiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” tazkirasida she’r va shoirlik xususida bir qancha shoirlarning ijodiga samimiyat bilan baho berib, shu bilan birgalikda tanqid ham qilinadi. Zero, tazkiralar zamirida adabiy tanqid va adabiyot nazariyasi uyg‘unlashgan bir davr edi. Jumladan, tazkirada zikr etilgan: Anjumiy, Ibn Changiy, Ibn Yamin, Unsiniy O‘ratepagiy, Ashrafiy, Avzaliy Ashkiy Samarqandiylarning ijodini tahlillar bilan keltiradi. “Ashrafiy – ta’bi g‘oyatda aniq va so‘zlari nihoyatda tiniq. Yaxshi she’rlari bor va she’r fanida mahorat ko‘rsatadi. Muammo amallarini juda yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lib, bu sohada qilni qirq yoruvchi bilimdonlar ta’biga ma’qul bo‘lgan risolalar bitgan”. Shu bilan birgalikda muallif Ashrafiyning tazkiranavis ijodiga bergan bahosini ham eslatib o’tadi: “Aruz ilmida ham mening fikrlarimga o‘z munosabatini bildirdi va uning bayon etgan so‘zlari maqbullikdan xoli bo‘lmay, bu sohani yaxshi o‘zlashtirganidan darak bermoqda. Masnu’ – ta’rixlar yaratishda ham mohirligi ko‘rinib turibdi. Ammo ma’rakagirlik va tilanchilik qilishi uning olimlik va fozillik xislatlarini bekitgan edi”:

Tazkira muallifi bir “Maqta”ni tahlil etar ekan: “Yashirin qolmasinkim, ikkinchi ta’rix “gu umru davlat poydor” so‘zlari bo‘lib, unda ikkita son ortiqchadir. Ammo “vajhi ta’miya” yo‘li bilan ularning soqit qilingani, ya’ni tushirib qoldirilganini “burram sari badxox,” so‘zlaridagi soqit bo‘lgan “bi” ko‘rsatib turibdi va ana shu usul orqali ta’rix to‘liq va to‘g‘ri holat kasb etadi”, – deya izoh beradi. Misol, “Maqta’:

Xoham chi guyam Mutribiy az jon duoi davlatash,
Burram sari badxohro, gu: umru davlat poydor.
Mazmuni:
Ne deyin axir, Mutribiy, jondan davlati duosin,
Dushmanning boshin kesgum, de: umru davlat poydor.

Mutribiy asarda poetik ramzlarni ham, badiiy sa’natlar va janrlarning tahliliga ham alohida ahamiyat beradi: “Badiiy tasvir vositalarning eng murakkab turlarini ham izohlab, sharhlashga harakat qiladi. Jumladan, Alfiy Shomiy faoliyatini baholay turib, uning noyob tasvir vositalaridan unumli foydalanganligini e’tirof etadi va misol keltiradi. Unda tadvir (mudavvir – N.J.,I.A.) san’ati qo‘llanilgan. Mutribiy ba’zi o‘rinlarda g‘azallarni tahlil qilib, bahrni kitobning hoshiyasiga yozib ketadi. Shoir Avzaliyni esa zehni yetuk, fasohatli shoirlardan bo‘lgani, she’riyatning ilmi badi’ va qofiya ilmida zehni yetukligini ta’kidlaydi. Sultonlar va ammo shoirlarga badiha bitgani va shohlar nazariga tushgani

diqqatga sazovor bo‘lgani uning o‘tkir zehn egasi ekanligidandir:

“Janob Mir topshiriqqa binoan javobida shunday dedi. Bayt:

Bulbulmonand dar chaman xomush,
Zog‘ro bin ki dar navo shuda ast.
Mazmuni:
Bulbullar chamanda xomush erur,
Qarg‘ani ko‘r navoga kirishibdi.

Janob Mir ilgari paytlarda zamon shoirlari va fozillari bilan majlis va yig‘inlarda o‘tirib-turishar va chechanlik-fasohat to‘pini so‘zamollik-balog‘at chovgoni bilan olib qochib, amirlar va sultonlardan yaxshigina mukofot-u sovrinlar olardi” , – deya ma’lumot beradi.

“Tazkirat ush-shuaro” asarining Birinchi qismida zikr etilgan shoirlardan ba’zilarida ijtimoiy muhitning qiyinchiliklar tufayli ijodiga nisbatan ijodidan past baholangan shoirlar ham uchrab turadi: “Aminiy Ma’rakagir Buxoro shahridan. Atrofiga odam yig‘ib, she’rlar o‘qib berish yo‘sini, ya’ni ma’rakagirlik bilan turmush kechiradi. Ma’raka-yig‘in asnosida qadimgi shoirlar va zamondosh fozillarning taqrib yo‘sinida bitilgan chiroyli, yetuk qasidalarini o‘qib beradi hamda hech kim eshitmagan ajib-u g‘arib voqealarni zikr qiladi. Sog‘lom ta’bi va o‘tkir zehni bor” .

Tazkiraning boshqa bir o‘rnida esa Odamiy Samarqandiy – Samarqandning odamzodalaridan. Yuksak ta’bi va dilga yoquvchi so‘zlari bor edi. She’rlari o‘tirish va majlislarda ko‘p tilga olinar va bahs-u munozaralarga sabab bo‘lardi. Yuz tuzilishi shunaqa ediki, uni ko‘rgan kishining Odamiyning shoir ekanligiga sira-sira ishongisi kelmasdi. Mashhur xushta’blardan bo‘lsa-da, kambag‘alligi sababli odamlar orasida unchalik hurmat qozona olmadi” , – deya izoh beradi.

Xulosa qilib aytganda, Muallif adabiy parchalarni tahlil qilar ekan, shoirlarning ijodini tarixiy voqealar va she’riy namunalar bilan bir qatorda, kichik hikoyalar keltirish bilan ham tadqiq etishga harakat etadi. Misol uchun, Nuh alayhissalomning ismining kelib chiqishi haqidagi hikoyatdan tazkiraning naqadar muhim adabiy manba ekanligiga amin bo‘lamiz. Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”sida o‘zidan oldingi tazkiranavislar singari an’anaga muvofiq ravishda, ijodkorlarning ijodini xolisona baholab, keyin uning shaxsiyatini keltirib o’tadi.

Muallifning “Tazkirat ush-shuaro”si o’z zamonasining tarixiy tazkiralaridan bo‘lib, ijodkor asarda 600 ga yaqin shoh-u shoirlar, so‘fiylar haqidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Ularning har biriga alohida baho berib, ijtimoiy adabiy jarayonni ham baholab berishga harakat qiladi. Shoirlar ijodini baholashda adabiy muhit va adibning badiiy qarashlarini sinchiklab o‘rganib, xolisona yo‘l tutadi. Shoirlarning ijodini baholar ekan, ularning zehni va g‘azalgo‘ylik mahoratini ham taroziga qo‘yadi.

Mutribiy tazkirasining o’ziga xosligi shundaki, unda muallif yashagan mazkur davr adabiy-ilmiy jarayonining xususiyatlari, turli tabaqa ijodkor-vakillarining ijodi keng tahlil qilingan. Natijada esa, ijodning, adabiy jarayonning yutuqlarini nazariy va amaliy jihatdan baholab bergan. Asarni chuqur tadqiq etish davr adabiy jarayoni borasida keng qamrovli ilmiy xulosalar chiqarishimizga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. – T.: Fan, 1978.
2. Abdullayev V.A. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: O‘qitvchi, 1980.
3. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirsh. I qism. – T.: “Tamaddun”, 2022.
4. Abdullayev V.A. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: O‘qitvchi, 1980.
5. I.Bekjanov. Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush shuaro”. – Toshkent: “Mumtoz so‘z sehri”, 2013.
6. Адизова, И. (2024). Tazkiralarda shoiralar ijodining talqini. Узбекистан: язык и культура, 1(2), 4-20.
7. Jumaxo‘ja, N., & Adizova, I. (2020). O‘zbek adabiyoti tarixi:(XVI-XIX asr I yarmi) O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan 5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik. Innovatsiya-Ziyo.
8. Shayz Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. “Funun ul- balog‘a” (Nashrga tayyorlovchi A. Hayitmetov). – T.: Xazina,1996.
9. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. Birinchi kitob. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 247-bet.
10. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti,1970.
11. Internet ma’lumotlari:
www.ziyo.uz
www.xurshid davron.uz
htpps:saviya.uz

Shamshoda HAMDAMOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

O‘ZBEK ILMIY FANTASTIKASIGA JAHON ADABIYOTINING TA’SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada Hojiakbar Shayxov ijodi hamda Ayzek Azimovning “Koinot oqimlari” romanidagi ilmiy fantastika, undagi mushtarakliklar va o‘ziga xosliklar qiyoslanadi. Xayoliy o‘zga sayyoralardagi hayot, yerliklar va o‘zga sayyoraliklar munosabatlari, insonning olis sayyoralarga ta’siri va aksincha o‘zga sayyoralarning insoniyat taqdiridagi o‘rni masalasi yoritiladi. Har ikkala adib ijodidagi ilmiy fantastik bashoratlarning bugungi ro‘yobi tahlil qilinadi va fan yutuqlarida ilmiy fantastikaning o‘rni izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *Verga sayyorasi, Florina va Sark sayyoralari, Kirk, Uran moddasi, Goldva yulduzi, gollaktika, kristallar, ilmiy fantastic bashorat.*

Annotation: in this article first and foremost, the work of Hojiakbar Shayxov and Ayzek Asimov's novel of "Koinot oqimlari" , it's scientific fiction, mutual character, originality as well, are compared. Moreover, the issues of imaginary life of other planets, attitudes of earthlings and aliens, the effects of humanity to the life of extraterrestrial beings or vice versa are defined. On top of that, today's coming trues of science fictions of both writers are analyzed and the role of fiction in science achievements is explained.

Keywords: *the planet of Verga, the planets of Florina and Sark, chemicals of Kirk and Uran , the star of Goldva, space, crystals, science fiction predictions.*

Аннотация: в данной статье сравниваются произведения Ходжиакбара Шайхова и научно-фантастический роман Айзека Азимова «Космические токи», их общие черты и особенности. Жизнь на воображаемых чужих планетах, взаимоотношения землян и инопланетян, влияние человека на далекие планеты и наоборот, будет освещен вопрос о роли инопланетян в судьбах человечества. Анализируется сегодняшняя реальность фантастических предсказаний в произведениях обоих авторов и поясняется роль научной фантастики в достижениях науки.

Ключевые слова: *планета Верга, Планеты Флорина и Сарк, Кирк, Материя Урана, Звезда Голдва, Холгалактика, Кристаллы, Фантастическое пророчество.*

Badiiy adabiyot inson xayolotining mahsuli ekan bu xayolot novatorona ruhga ega bo‘lishi bilan bir qatorda yana qaysidir bir xayol mahsulidan ilhomlanadi, yaxshi ma’noda unga taqlid qiladi, uni rivojlantiradi va yuksaltiradi. Badiiy asarlarda ayrim voqea-hodisalar o‘xshash bo‘lishi mumkin. Bu adabiy aloqalarning, badiiy ta’sirning natijasi, albatta Shu bilan birga, fikr ko‘chuvchi ham bo‘lishi mumkin. Bir kishining xayoliga kelgan g‘oya va fantaziyalar unga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan ikkinchi bir kishining ham xayoliga kelishi mumkin. Zero, antik adabiyotning ibtidosi bo‘lmish Homer dostonlarini ming yil avval yashagan “Alpomish” dostonining yaratuvchilari bilgan ham emas. Shunday bo‘lsa-da, Alpomish ham, Odisseya ham musofir yurtlarda asirlikda bo‘ladi, bir nechta kuyovlikka nomzodlar yo biriga yo bariga turmushga chiqishini talab qiladi; ikkala dostonda ham ayollar yoriga sodiq qolish uchun nomzodlarga bajarilishi imkoni qiyin bo‘lgan shartlar qo‘yadi; bu shartni esa faqat ularning turmush o‘rtog‘i bajara oladi, har ikkala qahramon ham asl qiyofasida emas boshqa kishining shakl-u shamoyilida kelib do‘st-dushmanni aniqlaydi hamda ikkalasi ham boshqalarning kuchi yetmaydigan og‘ir yoydan o‘q uzib raqiblarini yengadi.

Bu o‘zaro adabiy ta’sirsiz badiiy mushtaraklikka bir misol bo‘lsa, avval tarjimachilik, bosma nashr, va nihoyat internet rivojlangach, ijodkorlar o‘rtasida ham biri ikkinchisidan ilhomlanish va adabiy ta’sir rivojlandi. Ayniqsa, ilmiy fantastika yo‘nalishida bu ta’sir kuchli. Mavjud va xayoliy sayyoralarga sayohat, inson organlarining ko‘chirilishi, sun’iy odam yaratish, yasharish va abadiy hayot sirlarini kashf qilish, yangidan-yangi texnik qurilmalar, inson kelajagining taraqqiyoti va tanazzuli kabi masalalar ilmiy fantastik ijodkorlarning asarlarida turli yo‘sinda yoritilmoqda. Bir adib o‘z qahramonini Marsga yoki Uranga sayohat qildirdi degani endi boshqa yozuvchilar o‘zga sayyoralar mavzusini tinch qo‘ysin degani emas. Vaholanki, u asarni boshqa yozuvchilar ham o‘qiydi, qalb-qalbidan undan ta’sirlanadi hamda o‘z intellekti va taxayyuli bilan u sayyoralardan yangicha dunyolar yasaydi. Rey Bredberi o‘z asarlarida Marsga (“Marsga hujum” romanida), Veneraga (“Bir kunlik yoz” hikoyasida) Ayzek Azimov Florena va Sarkka (“Koinot oqimlari” romanida) xayoliy sayohat uyushtirgan bo‘lsa, Sa’dulla Quronov gollaktikalar aro (“Gollaktikada bir kun” va “Koinot javohiri” qissalarida), Hojiakbar Shayxov mashhur o‘zbek kosmonavti Olmos Azizovni Olmos nomli fazoviy kemada Verga sayyorasiga (“Alanga” qissasida), Reya sayyorasiga (“Reya toshlari”, “Qora tuynuk sari”, “Olmos jilosi” qissalarida) kitobxonni xayolan parvoz ettiradi.

O‘zbek adabiyotida ilmiy fantastika qiroli, tom

ma’nodagi O‘zbekning Ayzek Azimovi bo‘lgan Hojiakbar Shayxov olami…

Adibning “Alanga” nomli qissasida o‘zbek fazogiri Olmos Azizovning Verga nomli sayyorada 17-kondagi sirli kasallik jumbog‘ini yechishdagi aqliy salohiyati qiziqarli syujetda hikoya qilinadi.

Asarga ushbu she’r epigraf qilib olingan:

Inson yashar tilsimlar aro,
Har kashfiyot yangi marradir.
Uning o‘zi sirli bir dunyo,
Dunyo esa faqat zarradir. (Erkin Vohidov)

Ayzek Azimov va Hojiakbar Shayxovlar o‘z ijodlarida o‘zga sayyoralarga ilmiy fantastik ko‘zgu tutadilarki, bu ko‘zguning aksi har ikkala adib fantaziyasida ayrim o‘rinlarda mushtarak, biroq o‘ziga xos va o‘zligicha jilolanadi.

Avvalo, A. Azimovning “Koinot oqimlari” romani hamda H. Shayxovning Alanga nomli qissasini tahlilga tortsak:

Har ikkala asarga xos mushtarak jihatlar:

– tadqiqot obyekti olis xayoliy sayyora, voqealar Florina, Sark (“Koinot oqimlari”) hamda Verga (“Alanga”) sayyoralarida sodir bo‘ladi;

– tatqiqodchilar odatdagidek, fazo kemasida ekipaj bo‘lib emas, balki, yolg‘iz holda boradilar (“Koinot oqimlari” da Rig, “Alanga” da Olmos Azizov);

– vazifa Yer sayyorasidagi fazoni tadqiq qiladigan tashkilot rahbari tomonidan maxfiy holda buyuriladi (tashkilot rahbari “Koinot oqimlari”da Salim Juns, “Alanga”da Saidbekov);

– tadqiq qilinayotgan sayyora qimmatbaho tabiiy boylik manbayi va sayyoraga o’zga sayyoraliklarni jalb qilgan jihat ham shu (Florinada gollaktikadagi boshqa hech bir sayyorada o‘smaydigan, qimmatbaho mato olinadigan Kirk nomli o‘simlik o‘sadi, Kirk plontatsiyalarida mustamlaka Florina aholisi mehnat qiladi. Tayyor mahsulotga esa mustamlakachi sarkliklar ega chiqadi. Eng achinarlisi shundaki, mahsulotni yetishtiradigan Florina sayyorasi ahli hech qachon Kirk tolasidan qilinadigan kiyimlarni kiymagan, bu kiyimlar sarkliklarning mulki. Yanada dahshatlisi shundaki, skveyrlar ya’ni sarklik mustamlakachilar florinaliklarga xatto Olloh taoloning jamiki jonli-yu jonsiz yaratiqlarga ato etgan in’omi – quyosh nurini ravo ko‘rishmaydi, tortib olishadi. Bir qaraganda quyoshning ham nurini tortib olish mumkinmi, degan xayol kelishi mumkin. Ular buning iloji sifatida shaharni ikki qavat qilib qurishadi. Asarda bunga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Shahar ikki qismdan iborat edi. Uni maydoni ellik kvadrat milga teng bo‘lgan yigirma ming milga teng bo’lgan yigirma ming panjarasimon po‘lat ustun suyab turuvchi temir qotishma qatlami ajratib turardi. Pastda, ya’ni soyada mahalliy xalq yashardi. Yuqorida esa quyosh nurlaridan bahra olib skveyrlar turmush kechirardilar. Yuqori shaharda yurgan kishi o‘zining Florina ekanini batamom unutardi. Bu yerlik aholi oz sonlik nazoratchilarni olganda ham faqat sarkliklardan iborat edi. Ular tom ma’nodagi oliy tabaqa kishilari edilar”.[Азимов.А. “Коинот оқимлари”, “Ўзбекистон”2017-йил]

Pastki shahar ta’rifi: “Osmonda quyosh charaqlar, uning nurlari temir qotishma qatlami bo‘ylab darchalardan taqsimlangandek bir tekisda tushar ekan, atrofdagi qorong‘ulikni yanada bo‘rttirib ko‘rsatardi… Ular to‘rt ustun joylashgan, yerdan to yuqori shaharga yetadigan qurilma qarshisida to‘xtashdi, bu lift edi… Sarkdagi barcha shaharlar kabi yuqori shahar g‘oyat serjilo va rangorang edi. Hech qanday o‘simlik yo‘q, faqat katta-katta toshlar va ranglar. [Азимов.А. “Коинот оқимлари”, “Ўзбекистон”2017-йил]

“Alanga” qissasida esa Verga sayyorasida dunyodagi eng qimmatbaho metal bo‘lmish plotina ajratib olinadigan uran moddasining katta miqdordagi zahiralari topilgan va yuqoridagi asardan farqli ravishda konlarda yerlik odamlar ishlaydi. Endi ular qora ishchi emas fazo ilmining yetuk mutaxasislari, injenerlar, mexaniklar, geofiziklar, geologlar edilar va mehnatlari ham bilak kuchi, peshona terigamas, aqliy faoliyatga qaratilgan. Ishni aqlli robotlar, zamonaviy mexanizmlar bajaradi. Ishchilarning vazifasi faqatgina ularni boshqarib va nazorat qilib turish. Qissada sayyora ekologiyasi va hayoti quyidagicha ta’riflanadi:

“Verga – uncha katta bo‘lmagan va geografik nuqtayi nazardan e’tiborga arzigulik hech narsasi yo‘q oddiy sayyoralardan biri. Hayot bu yerda eng ibtidoiy bosqichda bo‘lib, atmosferasi siyrak, suvi tanqis edi. Bir necha yil avval sayyoraning tog‘li hududlarida uran rudasining katta zaxirasi mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Shunda Vergaga Yer sanoati uchun g‘oyat zarur xomashyo ishlab chiqarish maqsadida geologik ekspeditsiya yuborildi. Bu yerda yaxshigina baza va qator kon tarmoqlari barpo etildi.

Verga asosan, qumli sahrolar va Yerdagiga nisbatan ancha past tog‘lar va tepaliklardan iborat kimsasiz sayyora edi. Yerliklarda unga nisbatan qiziqish uyg‘otgan birdan bir narsa bu sayyoraning boy tabiiy resurslari edi. Hamma xodimlar sintetik kotejlarda turadi. Qudratli uran ko‘prigi Verga-Pluton yer marshrutidagi barcha ishlar uzluksiz va mo‘tadil davom etayotgandi. Qizig‘i shundaki, Vergada hech qanday o‘simlik o‘smas, yuk va possajir raketalari sayyoraga faqat Plutondan borishi mumkin edi

[Shayxov.H “Olmos jilosi” “Yosh gvardiya”1983-yil]

Ilm-fan taraqqiyoti bilan bog‘liq ilmiy fantastik bashoratlar uchrashi:

“Ular Diomagnit rollardan Shahar chekkasidagi to‘xtash joyida tushishdi. Terens to‘xtash joyi eshigini yopib elektron qulfni barmog‘i bilan muhrlaguncha Rik kutib turdi”. Азимов.А. “Коинот оқимлари”, “Ўз-

бекистон”2017-йил]

“Azizov Plonetaxodga o‘tirishi bilan avtohaydovchi ishga tushdi… [Shayxov.H “Olmos jilosi” “Yosh gvardiya”1983-yil]

Ko‘rinadiki, har ikkala bashorat ham yillar o‘tib o‘z kashfini topdi va bugun hayotga tatbiq etilmoqda. Insonning barmoq izlari bilan ochiladigan sensorli eshiklar, haydovchisiz, ya’ni sun’iy intellekt boshqaradigan mashinalar bugungi kunda hayotimizga kirib keldi.

– Rikning tatqiqotlari natijasida, Florena sayyoraning nur manbayi, ya’ni quyoshi vodorod va geliydan tashkil topgan koinot oqimlari to‘qnashuvi natijasida portlash yuz berib, tez fursatda Florina sayyorasi yo‘q bo‘lib ketishi hamda agar aholi zudlik bilan boshqa sayyoraga evakuatsiya qilinmasa sayyoradagi bu turning yo‘qolib ketish xavfi borligini aytadi. Aholi sayyoradan ko‘chiriladi va millionlab insonlar hayoti saqlab qolinadi.

Hojiakbar Shayxovning biri ikkinchisining mazmuniy davomi bo‘lgan “Reya toshlari”, “Qora tuynuk sari”, “Olmos jilosi” qissalarida Florenaning taqdiriga o‘xshash holat Reya sayyorasida yuz beradi.

H. Shayxov har bir qissasi kabi “Reya toshlari” qissasiga ham asar mazmunini ochib beradigan epigraf tanlaydiki, bu uning nafaqat ilmiy-fantastik ijodkor, balki nozik shoirona qalb sohibi ekanini ham ko‘rsatadi:

Olam mo‘jizalar berar-u bizga,
Evaziga faqat hayrat so‘raydi. (Qaysin Quliyev).

Epigrafi keltirilgan “Reya toshlari” qissasida sayyoraga quyidagicha ta’rif beriladi: “So’ngsiz toshloq maydonlar, quyoshning ayovsiz nurlaridan qovjiragan sahro, g‘orlar va jarliklar, osilib turgan qoyalar, qotib qolgan lavalarning ulkan tillari… Sayyoraning deyarli butun sahni yassi toshlar bilan to‘la edi. “Reya so‘nib borayotgan Goldva qizil yulduzi orbitasida aylanadigan yagona sayyora edi. O‘rta asrlarda sharqning qadimiy Rey shahrida yashab o‘tgan noma’lum munajjim kashf etgani uchun sayyoraga Reya nomi berilgandi. Biroq ko‘p milliard yillar avval Goldva yulduzi o‘zining so‘nish davriga kirgandi. U sekin-asta nursizlanib o‘z quvvatini yo‘qatayotgandi.”.

Atrofidagi orbitalarning diametri kichrayib birin-ketin qizil yoritgichga qulagan edilar. Endi Reyaga navbat yetgandi”.

[Shayxov.H “Olmos jilosi”, “Yosh gvardiya” 1983-yil] Olmos kemasi Reyaning sun’iy yo‘ldoshiga aylanib atrofida kezadi va keyin sayyoraga qo‘nishadi. Faqat Reya sayyorasining mahalliy aholisi insonlar emas kristal toshlar bo‘ladi. Ular florinaliklar kabi faqat mehnatni biladigan bo‘ysunuvchan, o‘z haq-huquqini ham, erkini ham bilmaydigan omi insonlar emas balki taraqqiyotda yerliklardan ancha ilgarilagan fan va texnikani o‘zlariga bo‘ysundirgan intellektual mavjudotlar bo‘ladi. Ularning fanda rivojlanishi, xuddi Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanidagi To‘qayto‘sh sayyorasi aholisini eslatadi. Ammo to‘qayto‘shliklar ham, florinaliklar ham garchi tashqi ko‘rinishlarida farqlanishlar bo‘lsa-da, inson shaklida edilar.

To‘qayto‘shliklar aloqa vositasi sifatida signallardan, ya’ni Morze alifbosidan foydalanishgan bo‘lishsa, reyalik mavjudotlar aloqaning dastlab g‘ayrioddiy shaklidan foydalanadilar. Muloqotga chorlash uchun ustun yasaydilar va uni sayyora tortishish kuchi ta’sirida yiqilib tushishini ko‘rsatish orqali Reyaning tanazzulini o‘zga sayyoraliklarga ya’ni Olmos Azizov va uning sherigi bo‘lmish Adamga anglatadilar. Ekrandagi videotasvirlar orqali sayyoraning tobora kichrayib borayotganini va aholining ma’lum bir qismini konteynerga solib hayot mavjud boshqa sayyoraga olib ketishlarini iltimos qiladilar. Azizov shu konteynerni olib kelib sayyoradagi butun boshli bir turning yo‘qolib ketishini oldini oladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir xalq adabiyotining rivoji uchun tug‘ma iste’dod egalari bo‘lishi bilan birga adabiy aloqalar, badiiy ta’sir va ilhomlanish tuyg‘usi ham umrboqiy asarlarga va buning ta’sirida jahonshumul kashfiyotlarga debocha bo‘lishi fan isbotlagan haqiqatdir. Anre Puankarening shunday fikrlari bor:”Har bir mamlakatning buyukligi shu yurt farzandlarining axloqiy fazilatlarida, adabiyotdagi yutuqlarida hamda ilm-fandagi kashfiyotlarida namoyon bo‘ladi”. [Yo‘ldoshov A. Puankare Jahon adabiyoti” jurnali.2012-yil] Shubhasizki, ilmiy fantastik asarlar yoshlarimizni shunday buyuk kashfiyotlarga undaydi va ilhomlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Азимов.А. “Коинот оқимлари”, “Ўзбекистон”2017-йил
2.Aytmatov. Ch. Asrga tatigulik kun. Yoshlar nashriyot uyi.Toshkent-2018
3. Yo‘ldoshov. A. “Puankare”,”Jahon adabiyoti” jurnali.2012-yil
4. Shayxov. H. “Olmos jilosi”. “Yosh gvardiya”1983-yil

Dilnavoz SHAHOBIDDINOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
Gmail:shahobiddinovadilnavoz321@gmail.com

INGLIZ TILIDA JISMONIY MADANIYAT YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kasbiy-kompetentlik tushunchasi ochib beriladi hamda jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarida ingliz tilini o‘qitishda kasbiy-kommunikativ kompetensiyaga asoslangan yondashuvi asoslab beriladi va kasbiy faoliyatida ingliz tilidan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari, muammo va yechimlari keltirib o‘tiladi. Muammoning ko‘rib chiqilgan yechimlarini sinab ko‘rish uchun eksperimental ma’lumotlar keltirib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, yondashuv, ko‘nikma, eksperimental ma’lumot, turdosh manba.*

Annotation: the article substantiates the term professional competency and the approach to teach English for the professional-communicative competency of physical education field’s students as well as the skill of using English in the profession with its problems and some solutions. The expremential information is also added to the solutions in the article.

Keywords: *competency, professional competency, communicative competency, approach, skill, expremental information, authentic material.*

Аннотация: в статье обосновывается термин «профессиональная компетентность» и подход к обучению английскому языку для профессионально-коммуникативной компетентности студентов физического воспитания, а также умения использовать английский язык в профессии, его проблемы и некоторые пути решения. К решениям в статье также добавлена экспериментальная информация.

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, коммуникативная компетентность, подход, умение, экспериментальная информация, аутентичный материал*

Kirish. Ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetentlik tushunchasi shaxsning o‘z kasbiy yo‘nalishi taqozosi jihatidan, shu kasbi doirasida ingliz tilini qo‘llay olish qobilyati, layoqati tushuniladi.

Yurtimizda xorijiy tillarni o‘rganish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilishi, bo‘lg‘usi ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, xorijiy tillarni o‘qitish sifati va darajasini muntazam ravishda oshirish, bitiruvchilar uchun qo‘yiladigan milliy va jahon standartlariga mos keladigan talablarni o‘zlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-son qarorlariga muvofiq ravishda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida ushbu yo‘nalishda malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsad qilib qo‘yildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Nofilologik yo‘nalishlardan biri bo‘lgan jismoniy madaniyat sohasi talabalari uchun olib borilayotgan va tashkil qilingan ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan o‘quv qo‘llanma va majmualar bilan tanishishga harakat qildik. Ingliz tili darslarida kasbiy-kommunikativ kompetensiyaga asoslangan yo‘nalish va dasturlarni guruhlashtirib olib tahlil qilish ishlarini reja qilib oldik.

Belgilangan muammoni hal qilish va unga yechim topish uchun quyidagi vazifalarni oldimizga qo‘yib oldik:

– Ushbu muammo yuzasidan mavzuga doir barcha ilmiy, psixologik, didaktik, huquqiy adabiyotlar bilan tanishib chiqish;

– Ushbu masala bo‘yicha fanga doir barcha adabiyotlar, ilmiy maqola, tezis va o‘quv qo‘llanmalar bilan tanishib chiqish;

Ingliz tili darslarining mavzusi darajasida jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun kasbiy kompetensiyaga asoslangan yondashuv mezonlarini topish va belgilash;

– Ingliz tili darslarida kommunikativ kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish ishlarini tashkillashtirish, tanlangan usullarni amalga oshirish.

Buning uchun ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha tizimli bosqichma-bosqich ishlar belgilab olindi. Dastur bo‘yicha talabalar ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasiga ko‘ra asosiy boshlang‘ich grammatikani bilish, kasbi doirasidagi terminlarni ingliz tilida tushuna olish va ingliz tilida uni ifodalay olish,

kasbiy faoliyati nuqtayi nazaridan muloqotga kirisha olish va kasbiy ma'lumotlar bilan ingliz tilida tanisha olish kabi talablarga javob bera olish kerak.

Kommunikativ kompetensiya nima?

"Kommunikativ kompetesiya – bu o'quvchilarning o'zgalar nutqini tushunishi, o'zining og'zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo'lishi, nutq vaziyatiga mos bo'lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi " - deb ta'rif beradi Olloqova O'g'iljon o'zining shu mavzudagi maqolalaridan birida.

Avvalo, jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida kommunikativ kompetensiya nima savoliga javob topib olishimiz kerak. Vohid Korayev maqolalarining birida "Kommunikativ kompetensiya turli xil ma'lumotlarni olish, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini rivojlantirish bo'yicha munozara o'tkazish va bu muammolar bo'yicha reja ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishdir. Tengdoshlari faoliyatini tahlil qilish va baholash, atrofdagi voqealar va odamlar bilan o'zaro aloqaning turli usullaridan foydalanish, jamoada ishlash jamoadagi turli xil ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu kompetensiyaning shakllanishi darsda talabalar faoliyatini tashkil etish orqali yuzaga keladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun o'yinlar (boshlang'ich sinflarda harakatli, yuqori sinflarda sport o'yinlari) katta ahamiyatga ega. O'yinlarda talabalar jamoada o'zaro munosabatda bo'lishni, umumiy natija uchun kurashishni, individual vazifalarni bajarishni o'rganadilar. Kommunikativ kompetensiyani darslarda turizm va sport turlariga yo'naltirish orqali rivojlanish mumkin bo'ladi. Chunki, turizm talabalardan nafaqat, sportni, balki, mahorat, o'zaro aloqa, hamkorlik, aniq belgilangan vazifalarni bajarishni ham talab qiladi " - deb ta'kidlab o'tgan.

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini ingliz tilida shakllantirish deganda sport mashg'ulotlarida muloqotga ingliz tilida kirisha olish ko'nikmalarini shakllantirishni ham tushunish mumkin. Xalqaro sport musobaqlarida ingliz tilida hakam nutqini va ko'rsatmalarini tushuna olish hamda savol berilganda tushunish, javob bera olish ham kasbiy-kommunikativ kompetensiyani ingliz tilida shaklantirishdagi ko'zlangan maqsadlardan biridir. Ushbu kompetensiyani shakllantirishda dars jarayonida turli xil o'yinlardan, metodlardan, turdosh vositalar(ingliz tilida yaratilgan har qanday vositani ta'lim jarayoniga ta'lim maqsadida olib kirish, ingliz tilida "authentic materials" atamasi bilan keltirib o'tiladi.) dan foydalanish ham unumli usullardan hisoblanadi. Shuningdek, talabalarda kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda dars jarayonida turizm va xalqaro sport turlari va ularning ingliz tilida nomlanishi, tarjimasi bilan tanishtirib, ma'lumot berib ketish, yaqindan tanishtirib ketish ham talabalarda o'zaro muloqotni, hamjihatlikni rivojlantirishda yaqindan yordam beradi.

Muhokama va natijalar. Agar siz nofilologik yo'nalishdan biri bo'lgan jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalari uchun ingliz tili darslardan birini tahlil qilsangiz, bir mavzu yuzasidan talabalarning 4 ta "integrated skills-Speaking, writing, reading and listening" holida dars jarayonini olib borishini guvohi bo'lasiz. Bunda talabalarda grammar based communication (Grammatika asosida muloqot), task based communication(mashq yuzasidan muloqot) kabi ko'nikmalarini guruhlashtirilgan holda yoki yakka tartib holidagi sinflarda darslarni olib borilayotganini ko'rishingiz mumkun.

Shuningdek, dars jarayonida turli xil interaktiv metodlardan foydalanishga ham samarali usullardan biri deb qarasak xato bo'lmaydi. Dilnavoz Mardonova interaktiv metodlarni quyidagicha izohladi "Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Interaktiv metodlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular o'qituvchi va o'quvchilar bilan hamkorlikda, birgalikda faoliyat olib borishi vositasida amalga oshiriladi. Bu kabi hamkorlikdagi faoliyat o'quvchilarning bilimini kengaytirishga, kommunikativ va nutqiy kompetensiyalar rivoji uchun asos bo'ladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmuninng tarkibiy qismi hisoblanadi." Interaktiv metodlardan "Akademik munozara" hamda "aqliy hujum" usullarini ko'rib o'tsak. Bu ikkala usulda talabalar dars davomida tanlagan sohasi bo'yicha ingliz tilida savollar va bahsli vaziyatlar yaratadi va ingliz tilida javob berish, bahs-munozara orqali ingliz tilida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirishga imkon yaratadi.

Shuningdek, interaktiv metodlarga hamohang tarzda kommunikativ mashqlarni ham darsda qo'llash foydali hisoblalanadi. Olloqova O'g'iljon kommunikativ mashqalarni quyidagi guruhlarga bo'lgan:

"1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytilayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar).

2. Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar).

3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishni mashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar)"

Darslarda turdosh manbalardan unumli foydalanish darsda ko'zlangan samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, biror bir sportchining va yoki sport

turining o‘ziga bag‘ishlangan hujjatli filmni ingliz tili variantida talabalarga namoyish qilish va shu orqali ularda tinglab tushunush va tushunganini bir biriga og‘zaki muloqot orqali fikr almashish jarayoni orqali ularda gapirish ko‘nikmasini oshirish ham yaxshi samara beradigan vositalardan biri sanaladi. Va yoki, biror sport ustasining sport musobaqasidan keyin bergan intervyusini turdosh manba sifatida olib, talabalar bilan birgalikda tinglab tushunib, shu intervyu doirasida ishlatilgan sportga oid terminlar bilan ishlash, so‘zlarni og‘zaki nutqda kasbiy bog‘liq holda ishlatish ko‘nikmasini mustahkamlash ham dars jarayonidagi kasbiy-kommunikativ muloqotni shakllantirish uchun xizmat qiluvchi texnologiyalardan biri sanaladi.

“Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish” mavzusi bo‘yicha quyidagi xulosalarni olish mumkin;

1.Ta’lim jarayonida ingliz tilida talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirishga yondashgan ta’lim jarayonini tashkillashtirish ta’lim jarayonida va uning mazmunida, o‘qituvchi amaliyotida ham katta o‘zgarishlarni taqozo etadi;

2.Ta’lim jarayonida amaliyotga urg‘u bergan holda talabalarning, eng avvalo, ingliz tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish maqsadida ularni guruhlashtirish, o‘zaro muloqotga kirishishga chorlovchi guruhlashgan darslar olib borishni talab qiladi;

3. Dars jarayonida turdosh vositalardan unumli foydalanish talabalarga ham fan o‘qituvchisiga ham ancha qulayliklar va afzalliklar yaratadi. Dars jarayonida talabalar olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, tekshirib olish, taqqoslash kabi imkoniyatlarini oshiradi.

Shuning uchun darslarda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda talabalar ishlata olish uchun shart-sharoit yaratib berish o‘qituvchi zimmasidagi mas’uliyat hisoblanadi. Buning uchun ingliz tili darslarida olingan nazariy bilimlarga hamohang tarzda amaliy jarayonlarni tashkillashtirish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Nofilologik yo‘nalishlardan biri hisoblangan jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalarini ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini oshirish dars va darsdan tashqari jarayonda nazariy bilimlarni amaliy holda kasbiy faoliyatida erkin qo‘llay olish qobilyatini rivojlantirishni talab etadi. Bunda dars jarayonida kasbiy terminlar bilan keng ishlash, nazariy ma’lumotlarni talabaga yetkazib berish va mana shu nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirishda ularga yordam berish maqsadida amaliy jarayonlarni tashkillashtirish, bunda turli metod va texnologiyalardan foydalanish pedagogdan katta mahoratni talab qiladi. Amaliy muhitni yaratishda turdosh vositalardan foydalanish va ushbu turdosh vositalarni saralash, o‘quvchilar uchun muqobilini tanlash ham o‘qituvchi oldidagi vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, jahon miqyosida ro‘y berayotagan sport yangiliklari va musobaqalarda berilayotgan ma’lumotlarni turdosh manba sifatida dars jarayonida pedagog tomonidan unumli qo‘llay olish va shu asosida amaliy ingliz tili darslarini tashkil etish ham talabalarda ingliz tilini o‘rganish jarayonida qulayliklar yaratibgina qolmay, ularda kasbiy nuqtayi nazaridan qiziqishini oshishiga va kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qilishda ham o‘rni kattadir. Ingliz tili darsida jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari bilan kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirish maqsadida interaktiv usullardan-guruhlashtirish, “akademik munozara”, “aqliy hujum” kabi og‘zaki nutqini oshishiga xizmat qiluvchi usullardan foydalanish ham o‘zining sezilarli foydasini beradi. Albatta, bularning barchasiga erishish va dars davomida qo‘llay olish uchun avvalo, talalabaning o‘zida o‘zining tanlagan professional sohasining fanlari bo‘yicha kasbiy-kompetensiyasi mavjud bo‘lsagina erishsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2021-yil 19-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ- 5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex. uz/docs/- 5426736

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida chet tillar o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 610-son qarori https://lex. uz/docs/3304915 3. J. J. Jalolov. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: “O‘qituvchi”, - 2012

4. Vohid Korayev. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida kasbiy-kompetensiyaga asoslangan yondashuv. Academic research educational science, 5, 2021

5. Dilnavoz Mardonova Xushvaktovna. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda metodlarning roli. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1st January, 2023

6. Karayev V. Sh Jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda pedagogik loyihalashtirish. NamDU ilmiy axborotnomasi №-10 2020.

7. Mam Socheath. Simple ways to improve English speaking in teaching and learning. Leksika Vol. 4 No 2 – August 2010: 61-72

8.Olloqova O‘g‘iljon Mamanazarovna. Kommunikativ kompetensiya- o‘quvchining muloqot madaniyatini rivojlantirish omili. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил № 8)

Ozoda SHUKURBOYEVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
elektron manzil: o.shukurboyeva@bk.ru

ADABIYOT VA ADABIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada sun’iy intellektning adabiy ta’limdagi ahamiyati aytib o‘tilgan. O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda darsda sun’iy intellektdan samarali foydalanish hamda sun’iy ong aks etgan asarlarni o‘rganish zarurati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, robot, adabiy ta’lim, robotexnika, Chex dramaturgi Karl Chapek, ilmiy-fantastik yozuvchi Ayzek Azimov, asar tahlili, “Temir xotin”…*

Annotation: this article shows the importance of artificial intelligence in literary education. The lesson shows the importance of effective use of artificial intelligence and the study of works that reflect artificial intelligence in forming the ability to analyze artistic works in students.

Keywords: *artificial intelligence, robot, literary education, robotics, Czech playwright Karl Chapek, science fiction writer Isaac Azimov, analysis of the work, "Iron Woman"...*

Rivojlangan davlatlar ta’limi tahlil qilib ko‘rilganda, sun’iy intellekt ta’lim bozorida katta ulushga egaligini, raqamli iqtisodiyotda esa hamma sohalarni rivojlantiruvchi bir kuch bo‘lib maydonga chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yurtboshimiz tomonidan 2021-yil 17-fevralda “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, o‘sha yilning 26-avgustida esa “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlar qabul qilindi. Unga ko‘ra, bu sohani o‘rganish va tadqiq qilishga keng yo‘l ochildi.

“Asrlar davomida odamlarning aqliy mehnati samaradorligi ularning miyasi qay darajada tez ishlashi bilan chegaralangan. Ilk kompyuterlarning vazifasi mana shu chegarani buzib o‘tish, murakkab matematik hisob-kitoblar orqali shu vaqtgacha yechimi yo‘q deb bilingan muammolarga yechim topish bo‘ldi…Bugungi kunda kompyuterlar soni yer kurrasi aholisi sonidan salkam uch barobar ko‘proq”. Ulardan foydalanish insonga turli sohalarda yangi imkoniyatlar berib, ko‘makchi bir kuch vazifasini bajarmoqda. Jumladan, hozirda bu holat sun’iy intellekt bilan uyg‘unlashib ketgan. Sababi bugungi rivojlanish davrida hayotning turli jabhalarida inson o‘zi bilib-bilmagan holda sun’iy ongdan foydalanib kelmoqda.

Birgina ta’limda kerakli ma’lumotni qidirishda aqlli veb-qidiruv tizimlariga, jumladan, Google, Yandex, tavsiya tizimlari bo‘lgan You Tube, Amazon yoki tabiiy tilni tushunishda Google assistant, Siri va Alexa, o‘zga tildagi so‘z tarjimasini tezda topishda Google tarjima kabi sun’iy intellekt texnologiyalariga murojaat qilamiz. Kundalik hayotda sensorli uyali aloqa vositasida gaplashish bilan bir qatorda undan ma’lumotlarni saqlash va uzatishda, rasmga olib, uni qayta ishlashda foydalanilsa, kerakli manzilni topib borishda esa aqlli yo‘l ko‘rsatkichlari, aqlli xaritalar qulaylik keltiradi. Shuningdek, muassasalarda tartib-intizomni, kelib-ketishni nazorat qilishda, tahlil qilishda ovoz va tasvir uzatuvchi kichik kameralar yoki yuz tanuvchi aqlli qurilmalardan foydalanamiz. Aslida bular ham sun’iy intellektning bir ko‘rinishi bo‘lib, uning hayotimizga allaqachon kirib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

“Sun’iy intellekt” so‘zi ingliz tilidagi “artificial intelligence” so‘zidan olingan bo‘lib, inson aqliga taqlid qila oladigan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyaning bir sohasi hisoblanadi. Ushbu iboradagi sun’iy so‘zi biror usul bilan tabiiyga o‘xshatib yasalgan, notabiiy, soxta ma’nolarini anglatsa, ikkinchi “intellekt” so‘zi lotincha intellectus aql-idrok, tasavvur ma’nolarini berib, kishining aqliy rivojlanganlik darajasi va zehnini anglatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, sun’iy intellekt atamasini insondan tashqaridagi sun’iy zehn va sun’iy aql-idrok deya tushunish mumkin.

Sun’iy intellekt 1956-yilda Dartmouth kollejida o‘tkazilgan mashhur Darmouth seminaridan so‘ng paydo bo‘lgan. Ushbu anjumanda John McCarthy bu atamani birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi sifatida kirgan. Bu sohada olib borilgan dastlabki tadqiqot muallifi esa Alan Turing hisoblanadi.

Sun’iy intellekt – ilgari faqat insonlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarishga imkon beradigan, inson miyasiga taqlid qiladigan, ixtirochi-mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan dasturdir. U fan va texnologiyaning bir sohasi bo‘lib, inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan sun’iy intellekt namunalarini yaratadi. Endilikda sun’iy ong ta’lim olish, fikrlash, mantiqan so‘z qurish xususiyatlarini bajarmoqda. U dasturchi mutaxassislar joylashtirgan algoritmlarga tayangan holda mustaqil ravishda rivojlanadi va o‘z faoliyatiga o‘zgarishlar kirita oladi. To‘g‘ri, sun’iy intellekt inson bo‘la olmaydi. Chunki unda his qilish, sezish tuyg‘ulari yo‘q. Inson miyasi Olloh tomonidan yaratilgan shunday murakkab tizimki, sun’iy ong uning bir qismiga taqlid qiladi xolos. Shuning uchun ham adabiyot ahlining ko‘pchiligi sun’iy intellekt adabiyotdan yiroq, adabiyot esa his-tuyg‘u mahsuli deb qarashadi. Ammo bu

tushuncha ilk marta adabiyotda, ya'ni fantastik asarlar qa'rida inson qiyofasidagi robotlar shaklida paydo bo'lganligiga e'tiborni qaratish lozim.

Hozirgi kunda adabiy ta'limga ham sun'iy intellekt turli ko'rinishlarda, jumladan, ta'lim beruvchi robotlar, dasturlar holatida yoki darslarda o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi sun'iy intellekt texnologiyalari ko'rinishida kirib kelib ulgurgan. Shuning uchun u adabiyot va adabiy ta'limda bir tadqiqot sifatida o'rganilishga, uning yaxshi tomonlari kashf etilishga muhtoj.

Sun'iy intellektni fantastik asarlar hamda filmlarda aks etganidek, dunyoni egallab olishga harakat qilayotgan robotlar tarzida tasavvur qilmasligimiz hamda u darajada xavotirli deb bilmasligimiz lozim. Bunga sabab sun'iy intellekt butkul inson bo'lib olishga, uni almashtirishga mo'ljallanmaganligi, balki insonning ko'nikma va layoqatini kengaytirish, turli sohalarda mushkulini oson qilish, yuklatilgan vazifalarni aql bilan boshqarish hamda bajarish maqsadida yaratilganligidir. To'g'ri, ayrim asarlarda yoki filmlarda sun'iy zehn dunyoni egallab olayotgan, inson bo'lishga da'vo qilayotgan shafqatsiz robotlar ko'rinishida bo'lishi yoki aksincha, insonning qalbini tushuna oladigan, uni his qilish qobiliyatiga ega mehribon temir odam holatida tasvirlanishi mumkin. Ammo bu sun'iy intellektning adabiyotdagi badiiy tasviri xolos.

Sun'iy intellekt robotlardan tashqari turli dasturlar va qurilmalar ko'rinishida ham bo'lishi, u mayda bo'laklarga bo'lingan holda ko'pgina qurilmalar tarkibida mavjud bo'lishi mumkin. Shu o'rinda robot so'zi ham adabiyotda paydo bo'lganligini, uni 1921-yilda Chex dramaturgi Karl Chapek qo'llaganini aytib o'tish joiz. Robot bu dasturlashtirilgan mexanik qurilma bo'lib, u insonning yordamisiz tashqi muhit bilan ishlashga va vazifalarni bajarishga qodir. Jumladan, ta'lim robotlari zamonaviy ta'lim tizimida o'rta va oliy maktablar texnologiyalarini turli fanlar bilan birlashtirgan o'qitishning usullarini izlaydi.

Robotatexnika esa robotlarni ishlab chiqarish va ishlatishning ilmiy-texnik asosidir. E'tiborlisi, robotatexnika so'zi ham ilk bor adabiyotda paydo bo'lgan. Undan ilk bora 1941-yilda taniqli ilmiy-fantastik yozuvchi Ayzek Azimov foydalangan. Mana shundan ham bir paytlar xayol mahsuli bo'lgan narsalarning keyinchalik real hayotda yaratilganini anglashimiz mumkin.

Bugungi kunda adabiy ta'limda sun'iy intellektning o'rni qanday, u o'qituvchi va o'quvchiga qanday ko'mak bera oladi, uni adabiy ta'limga kiritishning ahamiyati qanaqa kabi savollar paydo bo'lishi tabiiy. Albatta, boshqa sohalar singari adabiy ta'limda ham sun'iy ong o'rganilishga muhtoj. Jumladan, adabiy ta'limda uni ikki yo'nalishda o'rganish muhimligini tavsiya qilishimiz mumkin. Birinchi tomondan sun'iy intellekt yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchiga bilim berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish, ikkinchidan, sun'iy intellekt aks etgan badiiy asarlar tahlilini olib borish, o'quvchiga tushuntirish.

1. Sun'iy intellekt yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchiga bilim berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish:

Sun'iy intellektning rivojlanishi barcha sohalarda real foyda keltirishga yo'naltiradi. Jumladan, sun'iy intellekt adabiy ta'limda nimalar qilib bera oladi?

– ertaklar, dostonlar, masallar asosida sun'iy intellekt multifilmlar, kichik metrajli filmlar yaratishi, natijada kam xarajat sarflangan holda ko'pgina yaxshi ertak hamda masallarimiz multifilm qilinishi mumkin. Bizda o'quvchilarga mo'ljallab tayyorlangan yaxshi multifilm hamda filmlarimiz juda oz bo'lib, ularning ko'payishi o'quvchi tarbiyasida, ularning badiiy adabiyotga qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Agar o'quvchida bu sohada yetarli qiziqish va bilim orttirilsa, keyinchalik uning o'zi ham sun'iy ong yordamida multfilm va filmlar olish darajasiga yetadi.

– Sun'iy intellekt yordamida badiiy asar voqealari, asarda ifodalangan tabiat tasvirlarining rasmlarini chizish hamda asar qahramonlari portretini yaratish mumkin. Ko'rgazmali holda o'tilgan dars qiziqarli hamda yodda qolarli bo'ladi. Badiiy asarlarning tasvirli bo'lishi kitob o'qishdan qochayotgan o'quvchini o'ziga chorlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, sun'iy intellekt yordamida yurtimizdagi dasturchi-mutaxassislar to'plangan belgilar va ma'lumotlar asosida Alisher Navoiy hamda jadid ijodkorlarining portretini rangli va detallashtirgan holda qayta yaratishdi. Qo'shimcha qilib bunga ko'gina asar qahramonlarini, jumladan, Zaynab, Kumush tasvirlarini ham kiritish mumkin. Shuningdek, "Boburnoma" asarida berilgan aniq ma'lumotlar asosida shaxslar va joylar tasvirini yaratish ustida ish olib borishmoqda. Albatta, bu hol adabiyot va adabiy ta'lim uchun juda quvonarlidir.

–Sun'iy ong yordamida adabiyot darsliklaridagi mavzularni tizimlashtirish, ovozlashtirish mumkin. Bu o'qituvchiga ko'mak berib, o'quvchining mustaqil o'rganishiga sharoit yaratadi.

– Sun'iy intellekt yordamida go'zal nutqli notiqlarimizning ovozini qayta yaratishimiz yoki vafot etib ketgan shoirlarimiz ovozini xuddi o'zinikidek qayta tiklab, she'rlarini sun'iy intellektga o'qittirishimiz mumkin. Bu esa o'quvchiga lirik asarni, nutqni o'zi sevgan ijodkor ovozida eshitish imkonini beradi. Yurtimiz ixtirochi-mutaxassislari ham mashhur ijodkorlar va notiqlarimizning ovozlarini xuddi o'zlarinikidek qilib sun'iy intellekt yordamida qayta tiklashdi.

– Sun'iy intellekt sabab ta'lim barchaga arzon, ommabop bo'lib, uzviylik kasb etishi mumkin. Jumladan, mobil ilovalar, dasturlar o'zlashtirilmagan mavzuni turli yo'llar bilan o'quvchiga qayta tushuntirib berish imkonini beradi. Bunga misol sifatida she'riy san'atlarni, turli darslikda berilgan bir muallifga tegishli tarjimayi hol va shu kabi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda qayta o'rgatishi mumkin.

– Sun'iy intellekt yordamida davlat ta'lim standartiga asoslanib dars jadvalini tuzish, adabiyot fanidan testlarni tez va oson tekshirish hamda baholash mumkin. Bu ayniqsa, imtihonlarda juda qo'l keladi. Shuningdek, shaffoflikni ham ta'minlaydi.

– Sun'iy intellekt kelajakda adabiyot fanidan ham dars o'tib, o'quvchilarning nazariy savollariga javob berishi, hatto berilgan mavzuda o'tilayotgan ijodkorning ijodidan ko'plab namunalarni yoddan aytib berishi ham mumkin. To'g'ri, adabiyot o'qituvchisining fani boshqa fanlardan tubdan farq qilganligi sababli uning o'rnini hech qanday qurilma yoki boshqa fan o'qituvchisi egallay olmaydi. Sababi adabiyot o'qituvchisi ko'ngilni tarbiyalaydi. Bunda faqatgina sun'iy intellekt unga yordamchi vazifasini bajarishi mumkin, xolos.

– Bugungi kunda o'z ustida tinmay izlangan o'quvchi sun'iy intellekt orqali mustaqil o'qishi, o'z bilimlarini yanada rivojlantirishi mumkin. Jumladan, sun'iy intellekt yordamida adabiyot faniga oid barcha nazariy ma'lumotlarni uzviylashtirgan va boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda o'rganishi mumkin.

2. Sun'iy intellekt aks etgan badiiy asarlarni tahlil qilish hamda tushuntirish.

Tarixiy hujjatlarga ko'ra, dastlabki sun'iy odam 1738-yilda fransuz mexanigi Jak de Vokanson tomonidan yaratilgan. Uning tuzilishi inson anatomiyasini eslatadigan musiqachi robot bo'lgan. U yura olmagan, lekin nayni mukammal chalgan. U robot-fleytachi lablari va harakatlanuvchi barmoqlari bilan puflama cholg'usini chalishi mumkin bo'lgan.

Milliy hamda jahon adabiyoti namunalarida aks etgan sun'iy intellekt namunalarini tahlil qilish, o'quvchiga tushuntirish muhim hisoblanadi. Chunki bugun adabiyotni o'qiyotgan, kelajakda dasturchi va boshqa kasb egasi bo'lmoqchi bo'lgan o'quvchilar uchun ham adabiyot yangi g'oyalar berishi, yangi bilimlar, fantaziyalar bilan boyitishi mumkin. Avval utopiya va fantastikaday tuyilgan narsalar bugungi kunda inson aql idrokining mahsuli sabab amalga oshmoqda. Jumladan, ertaklardagi o'zi uchar gilamlar–bugunda samolyot, sehrli ko'zgular–televizor, tasvirni ko'rsatuvchi uzuklar esa kameralar holatida namoyon bo'lgan. Birgina 1986-yilda sur'atga olingan, bugungi o'quvchi ham yaqin-yaqingacha ekranlarda tomosha qilgan "Xohlamayman" multifilmini yodga oling. Unda yalqovlar mamlakatida dangasa bolaga robot xizmat qiladi, hatto u bilan gaplashadi, alla ham aytib beradi. Mana bu ham hozirgi sun'iy intellektning bir ko'rinishidir. U o'ziga berilgan vazifalarni bajarishi bilan birga sun'iy aql orqali qisman fikrlaydi ham. Ammo yuqoridagi ikki holatdagi robotlar ham sun'iy ongga yaqin, ammo bugungi kundagi sun'iy intellekt tamoman undan o'zib ketgani bilan farq qiladi.

Shuningdek, yuqori sinf adabiyot darsligida berilgan "Temir xotin" asarida ham sun'iy intellekt namoyon bo'lgan. Undagi ko'rinishi insondan umuman farq qilmaydigan robot ayol berilgan buyruqlarni bajarishi, ammo qalbi yo'qligi, his qilish, sezish, charchash qobiliyatiga ega emasligi bilan ham inson bo'la olmasligini, odamzod Olloh tomonidan yaratilgan mukammal yaratiq ekanini ko'rsatib beradi. Ularning tahlilini o'quvchiga tushuntirish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun'iy intellekt inson mushkulini yengillashtiruvchi, unga ko'mak beruvchi bir kuch sifatida maydonga chiqqan ekan, undan adabiy ta'limda ham foydalanish yaxshi samara beradi. Chunki bugunda sun'iy ong texnologiyalaridan foydalanib dars o'tgan o'qituvchining darsi o'quvchini o'ziga yanada jalb qiladi, fanga qiziqishini orttirib, mustaqil o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt namoyon bo'lgan asarlarni o'rganish va tahlil qilish kelajakda o'quvchiga yangi bilimlar berib, kelajakdagi kashfiyotlarga asqotishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/5297046
2. https://lex.uz/docs/-5603319
3. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2017-yil 14 (774)-son, 230-modda. 233-bet.
4. A.Madvaliyev, D. Xudayberganova tahriri ostida, "O'zbek tilining izohli lug'ati". 5 jildlik- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 824-b.
5. D. Quronov –Adabiyot nazariyasi asoslari, – T.: "Akademnashr", 2018. 480-458-b.
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. 352-bet.
7. Q.Yo'ldosh- "Jilovlanmagan tafakkur mahsuli" ("Maktabda adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari"), – T.: "Tafakkur nashriyoti", 2023. – 628-bet, 147-b.
8. Rustamova N– Mediata'lim va mediamadaniyat: Nazariya va amaliyot" –T.: "Turon zamin ziyo" nashriyoti, 2016. – 132-bet
9. Narzullayev A – Puthonda dasturlash asoslari– T.: "Akademnashr", 2021.– 336-bet .
10. Enterprise artificial intellegence transformation – Rashed Haq, Hoboken: Wiley, 2020, Includes index, LCCN 2019056748 (ebook). Printed in the United States of America.
11. Robot ethics 2.0 -Edited by Patrick Lin, Ryan Jenkins, and Keith Abney. Published by Oxford University Press 2017.

Nizomiddin RAJABOV,
Buxoro Davlat Universiteti
O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi doktoranti

TILSHUNOSLIKDAGI VARIANTLILIK VA DUBLET HODISALARI LEKSIK MUNOSABAT TURLARI SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikdagi variant va dubletlar bilan bog‘liq muammolar yoritilgan bo‘lib, ularning paydo bo‘lish o‘rni, lingvistik hamda ijtimoiy ahamiyati hamda leksik munosabat turlari sifatidagi o‘rni xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *variantlar, dubletlar, leksik munosabat, leksik-lug‘aviy munosabat, leksik-shakliy munosabat, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, ijtimoiy maqbullik, donor til, vositachi til, qabul qiluvchi til, parallellik*

Аннотация: в данной статье освещаются проблемы, связанные с вариантами и дублетами в языкознании, обсуждаются место их появления, языковая и социальная значимость, а также их роль как типов лексических отношений.

Ключевые слова: *Варианты, дублеты, лексическое отношение, лексико-лексическое отношение, лексико-формное отношение, собственный слой, приобретенный слой, социальная приемлемость, язык-донор, язык-посредник, язык-реципиент, параллелизм.*

Abstract: this article highlights the problems associated with variants and doublets in linguistics, discusses the place of their appearance, linguistic and social significance, as well as their role as types of lexical relations.

Keywords: *variants, doublets, lexical relation, lexical-lexical relation, lexical-form relation, own layer, acquired layer, social acceptability, donor language, intermediary language, recipient language, parallelism.*

XX asr o‘zbek tilshunosligi fani uchun muhim darv bo‘ldi. Chunki bu davr o‘zbek tilshunosligi ulkan muvaffaqqiyatlarga erishdi. Bu borada A.G‘ulomov, U.Tursunov, M.Mirzayev, A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, E.Qilichev, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, S.Karimov, E.Umarov, H.Ne’matov kabi olimlar tomonidan ulkan tadqiqotlar olib borildi va o‘zbek tilshunosligi har tomonlama o‘rganildi. Shu bilan bir qatorda tilshunosligimizning leksik qatlami, ayniqsa, sinonimiyasi va boshqa lisoniy munosabat turlari uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Ammo sinonimlar va unga yondosh bilan bog‘liq hodisalar borasida barcha ishlar to‘laligicha amalga oshirilgan deb aytish mushkul. Chunki bu boradagi qarashlar turlichadir. Shuning uchun, o‘zbek tilshunosligi doirasida sinonimlarni va variant, dublet masalalarini, qolaversa, boshqa munosabat shakllari bilan aloqalarini o‘zaro farqlagan holda yana bir bor o‘rganish hamda tahlil etish o‘zbek adabiy tili leksikasi uchun samarali holdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin. Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning ta’kidlashicha: Leksikologiyada leksik munosabat turlari o‘rganiladi, chunki tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba’zi munosabatlar ma’no asosida bo‘lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan, leksemalar aro munosabatlarni ikkiga ajratish mumkin:

1) leksik-semantik munosabatlar;
2) leksik-shakliy munosabatlar;

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarning o‘zaro ma’no asosidagi o‘xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o‘zaro shakl asosidagi o‘xshashlik va farqlari e’tiborga olinadi. Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud bo‘ladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabatlardir. Leksik-shakliy munosabatlar sirasida esa, omonimiya (shakldoshlik) va paronimiya (talaffuzdoshlik) hodisalari o‘rganiladi. Yuqoridagi fikrlarga to‘la qo‘shilgan holda, yana shuni aytish mumkinki, variant va dublet hodisalari bilan bog‘liq masalalar bu yerda ham ochilmay qolgan. Variantlilik bir so‘zni birdan ortiq variantda talaffuz etish va qo‘llashdir. Masalan, tomosha, tomosho, tamosha kabilar bir so‘zning uch varianti hisoblanadi. Ular ham o‘zaro ayrim tovush orqaligina farqlanib, juda o‘xshash talaffuz qilinadi. Lekin ularning biri me’yor bo‘lib, qolganlari uning fonetik buzib talaffuz etilishidir. Semantik tomoni ham bitta bo‘lib, me’yor deb hisoblangan variantida qayd etiladi. Qolgan variantlari esa shu semantika bilan o‘zgarishsiz qo‘llanadi. Xuddi shunga o‘xshash ora va aro, gado va gadoy, demak

va demoq kabi juftliklar ham bir so‘zning ikki varianti hisoblanadi. Paronimiyada esa har bir komponent o‘z semantikasiga ega bo‘ladi. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da ham odobli (adabli), baravar (barobar) kabi so‘zlar kiritilgan. Ammo muallif bunday so‘zlarni sinonim emas, balki so‘z varianti ekanligini ko‘rsatish uchun qavs ichiga olgan. So‘z variantlari, asosan, shu tilga xos leksik birliklar doirasida bo‘ladi. Ular ma’no jihatdan bir-biridan farq qilmaydilar. Ana shu xususiyatlari bilan so‘z variantlari sinonimlardan ham, dubletlardan ham farq qiladi desak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. O‘zbek tilshunosligida deyarli barcha til sathlarida ham variantlilik hodisasi uchraydi. Nutq jarayonida lisoniy birliklar turli xil variantlarda namoyon bo‘ladi. Bunda birliklarning sintagmatik munosabatda o‘zaro qo‘shni birliklar ta’siri natijasida o‘zgarishi kabi hodisalarga aytiladi. Sintagmatik munosabat asosidagi birliklarning turli lingvistik jarayonlar natijasida xilma-xil variantlarda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tili shevalarida ko‘pdan ko‘p bunday lisoniy hodisalarni tahlilga tortish, jarayonning o‘rni, sabablari va ahamiyatini yoritish orqali mazkur jarayonlar o‘rganilib kelingan. Tildagi o‘zgarishlar, xoh u adabiy til, xoh shevada bo‘lsin, birdaniga emas, balki asta-sekinlik bilan uzoq davr davomida sodir bo‘lishi ma’lum jarayondir. Ayniqsa, tilning fonetik-fonologik sathidagi dastlab onda-sonda uchraydigan hodisalar, fonetik variantlar, tovushlarning uyg‘unlikda yonma-yon qo‘llanishlari va boshqalar uzoq vaqt davomida lingvistik qonuniyatlarga aylanadi. Masalan, muayyan leksema tarkibida ma’lum belgi asosida qarshi turadigan ikki undosh talaffuz noqulayligini yo‘qotish harakati asnosida zidlanish belgisini qabul qilmaydi, bir xil undoshlarga aylanadi. Natijada, leksemaning og‘zaki so‘zlashuv varianti – uslubiy variant paydo bo‘ladi. Assimilyatsiya hodisasi morfemalar oralig‘idagi ikki yondosh noo‘xshash undoshlar o‘rtasida ham, bir leksik morfema tarkibida bo‘g‘inlar oralig‘idagi ikki yondosh noo‘xshash undoshlar o‘rtasida ham ro‘y beradi. Masalan, o‘zbek adabiy tilidagi taqirlamoq – taqillamoq, so‘zla – so‘yla singari so‘z shakllaridagi taqir–taqil, so‘z–so‘y kabi so‘z variantlari assimilyatsiya hodisasining natijasidir. “O‘zbek tili terminlarining izohli lug‘ati”da so‘z variantlari quyidagicha ta’riflanadi: “So‘z variantlari deganda so‘zning biror jihatdan o‘zgachalikka ega bo‘lgan ko‘rinishlar. So‘z turli jihatdan variantlarga (fonetik, orfoepik, morfologik va boshqa variantlarga) ega bo‘lishi mumkin. Masalan: dumaloq – yumaloq; gulday – guldek; gavhar – guhar; igna – nina; isirg‘a - sirg‘a; iymon – imon; jinday – jindak; kabutar - kaptar; karta – qarta; sabo – saboh; san-man – sen-men; podshoh – podsho kabilar.

Bir so‘z turli shakllarda har xil davrlarda turli tillar orqali kirib kelishi mumkin. Ba’zi so‘zlar shakl va ma’no uyg‘unligini saqlab qolishi va ba’zilari esa yo‘qotishi mumkin. Bunday so‘zlar esa tilshunoslikda leksik dubletlar deb ataladi. Leksik dubletlar eng qadimiy va keng qamrovli leksiko-semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Leksik dubletlar deb, bir tilda ikki yoki undan ortiq umumiy kelib chiqish tarixiga ega bo‘lgan, ayrim paytlarda qayta o‘zlashtirish natijasida til lug‘at boyligi tarkibiga kirgan, semantik jihatdan bir xil yoki turli davrlarda ma’no jihatdan farqlanishlarga uchragan va talaffuzi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘z juftliklariga aytiladi. Leksik dubletlarning eng ko‘p tarqalgan turi bu etimologik dubletlar hisoblanadi. Shunga o‘xshash ta’riflarni ko‘plab tadqiqotlarda goh u, goh bu qirralarini uchratish mumkin. Mavjud manbalarda dubletlar va variantlarga berilgan ta’riflar hamda keltirilgan misollar shu qadar bir – biri bilan chalkashib ketganki, hattoki, bir tilshunos variant sifatida keltirgan misollarni boshqa bir tilshunos dublet sifatida baholagan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, bu ikki hodisaning bir vaqtning o‘zida sinonim so‘zlar bilan ham bog‘liq vaziyatlarda chalkashliklar kuzatilyotganligi bor gap. Shunday ekan, mazkur vaziyatda ushbu til birliklarining o‘zaro chegaralarini qat’iy belgilab olish ehtiyoji mavjud. U.Tursunov va boshqalar ham muallifligida yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida esa quyidagicha fikr bildiradi: Agar leksik birliklar har jihatdan teng kelsa, ular o‘zaro farq qilmasa, leksik dubletlar yuzaga keladi. Bu hodisa absolyut sinonim deb ham yuritiladi. Masalan: agitatsiya-tashviqot, propaganda-targ‘ibot, tema-mavzu kabilar.

Ko‘pchilik tilshunoslar leksik dubletlar juda oz (shunda ham, asosan, terminologiyada) degan fikrdalar. Buning sababi shuki, dubletlar biri ikkinchisining aynan nusxasi bo‘lgani sababli, bunday leksik dubletlardan biri ortiqcha hisoblanadi, shuning natijasida bulardan biri tilda uzoq yashamaydi deb ta’kidlaydilar. Shuningdek, ular leksik dubletlarni o‘tkinchi hodisa sifatida baholaydilar. Yana bir bshqa manbada: “Tilda leksik ma’nolari o‘zaro teng bo‘lib, farqlovchi semalari bo‘lmagan leksemalar ham uchraydi. Masalan: so‘roq va savol, xabar va darak, tema va mavzu, nom va ot kabi. Tilshunoslikda bu tipdagi leksemalar absolut sinonimlar yoki leksik dubletlar deb ikki xil nomlanmoqda” – deyiladi.

Tilshunos olim A.Hojiyevning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da dubletlar bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo‘lgan til birliklari. Masalan: tilchi – tilshunos, adab – odob, arziydigan – arzirli kabilar misol keltirilgan. Ammo, ushbu misollar bilan bog‘liq o‘rinlar ham borki, ularga e’tibor qaratmasdan ko‘z yumib ketib bo‘lmaydi. Aynan, misollardagi tilchi – tilshunos, va arziydigan – arzirli jufliklarida leksema asosining ayni bir so‘z va farqlar faqatgina qo‘shimchalar bilangina yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. Bunday holatda juftliklarda shakliy jihatlar ustuvorlik qilayotganligidan kelib-chiqib, ularni leksik variantlar qatoriga kiritish maqbulroq ko‘rinadi. Tilshunos olim G‘ani Abdurahmonovning umumiy tahriri ostidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsligida dubletlar: “Aytilishi

va yozilishi har xil, ma’nosi bir xil so‘zlar dubletlar deb yuritiladi. Dublet so‘zlar ma’noda bir-biridan farq qilmaydi, shuning uchun har qanday sharoitda ham ularning biri o‘rnida boshqasi qo‘llana beradi, biroq bunda adabiy tilda qabul qilingan dubletga ko‘proq o‘rin beriladi. Dubletlar sinonimlardan farqlanadi. Sinonim so‘zlar bir-biridan ma’no ottenkalariga ko‘ra farqlanib turadi. Lekin dubletlarda bunday xususiyat yo‘q. Ushbu manbada, mustasno holatda hozirgi o‘zbek adabiy tilida dubletlar anchagina” – deyiladi, ularning paydo bo‘lish yo‘llari va muhim tiplari keltiriladi, ammo bu o‘rinda ham, dubletlar variantlar bilan farqlanmagan holda aralash misollar keltirilgan. Leksik dubletlar paydo bo‘lishi jarayonida ishtirokchi tillarning maqomi uch xil bo‘ladi: manba til (donor til); vositachi til (medium til); qabul qiluvchi til (retsepient til). Tilshunos Sh.Raxmatullayevning fikricha: “Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo‘lsa, o‘zaro farqlovchi belgiga ega bo‘lmasa, leksik dubletlar deyiladi. Olim “bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud” deb ham ta’kidlaydi. Agar tub so‘z bilan o‘zlashtirma so‘z ma’nolari o‘rtasida absolyut sinonomiya mavjud bo‘lsa, biz bu kabi holatlarni dubletlar deb ataymiz: o‘zbek, fors, tojik: oz –kam; barcha – hamma; toza – pok; yolg‘on – soxta; yilnoma – solnoma. o‘zbekcha-arabcha: ayirma – farq, tafovut; bo‘lak – qism; kishi – inson, odam; uyushma – ittifoq. Yunoncha – arabcha: analiz – tahlil. Arabcha –tojikcha: maktub – noma. Arabcha – arabcha: rasm – odat. O‘zbek tilidagi leksik dubletlar nutqni stilistik jihatdan kategoriyallashtirganimizda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, so‘zlashuv nutqiga oid so‘zlar oddiy, erkin muomalada qo‘llanadi va ularning ancha qismi emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi bilan xarakterlanadi. Bu bo‘yoqdorlik salbiy va ijobiy munosabat ifodalash bilan bog‘liq bo‘ladi. So‘zlashuv leksikasining stilistik bo‘yoqdorligi neytral yoki kitobiy leksikaga oid so‘zlar fonida, ya’ni shu leksikaga oid so‘zlar ishtirok etgan dubletlar qatorida ko‘proq nomoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dublet ichki manbadan, yoki tashqi manbadan adabiy tilga o‘zlashib me’yorlashgan so‘zlardir. Albatta, adabiy tilda o‘z muqobili bo‘lgani holda. Variantlar esa bir so‘zning bir necha xil ko‘rinishidir. Ularning ham adabiy tilda o‘z o‘rni bor. Shuningdek, ular sinonimlarning yadro qatlamini tashkil etuvchi omillardan hisoblanadi. Shu o‘rinda takidlash lozimki, variant va dubletlarni leksik munosabat turlari sifatida leksikologiya bo‘limida muqim o‘rnini belgilash lozimdir. Dubletlar sof ma’noga asoslanganligi tufayli leksik-lug‘aviy munosabat turi; variantlar esa, ma’lum bir lingvostilistik ta’sirlar asosida yuzaga kelgan shakliy o‘zgarishlarga asoslangan til hodisasi bo‘lganligi uchun leksik-shakliy munosabat turi sifatida boshqa yondosh munosabat turlaridan kam bo‘lmagan holda til tizimida o‘zining ajralmas o‘rni bo‘lgan til hodisalaridir. Dubletlar variantlardan farqli o‘laroq o‘tkinchi hodisa, deb baholaydi ko‘pchilik tilshunoslar bu masalaga ham o‘z navbatida chuqurroq yondashib mulohazali yakdil fikrga kelish ahamiyatlidir. Adabiyotning badiy tasvir vositasi sifatida tilda dubletlar va variantlar yashaydi. Ammo, dubletlar masalasida hanuz ba’zi ikkilanishlar mavjud. Ba’zi ilmiy adabiyotlarda dublet va absolyut yoki to‘liq sinonimlar bir tushuncha sifatida baholansa, ba’zi qarashlarda variantlarning dublet deb atalishi holatlari kuzatiladi. Bizningcha, dubletlar absolyut yoki to‘liq sinonim ham, variant ham emas. Ular faqat tildagi yangilanishlar, o‘zgarishlar natijasida iste’molda bor so‘zning boshqa muqobillari paydo bo‘lishi bilan yuzaga kelgan hodisadir. Muqobili mavjud bo‘lgan dubletlar sekin – asta o‘z muqobiliga o‘rin bo‘shatadi. Tilda (o‘z qatlamda) muqobili bo‘lmagan dubletlar istiqbolli dubletlar hisoblanib o‘sha til lug‘at tarkibidan o‘rin oladi. Tilda ma’lum bir tushunchani ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘z paydo bo‘lsa, til ulardan birini “tanlaydi”. Ikkinchisi esa, iste’moldan chiqib ketadi. Mana shu jarayonda qo‘llanilgan so‘z dubletlarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. “Yangi o‘zbekiston strategiyasi”- Toshkent: O‘zbekiston, 2021.56-b.
2. Азим Ҳожиев. “Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати” Тошкент. «Ўзбекистон миллий энсиклопедияси» Давлат илмий нашриёти.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти Тошкент-1996. Абдураҳмонов Ғ. Умумий таҳрири остида.
4. Qo‘chqortoyev I. Lug‘aviy sinonimik vositalar va ularning asosiy turlari. O‘TA, 1984. 40-son.
5. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. Toshkent: “Universitet”, 2006.
7. Arifdjanov Zokir Toxirovich. Tilshunoslikda variantdoshlik hodisasi.T:, 2015.
8. Jamolxonov H. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” –Toshkent: “Talqin”, 2005

Oydin NURULLAYEVA
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
universiteti tayanch doktoranti
nurullayeva1995@icloud.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI FRAZEMALARNING BA’ZI MA’NO MUSHTARAKLIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazeologik birliklarning til tizimida tutgan o‘rni, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillaridagi frazemalar va ulardagi ba’zi ma’noviy butunliklar qiyosan ko‘rsatilgan. Qiyoslashda somatik frazemalar asos qilib olingan. Fikrlarni dalillash maqsadida misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, frazema, lingvistik baza, lug‘at, somatik frazema.*

Annotation: this article compares the role of phraseological units in the language system, as well as the Uzbek and English phrases and some of their meaning. The comparison is based on somatic phrases. Examples are provided to illustrate the points.

Keywords: *phraseological unit, phraseme, linguistic base, dictionary, somatic phraseme.*

Аннотация: в данной статье сравнивается роль фразеологизмов в системе языка, а также узбекских и английских словосочетаний и некоторые их значения. Сравнение основано на соматических фразах. Приводятся примеры, иллюстрирующие положения.

Ключевые слова: *фразеологизм, фразема, языковая база, словарь, соматическая фразема.*

Ma’lum bir tilning lug‘at fondini frazeologik birliklarsiz tasavvur qilish qiyin. Sababi frazeologik birliklar xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli xazinasi hisoblanadi. Mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta’kidlaganidek, frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi, va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o‘ynaydi. Aniqrog‘i, frazemalar olam lisoniy manzarasining bo‘lagidir. Frazeologik birliklar “xalq hayotining ko‘zgusidir”.

Har bir xalq vakili o‘z fikrini obrazli yoki his-hayajonli tarzda ifoda etish uchun turg‘un so‘z birikmalari yaratishda o‘ziga yaqin yoki tanish narsa va hodisalar nomlaridan foydalanishga harakat qilishadi. Masalan, “boshdan-oyoq”, “to‘la-to‘kis”, “butunlay”, “tamomila” tushunchalarining obrazli ifodasi uchun yunon tilida От алфы до омеги iborasi ishlatiladi. Mazkur iboraning ta’sirida turk tilida A’dan Z’ye kadar, rus tilida От А до я iboralari paydo bo‘ldi. Yoki yunon tilida “ibtido va intiho”, hayotning boshi va oxiri” ma’nosida “Alfa va Omega” iborasi qo‘llaniladi. Ayni iboralarning obrazliligi mazkur tillardagi birinchi va oxirgi harflarning majoziy qo‘llanilishi – bir-biriga qarshi qo‘yilishi asosida vujudga kelgan. [1:105]

Barcha dunyo tillari qatori, o‘zbek va ingliz tilida ham frazeologik birliklarning o‘rni beqiyosdir. Boshqacha qilib aytganda, frazeologik birliklar har qanday tilning ajralmas qismi va o‘ziga xos xazinasi sifatida tilning shakllanishida beqiyos hissaga ega.

Frazeologizmlarni o‘rganish jarayonida ingliz tilidagi somatik iboralar anchagina ekanligiga va ularni marfologik jihatdan turlarga bo‘lib o‘rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

Somatik frazeologik birliklarning konseptual asosi diskursiv kontekstda ochiladi. Inson ongida somatik frazeologiyaning semantik asoslari til shaxsi tomonidan inson tanasiga nisbatan talqin qilinadigan mos yozuvlar zonalari yoki sferalarida shakllanadi. Idiomaning obrazliligini tashkil etuvchi vaziyatning majoziy ifodasi shunday dunyoga keladi: “Frazeologik birlik shakllanishining asosi tasvir hosil qiluvchi ibora bo‘lib, uning asosida avval geshtalt (sxematlashtirilgan obrazli tasvir), so‘ngra idiomatik semantikaning konseptual asosi bo‘lgan, subyektiv-mantiqiy ma’no va uning konnotatsiyasini belgilaydigan strukturaviy geshtalt shakllanadi”[3,23]. Cambridge International Dictionary of Idioms(2002) frazeologik lug‘atida shuningdek tahlil qilish uchun Macmillan English Dictionary (2002), Marriam Webster Dictionary Online dan foydalanish jarayonida shuni anglash mumkinki, somatik frazeologik birliklarni tanlash jarayonida “qator tanlash” deb ataladigan usul ishlatilgan. Cambridge International Dictionary of Idioms(2002) 7000 ga yaqin frazeologik birliklarni o‘z ichiga oladi, ulardan tahlil qilish uchun ingliz tilidan 900 ga yaqin somatik frazeologik birliklarni tanladik. Tanlashda inson tanasining tashqi qismlarini ko‘rsatadigan leksik birliklar(hand, finger(s), palm, thumb, wrist, elbow, shoulder, neck, face, head, ear(s), eye(s), toe(s), throat, waist, cheek, breast/chest, navel, etc.), ichki organlar (heart, brain, gut(s), spleen, etc.), biologik xarakterni ifodalovchi substansiyalar (blood, sweat, skin, bone(s), etc.)ga to‘xtalsak. [2:3]

Shaxsning tashqi ma’lumotlarini tavsiflovchi somatik frazeologik birliklar orasida ba’zi toifalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. O‘zbek va ingliz tillari doirasida ko‘z komponentli frazemalarning semantik-paradigmatik tasnifi vositasida ikki til vakillari lisoniy dunyoqarashidagi farqlanishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ikki til doirasida aynan muqobil iboralar yuzaga kelishida quyidagi omilllarni sabab sifatida

ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Lisoniy ongdagi semantik maydonlar bo‘linishidagi o‘xshashliklar;
2. Ayni bir manbadan yoki tildan o‘zlashtirish;
3. Milliy dunyoqarash mushtarakligi yoxud diniy yaqinlik;
4. Ikki til vakillari orasidagi ijtimoiy aloqa va integratsiya. [3:68]

Bular orasida til birliklarining lisonda mushtaraklik hosil qilishi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, bu tarmoqlanish milliy, ilmiy, ijtimoiy tafakkurni o‘zida namoyon etadi. Fikrimiz dalili sifatida “ko‘z” komponenti ishtirok etgan frazemalarning semantik maydonlarda tasniflanishini tahlil qilib ko‘raylik.

O‘zbek tilida ko‘z leksemasidan bir qator iboralar shakllangan: Ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan iborasi butunlay noma’lum narsa haqida gapirilganda ishlatiladi. Bunda ko‘z sinekdoxa usulidagi ma’no ko‘chishi asosida nafaqat «muayyan shaxs», balki «insoniyat» ma’nosini ifodalaydi. Ko‘z oldi, ko‘z o‘ngi ko‘z ko‘rib turgan, ko‘rinib turgan, maydon, fazoni anglatadi. Ko‘z tikmoq «intiqlik bilan kutmoq», «umid bilan qaramoq», ko‘z uzmaslik «tikilib qaramoq», «diqqatni bir nuqtaga jamlamoq», ko‘z tutmoq «intiqlik bilan kutmoq» ma’nolarini bildiradi.

Ko‘z urishtirmoq «ma’noli qaramoq, biror rejani amalga oshirishni maqsad qilmoq», ko‘z yugurtirmoq «e’tiborsiz holda, shunchaki qaramoq» tushunchasini anglatadi. Ko‘zga tashlanmoq iborasida qarash harakatini bajaruvchi faolligi emas, balki narsa-buyumning atrofidagilardan ajralib turishi, ko‘zga tashlanishi nazarda tutilgan. Ko‘zdan kechirmoq «nazorat qilmoq», ko‘zdan qochirmoq «diqqatni susaytirish oqibatida qarab turgan obyektidan chalg‘imoq», ko‘zi tushmoq «bexosdan ko‘rib qolish», ko‘zdan qolmoq «ko‘rish imkoniyatidan mahrum bo‘lmoq» tushunchalarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Ko‘zni yashnatmoq obyektning, narsa-hodisaning jozibadorligi, ko‘zga yaqqol tashlanishini bildiradi. Ko‘zni oldi frazeologizmi moddiy holatdagi ko‘z qamashishidan kelib chiqqan, predmet, narsa-hodisaning nurga yo‘g‘rilganligini yoki nurmonand jilvakorligini aks ettiradi. Ishning ko‘zini bilmoq frazeologizmida ko‘z leksemasining «noziklik» semasi dastlabki e’tiborda bo‘ladi. Ko‘z bo‘yamoq narsa-hodisani o‘zgacha rangda, mohiyatining asliga nomuvofiq holatda ko‘rinishiga sabab bo‘lmoq, haqiqiy voqelikdan chalg‘itmoq» ma’nolarini ifodalaydi; ko‘z bo‘yamachi o‘z foydasi uchun ma’lumotlarni, bo‘lgan voqea-hodisalarni buzib, noto‘g‘ri ko‘rsatuvchi, boshqalarni aldovchi, aldoqchi. Ko‘z olaytirmoq ham aslida ko‘z holatining odatdagidan boshqacha qarashiga asoslangan (ko‘zning olayishi). Keyinchalik salbiy ma’no kasb etib, «biror obyektni, narsa-hodisani o‘ziniki qilib olishga harakat qilmoq» tushunchasini ifodalagan. Ko‘z ostiga olmoq «biror obyektni yoki narsani o‘ziniki qilib olishga mo‘ljallamoq» tushunchasini ifodalaydi. Ko‘z ochib ko‘rgan iborasi birinchi qaraganda ko‘rgan, ko‘zga ko‘ringan obyekt, tushunchani sifatlash uchun ishlatilgan. Keyinchalik narsa-hodisaning «ilk, dastlabki» sifatiga ega ekanligini bildira boshlagan.

Ko‘zga yaqin iborasi jozibador, ta’sirchan, diqqatni jalb etadigan narsa-hodisa, obyektlarga nisbatan qo‘llanadi. Ko‘zda tutmoq «nazarda tutmoq, narsa-hodisaning ko‘zga tashlanadigan, ko‘rinadigan jihatini e’tiborga olmoq» tushunchasini anglatadi. Ko‘zi yetmoq ko‘zning chamalash, o‘lchash omili ekanligidan kelib chiqqan. Ko‘zi yorimoq iborasida farzand tug‘ilganidan keyin ko‘zning yorishishi, og‘riqdan xalos bo‘lib, yengillashishi nazarda tutilgan. Yorishmoq so‘zi yorimoq tarixiy asos holida saqlanib qolgan. Ko‘zi ilinmoq «yengil uyquga ketmoq», ko‘zi moshdek ochilmoq «oq-qorani tanimoq, bilmoq», ko‘zi ochiq ketmoq ko‘zni yuma olmaslik, xotirjam bo‘lmaslik, bezovtalik, nimadandir (yoki kimdandir) umid uza olmaslik holatlarini ifoda etadi; ko‘zi pishmoq «ko‘raverib, ko‘nikib qolmoq», ko‘zi tinmoq «holsizlanmoq, ko‘rish qobiliyatini qisman yo‘qotmoq» tushunchalarini ifoda etadi; ko‘zi tor ruhiy holatni ifodalaydi, inson siqilganda, ruhan iztirob chekkanda ko‘p narsaga qarab turib ham ularni ko‘rmaslik, his qilmaslik holati nazarda tutilgan; ko‘zi to‘rt bo‘lmoq nihoyatda intiqlik bilan kutmoqni bildiradi, ko‘zning «to‘rtta» deb keltirilishi diqqat bilan qarashga ikkita ko‘zning kamlik qilishi, boshqa a’zolarning ham «ko‘zga aylanganini» ta’kidlash, uslubiy bo‘yoqdorlikni ifodalashga xizmat qilgan; ko‘zi o‘ynamoq, dastavval, ko‘zning bejo harakatidan shakllangan, bu holat ruhiyat ifodasi bo‘lib, notinch odamning biror maqsadni ko‘zlagan bejo harakat-holatini bildiradi; ko‘z qiymaslik «istamaslik», «arzitmaslik». «teng ko‘rmaslik» ma’nosini ifoda etadi; ko‘zga issiq ko‘rinmoq issiq so‘zining «yaqin» ma’nosidan shakllangan; ko‘zini yog‘ bosmoq denotativ ma’nodan shakllangan. Ko‘zni yog‘ bosishi natijasida ko‘rish qobiliyati qiyinlashadi. Bu iboraning ma’nosi konnotativlikka asoslangan bo‘lib, kibrlanish, havolanish oqibatida nazarga ilmaslik holatini ifoda etadi. Ko‘zini shamg‘alat qilib nigohdan chetga qochish yoki diqqat-e’tiborni susaytirishga erishish tushunchasini ifodalaydi. Ko‘zining oq-u qorasi ko‘z qismlarining ko‘rish faoliyatini amalga oshirishda birdek zarurligidan kelib chiqqan. [4]

Ingliz tili doirasida esa “ko‘z” komponentli frazemalar quyidagi ma’nolarni hosil qiladi:

1. Belgi va xususiyatni ifodalovchi “ko‘z” komponentli frazemalar: easy on the eye (jozibali, ko‘zga yoqadigan), a sight for sore eyes (ko‘zga yoqadigan), eye candy (chiroyli), feast for the eyes (ko‘zga yoqadigan), eagle eye (sinchkov, e’tiborli), hard on the eyes (xunuk, badbashara), have an eye

for (uquvli, ishni ko‘zini biladigan);

2. Harakat va jismoniy faoliyatni bildiruvchi “ko‘z” komponentli frazemalar: believe one’s eyes (ko‘ringan voqea-hodisa, holatga ishonmoq);

3. Nafs mazmunidagi “ko‘z” komponentli frazemalar : have eyes bigger than your stomach (ko‘zi och);

4. Vaqtni bildiruvchi “ko‘z” komponentli frazemalar: in the blink of an eye (ko‘z ochib yumguncha), in the wink of an eye (juda tez);

5. Qadrli insonni bildiruvchi “ko‘z” komponentli frazemalar: apple of somebody’s eyes (ko‘z qorachig‘i);

6. Ko‘rish, nigoh ma’nosidagi “ko‘z” komponentli frazemalar: keep an eye on (kimnidir yoki biror narsani kuzatish va odamning xatti-harakati haqida xabardor bo‘lish). [5:38]

Umuman olganda har qanday tilning frazeologik lug‘at tarkibi o‘zining milliy xususiyatlariga egadir. Ikkita yoki undan ko‘p tillarning frazeologik tarkibining farqi aniq nimada namoyon bo‘lishini faqatgina ularning taqqoslab o‘rganilishida aniqlash mumkin. Albatta, bu farq taqqoslanadigan tillarning genetik aloqasi qanchalik uzoqlashgan bo‘lsa, shunchalik bu farq chuqurroq bo‘ladi. Va aksincha, tillar qanchalik yaqin bo‘lsa shunchalik frazeologiya sohasida ularda ko‘p o‘xshash xususiyatlar seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – T.: Bookmany print, 2022.
2. Xolmatova M.I. Ingliz va o`zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
3. Komilova U. Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi. Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №5.
4. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent – 2022.
5. Abduazizova M. O‘zbek va ingliz tillaridagi somatik frazemalarning lingvokulturologik tahlili. Toshkent – 2023.

Dilnavoz FAYZIYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillar stajor-tadqiqotchisi

NASRIY ASARLARDA URUSH MAVZUSI VA UNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada urush mavzusining og‘zaki va yozma adabiyotda tasvirlanishi, urush va tinchlik, hayot va o‘lim, muhabbat va fojia kabi tasvir jarayonlarining global qo‘yilishi va ijodkor dunyoqarashi masalalari E. Xeminguey va Nazar Eshonqul ijodi misolida qiyosiy-tipologik tahlil qilish asosida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *urush mavzusi, nasriy asar, obraz, xarakter, tip, tipik vaziyat, qiyosiy-tipologik.*

Annotation: in the article the author states the description of the topic of war in oral and written literature, the global setting of image processes such as war and peace, life and death, love and tragedy, and the issues of creative worldview based on comparative typological analysis of the works of E. Hemingway and Nazar Eshonqul.

Keywords: *theme of war, prose work, image, character, type, typical situation, comparative-typological.*

Аннотация: в статье на основе сравнительно-типологического анализа на примере творчества Э.Хемингуэя и Назара Эшонкула показано изображение темы войны в литературе, вопросы глобальной постановки и творческого мировоззрения в изображении таких процессов как война и мир, жизнь и смерть, любовь и трагедия.

Ключевые слова: *тема войны, прозаическое произведение, образ, характер, тип, типовая ситуация, сравнительно-типологический.*

Urush va unga aloqador mavzular jahon adabiyotida juda ko‘plab ijodkorlarning muammo sifatida qo‘liga qalam olishga undagan hamda olam va odam munosabatlaridagi hayotiy manzaralarning eng ayanchli nuqtalari sifatida tasvirga tortilgan. Shu boisdan ham ijodkorlar urush mavzusi orqali jamiyat hayotiga global ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy qusurli timsollarni keltirish orqali ularga qarama-qarshi turuvchi xarakter va tipik obrazlarni yaratadi, urush muammosining kelib chiqish sabablarini badiiy tasvirlashga harakat qiladi. Aslini olganda urush mavzusi qadimgi

davrlardan insoniyatni o‘ylantirib kelayotgan, uning dunyoqarashiga salbiy ta’sir etuvchi omil bo‘lib, u ko‘plab xalq og‘zaki ijodi namunalarida ko‘rsatib o‘tilgan. Dunyo eposshunosligida muhim o‘rin tutuvchi “Gilgamish”, “Ramayana”, “Mahobharat”, “Odessiya”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas” kabi mumtoz asarlarimizda ham urush va u keltirib chiqargan salbiy qusurlar qoralanib, tinchlik, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari, farovon hayotdan lazzatlanish munosabatlari turli obrazlar olami orqali tasvirlangan bo‘lsa-da, uning tipik tasviri yozma adabiyotda badiiy ifodalandi.

XX asrda yuz bergan birinchi va ikkinchi jahon urushi mavzusining dunyo adabiyotidagi tasvir imkoniyatlari bir qadar kengayib, ko‘plab lirik, dramatik va nasriy asarlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Badiiy adabiyotda urush mavzusi, uning genezisi, poetik asoslari masalasi A.Vernom, T.Riggs, D.Bevan, L.Goldenson, I.A.Tarasova kabi adabiyotshunoslarning ilmiy qarashlarida muammo sifatida qo‘yilsa-da, Y.V.Staroverovaning “Adabiyotda yo‘qotilgan avlod” qo‘llanmasida E.Xemenguey, F.Skott, R.Oldington, E.Remark, U.Folklner kabi ijodkorlar ijodi misolida tizimli ilmiy asosini topdi. Umumiy ma’noda badiiy adabiyotda urush mavzusi asosan: urush va tinchlik, hayot va o‘lim, muhabbat va fojia kabi ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qamrovi, uning insoniyat tarixidagi salbiy ahamiyatiga doir badiiy-estetik qarashlar yetakchilik qiladi. Har bir ijodkor ushbu masala-muammoni turli tasvir obyekti sifatida tasvirlashga harakat qilsa-da, ammo har bir ijodkorning uslubi, voqelikka qarashi, obrazlari va poetik qirralariga xos mahorati bir voqeani yonma-yon qiyoslash asosida, tadqiq etish asosida ko‘zga tashlanadi. Bu esa badiiy ijodning ijodkor-tadqiqotchi-o‘quvchi uchligiga nisbatan qamrovini, badiiy-estetik va ilmiy qiymatini aniqlashda keng imkon yaratadi yoxud kitobxon, tinglovchi yoki tomoshabinlarning voqelikka bo‘lgan hissiy va aqliy munosabati vositasida amal qiladi. “Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o‘zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o‘z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g‘oyaviy maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir xilqat, yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma’naviy dunyosini boyitadi, ruhini bardam qiladi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida obyektiv asos, oddiyroq, qilib aytganda, xamirturush kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohishi va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog‘liq holda kechadi”. Ushbu holatni biz jahon adabiyotiga o‘zining durdona asarlari orqali ta’sir ko‘rsatgan, “Nobel” mukofoti sovrindori, mashhur E.Xemingueyning “Alvido, qurol!” va o‘zbek adabiyoti nasriga yangicha izlanishlar olib kirayotgan adib Nazar Eshonqul asarlari misolida kuzatishimiz mumkin. Dastlab ikki asar syujet voqealariga e’tibor qaratsak. Tilga olingan har ikkala asar voqealari urush mavzusiga bag‘ishlangan.

Ijodkorlarning g‘oyaviy maqsadi urushning inson taqdiri – hayot yo‘liga salbiy ta’siri, urush qurbonlari borasidagi kuzatuvlaridir. Garchi ikkala asarning g‘oyaviy maqsadi bir nuqtaga qaratilgan bo‘lsa-da, unda tasvirga tortilgan voqealar, obrazlar olami, kompozitsion tuzilma va poetik ifodaning qahramonlar ruhiy vaziyatiga yo‘naltirishi va ijodkor uslubi masalasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu o‘rinda Ernest Xemingueyning tajribasi, ifoda usuli va qahramonlarining tipik darajaga ko‘tarilishi va mahorat qirrasi yuksak darajada badiiy ifodasini topgan, albatta. Ikkinchidan, adib bevosita urush qahramoni sifatida ham o‘zi qatnashgan, ishtirok qilgan va kuzatgan voqealarini bosh qahramon Genri tilidan tasvirga tortadi. Uchinchidan, ikki asarning syujet liniyasida urush voqealari tasvirga tortilsa-da, biri bevosita birinchi jahon urushi tasvirini, ya’ni Italiya va Avstraliya o‘rtasidagi urush vaziyati, odamlarning qirilib borish tasvirlari jonli kartinada badiiylasha boradi. Asarda voqealar urush qiyofasi, insonlar taqdiri, ruhiy vaziyati misolida ko‘rsatib berilgan. “... Ba’zan qorong‘uda derazadan qo‘shinlarning o‘tib borishini, to‘p-to‘pxonalar tortib kelayotganini eshitib qolardik. Tunda yo‘lda qatnov zo‘rayar, xachirlar, ustiga soldatlar tushgan, yuklariga brezent tashlagan kulrang mashinalar shoshilmay to‘xtovsiz o‘tib turardi”. To‘rtinchidan, Ernest Xemingueyning qahramonlari taqdiri urush tufayli fojeiylashadi. Ijodkorning badiiy konsepsiyasida insoniyat urushdan qochib qutula olmaydi. Insonning hayoti ham urush bilan chambarchas bog‘liqdir degan falsafiy mushohada badiiy ifodasi orqali qahramonlar xatti-harakatiga uyg‘unlasha boradi. Urush qahramonlar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu masala nafaqat asar syujeti uchun balki, muhabbatiga erisha olmagan, farzandini sog‘lom dunyoga keltira olmagan onaning mudhish nolasi tasirida ham ifodalanib boradiki, bular syujet dinamikasini yanada murakkablashtiradi.

Nazar Eshonqul ijodida ham urush mavzusi “Urush odamlari” asari orqali ko‘rsatib berilgan. Ammo asar voqealari Ernest Xeminguey qahramonlari kabi urush jarayonini tasvirga olmasa-da, front orti masalalari orqali insonlar taqdiridagi qismatlar, fojeiy detallarda ko‘rsatib boriladi. Ikkinchidan, Nazar Eshonqul qissasi ikkinchi jahon urushi voqealari, front orti kishilarning qismatini “Urush odamlari” qissasi orqali badiiy tasvirga oladi. Ushbu qissasi borasida adabiyotshunosligimizda bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lsa-da, ijodkorning urush voqealari tasviriga real yondashuvi, qahramonlarining tipiklashuv masalasi yetarlicha tahlilga tortilmaydi. Adabiyotshunos N.Cho‘liyevaning “Ijodkor mahorati va janr poetikasi” masalasidagi tadqiqotida shunday fikrlar ifodalanadi: “Urush odamlari” qissasida turli yoshdagi, fe’l-atvordagi, o‘y-fikrdagi qiyofalarni ko‘ramiz. Asarda urush va uning

iskanjasidan qutulish qahramonlarni birlashtirgan murod-maqsadga aylangan”.

Olima ta’kidlaganidek, “urush va uning iskanjasidan qutulish qahramonlarni birlashtirgan murod-maqsadga aylangan”ligi masalaning bir tomonidir. Aslida ijodkor ikkinchi jahon urushi mavzusini tasvirga tortish orqali front orti voqealari, kishilarning taqdiri, urush orqali yuzaga kelgan oilaviy fojialarga sabab bo‘lish omillarini ko‘rsatishga harakat qilgan. Syujet liniyasida ushbu tasvirga alohida e’tibor qaratsa-da, ijodkorning ushbu masaladagi tasvir uslubi tizimli, badiiy mukammallik kasb etmagan. Asardagi Normat va Anzirat obrazlarida ushbu holat ko‘zga tashlanmaydi. N.Cho‘liyeva yana fikrini davom ettiradi: “Urush odamlari” qissasi syujetidagi asosiy maqsad urush va ayol xiyonatini urush tufayli nochor qolgan va aldanganlik natijasi deyish mumkin”. Aslida ijodkor ayol xiyonatini tasvirlamoqchi emas, balki vaziyat, yetishmovchilik Anziratning ushbu holatga tushishga sabab bo‘lishini shunchaki tasvirda bera qolgan. Urush davri manzarasida tasvirga tortilgan bir qator asarlarda sevgi va “xiyonat” rukni masalasi yetakchilik qiladi.

Ammo ijodkorlar ushbu holatning asosiy sababchisi urush ekanligini chiroyli detal va obrazlar misolida ko‘rsatib bera olganlar. Misol uchun, Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi qahramonlari hayotidagi o‘zgarishlar ham bevosita ushbu jarayon bilan bog‘lanadi. Shunday bo‘lsa-da, ikki ijodkor asaridagi bir mavzuni qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, birinchidan, mavzuning jahon xalqlari ijtimoiy hayotida urushning naqadar ayanchli ekanligi, uning millat va elat tanlamasligi, inson uchun dushman qiyofaga aylanishi, bu jarayon esa bir guruh siyosiy mansabparastlarning xatolari asosida yuzaga kelishini ommaga tushuntirish ekanligidir. Ikkinchidan, voqealar chizmasi, qahramon ruhiyati, obrazlar olami, epik syujetning real voqeani tasvir etishi, asar xotimasida ijodkor konsepsiyasining badiiy aks etish jarayoni va poetik ifodaning voqealar bilan tizimli bog‘lanish xususiyatlarini ko‘rsatish imkoniyati yuzaga keladi. Birgina obrazlar masalasi borasida fikr yuritganda ushbu holatga e’tibor qaratish mumkin. Ernest Xeminguey qahramonlari Genri va Ketrin Barkli tipik obraz sifatida urush va urush voqealarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirish orqali asar syujetida ilgari surilgan g‘oyaviy maqsadni to‘laqonli jonli kartinasini yaratadi. “Urush odamlari” qissasidagi urush va u keltirgan fojiaviy ko‘rinishni Normat va Anzirat obrazlari orqali ko‘rsatishga harakat qilsa-da, ammo obrazlar tipiklik darajasida gavdalanmaydi. To‘g‘ri, dastlab ijodkor ikkinchi jahon urushining faqatgina front ichida qizg‘in tus olganligi, ammo bu holat front orqasi kishilari taqdiriga o‘zining salbiy qismatini ko‘rsatishini yarador qiyofadagi Normatning Tersotaga kirib kelish tasviri bilan qiyoslaydi. Mana shu jarayon asar syujetining keyingi front ortidagi voqealar – kishilar taqdiri masalasiga ro‘baro‘ olib kiradi. Normat obrazi orqali ijodkor urushdan nafratlanish, undan yiroq bo‘lishni istovchi, uning ruhiyatiga yot ekanligini ko‘rsatib berish orqali obrazga xos xususiyatlarni ko‘rsatadi. “Odamlarni otar ekanman, etim hamisha seskanib ketar, Xudoga tavba qilar, iloji boricha tegizmay otishga harakat qilardim. Bug‘doyzorlarda odamlarning qoni oqib yotganini ko‘rganimda, yig‘lagim kelar, shunda qonim qaynab to‘g‘ri kelgan har bir kimsani otib tashlagim kelardi”.

Normat polvon tilidan aytilgan ushbu fikrlar ham insonlarning bir-biriga yovuz niyatda bo‘lishi urush va uning ta’siri ekanligi ijodkor tomonidan asosli ko‘rsatib berilgan. Urushning bu kabi dahshatli taassurotlari Normatning butun vujudini tark etmasa-da, u yarador sifatida qishlog‘iga qaytgach barchasini qaytadan boshlashga, odamlarga yordam qilish, tinchgina yashash orzusida bo‘lishga harakat qiladi. Ammo Normat polvon Anziratning xiyonatini sezib qolgach, uning hayotida yana notinch kunlar boshlanadi. Ijodkor asar voqealarini mana shu tarzda davom ettirib, qahramonlar hayotidagi fojiaviylikning asl sababchisi ham urush ekanligiga o‘quvchining diqqatini tortadi. Bir maqola doirasida ikki asar g‘oyasi, syujeti, obrazlari, kompozitsiyasi va poetik qirralarini qiyosiy tahlil qilish imkoni yo‘q, albatta. Biz bir maqola doirasida ikki ijodkorning urushga munosabati, uning inson taqdiri va hayotidagi fojiaviylikni tasvirlashda nimalarga e’tibor qartilganligi, ijodkor poetik uslubi masalasiga e’tibor qaratdik. Xulosa o‘rnida ta’kidlamoqchimizki, Ernest Xeminguey va Nazar Eshonqullar ijodida urush mavzusi turli xil voqealar tizimida tasvirga tortilsa-da, ularni bog‘lab turuvchi g‘oyaviy maqsadning bir xil ekanligi, bular qahramonlar ruhiyati, taqdirlar umumlashmasi tasvirida umumiylik kasb etishi bilan aloqadorlikka ega hisoblanadi. Birinchidan, ikkala ijodkor ham bitta g‘oyaviy maqsadni ko‘zlaganligi. Bu “inson urushning qurboni” konsepsiyasidir.

Asar qahramonlari xatti-harakati orqali bu g‘oyaviy maqsad yaqqol ochib beriladi. Har ikkala asarda ham ushbu g‘oya qahramonlarning urushning eng dahshatli pallalarida ham insonparvarligi, axloqiy mezonlardan chekinmaganligida ko‘zga tashlanadi. Ikkinchidan, mavzular bir-birini uzviy bog‘laydi. “Alvido, qurol!” va “Urush odamlari”da ham quroldan voz kechish orqali urushni la’natlash, urush orti voqealaridagi ruhiy tushkunlik orqali urushga salbiy qusur sifatida baho berishdir. Uchinchidan, har ikkala asar qahramonlarining fojiaviy qismati urush jarayonida emas, balki urushdan tashqari vaziyatda sodir etiladi. Ammo qahramon ruhiyatida urush, uning ta’siri yetakchi ekanligi tagosti matni asosida g‘oyaviy maqsadga singdiriladi. To‘rtinchidan, har ikkala asarda ham urush voqelariga tabiat tasviri yetakchilik qilsa-da, Ernest Xeminguey ushbu holatni yomg‘ir, uning yog‘ishi tasvirida qahramon ruhiyatiga singdira olgan,

poetik ifodaning yuksaklik darajasini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, urush va urushga doir asarlar badiiy adabiyotimizda yetakchi mavzu bo‘lib, ijodkorning badiiy konsepsiyasi, g‘oyaviy maqsadi, obraz yaratish masalasi, poetik qirralarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish orqaligina mukammallik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Staroverova Ye.V. Poteryannoye pokoleniye v literature. – Sankt-Peterburg: Litsey, 2005.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2022. 12-bet.
3. Xeminguey E. Alvido, qurol! Roman. Ruschadan Ibrohim G‘afurov tarjimasi. – Toshkent, 1986.
4. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Cho‘liyeva N. Ijodkor mahorati va janr poetikasi. – Toshkent, 2023. 74-bet.

Dilnoza RO‘ZIMATOVA ,
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

IJTIMOIY MAQOMNING PRAGMALINGVISTIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada ijtimoiy maqom tushunchasi, unga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar, ijtimoiy maqomning pragmalingvistik jihati haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, ijtimoiy maqomning nutqiy aktlar, kommunikativ strategiya va taktikada namoyon bo‘lishi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Ijtimoiy maqomning pragmalingvistik tushuncha sifatidagi xususiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy maqom, nutqiy aktlar, kommunikativ strategiya, kommunikativ taktikalar, vokativlar, komissivlar, ekspressivlar.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о понятии социального статуса, определениях, данных ему учеными, а также прагмалингвистическом аспекте социального статуса. Также обсуждалось проявление социального статуса в речевых действиях, коммуникативной стратегии и тактике. Выделена природа социального статуса как прагмалингвистического понятия.

Ключевые слова: *социальный статус, речевые акты, коммуникативная стратегия, коммуникативная тактика, вокативы, комиссивы, экспрессивы.*

Annotation: this article provides information about the concept of social status, the definitions given to it by scientists, and the pragmalinguistic aspect of social status. Also, the manifestation of social status in speech acts, communicative strategy and tactics was discussed. The nature of social status as a pragmalinguistic concept is highlighted.

Keywords: *social status, speech acts, communicative strategy, communicative tactics, vocatives, comissives, expressives.*

Ijtimoiy maqom me’yoriy kategoriyadir, shuning uchun u orqali yuzaga chiqadigan munosabatlarni o‘rganish orqali biz tabiiy tilning barcha boyliklarida kodlangan tilning ijtimoiy tamoyillarini o‘rganamiz. Bu ma’lum bir tilda so‘zlashadigan va shunga mos ravishda ma’lum bir jamiyatning baholash me’yorlari tizimini baham ko‘radigan odamlar xatti-harakatlarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish imkoniyatini ochadi. Shaxsning ijtimoiy maqomini o‘rganishning lingvokulturologik jihati shunday. Ijtimoiy maqom sotsiolingvistikada eng to‘liq tavsifni oladi, chunki u boshqa tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan markaziy tushunchadir va ijtimoiy maqomni ko‘rsatish va baholash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladigan sotsiolingvistikaning asosiy toifalaridan biridir. Pragmatik kategoriya sifatida ijtimoiy maqom nutq aktlarida, til birliklarining pragmatik ma’nolarida, kommunikativ strategiya va taktikalarda namoyon bo‘ladi. “Ijtimoiy maqom” tushunchasi haqida ko‘plab ta’riflarning mavjudligi ko‘pincha ushbu tushunchaning unga yaqin bo‘lgan boshqa tushunchalar bilan chalkashtirib yuborishga olib keladi. Masalan, nemis tadqiqotchilarining asarlarida, asosan, sotsiolingvistik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladigan ijtimoiy maqom tushunchasi ko‘pincha obro‘ tushunchasi bilan bog‘lanadi (ba’zan ular sinonim sifatida keltiriladi). [Быганова, 1991:138].

Shaxsning ijtimoiy maqomini pragmalingvistik jihatdan o‘rganish qisman sotsiolingvistika bilan birgalikda tahlil etish ikki yo‘nalishni ham birdek to‘ldiradi. Til tavsifining pragmalingvistik yo‘nalishida shaxsning ijtimoiy maqomi muloqotning asosiy o‘lchovlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan nutqiy xatti-harakatlar maqom bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy xatti-harakatlarning bir qismidir.

Lingvistik pragmatika haqidagi munozaralar shuni ko‘rsatadiki, pragmatika keng ma’noda, jumladan, sotsiolingvistika, psixolingvistika va tilshunoslikning boshqa sohalarida tilning jamiyatdagi faoliyati bilan bog‘liq, tor ma’noda esa - belgining shaxsga

munosabati sifatida ham tushuniladi [Karasik, 2002:113]. Charlz Morrisning semiotik modelida pragmatika belgining obyektga (semantika) va boshqa belgilarga (sintaktik) munosabatidan farqli o‘laroq, belgining shaxsga ya’ni qabul qiluvchiga munosabati sifatida talqin qilinadi [Hakimov, 2020:224]. Muloqot qiluvchilarning maqom munosabatlari nuqtayi nazaridan nutq aktlarini ikki turga bo‘lish mumkin: maqom bilan belgilanadigan va maqom neytral bo‘lgan holatlar. Maqom ta’kidlab ko‘rsatilmaydigan nutqiy aktlarga konstativlar (bayonotlar), deskriptivlar (tavsiflar), maqom ta’kidlab ko‘rsatiladigan nutqiy aktlarga esa buyruqlar (buyruqlar, talablar), iltimoslar (so‘rovlar, iltimoslar), yo‘riqnomalar (ko‘rsatmalar, taqiqlar) va boshqalar kiradi [Karasik, 2002:114]. Maqom belgilangan nutqiy aktlar esa, o‘z navbatida, maqomga bog‘liq va maqomga bog‘liq bo‘lmagan nutq aktlarga bo‘linadi. Birinchisiga adresatning ma’lum bir jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan direktivlar, deklarativlar, ikkinchisiga esa qabul qiluvchining maqomi muloqot vaziyatiga bog‘liq bo‘lgan nutqiy aktlar, jumladan, vokativlar, komissivlar, ekspressivlar kiradi [Karasik, 2002:117].

Nutqiy aktlar nutq hodisasi sifatida nutq vaziyati, sotsial muhit va turli xil kontekstlar ta’sirida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham nutqiy akt ishtirokchilarining o‘zaro muloqotida xabarga asoslangan nutqiy aktlar reprezentativ, komissiv, ekspressiv, deklarativ va direktiv aktlar ko‘rinishida ifodalanadi. Nutqiy aktlarning bunday shakllanishi, bir jihatdan, ijtimoiy muhitga, boshqa jihatdan so‘zlashuvchilarning ijtimoiy maqomiga, yana boshqa bir jihatdan, nutqning uslubiy belgilariga bog‘liq bo‘ladi [Hakimov, 2020:224]. Pragmalingvistika, xususan, nutqiy aktlar nazariyasi va ularning tasnifiga oid muammolar antroposentrik tilshunoslikka kiradi. Ma’lumki, nutqiy aktlarda lokutiv, illokutiv, perlokutiv singari aktlar mavjud. Illokutiv aktlar sirasiga deklarativ aktlar turi ham alohida o‘rin tutadi. Bu tipdagi nutqiy aktlar ham boshqa nutqiy aktlar singari maqsad, yo‘nalish va psixologik holat kabi parametrlar asosida o‘rganiladi. Deklarativ aktlar o‘z tabiatiga ko‘ra so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy maqomi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonda kommunikatsiya ishtirokchilari o‘zaro hokim va tobe maqomi bilan muloqot qiladilar [Hakimov, 2020:219]. “So‘zlovchi va tinglovchining lisoniy kompetensiyasini tashkil etuvchi qoidalarga egalik qilish deklarativ aktning namoyon bo‘lish asosi hisoblanadi, bunda so ‘zlovchi va tinglovchi ma’lum sotsial mavqega ega bo‘ladi” [Hakimov, 2020:217]. Deklarativ aktni sodir etuvchi so‘zlovchi ma’lum ijtimoiy maqomga ega bo‘lib, ifodalanayotgan propozitsional mazmunni bayon etish vakolati bevosita so‘zlovchiga yuklatilgan bo‘ladi. [Hakimov, 2020:218]. Masalan, hukm qilish vakolati faqat sudyalarga, auditoriyaga ma’ruza o‘qish o‘qituvchiga, professorga, nikoh o‘qish vakolati esa faqat islomiy ilmga ega bo‘lgan shaxsga beriladi.

“...Masjid sahnidagi odamlar ham nafaslarini ichlariga yutib, xutbaning boshlanishini kutmoqda edilar. Umumiy jimlikda Xo‘ja Xalifaning yo‘g‘on tovushi allanechuk titrab, iztirobga to‘lib eshitildi: – Bismilla-ahu rahmo-onur rahim! Minbarda turgan Xo‘ja Xalifa yigirma ming sunniy namozxonning o‘ziga sergaklanib tikilayotganini ko‘rdi-yu, tizzasi ham qaltiray boshladi. Mana, u Alloh sha’niga, payg‘ambar sha’niga bitilgan surani o‘qib tugatyapti. ...Xalifa choryorlarning arvohidan qo‘rqadi. Shuning uchun: – Choryori bosafolar Hazrati Abubakir! Hazrati Umar! – deb hozir aytishi kerak bo‘lmagan nomlarini birdan xutbaga qo‘sha boshladi...” [P.Qodirov, 2017:132]. Ushbu parchada keltirilganidek, xutba o‘qish vakolati faqat imomga berilgan bo‘lib, bu parchada imomlik qilish mamlakat taqdiriga aloqador voqea sifatida gavdalantirilgan hodisa hisoblangan, yozuvchi imomning shu jarayondagi holatini yuksak ifodalarda tasvirlagan. Shaxsning ijtimoiy maqomi so‘zlovchining tinglovchiga ta’sir qilishining asoslaridan(sabablaridan) biridir. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan nutqiy aktlar bir nechta harakatlarni o‘z ichiga oladi, ular esa, o‘z navbatida, asosiy va qo‘shimcha harakatlarga bo‘linadi. Asosiy nutqiy harakatlar aniq nutqiy aktning mohiyati, iltimos, kechirim, iltifot va boshqa shu kabilarni ifodalaydi. Qo‘shimcha harakatlar esa o‘zida u yoki bu nutqiy aktni bajarganda bevosita va bilvosita shaklda rag‘batlantirish ifodasi, hurmat munosabatini va maqsad belgisini ifodalaydi. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan vaziyatning eng muhim tarkibiy qismlari xatti-harakatlarning ishtirokchilari yoki faollari hisoblanadi: biror bir tashkilot vakili, bemor, respondent va boshqa shaxslar haqida shunday deyish mumkin.

Pragmalingvistikaga oid ishlarda nutqiy odobning ijtimoiy-madaniy o‘lchovlari quyidagi terminlar orqali ifodalangan: xushmuomalalik va hurmat, birdamlik, obro‘ va tanqid. Hurmat va xushmuomalalik adresant va adresat o‘rtasidagi ijtimoiy masofa sifatida qaraladi. Muloqot qanchalik rasmiy bo‘lsa, muloqot qiluvchilar orasidagi ijtimoiy masofa shunchalik katta bo‘ladi. Ijtimoiy maqom saqlangan dialogdagi bo‘ysunuvchining nutqi nisbatan murakkabligi va uzunligi bilan ajralib turadi. Obro‘ va tanqid esa ma’lum mos referent guruhlarda qabul qilingan yoki qoralangan ma’lum til shakllari bilan bog‘liq. [Sausheva, 2005:28]. Muloqotning ijtimoiy-madaniy omillari bevosita shaxsning ijtimoiy maqomiga bog‘liq ekanligi yuqoridagi bir necha misollar orqali ma’lum.

Ushbu o‘rinda biz V.I. Karasik tomonidan pragmalingvistikaga berilgan ta’rifni keltirishni lozim deb topdik: “Pragmalingvistika – nutq, real muloqot bilan bog‘liq bo‘lgan nazariyalar va tushunchalar yig‘indisidir, pragmalingvistikada asosiy e’tibor birliklarning yaxlit ma’nosiga ham ma’nodan, ham muloqot holatidan kelib chiqadi” [Karasik, 2004:54]. Pragmalingvistikada ijtimoiy maqom kommunikativ strategiya va taktikada ham namoyon bo‘ladi. Harbiy rahbarlik va jangovar rejalashtirish san’ati sifatida strategiya tushunchasi tilshunoslikka 20-asrning 70-yillari oxirida, muloqot jarayonida odamlarning har qanday o‘zaro ta’siri strategik deb atalgan paytda paydo bo‘ldi. V.Z. Demyankov muloqot strategiyalari haqida gapirar ekan, strategiya va stratagem (hiyla) tushunchalaridan foydalanadi [Demyankov, 1982:112]. Strategiyalar u yoki bu qoidani qo‘llashdan, strategemalar esa bu qoidalarni buzishdan iborat. I.N. Borisova taktikani “u yoki bu dialog strategiyasini tuzadigan dialog chiziqlarini qurishda kommunikantlarning nutq qobiliyatlaridan dinamik foydalanish” deb hisoblaydi [Borisova, 1996: 23]. Boshqa mualliflar nutq strategiyasi va taktikasi tushunchalarini nutq janri va nutq akti tushunchalari bilan bog‘laydilar. O‘z maqolasida Trufanova ushbu tushunchalar o‘rtasidagi farqni “matn faoliyatining turli darajadagi mavhumligini aks ettirishi” bilan tushuntirishga harakat qiladi. [Труфанова, 2001: 62]. Shu bilan birga, muallif kommunikativ strategiya va illokatsion bo‘lak tushunchalarini sinonim deb hisoblaydi. Issers esa kommunikativ strategiya va taktikadan tashqari, muloqotning minimal birligini tushunadigan kommunikativ harakatni, u yoki bu nutq taktikasini amalga oshiradigan vosita sifatida ishlaydigan texnikani aniqlaydi. [Иссерс, 2006:119]. Ma’lumki, nutq jarayonida kommunikativ maqsadga erishishning turli yo‘llari mavjud va bu strategiyalar tanlovi bilan bog‘liq. So‘zlovchi bir motiv ostida bir necha maqsadni ko‘zlashi va muloqot taktikasini ham shu maqsadga bo‘ysundirishi mumkin. O.Issersning fikricha, “odatda, oddiy iltimos strategiyasi ostida ham bir nechta maqsadlar mujassamlangan bo‘ladi, birinchidan, uni bajarish, muvaffaqiyatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik strategiyasi; ikkinchidan, adresantning o‘zini namoyon qilishi strategiyasi; uchinchidan, adresant va adresat o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatish, ya’ni hamkorlik strategiyasi” [Иссерс, 2006:119]. A.Maslova kommunikativ strategiyaning turlari sifatida quyidagilarni ajratadi: hamkorlikka asoslangan strategiyalar (tasdiqlash, taskin berish, ko‘ndirish va h.k.); umumiy yoki xususiy strategiyalar; nutqiy vaziyat bilan bog‘liq pragmatik strategiyalar (o‘zini namoyon qilish, mavqeni ushlab turish, hissiy kayfiyatini shakllantirish va boshqa strategiyalar) [Maslova, 2007:139].

So‘zlovchi ijtimoiy maqomidan kelib chiqib, u yoki bu kommunikativ strategiya va taktikani tanlaydi, chunki har xil ta’lim darajasi, turli lavozim va turli xil daromad darajasiga ega bo‘lgan odamlar o‘z ijtimoiy maqomi, ijtimoiy doirasiga mos strategiya va taktikalardan foydalanadilar. Til egasi kommunikativ maqsadga erishishning u yoki bu usulini tanlashi shunday omillar bilan bog‘liq. Demak, yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan so‘zlovchi ko‘pincha xushmuomalalik, aniqlik, hamkorlik, qarama-qarshilik kommunikativ strategiyalaridan foydalanadi. Maqomi past bo‘lgan so‘zlovchi ham ko‘pincha aniqlik, hamkorlik, qarama-qarshilik strategiyalariga murojaat qiladi. Bu farq, albatta, shartli, chunki real hayotda inson o‘zining ijtimoiy rollarini doimiy ravishda o‘zgartiradi va shuning uchun jamiyatdagi mavqeyidan qat’i nazar, har qanday strategiyani qo‘llashi mumkin. Shunigdek, muloqot jarayonida evfemizmlardan ham foydalanishi mumkin. Evfemizmlar vaziyatga qarab nutqingizni o‘zgartirishga, niyatlaringizni yashirishga va muayyan harakatlar yoki xususiyatlar haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirganda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlardan qochish imkonini beradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, so‘zlovchi evfemizmlarga faqat maqomi bo‘yicha teng yoki ijtimoiy pillapoyalarda yuqoriroqda turgan, unchalik yaqin bo‘lmagan yoki notanish bo‘lgan shaxs bilan muloqotda bo‘lganda murojaat qiladi. Pastroq maqomga ega bo‘lgan odam bilan suhbatda so‘zlovchi to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirishi mumkin (masalan, boshliqning bo‘ysunuvchisiga), bundan tashqari, odamlar muloqotda qanchalik erkin his qilsalar, evfemizmlarga ehtiyoj shunchalik kam bo'ladi.

Agar minnatdorchilik harakatini maqom munosabatlari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqsak, shuni ta’kidlash kerakki, pastroq maqomga ega bo‘lgan so‘zlovchi odobsiz ko‘rinmaslik uchun minnatdorchilik harakatini davom ettirishga intiladi va yuqori maqomga ega sherik o‘z maqomini yana bir bor tasdiqlashi kerak bo‘ladi. Ba’zan vaziyat talabi, tarbiyalanganlik darajasidan kelib chiqib, yuqori va undan pastroq maqom egasi vaziyat yumshatilishiga hissa qo‘shishlari mumkin: “...Bu odam bilan ham hisoblashmoq kerak... – Aytyapman-ku, e’zozlamoq tugul... etagida namoz o‘qiyapmiz deb!.. Tag‘in nima qilaylik, axir? Bo‘lmasa mana, marhamat, bergan raisligini olsin! Bekmurod Xolmurodovich tishi og‘riganday yuzini burushtirdi: – Nima deyapsiz o‘zi? Kap-katta odam yosh bolaning gapini gapirasiz-a! Viloyat rahbariyati doim sizni qo‘llab kelgan va bundan keyin ham qo‘llab-quvvatlaydi! – Rahmat! – dedi Otaqo‘zi beixtiyor ko‘ngli erib...” [Yoqubov.O, 1998:212]. Kechirim so‘rash uchun ham xuddi shunday. “... Peshonasini stulning suyanchigiga qo‘yib, sukutga

to‘lgan Otaqo‘zi nogahon “dik” etib o‘rnidan turdi, va qandaydir shiddatli, sobit qadamlar bilan hovuzchaga egilib, boshini favvora suviga tutdi, so‘ng shoshmay artindi, ko‘ylagining etaklarini to‘g‘rilab, joyiga qaytib keldi. U xuddi kayfi birdan tarqab ketgan odamday bardam, qovog‘i soliq, jiddiy edi.

– Kechirasiz, Abror Shukurovich. Men bugun... domla bilan diydor ko‘rishib qolib, juda taltayib ketibman, kechirasiz... — Yo‘q, yo‘q, hech qanaqa ortiqcha gap bo‘lgani yo‘q... – dedi Vohid Mirobidov. [Yoqubov.O, 1998: 237].

Ta’kidlash kerakki, umumiy qabul qilingan fikrdan farqli o‘laroq, kechirim so‘rash, iltimoslar va boshqalar muayyan bir millatga xos stereotip hisoblanadi va shuning uchun ushbu xususiyat muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, barchaga xosdir. Bundan tashqari, ushbu strategiyaning o‘ziga xosligi shundaki, u ko‘pincha pastroq maqomga ega bo‘lgan suhbatdosh yuqori shaxsga murojaat qilganda yoki ikkala suhbatdosh ham yuqori maqomga ega bo‘lgan muloqot sharoitida uchraydi. “...Jamol Bo‘riboevning sobiq bo‘lsa-da vazir muovini degan nomi bor emasmi, rais bilan ko‘rishib bo‘lmagan ham ediki, sahnada ivirsib yurgan novcha, ko‘zoynakli odam zalga sakrab tushib, beso‘naqay lapanglab yugurib keldi-da: – Qani, marhamat, oldinga o‘tsinlar, o‘rtoq Bo‘riboyev, oldinga, – deb mulozamat ko‘rsatdi...” [Yoqubov.O, 1998: 72].

Yuqori maqomga ega bo‘lgan so‘zlovchi past maqomli tinglovchiga murojaat qilganda, yuqori maqomli suhbatdosh har doim ham xushmuomalalik strategiyasiga murojaat qilmaydi yoki ikkala suhbatdoshning ijtimoiy maqomi past bo‘lsa, ular har doim ham bu strategiyadan foydalanmaydi. Xushmuomalalik strategiyasidan ko‘proq jamiyatda o‘rtacha yoki yuqori maqomga ega bo‘lgan odamlar foydalanadi. “...Kabinetga novcha, bo‘yni cho‘pday qop-qora odam, uning ketidan sochlarini baland qilib turmaklagan, odmigina kiyingan, nihoyatda ko‘hlik bir qiz kirib keldi. – Mumkinmi?! – dedi bo‘yni cho‘pday odam, dedi-yu, tez kelib ko‘rishdi. – Obidov, dotsent! Qiz eshikdan kirgan joyda boshini bir tomonga sal egib engashib turardi. — Marhamat, o‘tirsinlar... o‘tiring, – dedi Shukurov qizga qarab...” [Yoqubov.O, 1998: 140].

Yuqoridagi misolda ikki ma’lumotli insonlarning muloqoti berilgan, biri-tumanning mas’ul odami, ikkinchisi esa undan yordam so‘rab kelgan dotsent.

Teng ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan muloqotchilar bir-biri bilan suhbatda vositalar va strategiyalarni (taktikalarni) tanlashda deyarli cheksizdir. Ular ochiqchasiga mojaroga kirishishlari yoki, aksincha, yaqinlashishib, qizg‘in suhbat qurishlari mumkin. Muloqotda erkinlik hissi muloqot qiluvchilar orasidagi masofani qisqartirishga va ba’zi bir shakllardan, odob-axloq qoidalarida nazarda tutilgan murojaat shakllaridan, me’yorlardan va hokazolardan qochishga imkon beradi, ya’ni ular uchun muhim bo‘lgan masalalarni muhokama qilishga to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot qilishadi. Shaxsning ijtimoiy maqomi so‘zlovchining (murojaat qiluvchining) qabul qiluvchiga ta’sirining sabablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Быганова Е.А. Прагмалингвистический аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. канд.филол.наук. М, 2010. – С.147

2. Демьянков В. З. Прагматические основы интерпретации высказываний // Изв. АН СССР. Сер. литературы и языка. – М., 1981. Т. 66. № 4. – 376 с. – С. 46-58

3. Hakimov M. Прагмалингвистика асослари.Т.: Classic, 2020.–Б. 474

4. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактика русской речи. – М.: Комкнига, 2006. – С. 288

5. Карасик В.И. Язык социального статуса. – М.: Гнозис, 2002. –333 с.

6.Леонтович О.А. Русские и американцы: парадоксы межкультурного общения: монография. – М.: Гнозис, 2005. – 352 с.

7. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику: учеб, пособие. – М.: Флинта, Наука, 2007. — С.152.

8.Саушева Е.В. Образ социального статуса коммуниканта в диалоговом дискурсе (на материале английского и русского языков). Автореф. дисс. канд.филол.наук. –М, 2005.– С.167

9. Труфанова И.В. О разграничении понятий: речевой акт, речевой жанр, речевая стратегия, речевая тактика /И. В. Труфанова// Филологически науки. – 2001. - № 3. – С. 56- 65.

Dilrabo SAYDULLAYEVA,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

“NASOYIM UL-MUHABBAT” DA ZIKRI KELTIRILGAN AYRIM IJODKOR SO‘FIYLAR IJODI MISOLIDA HIKMAT JANRINING POETOLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqola Alisher Navoiyning tazkirasi “Nasoyim ul-muhabbat”da zikr qilingan so‘fiy ijodkorlarning poetologik tahlilini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada so‘fiy shoirlarning hayoti, asarlari va ulardagi tasavvuf falsafasi bilan bog‘liq elementlar tahlil qilinadi. Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Hakim Ota kabi ijodkor so‘fiylarning hikmat janriga mansub asarlari poetologik tamoyillar orqali tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *poetologiya, tazkira, tasavvuf, she’riyat, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Hakim Ota.*

Аннотация: эта статья посвящена поэтическому анализу суфийских поэтов, упомянутых в тазкире Альшера Навои "Насоим ул-мухаббат". В статье рассматриваются жизнь и творчество суфийских поэтов, а также элементы суфийской философии в их произведениях. Произведения таких суфийских поэтов, как Ахмад Яссави, Ахмад Югнаки, Хаким Ота, относящиеся к жанру "хикмат", исследуются с точки зрения поэтических принципов..

Ключевые слова: *поэтология, тазкира, суфизм, поэзия, Ахмад Яссави, Ахмад Югнаки, Хаким Ота.*

Annotation: this article focuses on the poetic analysis of Sufi poets mentioned in Alisher Navoi's tazkira "Nasoyim ul-muhabbat". The article examines the lives and works of Sufi poets and the elements of Sufi philosophy in their works. The works of Sufi poets such as Ahmad Yassavi, Ahmad Yugnaki, and Hakim Ota, belonging to the "hikmat" genre, are studied through poetic principles.

Keywords: *poetology, sufism, tazkira, poetry, Ahmad Yasavi, Ahmad Yugnaki, Hakim Ata.*

Zamonaviy adabiyotshunoslik ilmida “poetologiya” atamasi adabiyotshunoslikning yangi bir bo‘limi sifatida, ijodkor shaxsiyati va ijod namunasi oralig‘idagi o‘zaro aloqa, ijodkorning dunyoqarashi shakllanishida ta’sir ko‘rsatgan madaniy hayot, o‘z “men”i va uni ifoda etish jarayonidagi o‘ziga xosliklari, ijodkorning adabiy ideali va ijod borasidagi faqat o‘zigagina tegishli bo‘lgan tamoyillarini tadqiq etishga asoslangan sohani anglatadi.

Ushbu terminning ilm-fan sohasiga kirib kelishi XX asr oxiriga borib taqaladi hamda Shveysariya slavyan filologi, shoiri va tarjimoni F.Ingold nomi bilan bog‘liq. Uning tadqiqotida bu atama to‘lig‘icha aniqlanmagan, ammo “shoir va she’riyat” mavzusiga bag‘ishlangan she’rlar “poetologik” deb nomlangan. Atamaning fanda o‘rnashishi va to‘la ma’no kasb etishida rus tadqiqotchisi Mixail Vladimirovich Trostnikovning xizmatlari katta. U 1998-yilda himoya qilgan madaniyatshunoslik sohasidagi doktorlik dissertatsiyasiga aynan “Poetologiya” atamasini mavzu qilib oladi va F.Ingold qarashlarini yanada mukammallashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Olimning fikricha, shoir o‘z ijodida o‘z shaxsiyati va lirik “men”ning ichki dunyosi haqida gapirishga intiladi. Bundan kelib chiqadiki, poetolog tadqiqotchilarning qiziqishi “ijodkorlik”ka yo‘naltirilgan matnlarda namoyon bo‘ladigan ijodkor individualligini o‘rganishga qaratilgan. Qolaversa, poetologiya sohasi adabiyotshunoslikni boshqa ko‘plab sohalar, jumladan, madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiya, semiotika, mantiq, estetika, tilshunoslik, dinshunoslik kabilarga bog‘laydigan ko‘prik bo‘lib xizmat qildi, deyishimiz mumkin.

Bu fan she’riy asarlarning murakkab mexanizmlari va tamoyillarini o‘rganib, shoirlar qanday qilib ma’no yetkazish, hissiyotlarni uyg‘otish va estetik tajribalar yaratishlarini tahlil qiladi. Shoirlar tomonidan qo‘llanilgan poetik usullar va elementlarni tahlil qilish orqali tadqiqotchilar asar ichidagi ma’nolarni chuqurroq ochib berishi va adabiy asarlarning ko‘p qirraliligini qadrlashi mumkin.

Poetologiya, yunoncha “poiesis” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “yaratish”, “qurish” ma’nosini anglatadi, uning vazifasi she’riyatning yaratilishi va talqinini tashkil etuvchi tamoyillar va texnikalarni o‘rganishdir. U poetik shakllar, tuzilmalar, mavzular va she’riyatda mavjud estetik va madaniy kontekstlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Poetologiya – she’riyatning san’at shakli sifatida qanday ishlashini tushunishga intilib, uning yaratilishi, estetik tamoyillari va o‘quvchilarga ta’sirini o‘rganadi.

Poetologiya atamasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi XX asrning oxiriga to‘g‘ri kelib, Ingold va Trostnikov kabi olimlarning hissasi, ayniqsa, katta bo‘ldi. Xususan, F.Ingold she’riyatning qurilish va til xususiyatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Trostnikovning izlanishlari poetik ifodaning mavjudlik va falsafa bilan aloqador o‘lchovlarini yoritgan.

Poetologiyaningilktarixiyasoslariesa Aristotelning “Poetika” asarigacha borib taqaladi deyish mumkin. “Poetika” ushbu sohadagi eng qadimgi asarlardan biri bo‘lib, fanga mimesis (taqlid) va katharsis (hissiy tozalash) kabi asosiy tushunchalarni kiritadi. O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrlarida poetologiya ritorika, estetika va adabiyot nazariyasining elementlarini o‘z ichiga olib, rivojlandi.

So‘nggi 20-30 yilda poetologiya yangi nazariy asoslar va metodologiyalarni o‘z ichiga olgan holda rivojlanishda davom etdi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikdagi yutuqlar she’riyatning inson tafakkuri va hissiyotlariga qanday ta’sir qilishini anglash darajasini boyitdi, shu bilan birga turfa yondashuvlar poetologik tadqiqotlarning qamrovini turli adabiy an’analar va madaniy o‘ziga xosliklarni o‘z ichiga olish uchun anchayin kengaytirdi. Zamonaviy poetologlar she’riyatning shakl xususiyatlarinigina o‘rganib qolmay, balki uning ijtimoiy, siyosiy va axloqiy jihatlarini ham tadqiq etadilar, she’riy ifodaning o‘zgaruvchan va ko‘p qirrali tabiatini o‘ziga xos mahorat bilan aks ettirishga intiladilar.

Poetologiyaning ahamiyati turli soha vakillariga anchayin qimmatli tushunchalarni taklif qila olishida ko‘rinadi. Poetologlar she’riyatning qurilish va mavzuviy jihatlarini o‘rganib, adabiyot va boshqa fanlar, masalan, falsafa, psixologiya va madaniyatshunoslik o‘rtasida bog‘liqliklarni aniqlashlari mumkin. Masalan, she’riyatdagi metafora (o‘xshatish) va ramzlarni o‘rganish falsafiy tushunchalarni ochib berishi mumkin, poetik vositalarning tahlili esa madaniy va tarixiy hodisalarni yanada yaxshiroq yoritib berishi mumkin. Poetologiya, jumladan, poetik til kognitiv jarayonlar va hissiy javoblarga qanday ta’sir qilishini o‘rganib, kognitiv soha bilan ham kesishadi. Bu yondashuv she’riyatni murakkab va ko‘p qirrali san’at shakli sifatida tushunishga yo‘l ochadi. Shuningdek, ijod namunalarini poetologik rakursdan turib tadqiq etish muayyan xalq vakillarining madaniyati va dunyoni aks ettirish jarayonidagi fikr tovlanishlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, ya’ni bizning misolda oladigan bo‘lsak, Yassaviy va undan keyingi so‘fiy ijodkorlarning yashash davri va o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning o‘zgaruvchanligi asosida ularning ijodida, ijodkorlar dunyoqarashi va uni namoyon qilishlarida qanday sifat o‘zgarishlari kuzatilganligini ko‘rish imkonini beradi.

“Nasoyim ul-muhabbat” mashhur shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy tomonidan yozilgan taniqli tazkira (agiografik manba). “Nasoyim ul-muhabbat”da 770 nafar so‘fiy shaxsning biografiyasi batafsil yoritilgan, so‘ngra ularning asosiy asarlari, tasavvuf va she’riyatga qo‘shgan hissalari tahlil qilingan. Ushbu maqolada ular ijodining poetologik jihatlarini chuqurroq tahlil qilish uchun tazkirada zikri keltirilgan bir nechta so‘fiy ijodkorlar ijodiga e’tibor qaratiladi.

Ahmad Yassaviy XII asrning mashhur so‘fiy shoiri va mashoyixlarning mashoyixi. U turkiy so‘fiy ijodkorlarning eng birinchi va eng ta’sirli shoirlaridan biri hisoblanadi. Yassaviy Sayramda tug‘ilgan bo‘lib, Yassaviyning she’riyatini oddiy tili va chuqur ma’naviy mazmuni xarakterlaydi. Uning allegoriya va ramzlardan foydalanishi chuqur tasavvufiy e’tiqodlarini aks ettiradi, ishqi ilohiy, kamtarlik va umrning o‘tkinchiligi kabi mavzularga e’tibor qaratadi. Uning she’rlari ritmik oqim va asosiy iboralarning takrorlanishi bilan meditatsion sifatni yaratadi va o‘quvchiga ma’naviy ozuqa beradi. Yassaviyning oddiy va tushunarli tili uning ta’limotlarini keng ommaga yetkazishga imkon berdi, uning “Devoni hikmat”ini turkiy tasavvuf adabiyotining asosiga aylantirdi.

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining turkiy mashoyixlarga bag‘ishlangan qismini Ahmad Yassaviyning zikrini mantiqiy izchillikda bayon qilish asnosida boshlagan. “Nasoyim ul-muhabbat”da 611-bo‘lib joylashtirilgan ushbu zikrda Ahmad Yassaviy haqida quyidagicha so‘z boradi: “Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixidur. Maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli va nomahsur ermish. Muridu as’hobi g‘oyatsiz va shohu gadoning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish” . Bundan anglashiladiki, Ahmad Yassaviy Turkiston elida mashhur bo‘lib, shayxlarning shayxi degan rutbaga erishgan, buyuk karomat sohibi, muridlari-yu suhbatdoshlari bisyor. Qolaversa, Ahmad Yassaviyning turkiy tilda yozilgan zohidlik va pand-nasihat ruhidagi hikmatlar to‘plami – “Devoni hikmat” asari u asos solgan tariqat uchun ideologik va tekstologik asos bo‘lib qoldi va bu tariqatning ham, ulug‘ murshidning ham el orasida mashhur bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Bu haqida adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul shunday yozadi: “Yassaviygacha ham so‘fiyona she’r irshod uchun bir vosita o‘laroq qabul qilingan edi. Yassaviy, eng avvalo, ana shu uchun she’rga murojaat qildi. Diniy-tasavvufiy ma’nolar muridlaridan tashqari keng xalq ommasi ongi va qalbidan oson o‘rin topishini ta’minlash niyatida she’r imkoniyatlaridan ham mohirlik ila foydalana oldi”. Olimning yuqoridagi fikrlari juda o‘rinli, zero, Ahmad Yassaviy muridlari orasida ham, oddiy xalq orasida ham mashoyixlar mashoyixi bo‘lgan.

“Nasoyim ul-muhabbat”da Xoja Ahmadning ustozlari va shogirdlari ham eslatib o‘tilgan o‘rinlar mavjud. Hazrat Alisher Navoiy Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylarni Yassaviyning ustozlari sifatida keltirib o‘tadi va Xoja Abdulloh Barraqiy va Xoja Hasan Andoqiy kabi mashhur shayxlarni Yassaviyning musohiblari

o‘laroq tanitadi. Shayx Raziyuddin Ali Loloning nomini Yassaviyning shogirdi sifatida zikr qiladi.

“Nasoyim”ni o‘qir ekanmiz, Navoiyning nasrda ham mohir san’atkor bo‘lganini e’tirof etmasdan ilojimiz yo‘q. Ulug‘ shoir “Nasoyim ul-muhabbat”ning har bir qatorida ulkan tarixiy-adabiy ma’lumotlarni ham ulashadi. Chunonchi, Ahmad Yassaviyning hayotiga doir ko‘plab kerakli ma’lumotlarni ham ayni shu asardan olamiz. “Aning mozori Turkistonda, Yassi degan yerdaki, aning mavlid va manshaidur voqe’ bo‘lubdur va Turkiston ahlining qiblai duosidur”. Ushbu qisqa jumlada 3 muhim jihat keltirilganki, ularga e’tibor qaratmasak bo‘lmaydi. Birinchidan, Xoja Ahmad Yassaviyning qayerda dafn etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot. Ikkinchidan, shayxning tug‘ilgan joyi ham, vafot etgan joyi ham Yassi ekanligi to‘g‘risidagi xabar. Uchinchidan, Yassaviy qabri Turkiston eli uchun muhim ziyoratgoh maskan ekanligi haqidagi xulosa. Ana shunday kerakli ma’lumotlarni tasavvufshunos olim Hamidxon Islomiy ham ilmiy jihatiga ko‘ra yuqori baholaydi va jumladan shunday yozadi: “Alisher Navoiyning Yassaviy to‘g‘risidagi teran mazmunda yozganlari g‘oyatda katta ahamiyatga molikdur”. Albatta, bu singari ma’lumotlar ulug‘ shayxning hayot yo‘lini, tarjimayi holini to‘plash va tiklash uchun katta xizmat qilmog‘i shubhasiz.

Aynan hikmat janrida ijod qilgan yana bir so‘fiy ijodkor Hakim Ota (shuningdek, Sulaymon Boqirg‘oniy nomi bilan tanilgan) mashhur so‘fiy shoir va Ahmad Yassaviyning shogirdi. Boqirg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan ustozi Yassaviy izidan borib, Yassaviyning ta’limotlarini butun Markaziy Osiyoga yoygan. Uning she’rlari ko‘pincha ustozi Ahmad Yassaviyning ta’limotlarini aks ettiradi va axloqiy va ma’naviy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan didaktik she’rlarni o‘z ichiga oladi. Hakim Otaning asarlari axloqiy va ma’naviy ko‘rsatmalarni estetik go‘zallik bilan birlashtirgan didaktik xarakteri bilan ajralib turadi. Uning turkiy tilda yozilgan she’rlari uning ta’limotlarini ma’naviy mohiyatini saqlab qolgan holda keng ommaga yetkazishga imkon beradi.

Jumladan, Alisher Navoiy ham “Nasoyim ul-muhabbat” da Hakim Ota zikrini keltirar ekan, uning Yassaviyning muridi ekanligi, unga Yassaviy tomonidan Hakim otining berilishi tarixi, hikmat aytishi va hikmatlarining turk eli orasida mashhurligini ta’kidlab o‘tadi va bir namuna ham keltiradi:

“Tikka turg‘an bo‘tadur, borg‘anlarni yutadur,
Borg‘anlar kelmas bo‘ldi, magar manzil tutadur” .

Yuqoridagi hikmatda qo‘llangan “bo‘ta” - Venera yulduzi (o‘zbekcha Sayyora yulduzi ham deyiladi, qolaversa, Zuhro yulduzi degan nomi ham bor) u qadim zamonlardan beri tanilgan sayyora sanaladi va juda yorqinligi sababli o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos ramziy va estetik ma’noga ega. Biz yuqoridagi hikmatni tahlil etishda “yulduz” so‘zining Qur’oni karimda keltirilgan ma’nolariga murojaat qildik. Jumladan, Qur’oni karimning 30 oyatdan iborat bo‘lgan 67-Mulk surasida: “Yer-u Osmon va boshqa mavjudotlarni yaratishdagi Allohning hikmat va qudratlari, bu dunyodan imonsiz o‘tganlarning oxiratdagi nadomatlari, rizq-ro‘ziy talab qilish, tabiiy ofatlar xavfi, hidoyat va zalolat kabi mavzular aks ettirilgan. Hadisi sharifda: “Qur’oni karimda 30 oyatli bir sura borki, u uni o‘qiganni shafoat qiluvchidir, hatto qiyomat kuni do‘zaxdan xalos etib jannatga kirishga sabab bo‘lur. U “Taborak” surasidir” deb bashorat berilgan (Imom Termiziy rivoyati) .

Suraning 5-oyati tarjimasida: “Va darhaqiqat, Biz yaqin osmonni chiroqlar bilan ziynatlab qo‘ydik va u (chiroq)larni shaytonlarga otiladigan narsa ham qilib qo‘ydik. Va u (shayton)larga olovi qizib turgan jahannamni tayyorlab qo‘ydik” deyiladi. Oyat tafsiriga to‘xtaladigan bo‘lsak, undagi ma’no-mazmun yanada tiniqlashadi: “Payg‘ambarimiz Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallam davrlarida arab folbinlari, bizning shaytonlarimiz osmonga chiqib, g‘oyibdagi narsalarni bilib beradi, deb maqtanar edilar. Qur’oni Karim buni rad etib, bu dunyoda shaytonlarni yulduzlardan ajrab chiqqan uchqunlar quvib haydashini, u dunyoda esa ularga Alloh taolo Jahannam azobini tayyorlab qo‘yganini ta’kidlamoqda” .

Keyingi oyatlarda Jahannam faqat shaytonlar uchun emasligi, xoh inson, xoh jin bo‘lsin, har bir kofir uchun tayyorlab qo‘yilganligi, u qaytadigan joyning eng yomoni ekanligi va undagi azob va dahshatlar batafsil vasf qilinadi. Shunday ekan, bizningcha, ushbu hikmat vositasida Hakim Ota oddiy bir bayt orqali ushbu hodisaga ishora qilib, insonlarni kufrdan tiyilishga, Jahannam va uning azoblarini bir dam ham unutmaslikka va shariat yo‘lini mahkam tutishlikka undamoqda.

Shu o‘rinda hikmat janri haqida ham ikki og‘iz so‘z yuritadigan bo‘lsak, u o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadigan janrlardan biridir. Bu janrda yozilgan asarlar odatda qisqa va lo‘nda bo‘lib, ularda hayotiy haqiqatlar, axloqiy tamoyillar, donolik va pand-nasihatlar ifodalangan bo‘ladi. Hikmatlar ko‘pincha ritmik va qofiyadosh shaklda yozilib, ular yodlab olish va esda saqlash uchun qulaydir.

Hikmat janri asosan quyidagi xususiyatlarga ega:

1. **Qisqalik va lo‘ndalik:** Hikmatlar odatda qisqa jumlalar yoki to‘rtliklar shaklida bo‘ladi. Ular o‘z mazmunini qisqa va lo‘nda ifoda etadi.
2. **Axloqiy va falsafiy mazmun:** Hikmatlarda hayotiy haqiqatlar, axloqiy tamoyillar va donolik ifoda etiladi. Ular ko‘pincha pand-nasihat shaklida bo‘lib, kishilarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga intiladi.
3. **Obrazli ifoda:** Hikmatlarda obrazli ifoda va majoziy ma’nolar keng qo‘llaniladi. Bu usul orqali

hikmatlar yanada esda qolarli va ta’sirli bo‘ladi.

4. **Ritmik va qofiyadosh shakl:** Ko‘pgina hikmatlar ritmik va qofiyadosh shaklda yoziladi, bu esa ularni yodlab olishni osonlashtiradi va musiqiy tus beradi.

Hikmat janri o‘zbek adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda keng tarqalgan. Ushbu janrda ko‘plab mashhur shoirlar ijod qilishgan, jumladan, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” kabi asarlari bu janrning yorqin namunalari hisoblanadi.

Hikmat janri o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutib, u xalqning axloqiy va madaniy qadriyatlarini saqlash va avlodlarga yetkazishda katta rol o‘ynaydi. Bu janrning asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, ularni o‘rganish va ulardan saboq olish ahamiyatlidir.

Ahmad Yugnakiy yana bir hikmatgo‘y so‘fiy ijodkorlardan biri sanaladi. U haqidagi qissa ham “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Uning adibligi, ko‘zlari tug‘ma ojizligiga to‘xtalgan hazrat Navoiy “Basir bo‘lub, o‘zga basirlardek andoq emas ermishki, ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay” deya ta’riflaydi. Haq Taolo uning zohir ko‘zini ko‘r qilsa-da, botin ko‘zini ochiq yaratganini ta’kidlaydi. Loviyani ushlab, uni qo‘y buyragiga, no‘xatni ushlab esa uni burgutning boshiga o‘xshatganini naql qiladi. Alisher Navoiy Adib Ahmadning Imom A’zamning shogirdlaridan bo‘lganini zikr qiladi. U Imomning darslarida eng quyida – saffi ni’ol – kavushlar qatorida o‘tirar ekan. Bir kuni Hazrat Imom A’zamdan eng yaxshi shogirdi kimligini so‘rashganida, ul hazrat Ahmad Yugnakiyni aytgan ekan. Bundan bilib olish mumkinki, ustozlar o‘z muridining, shogirdining holatini hammadan ham ko‘ra yaxshiroq bilishgan va his qila olishgan. Ayni shu jihat ham tasavvufning hol ilmi ekanligini, ruhoniyat siri ekanligini ko‘rsatadi.

Turkiy qissanavislik tazkiralar tarkibida rivojlanar ekan, ma’lum bir ijodkor haqida ma’lumot, qiziqarli faktlar eslanganidan so‘ng, albatta, uning ijodidan namunalar ham keltirilgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da ham shunday bo‘lgan. Adib Ahmad hayotidan hikoya qilingach, Navoiy u haqida: “…Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoyihqa, go‘yo ermish. Xeli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmat va nuktalari shoy’dur. Va nazm tariqa bila aytur ermish va aning favoyididindur” deya, uning baytlaridan namuna keltirilgan:

Ulug‘lar ne bersa yemasman dema,
Ilik sun, og‘iz ur, yemasang yema!
***
So‘ngakka ilikdur, eranga bilik,
Biliksiz eran-ul so‘ngaksiz ilik
***
Tilingni tiya tut, tishing sinmasun,
Bu turg‘on xaloyiq sanga kulmasun .

Yuqoridagi misralarda qiyoslash va o‘xshatish orqali ilik suyak uchun qanchalik muhimligi kabi insonga ham bilim shu darajada zarurligi ifodalanmoqda. Tilni noo‘rin so‘zlardan tiyish va kattalarga ehtirom ko‘rsatish singari axloqiy qadriyatlar mohirlik bilan she’rga solinmoqda. So‘fiy shoirlar ko‘pincha murakkab ma’naviy tushunchalarni yetkazish uchun ramziy tasvirlardan foydalanadilar. Bu misollar o‘z navbatida, hikmat janrining o‘sha davr so‘fiy ijodkorlari ijodida naqadar muhim o‘rin tutgan janr bo‘lganligi va unda qo‘llangan turli badiiy vositalarni ilg‘ash imkonini beradi.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida zikr qilingan so‘fiylar ijodidagi hikmat janrining poetologik tahlili ularning she’riyati va tasavvuf falsafasi o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni yoritadi. Ularning asarlarini poetologiya nuqtayi nazaridan o‘rganib, ijodi va dunyoqarashi o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida chuqurroq tushuncha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat: (Ilmiy-tanqidiy matn). Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va ko‘rsatkichlar muallifi H.Islomiy. – T.: Movarounnahr, 2017.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mulk_surasi
3. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. XVII jild. Nasoyim ul-muhabbat. –T.: Fan, 2001
4. https://quranenc.com/uz/browse/uzbek_sadiq/67
5. Тростников М. Поэтология. Автореферат диссертации в виде опубликованной монографии на соискание учёной степени доктора культурологии. Москва. 1998. 47 ст.
6. Islomiy H. Sultonil orifiyn Xoja Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Fan, 2005.
7. Ҳаққул И. Аҳмад Яссавий. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.

Nasima QODIROVA,
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

BUXOROLIK SHOIR SHAMSIDDIN SHOHIN HAYOTI VA IJODIGA DOIR AYRIM QAYDLAR

Annotatsiya: maqola Buxoro adabiy muhitida ijod qilgan ma’rifatparvar shoir Shamsiddin Muhammad Shohin hayoti va ijodiga bag’ishlangan. Shamsiddin Shohin ijodida XIX asr oxiri adabiyotidagi ilg‘or g‘oyalar rivoji o‘z ifodasini topgan. O‘zining og‘ir hayotiga qaramay, tojik she’riyati va ma’rifatining yorqin namoyandalaridan biriga aylandi. U o‘z asarlarida mumtoz fors-tojik adabiyoti an’analarini adolat, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirgan. Uning “Layli va Majnun”, “Do‘stlarga tuhfa”, “Badoye-us-sanoye” kabi asarlarida o‘sha davr hokimiyat vakillari va jamiyatda mavjud bir qator illatlar tanqid qilingan.

Kalit so‘zlar: *Buxoro adabiy muhiti, Shamsiddin Shohin, shoir, ma’rifatparvar, “Layli va Majnun”, “Do‘stlarga tuhfa”, “Badoye-us-sanoye”.*

Аннотация: статья посвящена жизни и творчеству просвещенного поэта Шамсиддина Мухаммада Шахина, творившего в литературной среде Бухары. Развитие передовых идей в литературе конца XIX века выразилось в творчестве Шамсиддина Шохина. Несмотря на свою трудную жизнь, он стал одним из ярких представителей таджикской поэзии и просветительства. В своих произведениях он соединил традиции классической персидско-таджикской литературы с идеями справедливости, гуманности и просвещения. Его произведения, такие как «Лайли и Меджнун», «Подарки друзьям», «Бадое-ус-санойе», подвергли критике представителей власти и ряд пороков, существующих в обществе.

Ключевые слова: *литературная среда Бухары, Шамсиддин Шахин, поэт, просветитель, «Лайли и Меджнун», «Подарок друзьям», «Бадое-ус-саное».*

Annotation: the article is devoted to the life and work of the enlightened poet Shamsiddin Muhammad Shahin, who worked in the literary environment of Bukhara. The development of advanced ideas in literature at the end of the 19th century was expressed in the work of Shamsiddin Shokhin. Despite his difficult life, he became one of the brightest representatives of Tajik poetry and enlightenment. In his works, he combined the traditions of classical Persian-Tajik literature with the ideas of justice, humanity and enlightenment. His works, such as “Laili and Majnun”, “Gifts to Friends”, “Badoe-us-Sanoye”, criticized government officials and a number of vices existing in society.

Key words: *literary environment of Bukhara, Shamsiddin Shahin, poet, educator, “Layli and Majnun”, “Gift to Friends”, “Badoe-us-sanoe”.*

Shamsiddin Muhammad Shohin 1865-1866-yillarda Buxoroda tug‘ilib, butun umrini shu yerda o‘tkazgan yetuk shoirlardan biri. Shamsiddin Shohin Buxoroda kambag‘al mulla oilasida tug‘ilgan. Otasi Mullamon asli Xatlonzaminlik (hozirgi Ko‘lob) bo‘lib, yoshligida ilm o‘rganish uchun yurtni tark etgan, Samarqandda ilm o‘rgangan, so‘ng Buxoroga borib, shu yerda madrasani tamomlagan. Madrasani tugatgach, 1887-yildan boshlab bir necha vaqt amir Abdulahadning parvonachisiga mirzolik xizmatini bajardi va parvonachining qiziga uylandi. Bir muddat Buxorodagi madrasalardan birida mudarrislik qildi. Shamsiddin Shohin bolaligidan favqulodda o‘qish va yozish qobiliyatiga ega edi. O'zining ta’kidlashicha, u taxminan sakkiz-to'qqiz yoshlaridan maktabda she'r ayta boshlagan. Shamsiddin Maxdumi Shohin yetti yoshida Hofiz Sherozıy devonini juda yaxshi bilgan. Shamsiddin Shohinning otasi maktabni tugatgach, o‘g‘lining nafis va chiroyli yozuvini ko‘rib, uni mirza xizmatiga shogird qiladi.

Shamsiddin Shohin o‘n to‘rt-o‘n besh yoshlarida ilm o‘rganish uchun madrasaga o‘qishga kiradi. Madrasada ustozlari, kursdoshlari oldida katta iste’dod va qobiliyatini namoyon etadi. Ammo moddiy jihatdan bu yillarda uning hayoti juda og'ir edi. Otasi qarigan, oila boqish, o‘g‘lini o‘qitishda ko‘p muammolarga duch kelgan. Biroq o‘sha davrning ayrim olimlari, tadbirkorlari shoirning g‘ayrioddiy iste’dodini, ilm o‘rganish qobiliyatini ko‘rib, ba’zan unga moddiy yordam ko‘rsatishgan. Shamsiddin Shohin nodir she’rlar, kitoblar nusxalarini ko‘chirar, ular bilan kun kechirar, kambag‘al oilasiga ham yordam berar edi. Shamsiddin Shohin Buxoro maktab va madrasalarida tahsil olgan, madrasani tamomlagach, Buxoroning manzilgohlaridan biriga imom etib tayinlangan. 1885-yildan shoir amir Abdulahad Adulqodir Parvonachiga mirzalik qiladi. Parvonachi Shamsiddin Shohinning iqtidori, bilimi va fayzliligini ko‘rib, uni juda hurmat qilgan va buning evaziga uni moddiy jihatdan ta’minlagan. Shu yillar davomida Shohin vasiysiz qolgan oilasini ham boqdi.

1887-yilda Shohin o‘sha paytda Sherobod hokimi bo‘lgan Abdulqodir Parvonachining qiziga uylanadi. Biroq shoirning baxtli hayoti uzoqqa cho‘zilmadi, turmush o‘rtog‘i to‘ydan 10 oy o‘tib olamdan o‘tdi. Shoir “Layli va Majnun” she’rini turmush o‘rtog‘i

xotirasiga bag‘ishlab yozgan.

Umrining so'nggi yillarida Shohinning sog'lig'i juda yomonlashadi. Unda sil kasalligi belgilari bor edi. Ammo amir uni o'z lavozimidan chetlatmadi va sayohatlarga o'zi bilan olib ketdi. Qarshiga tashrif chog‘ida Shohin betob bo‘ladi, amir uni Buxoroga jo‘natmaydi. Nihoyat, shoir 1895-1896 yillarda shu shaharda sil kasalligidan vafot etadi. U shu shaharning qabristoniga dafn etilgan.

Shohin mirzolik vazifasini bajarishdan tashqari, she’rlar yozgan va parvonachining iltimosiga ko‘ra amir Abdul Ahadni madh etib bir qancha qasidalar ham aytgan. Bu bilan Parvonachi Shohinning amir oldida hurmat qozonishini, ro‘zg‘orini yaxshilashini istaydi. Shu orqali Shohin amir huzurida va saroyda obro‘ qozongan. Saroyda Shohinning shon-shuhrat va nufuzga ega bo‘lganiga hasad qilib, uning amir bilan yaqinlashishiga to‘sqinlik qiladigan, biror chora ko‘rmoqchi bo‘lgan savodsiz, johillar ko‘p edi. Bu orada parvonachi Buxoroni tark etadi. Shohinni yolg‘iz ko‘rgan dushmanlari uning atrofida fitna uyushtirib, g‘iybat qila boshladilar. Shu bilan birga, Shohin amir saroyi davrasining qandaligi, amir atrofiga johil va ochko‘zlarning to‘planib, davlat mansab va martabalariga erishayotganini ko‘rib turardi. Parvonachi Abdulqodir Shohinni juda sevgan, uni har tomonlama himoya qilishga uringan. Xalq Shohin Sherobod hukmdorining kuyovi ekanini anglasin, unga adovat qilmasin deb unga qizini beradi. Darhaqiqat, bu nikoh Shohinni raqiblarining hujumlaridan ma'lum darajada himoya qildi. Boshqa tomondan, o‘zini juda bilimdon va she’riyatga mehrli qilib ko‘rsatgan Amir Abdulahad Shohinni suhbatlariga taklif qildi. Amir Shohinni ahyon-ahyonda o‘z yig‘inlariga, bazmlariga taklif qilar, shoirning xohish-istaklari va kayfiyatidan qat’i nazar, safarlarga olib borardi. Shohin bu safar va bazmlar bilan shunchalik band ediki, hatto oilasidan ham xabar ola olmasdi. Bu orada uning yosh xotini farzandli bo`lib, bir hafta o‘tib vafot etdi. Xotinining to‘satdan vafot etishi Shohin uchun katta fojia bo‘ldi. Bu dahshatli voqea Shohinning ko‘z o‘ngida ko‘p voqealar mohiyatini ochdi. U nafaqat amir atrofidagilar, balki amirning o‘zi ham nodon va zolim, davlat va mamlakatni boshqarishga noloyiq va beparvo shaxs ekan degan xulosaga keldi. Shohin o‘sha davr hukmdorlariga yaqinligidan foydalanib, ularga mulkchilik va hukmronlik o‘lchovlari haqida kitob va risolalar yozgan avvalgi shoirlar kabi amirga asar yozib, adolat bilan hukmronlik yo‘lini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Shu maqsadda u “Do‘stlar tuhfasi” nomli she’r yozgan. Shohin bu masnaviyda amirga adolat va insof tamoyillarini, davlat boshqaruvining eng yaxshi yo‘llarini o‘rgatmoqchi bo‘lgan, ammo amirga saboq bermoqchi bo‘lgan yosh shoirning bu jasorati zamon hukmdoriga yoqmagan. Amir Abdulahad g‘azablanib, Shohindan o‘ch olmoqchi bo‘ldi. Amir Shohinni u haqida madhiya va qasidalar yozishga, odobdan tashqari she’rlar yozishga, amirni kuldirishga, she’rlariga badiiyatga mos kelmaydigan so‘zlarni kiritishga majbur qilgan. Qolaversa, u shoirni hamisha o‘z nazoratida ushlab, uzoq safarlarga olib chiqib, o‘yin-kulgi asbobiga aylantirgan. Bu Shohin uchun katta haqorat edi va amir buni eng qattiq qasos deb hisobladi. Shu davrdan (ya’ni, to‘qsoninchi yillarning boshidan) boshlab, Shohin she’rlarida uning hayotidan achchiq shikoyat va norozilik ohanglari, davr va uning odamlari illatlari tanqidi ko`zga tashlanadi. Bu davrda Shohin Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoe” asari bilan yaqindan tanishadi va o‘sha davr jamiyatining barcha illatlarini yanada yaxshi tushunadi. Shuningdek, u nasihat va qisman islohot bilan mamlakat ahvolini va davlat tartibini yaxshilash mumkin emas degan fikrga keldi, uning nazdida amir va uning atrofidagilar shu qadar johilki, bunday maslahatlarni qabul qilishga qodir emaslar. Shu yillarda Shohin “Badoe-us-sanoe” asarini yaratdi. Bu risolada u o‘z davrining ijtimoiy illatlarini, davlat rahbarlari va amirning manmanlik va boshqa ko`plab illatlarini kinoyalar bilan fosh etadi. Qolaversa, bu vaqtda u amir va uning tarafdorlarini maqtash bilan yosh umrini behuda orzu-havaslar bilan o‘tkazganini aytadi. Umrining so‘nggida yozgan masnaviyida butun o‘tmish yoshligini afsus va pushaymonlik bilan o‘tkazib, zamon va uning ahlini qattiq ayblaydi. Quyida shoirning ayrim baytlarini ko`ramiz:

Bu dahrda buncha ko‘p fitna-yu kin bo‘lmasa,
Bu davrda hunar ayb, xoru zabun bo‘lmasa,
Ilmda zarardan o‘zga biror yakun bo‘lmasa,
Eshak odam sanalsa, odamga kun bo‘lmasa,
Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo‘lmasa,
Ammo netayki, o‘zga joy men uchun bo‘lmasa?

Tokay shirin va’dalar qilib Shirin berar pand,
Ko‘hkan kabi besutun tog‘lariga qilar band,
Qon arig‘i yurakdan bo‘lur ko‘zimga payvand,
Tesha qani, «oh» yo‘lin dildan ochsa daf’atan?..
Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo‘lmasa,
Boshga bu zol boltasin zahmi har kun bo‘lmasa…
(Sadriddin Salim Buxoriy tarjimasi)

Shamsiddin Shohin ijodini o‘rganishni Ahmad Donish boshlab bergan XIX asr oxiridagi ilg‘or adabiy va tafakkur harakatini belgilashda katta ahamiyatga ega. Shohin ijodi orqali badiiy adabiyotda mumtoz adabiyotning eng yaxshi an’analarini davom ettirib, o‘z asarlarida adolat, insonparvarlik, ozodlik g‘oyalarini hamda o‘z davrining yetakchi g‘oyasi – ma’naviy tarbiyani ilgari suradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Shohin ijodini rivojlanish xususiyatiga ko‘ra 3 davrga bo‘lish mumkin:

1. Mumtoz adabiyotdan saboq olish va uning ta’sirida asarlar yaratish, boshqacha aytganda

– mumtoz adabiyotga taqlid qilish davri. Shohin ijodining bu davridagi adabiy mahsuli “Layliyu Majnun” qissasidir.

2. Xalq va ozodlik g‘oyalarini ilgari surishda amirlarning yordamiga tayanish, adolatni targ‘ib qilish uchun amirlarga goh tanqid, goh maqtov yo‘li bilan murojaat qilish. Shohin ijodining bu davrida “Do‘stlar tuhfasi” asari yuzaga keldi.

3. Davlat amirlari va amaldorlarining yordamidan hafsalasi pir bo‘lib, Ahmad Donishning tanqidiy-ma’rifiy asarlari, fikrlari bilan tanishish, amirlikni tanqid qilish ruhidagi asarlar davri. Bu davrning namunasi – “Badoye-us-sanoye” asari.

Shohin ijodida “Layli va Majnun” qissasi alohida o‘rin tutadi. Bu qissa hajmi jihatidan unchalik katta bo‘lmasa-da, mumtoz adabiyot an’analari asosida kuylangan. Ta’kidlash joizki, shoir bu qissasida zamon va muhit haqidagi o‘z his-tuyg‘ularini, o‘y-fikrlarini ifodalashga harakat qilgan.

Ma’lumki, “Layli va Majnun” qissasining yozilishiga shoir hayotida sodir bo‘lgan fojiali voqea sabab bo‘lgan. Shoir “Layli va Majnun” asarini bir oy davomida yozdi. Mazkur asar 2200 misradan iborat. Nizomiy qissasidan keyin kuylangan an’anaviy qissalardan tashqari fors-tojik she’riyatida bu mavzuda yozilgan boshqa asar yo‘q edi. Shohin bu adabiy an’anani qayta tikladi va “Layli va Majnun” qissasini o‘ziga xos uslubda yozdi. Asarda shoirning Nizomiy masnaviylari va Xusrav Dehlaviydan ilhomlanganligi yaqqol seziladi. Shohin bu qissada Layli va Majnunning muhabbati fojiasini ko‘rsatishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan bo`lsa-da, qaysidir ma’noda unda o‘zining ahvoli, sevgisini ham tasvirlagan. Shoir obrazidan Majnun zamon voqealari oldida ojiz. Majnun ishq va mehr tuyg‘ularida Layliga teng kela olmaydi. U Majnun-Shohin timsolida zamonning nohaqligi, zulmi yuksak muhabbat tuyg‘usining poymol bo’lishini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu bois “Layli va Majnun” qissasi garchi an’anaviy mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, shoir davri sharoiti bilan juda chambarchas bog‘liqligini ta’kidlash joiz.

“Do‘stlar tuhfasi” Shohinning Sa’diy Sheroziyning “Bo‘ston”iga ergashib yozgan axloqiy-ma’rifiy asaridir. Muallif mazkur asarni yozishni ancha oldin rejalashtirgan. Asar Sa’diyning asari kabi 10 bobdan iborat bo‘lishi kerak edi. Biroq hayotida yuz bergan ko‘plab fojealar sababli Shohin asarni 10 bobga yetkaza olmaydi. İjodkor niyatiga ko‘ra har ikkala asarning mazmun mundarijasi ham bir biriga muvofiq bo‘lishi lozim edi. Faqat to‘qqizinchi bob “Bo‘ston”ning to‘qqizinchi bobidan farqli bo`lishi ko‘zda tutilgandi. Sa’diyda to‘qqizinchi bob tavba haqida bo‘lsa, Shohin to‘qqizinchi bobni sabrga bag‘ishlashni reja qilgan edi.

“Do‘stlar tuhfasi” Shohinning insoniy axloq, davlat siyosati haqida yozmoqchi bo‘lgan asaridir. Muallif asarning birinchi bobi kirish so‘zi va bir qismini yozishga muvaffaq bo‘lgan, xolos. Bobning mazmunidan anglashiladiki, Shohin saroyga yaqinlashgan sari amir va xalqining axloqi, ahvolini anglab yetgan, o‘sha davrdagi davlat va uni boshqarish haqidagi dunyoqarashi, fikrlari o‘zgargan. Madrasa talabasi bo‘lgan chog‘larida amirni adolatli, saroyini esa pokiza adolat maskani deb hisoblagan. Amir, vazir va saroy a’yonlarini ko‘rgach jamiyatdagi ko‘plab illatlar va baxtsizliklarga o‘sha davr hukmdorlari sababchi degan xulosaga keladi. “Do‘stlar tuhfasi” masnaviyi Shohin ijodi, ijtimoiy tanqidiy g‘oyalari rivojida juda muhim davr bo‘ldi. Garchi bu masnaviy to‘liq yozilmagan, shoir fikrlari to‘la ifoda etilmagan bo‘lsa-da, uning keyingi ijodi, g‘azallari, ayniqsa, “Badoe us-sanoye”da ijtimoiy-tanqidiy mulohazalarning rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi.

“Badoye-us-sanoye” risolasi Shamsiddin Shohin umrining oxirida yozilgan. Shohin mazkur asarida o‘z davrining ijtimoiy illatlarini dadil tanqid qiladi, bu tanqidlar asosan ramz va metaforalar pardasi ostida, kinoya bilan ifodalangan. Asarni mavzu-mundarijasiga ko’ra uch qismga bo‘lish mumkin:

1. O'sha davr muhiti va jamiyatining tanqidi.
2. Davlat rahbarlari va saltanat egalarini tanqid qilish.
3. Jamiyatdan ko’ngli to`lmagan, o‘zini yolg‘iz his qilgan shaxs sifatida shoirning o‘z ruhiyati, ahvoli tasviri.

U qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, o‘zidan juda boy va qimmatli meros qoldirdi. Uning merosi g‘azaliyot kitobi, “Layli va Majnun” masnaviyi, tugallanmagan “Do‘stlar tuhfasi” masnaviyi, “Badoye-us-sanoye’” risolalaridan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. – Buxor, 2015.
2. Sadriddin Salim Buxoriy. Buxoriylar bo‘stoni. – Buxoro, 1991.
3. Намунаи адабиёти тоҷик // Муҳит — Плеханов. — Д.:СИЭСТ, 1984.

Ilhomjon MADRAHIMOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
ilhomjonmadrahimov3@gmail.com

GRAMMATIK KATEGORIYA – LISONIY PARADIGMA TURI

Annotatsiya: maqolada grammatik kategoriya lisoniy paradigmaning ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflangan. Bu yondashuv tilshunoslikdagi so‘nggi yondashuvlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: *grammatik kategoriya, tasnif, tasniflovchi grammatik kategoriyalar, funksional-grammatik kategoriyalar, “oraliq uchinchi” kategoriyasi, lingvistik element, morfologik kategoriya, sintaktik kategoriya, umumturkiy kategoriya, leksema, UGM (umumiy grammatik ma’no), OGM (oraliq grammatik ma’no), XGM (xususiy grammatik ma’no).*

Аннотация: в статье грамматическая категория описывается как одно из проявлений языковой парадигмы. Этот подход отличается от новейших подходов в лингвистике.

Ключевые слова: *грамматическая категория, классификация, классифицирующие грамматические категории, функционально-грамматические категории, категория «промежуточная третья», языковой элемент, морфологическая категория, синтаксическая категория, универсальная категория, лексема, ОГЗ (общее грамматическое значение), ПГЗ (промежуточное грамматическое значение), КГЗ (конкретное грамматическое значение).*

Annotation: the article describes the grammatical category as one of the manifestations of the language paradigm. This approach differs from recent approaches in linguistics.

Key words: *grammatical category, classification, classifying grammatical categories, functional grammatical categories, category “intermediate third”, linguistic element, morphological category, syntactic category, universal category, lexeme, GMM (general grammatical meaning), IGM (intermediate grammatical meaning) , SGM (specific grammatical meaning).*

Ta’kidlash joizki, XX asrning so‘nggi choragidan boshlab o‘zbek tili grammatik kategoriyalarini milliy xususiyatidan kelib chiqib tasniflashga e’tibor kuchaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, H.Ne’matovning grammatik kategoriyalar tasnifiga yondashuvi diqqatga sazovor. Olim qadimgi turkiy til misolida grammatik kategoriyalarni quyidagicha tasniflaydi:

1) tasniflovchi grammatik kategoriyalar ma’lum so‘z turkumi uchun xarakterli bo‘lib, nutqda ifodalanishidan qat’i nazar uni leksik-grammatik jihatdan farqlaydi;

2) funksional-sintaktik kategoriyalar ma’lum bir gap bo‘laklariga tegishli bo‘lib, mazkur bo‘lakning qaysi turkum bilan ifodalanishi ahamiyatsiz;

3) yuqorida ko‘rsatilgan belgilarga nisbatan neytral bo‘lgan grammatik kategoriyalarning so‘z turkumiga ham, gap bo‘lagiga ham daxli yo‘q.

H.Ne’matovning tasnifida eng muhim jihat oraliq uchinchi kategoriyasining mavjudligidir. Olimning quyidagi xulosasi tilshunoslikda keyingi yangi tadqiqotlarning amalga oshirilishiga olib keldi: “Shunday qilib, lingvistik elementlarda bir xil grammatik shaklning har xil turlari, shuningdek, bir turkumning turli shakllari va turli grammatik kategoriyalarning munosabati “oraliq uchinchi” orqali amalga oshiriladi, bu esa ushbu hodisalarning birligini va davomiyligini (o‘zaro o‘tishini) ta’minlaydi” [17, 162]. H.Jamolxonov qadimgi turkiy tilda ham, eski o‘zbek tilida ham har bir so‘z turkumining o‘ziga xos grammatik kategoriyalari (otlarda − egalik, kelishik, son; sifatlarda − daraja; fe’llarda − shaxs-son, mayl, nisbat, zamon va b.) bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bu xususiyatlar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga ham xos. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qadimgi turkiy va eski o‘zbek tillaridan farq qiladigan yangi jihatlarning ham uchrashiga misollar keltiradi [3, 11].

B.Mengliyev grammatik ma’no bilan uning shakliy ifodasi birgalikda grammatik kategoriyani tashkil qiladi, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, grammatik kategoriyalar bevosita morfologiyaga xos bo‘lgan so‘z turkumlari, grammatik son, kelishik, zamon kabi hodisalarni, shuningdek, sintagma, ega, kesim, to‘ldiruvchi kabi hodisalarni (sintaktik kategoriyalarni) o‘z ichiga oladi [11, 138]. Shunga ko‘ra, grammatik kategoriyaning 2 turi farqlanadi:

1) morfologik kategoriya;

2) sintaktik kategoriya.

O‘zaro bir-biriga zid qo‘yilgan va qiyosan olingan grammatik ma’nolar tizimi va ularga xos ifoda vositalari – grammatik shakllar tizimi morfologik kategoriya deyiladi. Morfologik kategoriyalar so‘zning qaysi turkumga kirishi bilan bog‘liq. Har bir so‘z turkumining o‘z grammatik kategoriyasi bor. Masalan: otlarda kelishik kategoriyasi, son kategoriyasi, fe’llarda shaxs-son kategoriyasi, nisbat (daraja), zamon shakllari tizimlarining har qaysisi o‘ziga xos grammatik ma’nolar majmuasiga va shu ma’nolarning ifoda shakllari tizimiga ega. Asosida yotuvchi ma’nosiga ko‘ra birlashib, sintaktik munosabatni ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi shakllar tizimi sintaktik kategoriya deyiladi. Grammatik kategoriyalar umumiy hodisa sifatida xususiy hodisalarda mavjud bo‘ladi, xususiy hodisalar umumlashmasi asosida yuzaga keladi [1,89].

B.Mengliyev qarashlarida grammatik kategoriyalar tasnifiga zamonaviy yondashuv aks etadi. Olim grammatik kategoriyalarni so‘z turkumlari doirasida alohida emas, morfologik yoki sintaktik munosabatni ifodalashiga ko‘ra tasniflaydi.

B.Mengliyev grammatik kategoriyani shunday ta’riflaydi: “Har qanday lisoniy sistema, bir vaqtning o‘zida, lisoniy paradigma sanaladi. Grammatik kategoriyalar ham lisoniy paradigma ko‘rinishlaridan biri” [2, 49]. Ko‘rinadiki, olim grammatik kategoriyani ham lisoniy paradigma ko‘rinishlaridan biri sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv ham XX asrdagi yondashuvlardan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

B.Mengliyev doktorlik dissertatsiyasida shunday yozadi: “Har bir til yaxlit tizim sifatida olinganda, u sof milliy qurilish va tuzilishga ega. Tillararo ulkan o‘xshashliklar ularning sathlariaro o‘zaro munosabatlarida emas, balki turli sath birliklari aro munosabatlarida, ya’ni har bir sath birligi o‘zga sath birliklaridan uzib tahlil etilganda va o‘zga tilning shunday sathlaridan ajratib olingan birligi bilan qiyoslanganda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, kelishik rus tilida ham, o‘zbek tilida ham ma’lum bir ma’no ifodalashi va so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qilishi bilan o‘xshash, lekin bu kategoriya rus tilida ot turkumini shakllantiradi, sifat, son, kabi so‘z turkumlarini otga ergashtiradi, ya’ni so‘z turkumi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek tilida esa holat butunlay boshqacha bo‘lib, kelishik umumturkumiy kategoriyadir. Shuning uchun milliy tilning milliy tizimi uning barcha sathlari tabiiy, ontologik hamkorlikda tahlil etilgandagina ochilishi mumkin” [11, 41].

B.Mengliyev grammatik kategoriyalarning quyidagi xususiyatlarini ta’kidlaydi: “Nosintaktik sanalib kelingan morfologik shakllarning sintaktik imkoniyatlarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

1. Otlardagi son kategoriyasi shakllari o‘zi birikkan so‘zning birikuvchanligiga ta’sir qiladi. Masalan, leksema ko‘plik son shaklini olib nutqda voqelanar ekan, shakl asos so‘zni son turkumiga oid so‘zlarni talab qilish imkoniyatidan mahrum qiladi.
2. Nisbat kategoriyasi fe’l birikuvchanligini o‘zgartirib, uning sintaktik vazifasini almashtiradi: Karim o‘qidi. Kitob Karim tomonidan o‘qildi.
3. O‘zgalovchi kategoriyasi shakllari fe’lni fe’lga (ravishdosh), fe’lni otga va fe’lga (sifatdosh) bog‘lash, otga xos sintaktik vazifalar ado etish (harakat nomi) imkoniyatlariga ega.
4. Mayl/zamon shakllari gap kesimini shakllantirish bilan birga fe’lga turli xil payt ma’nolarini ifodalovchi SSh (sintaktik shakl)larni tobelaydi” [11, 140].

Bu tasnifda olim grammatik kategoriyalarning yuzaga chiqishidagi aralash omillarni isbotlaydi.

Mustaqillik davri tadqiqotlarida o‘zbek tili grammatik kategoriyalarining qator xususiyatlari aniqlandi. Bunga misol tariqasida umumiy grammatik ma’noning xususiy grammatik ma’nolarga parchalanishi yoki oraliq grammatik ma’noning mavjudligi haqidagi qarashni keltirish mumkin.

B.Mengliyev buni quyidagicha izohlaydi: “Son kategoriyasiga mansub (0) shakl UGM (umumiy grammatik ma’no)si sifatida “bo‘linmas aniq-no-aniq miqdor” tiklangan. Bu shaklga xos zotiy mohiyatning voqelanishi ham uni tiklashdagi kabi qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Dastavval, shaklning moddiy ko‘rsatkichdan xoliligi masalani murakkablashtiruvchi sabab bo‘lsa, ikkinchidan, unda birlik va ko‘plik miqdoriy mohiyatlari bilan qorishgan holda yashaydigan noaniqlik-aniqlik sifatiy mohiyat tajallilari uning o‘ziga xos xossasini tiniq idrok qilish imkonini cheklaydi. B.Mengliyev tadqiqotchilar shaklning bir nechta oraliq ma’nolarini farqlashini yozar ekan, H.Ne’matov nol (0) shaklning bevosita miqdor bilan bog‘langan yoki bog‘lanmagan 8 ta ma’no turini ajratganligini aytadi. Sh. Shahobiddinova esa shakl UGMsini 3 ta OGM (oraliq grammatik ma’no) asosida tiklaydi” [11, 143]. B.Mengliyevning OGM haqida quyidagi xulosasi e’tiborga molik: “Xususiyliklarni tiklash pog‘onali tabiatga egaligi tufayli XGM (xususiy grammatik ma’no) va UGM orasida ularni bog‘lovchi bo‘g‘inlar ajratiladi. OGMlar shunday murakkab mavjudlikki, unda bevosita XLM (xususiy-lug‘aviy ma’no)ning ham, ULMning ham xossalari mavjud bo‘ladi. OGMlar nafaqat umumiyliklarni umumlashtirishlarning, balki ULMlarning XLMlar orqali yuzaga chiqishida ham voqelanishning uzluksizligini ta’minlaydi. Tiklanayotgan UGMgacha bo‘lgan OGM bilan voqelanayotgan XLMgacha bo‘lgan OGM tadqiq manbai sifatida qaysi jihati e’tiborga olinayotganligiga qarab farqlanadi. UGMni tiklashda OGMdagi tajalli chetlatilsa, UGM parchalanishida tajallining funksional qiymati aniqlanadi va u muhim” [11, 166].

M.Ernazarova grammatik ma’noning lisoniy va pragmatik omillarini tadqiq qilar ekan, grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida lisoniy va pragmatik omillar munosabati hamda sintaktik shakllar ma’nosining voqelanishida lisoniy va pragmatik omillarni o‘rganadi. Bunda tadqiqotchi grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida lisoniy omillar hamkorligi, grammatik ma’noning nutqiy voqelanishida pragmatik omillar, grammatik ma’noning voqelanishida lisoniy va pragmatik omillarga e’tibor qaratadi. Shuningdek, sintaktik shakllar ma’nosining voqelanishida lisoniy va pragmatik omillarni kuzatadi, tahlil qiladi [24, 78].

“Grammatik ma’noning nutqiy voqelanishini sof lisoniy omillar bilan cheklab qo‘yish mumkin emas. Grammatik ma’no nutqiy sistemada lisoniy tabiatli unsurlarga tegishli hodisa sifatida qaralib, uning voqelanish xususiyatlari lisoniy va nolisoniy (shaxsiy, pragmatik) unsurlar bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganiladi”[24, 81]. “Grammatik shakl variantlarining

tanlanishi, umumiy grammatik ma’nosining nutqiy xoslanishi ko‘plab ichki (lisoniy) va tashqi (nolisoniy) omillar bilan bog‘liq. Bu lisoniy omillar til birliklarining bir-biriga ko‘maklashuvi, biri ikkinchisini, ikkinchisi birinchisini mustahkamlashi tarzida, shuningdek, aksentuativ hodisalar rolining ortishi, uslub kabi omillarning o‘rni, shu bilan birga, so‘z leksik ma’nolarining ayricha xususiyatlarini yuzaga chiqarishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunday omillarning yetakchiligi, birining roli va mavqeyi ko‘tarilganida boshqasining kuchsizlanishi, aslo ular orasidagi ziddiyat va qarama-qarshilik natijasi bo‘lmay, balki “murosa” tamoyiliga ko‘ra, o‘zaro moslashish, hamkorlikning yuzaga chiqishidir” [24, 120].

B.Mengliyev Milliy istiqlol milliy fanlar tamoyillarini o‘zgartirganligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, avval tilshunoslikning nazariy masalalarini hal qilishda rus tilshunosligi andazaviyligi asos bo‘lgan bo‘lsa va milliy tilshunosliklar vakillari unga metodologik asos sifatida yondashgan bo‘lishsa, milliy tafakkurning tutqunlikdan qutulishi natijasida o‘zbek tilshunoslari o‘zbek tilining o‘ziga xos nazariy masalalariga mustaqil tafakkur asosida munosabatda bo‘la boshladilar [15, 4]. Natijada o‘zbek tili hodisalarining turkona tabiatini obyektiv yoritish va ta’lim tizimiga joriy qilish imkoni vujudga keldi va tilshunosligimiz bu vazifalarni ado etish bilan dunyo miqyosiga ham ko‘tarila oldi [10].

B.Bahriddinova Istiqlol yillarida tilning o‘ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo‘ladigan morfologik shakl va kategoriyalarni o‘zbek tilining ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talqin qilinganligini yozadi. Natijada, morfologik shakllarni substansial imkoniyatlari nuqtayi nazaridan lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi va lug‘aviy-sintaktik shakl yasovchilarga ajratib o‘rganish ommalashganligini ham ta’kidlaydi [5, 21].

B.Bahriddinovaning tasnifiga ko‘ra, o‘zbek tilshunosligida quyidagi kategoriyalar lug‘aviy shakl yasovchilar sifatida talqin etiladi:

1) son kategoriyasi;
2) subyektiv baho shakllari;
3) daraja kategoriyasi;
4) nisbat kategoriyasi;
5) bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi;
6) harakat tarzi kategoriyasi.

Grammatik kategoriyalarni lug‘aviy va sintaktik turlarga ajratish I.I.Meshchaninovning “Члены предложения и части речи” asarida ilgari surilgan bo‘lib, “lisoniy sistemaning moddiy tomoni e’tibordan soqit qilinsa, u leksika va sintaksisdangina iborat bo‘lib qoladi”, degan fikr bilan boshlangan bo‘lsa, H.Ne’matov buni turkiy tillar misolida rivojlantirdi; turkiyshunoslikda tasniflovchi kategoriyalar hamda sintaktik kategoriyalar tushunchasini ommalashtirdi [14, 95].

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda grammatik kategoriya, grammatik ma’no, umumiy, xususiy va oraliq grammatik ma’nolar, kategorial, yondosh va hamroh ma’no kabi muammolar tadqiq obyektiga aylandi. Jumladan, lug‘aviy-grammatik shakllarni umumiylik-xususiylik dialektik metodologiyasi tamoyillariga tayangan holda monografik o‘rganish Sh.Shahobiddinova tomonidan boshlab berildi. B.Mengliyev doktorlik dissertatsiyasida biror sathga xos umumiy lisoniy ma’no oraliq ma’nolar orqali nutqqa chiqishida boshqa sathlar hamkorlik qilishi g‘oyasini ilgari surdi; grammatik ma’noni pragmatik aspektda o‘rgandi [11, 46]. N.R.Musulmanova grammatik ma’no tarkibi: uning kategorial, yondosh va hamroh ma’no turlarini ajratdi [12, 10].

O‘zbek tilida son kategoriyasi, uning shakli, har bir shaklning ma’noviy xususiyati, qo‘llanishi haqida A.G‘ulomov [7, 56; 4, 134], A.Hojiyev [20,80; 21, 201], S.Usmonov [19, 127], Sh.Shoabdurahmonov [23, 220], Sh.Rahmatullayev [16, 28-30], Y.Tojiyev [18, 68], G‘.Zikrillayev [8, 112], Sh.Shahobiddinova [22,13] ning ishlarini ta’kidlash joiz. Son kategoriyasi ikki shaklli bo‘lib, neytral shakl va -lar ko‘rsatkichi ushbu yaxlit tizimni tashkil qiladi. Barcha tadqiqotlarda son kategoriyasi shunday tasniflanadi.

Buni H.Ne’matov turkiy tillar grammatik shakllari tizimida nol morfemaning o‘rni, ma’no va vazifalari shaklning o‘zida kategoriya umumiy mohiyatini ko‘proq aks ettirishida namoyon bo‘ladi, deb uqtiradi [13, 49]. [0] shaklni «noaniq miqdor shakli» deb atash haqidagi qarashlar ham mavjud [9, 80-81]. Grammatik shaklning umumiy grammatik ma’nosi haqida Sh.Shahobiddinova [0] shaklda ikki oraliq grammatik ma’noni farqlaydi: (1) miqdoriy aniqlik/noaniqlik; (2) sifatiy bo‘linmaslik.

M.Ernazarovaning xulosasiga ko‘ra, son kategoriyasi shakllari umumiy grammatik ma’nolarining oraliq ko‘rinishlarini bifurkatsiyalashda lisoniy va nolisoniy omillarning ishtiroki darajalanish qonuniyati asosida kechadi. Shakllarning kategorial ma’nolari kuchaygan holatda voqelanganda, lisoniy omillar nolisoniy omillarga nisbatan sustroq ishtirok etadi. Nokategorial ma’noning kuchayishi nolisoniy omillarning kuchayishiga, kategorial ma’noning kuchayishi lisoniy omillarning kuchayishiga to‘g‘ri proporsional [24, 167].

Til hodisalarini milliy xususiyatlari asosida tahlil qilishga qaratilgan, sistem-struktur yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalarini o‘zida aks ettirgan “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” nomli o‘quv qo‘llanmada grammatik kategoriyalar tasnifi quyidagicha berilgan: “Mazkur kategoriya va uning qismi nihoyatda keng qirrali va murakkab tabiatli, uning har bir qirrasi alohida tasnifni talab etadi. Buni quyidagicha guruhlash mumkin: 1) tuzilishiga ko‘ra: ichki paradigmaga ega murakkab kategoriya (kesimlik) va sodda kategoriya (nisbat, son); 2) semantik va sintaktik mohiyatiga ko‘ra: funksional morfologik (son,

daraja) va funksional-sintaktik (kesimlik), morfologik-sintaktik (o‘zgalovchi) kategoriya; 3) leksemaning qaysi semasiga ta’sir etishiga ko‘ra: atash semasiga ta’sir etuvchi, vazifa semasiga ta’sir etuvchi, ifoda semasiga ta’sir etuvchi, ham atash ham vazifa semasiga ta’sir etuvchi kategoriya; 4) faqat bir turkumga xosligi yoki bir necha so‘z turkumiga mansubligiga ko‘ra va h.k.” [7, 199]. Mazkur tasnif oldin ko‘rib o‘tilgan tasniflardan murakkabligi, ko‘p aspektliligi bilan ajralib turadi.

Avvalgi bo‘limda izohlanganligiga qaramay, mazkur kitobdagi keltirilgan morfologik va sintaktik kategoriyaning tavsifini ushbu o‘rinda yana bir bor keltirib o‘tishni ma’qul ko‘rdik.

Morfologik kategoriya so‘zning lug‘aviy ma’nosiga aloqador bo‘lib, so‘z turkumining tasnifiy belgisi hisoblanadi, uni boshqa turkumdan ajratib turadi va qo‘llanilishi, asosan, shu turkum bilan chegaralanadi (bunday kategoriya sirasiga otdagi son, fe’ldagi nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, harakat tarzi, sifatdagi daraja kiradi).

Sintaktik kategoriya mohiyati sintaktik shakl mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan aloqador bo‘lmaydi, u gap bo‘lagi vazifasida kela oladigan istalgan so‘z turkumiga qo‘shilib, gap qurilishida ishtirok etadi. Bunga egalik, kelishik, kesimlik (ichki paradigmasini zamon, mayl, shaxs/son tashkil qiladi) kategoriyalari kiradi.

Morfologik-sintaktik kategoriya har ikki guruhga kiruvchi kategoriya mohiyatini o‘zida kuchsiz darajada saqlaydi. Bu – o‘zgalovchi kategoriya [7, 201].

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, o‘zbek tilining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, amalga oshirilgan tasniflar o‘zbek tili grammatik kategoriyalari mohiyatini to‘liq va to‘g‘ri aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – 89-bet.
2. Hozirgi o‘zbek tili (kirish, fonetik sath, liksik-semantik sath) / darslik. Baxtiyor Mengliyev – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 49-bet.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 11-bet.
4. Айюб Ғуломовнинг илмий мероси. 3-китоб. Ўзбек тилида кўплик категорияси. Морфемикага оид мақолалар. – Тошкент, 2007. – 134-bet.
5. Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакллари тизими (Тур категорияси): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 21-bet.
6. Ғуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944. – 56-бет.
7. Замонавий ўзбек тили. Морфология. (Масъул муҳаррир: Р.Р.Сайфуллаева). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – 199-бет.
8. Зикриллаев Ғ.Н. Феълнинг шахс, сон, ҳурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 112-бет.
9. Любимов К.М. О числовом значении нулевой формы тюркских существительных // Сов. тюркология. 1972. №5. – С.80 – 81.
10. Менглиев Б. Тил илми: зарурият ва анъана / / Маърифат. 2012 йил 28 апрель.
11. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. филол. фан. докт. дисс. – Бухоро, 2001. – 166-бет.
12. Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида): Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 10-бет.
13. Неъматов Ҳ.Ғ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. №2. – 49-бет.
14. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.
15. Нурмонов А., Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Мустақиллик даврида ўзбек тилшунослиги тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. №3. 2011. – 4-бет.
16. Раҳматуллаев Ш. Ҳурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. №1. – 28 – 30-бетлар.
17. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. − Тошкент: Ўқитувчи, 1981.– В. 162-бет.
18. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 68-бет.
19. Усмонов С. Ўзбек тилида сўзларнинг грамматик формалари // Тилшунослик масалалари. – Тошкент, 1964. –126 – 127-бетлар.
20. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Тошкент, 1979. – 80 б.
21. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – 201-бет.
22. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – 13-бет.
23. Шоабдураҳмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 217 – 220-бетлар.
24. Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида: филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2017. – 167-бет.

Zulfizarxon AZIZOVA,
“University of economics and pedagogy”
NOTM dotsenti, p.f.b.f.d.(PhD)

SHARQ OLIMLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya: sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari - jahon pedagogikasi rivojiga qo‘shilgan ulkan hissasidir. Ushbu maqolada ularning boy merosi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasi va yetukligini takomillashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi, bolalarga ta’lim berishda nimalarga ahamiyat berish kerakligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *sharq olimlari, Axmedova Feruzabonu, Movarounnahr, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, asarlar, pedagogik fikrlar, Sharq Renessansi.*

Аннотация: педагогические воззрения восточных мыслителей являются большим вкладом в развитие мировой педагогики. В данной статье говорится о том, как их богатое наследие служит важной основой для улучшения морально-нравственного облика и зрелости молодого поколения, и чему следует придавать значение в воспитании детей.

Ключевые слова: *восточные ученые, Моваруннахр, Мухаммад Муса аль-Хоразми, Абу Наср Фараби, Ахмад аль-Фаргани, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, труды, педагогические идеи, Восточный Ренессанс.*

Annotation: the pedagogical views of Eastern thinkers are a great contribution to the development of world pedagogy. This article talks about how their rich heritage serves as an important basis for improving the moral character and maturity of the younger generation, and what importance should be attached to in raising children.

Key words: *eastern scientists, Mowarunnahr, Muhammad Musa al-Khwarizmi, Abu Nasr Farabi, Ahmad al-Fargani, Abu Raikhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, works, pedagogical ideas, Eastern Renaissance.*

Yoshlar tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o‘rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo‘lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go‘zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi.

Abu Abdulloh Xorazmiy «Al jabr val-muqobala», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Yer sathini o‘lchash», «Quyosh soatlari to‘g‘risida», «Yahudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» nomli asarlarida pedagogik fikrlar yuritgan. Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, induksiya, deduksiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi;

– u birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi;

– hindlarning o‘nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

– Xorazmiy hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

Abu Rayhon Beruniyning «Minerologiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» va boshqa asarlarida ilmiy-pedagogik qarashlar mavud:

– Beruniy insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi;

– u insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo‘ladi.

Beruniy ta’limotiga ko‘ra, inson kamolotida uch narsa muhim rol o‘ynaydi: 1.Irsiyat. 2.Muhit. 3.Tarbiya.

Beruniyning ilmiy bilimlarni yengillash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o‘quvchiga bilim berishda:

– o‘quvchini zeriktirmaslik;

– bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;

– uzviylik, izchillik;

– yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon yetish va hokazoga e’tibor berish kerakligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-qonun», «Ishq haqida risola», «Hayy ibn-Yakzon», «Donishnoma» tarbiya va ta’lim haqida asarlari hisoblanadi..

Ibn Sinoning fikricha, insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o‘ch olish, adovat, bo‘hton, irodasizlik kabilardir. U fanlar tavsifi haqida ham fikr bildirgan. Olim birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarini qo‘yadi. Falsafani esa ikki guruhga-nazariy va amaliy guruhga bo‘ladi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni kiritgan. Ibn Sino bilim olishda bolalarni jamoa bo‘lib maktabda o‘qitish zarurligini ko‘rsatadi va ta’limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

Zero, ma’rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo‘shadi.

Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta'kidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o'z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta'lim metodlari haqidagi ta'limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g'oya yotadi.

Bolalar birga to'planganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar. Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

– bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

– ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;

– olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

– o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

– bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

– o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o'zining «Tadbiri manzil» asarida maxsus bo'lim bag'ishlaydi. «Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash» bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish yemas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi.

Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Asar o'n to'rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki to'rt bobi an'anaga ko'ra muqaddima bo'lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlangan. Bu boblarda, asosan, bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqlilikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi. Asarda boshqa ta'limiy-axloqning asarlar kabi insonni barkamol etishning asosiy belgisi bu uning xushxulqligidir, deyiladi. Shuning uchun adib asarda axloqning tarkibiy qismi sanalgan tilni tiyish, mol-dunyoga muhabbat qo'yishning oqibatlari, saxovat va baxillik, kamtarlik, jinoyat yo'lidan saqlanish haqida, harom va halollikning farzlari, ularni bir-biridan farqlay olish, e'tiqod va sadoqat kabi muhim masalalar ustida fikr yuritadi. Kaykovusning o'zi ta'kidlaganidek, butun bir asar oxirgi bobda ta'rif berilgan javonmardlar tarbiyasiga bag'ishlangan. Kaykovus: «... barcha fikr va tushunchalarimni sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, har hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirq to'rt bobda bayon etdim», deyish bilan har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush tajribasi bilan bog'langan holda kamolga yetkazish yo'llari va usullarini bayon yetgan.

Kitobda javonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Bilim olish haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3.Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

Chunki har bir javonmard uchun tan, jon, havas va maoni, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr yetilgan. Kaykovus Pifagor aytgan quyidagi o'n xislatni har bir kishi o'zida tarkib toptirishini ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urishmaslik; hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik: riyokor, ikkiyuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik: yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik: baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; g'ayr, dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda o'tirmaslik; kishilarga sir aytmaslik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakat qilish; biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamaslik; muhtoj bo'lgan odamni gina, qahr bilan qo'rqitmaslik; gunohkorning gunohini avf etish; kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik kabi hayotiy tavsiyalarni keltiradiki, inson o'z hayotida har bir daqiqada bunday xatti-harakatlarga duch keladi.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalarini Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni ulug`laydilar va barchani ijobiy fazilat va xislatlar egasi bo'lishga chorlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizova Z.F.Allomalar talqinida axloqiy tarbiya masalalari. "Raqamli iqtisodiyot davrida uzluksiz ta'lim: innovatsiya va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Andijon. 2024 yil, 393-397-betlar.

2. Axmedova F.A. Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida o'quvchi -yoshlarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. International Conference on Developments in Education Hosted from Delhi, India, 2022 y., 47-bet.

3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – Toshkent: Meros, 1993. 182 bet.

4. 7. Tillayev X.X., Kamolova N.K. O'rta asr qomusiy olimlari va ularning ma'naviy – ma'rifiy qarashlari. – T.: «Cho'lpon», 2004.

Baxtiyor OMONOV,
Qo ‘qon DPI o‘qituvchisi , PhD

GEOLOGIYA SOHASIGA OID TERMINLARNING ILMIY TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada asosiy geologik atamalarni chuqur o‘rganish, sohada qo‘llaniladigan so‘z boyligini aniqlashtirish va standartlashtirishga qaratilgan. Ushbu atamalarning kelib chiqishi, xususiyatlari va ahamiyatini batafsil yoritib, maqola talabalar va geologiya sohasidagi mutaxassislar uchun qimmatli ma’lumotnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, terminosistema, semantika, leksikologiya, kognitiv geologiya, so‘zlashuv uslubi.*

Annotation: this article focuses on the in-depth study of key geological terms, clarification and standardization of vocabulary used in the field. Explaining in detail the origin, characteristics and significance of these terms, the article will serve as a valuable reference for students and professionals in the field of geology.

Key words: *terminology, terminosystem, semantics, lexicology, cognitive geology, speech style.*

Аннотация: данная статья посвящена углубленному изучению ключевых геологических терминов, уточнению и стандартизации лексики, используемой в этой области. Подробно объясняя происхождение, характеристики и значение этих терминов, статья послужит ценным справочником для студентов и специалистов в области геологии.

Ключевые слова: *терминология, терминосистема, семантика, лексикология, когнитивная геология, стиль речи.*

Terminlarga bo‘lgan ehtiyoj umumiy so‘zlarga qaraganda ancha yuqori, shu bilan birga, ba’zi fanlardagi terminlar sonining o‘sishi tildagi umumiy so‘zlar sonining o‘sishini ortda qoldiradi. Shuni qayd etish mumkinki, ayrim fanlarda terminlar soni umumqo‘llanishda bo‘lgan so‘zlar sonidan oshib ketadi.

Maxsus so‘zlar sifatida terminlar ma’lum maqsadlar bilan cheklangan va ular har doim aniq ma’noda tushunchalar va ularning nomlarini ifodalash uchun ishlatiladi va bu holat fan, texnika va siyosatning barcha sohalarida zaruriy talabdir.

Bu turdagi so‘zlar nafaqat tilda, balki muayyan terminologiyaning bir qismi sifatida ham mavjud bo‘ladi. So‘zlar yaxlit tahlil qilinsa, bu so‘zlar polisemantik holda uchrashi va faqat muayyan termindan foydalanganda aniq ma’noda ishlatilishi mumkin. Shuning uchun, ko‘pincha, termin oddiy so‘z kabi kontekstni talab qilmaydi, chunki termin: a) ma’lum bir terminologiyaga ishora qiladi va xuddi shu sabab kontekstni talab qilmaydi; b) so‘z reestrlar matnlarida bo‘lgani kabi ba’zi hollarda ishlatiladi; s) demak, so‘z, umuman, tilda emas, balki ushbu terminologiya doirasida aniq ma’noga ega bo‘lishi kerak.

Aytish joizki, muayyan termin ba’zan turli terminologik guruhlarga tegishli bo‘lishi mumkin va bu fan sohalariaro omonimiyani yuzaga keltiradi. Masalan, “morfologiya” termini: 1) tilshunoslikda so‘z shakllari haqidagi ta’limot; 2) biologiya va tibbiyotda odam, hayvon tanasidagi organ, to‘qimalar shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fan. Yoki “o‘zak” termini “reduksiya” termini:

1) fonetikada tovushning reduksiyaga uchrashi, qisqarishi; 2) falsafada murakkab hodisalarni oddiy hodisalarga xos qonunlar yordamida tushuntirish;

3) iqtisodda qimmatli qog‘ozlar kursining yoki valyuta bahosining pasayishi kabi fanlararo sohalarda bo‘lgani kabi.

XX asr o‘rtalarida terminning asl tilshunoslik tushunchasi istiqboli natijasida mantiq sohasidagi terminologiya tilshunoslikda keng qo‘llana boshladi va natijada, zamonaviy leksikologiyaning “termin” tushunchasi yaqqol ajralib qoldi. A.V. Kalinin yozganidek: “Termin va kasbga oid so‘zlar o‘rtasidagi farq shundaki, termin ma’lum bir fandagi muayyan tushunchaning butunlay rasmiy, qabul qilingan nomlanishi hisoblanadi; kasbga oid so‘zlar esa, ma’lum bir kasb, mutaxassislikdagi insonlar orasida keng tarqalgan (ko‘pincha, so‘zlashuv nutqida) yarim rasmiy so‘z hisoblanadi, biroq ma’lum bir tushunchaning qat’iy, ilmiy nomlanishi deb qaralmaydi” .

Hozirgi kunda terminologiya alohida, mustaqil fan sifatida, o‘z qonuniyatlari va tadqiqot usullariga, tasniflar tizimi, interpretatsiyasi va rivojlanishning asosiy yo‘nalishlariga ega. Masalan, fizika-matematika sohalariga oid terminologiya bugungi kundagi terminologiyaning zamonaviy ilmiy talablariga javob beradi. Lekin, o‘z tarkibida semantik, struktural va taraqqiyot qonuniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi.

Umumiy foydalanishdagi so‘zlarni terminologizatsiya qilish, shuningdek, chet tillardan o‘zlashtirish yoki kalkalash orqali shakllanadi. Ayrim hollarda bir so‘z turli predmet tarmoqlari terminologiyasiga kirganda, omonimiya hodisasi yuz beradi. Masalan, lotin tilidan o‘zlashgan “ligatura” (lotincha - ligatura) so‘zi metallurgiya sohasida - “qorishma uchun qotishmalar” ma’nosiga ega, ammo jarrohlik sohasida bu termin qon tomirlarini bog‘lash uchun ishlatiladigan “ip” degan ma’noni anglatadi. Musiqa nazariyasi sohasida bu termin - alohida yozib olingan turli xil balandlikdagi va oddiy nota belgilari jamlangan “grafema” degan ma’noni anglatadi.

Hozirgi zamon terminologiyasi fanida turli tillardagi

ma’lum ilmiy terminlarning semantik tizimini birlashtirish va shu bilan birga, terminologiyaning turli sohalarida baynalmilal so‘zlardan foydalanish talabi mavjud.

Zamonaviy terminologiyaning asosiy jihati “termin” tushunchasining ta’riflari bilan bog‘liq. Dastlab, bu masala terminologiya nazariyasining markazida edi. Shuni ta’kidlash kerakki, “termin” tushunchasini aniqlashga umumiy yondashuv mezonlari hozirgi zamon terminologiyasi fanida hali ham mavjud emas. Terminologiya nazariyasida terminning turli ta’riflari mavjud bo‘lib, ular ushbu tushuncha mohiyatining turlicha talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Taniqli terminolog A.A.Reformatskiy ta’kidlaganidek, “Termin tushunchasi bir ma’nolilik, ifodalilik va modallikning past darajadaligi, shuningdek, xalqaro tushunchaga aylanishga “moyilligi”, tizimliligi va mantiqiyligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turishi lozim ”. Keyinchalik bu ro‘yxatga, shuningdek, har qanday terminning konseptual jihati, uning semantik doirasi va muayyan ilmiy tushuncha bilan bog‘liqligi kabi boshqa belgilari va xususiyatlari ham kiritilgan.

Zamonaviy terminologiyadagi terminning xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: aniq ta’rifning mavjudligi, aniqlik, mavhumlikning maksimal darajasi, hissiy xilma-xillik va ifodaning yo‘qligi, qat’iy mantiq, uslubiy betaraflik va izchillik.

Shuni ta’kidlash kerakki, geologiya sohasiga oid terminlarni tahlil qilish va talqin qilishda biz terminning funksional xususiyatidan kelib chiqamiz. Shuning uchun ham bu tanlovni fan tilini adabiy tilning o‘ziga xos uslubi sifatida hamda adabiy tilning o‘ziga xos funksional ifoda turi sifatida ajratish mumkinligi bilan ham izohlashimiz mumkin.

Ma’lum izchillik bir terminni mazmun jihatidan, ichki tuzilishining turg‘unligi bilan va tizimning tashqi tuzilish jihatlari bilan izohlash imkonini beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan xususiyat terminning asosiy va birlamchi xususiyati sifatida ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida ajratilgan .

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, “Terminosistema – barqaror munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan elementlar – terminlarning ichki majmui” degan xulosaga kelish mumkin. Tizimning bu ta’rifi terminologiyaga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan va u o‘ziga xos bir mumtoz jihat hisoblanadi. Terminologiya va terminlar tizimi o‘ziga xos mantiqiy xususiyatlar bilan birlashtirilgan ma’lum terminlar guruhini o‘z ichiga oladi va shu bilan birga, ular mazkur tizimning kichik tizimlarga bo‘linishi va farqlanishidagi belgisini ham ko‘rsatib beradi, bu esa, o‘z navbatida, terminologik maydonlar va kichik maydonlarni taqozo etadi.

“Terminologiya tizimi tabiiy til tizimidan farqli ravishda, boshqa semiotik xarakterdagi tizim sifatida uni til belgilarining xususiy va yakkalangan tizimiga kiritadi. Bir termin, uning mazmuni keng qo‘llanila boshlaganida tilning umumiy elementiga aylanadi, chunki terminologik tizimning paydo bo‘lishining konseptual tabiati bir bilim doirasidagi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarning yaqinligini belgilaydi va aksincha. Tilning umumiy so‘z boyligidan farqli har qanday terminlar tizimi nazariy yo‘nalish, o‘ziga xos maktab, texnik g‘oya jihatidan ancha qat’iy belgilangan bo‘ladi” .

Yuqoridagi olimlarning fikrini inobatga olgan holda, tilshunoslik nuqtayi nazaridan geologiyaga oid terminologiyani o‘rganishda, quyidagi metodologiyaga e’tibor berishimiz lozim: 1) terminologiya – tilning ochiq quyi tizimi; 2) terminologiya til uchun umumiy bo‘lgan va jamiyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ichki qonuniyatlarga ega; 3) terminologiya – jamiyatning muayyan sohasida qo‘llaniladigan terminlar majmui; 4) terminologiya – dialektik qarama-qarshiliklar majmui; 5) termin – fan va texnikadagi mavjud predmetlar, hodisalar va tushunchalarning tilda aks etishi; 6) terminologiya – fan va texnika tarixi bilan bog‘liq tarixan rivojlanayotgan lingvistik hodisa; 7) terminologiya – har bir tilga xos ijtimoiy hodisa; 8) terminologiya – tilning umumiy tizimidagi quyi tizim; 9) termin shakli va mazmunining birligi .

Til ilmiy bilishning tarkibiy va kognitiv elementidir. Fan qanchalik ilmiy termin va tushunchalar bilan ta’minlangan bo‘lsa, til shunchalik turli tushunchalarni ifodalay oladi. Fan til tizimiga o‘z terminologiyasi bilan aloqador bo‘ladi va shunga mos ravishda til ham o‘zining ilmiy terminologiyasi bilan fanga kiradi. Tilning boshqa elementlarini ilmiy tushunchalar va ilmiy terminlar tizimi bilan taqqoslab bo‘lmaydi. A.A.Reformatskiy ta’kidlaganidek, “terminlar ijtimoiy uyushgan voqelikni aks ettiradi; ular o‘ziga xos tarzda dolzarblikni bildiradi, shuning uchun terminlar har bir til uchun ijtimoiy majburiy xarakter kasb etadi. Terminologiya ham til, ham fan vositasi sifatida ilmiy nazariyalar, qonuniyatlar, tamoyillar va nizomlarni shakllantiradi. Shu sabab ham terminologiya va terminlar, shuningdek, bularning barchasi, umuman, ilmiy terminlar tizimi sifatida fan-texnikaning muhim

Shu bilan birga kategoriyalar (materiyaga oid, fazoviy, vaqt, miqdor, sifat, o‘lchov) nomlarini aks ettiruvchi predmetlar va ularning sifatlariga oid eng umumiy tushunchalarni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari, kategoriyalarni ifodalay oladigan terminlar terminlarning alohida bir turi hisoblanadi.

Terminlarning yana bir semantik tasnifi termin sifatida qo‘llaniladigan tushunchaning mantiqiy kategoriyasini anglatadi. Fanda: jarayonlar, xususiyatlar, obyektlar, xossalar, miqdorlar va ularning belgilangan birliklarini ifodalovchi terminlar ajratiladi.

Terminlarning semantik (mazmun) tuzilishiga ko‘ra tasnifi bir xil terminlar tizimi ichida ikki va undan ortiq ma’noga ega bo‘lgan polisemantik terminlardan bir-birini ajratishga yordam beradi. Terminlarni semantika nuqtayi nazaridan erkin iboralar va barqaror (shuningdek, frazeologik) iboralar kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Kognitiv geologiya - bu kognitiv fan va geologiyaning fanlararo tadqiqidir. Uning maqsadi odamlarning makon, joy va atrof-muhitni qanday ko‘rishini tushunishdir. U fazoviy idrokimizga ta’sir etuvchi omillarni makonning yanada samarali tasvirini yaratish uchun rasmiylashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu takomillashtirilgan modellar turli muammolarni hal qilishga yordam beradi, masalan, amal qilish osonroq bo‘lgan navigatsiya ko‘rsatmalarini taqdim etish, kosmosdan ko‘proq amaliy foydalanish, madaniyatlararo aloqalarni yanada samarali qilish uchun fazoviy fikrlashda madaniy farqlarni hisobga olish va atrof-muhitimizni yanada chuqur tushunish .

O‘tmishdagi asarlarning retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, kognitiv geologiyaning ildizi amerikalik tadqiqotchilar Y. Tolman (1886-1959), J. Rayt (1891-1969) va G. Uayt (1911-2006), ingliz geografi V. Kirk va boshqalarning ilmiy ishlarida bor. Aynan shu olimlar jahon ilm-fanida birinchi bo‘lib, "miya-aql-idrok" kognitiv uchligini geologiya makoniga "loyihalashtirishga" harakat qilishdi .

Shunday qilib, ushbu terminologik tasniflarning ro‘yxati terminlarni shakllantirish jarayoni ko‘p qirrali jarayon ekanligini ta’kidlashga olib keladi, chunki bir xil termin turli guruhlarga kiritilishi va mantiqiy, lingvistik va ilmiy xarakterdagi muayyan prinsiplarga muvofiq tasniflashning turli toifalariga bo‘linishi mumkin. Ushbu tasnif, umuman, zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy hayotning turli sohalarida terminlarning o‘rni va rolini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская, А.В. Подольская, Н.В. Васильева, Н.В. Общая терминология: вопросы теории [Текст] / А.В. Суперанская, Н.В. Подольская, Н.В. Васильева / Отв. ред. Т.Л. Канделаки: Изд.5-е. – М.: Либроком, 2009. –248 с

2. Герд А.С. Логико-понятийное моделирование терминосистем. Отраслевая терминология и её структурно-типологическое описание: межвузов: сборник науч. тр. – Воронеж, 1988.

3. https://wiki5.ru/wiki/Cognitive_geology

4. Tolmen, E. Behavior and Psychological Man: Essays in Motivation and Learning / E. Tolmen. – Berkeley: University of California Press, 1958. – 286 p.,

5. Wright, J. K. Terrae Incognitae. The Place of Imagination in Geography / J. K Wright // Annals of the Association of American Geographers. – 1947. – No 2. – P 1–15.

6. Калинин А. В. Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – М.: Наука, 1969. – С. 32-61.

7. Потебня А.А. Мысль и язык. -М.: Лабиринт, 1999. –С. 217, – С. 300

8. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология (1959-1961) // Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения: Очерк и хрестоматия. – М., 1994. – 408 с.

Azizbek TOSHPO‘LATOV,
University of business and science
til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

TABIBIY IJODIDA MUSAMMATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada Ahmad Tabibiy turkiy devonlaridan o‘rin olgan musammat janri va uning o‘zbek adabiyotida kurtak yoza boshlashi haqida fikr-mulohazalar yuritildi. Tabibiyning musammat janrida qalam tebratgan eng sermahsul ijodkorlardan biri ekanligi, lirikada 24 janrdan foydalanganligi yoritib berildi. Musammat janrining mavzuviy ko‘lamiga to‘xtalib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: *janr, g‘azal, musammat, she’r nav’i, mustaqil musammatlar (tab’i xud), tazmin musammat, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, muashshar, mustasne’.*

Annotation: this article discusses the musammat genre featured in Ahmad Tabibi’s Turkic diwans and its budding presence in Uzbek literature. It highlights that Tabibiy is one of the most prolific writers in the musammat genre, having written in 24 different lyrical genres. In the research, the thematic scope of the musammat genre is also addressed.

Key words: *genre, ghazal, musammat, types of poetry, independent musammats (tab’i khud), tazmin musammat, murabba, mukhammas, musaddas, musamman, muashshar, mustasne.*

Аннотация: в данной статье были даны комментарии о жанре мусаммата, имевшего место в тюркских диванах Ахмада Табиби, и его многообещающем творчестве в узбекской литературе. Выяснилось, что Табиби - один из самых плодовитых исполнителей, использовавших свое перо в жанре мусаммат, и что в своих текстах он использовал 24 жанра. Затронута тематическая сфера жанра «Мусамат».

Ключевые слова: *жанр, газель, мусамат, тип стихотворения, независимые мусамматы (таби худ), тазмин мусаммат, мурабба, мухаммас, мусадды, мусаммат, муашшар, мустасне.*

Adabiyotshunoslikda, xususan, Xorazm adabiy muhitidagi ijodkorlar Muhammad Rahimxon Feruz davrida ijodiy

kamolotga erishdi. Sermahsul ijodkor Ahmad Tabibiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlar unchalik ko‘p emas. So‘nggi izlanishlar natijasi shoir adabiy merosi yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar olib borish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Jumladan, Tabibiyning faoliyati, lirik asarlari va dostonlari tahlili, forsiy devonlari tadqiqi, shoirning badiiy mahorati kabi masalalar yetarlicha o‘rganilgan emas. Darhaqiqat, Ahmad Tabibiyni eng ko‘p janr va she’riy shakllardan foydalangan ijodkor sifatida ko‘rsatish mumkin. Ya’ni shoir 24 ta janr va shaklda ijod etgan .

Shayx Ahmad Taroziyning “Fununul-balog‘a” asarida she’r janr (nav’)lari haqida quyidagi ma’lumot bor: “Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she’rning aqsomi, ulkim mo’tabardur, o’n nav’ kelibtur: qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mustazod, mutavval, fard” .

Ahmad Tabibiy ham devonlari debochasida she’r nav’lari borasida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan: “O‘n nav’i nazmkim tashbib, g‘azal, mustazod, musammat, ya’ni murabba’dan to muashsharg‘acha, tarje’band, qasida, masnaviy, ruboiy, qit’a, fard itloq qilurlar” . Taroziy keltirgan she’r nav’laridan 9 tasini Tabibiy ham qayd etadi. Shoir adabiy merosi tadqiqida uning musammatlari alohida bir mavzu. Negaki, keyingi izlanishlar natijalari Tabibiy adabiyotimiz tarixida eng ko‘p musammat bitgan ijodkorlardan biri ekanini ko‘rsatmoqda.

Muayyan ijodkor haqida tasavvur beruvchi omil – bu uning asarlari, tartib bergan devonlaridir. Tahlillar shoir ijod etgan lirik asarlari shakl va mazmunan yetuk ekanini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, Tabibiy zamonasining eng yetuk, peshqadam vakillaridan bo‘lgan, deyish mumkin.

“Ahmadjon Tabibiy adabiy me’rosi ko‘lami haqida gap ketganda, shoir musammatlari haqida to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Sababi adabiyotimiz tarixida eng ko‘p musammat bitgan Ahmad Tabibiy bo‘lsa kerak. Tabibiy lirik asarlari jamlangan manbalar tadqiqi hozircha shoirning turkiy (o‘zbek) tilida jami 367 ta musammat bitganini ko‘rsatmoqda” . Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat beradiki, Tabibiy adabiy merosida g‘azallardan so‘ng, eng faol janr – musammatlar degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi.

Tabibiy ijodida musammatning 8 turi mavjud bo‘lib, ular murabba’dan muashshargacha bo‘lgan she’rlardir. Nazariy adabiyotlardagi shakllarning barchasi (faqat musallasdan tashqari) Tabibiy ijodida mavjud. Shoir ijodida mustaqil musammatlar (tab’i xud) va tazmin musammatlar mavjud.

Tab’i xud musammatlar – bu musammat shaklining asl ko‘rinishi bo‘lib, bunda ijodkor o‘zga she’rdan misra, bayt yoki g‘azalni asos qilib olmaydi. Bu turda yaratiladigan musammatlar ijodkorning bor mahoratini ochib beradi va keng doirada mavzu, mohiyat va badiiyat yuklash imkonini beradi. Ta’bi xud musammatlarning bir necha xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu haqida adabiyotshunos G.Xalliyeva mustaqil musammatlar xarakteri haqida shunday yozadi: “Ko‘pincha bu tur musammatlarda: 1. Bandlardagi oxirgi misra bir xil takrorlanadi; 2. Ko‘pchilik g‘azal asosida yaratiladigan musammatlardek, birinchi banddagi oxirgi ikki misra radifi bir xil bo‘lmaydi; 3. Taxallus oxirgi bandning yuqori qismlarida beriladi, g‘azal maqta’sidagidek so‘nggi bandning keyingi ikki qismidan birida berilmaydi” .

Boshqa shoir yaratgan lirik durdonalarni asos qilib olib boyitiladigan, rivojlantiriladigan musammatlarga tazmin musammatlar deyiladi. Tazmin musammatlarda erkinlik cheklangan bo‘lib, faqat asos qilib olingan o‘zga baytlar yoki misralar qofiyasi, radifi, mavzu doirasi moslab yoziladi. Bu shaklda ijod qilish murakkabliklar tug‘diradigan jarayon bo‘lib, oldingi bayt yoki misralar qolipiga qat’iy rioya qilishni talab qiladi. Musammat yaratishning bu turi nazariy adabiyotlarda “g‘azal asosida yaratilgan musammat” istilohi bilan yuritiladi.

Tabibiy lirikasida musammatning tazmin musammat turidan keng ko‘lamda foydalanilgan. Jumladan, Sh.Amonov tadqiqotida keltirilishicha shoir Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Mirzo, Komil, Xolis, Yusuf, Mirzo, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Ravnaq, Rojiy, Rog‘ib, Fano, Murodiy, Xodim, Xokiy, Shinosiy, Niyoziy, Mutrib, Habib, Umidiy, Bayoniy, Tolib, Asad, Oqil, Purkomil, Xayoliy, G‘ulomiy, Adliy, Fyuzot, Maoliy, Nadimiy, Balig‘o, Amir, Xon, Vazir, G‘oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahmiy, Xotam, Ulviy, Vasfiy, Naf’iy, Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham’iy, Mohir, Ayniy, Muhibiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Adliy, Partav, Qoil, Sobir – kabi 85 nafar shoir g‘azallariga taxmislar bog‘lagan.

Tabibiy turkiy devonlarida qayd etilgan tazmin musammatlarning eng faoli sifatida muxammaslar tilga olinadi. Shoir turkiy devonlaridagi muxammaslari soni 300 dan ortiqni tashkil qiladi. Ikkinchi o‘rinda musaddaslari 20 tani tashkil etadi. Yuqoridagi ijodkorlar va bu ro‘yxatda zikr qilib o‘tilmaganlaridan tashqari qolgan musammatlar tab’i xud musammatlar deb ayta olamiz.

Tabibiy turkiy devonlaridan o‘rin olgan ayrim murabba’lariga to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Murabba’lari xalqona bo‘lib, sodda tili bilan ajralib turadi. Murabba’larida asosan ishq-muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi. “Munisu-l-ushshoq” devonida tartib berilgan 4-murabba’:

Boshim uzra tushubdur ishqing ichra to g‘ami furqat,
Bo‘lubdur munisi anduhu dardu hamdamim kulfat,
Ravo ko‘rding ne yanglig‘ chekmagimni bu sifat mehnat,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Taqti’si quyidagicha:

Mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun
V — — —/V — — —/V — — —/V — — —

Ushbu murabba’ aruzning hazaj bahrida bitilgan

bo‘lib, bunda ijodkor yorga murojaat qilishda anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim kabi bir nechta undalmalardan foydalangan. Oshiq mahbuba ishqidan aziyat chekib, boshiga anduh va kulfat yo‘ldosh bo‘lib qolganligini qayd etib o‘tadi. Mahbubasidan bu holatda aziyat chekishini qanday qilib yoriga ravo ko‘rganligidan shikoyat qiladi.

Ahmad Tabibiy ijodi bilan shug‘ullangan mutaxassislar o‘z tadqiqotlarida shoir musammatlari bilan bog‘liq turli ma’lumotlarni keltirishgan. Masalan, adabiyotshunos Fatxulla G‘anixo‘jayev “Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi” nomli tadqiqotida Ahmad Tabibiy mumtoz janrlarning qariyb barcha turida ijod etaganini ta’kidlab, shoirning turkiy (o‘zbek) tilidagi adabiy merosi hajmi haqida quyidagi statistik ma’lumotlarni keltiradi : murabba’lar – 17 ta, muxammaslar – 307 ta, musaddaslar – 30 ta, musabba’ – 1 ta, musamman – 10 ta, mutassa’ – 1 ta, muashshar – 1 ta.

Ushbu ma’lumotlar shoir adabiy merosi bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘ldirilishi kerakligini ko‘rsatadi. Jumladan, Sh.Amonov Tabibiy adabiy merosi qo‘lyozma va toshbosma manbalari yuzasidan amalga oshirgan tadqiqotida kengroq ma’lumotlar berib o‘tadi . Ya’ni matnshunos Sh.Amonov shoir musammatlari bilan bog‘liq quyidagi statistik ma’lumotni keltiradi: murabba’lar – 15 ta, muxammaslar – 307 ta, musaddaslar – 20 ta, musabba’ – 1 ta, musamman – 10 ta, mutassa’ – 1 ta, muashshar – 1 ta.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy lirik merosi, xususan, shoir musammatlari alohida monografik planda tadqiq etilgani yo‘q. Buning uchun avvalo, shoir devonlari nashrlarini amalga oshirish, shu asosda uning adabiyotimiz tarixidagi o‘rnini belgilash dolzarb mavzulardan.

Tabibiy musammatlari asosini ishq-muhabbat mavzusidagi she’rlar tashkil etadi. Qolaversa, bunday she’rlar turli shakl va vaznlarda ekani, ular mazmun va mavzusiga ko‘ra rang-barang ekanini ko‘rsatadi. Bunday lirik asarlar tahlili adabiyotshunosligimizni yangi ilmiy qarashlar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print, 2023. 257-bet.
2.Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununul-balog‘a (Mas’ul muharrir B.Hasanov). – Toshkent: Xazina, 1996. 212-bet.
3. Xalliyeva G. Ogahiy musammatlari (Monografiya). – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. 160-bet.
4. G‘anixo‘jayev F. Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi. Filol. fan. nom... diss. – Toshkent, 1969. 120-bet.

Baxriddin G‘APPOROV,
University of Business and Science, o‘qituvchi
Email: bahriddingapporov91@gmail.com

O‘ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya : ushbu maqolada o‘zbek tilidagi o’zlashma qatlam leksikasini sintaktik va semantik o‘rganishga katta e’tibor qaratiladi. O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida o’zlashma so‘zlar muhim rol o‘ynagan. Ular madaniy va ilmiy aloqalar, savdo-sotiq va boshqa sohalar orqali tilga kirib kelib, uni boyitgan. Arab, fors, rus va boshqa tillardan kirgan o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirib, tilni yanada rivojlantirishga hissa qo‘shgan.

Kalit so‘zlar: *omonimlar, leksik qisqartmalar, “puristlar”, muqobil so‘zlar, internatsional termin, lug‘at fondi, terminlar, affikslar, olinma so‘zlar, leksema.*

Аннотация : в данной статье большое внимание уделено синтаксическому и семантическому изучению лексики приобретательного слоя узбекского языка. Заимствованные слова сыграли важную роль в историческом развитии узбекского языка. Они вошли в язык через культурные и научные связи, торговлю и другие сферы и обогатили его. Заимствованные слова из арабского, персидского, русского и других языков увеличили словарный запас узбекского языка и способствовали дальнейшему развитию языка.

Ключевые слова: *омонимы, лексические сокращения, «пуристы», альтернативные слова, международный термин, лексика, термины, аффиксы, производные слова, лексема.*

Annotation : in this article, much attention is paid to the syntactic and semantic study of the lexicon of the acquisition layer in the Uzbek language. Borrowed words played an important role in the historical development of the Uzbek language. They entered the language through cultural and scientific relations, trade and other fields and enriched it. Borrowed words from Arabic, Persian, Russian and other languages increased the vocabulary of the Uzbek language and contributed to the further development of the language.

Keywords: *homonyms, lexical abbreviations, "purists", alternative words, international term, vocabulary, terms, affixes, loan words, lexeme.*

Tildagi leksik qatlam davrlar osha boyib, ko‘plab lisoniy o‘zgarishlarga yuz tutishi muqarrar jarayondir. Oltoy nazariyasiga ko‘ra, turkiy tillarning jumladan, o‘zbek tilining shakllanish tarixi Oltoy davridan boshlangan [8, 3]. O‘zbek tili lug‘at tarkibi boshqa tillar singari ichki va tashqi manbalar asosida takomillashib, boyib boradi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida manba imkoniyatlari muhim resursdir. Hozirgi o‘zbek lug‘at tarkibining taxminan yarmini turkiy so‘zlar tashkil etadi [14, 124]. O‘z qatlam leksikasining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda (shevaga oid termin va so‘zlar, qisqartmalar, omonimlardan yangi ma’noda foydalanish) lug‘at miqdorini ko‘paytirish mumkin. Asrlar osha turli millat, elatlar biri-birlari bilan o‘zaro ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqada bo‘lib kelishadi. Oqibatda, turli sohaga oid so‘z hamda terminlar bir tildan ikkinchisiga ko‘chgan. Ba’zan o‘sha o‘zlashmalar o‘zgarishsiz qabul qilingan, ba’zan grammatik va fonetik jihatdan qabul qiluvchi til normalariga moslashtirilgan.

O‘zbek tilining leksikasini ichki va tashqi manbalar asosida boyitish hamda takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar 1929 - yilda Samarqandda o‘tkazilgan “Til-imlo” konferensiyasida berilgan edi. Unda quyidagicha qarorga kelishgan: “O‘zbek tilining butun xususiyatlarini saqlagan holda, uni yangi terminlar bilan boyitmoq va kengaytirmoq kerak. Bu boyitish, bir tomondan, o‘zbek tilining o‘z so‘zlari hisobiga bo‘lib, ikkinchi tomondan internatsional so‘zlar hisobiga bo‘ladi. O‘zbek tilida so‘z topilmasa va yasalishi ham mumkin bo’lmasa, ortiqcha sun’iylikka bormasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri internatsional terminlarni olish kerak” [13, 90]. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi yo eski so‘zni yangisi bilan almashtirilishi yoki o‘zga tillardan so‘z qabul qilishni taqazo etadi. “Har qanday til qanchalik rivojlangan bo’lmasin, baribir, o‘z ehtiyojini o‘z qatlam so‘zlari hisobiga qondira olmaydi” [10, 9]. Faqat ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, chetdan so‘z olmasdan, mavjud o‘z qatlam leksikasi bilan cheklanish deyarli imkonsizdir. Biroq, tilning sofligini saqlash millatning ajralmas qadriyati va madaniyati hisoblanadi. Til sofligini saqlash tarafdorlari, ya’ni “puristlar” chet tildan o‘zlashmalar qabul qilinishiga qarshi chiqishadi yoki ularning miqdorini chegaralashni taklif qilishadi [1, 91]. Ularning fikricha, agar o‘zlashma qatlamning o‘z qatlamdagi miqdori ko‘payib ketsa, o‘zlashmalar tilga endi kirib kelgan zahoti ularga o‘z qatlam imkoniyatidan kelib chiqib muqobillarini topish juda muhim [2, 18-19], chunki agar olinma so‘z yoki termin muqobilsiz keng iste’molga kirib ketsa, keyinchalik taqdim etilgan muqobillar o‘zini oqlamasligi ehtimoli juda yuqori.

Shuni yodda tutish kerakki, o‘zlashma qatlam har doim xalq orasida ommalashib, singib ketmasligi ham mumkin. **Jumhuriyat (respublika), firqa (partiya), riyoziyot (matematika), kurrai musannaa (globus), hikmat (fizika)** kabi arab, fors-tojik tillaridan o‘zlashmalar keng ommalashmaganligi oqibatida butunlay iste’moldan chiqib ketgan.

O‘zbek tili boshqa aksar tillar singari sof o‘zbekcha so‘zlar soni bilan maqtana olmaydi, desak mubolag’a bo‘lmaydi, chunki uning lug‘at tarkibining katta qismini tilga bir necha asrlardan buyon turli bosqichlarda boshqa tillardan o‘zlashgan leksemalar tashkil qiladi. O‘zbek tilshunoslari o‘zga tillarda o‘zlashgan so‘zlarni odatda uch guruhga: forsiy, arabiy hamda ruscha-yevropacha so‘zlarga ajratib tadqiq qilishadi [9, 107]. Arabcha o‘zlashmalar son jihatdan yetakchilik qiladi. Filologiya fanlari nomzodi Fotih Abdullayev o‘z tadqiqotlaridan birida o‘zbek tilidagi arabcha so’zlar 55 foizni tashkil qilishi haqida ma’lumot bergan (Abdullayev F. 1945). Yorqinoy Hamrayevaning hisob-kitoblariga ko‘ra, arabcha o‘zlashma leksemalarning o‘zbek tili lug‘atidagi ulushi 34 foizdan ortiqroqni tashkil etadi [5, 2]. Arab tili boshqa turkiy tillar bilan bir qatorda o‘zbek tili leksikasini shakllanishi hamda boyishiga kuchli ta’sir o‘tkazgan tillardan biri sanaladi va bu ta’sirning xususiyati va sabablari ayrim ilmiy tadqiqotlarda o‘z aksini topadi [15, 124-131]. Garchi arabcha o‘zlashmalar o‘zbek leksikasining katta qismini tashkil etsa-da, ular grammatik shakl hamda vazifa jihatdan juda cheklangan va semantik jihatdan esa mavhum xususiyatga ega. Arabcha leksemalarning katta qismini asosan ot hamda sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar egallaydi. Quyida keltirilgan so‘zlarning aksariyati ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ekanligi, yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi; عِلم (ilm), بـاتـِك (kitob), مَسرَدَم (maktab), نـاسـنِإ (inson), ةَّيِّرُح (hurriyat), ريـبَـك (kattalik), قـيِر (to’g’ri), ةَفـرِعَم (ma’rifat).

Arabcha so‘zlar o‘zbek tiliga ikki holatda morfologik jihatdan moslashadi:

a) arabcha so‘zlar negizida o‘zbek tilida yangi so‘zlar hosil qilinishida;

b) arabcha so‘zlarning o‘zbek tilidan grammatik forma yasovchi qo‘shimchalarni qabul qila olishida yaqqol ko‘rinadi [9, 170]. “Arabcha so‘zlarning ko’p va xilma-xil bo’lishi uning o‘zbek tiliga juda qattiq singib ketganini ko’rsatadi. Mana shu arabchadan kirgan so‘zlar orasida o‘zbekcha qo‘shimchalarning yordami bilan yangi so‘zlar maydonga keladi:

– qo‘shimcha (-chi): aloqachi, a’lochi; (-lik): asirlik, a’zolik; (-li): ahamiyatli, muvaffaqiyatli;

– qo‘shimcha (-cha): shahobcha; (-gi): hozirgi; (-la): va (-la) bilan yasalgan negizlar): aniqlash, asoslanmoq, tarbiyalamoq va boshqalar [6, 38].

Fors-tojik va o‘zbek tillarining o‘zaro aloqalari uzoq tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston hududida tarixan ko‘plab turkiy xalqlar yashab o‘tishgan. O‘sha davrlarda ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq gurkirab rivojlangan va bu jarayonlar bu ikki qardosh millatlarning munosabatlarida foydalanilgan lug‘atlarning keyinchalik bevosita yoki bilvosita o‘sha leksik qatlam o‘z tilga fonetik va grammatik jihatdan

o‘zgarib yoki o‘zgarishsiz o‘rnashib qolgan. VII asrda arab tili bilan bir qatorda fors-tojik tili ham ilm-fan va madaniyat tili sifatida faol muomalada bo‘lgan. Ayniqsa, Somoniylar sulolasi IX-X asrlarda o‘z hukmronligining cho‘qqisiga chiqqan bir davrda, forsiy tili (forsiyi dari) , ya’ni Xurosonda yashovchi tojiklarning asosiy muloqot tili, asta-sekin arab tilini siqib chiqara boshladi. Natijada, forsiy til kundalik iste’molda asosiy muomala til sifatida keng yoyildi va bu o‘z o‘rnida o‘sha davrdagi adabiyotlar ham shu tilda yaratilishiga olib keldi [3, 19-20]. O‘zbek tili ham fors-tojik tili ta’sir doirasiga tushib qolgan. Bu hodisa tufayli bizning hududarda ikki tilli muhit shakllana boshladi. XIX-XX asrlarga kelib, Chor Rossiyasi, keyinchalik SSSR Markaziy Osiyo davlatlari ustidan hukmronlikni qo‘lga kiritgan, bu esa mamlakatimizda rus tilining ta’sirini sezilarli darajada oshirib yuborgan. Ruscha o‘zlashmalarni o‘sha davrlarda “barmoq vazni” da yaratilgan she’rlarda ko‘p uchratish mumkin, biroq “aruz” vaznida yozilgan she’riy asarlarda ularni deyarli uchratmaymiz. Bunga sabab sifatida “aruz” she’riy vaznida yaratilgan asarlar, asosan, fors-tojik va arab tilida yaratilgan, chunonchi bu tillar uzoq vaqtlar asosiy muomala tili bo‘lib xizmat qilgan [12, 274].

Semantik jihatdan ruscha so‘zlar doim aynan o‘z tildagi kabi to‘liq ma’nosini saqlayvermagan, balki o‘zlashma sifatida xalq orasida yangi ma’no ham anglatgan;

самовар rus. – samovar o‘zb. So‘zma so‘z tarjima qilinganda “сам” - o‘zi, (o‘zini-o‘zi), “варить” – qaynamoq degan ma’noni anglatgan, ya’ni o‘zi suvni qaynatadigan narsa-buyum. Bu so‘z bir muddat “choy qaynatadigan metal buyum” sifatida foydalanildi. Keyinchalik uning mazmuni bir muncha kengayib, erkaklar choylashadigan yoki oshlashadigan joyga o‘zgardi (choyxona).

Aynan rus tilidan yoki u orqali yevropa tillaridan o‘zlashmalar grammatik jihatdan farqlanadi. Ayrim o‘zlashgan so‘zlar tub o‘zak shaklida, ayrimlari esa affikslar (so‘z yasovchilar) bilan birga bir butun holda tilga kirib keladi. Affikslar rus tili va boshqa tillardan o‘zbek tiliga o‘rnashib qolgan, degan noto‘g‘ri tushunchaga bormaslik darkor, chunki morfema ma’lum tushuncha anglatgani bois, boshqa tilda unga ehtiyoj tug‘ilsa, u o‘sha tilga o‘zlashadi. Biroq, affikslar yordamchi so‘z yasovchi morfemalar bo‘lgani uchun boshqa tilga erkin o‘zlashib ketavermaydi. So‘z yasovchilar qo‘shimchalarning faqatgina yakka o‘zi hech qachon o‘zlashtirilmaydi. Biroq, o‘z tildagi affiksatsiya usuli orqali yasalgan so‘zlar bilan o‘zlashgan qatlam leksikasidagi bir xil affikslar vaqt o‘tishi bilan tilning unumdorligini oshiri mumkin [11, 469].

Affiksatsiya usuli orqali ham, ya’ni so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida ko‘plab so‘zlar tilga singib ketgan: “biblioteka+chi, traktor+chi va aktiv+lik”.

Fonetik o‘zgarishlarga uchrab talaffuz qilinadigan so‘zlar: stakan (стакан), stadion (стадион), mashina (машина), svetofor (светофор) va hokazo.

Ruscha-baynalmilal leksemalar semantik jihatdan turli sohalarga tegishli bo‘lishi mumkin: fabrika, zavod, stanok, texnologiya, elektronika, kompyuter, mobil telefon, radio, televizor, fizika.

O‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida o‘zlashma so'zlarning ahamiyati katta. Tarix davomida turli madaniyatlar va tillar bilan aloqalar o‘zbek tiliga ko'plab yangi so‘zlar kirib kelishiga sabab bo'lgan. Arab, fors, rus, turk va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar nafaqat lug‘at boyligini kengaytirgan, balki ilm-fan, adabiyot, madaniyat va savdo sohalarida tilning rivojlanishiga ham yordam bergan. Masalan, arabcha ilmiy terminlar, forscha adabiy iboralar va ruscha texnik terminlar o‘zbek tilini yanada boyitgan. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlar orqali xalqaro aloqalar mustahkamlanib, madaniyatlararo muloqot rivojlanishi ta’minlangan. Umuman olganda, o‘zlashma so‘zlar o'zbek tilining rivojlanishi, boyishi va zamonaviylashishida muhim rol o‘ynagan, bu esa tilning hozirgi kunda yanada ommalashishi va kuchayishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduzuhur Abduazizov, Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq Nashriyot Matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. – Toshkent, 2010.
2. Ahlers, Jocelyn, and Leanne Hinton, Authenticity in the context of California native languages. Foundation for Endangered Languages Newsletter 5, 1997.
3. I.Yo‘ldoshev, O‘. Sharipova. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. N. Ulug‘ov, Tilshunoslik nazariyasi, Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. – Toshkent, 2016.
5. O‘zbek tilining o’zlashma so’zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2007.
6. Prof. A. K. Borovkov, O‘zbek tilining leksikasidagi o‘zgarishlar va yangi alfavit. SSSR Fanlar akademiyasi O‘zbekiston filialining Axboroti, 1940.
7. T. Choriyev, N. Safarova, Sh. Istamova. O‘zbek tili. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya” 2008.
8. Г. Абдураҳмонов, А. Рустамов. Қадимги туркий тил. –Т.: Ўқитувчи¸ 1982.
9. Э. Бегматов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
10. Р. Жомонов. Сўз ўзлаштиришдаги асосий лисоний омиллар. Ўзбек тили ва адабиёти, 2014.
11. Пауль Г. Принципы истории языка. –М., 1960.

12. Ё. Сайидов. Жадид бадиий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc). диссертацияси. – Тошкент, 2018.
13. Тил-имло конференцияси материаллари. - Тошкент, 1932.
14. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981.
15. Фитрат. Тилимиз / Танланган асарлар. -Т.: Маънавият, 2006.
16. С.Усмонов. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форс ва арабча сўзлар/ Навоийга армуғон. -Т.: 1968.

Gulnora MADUMAROVA,
University of Economics and pedagogy
NOTM, pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

RAHBARLIK FAOLIYATIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada rahbarlik faoliyatining psixologik xususiyatlari, rahbarlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy psixologik jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan.
Kalit so'zlar: *rahbar, attraksiya, xodim, e'tiqod, qadriyatlar, ustanovka, rahbarlik kasbiy qoidasi.*
Annotation: this article provides information about the psychological characteristics of leadership, social psychological aspects of interpersonal relationships in leadership.
Key words: *leader, attraction, employee, faith, values, institution, professional rule of leadership.*
Аннотация: в данной статье представлена информация о психологических особенностях лидерства, социально-психологических аспектах межличностных отношений в лидерстве.
Ключевые слова: *лидер, привлечение, работник, вера, ценности, институт, профессиональные правила лидерства.*

Rahbarlik faoliyati jarayonida xodimlarni o'ziga moyil qilish yo'llari attraktsiya deb ataladi. Biror odam bilan suhbatlashganda sezgi organizmlarimizga (ko'rish, eshitish, hid bilish.) undan ko'plab xabarlar kelib turadi. Lekin insonlar bu xabarlarning hammasini ham ongli ravishda qabul qila olmaydilar. Masalan, faol suhbat jarayonidan so'ng sizdan bir daqiqaga ko'zingizni yumib, suhbatdoshingizning galstugi qanday rangda ekanligini aytib berishni so'rasalar, siz har doim ham to'g'ri javob bera olmaysiz. Demakki, biz ko'rib turib, ko'rmasligimiz mumkin, tinglab turib, eshitmasligimiz mumkin ekan, bu ongimizning qanday ishlashiga bog'liq. Shu bilan birga insonda hissiy ahamiyatga ega bo'lgan xabarlar saqlanib qoladi.

Agar muloqot jarayonida suhbatdoshga axborot shunday yuborilsa, birinchidan - bu xabar suhbatdosh uchun hissiy ahamiyat kasb etsa, ikkinchidan, bu unga ijobiy ta'sir etsa, uchinchidan esa bu xabarni suhbatdosh anglab yetmasa, u holda suhbatdoshimiz, bu suhbat nimasi bilandir yoqimli, o'ziga tortuvchi bo'ldi, deb ta'kidlash mumkin. Demak, bunday holda suhbatdoshingizda o'zingizga nisbatan hissiy ijobiy munosabat uyg'otishingiz mumkin. Bu hislat rahbar uchun eng zarur, eng muhim hisoblanadi.

Attraktsiyaning shakllanishiga "oltin so'zlar" ta'sirining psixologik mexanizmi quyidagicha:

1. Insonga o'zining ijobiy sifatlarini kuchaytiribroq aytilgan so'zlar, ya'ni kompliment doimo yoqimli bo'ladi.

2. Agar kompliment qoidasi bilan aytilsa (bu haqda quyida so'z yuritiladi) ishontirish natija beradi.

3. Buning natijasida "yaxshiroq" ko'rinishga bo'lgan ehtiyoj sirtdan qondiriladi.

4. Ehtiyojlarning qondirilishi natijasida ijobiy hislar hosil bo'ladi.

5. Rahbar o'ziga nisbatan o'z qo'l ostidagi xodimlarida ijobiy hissiyotlar - attraktsiya uyg'ota olgan ekan, xodimlar o'z rahbarlarining topshiriqlarini bajonidil bajaradilar.

Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar G. Kunts va S.O.Donnelning fikricha, «agar xodimlar rahbariyat tomonidan o'rnatilgan tartib va qoidalargagina rioya etib mehnat qilganlarida, ular o'zlarining 60-65% imkoniyatlarini ishlata olar va o'z majburiyatlarini bajarib, shunchaki ishdan bo'shamasliklariga bahona topar edilar, xolos. Xodimlarning qobiliyatlaridan to'la foydalanish niyatidagi rahbar ularda shunga loyiq his-tuyg'uni uyg'ota olishi lozim». Bu yerda gap rahbarning o'z liderlik qobiliyatini namoyish eta olishi, xodimlar orasidagi obro'-e'tibori haqida boryapti. Tashkilot doirasidagi norasmiy munosabatlar tizimida peshqadam o'rinni egallagan rahbargina o'z xodimlari qobiliyatini 100% jamoa ishiga jalb eta olishi mumkin. Rahbarning, nafaqat, obro'sini oshiradigan, balki qiyin vaziyatda uni asosiy maqsad yo'lidan yetaklaydigan fazilatlardan biri — mustaqillikdir. Rahbar o'z qarashi, mushohada layoqati va shaxsiy nuqtayi nazariga egalikka intilishi lozim.

Navbatdagi zaruriy xislatlardan yana biri muloqotga moyillikdir. Aniqlanishicha, rahbar o'z kundalik faoliyatining to'rtdan uch qismini turli-tuman muloqotga sarflaydi. Muloqotning boshqaruvdagi

ahamiyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, beixtiyor Li Yakokka esdaliklariga duch kelamiz: «Men avtomobil sohasida bir umr ishlagan odamni bilaman. U oliy ma’lumotli bo‘lib, o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega, shuningdek, ajoyib strateg va o‘z kompaniyasining yirik mutaxassisi edi. Lekin, uni hech qachon hech kim yuqori lavozimga tayinlamagan, chunki u o‘zga bilan muloqotda bo‘lishni bilmas edi».

Shunday qilib, rahbar faoliyatidagi samaradorlikni amalga oshiradigan shaxs xislatlari bilan tanishib o‘tdik. Sir emaski, hech bir inson ushbu ro‘yxatdagi xislatlar bilan birga tug‘ilmaydi. Bularning hammasi insonga ato etilgan layoqat, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy yashash sharoitlarining mahsulidir. Bunday xislatlarning rahbar faoliyatida namoyon bo‘lishi, shaxsdan muntazam tartib va o‘z ustida ishlashni, doimo o‘z idrokida namuna yaratish va unga taqlid etishni talab qiladi.

E’tiqod- inson behad ishonadigan g‘oya va fikrlar bo‘lib, ularni hatto shubha ostiga olish shaxs uchun noo‘rindir. Inson tashqi olamdagi voqea-hodisalarni tahlil qilarkan, ko‘p narsalarga o‘z e’tiqodi nuqtayi nazaridan qaraydi.

Rahbarlik kasbiy qoidasi: "men har qanday rahbar uchun qo‘l ostidagi xodimlarni o‘ziga moyil qilish - kasbiy zarurat ekanligini yaxshi bilaman, shuning uchun o‘z xodimlarim bilan muloqotda ko‘proq kompliment ishlatishga harakat qilaman".

"Sabr-toqatli tinglovchi" usuli. "O‘z xodimlariga e'tiborli bo‘lish kerak!" "Ularni sabr bilan tinglash kerak!" "Suhbatdoshingizning so‘zini bo‘lmay, uni oxirigacha tinglang!" har bir rahbar bu qoidalariga amal qilishi zarur. Xodimlarni diqqat bilan tinglash uchun vaqt kerak. Zero, har kim o‘z fikrini aniq, qisqa ifoda qila olmaydi. Rahbar har qancha zarur ishi bo‘lsa ham, o‘z xodimini tinglashi zarur.

Xodimingiz muammolarini diqqat bilan tinglasangiz, unda o‘zingizga nisbatan ijobiy hissiyotlar uyg‘otasiz. Bu usulning psixologik mexanizmlari quyidagicha: Dastlab - rahbar o‘z muammolari bilan murojaat qilgan xodimni diqqat bilan yaxshilab eshitishi kerak. Bu qoida odamning eng muhim ehtiyojlaridan biridir. Bu ehtiyojning qondirilishi ijobiy hissiyotlarini shakllantiradi. Bu holda rahbarning yana bir kasbiy qoidasi quyidagicha: "Men har bir rahbar uchun o‘z xodimini o‘ziga jalb qilish - kasbiy zarurat deb bilaman, shuning uchun o‘z xodimlarim bilan muloqotda sabrli va e'tiborli tinglovchi bo‘lishga harakat qilaman".

Suhbatdoshni tinglash qoidalari. Tinglashga o‘rganmagan odamlar kam axborot oladilar va ko‘pincha noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Tinglash - bu og‘ir mashaqqat. Tinglash - bu diqqat va qiziqish bilan axborot almashish, tushunishga erishish, suhbat chogi‘da erkin vaziyat yaratish. Tinglash - bu faol jarayon bo‘lib, ma’lum ko‘nikma va malakani talab qiladi.

Suhbatda doimo suhbatdoshingizga "Siz" deb murojaat qiling. Shunda suhbatdosh so‘zi bilan sizni yaqinlashtirib orangizdagi farqni kamaytiradi va suhbat erkin vaziyatda kechishini ta’minlaydi. Bu bilan siz o‘zingizni suhbatdoshingiz o‘rniga qo‘yishingiz va uning muammolarini yechishingiz osonlashadi.

"Ism-sharifi" usuli. Bu usul siz muloqotga kirishayotgan odamning ismi sharifini aytishdan boshlanadi. O‘z ismini boshqalardan to‘liq eshitish inson uchun hamisha xush yoqadi. Amerikalik psixolog D.Karnegi yozganidek, o‘z ismini boshqalardan eshitish inson uchun yoqimli musiqaga o‘xshaydi. Bu holatning psixologik mexanizmlari qanday?

"Ism-sharif" usuli ta'siri psixologik mexanizmining mohiyati quyidagicha: o‘z ismining jaranglashi - shaxsga e'tibor - shaxs sifatida tan olish - qoniqish hissi - ijobiy hissiyotlar manbaiga yaqinlashish. Demak, ertalab ishga kelgan zahoti o‘z qo‘l ostingizdagi xodimlarning ismini aytib, "Assalomu-alaykum", - deb salomlashing, xodimingiz xohlasa, xohlamasa, unda ijobiy hissiyot uyg‘otasiz. Endi rahbarning kasbiy qoidasini keltirib chiqaramiz. "Men har bir rahbar uchun qo‘l ostidagi xodimlarida o‘ziga nisbatan moyillik uyg‘otishni kasbiy zarurat deb bilaman. Shuning uchun tez-tez ularga ism shariflarini aytib murojaat qilaman."

"Munosabat oynasi" usuli. Xalqimizda "qiyofa, yuz-qalb oynasi", - degan naql bor. Bu mexanizm qismlari quyidagilardan iborat:

1. Ko‘pchilik odamlar o‘z do‘stlariga yoqimli samimiy jilmayadilar.
2. Agar siz bilan muloqot qilayotgan odamning yuz qiyofasi yoqimli jilmayishini ko‘rsangiz, bilingki bu uning sizga nisbatan "Men Sizning do‘stingizman" - deb berayotgan xabari bo‘ladi.
3. Do‘st - biror bir masalada, ishda siz bilan hamfikr odam.
4. Insonning eng muhim ehtiyojlaridan biri, himoyalanish va bexavotirlik ehtiyojidir. Do‘st - bu himoyalanishni oshiruvchi inson, ya'ni shaxsning eng muhim ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.
5. Qoniqish hissi insonda ijobiy hissiyot uyg‘otadi.
6. Inson doimo o‘zida ijobiy hissiyot uyg‘otuvchi odamlarga muhtoj.

Rahbarlikning kasbiy qoidasining ikkinchisi quyidagicha: Rahbar uchun o‘z qo‘l ostidagi xodimlarini o‘ziga jalb qilish kasbiy zarurat. Shuning uchun o‘z xodimlari bilan bo‘lgan munosabatlarda yuz qiyofasi doimo muloyim bo‘lishi, ularga jilmayib murojaat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. Tanqidiy tahlil, Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston NMIU, 2017.

2.Mirziyoyev. Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. 56 bet.
3.Ashirov D.A. Tashkiliy xatti-harakatlar: –M .: Prospekt, 2006.- 360-bet.
4. Ashirov D.A. Xodimlarni boshqarish. –M.: Prospekt, 2007. 432-bet.
5. O.Hayitov,S.Jalilova. Boshqaruv psixologiya. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017
6. Zaynuddinov Sh.N.Murakaev I.U.Menejment asoslari. –Toshkent : Moliya 2007.

Mansur TURG‘UNBOYEV,
ADU, Fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

VOLEYBOL O‘YINI MALAKALARI TEXNIKASIGA DASTLABKI O‘RGATISH USLUBLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada voleybol o‘yini malakalari texnikasiga dastlabki o‘rgatish uslublarining ahamiyati haqida so‘z boradi va kerakli tavsiyalar beriladi

Kalit so‘zlar: *voleybol, sport, ilmiy, kasbiy ko‘nikma, o‘quv dastur, texnik mahorat, jarayon, asosiy maqsad, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyat*

Аннотация: в данной статье говорится о значении предварительных методов обучения технике выполнения волейбольных навыков и даются необходимые рекомендации.

Ключевые слова: *волейбол, спорт, научные, профессиональные навыки, учебная программа, техническое мастерство, процесс, главная цель, социальные и экономические возможности.*

Annotation: this article talks about the importance of preliminary teaching methods for the technique of volleyball skills and gives the necessary recommendations.

Key words: *volleyball, sports, scientific, professional skills, curriculum, technical skill, process, main goal, social and economic opportunity*

Sport malakalariga dastlabki o‘rgatish jarayoni ko‘p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki o‘rgatish o‘z tashkiliy, uslubiy ilmiy va moddiy texnik nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo‘lsa, shunchalik sport o‘rinbosarlarini tayyorlash yo‘li qisqaroq va osonroq bo‘ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko‘nikma va malakalariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv dasturining eng e’tiborli va asosiy bilimlaridan biri boshlang‘ich o‘rgatish uslubiyati bo‘lib hisoblanadi.

Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy shart sharoitlaridan biri – bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo‘lishidir. Demak o‘rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o‘yin texnikasini mukammal o‘zlashtirishidir. Harakat – (o‘yin) malakalari – to‘pni uzatish, qabul qilish (himoya), to‘pni o‘yinga kiritish, zarba berish. to‘siq qo‘yish – belgilangan bosqichlarda, ma’lum uslublar va vositalar yordamida o‘zlashtiriladi, mukammallashtiriladi, takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi.

O‘rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo‘lib, murabbiydan, o‘qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo‘lsa-da, harakatni (o‘yin malakasini) ijro etish texnikasiga o‘rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog‘liqdir: bolaning faolligi; mashg‘ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati; yordamchi texnik uskunalar; mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyning shart-sharoitlari; bolaning qiziqishi; harakat “boyligi”, tajribasi va hakozo. Shuni ham aytish zarurki, harakat texnikasini o‘zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda holatiga bog‘liqdir.

Yuqorida keltirilgan ma’lumot va o‘rgatish jarayonida e’tiborga olinadigan omillar ma’lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlardan joy olishi kerak. Bundan tashqari bolaning ichki “sirli” imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o‘rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo‘llashda tayanch omil bo‘lib xizmat qilishi kerak. Har bir tayyorgarlik turida o‘zining yetakchi omillari borki, ular yordamida ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir - biri bilan uzviy bog‘liq. Misol uchun agar o‘quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo‘lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o‘quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko‘p marta takrorlashdan ko‘ra foydaliroqdir. Birinchi bosqich: - o’rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko‘rsatish va tushuntirish uslublari

qo‘llaniladi. O‘qituvchi shaxsan ko‘rsatish bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi: kinofilm, tasviriy film, sxema, maydon maketi va hakozo. Namoyishni tushuntirishlar bilan qo’shib olib borish kerak. O‘qituvchilarning dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shaklantiradi. Ikkinchi bosqich: - texnikani soddalashtirilgan (oddiylashtirilgan) holatda o‘rgatish. Mazkur o‘rganish bosqichida muvaffaqiyat ko‘p holatlarda yondashtiruvchi mashqlarning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liqdir. Ular o‘zining tuzilishi, shakliga ko‘ra o‘rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o‘quvchilar bajara oladigan bo‘lishi kerak. Murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan harakat (hujum zarbasi), uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga (qismlarga) ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi (buyurish, ko‘rsatma berish, ko‘rish va eshitish, ko‘rib ilg‘ash, texnik vositalar va hakozo) hamda ko‘rgazmali harakat (o‘qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo‘llash), axborot (to‘pga bo‘lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug‘lik yoki ovozni belgilash) kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Uchinchi bosqich: - texnikani murakkablashtirilgan holda o‘rgatish. Bunda quyidagilar qo‘llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkablashtirilgan sharoitda bajartirish, o‘yin va baholash uslubi, qo‘shma uslub, davra aylanma mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiysidir.

Ko‘p malakani takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni (harakat sharoitini o‘zgartirishni, asta-sekin murakkablashtirishni) taqozo etadi. hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo‘shma va o‘yin uslublari bir vaqtning o‘zida texnikani sayqallatishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o’stirish masalani hal qilishga hamda texnik, taktik tayyorgarlik va o‘yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi. To‘rtinchi bosqich: - harakatni o‘yin jarayonida mustahkamlashni ko‘zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo‘llaniladi (rasmlar, jadvalar, o‘quv filmlari, tasviriy filmlar), o‘yin jarayonida texnik taktik maxsus tayyorgarlik topshiriqlari o‘yin va musobaqa usullari. Tayyorgarlik va o‘quv o‘yinlarida har bir usulni (malakani) o‘rganish uni takomillashtirish va mukammallashtirishni ko‘zda tutadi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi bu musobaqalashishdir. O‘qitish (o‘rgatish) da faol uslublar katta imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida – muammoli o‘qitish (muammoli vazifalarni qo‘yish) va o‘zining o‘zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vazifalarni qo‘yish uning yechimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o‘zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi. Bu o‘quvchi qiziqishini yana ham orttiradi hamda ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Faol uslublar qanday qilib amalga oshiriladi? Aniq bir o‘yin qoidasini qisqacha mazmuni va ahamiyati aytib berilgandan so‘ng yuqoridan ikki qo‘l bilan to‘pni yetkazib berish, uni bajarish usuli (texnikasi) namoyish qilinadi va o‘quvchilarga ham shu usulni bajarishga imkon beriladi, so‘ngra muammoli savol qo‘yiladi: “Qo‘l (panjalar) bilan to‘pning to‘qnashishi qayerda amalga oshadi?” javob berishga harakat qilingan ko‘pgina urinishlarda biz quyidagi javobni aytishimiz amrimahol: yuzimiz qarshisida. So‘ngra yangi savollar beriladi – “Nega to‘pni uzatayotganda qo‘llar tirsakdan biroz bukiladi? Ularning bukilishi burchagini nima belgilaydi?”. O‘quvchilarning yuqoridagi savollariga javob qidirishda ularning e’tiborini biomexanik qonuniyatlar tomon yo‘naltiriladi, shunga ko‘ra savolning birinchi omiliga javob maqsadga eng qisqa masofa tanlash bilan erishish bo‘lsa (fazoviy nuqtayi nazardan), ikkinchidan to‘p uzatuvchining kuchlilik, tezkorlik imkoniyati darajasidir. Yuqoridagi talablar asosida yana bir bor to‘p uzatishni bajarishni taklif qilamiz. Bizni vaqt ko‘p sarflanayotgani qiziqtirmaydi, chunki u kelajakda o‘zini oqlaydi.

Muammoli savollar: Harakat usuli nimaga asoslanadi? to‘pning uchish holatiga, o‘yinchining qaddi qomatiga, to‘pni yo‘nalishi, tezligi, bosib o‘tgan iziga. To‘pga tomon o‘z vaqtidagi harakatni qaysi omillar ta’minlaydi? Kuzatuvchanlik, tayyorgarlik, tezlik. O‘z-o‘zini baholash: imo-ishora bilan qilingan belgiga javoban bir xil usul bilan harakatlangandan so‘ng sherigi yoki o‘qituvchi ustoz tanlab berilgan to‘pni o‘z ustida tutib olish yoki to‘g‘ri yozilgan qo‘l bilan pastdan ilib olish. Yuqoridan ikki qo‘llab to‘pni yetkazib berish. Muammoli savollar: Qo‘l panjalari bilan to‘p qayerda to‘qnashadi? Yuz ustida, yuqorida, ko‘krak. engak qarshisida. To‘pni uzatishda qo‘lni tirsakdan bukilish burchagi nima bilan belgilanadi? qo‘lni tezkor kuchlilik darajasini rivojlanish sifati bilan. To‘pni uzatishda uning aylanmasdan uchishi nimalarga bog‘liq? To‘pni to‘g‘ri chiziq bo‘ylab uning uchishini yo‘nalishda ta’sir ettirishga bog‘liq. O‘z-o‘zini baholash: Boshlang‘ich holatda turib va har xil yo‘nalishlarda harakatlangandan so‘ng 1- 2 kg.li to‘ldirilgan to‘pni oldinga yuqoriga uzatish (irg‘itish). To‘pni o‘z ustida yoki devordagi nishonga 20-30 sm masofadan yetkazib irg‘itib (bir necha marotaba) berish (uzatish). To‘pni devordagi aniqlik nishoniga irg‘itish (10 tadan uzatish), nishon (to‘pni diametriga) ya’ni 10,30,50 va hakozo sm bo‘lgan ma’lum radiusli aylanalardan iborat nishon markazi qo‘ldan 4 m balandlikda joylashgan. Devorgacha bo‘lgan masofa 2,5 m. Ko‘rsatkich 40 ball (nishon markaziga urish 5 ball, ikkinchi aylanma 4 va x.k.). To‘pni aylanmasdan uchishi. Olingan natijalar talqin qilinadi, muhokamada taqdim etiladi. Agar bordi-yu, natijalar o‘rgatish jarayonini yoki jismoniy sifatlarni bo‘sh, noto‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanganligini isbot qilsa, unda o‘rgatish jarayoniga, rejalashtirish hujjatlariga kerakli tuzatishlar, o‘zgartirishlar kiritiladi, so‘ng ma’lum muddat o‘rgangandan keyin qayta tekshiriladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Железняк Ю.Д., Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. // Учеб. пособие для студ. ВУЗов. – М.: Академия, 2002. – 264 с.

2. Железняк Ю.Д., Кунянский В.А., Чачин А.В. Волейбол. //Методическое пособие по обучению игре. – М.: Олимпия PRESS, 2005. – 111 с. 15. Isroilov Sh.X. Voleybol. //Olimpiya zaxiralari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent. Tasvir, 2008. 144-bet.

3. Qodirova M.M., Pulatov A.A., Ummatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. –Toshkent. ’’Fan va texnologiya’’, 2018.480-b. 17. Qurbonova M.A., Qosimova M.U. Milliy va harakatli o‘yinlar. //Oliy o‘quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2009. 67-bet.

Muhayyo ERGASHEVA,
Qo‘qonDPI dotsenti, f.f.n.
Nilufar MAXMUDOVA,
Qo‘qonDPI katta o‘qituvchisi, PhD

OLAMNING MILLIY-LISONIY MANZARASI VA MAKON KONSEPTI

Annotatsiya : maqolada lokallik belgisi tilning turli sathlarida o`ziga xos tarzda namoyon bo`lishi, bu jihatdan quyi sath (fonologik sath) birliklari bilan yuqori sath (morfemik sath va boshqalar) birliklarida mavjud bo`lgan lokallik bir-biridan ma’lum darajada farqlanishi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *lokallik belgisi, makon konsepti, morfemik sath, zidlanish, differensiatsiya, fakultativ fonema, fonemaning fakultativ variantlari.*

Аннотация : в статье высказываются мнения о том, что признак локальности уникальным образом проявляется на разных уровнях языка, и в этом отношении локальность существует в единицах нижнего уровня (фонологического уровня) и единицах языка. более высокий уровень (морфемный уровень и т. д.) в определенной степени отличается друг от друга.

Ключевые слова: *признак локальности, понятие пространства, морфемный уровень, контраст, дифференциация, факультативная фонема, факультативные варианты фонемы.*

Annotation : in the article, there are opinions that the sign of locality is manifested in a unique way at different levels of the language, and in this respect, the locality that exists in the units of the lower level (phonological level) and the units of the higher level (morphemic level, etc.) differs to a certain extent from each other reported.

Key words: *sign of locality, concept of space, morphemic level, contrast, differentiation, facultative phoneme, facultative variants of phoneme.*

Jahon tilshunosligi bugungi kunga kelib boshqa yondosh fanlar bilan ta’sirlashuvi natijasida til va jamiyat, til va ong, til va madaniyat, til va mentalitet orasidagi aloqalarni tahlil qilishga asosiy e’tiborini qaratmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda grammatik kategoriyalar atroflicha o‘rganildi, izchil va uzviy holatda tartiblashtirib borildi. Zamonaviy tilshunoslik fani zimmasidagi dolzarb masalalardan biri turli lisoniy birliklar ma’nolarini, shu jumladan, taqlidiy so‘zlarni boshqa tillar doirasida qiyosiy aspektda o‘rganishdan iborat.

Fanlar o‘z rivoji tarixida bir necha bosqichdan o‘tgan. Aksar hollarda tabiiy, gumanitar, hatto aniq fanlar ham tarixiy rivojlanishda bir-biriga ta’sir qilib, parallel harakatlanadi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Muqaddam grammatik kategoriyalarni tartiblash, so‘z turkumlari va gap qurilishi tadqiqi kabi masalalar kun tartibida bo‘lgan sof tilshunoslik fani ham bugungi kunga kelib boshqa yondosh fanlar ta’sirida va ularga ta’sir ko‘rsatgan holda til va ong, til va jamiyat, til va madaniyat, til va mentalitet orasidagi aloqalarni tahlil qilishga asosiy e’tiborini qaratmoqda. Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslik til hodisalarini antropotsentrik yondashuvlarga asoslangan holda o‘rgana boshladi. N.Mahmudov tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “Inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz jumlasini tilga oladilar. V.A.Maslova ta’kidlaganidek, “Inson aqlini, insonning o‘zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo‘lmaydi”[5]. Unda olamning milliy tasviri (manzarasi, kartinasi, surati) asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Falsafa fani negizida “dunyoning tasviri” tushunchasi shakllanib, tez orada ushbu tushuncha ilmiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa turli jabhalarni qamrab ola boshladi. “Falsafada olam tasvirini aniqlash bilish jarayonini idrok etish, voqelikni farqlash hamda ilmiy bilish jarayoni bilan bog‘liq, shuning uchun olimlar borliq tasviri bilan olamning ilmiy kartinasini aynanlashtiradilar”[4]. “Olamning lisoniy manzarasi” istilohi zamonaviy tilshunoslikning eng yirik

yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv lingvistikaga oid tadqiqotlarda, ayniqsa, o‘ta faol. O‘z-o‘zidan, mazkur atama tarkibidagi “lisoniy” sifatlovchisi olamning yana boshqa tasvirlari ham mavjud ekanligiga ishora qiladi. Darhaqiqat, turli sohalardagi zamonaviy tadqiqotlar olamning falsafiy, mifologik, diniy va ilmiy tasvirlari kabi masalalar tahliliga asoslanadi. Ushbu manzaralar orasidagi tafovutni tushunish esa olamning lisoniy manzarasi, uning tarkibiy qismlari, vazifa va maqsadlarini yanada to‘laqonli anglashga yo‘l ochadi. Jumladan, olamning falsafiy tasviri borliqni inson va olam munosabatlari negizida anglashga intiladi. Ushbu munosabatlar ontologik, kognitiv, qadriyatlar va amaliy faoliyat kabi tushunchalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, ya’ni dunyo aqliy faoliyat, tushuncha, g‘oya, so‘zlar vositasida anglashiladi. Olamning mifologik manzarasi esa dunyodagi barcha narsalar jonli, ularning har biri o‘z ruhiga ega degan qarash asosida shakllangan. Bunda miflar qahramoni bo‘lgan turli xudolar ham mutlaq kuchga ega emas, ular ham taqdiri azalga tobe deya ishoniladi. Olamning diniy tasviri esa har narsaning ibtidosi va intihosi bor, bunda ibtido Alloh dunyoni yaratgan on hisoblansa, vaqti kelib borliqning oxiri kelishi, intiho bo‘lishi haqidagi qarashlar yetakchilik qiladi. Olamning diniy manzarasida insonning mavjudligi mohiyati Allohning irodasini bajarishdadir, deyiladi. O‘z navbatida, turli farqlarga ko‘ra ushbu manzaralar nasroniy, islomiy, buddaviy va boshqa diniy tasvirlarga ham bo‘linishi mumkin.

Dunyoning ilmiy manzarasi esa yuqoridagi tasvirlardan farqli ravishda zamon va makonda moddiy vujudlar mavjud, ushbu vujudlar atom deya nomlanuvchi zarralardan iborat, vujudlar o‘tkinchi, atomlar esa boqiy degan qarashlarga asoslanadi. Har qanday hodisa o‘z sababiga ega, inson hayotiy maqsadlari, tabiat va tarixning hech qanday ahamiyati yo‘q – bularning bari abadiy qonuniyatlar doirasida mavjud, ularga amal qilgan holda harakatlanadi. Ya’ni olamning ilmiy tasviri boshqalaridan farqli ravishda mavhum tushunchalarga emas, balki moddiy unsurlarga asoslanadi[2].

Yuqorida keltirilgan olam tasvirlari haqida umumiy tasavvur hosil qilar ekanmiz, o‘z-o‘zidan, ushbu manzaralar va olamning lisoniy manzarasi orasidagi sezilarli tafovutni anglash mumkin. Avvalo, olamning lisoniy manzarasi(OLM) hech qanday g‘oya asosida shakllanmagan, bunga sabab til vositalarining mo‘tadil ekanligi deyish mumkin. Ya’ni so‘z turli g‘oya va fikrlarni birdek ifodalashga xizmat qila oladi. Zero, “olamning lisoniy manzarasi – borliq haqidagi bilimlarning til vositasida aks ettirilishi, shuningdek, yangi bilimlarni egallash va ularni ifodalash vositasi”[6]. “Olamning lisoniy manzarasi – bu, barcha lisoniy imkoniyatlarning majmuasi, U ma’lum bir o‘ziga xos madaniyat ruhi, til egalaridan iborat jamiyatning mentaliteti, til imkoniyatlari va vazifalarini ko‘rsatib beradi; olamning lisoniy manzarasi etnos va tilning tarixiy taraqqiyot jarayonini ko‘rsatib beradi va ayni vaqtda tilning kelajakdagi holati haqida ilmiy bashorat beradi; olamning lisoniy manzarasi tildagi eng sodda jarayonlardan boshlab tilning o‘ziga xos xarakterida namoyon bo‘luvchi murakkab jihatlarini qamrab oladi, hech bir lingvistik jarayon undan chetda qolmaydi; olamning lisoniy manzarasi tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarishlarga uchraydi; olamning lisoniy manzarasi lingvistik hodisa bo‘lish bilan bir qatorda, ayni vaqtda madaniy hodisa ham hisoblanadi; olamning lisoniy manzarasi bir avlod vakili tomonidan yaratiladi, ikkinchi avlod vakili tomonidan boyitiladi, avloddan avlodga meros sifatida o‘tadi; olamning lisoniy manzarasi umummadaniy hodisa, ya’ni barcha xalqlar taraqqiyotning turli bosqichlarida bu jarayonni turlicha bosib o‘tadilar”[1]. Olamning lisoniy manzarasi, badiiy tasviri har bir tilda o‘ziga xos va serqirra bo‘lib, bu borliqqa milliy nazar, har bir tilning o‘ziga xos fonetik sistemasi hamda milliy artikulyatsiya xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Har bir til uchun o‘zaro ko‘p ham farqlanmaydigan jihatlar bilan birga, tillarning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan, sof milliy lisoniy tabiatga ega bo‘lgan jihatlar ham borki, u tilning mohiyatini, tillar olamidagi o‘ziga xosliklarni ta’minlaydigan hodisalar hisoblanadi.

Ushbu fikrdan anglashiladiki, olamning lisoniy manzarasi o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqa tasvirlardan quyidagi jihatlariga ko‘ra ajralib turadi:

birinchidan, olamning lisoniy manzarasi amaliy samarador, ya’ni tasvir vositalari bo‘lgan so‘zlar kishining his-tuyg‘ulari, bilimi, diniy va dunyoviy qarashlarini ifodalab, nutqni shakllantirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, olamning lisoniy manzarasi diniy, mifologik, falsafiy va ilmiy tasvirlar orasida bog‘lovchi bo‘g‘in vazifasini bajaradi, zero, ushbu sathlarga oid qarashlar, g‘oya va fikrlar bevosita til orqali ifodalanadi. Lisoniy tasvir vositalari har qanday boshqa tasvirlarni nutqda ifodalash uchun birdek qo‘llanadi. Ayni paytda, ilmiy tasvirga oid tushunchalar yoki diniy, mifologik tasvir vositalari qo‘llanish doirasi faqat “o‘z o‘qi” atrofida cheklangan;

uchinchidan, ma’lumki, voqea-hodisalar, predmet va obrazlar turli millatlar ongida turlicha shakllanadi va mentalitetlar orasidagi tafovutlar lisoniy vositalar negizida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababdan olamning lisoniy manzarasi o‘z vositalari bo‘lmish so‘zlar orqali o‘zining farqlovchilik vazifasini ham bajaradi[5].

Aytish joizki, tilshunoslik vakillari hanuzgacha o‘zbek tilini milliy o‘ziga xosliklar asosida qayta tadqiq qilish jarayonida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shuning bilan birga, zamonaviy o‘zbek tilshunosligida mutlaqo yangi yo‘nalish shakllanib, bugungi kunda ushbu yo‘nalishda salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, zamonaviy tilshunoslikning asosiy jabhalari hisoblangan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingvistika kabi yangi yo‘nalishlar til, nutq va lisonga antropotsentrik

nuqtayi nazardan yondashish natijasida shakllandi.

Tilshunoslar olamning lisoniy manzarasi va konseptosfera ayni bir voqelikning turlicha nomlanishi degan fikrni bildirishadi[3]. Demak, konseptosferaning tarkibiy qismi hisoblangan konseptlar – olam lisoniy manzarasining ham asosiy vositasi. Endi olamning lisoniy manzarasida taqlidlar qanday o‘ringa ega, degan muammo yechimiga o‘tar ekanmiz, buning uchun taqlidiy so‘zlarning kelib chiqishi, semantik vazifasi va mohiyati masalalariga to‘xtalish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abdullayeva R. The linguistic image of the world// Scientific journal of the Fergana State University. – №12, 2018 – B.133

2.https://spravochnick.ru/koncepciya_sovremennogo_estestvoznaniya/ponyatie_kartiny_mira_i_ee_vidy/

3. Yuldashev A.G. Olamni lisoniy konseptuallashtirish//Xorijiy filologiya, 2020, №4 – 61-62-betlar.

4. Litkin O.I. Tipi kartin mira v reprezentatsii konsepta // http: //journal. pushkin. institute/ archive/ archive/ 2010/4_(221)/6507

5. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. №. 5. – 6-7-betlar.

6. Pimenova. M.V. Dusha i dux: osobennosti konseptualizatsii. – Kemerovo: Grafika, 2004. – S. 5

Nilufar SAMIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti
nilufarxonazarova9795@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA AFORIZMLARNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada aforizmlarning mohiyati, paydo bo‘lishi o‘zbek va jahon tilshunosligida o‘rganilishi yoritilib, tilshunos olimlarning aforizmlar haqidagi qarashlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, aforizm, maqol, aforistik birlik, hikmatli so‘zlar.*

Аннотация: в данной статье освещается сущность афоризмов, их возникновение в узбекском и мировом языкознании, а также подробно анализируются мнения лингвистов об афоризмах.

Ключевые слова: *паремиология, афоризм, пословица, афористическое единство, мудрые слова.*

Annotation: in this article, the essence of aphorisms, their emergence in Uzbek and world linguistics is covered, and the opinions of linguists about aphorisms are analyzed in detail.

Key words: *paremiology, aphorism, proverb, aphoristic unity, wise words.*

O‘zbek tili – boy, imkoniyatlari keng tildir. Tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari uning qimmatini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo‘yoqdorligi paremiologik birliklarda ham namoyon bo‘ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, o‘z imkoniyatlari-yu so‘z boyligini maqol, matal, frazeologik birliklar, aforizmlari orqali ham namoyon qiladi.

Jahonda ilmiy bilish jarayonining chuqurlashuvi tilshunoslikda zamonaviy yo‘nalishlarning mustaqil soha sifatida taraqqiy etishiga turtki bo’ldi, bu esa paremiologik birliklarni rivojlantirish, maxsus o‘rganish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar qamrovini kengaytirdi. Jahon tilshunosligida aforizmlarga nisbatan tan olingan yagona va mukammal qarashning mavjud emasligi ushbu masala doirasida muntazam bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bu esa aforizmlarni jiddiy o‘rganishni taqozo etadi

Paremiologiya tarkibiga kiruvchi birliklardan yana bir bu-aforizm hisoblanadi. Aforizm – grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “aphorismos” – qisqa, hikmatli so‘z ma’nolarini anglatadi [1:35]. Hikmatli so‘zlarga turli adabiyotlarda turlicha ta’rif berib o‘tilgan:

1. Aforizm - aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli so‘zlar [2:35];

2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap[3:144];

3. Ma’lum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, ma’nodar, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir [4:54].

Aforizmlar tabiati haqida yuqoridagi kabi turlicha fikrlar mavjud.

Adabiyotshunos olimlardan biri Z.Toshpo‘latovning tatqiqotlarida aforizmlar xususiyatlari haqida turlicha qarash va mulohazalarning ma’lum sabablarini ko‘rsatib o‘tadi:

Birinchidan, ushbu janr dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida jahon paremiologiyasida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ikkinchidan, aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yo‘q.

Uchinchidan, ko‘pchilik olimlar aniq muallifga ega bo‘lgan mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega bo‘lgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega bo‘lgan qantli iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar

Aforizmlar asrlar davomida butun dunyoda odamlarning diqqat markazida bo‘lib keldi va eng muhimi, bu qiziqishlar ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida ham shu maqeyini saqlab qoldi. Ko‘plab davlatlarda aforizm jadal rivojlanib, o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqqani ham buni tasdiqlaydi. O‘tgan davrda ijod qilingan adabiy asarlardagi aforizmlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar deyarli yo‘q bo‘lganiga qaraganda, so‘nggi paytlarda aforizmlar bo‘yicha bir qator ma’lumotli, nazariy maqolalar nashr etilmoqda, lingvistik xususiyatga ega tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

“Aforizm” atamasi qadim zamonlardan beri ma’lum. Bu janr, ayniqsa, Gretsiyada rivojlangan. Pifagor, Demokrit, Sokrat, Aflotun, Arastu, Epikur, Epiktet, Plutarx kabi qadimgi yunon mutafakkirlarining maqollari keng tarqalgan. Qadimgi yunon olimi Gippokrat aforizmlarni “kasalliklarning belgilari va diagnostikasi, davolash va oldini olish san’ati haqidagi tibbiy traktati” deb atagan. Biroq antik adabiyotda “aforizm” so‘zining kengroq qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar mavjud. Tibbiy atamaga qo‘shimcha ravishda bu so‘z allaqachon “maksima”, “gnoma”, “dono” ma’nosini anglatardi. XII asrda Dante “aforizm” so‘zini faqat tibbiy ma’noda ishlatgan. Keyingi asrlarda aforizmlar bir qator mamlakatlarda turli fanlarda, ayniqsa, metodologik va amaliy asoslari bo‘lmagan mamlakatlarda: huquqshunoslik, falsafa, siyosat, tabiiy fanlarda topila boshladi. [5:7].

Olimlar tomonidan taklif qilingan aforizmning juda ko‘p ta’riflari mavjud bo‘lib, ayrimlarning tushunishida aforizm qisqa obrazli shaklda chuqur, ibratli fikr sifatida namoyon bo‘ladi. Yana boshqa olimlarning ta’kidlashicha, aforizm murakkab uslubdagi paradoksal hukm bo‘lib, o‘ziga xoslikka tortiladi.

Jahon tilshunosligida Antipova A.P [6:135], Boroxov E., Ojegov S.I., Jenkins J.J., Kiss G.R., Kurcz I., Boonmoh, Fedorov A [7:714] parameologik birliklar, xususan, aforizmlar bo‘yicha ularning ahamiyati aforizmlarni badiiy, lingvistik, semantik jihatlarini alohida tahlil qilish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug‘atlarda keltirish, aforizmlarni izohlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan

Milliy tilshunosligimizda aforizmlarga e’tibor tilshunoslikning eng muhim tarmog‘i sifatida Mahmud Koshg‘ariy davridanoq boshlangan. O‘zbek tilshunosligida muammoga aloqador qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ko‘plab qo‘llanmalar va lug‘atlar chop etilgan. A.Hojiyev, N.Mahmudov, A.Po‘latov, B.Mengliyev, S.Muhamedova, A.Rahimov Sh.Islomov, Sh.Xamroyeva, M. Umarxodjayev, Sh.Shahabitdinova, G.Tojiyeva, L.Raupova, M.Yo‘ldoshev , G.Komilova, M.Abjalova kabi olimlarning tadqiqotlarida ham lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Aforizmga turli lug‘atlarda turlicha izohlar keltrilgan bo‘lib, o‘zbek tilining izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan: **AFORIZMLAR** [yun. “aphorismos” – hikmatli so‘z] Ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli so‘zlar. Masalan: “Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois” A.Navoiy”, “**AFORISTIK** Aforizm shaklidagi, aforizmga xos belgili Aforistik iboralar” tarzida keltirilgani holda, hikmat so‘ziga berilgan izohda bu ma’no bilan bog‘liqlik holati ochib berilmaganligini kuzatishimiz mumkin.

HIKMAT (a. – bilimdonlik, donishmandlik; hikmatli so‘z, maqol; tibbiyot ilmi, shifokorlik).

1. Aql-zakovat, donolik va uning ifodasi bo‘lgan, uni aks ettiruvchi narsa – gap-so‘z, fikr va sh.k.; donolik belgisi. “Oz yemak – tani sog‘liq, oz demak – hikmatga bog‘liq”.
2. Tagini anglash qiyin bo‘lgan, yashirin bir ma’no, yashirin bir sabab; sir. “Bu oynada qanday hikmatni ko‘rding? Jonim bolam, sening holing na bo‘ldi?” “Bahrom va Gulandom”.
3. Hikmati bor narsa, hikmat bildiruvchi fikr, gap. “Qurib ketmang! Qo‘chqor yog‘i yeb, endi bir hikmat ko‘rsatmoqchimidilar!” M. Boboyev, “Go‘zallik istab”.
4. Hikmat (erkaklar va xotin-qizlar ismi)”. “Aforizm – bu qandaydir ixcham shakllangan qoidadir, qisqa va dono so‘zlar”. “Aforizm - (yunoncha aforismos), umumlashtirilgan, to‘liq fikrni ixcham shaklda ifodalovchi maqol”[8:2].

Aforizm - bu muallifning ixcham, nozik shaklda ifodalangan va ifodaliligi, favquloddaligi bilan ajralib turadigan, umumlashtirilgan, chuqur fikr” [9:293]. Ushbu ta’riflarga ko‘ra, aforizm tushunchasiga nisbatan o‘tmishda mavjud bo‘qarama-qarshiliklar nafaqat kamayganiga, balki, yanada chuqurlashganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Aforizmlar masalasi o‘zbek tilshunosligida ham adabiyotshunosligida ham maxsus o‘rganilmagan. To‘g‘ri, adabiyotshunos M.Hakimovning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida “aforizm” termini mustaqil janr sifatida emas, keng ma’noda talqin qilingan. Keyinchalik u o‘z dissertatsiyasini maxsus

monografiyalar shaklida chop ettirdi [10:]. Biroq har ikki asarda ham ijodkorning xalq og‘zaki ijodi materiallaridan foydalanishdagi mahorati masalalari haqida bahs yoritilmaydi. Lug‘atshunos M.Abdurahimov esa xalq og‘zaki ijodidagi aforizmlar (asosan, maqol va matallar), ularni lug‘atlarda berish masalalarini o‘rgandi. Bu tadqiqot 1989-yilda “Фолклорная афористика и словарь” (T., “Fan”) nomi bilan maxsus kitobcha holida chop etildi. XX asrning 90-yillarida esa prof. B.Sarimsoqov aforizmlarni maqol, matal, topishmoq, qanotli so‘z va iboralar,

paradokslar, epigrammalar, xokkular, gnomalar, fard va muammolar mansub bo‘lgan yangi - to‘rtinchi adabiy turga mansub, deb ko‘rsatadi. Bu adabiy tur esa “paremiya” deb nomlanadi [11:13].

Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida ham, adabiyotshunosligida ham aforizmlarning alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishi, ko‘plab nazariy, amaliy, falsafiy axloqiy qarashlarni bir qadar o‘stirishga imkon beradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytganda, aforizmlar tarkibi juda keng va ularni turli jihatdan tahlil qilish bilan bog‘liq tadqiqotlar necha asarlar oldin o‘rganilgan va o‘rganilishda davom etmoqda. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, aforizmlar har bir xalqning milliy urf-odatlari hamda an’analarini verbal vositalar orqali ko‘rsatib beradi. Bu birliklarni qiyosiy o‘rganish xalqlarning o‘ziga xosliklari va birlashtiruvchi jihatlarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S.Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchii,1967. 35-bet.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik teminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2002.144-bet
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: FAN, 2006. 54- bet.
4. Шаталова С.А. Лингвистические основы афоризмов и афористики в художественных текстах Достоевского на материале романов «Бесы» и «Подросток»: дис…канд. филол. н. [Текст] /С.А. Шаталова - М., 2000. – С 7.
5. А.П.Антипова К вопросу об определении афоризма [Текст] /Антипова. – Смоленск: Риторика - лингвистика, 2001. – 135 с.
6. Борохов Э. Энциклопедия афоризмов (В мире мудрых мыслей) [Текст] / Э. Борохов. – М.: АСТ, 2000. – 714
7. Большой энциклопедический словарь: Языкознание [Текст] / под ред. В. Н. Ярцевой. – 2-е издание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998
8. http://popular.academic.ru/293/aforizm
9. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili (O‘zbek sovet yozuvchilarining asarlarida maqol va aforizmlar).- T.: Fan, 1972; Yana o‘sha muallif: Alisher Navoiy lirikasi va xalq og‘zaki ijodi. –T.: Fan, 1979.
10. Sarimsoqov B. Adabiy turlar haqida mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti – 1993 – 5-son. –3-13-betlar.

Абдухалил АТАМАТОВ,
первый проректор по учебной работе
Академии труда и социальных отношении

СРАВНЕНИЕ ТРЕБОВАНИЙ РЫНКА ТРУДА И СОДЕРЖАНИЯ СУЩЕСТВУЮЩИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ

Annotatsiya: ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish tamoyillari va usullari keltirilgan. Shuningdek, mehnat bozori talablari, ta'lim dasturlari mazmunini moslashtirish dasturlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *mehnat bozori, ta'lim dasturlari, prinsip, bitiruvchi, mehnat bozori talablari, raqamli texnologiyalar*

Аннотация: в данной статье представлены принципы и методы повышения конкурентоспособности выпускников высших учебных заведений на рынке труда. а также требованиям рынка труда выделены программы адаптации содержания разовательных программ.

Ключевые слова: *рынок труда, образовательные программы, принцип, выпускник, требования рынка труда, цифровые технологии*

Annotation: this article presents the principles and methods of increasing the competitiveness of graduates of higher educational institutions in the labor market. as well as the requirements of the labor market, programs for adapting the content of educational programs are highlighted.

Key words: *labor market, educational programs, principle, graduate, labor market requirements, digital technologies*

Сравнение требований рынка труда и содержания существующих образовательных программ позволяет выявить разрыв между ними, что указывает на необходимость приведения образовательных программ

в соответствие с современными потребностями работодателей и отраслевыми трендами. Требования рынка труда:

– гибкость и адаптивность: работодатели ищут специалистов, способных быстро адаптироваться к изменяющимся условиям и осваивать новые навыки и знания;

– междисциплинарность: специалисты должны обладать навыками и знаниями из разных областей, что позволяет им работать в командах с разным профессиональным составом и разрабатывать комплексные решения;

– цифровые и IT-навыки: владение цифровыми технологиями и программными инструментами становится критически важным для большинства профессий;

– коммуникационные и межличностные навыки: умение эффективно общаться, работать в команде, принимать и делегировать ответственность являются ключевыми для успешной работы;

– критическое мышление и решение проблем: способность анализировать сложные ситуации и разрабатывать решения, учитывая различные факторы и последствия.

Содержание образовательных программ:

– теоретические знания: большинство образовательных программ фокусируется на теоретических знаниях, которые могут быть слабо применимы на практике;

– ограниченное развитие практических навыков: практическая подготовка часто отсутствует или не соответствует требованиям рынка труда;

– стандартизированный подход: образовательные программы часто разрабатываются с использованием стандартных методик и рекомендаций, что может привести к неадекватной подготовке студентов;

– отсутствие междисциплинарности: образовательные программы часто фокусируются на одной специализации, что может затруднить адаптацию студентов к реальным условиям работы;

– недостаток актуальных цифровых и IT-навыков. Недостаток актуальных цифровых и IT-навыков: образовательные программы могут не обеспечивать студентам достаточного уровня подготовки в области цифровых технологий и информационных систем, что снижает их конкурентоспособность на рынке труда.

Для сокращения разрыва между требованиями рынка труда и содержанием образовательных программ, следует:

– усилить практическую ориентацию обучения: включать в образовательные программы больше практических занятий, кейс-стади, стажировок и проектных работ, позволяющих студентам применять теоретические знания на практике;

– разработать междисциплинарные программы: создать образовательные программы, сочетающие знания из разных областей, что способствует формированию компетенций, востребованных на рынке труда;

– обновить содержание программ в соответствии с актуальными требованиями: регулярно анализировать требования рынка труда и вносить соответствующие изменения в содержание и структуру образовательных программ;

– интегрировать цифровые и IT-навыки: включать в образовательные программы актуальные цифровые инструменты и технологии, обеспечивая студентам владение современными IT-навыками;

– развивать коммуникационные и межличностные навыки: использовать активные и интерактивные методы обучения, направленные на развитие коммуникационных и межличностных навыков студентов, такие как групповые дискуссии, ролевые игры и презентации.

Таким образом, сравнение требований рынка труда и содержания существующих образовательных программ позволяет выявить необходимые корректировки и улучшения в процессе подготовки специалистов, способных успешно конкурировать на рынке труда и вносить ценный вклад в развитие экономики.

Байдакова М.В. (2016) «Проблемы и перспективы развития системы высшего образования в условиях глобализации». Научный журнал «Вестник Российского экономического университета им. Г.В. Плеханова», № 1 (85), с. 98–104. Статья затрагивает проблему взаимосвязи образовательных программ с требованиями рынка труда и акцентирует внимание на необходимости развития непрерывного образования и инновационных подходов в подготовке специалистов.

Абдуллаева М. «Профессиональная подготовка кадров в Узбекистане: анализ требований рынка труда и образовательных программ». Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Ташкент. В диссертации анализируется состояние профессиональной подготовки кадров в Узбекистане, оценивается соответствие содержания образовательных программ требованиям рынка труда и предлагаются пути усовершенствования системы подготовки специалистов.

Никишова В.В. «Соответствие содержания высшего профессионального образования требованиям рынка труда». Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Москва. В данной работе исследуется проблема соответствия содержания высшего профессионального образования требованиям рынка труда. Автор анализирует различные методы и подходы к определению требований рынка труда и предлага-

ет меры по улучшению профессиональной подготовки студентов.

Загладин И.П., Баранова М.Л. «Концепция управления качеством образования в дошкольной образовательной организации». Научный журнал «Педагогика», № 4, с. 15–23. Статья посвящена анализу проблем управления качеством образования в дошкольных образовательных организациях и разработке конц епции управления качеством образования, ориентированной на удовлетворение потребностей обучающихся, их родителей и общества. Авторы акцентируют внимание на необходимости учета требований рынка труда при формировании содержания образовательных программ и разработке системы оценки качества образования.

Сидоренко В.Г. «Интеграция образовательных программ и требований рынка труда: международный опыт и перспективы развития в России». Научный журнал «Высшее образование в России», № 7, с. 28–37. В статье рассматривается международный опыт интеграции образовательных программ с требованиями рынка труда, анализируются основные тенденции и вызовы, с которыми сталкивается высшее образование в условиях глобализации. Автор предлагает ряд рекомендаций по улучшению содержания образовательных программ в России с учетом спроса на кадры со стороны работодателей.

На основании вышеизложенного делаем следующие выводы:

1. Основные инновационные компетенции, необходимые выпускникам высших учебных заведений, включают навыки работы с новыми технологиями, способность к креативному мышлению, развитие и внедрение инновационных проектов, способность к командной работе и междисциплинарному взаимодействию, управление проектами и др.

2. Проведенное сравнение требований рынка труда и содержания существующих образовательных программ показывает наличие разрыва между ними. В частности, образовательные программы не всегда полностью отвечают на запросы рынка, что требует их постоянной модернизации и адаптации.

3. Оценка эффективности существующих методов подготовки студентов к инновационной деятельности показала, что многие из них не обеспечивают достаточной степени развития необходимых инновационных компетенций. Это подтверждает необходимость разработки и внедрения новых методик, инструментов и подходов к обучению.

4. Соответствие требованиям рынка труда является важным фактором в подготовке специалистов. Несмотря на то, что образовательные учреждения стремятся адаптировать свои программы к изменяющимся условиям, все же остается пространство для дальнейшего улучшения, особенно в области инновационных компетенций.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Гудас, А. Р. Основные направления инновационного развития дошколного образовательного учреждения / А. Р. Гудас. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2018. – № 46 (232). – С. 281– 283. – УРЛ: https://moluch.ru/archive/232/53477/ .

2. Кривенкова Ю.Е. Инновации дошкольного образования в современной России // Текст. – 2011. – С. 199–206.

3. Serdyukov, P. (2017), "Innovation in education: what works, what doesn't, and what to do about it?", Journal of Research in Innovative Teaching & Learning, Vol. 10 No. 1, pp. 4-33. https://doi.org/10.1108/JRIT-10-2016-0007

4. Danylchenko, I., Karpenko, O., Chepil, M., Vakolia, Z., & Vrochynska, L. (2023). Innovation of the Educational Process in Early Childhood Education Institutions. Journal of Curriculum and Teaching, 12(2). https://dx.doi.org/10.5430/jct.v12n2p38

5. Artiushok, V. (n.d.). Key areas of innovative development management at preschool education institution in the conditions of education modernization. Infrastructure and Ecology of Rural Areas. https://dx.doi.org/10.32843/infrastruct67-16

6. Omelchenko, M. (2020). Management of innovative approaches in preschool education in Ukraine. Naukovi Zapiski, [S.l.], Aug. 2020. https://dx.doi.org/10.15421/152068. Available at: https://aspects.org.ua/index.php/journal/article/download/787/763.

7. Mamytbaeyeva, Zh.A., Kyakbaeva, U., & Mamayeva, A.Y. (2021). Theoretical foundations of the formation of research culture of teachers in higher education institutions. Journal of the Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan, (1), 1728-5496.06. https://dx.doi.org/10.51889/2021-1.1728-5496.06

8. Valiyeva F.R. The importance of educational content in preparation of competative personnels// 2nd International Conference bridge to science: research works San Francisco, USA February 28, 2018

Наргиза РАДЖАПОВА,
кафедра узбекского языка и литературы
Каршинского инженерно-экономического института.

ЗНАЧЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА СРЕДИ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО ИЗУЧЕНИЯ

Аннотация: известно, что русский язык является одним из мировых языков. Изучение этого языка широко распространено во всем мире, и его статус растет с каждым годом. В данной статье рассматриваются место, роль и значение русского языка среди мировых языков.

Ключевые слова: *русский язык, лингвистика, перевод, рейтинг, метод, технология.*

Annotatsiya: rus tili jahon tillaridan biri ekanligi ma`lum. Mazkur tilni o`rganish xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo`lib, uning mavqeyi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu maqolada rus tilining jahon tillari orasidagi o`rni, roli hamda ahamiyati muhokamaga tortiladi.

Creating an environment conducive to listening is essential. Minimizing distractions and ensuring a quiet space helps children focus on auditory input. The American Speech-Language-Hearing Association (ASHA) (2019) emphasizes the importance of a quiet and organized environment for developing listening skills.

3. Praise and Encourage:

Positive reinforcement helps build confidence and encourages continued effort in developing listening skills. Praising children for their efforts and providing constructive feedback motivates them to keep improving. Dweck's (2006) research on growth mindset highlights the importance of encouragement and praise in fostering a love for learning.

Challenges and Solutions

1. Short Attention Spans:

Young children often have short attention spans, making it challenging to keep them engaged in listening activities. To address this, activities should be varied and interactive, with frequent breaks to maintain interest. Research by McEwan-Adkins (2010) suggests that short, engaging activities are more effective for young learners.

2. Different Learning Styles:

Children have diverse learning styles, and some may find it easier to learn through visual or kinesthetic means rather than auditory alone. Incorporating visual aids, hands-on activities, and movement into listening activities can support different learning styles. Gardner's (1983) theory of multiple intelligences underscores the importance of addressing various learning preferences in education.

Conclusion. Teaching listening skills to juniors is a dynamic and rewarding process that lays the foundation for future academic and social success. By incorporating interactive and engaging activities, using technology effectively, and providing a supportive environment, educators and parents can significantly enhance a child's listening abilities. This approach ensures that children not only become better listeners but also more effective communicators and learners. The importance of listening skills cannot be overstated, as they are crucial for language development, comprehension, and social interactions. Through patience, practice, and positive reinforcement, children can develop strong listening skills that will benefit them throughout their lives.

References

1. American Speech-Language-Hearing Association (ASHA). (2019). Creating a Classroom Environment That Promotes Listening Skills.
2. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall.
3. Collins, A. (2006). Songs in the Classroom: How Singing Can Improve Language Skills. Journal of Early Childhood Education, 27(2), 143-157.
4. Dweck, C. S. (2006). Mindset: The New Psychology of Success. Random House.
5. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
6. Lundsteen, S. W. (1979). Listening: Its Impact on All Levels on Reading and Other Language Arts. National Council of Teachers of English.
7. McEwan-Adkins, E. K. (2010). The Essentials of Teaching Children to Read: The Teacher Makes the Difference. Pearson.
8. Moreno, R., & Mayer, R. E. (2007). Interactive Multimodal Learning Environments: Special Issue on Interactive Learning Environments. Educational Psychology Review, 19(3), 309-326.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. Wright, A. (2013). Storytelling with Children. Oxford University Press.

Nilufar XAYDAROVA,
Fan va texnologiyalar universiteti
"Pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYADAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya: geymifikatsiya, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'riladi. Bu maqolada geymifikatsiyaning pedagogik-psixologik jihatlari va ularning o'quv jarayoniga ta'siri ko'rsatiladi.

Tayanch so'zlar: *metod, geymifikatsiya, kreativ, Jamoaviy ishlash innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar, tezkor feedback.*

Аннотация: геймификация рассматривается как важный инструмент развития навыков творческого мышления у будущих учителей начальной школы. В данной статье показаны педагогические и психологические аспекты геймификации и их влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: *метод, геймификация, креатив, командная работа, инновационный подход, педагогические технологии, инновационные технологии, быстрая обратная связь.*

Annotation: gamification is seen as an important tool in developing creative thinking skills for future elementary school teachers. This article shows the pedagogical and psychological aspects of gamification and their impact on the educational process.

Key words: *method, gamification, creative, teamwork, innovative approach, pedagogical technologies, innovative technologies, rapid feedback.*

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda geymifikatsiyadan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari birinchidan, talabalarning motivatsiyasini oshiradi. Talabalarga maqsadlar va vazifalar taqdim etiladi va ularning qiziqishlarini oshirish uchun “mashg‘ulot”lar ko‘rsatiladi. Masalan, geym o‘yinlari orqali, talabalarning ilmiy muammolarga jiddiy yondashuv topishlari rag‘batlantiriladi. Ikkinchidan, geymifikatsiya talabalarga yangi o‘rganish usullarini o‘rgatadi. Talabalar ijodiy yondashuvlarni topish, topshiriqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va boshqa fikrlash usullarini rivojlantirish uchun geymlardan foydalanishadi.

Uchinchidan, geymlar jamoat ishlash va ishbilarmonlikni rag‘batlantiradi. Kooperativ talaba faoliyatlari orqali, talabalar birlashish va boshqa talabalar bilan ishbilarmonlikda ishlashlari va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishlari rag‘batlantiriladi.

To‘rtinchidan, geymifikatsiya talabalarning shaxsiy rivojlanishlarini rag‘batlantirish uchun kerakli yondashuvlarni taqdim etadi. Talabalarga o‘z fikrlarini qo‘llash, ularning qiziqishlarini oshirish va rivojlantirishlari uchun kuzatish yordamida, o‘zlarining o‘zlashtirishlarini yaxshilaydi.

Beshinchidan, geymifikatsiya talabalarning natijalarini baholash va rivojlantirish jarayonida joriy holatlarini baholashga yordam beradi. Tezkor feedback berish orqali, talabalar o‘zlarini o‘zlashtirish va o‘z fikrlarini yangilashlari uchun zarur yondashuvlarni o‘rganishga yordam beradi.

Jamiyatdagi geymifikatsiya muhitining pedagogik-psixologik boyliklarini yaxshilash talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quv jarayoni yo‘qotuvchi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, ularning qiziqishi va qatnashishi uchun o‘quv jarayonlarini geymifikatsiya orqali qiziqtirish juda muhimdir. Geymifikatsiya, o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish orqali talabalarni ilg‘or qilish, ularning motivatsiyasini oshirish va kreativ fikrlashni oshirishda yordam berish uchun kuchli bir vosita bo‘lib hisoblanadi.

1. Maqsad va maqsadlarni o‘rnatish:

Geymifikatsiyani muvaffaqiyatli qo‘llash uchun, o‘qituvchilar o‘quv jarayonining maqsadlarini aniqlash va talabalarning maqsadlarini tushunishlari kerak. Maqsadlar talabalarning qiziqishlarini oshirish, ularga yo‘llanmaning yordamida jiddiylik, rivojlanish yoki yutuq vaqti bo‘yicha qo‘yilgan xalga erishishlari yordamida ilg‘orlik qilishga yordam beradi.

2. O‘yin elementlarini qo‘llash:

Geymifikatsiyani qo‘llashda o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish juda muhimdir. Masalan, xal, darajalar, sertifikatlar, belgilangan vazifalar va shunga o‘xshash elementlar o‘quv jarayonida talabalarga mantiqiy va jismoniy mashqlar, fikrlash va ijtimoiy hamkorlikni oshirish uchun yo‘l qo‘ymoq mumkin.

3. Qo‘shimcha tajriba va raqobat:

Geymifikatsiya o‘quv jarayonida qo‘shimcha tajriba va raqobatni o‘rnatishga imkon beradi. Masalan, talabalar o‘zlarining yutuqlarini, maqbuliyatlarini yoki raqobatlarini boshqalarga nisbatan ko‘rsatishlari, ularni o‘zlashtirish va rivojlantirish uchun motivatsiya o‘rinlarini oshiradi.

4. Kollektiv hamkorlik va tanlov elementlari:

Geymifikatsiya asosida talabalarni jismoniy va o‘qish jarayonlarida hamkorlik va tanlov elementlarini qo‘llash juda muhimdir. Talabalar o‘rtasidagi hamkorlik va tanlovni oshirish uchun jadval, jadvalchalar, jamoa o‘yinlari va shunga o‘xshash usullar qo‘llanilishi mumkin. Bu usullar talabalarning fikrlash va muvofiqlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularning o‘zlashtirish jarayonida ularga yordam beradi.

5. Real va virtual qo‘llanmalar:

Geymifikatsiya o‘quv jarayonining virtual va real dunyolarini birgalikda ishlatish imkoniyatini beradi. Virtual o‘yin platformalari, kompyuter darsliklari, interaktiv tavsiflar va real hayotga oid mashg‘ulotlar talabalarning fikrlash va muvofiqlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘z vazifasini bajaradi.

6. Feedback va inklyuziya:

Geymifikatsiya o‘quv jarayonida talabalarga feedback berish va inklyuziyani ta’minlash muhimdir. Talabalarga vazifalarni bajarish natijalarini vaqti-vaqti bilan baholash, ularga yordam berish, ularning muvaffaqiyatlarini qadrlash va ularga alohida vazifalar yuklash orqali ularning motivatsiyasini oshirish mumkin.

7. Monitoring va taqip qilish:

Geymifikatsiya tizimi talabalarning rivojlanishini monitoring qilish va taqip qilish imkonini beradi. Talabalarning o‘zlarining yutuqlarini, muvaffaqiyatlarini va qiyinchiliklarini kuzatish, ularga o‘zlashtirish va o‘zini boshqarishni o‘rganishlari uchun muhim ma’lumotlar taqdim etadi.

Geymifikatsiya, o‘quv jarayonini o‘rganish va talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun kreativ usul hisoblanadi. Bu, talabalarga qiziqishlarini oshirish, o‘rganish jarayonini o‘zlashtirish va bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Talabalarni o‘qishga qiziqishlarini oshirish va ularni ma’naviy qadriyatlarga tortishda geymifikatsiya muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, talabalar o‘rganish vositalarini yutuqlovchi o‘yinlar orqali ma’lumotlarni olishadi. Yoki o‘quv jarayonida muvaffaqiyatga erishgan va o‘zlarini yaxshiroq his qiladigan talabalarning raqobat tizimini yaratishga yordam beradi. Bunday o‘yinlar yordamida talabalar ko‘nikmalarini sinovga soladilar va o‘zlarini yaxshilashga ma’lumot olishadi. Geymifikatsiya, o‘quv

jarayonini qiziqarliroq qilish orqali talabalarni muddatlar ustida qo‘llab-quvvatlaydi. O‘yinlar va geymlar orqali talabalar kichik harakatlar va katta ishlar uchun dastlabki ilg‘or qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi. Geymifikatsiya, o‘qituvchilar uchun tanqidiy fikrlash va ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy vositasi sifatida bo‘ladi. Bu, talabalar uchun o‘rganish va qiziqishlarini yuqori darajada saqlashga yordam beradi va talabalarning o‘zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Geymifikatsiya, o‘quv jarayonini o‘rganish va talabalarning motivatsiyasini oshirish uchun amaliy vosita sifatida ishlatiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning qiziqishlarini oshirish va ularni o‘rganish jarayonini qiziqarliroq qilishga yordam beradi. Bu, talabalarga o‘rganish jarayonida yo‘nalish yuklash, ma’lumotlarni topish va ishlab chiqishni osonlashtiradi. Talabalarning o‘zlarini rivojlantirish uchun geymifikatsiya juda samarali hisoblanib, masalan, talabalar o‘rganishning ajralmas qismini yutish, raqobat tizimlarini yaratish orqali motivatsiyani oshirishadi. Geymifikatsiya, jismoniy va ma’naviy rivojlanishni oshiradi, chunki u talabalarga yangi ko‘nikmalar o‘rgatadi va ularning murojaat qilish, muammosizlikni hal qilish va jismoniy faoliyatga mashg‘ul bo‘lishlari mumkin. Talabalar geymifikatsiya o‘yinlari orqali hamkorlik va jamiyat tuzilishini o‘rganishadi. Ular talabalar bilan hamkorlik qilish, guruh ishi qilish va jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lishning ahamiyatini tushuntiradi. Geymifikatsiya, pedagogik va psixologik jihatlardan samarali foydalanishga imkon beradi va talabalarning o‘zlarini rivojlantirish, ma’naviy rivojlanishlarini oshirish va motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

Natijaviy qism:

Geymifikatsiya asosida tashkil etilgan o‘quv jarayonlari talabalarni kreativ fikrlashni oshirish, ilg‘orlikni yuqori qilish va qiziqishlarini oshirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Talabalarni ilg‘or qilish, muvofiqlash va jismoniy va ma’naviy taraqqiyotlarini oshirish uchun geymifikatsiyani qo‘llash juda muhimdir. O‘qituvchilar, geymifikatsiya prinsiplarini o‘rganish va ularni o‘z o‘quv jarayonlariga moslashtirish orqali talabalarning ilmiy va kreativ fikrlashlarini oshirishda katta muvaffaqiyatga erishishlari mumkin.

Geymifikatsiya o‘qituvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda quyidagi pedagogik-psixologik jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘zlashtirish va motivatsiya: Geymlar talabalarga maqsadlar qo‘yish, ularning o‘zlarini mustahkamlashtirish uchun zarur bo‘lgan vazifalarni bajarish, shuningdek, topshiriqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun yo‘nalishlar ko‘rsatadi.
2. Ijodiy fikrlash va o‘zlashtirish: Geymlar talabalarning muammolar va topshiriqlarni o‘z fikrlariga qo‘yish va ijodiy yondashuvlar qidirishda o‘zlarini o‘zlashtirishga yo‘l qo‘yadi.
3. Talabalar o‘rtasida ishbilarmonlik: Geymlar talabalarning birlashishini rag‘batlantiradi va o‘zlarining boshqa talabalar bilan hamkorlik qilishlari va ko‘rsatishlari yordamida ijodiy yondashuvlarni mustahkam qiladi.
4. Talabani shaxsiy sifatlarini rivojlantirish yo‘llarini aniqlash: Geymlar talabalarning o‘zlarini mustahkamlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan yondashuvlarni o‘rganishlari va ko‘rishlari yordamida o‘zlariga mos ravishda rivojlanishlariga yordam beradi.
5. Natijalarni baholash va o‘zlashtirish: Geymlar talabalarning rivojlanish jarayonida joriy holatlarini baholashga yordam beradi va talabalarning o‘zlarini o‘zlashtirishlari, o‘z fikrlarini yangilashlari va o‘zlarini mustahkam qilishlari uchun ularning o‘zlariga mos ravishda yordam beradi.

Ushbu jihatlar geymifikatsiyani o‘qituvchilar uchun samarali pedagogik vositalardan biri va ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida Qonuni. – T., 2020y. 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF5847 son Farmoni, 2019-yil 8-oktyabr.
4. “Playful Learning: Develop Your Child's Sense of Joy and Wonder” by Mariah Bruehl – Ushbu kitob talabalarning ijodiy va tafakkur qobiliyatlari rivojlantirish uchun o‘yinlardan qanday foydalanishlarini ta’kidlaydi.
5. Jane McGonigalning “Reality is Broken: Why Games Make Us Better and How They Can Change the World” nomli kitobi.
6. Greg Toppo ning “The Game Believes in You: How Digital Play Can Make Our Kids Smarter” nomli kitobi.

Ro‘zigul PRIMOVA,
Qarshi Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti stajyor-o‘qituvchisi

QO‘CHQOR NORQOBIL ASARLARIDA URUSHNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri Qo‘chqor Norqobil asarlarida ilgari surilgan g’oyalar hamda urushning inson ruhiyatiga ta’siri ochib berilishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy adabiyot, nasriy asar, urush mavzusi, urush mavzusining badiiy ahamiyati.*

Аннотация: в данной статье говорится об идеях, высказанных в произведениях Кочкора Норкабила, одного из известных представителей узбекской прозы, и влиянии войны на психику человека.

Ключевые слова: *художественная литература, прозаическое произведение, тема войны, художественное значение темы войны.*

Annotation: this article talks about the ideas put forward in the works of Kochkor Norqabil, one of the famous representatives of Uzbek prose, and the impact of war on the human psyche.

Key words: *fiction, prose work, theme of war, artistic significance of the theme of war.*

Adabiyotda shunday asarlar yaratilganki, ularning mazmunini tushunish uchun chuqur falsafiy mulohaza, mantiqiy mushohada lozim bo‘ladi. Sababi bunday asarlarni ijodkorlar teran ruh, izchil o‘y bilan yozgan bo‘ladi. Ana shunday asarlardan biri Qo‘chqor Norqobilning urush xususida yaratilgan “Gullayotgan qurol” asaridir. Ushbu ijod namunasi hikoya janrida yaratilgan bo‘lib, uni mutolaa qilar ekansiz, yozuvchi nima demoqchi ekanligini anglamoq uchun chuqur o‘y yuritishga majbur bo‘lasiz. Zero, yozuvchi bu asariga – o‘zi qisqagina – olam-olam ma’noni singdira olgan. Asarga ham majoziy nom berilgani, ham asar nomidan-da ma’lum – “Gullayotgan qurol”. Qurol, aslida, sovuq jism bo‘lsa-da, biroq unga muallif tomonidan “gullamoq” leksikasining ishlatilishi kishini ajablantiradi. Chunki bu orqali muallif nima demoqchi, nimani nazarda tutgan, bunda salbiy ma’no bormi yoki ijobiy – bularning barchasi kitobxonni chuqur o‘yga toldiradi. Badiiy adabiyotda bu kabi qarama-qarshi so‘zlarni yonma-yon qo‘llash oksimoron san`ati deya yuritiladi.

Asarning bosh qahramoni va yagona qahramoni bu – ASKAR! Uning yolg‘iz o‘zigina asardagi voqealar rivojini boshqaradi. “Gullayotgan tosh” asarida asar voqealari go‘yo “yovuzlik” ila boshlanadi, ya’ni urushdan qaytgan askarning ona-bola kiyiklarni o‘ldirmoqchi bo‘lganligi voqeasi asarni boshlab beruvchi “Bismillo”si sanaladi. Bir qarashda, kitobxon ona-bola kiyiklarni askar o‘qidan halok bo‘ldi deb o‘ylaydi – askarga bu uchun la`nat o‘qiydi. Biroq voqealar tuzilmasida ularning tirik qolganligi nafaqat mutolaa qiluvchi uchun, balki kitobxon uchun ham ajoyib bayramga aylanadi. Askar ham o‘zidan quvonadi – shu vaqtga qadar uning nishoni aniq tegmagan joy qolmagan edi - u umrida birinchi marta nishoniga o‘q tekkiza olmadi va bundan o‘zi ham xursand edi. Mana shu o‘rinda ham muallif tomonidan qarama-qarshi voqealar aks ettirilib, kitobxonning chalg‘ishiga sabab bo‘luvchi omil sifatida baholanadi.

Kiyiklarning tirik qolganida ham chuqur falsafa bor, nazarimizda. Bu orqali muallif tinchlik va tiriklik mohiyatini kitobxonga anglatmoqchi bo‘ladi. Ona-bola kiyik bu asarda tinchlik ne’matining ramzi sifatida qo‘llanilgan. Asar so‘ngida esa anglaysiz nima uchun ijodkor asarga bunday nom tanlaganini – uning o‘qi nishoniga tegmaganidan xursand askar o‘z miltig‘ini gullayotganday tasavvur qiladi!

Urush – insoniyat taqdirini o‘zgartirgan, kishilar boshiga ne-ne savdolarni solgan og‘ir mushkulotdir. Ushbu hodisani bor bo‘yicha aks ettirish barcha yozuvchi ijodkorning ham qo‘lidan kelavermaydi. Sababi, urushning qay holatda yuz berganini anglash uchun ijodkor, albatta, o‘zi ham urush qatnashchisi bo‘lishi, urushning salbiy oqibatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi, uning har bir tafsilotlarini yurak-yuragidan anglashi lozim. Zero,xalqimiz aytganidek: “Boshidan o‘tmaganning qoshidan o‘tma ” yoki “Donishmanddan so‘rama – tajribalidan so‘ra ”. Urushning mudhish voqealarini o‘z asarida bus-butunicha yoritib bergan ijodkor bu Qo‘chqor Norqobildir. Adibning “Urushning surati” asarida voqeotlar adib qalamidan to‘laligicha yoritib berilgan, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Asarning bosh qahramoni G‘ulom bobo bo‘lib, uning yakka-yu yagona farzandi Yolg‘iz urushga ketgan. Farzandiga Yolg‘iz deya ism qo‘yishida ham qandaydir majoziy ma’no bor, nazarimizda. Ijodkor ta’biri bilan aytganda: “Yolg‘iz – yolg‘iz o‘g‘il. G‘ulom bobo bilan Oysara xolaning yolg‘izi, ortida qoladigan yorug‘ izi ”. Demak, ota-ona farzandlariga bunday nom tanlashlaridan maqsad ular o‘z kelajagini bu farzandlarida ko‘rgan.

Afg‘on urushining sovuq shamoli Yolg‘izga ham tegdi, u ham urushga ketdi. Biroq urushdan Yolg‘izning o‘zi emas, uning temir tobuti keldi… Ha, yakka farzandining o‘zlaridan oldin o‘tishi G‘ulom bobo uchun oson bo‘lmadi, xalqimiz aytganidek: “Otamlatsa,

otamlatsin, bolamlatmasin ”. Hattoki, el-u yurt ham G‘ulom bobo uchun oh-u fig‘on chekdi: “Notanti taqdir, kelib-kelib shugina yolg‘iz cholning Yolg‘iziga chang solasanmi?..”

Asardagi Yolg‘izning qabrtoshida aks etgan yozuvda esa aynan G‘ulomboboning qalb sog‘inchi namoyon bo‘lgan, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi: “Men otamdan oldin o‘lganman ”. Biroq G‘ulom bobo uchun yasattirilgan qabrtoshdagi yozuv esa har bir kishini larzaga solmay qo‘ymaydi: “Men bolamdan keyin o‘lganman ”. Bir qarashdan oddiygina tuyulgan bu ikki jumla, aslida, o‘zida ko‘p narsani mujassam etgan, ya’ni yakka bo‘lishiga qaramay urushdan bosh tovlamagan farzand taqdiri, uning metin jasorati, farzand dog‘ini ko‘rsa-da, lekin sabr qilgan otaning qahramonligi – bularning barchasi asar mazmunidan o‘rin olgandir.

Urush voqealarining asar qahramonlari ruhiyatidan o‘rin olishi, ularning urush solgan azoblarga metin sabr ila bardosh berganlari – bularning barcha-barchasi “Urush surati” asaridan o‘rin olgandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan, 1978. 416-bet.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. 559-bet.
3. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi, 1986. 407-bet.
4. O‘zbek xalq maqollari, 1981.
5. www.wikipedia.org
6. www.ziyouz.com
7. www.fayllar.org
8. www.saviya.uz

Mukarramoy XO‘JABEKOVA,
Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, ADPI

ART-TERAPIYA FANINI AMALIY MASHG‘ULOTLARDA O‘RGANISH, MUSTAHKAMLASH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada amaliy darslarni tashkil qilish, o‘rganish-mustahkamlash texnologiyalari Art-terapiya fani misolida ochib berilgan. Art-terapiya nima? Uning strategik maqsadi, asosiy vazifalari va turlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *art, terapiya, davolash, psixoterapiya, ruhiy salomatlik, san’at, psixokorreksiya, bemor, faoliyat, psixokorrektiv.*

Аннотация: в данной статье организация практических занятий, технологии обучения и закрепления раскрываются на примере науки арт-терапии. Что такое арт-терапия? Обсуждаются его стратегическое назначение, основные задачи и виды.

Ключевые слова: *искусство, терапия, лечение, психотерапия, психическое здоровье, искусство, психокоррекция, пациент, деятельность, психокоррекция.*

Annotation: in this article, the organization of practical classes, learning and reinforcement technologies are revealed on the example of art therapy science. What is art therapy? Its strategic purpose, main tasks and types are discussed.

Keywords: *art, therapy, treatment, psychotherapy, mental health, art, psychocorrection, patient, activity, psychocorrective.*

“Art terapiya” (art – san’at, **theoraphy** – davolash), san’at yordamida davolash degan ma’noni anglatadi. Bu ijodkorlik bilan birlashtirilgan muloqotning terapevtik ta’siriga asoslangan usul hisoblanadi. Art terapiya psixoterapiyaning nisbatan yangi usulidir.

“Art terapiya” atamasini ilk bor 1938-yilda Adrian Xill sil kasalligi bilan og‘rigan bemorlar bilan olib borgan ishlarida qo‘llagan va bu tez orada keng tarqalgan. Ayni paytda, u shifoxonalarda va ruhiy salomatlik markazlarida o‘tkaziladi.

Art terapiya – san’atning insonning hissiy va shaxsiy-semantik sohalariga, uning munosabatlari tizimiga, birinchi navbatda, tasviriy san’atga, shuningdek, tasviriy san’atga oid ijodiy faoliyatga kuchli ta’sir ko‘rsatishga asoslangan psixoterapiyaning ixtisoslashgan shaklidir.

Art terapiyasining strategik maqsadi – mijozning o‘z-o‘zini ifoda etish va o‘z-o‘zini bilishini san’at orqali rivojlantirish orqali shaxsiy rivojlanishni uyg‘unlashtirish, shuningdek, atrofdagi dunyoning haqiqatini hisobga olgan holda konstruktiv harakatlar qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu art terapiyaning eng muhim tamoyili –

mazmuni, shakli va sifatidan qat'iy nazar, ijodiy tasviriy faoliyatning barcha mahsulotlarini tasdiqlash va qabul qilishni nazarda tutadi.

Art terapiya – muayyan san'at shakliga mansub janr bo'yicha ham, psixokorrektiv terapevtik qo'llanilish yo'nalishi va texnologiyasi bo'yicha ham aniqlanadigan farq va xususiyatlarga ega bo'lgan psixokorrektiv metodlar majmuidir. Uning tizimliligi, avvalo, san'at shakllarining o'ziga xosligiga asoslanadi (musiqa – musiqa terapiyasi; tasviriy san'at – izoterapiya; teatr, tasvir – obrazoterapiya; adabiyot, kitob – biblioterapiya, raqs, harakat – kineziterapiya).

Art terapiya – psixokorreksiya usuli. Bu allaqachon bir necha marta yaxshi natijalar ko'rsatgan metod. Muomala jarayonida san'atning deyarli barcha turlari insonning ruhiy-emotsional holatini yaxshilaydi. Bemorning ichki muammolariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qo'rquvlarini, xohish-istaklarini va maqsadlarini anglashni, ularni mavjud bo'lgan ijodiy yo'llar orqali ifodalashni o'rgatadi.

Umumiy qabul qilingan xalqaro ta'rifga ko'ra, art-terapiya musiqiy terapiya, raqs va harakat terapiyasi va drama terapiyasi kabi sohalar bilan bir qatorda art-terapiya ijodiy sohalaridan biridir (ingliz tilida creative arts therapies). Ularning barchasi mijozlarga bemorlarning ijodiy faoliyatidan terapevtik va profilaktik ta'sir omili sifatida foydalanadilar, ammo mijozlar o'zlarini ijodiy ifoda etadigan usullardan biri – tasviriy san'at, musiqa, harakat va raqs yoki teatr san'ati. Shunga ko'ra, ushbu usullardan foydalangan holda o'z ishlarini olib boradigan mutaxassislar bor bular – art-terapevtlar, musiqa terapevtlari, raqs va harakat terapevtlari va drama terapevtlari. So'nggi yillarda san'atni terapevtik qo'llashning "expressive arts therapy" deb nomlangan integral shakllari ham rivojlanmoqda.

San'at – bu ijtimoiy ong shakllaridan biri, o'ziga xos dunyoni amaliy-ma'naviy o'rganishning bir turi.

Art-terapevtik metodologiyaning falsafiy asoslari

"Nemis maktabi"

Fridrix Vilgelm Shyelling: "San'at ichki dunyoni tashqi orqali aks ettirishdir".

Arnold Gehlen: "Rasm endi ko'rinadigan dunyoga taqlid emas, balki o'z ichidan belgi tuzilishini yaratadi."

Martin Xaydegger: "Badiiy ijod – bu "hamma narsa chiqadigan va hamma narsa qaytib keladigan narsadir". San'at asari – bu narsa bo'lib, u qo'shimcha ravishda boshqa narsani anglatadi (ramz bo'lib, biror narsaga ishora qiladi; allegoriya bo'lib, u boshqa narsa haqida gapiradi).

Helmut Plesner: "Ekssentrik pozitsion shakl ... uning (odamning) dastlabki sun'iyligini, ijodiy impulsini belgilaydi."

"Fransuz maktabi"

Jak Maritain: "San'at bilvosita va tashqi tomondan axloqqa bo'ysunadi"

Anri Bergson: "Idrok narsalarning ko'zgusi emas, balki narsalarga mumkin bo'lgan harakatimizning o'lchovi va shuning uchun aksincha, narsalarning bizga ta'sirining o'lchovi bo'lib chiqadi."

Anri Matisse: "Yaratish – bu sizning ichingizdagini ifoda etish demakdir"

Gil Deleuze: "Ruhning o'zida ikkita asosiy xususiyat mavjud: rezonans va jonlilik."

Yuqoridagi fikrlar san'at hodisasini psixologik va falsafiy bilishning mumkin bo'lgan predmetiga ishora qiladi, bu ham ijodiy jarayonning o'zi, ijodkorning idroki va g'oyalarini shakllantiradigan narsa, ham uning natijasi bo'lishi mumkin, aqliy va aqliy aloqalarning proyeksiyasi sifatida kognitiv kuchlar. Tadqiqot predmetini o'rganish tabiati mumkin bo'lgan muammoni turli nuqtayi nazardan, masalan, badiiy obrazning shakllanishiga boshqaning ta'sirini tahlil qilish pozitsiyasidan, badiiy shaklning, asarning psixologik mazmunini ifodalashga ta'siri va boshqalardan olib borilgan. [1]

Shunday qilib, tadqiqot mavzusini ko'rib chiqish kontekstida biz san'at falsafasining quyidagi asosiy qoidalarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin, ularning mazmunini talqin qilish art-terapiya nazariyasi metodologiyasini ishlab chiqishga imkon beradi:

• ijodkorlik "tashqi orqali ichki" ifodasi sifatida;

• san'at asari *"o'z ichidan o'zini"* belgi tuzilishini yaratish mahsuli sifatida;

• badiiy asar *"narsa", "ramz",* "allegoriya" sifatida;

• insonning asl *"sun'iyligi, ijodiy turtki"*;

• ijod *"badiiy ifodaning ekspressiv shakli"* sifatida;

• *"narsalarning bizga mumkin bo'lgan ta'siri"* o'lchovi sifatida idrok.

Ushbu turdagi davolanish uchun hech qanday cheklovlar yo'q. Bundan tashqari, u har qanday boshqa yo'l bilan o'zini ifoda qilish uchun qodir bo'lganlarga ham mumkin. Masalan, autizmli bolalar, mute yoki kar bemorlar ham badiiy terapiya mashqlarini bajarishlari mumkin. «Art terapiya» kimga tavsiya etilishi mumkin? Masalan, sizda quyidagi holatlar bo'lsa foydali bo'ladi:

– Past samootsenka (o'ziga bo'lgan past baho, hurmat);

– Depressiya yoki stress holati;

– Yashirin qo'rquvlar;

– O'zini yolg'iz his qilish;

– Asabiylashish, kayfiyatning tez o'zgarishi;

– Hayotdagi ma'lum davrlar-o'smirlik, homiladorlik, qarilik;

– Rivojlanishning kechikishi;

– Boshqalar bilan munosabatlar o'rnatishda ishonchsizlik.

Art-terapiyaning biror usulini tanlaganda, patsiyent izoterapiya, musiqa, qum va ertak bilan davolash va har qanday boshqa turdagi ijod usulini tanlashi mumkin. Mashg'ulotlar odatda 1-2 soat davom etadi va haftada bir necha marta o'tkaziladi. Psixolog

bemor yoki guruh bilan uchrashib, qulay materiallarni tanlab, ish boshlashni taklif etadi. Tinch, do‘stona muhitda mutaxassis ishtirokchilarga o‘z hissiyotlariga e’tibor qaratishga yordam beradi. Ijodiy jarayon tugagach, bemorlar natijalarni psixolog bilan muhokama qiladi. Bu yerda badiiy terapiya mashqlari namunalari mavjud:

Syujetni chizish. Psixolog ma’lum bir mavzu bo‘yicha rasm chizishni taklif qiladi va u ishtirokchining his-tuyg‘ularini aks ettirishi kerak. Ishni muhokama qilish paytida mutaxassis sizning hissiy holatingizni tushunishga yordam beradi.

Kollaj qilish. Guruh a’zolari bir mavzuda kollaj qilishadi. Bu sizning orzu va hayot maqsadlarini aks ettirishi mumkin. Shu tariqa psixolog yordamida siz o‘zingizni baxtli qiladigan yo‘lni rejalashtira olasiz. Kollaj ilhom manbasi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Плеснер, 2004, 268-бет
2. Матиссе, 1958, 89-бет
3. Xo‘jabekova M.M. “Art-terapiya”. O‘quv qo‘llanma. 8-b.
4. Art-terapiya-yangi ufqlar / Ed. A.I. Kopitin. - M.: Kogito-Markaz, 2009. 336-b.

Surayyo MIRZAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

SEMIOTIKA

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikdagi semiotik belgilar, ularning turlari, tabiiy va sun’iy semiotik belgilarning bir-biridan farqi va o‘xshash tomonlari haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *semiotika, belgi, tabiiy, sun’iy, inson omili, tabiat, tasavvur, vaqt, zamon.*

Annotation: this article discusses the semiotic signs in linguistics, their types, differences and similarities between natural and artificial semiotic signs.

Keywords: *semiotics, sign, natural, artificial, human factor, nature, imagination, time, time.*

Аннотация: в статье рассматриваются семиотические знаки в лингвистике, их виды, различия и сходства между естественными и искусственными семиотическими знаками.

Ключевые слова: *семиотика, знак, естественное, искусственное, человеческий фактор, природа, воображение, время, время.*

Kirish. Bizni o‘rab turgan butun olam ma’lum bir qonuniyatlarga bo‘ysunadi va ularning ta’sirida borliqni hosil qiladi. Atrofimiz belgilar bilan o‘ralgan. Har qadamimizda, har bir ishimizda ma’lum bir belgiga duch kelamiz va u anglatayotgan mazmunga bo‘ysunamiz yoki amal qilamiz. Shunday belgilar va ular anglatadigan ma’nolarni ilmiy o‘rganadigan fan semiotikadir. Semiotika (yun. semiotikos – belgilar haqidagi ta’limot), semiologiya: 1) axborot, ma’lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganadigan fan sohasi; 2) u yoki bu obyektning bir ma’nodagi Semiotika nuqtayi nazaridan o‘rganiladigan tizimi (masalan, muayyan film yoki badiiy asar semiotikasi, muayyan xalqdagi muomala-murojaat semiotikasi va boshqalar). Shuning uchun semiotika – bu belgilar bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa. Aslida, Qadimgi Yunonistonning birinchi faylasuflari allaqachon tilning kelib chiqishi va belgilar va aloqa o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, uning atrofimizdagi dunyo bilan aloqasi haqida fikr yuritganlar. G‘or rasmlaridan tortib, biz televizorda ko‘radigan reklamalarga qadar, belgilar butun tariximiz davomida biz bilan birga bo‘lgan (va bizga hamroh bo‘ladi): Misr ierogliflari, yo‘l belgilari, “chekish taqiqlangan” belgilar, yozuvlar. Mayya sivilizatsiyasining xarobalari, diniy ramzlar, biz kasblar bilan bog‘laydigan kiyimlar. Bizning tariximiz belgilar bilan o‘ralgan. Lingvistik semiotikadagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Belgi o‘zi shartli ravishda aloqador bo‘lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o‘rganadigan tildir. Belgi tizimlari tabiiy (inson tili, hayvonlarning belgi tizimlari) va sun’iy (yasama, sun’iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo‘ladi. Semiotika ramziy aloqadan foydalanishni o‘rganadi. Semiotika belgilar, logotiplar, imo-ishoralar va boshqa lingvistik va nolingvistik aloqa usullarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Muhokama va natija. Aytilganidek, semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta’limot bo‘lib, uning muayyan yo‘nalishi sifatida tilshunoslik va

semiotikaning o‘zaro maqsadli aloqa, munosabatga kirishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllandi. Bu sohaning o‘rganish obyekti til, nutq birliklari, muayyan belgi sifatida ma’no, tushuncha ifodalovchi tilning struktur tuzlishidir. Tilshunoslik semiotik belgilarni tabiiy va sun’iy belgilarga ajratar ekan ma’lum bir tamoyilga asoslanadi. Bu borada semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilar farqlanadi, ya’ni tabiiy belgilar (priznaklar) va sun’iy belgilar (informatorlar). Tabiiy belgilar aslida belgi hisoblanmaydi. Ular u yoki bu narsa, predmet va hodisalarning muayyan bo‘lagi, tarkibiy qismi bo‘lib keladi. Masalan, darsga kirish yoki darsdan chiqish haqida xabar beruvchi qo‘ng‘iroq, poyezdning kelayotganligi yoki harakati – yurishi boshlanyotganligi haqida darak beruvchi ovoz – gudok, yomg‘ir yog‘ishidan xabar beruvchi to‘plangan bulutlar, shamolning esayotganidan darak beruvchi daraxt uchlarining qimirlashi, qordagi oyoq izi va boshqalar (Ravshanxo‘ja Rasulov, Umumiy tilshunoslik, –T:., 2010). Demak, ushbu tabiiy belgilar inson ongida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi.

Sun’iy belgilar shartli belgilar bo‘lib, haqiqiy belgilar hisoblanadi. Ular tabiiy belgilardan – alomatlardan farqli muayyan xabarni – informatsiyani to‘plash, saqlash va yetkazish uchun, predmet va hodisalarni, tushuncha va hukmlarni tasavvur qilish, o‘rnini bosish uchun xizmat qiladi.(Ravshanxo‘ja Rasulov, Umumiy tilshunoslik, –T:., 2010). Yuqorida aytilgan fikrlarga ko‘ra, atrofimizdagi belgilarni tabiiy va su’niyga ajratadigan bo‘lsak bu chegarada mavhumlik yuzaga keladi. Masalan biz dars qo‘ng‘irog‘ini tabbiy belgi sifatida oldik, ammo bu qo‘ng‘iroq va uning anglatadigan ma’nosini ham qachonlardir inson tomonidan sun’iy ravishda yaratilgan. Vaqtlar o‘tishi bilan bu belgi insonlar uchun tabiiy hodisaga aylanib, ongiga singishib ketgan, shu sababdan kelib chiqishi sun’iy bo‘lsada, bu belgi hozirda tabiiy semiotik belgi sifatida olinadi. Poyezd signali bilan ham huddi shunday hodisa ro‘y bergan, dastlabki temiryo‘l 1825-yilda ishga tushgan. Demak ungacha, poyezdlar bo‘lmagan va insonlar hayotida, tasavvurida poyezd signalining anglatadigan ma‘nosi ham yo‘q edi. Vaqtlar o‘tishi bilan hozirda bu belgi ham tabiiy semiotik belgilar sirasiga kirmoqda. Endi tabiiy belgilarga kiradigan boshqa bir belgilar haqida o‘ylab ko‘ramiz, bu yomg‘ir yog‘ishini anglatuvchi bulutlar, shamol esayotganligini anglatayotgan daraxt uchlari, xavf yoki o‘lim, ziyon tushunchasini yuzaga keltiradigan qon. Bularning barchasi ham tabiiy belgilardir. Ammo ularning undan avval sanalgan belgilarimizdan yagona farqi inson ta’siri mavjud emasligida, ya’ni ularning yuzaga kelishiga inson aralashmagan ular tabiatan shunday. Shunda, sun’iy belgilar-chi?, ular ham inson tomonidan yaratilgan ma’lum bir axborotni saqlash va tashish uchun xizmat qilib tasavvurimizda tushunchalarni yuzaga keltiradi-ku, deyishimiz mumkin. Unisini ham, bunisini ham yaratilishida inson aralashuvi bor, ular uzoq zamonlardan buyon mavjud, ammo ikkisi ikki xil tipga mansub, bunga sabab nimada?

Aynan shunga o‘xshash savollar hozirgi davr lingvosemiotika sohasining dolzarb muammolaridan hisoblanadi, ya’ni o‘rnatilgan chegarada mavhumlik mavjud. Vaqtni chegara deb olsa, vaqtlar o‘tib belgilar sun’iydan tabiiyga o‘tadi deb bunga misol tariqasida dars qo‘ng‘irog‘ini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan aynan shuncha tarixga ega yo‘l belgilari hozirda ham sun’iy semiotik belgilar sirasiga kiradi. Ikki tushuncha natijasi bir-birini inkor qilmoqda. Shu sababdan, bu sohada o‘rganilmagan narsalar ko‘p ekanligi va fanda mavhum bo‘lgan tomonlari hali anchagina ekanligi ta’kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma‘lum bir ta’moyilni mana shu semiotik belgilarni tabiiy va sun’iyga ajratadi deb aytolmas ekanmiz. Sababi vaqt, zamon tushunchasi ham nisbiy tushuncha. Lekin mening fikrimcha, bu chegarani o‘rnatishda inson aloqasi bor yoki yo‘qligiga qarab qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Ya’ni, vujudga kelishida inson omili ta’sir o‘tkazgan bo‘lsa demak, ular so‘zsiz sun’iy belgilar. Hech qanaqa zamon va vaqt unga ta’sir qilmaydi. Inson omili ta’sirisiz tabiatning qudrati ila vujudga keladigan belgilarning barchasi esa tabiiy belgilar va ularga ham hech qanday vaqt tushunchasi ta’sirini o‘tkazolmaydi. Shunda yaxlit bir chegara yuzaga keladi. Vaqt, zamon chegarasinig esa oxiri yo‘q. Sababi insoniyat yashar ekan, yangi ixtirolar bo‘ladi, yangi sohalar, yangi belgilar vujudga keladi va ular vaqt o‘tishi bilan sun’iydan tabiiyga o‘tib boraveradi. Bu hodisaning oxiri yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ravshanxo‘ja Rasulov, Umumiy tilshunoslik, –T:., 2010.
2. Wikipediya.com

Sharifjon KENJABOYEV,
Namangan davlat universiteti, Jahon tillari fakulteti chet tillari kafedrasi o`qituvchisi

KASBIY KOMPETENSIYA VA IDENTITETLIK TUSHUNCHALARINING ILMIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada kasbiy kompetentsiya va identitetlik tushunchalarining ilmiy tahlili, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy identitetining tarkibiy qismi va uning tavsifi, shuningdek individual kasbiy rivojlanish va kasbiy identitet tushunchalarining o‘zaro bog’liqligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, identitet, qobiliyat, pedagogik tajriba, individual kasbiy rivojlanish, mustaqillik, motivatsiya.*

Аннотация: в данной статье рассматривается научный анализ понятий профессиональная компетентность и идентичность, компоненты профессиональной идентичности будущего учителя и ее описание, а также взаимозависимость понятий индивидуального профессионального развития и профессиональной идентичности.

Ключевые слова: *компетентность, личность, способности, педагогический опыт, индивидуальное профессиональное развитие, самостоятельность, мотивация.*

Annotation: this article discusses the scientific analysis of the concepts of professional competence and identity, the components of the professional identity of future teachers and its description, as well as the interdependence of the concepts of individual professional development and professional identity.

Key words: *competence, identity, ability, pedagogical experience, individual professional development, independence, motivation.*

Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishi ularning kasbiy kompetensiyasi va identiteti bilan uzviy aloqadorlikka ega. Kasbiy identitet kasbiy faoliyatga doir kompetensiyalarni egallashda muhim ahamiyat kasb etib, shaxsda o‘rganishga, izlanishga bo‘lgan intilishni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa shaxsda kasbiy rivojlanish, o‘z ustida ishlash, izlanishni ta’minlaydi. Kasbiy identitetning mustahkam rivojlanishi shaxsning mazkur kasbiy faoliyat bilan uzoq yillar shug‘ullanishi, faoliyatini o‘zgarmasligi, kasbi bilan faxrlanishi va o’z hayotining ajralmas qismi sifatida ko‘riladigan qadriyat hisoblanadi. Individual kasbiy rivojlanish orqali kasbiy identitet ham rivojlanib boradi.

1-jadval
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY IDENTITETINING TARKIBIY QISMI VA UNING TAVSIFI

TARKIBIY QISMI	TAVSIFI
Pedagogik qadriyatlar	Ta’lim va pedagogiik faoliyatga nisbatan shakllangan shaxsiy e’tiqod va qadriyatlar
Kasbiy faoliyatga doir maqsadlar	Pedagogik faoliyat, ta’lim sohasi bilan bog‘liq uzoq va qisqa vaqtga mo‘ljallangan maqsadlar
Kasbiy mas‘uliyat	O‘qituvchining jamiyatdagi vazifasi, maqomini anglash, shuningdek pedagogik amaliyot, etika hamda professionallik orqali namoyon etish, kasbiy mas’uliyatni his etish va rioya etish
Pedagoglik maqomi bilan identifikatsiya qilinishi	O‘qituvchilik faoliyati o‘zining shaxsiy identitetining tarkibiy qismi ekanligi xususidagi hisning mavjudligi
O‘zini qabul qilish	O‘zini o‘qituvchi sifatida qobiliyati, mahorati, muvaffaqiyati, shuningdek, kuchsiz jihatlarini baholay olishi

O‘quvchilarga munosabat	O‘quvchilarga o‘quv jarayonida uchrab turadigan barcha jarayon va holatlarda empatiya, hurmat va qo‘llab-quvvatlashni ko‘rsata olishi
Jamoadoshlar bilan munosabat	Boshqa hamkasblar, ta’lim sohasi mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, jamoada ishlay olishi va professional darajada fikr-mulohazalar almashina olishi
O‘qitish metodlari va yondashuvlari	Pedagogik nazariya va ta’limotlarga asoslangan dars mashg‘ulotlari uchun layoqatni shakllantirish va strategiyalarni rivojlantirish
Professionallik darajasiga erishish	Ta’lim sohasida muntazam malakasini oshirib borish, kasbiy tashabbuskorlik ko‘rsatish va ta’lim sohasidagi muammo va masalalarga qiziqishini ko‘rsatish

Kasbiy identitetlik jamiyatda ham kasb egalarining umumiy maqomini, nufuzini belgilab beradi. Ma’lum bir kasb egasining kasbiy kompetensiyasi darajasi, uning axloqiy sifatlari jamiyat a’zolarida mazkur kasb egalari bo‘yicha tasavvurni shakllantiradi. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, har bir kasb egasi mazkur kasbning jamiyatdagi nufuzini ortishiga dahldor hisoblanadi. Bo‘lajak talabalarda ham mazkur dahldorlikni anglashlari uchun ularda individual kasbiy rivojlanish strategiyalarini tarkib toptirish muhim hisoblanadi.

Quyida individual kasbiy rivojlanish va kasbiy identitet o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik tasvirlangan: [2-311-32-b]

Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishini ular tomonidan mustaqil ta’lim olish jarayonining maqsadi sifatida qarash mumkin. Talabalarning mustaqil ta’lim olish motivatsiyasini oshirishda e’tiborga olinishi mumkin bo‘lgan ba’zi muhim ilmiy jihatlar quyidagilar:

1. O‘zini-o‘zi anglash nazariyasi. Mazkur nazariya ingliz tilida Self-Determination Theory deb yuritiladi. Bu nazariya uchta asosiy psixologik ehtiyojning muhimligini ta’kidlaydi: mustaqillik, kompetensiya va ijtimoiy bog‘liqlik. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar o‘zlarini mustaqil shaxs sifatida his qilishi ularning harakatlari va faoliyati dinamikligini ta’minlaydi.[3;75-92-b] Shuningdek, ularda kasbiy kompetensiyalarning ma’lum darajasi shakllanganda hamda ijtimoiy bog‘liqlik, ijtimoiy jihatdan mas’uliyatni his qilganda o‘zini-o‘zi rag‘batlantira oladi. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida mazkur jihatlarni qo‘llab-quvvatlash orqali talabalarning mustaqil ta’lim olishi rag‘batlantiriladi. O‘zini o‘zi anglash nazariyasi fanga psixologlar Edward Deci hamda Richard Ryan [4;223-238-b] tomonidan kiritilgan. Bu nazariya boshqa nazariyachilar tomonidan takomillashtirilgan. Bu nazariya shaxsning turli xulq-atvorini aniqlashda ham keng qo‘llaniladi. Mazkur nazariya shaxsdagi ichki motivatsiyaning harakatga kelish sabablarini izohlaydi. Maslowning ehtiyojlar nazariyasi hamda Grawesning asosiy ehtiyojlar nazariyasi kabi bu nazariya ham motivatsiyani oshirishga yo‘naltirilgan nazariya hisoblanadi.

Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi anglash nazariyasi shaxs munosabati hamda motivatsiyani belgilab beradi. Ular shaxsda 3 turdagi universal ehtiyojlar borligini ta’kidlaydi:

1) ijtimoiy bog‘liqlik. Bu shaxsning ijtimoiy guruhlarga qanchalik bog‘liqligini anglatib, mazkur tushuncha ijtimoiy psixologiya va sotsiologiyada keng o‘rganiladi. Shaxslarning ijtimoiy munosabatlar orqali boshqalar bilan muloqot qilishi universal ehtiyoj hisoblanadi. Shaxsning oila a’zolari, do‘stlari, hamkasblari bilan muloqot qilishi shular jumlasidandir;

2) kompetensiya. Ma’lum bir kompetensiya yoki kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish orqali shaxs o‘zini o‘zi barkamol va samarali shaxs sifatida his qiladi. Tabiatan inson qiyin vaziyatlarni ishonchli boshqarishni, o‘zgalarga yordam berish (altruizm) ni xohlaydi. Barkamol inson kabi samarali faoliyat ko‘rsatish o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va o‘z qobiliyatiga ishonchni mustahkamlaydi;

3) mustaqillik (avtonomiya). Mustaqillik – bu shaxsning o‘z maqsad, faoliyat va rejalarini mustaqil aniqlashtira olishi, hal qilish, mustaqil qarorlar qabul qilishi hamda faoliyati mazmuni, yo‘nalishini belgilay olish zaruratini tavsif etadi. Shaxsning mustaqilligi tashqi ta’sir (siyosiy, jinoiy) ostida cheklanmas ekan, unda mustaqillik uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi

uchun muhim ehtiyoj bo‘lib qoladi.

Deci va Rayanning [5;182-b] fikricha, keltirib o‘tilgan uchta ehtiyoj qondirilmasa, shaxsda ruhiy salomatlik kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Quyidagi belgilar, uchta asosiy ehtiyoj qondirilmayotganligini ko‘rsatishi mumkin:

1.Motivatsiya yetishmasligi; 2. Xulq-atvordagi o’zgarishlar; 3. Salbiy o‘rinbosar ehtiyojlar (masalan, o‘ziga qaramlik); 4. Ijtimoiy izolyatsiya; 5. pessimizm.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishida mustaqil ta’lim motivatsiyasining o’rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida mustaqil ta’lim motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillar keltirib o’tilgan:

Ichki motivatsiya. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ichki motivatsiya, ya’ni faoliyatning o‘ziga qiziqish va zavqlanish mustaqil ta’limning kuchli omili hisoblanadi. Talabalarga qiziqarli va qiyin o‘quv topshiriqlarini berish, shuningdek mavzular yoki o‘rganish usullarini tanlash imkoniyatini berish orqali ta’lim oluvchilarning ichki qiziqishlarini oshirishlari mumkin.

O‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim. O‘z-o‘zini tartibga soluvchi ta’lim o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tarzda o‘rganishi mumkin bo‘lgan talabalar samaraliroq va rag‘batlantiriladi. Pedagoglar o‘quvchilarga ta’lim strategiyalarini o‘rgatish, fikr-mulohazalarni bildirish, fikr yuritish va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlarini yaratish orqali o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

Oqim tajribasi. “Oqim” tushunchasi faoliyat davomida chuqur konsentratsiya va maksimal ishlash holatini tavsiflaydi. Talabalar o‘zlarining qobiliyatlariga mos keladigan qiyin vazifalar ustida ishlaganlarida oqimni his qilishadi. Murakkab, ammo erishish mumkin bo‘lgan o‘quv vazifalarini taqdim etish va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish orqali o‘qituvchilar talabalarga mustaqil o‘rganish jarayonida oqimni boshdan kechirishlariga yordam berishlari mumkin.

Ijtimoiy ta’lim va tengdoshlarning o‘zaro ta’siri. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tengdoshlarning o‘zaro ta’siri va ijtimoiy o‘rganish mustaqil ta’lim uchun motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Guruhda ishlash, munozaralar va tengdoshlarning fikr-mulohazalari orqali talabalar bir-biridan o‘rganishlari, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari va o‘zlarini rag‘batlantirishlari mumkin bo‘ladi.

Ushbu ilmiy xulosalarni o‘quv amaliyotiga integratsiyalash va talabalarning avtonomiyasi, kompetensiyasi, ijtimoiy integratsiyasi, ichki motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarishi, oqim tajribasi va tengdoshlarining o‘zaro ta’sirini rag‘batlantiradigan usullar va shart-sharoitlarni yaratish orqali o‘qituvchilar mustaqil ta’lim motivatsiyasini barqaror ravishda oshirishi mumkin.

Quyida individual kasbiy rivojlanish tushunchasini ilmiy, pedagogik, ijtimoiy hamda tarixiy aspektlari tahlil qilib o‘tiladi:

1. Ilmiy jihatlari. O‘zini-o‘zi anglash hamda shaxsiy samaradorlik nazariyalari individual kasbiy rivojlanish tushunchasining asosiy mazmunini anglash uchun asos bo‘ladi. Shaxsiy samaradorlik nazariyasi shaxsning o‘z faoliyati samaradorligiga ishonchi bo‘lib, Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasining asosiy tushunchasi hisoblanadi. [7] Umumiy samaradorlik inson faoliyati qismlari va bosqichlarining samaradorliklari umumlashmasini anglatadi. Ushbu nazariyalar shaxsiy motivatsiya, o‘zini o‘zi anglash va qadriyatlar individual kasbiy rivojlanishga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi. Jan Piage [8;32-b] va Lev Vygotskiy [9;1-23-b] nazariyasi kabi kognitiv rivojlanish nazariyalari kasbiy mahoratni o‘rganish va rivojlantirish jarayoni haqida tushuncha beradi.

2. Pedagogik jihatlar. Tajribaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim va konstruktiv ta’lim kabi pedagogik yondashuvlar talabalarning faolligini ta’minlaydi va o‘rganganlarini real vaziyatlarda amalda qo‘llashni ta’kidlaydi. Bu kabi pedagogik yondashuvlar individual kasbiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirilgan ta’lim dasturlari kasbiy rivojlanish uchun motivatsiyani va ta’lim muvaffaqiyatini oshirishi mumkin. Amaliyot, murabbiylik va boshqa amaliy ta’lim imkoniyatlarini ta’lim dasturlariga integratsiyalash talabalarga tegishli kasbiy ko‘nikmalarni egallash va kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlanish imkonini beradi.

3. Tarixiy jihatlar. Oldingi kasbiy-pedagogik ta’lim modellari asosan metodik hamda didaktik bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlar muvaffaqiyatli professional rivojlanish uchun zarur bo‘lgan, moslashuvchan ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalar muhimligini ta’kidlaydi. Tarixan individual kasbiy rivojlanish jamiyat yuqori qatlami uchun imtiyoz (priviligeya) sifatida qaralgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda individual kasbiy rivojlanish jamiyatdagi teng huquqlilik, gender tenglik kabi siyosiy islohotlar natijasida barcha uchun bir xil imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

4. Ijtimoiy jihatlar. Mehnat bozori va kasbiy ko‘nikmalarga bo‘lgan talablar texnologik taraqqiyot, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tufayli doimiy ravishda o‘zgarib turadi va bu dinamik xususiyatga ega. Shuning uchun individual kasbiy rivojlanish o‘zgaruvchan sharoitlarga javob berishi lozim bo‘lgan, umrbod davom etadigan jarayondir. Ijtimoiy talablar va me’yorlar kasbiy faoliyat mazmuni hamda

unga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirib boradi. Shuningdek, jamiyatda shakllangan ijtimoiy-madaniy talablar va me’yorlar kasbiy rivojlanishga bo‘lgan turli yondashuvlarni shakllantirishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda butun hayot davomidagi ta’lim va kasbiy rivojlanishning ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki mehnat bozori mutaxassislarga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bu esa oliy ta’limning imkoniyat darajasini baholab, mustaqil ta’limning ahamiyatini oshganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, individual kasbiy rivojlanish va uning jihatlari bir-biriga ta’sir qiluvchi va shakllantiradigan turli xil ilmiy, ta’lim, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu jihatlarni har tomonlama tushunish samarali ta’lim va rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, shaxsiy va kasbiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, Albert, and Richard H. Walters. Social learning theory. Vol. 1. Prentice Hall: Englewood cliffs, 1977.
2. Deci, Edward L., and Richard M. Ryan. “Self-determination theory: A macrotheory of human motivation, development, and health”. Canadian psychology/Psychologie canadienne 49.3 (2008): 182.
3. Deci, Edward L., Richard M. Ryan. “The self-determination theory of motivation and its significance for pedagogy”. Journal of Pedagogy 39.2 (1993): 223-238.
4. Liaudanske, Vilma. “Self-reflection as a tool of professional identity formation of future pedagogues”. Humanities Studies 9 (86) (2021): 91-100.
5. Leijen, Äli, Katrin Kullasepp, and Tiina Anspal. “Pedagogies of developing teacher identity”. International teacher education: Promising pedagogies (part A). Emerald Group Publishing Limited, 2014. – 311-328.
6. Frédéric G. “Applying self-determination theory to education: Regulations types, psychological needs, and autonomy supporting behaviors”. Canadian Journal of School Psychology 37.1 (2022): 75-92.
7. Huitt, William, and John Hummel. “Piaget's theory of cognitive development”. Educational psychology interactive 3.2 (2003).
8. Nicolopoulou, Ageliki. “Play, cognitive development, and the social world: Piaget, Vygotsky, and beyond”. Human development 36.1 (1993): 1-23-betlar.

Mohigul HOSHIMOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

XIX-XX ASRLARDA DOSTON JANRINING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Annotatsiya: ushbu maqolada XIX-XX asrlar o‘zbek adabiyotida doston janrining an’ana va o‘ziga xoslik masalalarini qamrab olgan. Hamda ushbu janrning mazkur davrgacha bosib o‘tgan yo‘li, taraqqiyot bosqichlari, yaratilgan dostonlarda ta’limiy qarashlar, o‘zidan oldingi davrda yaratilgan dostonlar bilan umumiy va xususiy belgilarini bir- biriga solishtirish va tahlil qilishni o‘z ichiga qamrab olgan.

Kalit so‘zlar: *an’ana va novatorlik, adabiy muhit, badiiy iste’dod, satira, qo‘lyozma, manbalar, ta’limiy qarash*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы традиции и своеобразия эпического жанра в узбекской литературе XIX-XX веков. Также освещен путь этого жанра до этого периода, этапы развития, просветительские взгляды в созданных былинах, сравнение и анализ общих и специфических черт былин, созданных в предыдущую эпо

Ключевые слова: *традиция и новаторство, литературная среда, художественный талант, сатира, рукопись, источники, образовательный взгляд.*

Annotation: this article covers the issues of tradition and uniqueness of epic genre in Uzbek literature of XIX-XX centuries. It includes the path of this genre up to this period, stages of development, educational views in the created epics, comparison and analysis of the general and specific features of the epics created in the previous period.

Keywords: *tradition and innovation, literary environment, artistic talent, satire, manuscript, sources. educational view.*

O‘zbek adabiyoti tarixining barcha bosqichlariga ahamiyat berib qarasak, ular orasida XIX-XX asrlar adabiyoti alohida ahamiyatga ega. O‘zbek adabiyoti tarixining bu davri shu jihatdan ahamiyatliki, mazkur adabiyot xalqimiz tarixining burilish nuqtasi hisoblangan bir zamonda tug‘ildi. [1, 18].

O‘zbek adabiyoti tarixida mavjud bo‘lgan boshqa qator janrlar kabi epik poeziyada, xususan, doston janri ham birdaniga taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan emas, albatta. U o‘zining taraqqiyot bosqichini o‘tar ekan ham shakl,

ham mazmunan rivojlanib borgan.

Shu nuqtayi nazardan o‘zbek dostonnavislik taraqqiyotini quyidagicha davrlashtirish mumkin [3, 64]:

1. Qadimiy davrlardan XI asrgacha
2. XI asrdan XIV asrgacha
3. XIV-XV asrlar
4. XVI-XIX asrlar

Bu taraqqiyot bosqichlarining har biri o‘ziga xos xususiyat va fazilatlarga egaki, ular to‘g‘risida har bir manbada qimmatli ma’lumotlar uchraydi.

Biz e’tiborimizni taraqqiyot bosqichining to‘rtinchisiga qaratdik. Bu davrda doston janri tarixiy an’analarning ildizi uzilmagan holda rivojlanib, takomillashib borgan. XIX-XX asrda yaratilgan dostonlarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, mazmundorligi, qiziqarliligi, tilining sodda va ravonligi, ohangdorligi bilan ajralib tursa-da ularda ham g‘ayritabiiy kuchlar, parilar, jinlar, devlar tasviri mavjud. Xalq maqollari, masal, hikmatli so‘zlarining o‘rnida san’atkorona ishlatilgan[2, 31].

XIX-XX asrlar o‘zbek adabiyotida tanqidiy xarakterda asar yozmagan bironta ijodkor qolmaganidek, adabiyotnig satira va yumor kirib bormagan biron janri ham qolmadi[3, 47]. Dostonnavislar ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarga asoslanib, kulgi orqali muammolarni o’z asarlarida aks ettirganlar.

Quyida ularning ba’zilari bilan tanishamiz. Xiromiy 1834-yilda “Chor darvesh” dostonini yaratdi. U bundan tashqari “Ra’no va Zebo”, “Mahfil oro” kabi asarlarni faqat ona tilida yaratib, o‘zbek adabiyotini boyitish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo‘ydi.

Xush ulkim, aning jismi bo‘lg‘och nihon,
Ki andin qolur dahr aro bir nishon. [4, 167].

Xiromiyning ushbu asarlarida xalqning og‘ir turmushi, baxtli hayot, odil va zolim podsho, tibbiyot sohasining ahvoli, insoniy muhabbat kabi masalalarga bag‘ishlangan.

XIX asr birinchi yarmi dostonchiligi yetuk namunalaridan biri Uvaysiyning “Shahzoda Hasan haqida” dostonidir. Asarda shoira adolatli va sulhparvar hokim Hasan obrazini yaratgan. Dostonning asosiy mohiyati yaxshilik va adolatni targ‘ib etishdir. Asar mazmunan diniy mavzuga bag‘ishlangan. Shahzoda Hasanning hayot yo‘li tasvirlangan. Ammo, shoiraning asardan maqsadi faqat bu emas. Unda ham she’riyatidagi kabi zamondoshlarining ko‘zini ochish, moziydan olingan saboq bilan ularga ko‘zgu tutish shoiraning asosiy niyati edi.

Mazkur doston shpiraning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan 1837-raqamli devoni yagona nusxasining oxirida kitobat qilingan.

Kattaqo‘rg‘on diyorida o‘sib ulg‘aygan Ochildimurod Miriy ham shu davr ijodkori hisoblanadi. Miriy “Rustam va Suhrob” dostonini yozgan vaqtda 59 yoshda bo‘lgan[5,67]. Uning “Ra’no va Zebo” dostoni forsiyda yozilgan. “Majdiddin va Faxruniso” dostonlarida adolatli tuzum, farovon turmush va komil inson g‘oyalari ilgari surilgan. Miriy eski turk klassik adabiyotini yaqindan bilgan va uning uchqunlarini o‘z asarlarida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Ushbu davr dostonnavislardan yana biri Havoiydir. Uning “Jangnoma” dostini 1888-yilda yaratilgan. Doston XIX asrning 60-70-yillarida Qashqadaryoda ro‘y bergan Yoqubbek voqealari tasviriga bag‘ishlangan. Doston voqeasi Yoqubbekning vafoti bilan tugaydi. Havoiy dostonlari Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish, XIX asr o‘rtalarida avj olib ketgan xonlar, beklar qirg‘ini davrida fojiona umr kechirishga majbur bo‘lgan xalq hayotini o‘rganish uchun adabiy hujjat sifatida juda muhimdir.

Bizgacha Furqatning uch dostoni - “Suvorov haqida”, “Yunon mulkida bir afsona” va “Bir mojaro” dostonlari yetib kelgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu uch dostonning xarakteri uch xil. “Suvorov haqida” dostoni tarixiy- biografik xarakterga ega bo‘lib, ulug‘ rus sarkardasi, rus qurolli kuchlarining iftixori Vasilyevich Suvorov obrazini yaratishga harakat qiladi. Masnaviy xarakteridagi bu she’riy asar 1890-yilda Toshkentda yozilgan[1,151]. Dostonning yozilishiga bevosita sabab bo‘lgan hodisa 1890-yilda Toshkentdagi rus teatrida qo‘yilgan tomosha bo‘ldi. Furqat poemasida yaratilgan Suvorov obrazida tarixiy shaxs Suvorovdagi asosiy xususiyatlar to‘liq aks ettiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har bir davr kabi XIX-XX asrlar adabiyoti namunalari o‘zining o‘chmas izini qoldirgan. O‘tmish yozma va og‘zaki adabiyotning eng yaxshi an’analarini qo‘llab-quvvatlovchi, ularni yangi sharoitda davom ettiruvchi, ya’ni o‘z sharoitidagi hodisa-voqealarga bo‘lgan munosabatini bevosita ifoda etuvchi adabiyot vakillari yetishib chiqdi. Bu davr ijodkorlari an’anaviy mavzularni yangicha talqin etib, o‘zlarining ijodiy mahoratini shakllantirib borgan. XIX-XX asrlarda yaratilgan dostonlar nafaqat o‘z davrining, balki barcha zamonlarda ham muhim sanalgan masalalarni ilgari surganligi bilan g‘oyaviy-tarixiy ahamiyatga ega [10,203].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘.Karimov “O‘zbek adabiyoti tarixi” –Toshkent “O‘qituvchi”1987, 320-b.
2. A.Jalolov. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi O‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1991. 151-b.
3.B.Valixo‘jayev.“O‘zbek epik poeziyasi tarixidan”, – Toshkent: “Fan”1974.170-bet.
4. Xiromiy.Chor darvesh. – Toshkent:1960. 840-bet.

5.B.Valixo‘jayev. Miriy va uning zamondoshlari.–Toshkent:Fan,1977.260- bet.
6. V.Abdullayev, R.Orzibekov. Navoiy va XIX asr Kattaqo‘rg‘on shoirlari.-Samarqand 1985. 100-bet.
7.Abdullayev V.O‘zbek adabiyoti tarixi.2-kitob.–Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
8.E.Ibrohimova.Uvaysiy dostonlari haqida.” O‘zbek tili va adabiyoti “ jurnali 1960, 6-son, 38-44-betlar.
9. Valixo‘jayev B. XIX-XX asrning 2-yarmidagi o‘zbek poemachiligida Alisher Navoiyning traditsiyalari.Adabiyot va hayot. – Samarqand,1969.13-20-b.
10.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston,2002.557-b.
11.Muhiddinov M.Q. Komil inson-adabiyot ideali. – Toshkent:Ma’naviyat,2005, 208-b.
12.Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (milliy uyg‘onish davri). Samarqand: SamDU nashri, 2003. 238-b.
13.O.Sharofiddinov. O‘zbek adabiyoti tarixi O‘zbek adabiyoti tarixi xristomatiyasi(XV-XIX asrlar).–Toshkent: O‘zdavnashr,1945,217-b.
14.Furqat.Tanlangan asarlar. Ikki tomlik (nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul).–Toshkent: Badiiy adabiyot,1960. 232-b.

Nigora XAMIDOVA
O‘ZDJTU 1-bosqich tayanch doktoranti
e-mail: nnigora1996@gmail.com
SEVARA PIRNAZAROVA
O‘ZDJTU 2-bosqich talabasi
e-mail: mojmarket350@gmail.com

PHONETIC FEATURES OF VERBAL IRONY IN ENGLISH

Annotatsiya: verbal kinoya- bu lingvistik hodisa bo'lib, unda ma'ruzachilar o'z so'zlarining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan munosabatlar yoki ma'nolarni etkazadilar. Ushbu maqola og'zaki ingliz tilidagi og'zaki istehzoning fonetik ko'rinishini o'rganadi, fonetika va nutq tahlilidagi so'nggi tadqiqotlar natijalarini sintez qiladi. Ma'ruzachilar istehzoli niyatlarni samarali ifoda etish uchun intonatsiya, zarba naqshlari, temp va ovoz sifatini qanday boshqarishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *verbal kinoya, fonetik belgilar, intonatsiya, urg‘u, ovoz sifati.*

Аннотация: вербальная ирония — это лингвистическое явление, при котором говорящие передают отношения или значения, противоположные прямому смыслу их слов. Эта статья исследует фонетические проявления вербальной иронии в разговорном английском, синтезируя результаты последних исследований в фонетике и анализе дискурса. Рассматривается, как говорящие манипулируют интонацией, ударными узорами, темпом и качеством голоса для эффективного выражения иронических намерений.

Ключевые слова: *вербальная ирония, фонетические особенности, интонация, ударные узоры, качество голоса*

Annotation: verbal irony, a linguistic phenomenon where speakers convey attitudes or meanings opposite to their literal words, is nuanced and complex. This paper explores the phonetic manifestations of verbal irony in spoken English, synthesizing findings from recent studies in phonetics and discourse analysis. It examines how speakers manipulate intonation, stress patterns, timing, and vocal quality to signal ironic intent effectively.

Keywords: *verbal irony, phonetic features, intonation, stress patterns, vocal quality.*

Introduction.

Verbal irony is a widely recognized form of communication characterized by the deliberate expression of attitudes or meanings contrary to what is literally stated [6, 390]. While semantic and pragmatic aspects of irony have been extensively studied, its phonetic dimensions have received comparatively less attention until recent years [5, 48]. This paper aims to fill this gap by providing a comprehensive analysis of the phonetic features that underpin verbal irony in English speech.

Intonation and Pitch Patterns

Verbal irony often involves distinctive shifts in intonation and pitch patterns that diverge from typical declarative or interrogative speech [3, 312]. For instance, ironic statements may exhibit flattened intonation contours or unexpected rises and falls in pitch, particularly towards the end of utterances. These variations serve to highlight the incongruity between the literal meaning of the words and the speaker's intended ironic stance.

Research by Nolan [3, 312] suggests that these intonational deviations are crucial in signaling the presence of irony, as they create a perceptible contrast with non-ironic speech patterns.

Stress and Emphasis

The strategic use of stress and emphasis is pivotal in distinguishing ironic utterances from literal statements [1, 220]. Speakers may strategically emphasize certain words or syllables to underscore the disparity between

the surface meaning and the intended ironic message. Changes in stress patterns contribute to the rhythmic and prosodic cues that listeners use to detect irony in speech.

Blasko et al. [1, 220] highlight the role of stress manipulation in conveying irony effectively, as it enhances the listener's perception of the speaker's ironic intent.

Pace and Timing

Temporal aspects such as speech rate and pausing play a crucial role in conveying verbal irony [4, 187]. Speakers often adjust their pacing by slowing down or inserting deliberate pauses, allowing listeners time to process the underlying ironic intent embedded within the speech. These timing variations create a noticeable contrast with normal speech patterns, aiding in the recognition of irony.

Vocal Quality and Articulation

The quality of the voice, including parameters such as breathiness, pitch modulation, and articulatory precision, also contributes significantly to the phonetic encoding of verbal irony [2, 418]. Shifts towards breathier or creaky voice qualities, for example, can enhance the expressive and ironic impact of sarcastic remarks, influencing how these remarks are perceived by listeners.

Haydarov & Navruzova [2, 418] emphasize the role of vocal quality in conveying nuanced emotional and attitudinal meanings, including those associated with verbal irony.

Prosodic Cues in Irony

Research has highlighted that certain turn-final cues extend beyond individual words to encompass entire intonational phrases, offering reliable prosodic markers for irony. One such cue is the fall-rise pitch pattern, characterized by a descending contour followed by a rising intonation, where the peak of the second pitch accent exceeds that of the first. This intonation pattern is pivotal as it implies dual interpretations, a characteristic observed across various European languages [9, 395].

In French, for example, studies emphasize a significant correlation between intonation, verbs, and irony markers. Here, both a final fall and a fall-rise pitch pattern serve to signal irony effectively. Similarly, American English employs a low-rising contour to denote ironic intent, while a high-rising head on stressed syllables can convey uncertainty or apology

Lengthened Vowels and Articulation

An easily discernible phonetic cue in verbal irony is the lengthening of vowels. This phonetic modification imbues vowels with specific emotional expressions, enhancing their perceptual distinctiveness. Such lengthening often occurs to underscore the ironic nature of utterances, influencing how listeners interpret the speaker's intended meaning. Studies note that these phonetic alterations contribute significantly to the acoustic characteristics of ironic speech, helping distinguish it from other forms of discourse [9, 397].

Phonetic Overlaps with Other Speech Acts

Verbal irony operates within a broader spectrum of linguistic functions, intersecting with affirmative, imperative, and susceptive speech acts. These acts share semantic and tonico-logical similarities with irony, leading to overlapping phonetic realizations. For instance, in the context of humor and joking, irony can serve to build rapport or minimize potential harm from comments [8, 230]. Despite these overlaps, irony remains distinct due to its deliberate incongruity between surface meaning and underlying intent, a feature phonetically manifested through nuanced vocal qualities and intonational cues [8, 270].

Cross-Cultural Perspectives on Verbal Irony

The expression of verbal irony varies significantly across languages, influenced by distinct phonetic features and cultural norms. For instance, while English speakers rely heavily on pitch and vocal quality to convey irony, German speakers utilize alternative suprasegmental features such as over-articulation and lengthening of syllables to achieve similar effects [7, 304]. These cross-linguistic differences underscore the complexity of irony as a communicative phenomenon, necessitating a nuanced understanding of how phonetic cues are employed within different linguistic frameworks.

Differences in Phonetic Expression

Quantitative studies comparing ironic and non-ironic utterances in English have highlighted distinct phonetic patterns. For instance, ironic nouns often exhibit heightened phonetic force through pronounced stress patterns and distinctive intonation contours, distinguishing them acoustically from non-ironic counterparts [7, 309].

Applications and Implications of Phonetic Irony

The practical implications of phonetic irony extend to various domains, including language teaching and media analysis. Understanding the phonetic markers of irony aids in enhancing communicative clarity and effectiveness, particularly for second language learners grappling with the nuances of ironic speech [10, 417]. Moreover, phonetic analyses of irony in literature and media underscore its role in shaping narrative tone and character development, illustrating its pervasive influence across cultural contexts.

Conclusion

In conclusion, phonetic analysis reveals the intricate ways in which verbal irony is encoded and perceived across languages and cultures. By examining prosodic cues, vowel lengthening, and cross-linguistic variations, this study contributes to a deeper understanding of how phonetic features shape the communicative functions of irony. Future research

should continue to explore these dynamics, employing quantitative methods to validate and expand upon the insights gleaned from phonetic studies of verbal irony.

References:

1. Blasko, D. G., et al. (2021). Phonetic Manifestations of Verbal Irony. Journal of Linguistic Studies, 45(2), 210-225.
2. Haydarov, A., & Navruzova, Z. (2021). Vocal Quality as a Marker of Verbal Irony. Phonetics and Phonology, 30(4), 415-428.
3. Nolan, E. (2020). Pitch and Intonation Patterns in Verbal Irony. Journal of Phonetics, 15(3), 301-317.
4. Scianna, M. (2023). Pace and Timing in Verbal Irony. Journal of Pragmatics, 18(2), 180-195.
5. Skrelin, V., et al. (2020). Exploring Phonetics of Verbal Irony. Journal of Language and Communication, 12(1), 45-60.
6. Sperber, D., & Wilson, D. (2023). Verbal Irony: Expressing Attitudes Contrary to What is Literally Meant. Journal of Pragmatics, 25(4), 385-400.
7. Avramenko, A., et al. (2022). Phonetic Manifestations of Verbal Irony: A Comparative Study. Journal of Language and Communication, 18(3), 301-320.
8. Gibbs Jr, R. W., & Colston, H. L. (2023). Irony in Language and Thought: A Cognitive Science Perspective. New York: Guilford Press. 23(5), 210-390.
9. Martens, P. (2022). Intonational Patterns and Phonetic Cues in Verbal Irony: A Comparative Analysis. Journal of Pragmatics, 25(4), 385-400.
10. Yang, L. (2021). Phonetic Perspectives on Verbal Irony in English Literature. Phonetics and Phonology, 30(4), 415-428.

Maftuna TOSHTEMIROVA,
Andijon davlat universiteti
2-bosqich doktoranti

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK TEXNIKALARI

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik texnikalari haqida batafsil fikr yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tadqiqot, faoliyat, kooperatsiya, raqobat, guruh, fikrlash, bilim, ko'nikma, malaka, o'z-o'ziga ishonch, shakllantirish, qo'llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash, strategiya.*

Annotation: this article describes in detail the effective pedagogical techniques for the formation of critical and creative thinking in primary school students.

Key words: *research, activity, cooperation, competition, group, thinking, knowledge, skill, competence, self-confidence, formation, support, independent thinking, strategy.*

Аннотация: в данной статье подробно описаны эффективные педагогические приемы формирования критического и творческого мышления у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: *исследование, деятельность, сотрудничество, конкуренция, группа, мышление, знание, умение, компетентность, уверенность в себе, формирование, поддержка, самостоятельное мышление, стратегия.*

Blum kubigi texnikasi. O'quvchingizda tanqidiy fikrlash qobiliyatini qanday rivojlantirish mumkin? Qanday texnika va texnologiyalardan foydalanish kerak? Biz amerikalik olim va psixolog Benjamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash texnologiyasining mashhur usullaridan birini taklif etamiz. Bu usul Blum kubigi deb ataladi. Benjamin Blum pedagogik faoliyat uchun yagona algoritmlar tizimining muallifi sifatida tanilgan. U taklif qilgan nazariya yoki "taksonomiya" ta'lim maqsadlarini uchta blokka ajratadi: kognitiv, psixomotor va affektiv. Oddiy qilib aytganda, bu maqsadlar "Men bilaman", "Men yarataman" va "Men qila olaman" bloklari bilan belgilanishi mumkin. Ya'ni bolaga tayyor bilim taklif etilmaydi, balki muammo taqdim etiladi. Va u o'z tajribasi va bilimidan foydalanib, bu muammoni hal qilish yo'llarini izlab topishi kerak.

Namuna.

Mavzu: "HAYVONLARNING XILMA-XILLIGI"

(Tabiiy fanlar, 2-sinf.)

Nomini aytish.

• O'zingiz bilgan ham umurtqali, ham

umurtqasiz hayvonlarning nomini sanang.

• Siz ham umurtqali, ham umurtqasiz qaysi hayvonlarni ko‘rganligingizni ayting.

• Mintaqamizda ham umurtqali, ham umurtqasiz qanday hayvonlar borligini ayting.

Nima uchun?

• Nima uchun biz ularni “ham umurtqali, ham umurtqasiz hayvonlar” deb ataymiz?

• Nima uchun o‘rgimchakning tanasi qattiq qobiq bilan qoplangan?

• Nima uchun umurtqali va umurtqasiz hayvonlar bir-biridan farqlanadi?

O‘ylab ko‘rish.

• Chittak va asalarining o‘xshash jihatlarini o‘ylab ko‘ring.

• Asalari qaysi jihatlari bilan chittakdan farq qilishini o‘ylab ko‘ring.

• Tabiatda asalarining qanday ahamiyati borligini o‘ylab ko‘ring.

• Chittak daraxtlarga qanday foyda keltirishini o‘ylab ko‘ring.

Taklif qilish.

• Meduza haqida bilish sizga qanday foyda keltirishini taklif qiling.

• Insonning o‘zgaruvchan muhitda meduza hayotiga qanday yordam berishi mumkinligini taklif qiling.

Tushuntirish.

• Meduza terisi bilan qanday nafas oladi yoki bu haqiqat emasmi?

• Sizningcha, meduzalar ekologik tizimning muhim qismi hisoblanadimi?

Baham ko‘rish.

• Qurbaqalar sizda qanaqa fikr uyg‘otishini boshqalar bilan ulashing.

• Qurbaqalarga qanday munosabatdasiz?

• Darsning eng qiziqarli va eng zerikarli (yoqimsiz) qismi qaysi bo‘lganini so‘zlab bering.

“To‘g’ri-noto‘g’ri” texnikasi. Har bir ishtirokchi bir varaq qog’ozda o‘rganilayotgan yoki o‘rganilgan mavzu bo‘yicha uchta to‘g’ri fikr va bitta noto‘g’ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to‘planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto‘g’ri bo’lgan ekanligini aniqlaydilar.

“Qalin” va “yupqa” savollar metodi. Ta’lim jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar “ha” yoki “yo‘q” yoxud boshqa birorta so‘zlar bilan javob berish mumkin bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga bir nechta so‘zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to‘liq yoki yoyiq obrazli qilib esa qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko‘ra, ushbu “qalin” va “ingichka” savollar metodining nomini boshqachasiga “to‘liq” va “qisqa” yoki “Yoyiq” va “ixcham” savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o‘quvchilarning o‘zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda fa-olliklarini oshirish maqsadlarida mashg‘ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi darsning mavzusiga tegishli “qalin” va “ingichka” savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.

“Plyus va minus tomonlari” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: o‘quvchilarni bir-birlariga bo‘lgan ijtimoiy harakatlarini aniqlash, shuningdek, ijobiy va salbiy fikrlashga o‘rgatish.

O‘yinning borishi: o‘quvchilarning har biri uchta alohida qog‘ozchalarga o‘zining uchta ijobiy va uchta salbiy jihatlarini yozib qo‘yadi. Keyin barcha qog‘ozchalar aralashtirilib, sinf o‘rtasida joylashtiriladi. Bolalar aylana bo‘lib o‘tirishib, navbatma-navbat bittadan qog‘ozchani olib, ovoz chiqarmay o‘qib, ularning fikriga ko‘ra, bu kim to‘g‘risida yozilgan bo‘lsa, o‘sha odamning oldiga (matnni teskari qilgan holda) qo‘yadilar. Keyin hamma o‘z oldiga qo‘yilgan qog‘ozlarni o‘qishadi. Xohishga ko‘ra sharhlar beriladi.

Blum kubigi asosida tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga doir ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi (K.Nuraliyeva bo‘yicha)

Blum kubigi texnikasi vositasida o‘quvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1) texnikani darsning mustahkamlash, ya’ni refleksiya bosqchida qo‘llash maqsadga muvofiq. Chunki u o‘rganilgan o‘quv materiallarining shaxsiy, amaliy va ijtimoiy ahamiyatini anglashga yordam beradi;

2) savollarni amaliy hayot bilan bog‘lab tuzish lozim. Blum kubigi texnikasi mavzuni haqiqiy hayotda qo‘llanilishini tahlil qilishga yordam beradi;

3) texnika bilan ishlash oldidan o‘quvchilarga kreativ mashqlarni bajarishni taklif qilish maqbul sanaladi. Bu texnika bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarda kreativ salohiyat yorqin namoyon bo‘lishini rag‘batlaydi;

4) savollar va javoblarni audio va yoki multimedia ko‘rinishida taqdim etish o‘rinli bo‘ladi. Chunki o‘quvchilarning savollar va javoblarni bir eshitishda ilg‘ab olishlari qiyin kechadi.

Blum kubigi texnikasi bilan ishlashda o‘quvchilarga bir nechta muqobil variantlarni taqdim etish mumkin:

1) o‘quvchilarning guruh-guruh bo‘lib, savollarga javob berishlarini amalga oshirish;

2) o‘quvchilardan mustaqil ravishda savollar tuzishni so‘rash;

3) ishni stol o‘yini formatida tashkil etish. Buning uchun kichik guruhlarga savollar yozilgan kartochkalarni yurgizish uchun standart o‘yin maydonchasini hosil qilish lozim;

4) integrallashgan darslarda ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, Blum kubigi texnikasi bilan birga intellekt-kart, keys-stadi, to‘rt burchak, SMARTER, beshta “nima uchun?”, evristik tadqiqot, “qalin” va “yupqa” savollar kabilardan ham foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantirishda o‘quv harakatlarining idealligi tamoyiliga amal qilish lozim. Chunki o‘quv harakatining idealligi qanchalik yuqori bo‘lsa, kreativ salohiyatni shakllantirish imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, kreativ salohiyatni shakllantirishga doir pedagogik texnikalarni amaliyotda qo‘llash o‘qituvchining metodik kompetentlik darajasiga ham bevosita bog‘liqdir. Bir so‘z bilan aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ salohiyatni shakllantirish orqali sifatli ta’lim olish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gardner S. «Inquiry is no Mere Conversation (or Discussion or Dialogue): Facilitation is Hard Work», Critical and Creative Thinking: The Australasian Journal of Philosophy for Children 3, 2 (1995): 38-49-betlar.
2. Gordon W. Synectics. The development of creative - N.Y: Harper and Rive Pablishers, 1961.
3. Guilford J.P.Creativity //Am.Psychologist. 2000. – V.5. – P.444-454.
Guilford J.P. (1996). Creative Talents: Their nature, uses and development. Buffalo, NY: Bearly Ltd.
4. Ходжаев Б.Х. Ўқувчиларнинг мустақил фикрлашини шакллантириш: услубий қўлланма. – Т.:ТДПУ, 2008. – 72 бет.
5. Xodjayev B.X., Sattorov Sh., Artikova M.B. Tarbiya fanini o‘qitish texnologiyasi. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 168 bet.

Zulfiya ASAMATDINOVA,
Berdaq nomidagi QQDU,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

TARJIMADA INSON QIYOFASI VA XARAKTERINI IFODALASH
(Zulfiya ijodining qoraqalpoqcha tarjimasi misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada tarjimonlik faoliyatida inson qiyofasi va xarakterini ochishga doir masalalar borasida so‘z yuritiladi. Xususan, tarjima jarayoni shoira Zulfiya she’rlari misolida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *xarakter, fe’l-atvor, qiyofa, she’riyat, tarjima.*

Annotation: this article deals with the issues of revealing the image and character of a person in the work of a translator. In particular, the translation process is considered as an example of poetess Zulfia's poems.

Keywords: *character, appearance, poetry, translation.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы раскрытия образа и характера человека в работе переводчика. В частности, процесс перевода рассматривается на примере стихотворений поэтессы Зульфии.

Ключевые слова: *персонаж, характер, внешность, поэзия, перевод.*

Har bir adib va shoirning o‘ziga xos professional uslubi mavjud. Kimdir birgina detal, kimdir qahramonining zabonidan chiqayotgan so‘z orqali personajning fe’l-atvori, tarbiyasi, millatiga xos xususiyatlarni ochib beradi.

Badiiy asar tarjimonining asosiy quroli bu so‘z, albatta. Unda ikki tildagi badiiy tasvir vositalari tarjimasi berilib, tarjimonga nafaqat asar syujetini ochish, balki undagi badiiylikni kitobxonga yetkazishda ko‘mak beradi, chunki har bir badiiy asarda voqealar ketma-ketligidan tashqari, yozuvchi uslubiga xos bo‘lgan badiiy ifodalar, tasvir vositalari bo‘ladiki, tarjima tilini puxta o‘zlashtirgan tarjimon ham ularni boshqa tilda qayta yaratishga qiynaladi.

Badiiy asar tarjimasida kitobxonga ma’lum bo‘lmagan o‘ta nozik va sermashaqqat jihatlar ko‘p. So‘z va so‘z birikmalarining asliy va ma’noviy tarjimasidagi mavjud farqlar va ularning asarda ijodkor tomonidan ustalik bilan ishlatilishi asar tilida so‘zlashadigan xalq, uning madaniyati, turmush tarzi, kundalik hayoti bilan yaqindan tanish bo‘lmagan tarjimon uchun turli murakkabliklarni keltirib chiqarishi, buning oqibatida, asarning mazmuni o‘quvchiga qisman bo‘lsada buzilgan holda yetib borishi mumkin.

Darvoqe, Zulfiya she’riyati teran fikr bilan jo‘shqin hissiyot uyg‘unligidan hosil bo‘lgan, demak, intellektual va psixologik she’riyat. U tahliliy, falsafiy, o‘ychan, ayni chog‘da aniq manzarali. Shoira hissiyot oqimini, kechinma manzarasini, o‘tkir dramatik holatni ham, dramatizmning cho‘qqisidir. Unda vaqt va makon qamrovi keng, yaxlit. Ijodida xotira, taqdirdosh, yuragiga yaqin kishilar, kelajak ohanglarining barqarorligi shundan. Zulfiyaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g‘ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg‘ular va hurmat,

boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Darvoqe, Ibroyim Yusupov Zulfiya she’riyatini tarjima qilarkan, diqqat e’tiborini shoirning inson qiyofasi va xarakterini ochib beruvchi jumlalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning she’rlarini o‘qirkansiz, ularning asl nusxalari ko‘z oldingizda gavdalanadi. Tarjimon she’rlarining mazmunini, shakliy o‘ziga xosligini to‘la bera olganini his qilib, zavqlanasiz. Zulfiya she’riyatiga xos soddalik, falsafiy teranlik, misralarning bag‘riga yashiringan chuqur ma’no, obrazli mushohada kabi badiiy xususiyatlar aslidagidek o‘girilgan. Mazkur misralarni qiyoslab ko‘raylik:

Seni izlar ekan, bo‘lib shabboda,
Sen yurgan bog‘larni qidirib chiqdi.
Yozib ko‘rsatay deb husn-ko‘rkini,
Yashil yaproqlarni qidirib chiqdi

O‘pmay, sabri tugab bo‘ron bo‘ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog‘laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog‘ning toshini.

Darhaqiqat, kitobxon she’rni o‘qish jarayonida butunlay asarning muhitini his qila olishi kerak. U asarni o‘qish jarayonida qahramonlarning ichki kechinmalarini hayolan o‘zi boshidan o‘tkazishi kerak.

Tarjimaning yana bir o‘ziga xos xususiyatlariga kelsak, avvalambor so‘z tanlashda juda ham kata e’tibor berish kerak. Ba’zida she’riyatda bir xil takrorlangan so‘zlardan foydalanishdan voz kechib, ularning o‘rniga sinonim so‘zlardan foydalanish kerak. Masalan:

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?”
Qanday javob aytay, loldir tillarim,

Asarni faqatgina quruq so‘zlar bilan emas balki rang barang sinonim so‘zlar bilan jonlantirish bu ulkan qobiliyatdir. Asar tarjima qilinayotganida, undagi asosiy qahramonlar jonlanib, yozuvchi yozgan so‘zlar yordamida gapira boshlashi kerak. Badiiy asar tarjimasi tarjimondan badiiy ijodkorlikni talab qiladi.

Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.
Alamda tutoqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.
Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.
Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Umuman olganda, she’rni boshqa tilga o‘girganda uni o‘zga millat kitobxoniga boricha, xuddi muallif tasvirlaganidek yetkazish tarjimondan katta mas’uliyat va mashaqqat talab qiladi. Ayniqsa, boshqa tilda aynan muqobili bo‘lmagan so‘zlarni tavsiflashda tarjimon o‘ta ehtiyotkor bo‘lishi lozim. Ularning o‘rniga holatni to‘liq ochib bermaydigan so‘zlarni shoir tasvirlagan hissiy jozibadorlikning yo‘qolishi, hatto, butun bir she’rning g‘oyasiga putur yetkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PQ-4358-sonli qarori.
2. G‘aybulla as-Salom. Umumiy tarjima nazariyasi asoslari kursi programmasi. Toshkent, 1973.
3. G‘aybulla as-Salom. Til va hayot. G‘aybulla as-Salom. Bebaho narsaning bahosi.
4. K.Quramboyev “Tarjima va tarjimon mas’uliyati” Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi. – Toshkent-2007
5. Zulfiya. Saylanma. – T., “Sharq” nashriyoti, 2015

Qaxramon MASHRAPOV,
NamMQI doktoranti
mashrapovqaxramonbek1987@gmail.com

TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI" FANINI O'QITISHNING ZARURIY AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon va dunyo mamlakatlaridagi turli xil favqulodda vaziyatlar sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelayotgan salbiy oqibatlar va ularni bartaraf etishning eng yaxshi yo'llari hamda texnik OTMlarda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitishning ijobiy tomonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *OTM, FV, xavfsizlik, metod, ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb, malaka, mutaxassis, korxona*

Аннотация: в данной статье представлены негативные последствия различных чрезвычайных ситуаций в мире и странах мира и лучшие пути их устранения, а также положительные стороны преподавания науки «Безопасность жизнедеятельности» в технических вузах.

Ключевые слова: *ВУЗ, АС, безопасность, метод, образование и обучение, наука, профессия, квалификация, специалист, предприяти.*

Annotation: this article presents the negative consequences of various emergency situations in the world and the countries of the world and the best ways to eliminate them, as well as the positive aspects of teaching the science of "Life Safety" in technical higher education institutions.

Key words: *HEI, ES, security, method, education and training, science, profession, qualification, specialist, enterprise.*

KIRISH

Jahonda yuzaga kelayotgan turli xildagi (tabiiy, texnogen, ekologik) favqulodda vaziyatlar insonlarni va boshqa tirik mavjudodlarni nobud bo'lishiga sababchi bo'lishi bilan birga katta miqdorda moddiy zarar keltirmoqda. Bunday holatlarni oldini olish maqsadida OTMlarda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitish yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari aynan turli favqulodda vaziyatlarda qutqaruv ishlarini olib boruvchi mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ham OTMlar mavjud.

Xususan yurtimizda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyul "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-sonli Qarori[2] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabr "Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 616-sonli Qarori[3] qabul qilinganidan so'ng OTMlarda har bir soha mutaxassislarini tayyorlashga katta e'tibor berila boshlandi.

Jumladan, prezidentimizning "Ilm-fansiz, ma'rifatsiz davlatning kelajagi yo'q"[4] deb aytib o'tgan fikrlaridan yurtimizda ilm-fanga, ma'rifatga berilayotgan e'tiborni anglab yetishimiz qiyin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Texnik OTMlarda "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o'qitishda talabalarga xavfsizlikka oid bo'lgan bilimlarni puxta egallashlari uchun zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq desak adashmagan bo'lamiz. Chunki bo'lg'usi har bir muhandis ish faoliyati davomida albatta hayotiga xavf soluvchi jarayonlarga duch keladi. Masalan: dastgoh bilan ishlash vaqtida texnika bilan bog'liq ko'ngilsizliklar yuzaga kelishi, bundan tashqari, turli xildagi FVlar sodir bo'lishi natijasida jarohatlanishlarga duch kelishi mumkin. Mana shunday holatlarda yuzaga kelmasligi uchun texnika xavfsizligi qoidalarini o'rganishi, jarohatlangan vaqtlarda kechiktirib bo'lmas birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini bilishi lozim. Bularni esa albatta hayot faoliyati xavfsizligi fani metodlarga tayangan holda o'rgatadi.

"Metodika" atamasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

Pedagog olim T.A.Ilinaning fikricha, didaktika turli ta'lim muassalarida xilma-xil o'quv fanlarini amalga oshiriladigan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Pedagog olim A.M.Stolyarenkoning fikricha, "O'quv fanlarini o'qitish metodikasi ma'lum bir maxsus vazifalarni hal etish bilan bog'liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir". G.M.Kodjaspirova, A.Y.Kodjaspirovlarning fikricha, "O'qitish metodikasi maxsus faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir"[6].

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishdan maqsad. Hayot faoliyati xavfsizligi fani - ilmiy metodologik fanlar guruhiga kirib, uning asosiy maqsadi, inson hayoti faoliyatida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish uslublarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilish, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan himoyalanishga tayyorlash hamda

jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalarini o‘rgatishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hayot faoliyati xavfsizligi – inson hayoti, sog‘ligi hamda uning nasliga ta’sir etuvchi real xavflar aniq ehtimollik asosida bartaraf etilgan inson faoliyati holatidir.

Hayot faoliyati – insonning o‘z manfaatlarini qondirish maqsadidagi kunlik mehnat faoliyati va dam olishi, ya’ni insoniyat yashashining muhim shartidir. “Hayot faoliyat xavfsizligi” fani inson organizmi bilan uni o‘rab turgan muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘lanish va ta’sirni o‘rganadi. Inson har qanday muhit sharoitida faoliyat yuritmasin inson va muhit o‘rtasida o‘zaro qarama-qarshi ta’sir yuzaga keladi. Shu sababli inson faoliyati ikki maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

1. O‘z faoliyati davomida ma’lum samarali maqsadga, manfaatga erishish.

2. Faoliyati davrida yuzaga keladigan ko‘ngilsiz holatlarni bartaraf etish, ya’ni faoliyatni xavfsiz va zararsiz bo‘lishini ta’minlash.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani – inson hayotiy faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va insonni texnosferadagi antropogen hamda tabiiy xavflardan himoyalashga qaratilgan tadbirlar majmui va vositalar tizimini o‘rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi – insonni texnosfera bilan qulay va o‘zaro xavfsiz ta’sirini o‘rganuvchi fandir[5]. Ushbu fanni texnik OTMlarda bo‘lajak injener, muhandislarga mutaxassislik fanlarini o‘qitish qanday dolzarb, muhim bo‘lsa shular qatorida o‘qitish muhim deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Talabalarni fanga nisbatan fikrlari ijobiy yoki salbiy ekanligini aniqlash maqsadida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Texnik OTMlarda “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanini o‘qitishning zaruriy ahamiyatini aniqlashga oid ANONIM SO‘ROVNOMA

№	So‘rovnoma savollari	So‘rovnoma ishtirokchilari javobi (har bitta savolga bitta javobni “+” ko‘rinishida belgilash talab etiladi)		
		Ha	Yo‘q	Ikkilanaman
1	Hayot faoliyati xavfsizligi fani haqida ma’lumotga egamisiz?			
2	Hayot faoliyati xavfsizligi fani sizning tanlagan mutaxassisligingiz uchun kerakli fan deb hisoblaysizmi?			
3	Hayot faoliyati xavfsizligi faniga ajratilgan o‘quv soatlari sizni qoniqtiradimi?			
4	Fan yuzasidan amaliy mashg‘ulotlarda siz faol bo‘lasizmi?			
5	Ushbu fanga nisbatan qo‘shimcha soatlar ajratilishini xoxlaysizmi?			
6	Ush fanni o‘rganish uchun ketgan vaqtingizga achinasizmi?			

XULOSA

Talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma, fikr va mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, “Hayot faoliyati xavfsizligi” fani texnik OTMlarda mutaxassislarni tayyorlash jarayonini muhim ajralmas qismidir. Jumladan, har bir muhandis mehnat jarayonida turli xildagi xavf yoki favqulodda vaziyatlarga duch keladi. Manashunday vaqtlarda qanday harakat qilish usullarini esa shu fan orqali bilib olish mumkin: Ya’ni sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar turlari hamda sodir bo‘lgan FVlarda harakat qilish tartiblari va ularning turlarini, bundan tashqari mehnat jarayonida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xil xavflarni, jarohatlanganlarga kechiktirib bo‘lmas birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqalarni bilib olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyul “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3151-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 30-sentabr “Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 616-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-dekabrda “Davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag‘ishlangan” yig‘ilishda so‘zlagan nutqi.
5. I.X.Siddikov, Kh.A.Sattarov., O.I.Siddikov, X.E.KHujamatov, D.T.KHasanov, Sh.B.Olimova “Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat gigiyenasining qurulishdagi o‘rni” Tashkent University of Information Technologies Tashkent 2018y.
6. A.Xujaqulov HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINI MUTAXASISLIK FANI SIFATIDA O‘QITISH METODIKASI // Международный научный журнал № 19 (100),часть 1 «Научный импульс» Марта , 2024.

Shahnoza XODJAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Roman-german filologiyasi fakulteti,
ispan tili amaliy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

ISPAN TILINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: ispan tilini o‘rganish multimedia texnologiyalarining integratsiyasi ispan tilini o‘rgatish va o‘rganish usulini inqilob qildi. Multimedia texnologiyalari til o‘rganish tajribasini yaxshilaydigan videolar, interaktiv o‘yinlar, virtual reallik simulyatsiyalari va onlayn platformalar kabi raqamli vositalar va resurslarning keng doirasini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar zamonaviy til o‘qitishda ajralmas bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar uchun noyob imtiyoz va imkoniyatlarni taqdim etadi. Multimedia resurslaridan foydalangan holda, o‘qituvchilar turli xil o‘rganish uslublari va afzalliklariga mos keladigan dinamik va qiziqarli darslarni yaratishi mumkin, natijada talabalarning tilni o‘zlashtirishi va madaniy tushunchalarini oshiradi. Ushbu maqolada Ispan tilini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ispan tili, raqamli savodxonlik, multimedia texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, interaktiv ilovalar, audio kliplar.*

Аннотация: интеграция мультимедийных технологий изучения испанского языка произвела революцию в способах преподавания и изучения испанского языка. Мультимедийные технологии включают в себя широкий спектр цифровых инструментов и ресурсов, таких как видео, интерактивные игры, симуляции виртуальной реальности и онлайн-платформы, которые расширяют возможности изучения языка. Эти технологии являются неотъемлемой частью современного преподавания языка и предлагают уникальные преимущества и возможности преподавателям и студентам. Используя мультимедийные ресурсы, учителя могут создавать динамичные и увлекательные уроки, соответствующие различным стилям обучения и предпочтениям в результате это улучшает овладение языком и культурное понимание учащихся. В этой статье рассматривается важность мультимедийных технологий в преподавании испанского языка.

Ключевые слова: *испанский язык, цифровая грамотность, мультимедийные технологии, эффективность обучения, интерактивные приложения, аудиоклипы.*

Kirish. Xalq og‘zaki ijodida topishmoq janri zavqliligi, qiziqarliligi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Topishmoqlar xalqning milliy urf-odatlari, fikrlari, qarashlarini o‘zida ifoda etuvchi janr hisoblanib, xalq orasida jumboq, topmacha, top-top, cho‘pchak, matal, masal, ushuk kabi atamalar bilan yuritiladi. Topishmoqlar ma’naviy o‘yinlar sirasiga kirsa-da, alohida janr sifatida rivojlanmoqda. Bu janr ko‘proq bolalarni kuzatuvchanlikka, hayotni mukammalroq bilishga, sinchkovlikka o‘rgatadi. Ammo bu janrni folklorda faqat yosh bolalarga taalluqli deb hisoblash to‘g‘ri emas, chunki topishmoq aytish va topish musobaqalarida kattalar ham birdek qiziqish bilan ishtirok etaveradilar.

Asosiy qism. Qadimda ajdodlarimiz tabiat hodisalarini qanday nomlashni bilmay, ular oldida o‘zlarini ojiz his qilib, narsalar, odamlar, hayvonlar va qushlarni turli xil zararlardan saqlashni ko‘zlab boshqa so‘zlar bilan aytgani bois ilk topishmoqlar yuzaga kelgan. Topishmoqlarda ko‘p uchraydigan istiora va o‘xshatish san’atlari orqali yuzaga keladigan metaforalar va ulardagi tejamkorlik tamoyillari haqida har bir topishmoq misolida tahlil asosida gapirish mumkin.

Quyidagi tahlillar aynan shu mavzu doirasida amalga oshirilgan:

Ko‘k kosani to‘ntardim.

(Osmon.)

Osmon ko‘k rangda bo‘lganligi sababli, uni ko‘pincha ko‘k rangli buyumlarga qiyos qilishadi. Ammo topishmoqlarda uning javobida yashiringan narsa-buyumning, jismning va predmetning shakli, aniq xususiyatlari inobatga olinib ham ish ko‘rilishi mumkin. Ammo yuqoridagi topishmoqda osmon kosaga metafora qilingan bo‘lib, uning shakliga emas, rangiga nisbat berilgan. Quyidagi topishmoqda ham shunday ma’no ifodalangan:

Ko‘k sandig‘im ochildi,
Ichidan zar sochildi.

(Osmon, quyosh)

Birinchi misolda osmon “Ko‘k kosa”ga o‘xshatilgan bo‘lsa, ikkinchi misolda “Ko‘k sandiq” deyish bilan osmonning rangi ifoda etiladi. Quyosh esa zarga qiyoslangan. Ya’ni quyoshning nur sochishi zar sochishga o‘xshatilgan. Aniqroq qilib aytganda, quyoshning sariq nur sochishi bilan zarning sochilishi o‘rtasidagi o‘xshashlik ifodalangan. Quyidagi misolda ham shu fikr ustunlik qiladi:

Oltin kelganda kumush ketar,
Kumush kelganda oltin ketar.

(Quyosh, oy)

Quyoshning nega oltin yoki zarga tenglashtirilishi haqida fikr yuritildi. Oyga nisbat berilganda ham xuddi shu yo‘nalish ustunlik qiladi. Ya’ni oyning rang jihatdan xususiyati inobatga olinib, uni kumushga qiyoslashadi. Ammo quyidagi topishmoqda oy shakliga qiyosan patirga o‘xshatilgan, ya’ni aylana shaklda deyilmoqchi:

Bir parcha patir,
Olamga tatir.

(Oy)

Yuqoridagi tahlillarda predmetlarning rang-barangligiga e’tibor berilgan bo‘lsa, quyidagi topishmoqda vazifaviy jihati ham inobatga olingan hisoblanadi:

Zil gilam, zil-zil gilam,
Ko‘taray desam, og‘ir gilam.

(Yer)

Yer – gilam. Ushbu topishmoqda yerni gilamga o‘xshatish orqali vazifadoshlik asosidagi ma’no ko‘chish hodisasi yuzaga kelgan bo‘lib, yerning ustida ham, gilamning ustida ham o‘tiladi, degan ma’no kasb etgan.

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan.

(Qor)

Yuqoridagi namunada qorni dasturxonga o‘xshatish orqali metafora usulida ma’no ko‘chishi yuzaga kelgan va bu bilan tejamkorlik tamoyili yuzaga kelgan. Aslida, qor dasturxon kabi yozilib, tekis bo‘lib, hamma joyni o‘rab oladi degan mazmun ifodalangan.

Navbatdagi topishmoqda esa yuqoridagi xususiyatlardan ajralib turuvchi belgilar, tashqi o‘xshashlik va boshqalar topishmoqning yaratilishiga asos bo‘lgan:

Ariqdan oyna oldim.

(Muz)

Ushbu topishmoqda tejamkorlik tamoyili yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki 3 ta so‘z orqali quyidagi keng ma’no ifodalangan: “Ariqlarda oqib turgan suvlar sovuqda muzlab go‘zal va yarqiroq oynadek porlashni boshlaydi. Bolalar esa bu muzlarni sindirib olib o‘ynashni, ba’zida esa yeyishni ham istashadi. Ammo tiniq muzga qaraganingda oynada aksingni ko‘rganing kabi o‘zingga ko‘zing tushadi”.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilinsa, folklor asarlaridagi boshqa janrlar kabi topishmoqlarda ham ortiqchalik va tejamkorlik tamoyillari anchagina. Ammo tejamkorlik tamoyili ustunlik qiluvchi bu janr qisqa, lekin qiziqarli va sodda tilda yozilganligi bilan o‘rganishga ancha oson hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, O. Safarov. – Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2010.
2. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi”. Mirzayev, O. Safarov, D. O‘rayeva. – T.: Aloqachi, 2008.
3.Madayev O, Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
4. M.Jo‘rayev, J,Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. (O‘quv qo‘llanma). – T.: «Barkamol fayz media», 2017.
5.M.Murodova. Folklor va etnografiya. – T.: “Aloqachi”, 2008.
6.T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O‘ZBEK FOLKLORI (Darslik) – Toshkent, 2020.
7.M. Jo‘rayev. Ipak yo‘li afsonalari. – T.: Fan nashriyoti, 1993.

Mohichehra O‘ROLOVA,
Termiz davlat universiteti 3-bosqich talabasi
mohichehrauralova@gmail.com
Normat YO‘LDOSHEV,
Ilmiy rahbar

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT MUNOSABATLARINING POETIK TALQINI

(“Omon ovchining o‘limi”, “Zov ostidagi adashuv” hikoyalari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada surxon vohasi vakili Shukur Xolmirzayevning uslubiga to‘xtalib, uning asarlarida inson va tabiat mavzusi nechog‘lik ahamiyatli ekanligi xususida so‘z boradi. Shuningdek, yozuvchining “Omon ovchining o‘limi” va “Zov ostida adashuv” hikoyalari tahlilga tortilib, bu hikoyalarda inson va tabiat munosabatlari poetik tomonlama tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *yozuvchi, hikoyachilik, hikoya, inson va tabiat munosabatlari, xususiyat, detall, uslub, Omon ovchi, tog‘, cho‘l, dasht, qishloq, asarlar, prinsip, tasvir, so‘z, ov, mavjudot, ma’naviy bo‘shliq, zovboshi, o‘rmon, yovvoyi hayvonlar, saynoq, dara.*

Аннотация: в данной статье речь идет о стиле Шукура Холмирзаева, представителя Сурханского оазиса, и о том, насколько важна тема человека и природы в его произведениях. Также анализируются повести писателя «Смерть выжившего охотника» и «Пропавшие под зовом», в этих рассказах поэтически анализируются взаимоотношения человека и природы.

Ключевые слова: *писатель, повествование, повесть, взаимоотношения человека и природы, черта, деталь, стиль, охотник на Амона, гора, пустыня, степь, деревня, произведения, принцип, образ, слово, охота, существо, духовная пустота, зовбоши, лес , дикие животные, Сайнак, ущелье.*

Annotation: this article discusses the style of Shukur Kholmirzaev, a representative of the Surkhan oasis, and the importance of the theme of man and nature in his works. It also analyzes the writer's stories "The Death of a Surviving Hunter" and "Missing Under the Call", in which the relationship between man and nature is poetically analyzed.

Keywords: *writer, narrative, story, relationship between man and nature, feature, detail, style, Amun Hunter, mountain, desert, steppe, village, works, principle, image, word, hunt, creature, spiritual emptiness, zovboshi, forest, wild animals, Sainak, gorge.*

Hikoyachilikda Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhor an’analarini yangi bosqichga chiqarishda Shukur Xolmirzayevning o‘ziga xos o‘rni bor. Yozuvchi talabalik yillaridanoq o‘zining o‘nlab hikoyalari bilan kitobxonlar mehrini qozonishga ulgurgan. Shukur Xolmirzayevning yoshligi Surxondaryo viloyatining Boysun tumani tog‘lari orasida joylashgan qishloqda, musaffo tabiat va mehnatkash aholi bag‘rida o‘tganligi tufayli ham, uning fel-atvorida tog‘liklarga xos to‘g‘rilik, dangallik va cho‘rtkesarlik xususiyatlari bor edi. Shu sababdan ham, yozuvchi asarlarining ma’lum bir qismini tabiat va inson munosabati tashkil qiladi. Adabiyotshunos Y.Solijonov yozuvchining asarlarida tabiat detallariga beradigan ahamiyati xususida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Shukur Xolmirzayevning asarlarida eng ko‘p qo‘llanadigan detallar bu – tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o‘t-o‘lanlar, gullar, qushlar, hasharotlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisisiz yashay olmasligini uqdirmoqchi bo‘ladi. Ayni chog‘da tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlarga, ularning o‘ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do‘lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya’ni mohiyatda ekani)ga urg‘u berish orqali odamni o‘z hayotiga e’tiborliroq bo‘lishiga undaydi. Ha, Shukurning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko‘rkini namoyish qilish uchun quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhiyatimizga osoyishtalik bag‘ishlab, umrimizni uzaytiradi.” Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o‘qir ekansiz, ularda tabiatning ajoyibotlari, sirliligi, ba’zi o‘rinlarda esa insonlarga xos xususyatlarini ko‘rishingiz mumkin. Yozuvchi so‘zni nihoyatda ziqnalik bilan tejab sarflasada, har bir so‘zga bir necha vazifa yuklashni va shu orqali asar mazmunini boyitib, o‘quvchini fikr yuritishga majbur qilishni o‘rniga qo‘ya biladi. Uning asosiy prinsiplaridan biri tabiatni bilimdonlik bilan ikir-chikirigacha tasvirlashdir. Biz ba’zida e’tiborsizlik qilib o‘qib ketadigan yozuvchi asarlarining sahifalarida ko‘zimiz ilg‘amaydigan anchagina haqiqat va bilim yashiringan. Uning asarlarida dasht, cho‘l, tog‘ va qishloq odamlari va tabiati tasviri ko‘p uchrasada, ammo, bu mavzu bir-birini takrorlamaydi. Aksincha, o‘zgacha rang-baranglik, tus va holat oladi. Buning isboti sifatida, tanqidchi Umarali Normatov “Zaminda yashaymiz, zaminni o‘ylaymiz” maqolasida Shukur Xolmirzayev

hikoyalariga xos xususiyatlar borasida quyidagicha so‘z yuritadi: “Inson va tabiat munosabati Shukur Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leymotiviga ayblanib qoldi. Shunisi xarakterliki, yozuvchining so‘nggi yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi. Har gal muallif masalining yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbning yangi tomonini ochadi.”

Shukur Xolmirzayev “Omon ovchining o‘limi” va “Zov ostida adashuv” hikoyalarida inson va tabiat munosabatlarini ajoyib tarzda talqin qilgan. “Omon ovchining o‘limi” hikoyasida Omon ovchi tog‘da yashovchi hayvonlarni o‘ldirishga mukkasidan ketgan inson edi. U oddiy narsalardan tez ranjimasa ham, ovdan biron hayvon ovlolmay qaytsa, otasi o‘lgandek aza tutardi. Tabiatdagi hayvonlarni esa ermak uchun ham o‘ldirib ketaverar, ularga achinish hissini tuymas ham edi. Omon ovchi ammasining “har bir jonzot Allohning mahluqi, ularni o‘ldirish gunoh” degan nasihatlari va xalq orasidagi “qon tutadi”, “ko‘z tegadi” degan gaplarga umuman ishonmasdi. O‘limi oldi, uchta kiyikni o‘ldirib, qaytayotganida oyog‘ini sindirib oladi va bir necha kundan so‘ng hali tuzalmasdan turib, uyidan bir necha chaqirim naridagi kakliklarni ovlayman deb, sirpanib qor uyimiga aylanadi va masliqxo‘r g‘ajirlarga yem bo‘ladi. Ushbu ayanchli hikoya orqali yozuvchi tabiatdagi har bir mavjudot (umuman olganda, tabiat) Alloh tomonidan yaratilgan bir mo‘jiza ekanligi va bunga qarshi qilinadigan har bir nojoya harakatning javobi shunday yakunlanishi mumkinligini uqdirmoqchi bo‘ladi. Omon ovchi tabiatga nisbatan shavqatsiz inson bo‘lib tug‘ilmadi. Uning shunday bag‘ritosh bo‘lib ulg‘ayishida oilasidagi ma’naviy bo‘shliq sababchi bo‘lgandir balki.

Yozuvchining “Zov ostida adashuv” hikoyasida Berdimurod ismli yetti yoshli bolakayning zovda adashib qolishi to‘g‘risida hikoya qilinadi. Bolakayning otasi cho‘pon bo‘lganligi tufayli, ularning oilasi qish va yoz oylarida yashash joylarini o‘zgartirib hayot kechirishadi. Bu safar ham bolakay otasi, onasi va singlisi bilan birgalikda qish yaqinlashayotganligi tufayli, ko‘ch-ko‘ronini yig‘ishtirib ot-ulovlarida dashtga ko‘chib ketishayotgan edi. Ammo yo‘lda tuman turib, ularning aravasi bir soydagi ko‘lmakka kirib qoladi va bolakay otasiga yordam berish maqsadida, uning ortidan borib adashib qoladi. U aqlli bola bo‘lganligi tufayli, otasi o‘rgatgan o‘gitlarga amal qilgan holda ish tutadi va zovboshidagi qiyinchiliklardan omon-eson o‘tib, bir cho‘ponning yoniga kelib qoladi. Shundan so‘ng, uni otasi topib uyiga olib boradi va uni koyimaydi. Shunchaki, “bolam turmushda ham shunday aql-farosat bilan yo‘l topsang bo‘lgani. Bu adashuv senga saboq bo‘lsin!” - deya nasihat qiladi. Ushbu hikoyada yetti yoshli bolakayning zovboshida adashib qolib, o‘zini yo‘qotib qo‘ymagani, otasi bergan bilimlar va nasihatlarga amal qilib, astoydil harakat qilgani, tabiatning g‘aroyibotlariga guvoh bo‘lib, shu adashuv tufayli geolog bo‘lib yetishgani haqida hikoya qilinadi. Omon ovchidan farqli ravishda, u otasidan hayvonlar, jonzotlar haqidagi bilimlarni oldi va shu bilim unga kerak vaqtda asqotib, uning hayotini saqlab qoldi. Asarda bir qarashda go‘zal tabiat manzarasini ko‘rgandek bo‘lishimiz mumkin. Ammo, aslida, asarda shu tabiatga munosabatda bo‘layotgan, uni tushuna olayotgan, his etayotgan inson qalbining ma’naviy bisotini ham ko‘ramiz. Tabiatgina emas, uni his qila olayotgan inson qalbi ham tabiat kabi go‘zal bo‘lishi hayratlanarli holatdir. Yozuvchi ayni shu jihatlarni ham mahorat bilan ko‘rsatib bera olgan. Tabiatda ba’zi mavjudotlar xavfli bo‘lishi mumkin, ammo ularning go‘zal va g‘aroyibligi ham ayni shundadir. Har bir hayvon, o‘simlik va insonlar fizika qonunlaridagi kabi bir-biriga bog‘liq moddalardir. Shu sababdan ularga zarar yetkazish, o‘zi va atrofdagilarga zarar yetkazish bilan barobardir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Shukur Xolmirzayev o‘zining ushbu hikoyalari orqali tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning juda muhimligini ta’kidlaydi. Hamda, tabiatdagi betakror manzaralar, insonga estetik zavq, kuch-quvvat bag‘ishlashi, unga yaqinlashgan inson qalbida mehr-shafqat uyg‘onishi, ma’naviy ozuqa olishi, undan uzoqlashish insonni tabiiy va moddiy ozuqalardan mahrum qilishi mumkinligini uqdiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y.Solijonov. https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/2007.
2. Umarali Normatov “Nasrimiz an’analari”. 205-bet
3. https://www.ziyouz.com

Dilnura SOTIMBOYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
dilnurasotimboyeva@gmail.com

O‘G‘UZ LAHJASIDA O‘XSHATISH VA KESATISHGA OID MAQOLLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘g‘uz lahjasiga mansub Xorazm xalq maqollarining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. O‘xshatish va kesatish mavzusidagi maqollar misol qilib olinib, tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *iymon, xulq-atvor, tani-sog‘lik, pand-nasihat, ota-ona, er-xotin munosabatlari, mehmondorchilik, imorat qurish, quda-andachilik*

Аннотация: в данной статье рассматриваются сущность и особенности хорезмийских народных пословиц, принадлежащих к огузскому диалекту. Пословицы на тему сравнения и сравнения взяты в качестве примеров и проанализированы.

Ключевые слова: *вера, поведение, здоровье, увещевание, происхождение, супружеские отношения, гостеприимство, строительство, хозяйство.*

Annotation: this article discusses the essence and characteristics of Khorezm folk proverbs belonging to the Oghuz dialect. Proverbs on the topic of simile and comparison are taken as examples and analyzed.

Keywords: faith, behavior, health, admonition, parentage, marital relations, hospitality, construction, husbandry

Kirish. Maqollar xalqning asrlar osha turmush tarzi, shu davrdagi qiyinchiliklar asosida yuzaga kelgan vaziyatlardan olgan xulosalari majmuyidir. Badiiy obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘z bo‘lganligi sababli maqol insonlar hayotida har jabhada muhim ahamiyatga ega. Maqol, matal va hikmatli so‘zlar xalq donishmandligining mahsulidir. Xalqimizning turmushda ishlatilaverib sayqal topgan bu durdona, topqir fikrlari ixcham shakli, teran mazmuni, axloqiy-ma’rifiy qimmati bilan ahamiyatlidir. Fikrni obrazli, lo‘nda va aniq ifodalashda xalqimiz o‘zi yaratgan bu durdonalardan keng qo‘llaydi. Maqol yaratilishi uchun biror voqea yoki ibratli hikoyalar sabab bo‘lishi mumkin. Xalq ichidan dono va sinchkov ajdodlarimiz vakili kuzatib keyin bir xulosaga keladi va shunday qilib o‘zi bilmagan, anglamagan tarzda bitta maqol yaratilishiga sababchi bo‘ladi.

Kuzatishlar olib borar ekanmiz, nafaqat o‘zbek xalq maqollari balki til tarkibiga kiruvchi lahjalarda ham boy va bir-birini takrorlamas maqollar bor ekanligining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek xalq maqollari rang-barang bo‘lganidek, sheva tilida qo‘llanib kelayotgan maqollar ham mavzu jihatidan salmoqli o‘rin egallagan. O‘g‘uz lahjasida gaplashuvchi Xorazmliklar nutqida vatan, din, iymon, do‘stlik, dushmanlik, xulq-atvor, tani-sog‘lik, pand-nasihat, ota-ona, er-xotin munosabatlari, mehmondorchilik, imorat qurish, quda-andachilik kabi mavzularda mingdan ortiq maqollarni uchratishimiz mumkin.

Asosiy qism. Bu maqollarni nafaqat jonli xalq nutqida balki Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan yozuvchi, shoirlarimiz ijod namunlarida ham uchratishimiz mumkin. Iste’dodli yozuvchi Komil Avazning “Sozanda” romanining o‘zida o‘g‘uz lahjasida mavjud bo‘lgan o‘ttizdan ziyod maqollarga duch kelamiz. “Yozg‘itni yoqolob o‘tib bo‘midi” maqolini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu yerda aytilmoqchi bo‘lgan fikr, taqdiringdan baribir qochib qutula olmaysan, qayerda, qanday sharoitda bo‘lma peshonada borini ko‘rish haqida fikr yuritilgan.

O‘g‘uz lahjasidagi o‘xshatish va kesatish yo‘sinidagi maqollarga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Go‘z dagan daryo” maqoliga e’tibor qaratamiz. Bu o‘rinda go‘z-ko‘z fonetik o‘zgarish asosida adabiy tildan farqlangan. Demak insonning ko‘zi daryoga o‘xshatilyapti. Insonning ko‘zi hamma narsani ko‘rishga intilaverishi ma’nosida ishlatilgan. “Yeddi qozig‘a oshno atadi” maqolini tub zamiriga yuzlansak, Xiva xonligi davrlarida qiyin masalalarni yechish maqsadida saroyda yetti qozidan iborat maxsus guruh tashkil qilingan. Yetti qozi ketma-ket savollar berib har qanday da’vogarni gangitishgan. Ushbu qozilar guruhi Isfandiyorxon davriga kelib tugatilgan. Bu bilan yomon odamga ishing tushsa seni xarob qiladi qabilida aytilmoqda.

“Azon bilan yumruqdanam qaytma” maqolidagi o‘g‘uz lahjasidagi so‘z yumruq-musht degani. Ya’ni bu yerda aytilyaptiki, ertalabki narsa rizqing musht bo‘lgan taqdirda ham undan voz kechma deyilmoqchi. “Bir qo‘lingni nasi bor, ikki qo‘lni sasi bor” deganni ikki xil ma’noda o‘z va ko‘chma ma’nosini tushunishimiz mumkin. O‘z ma’nosini sharhlaydigan bo‘lsak bir qo‘lingda nima ham bo‘lar edi, lekin ikkita qo‘ldan sas ya’ni ovoz chiqadi ma’nosi bor. Xuddi o‘zbek xalq maqolidagi “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”ga o‘xshagan. Ko‘chma ma’noda tushunadigan bo‘lsak, bir inson nima ham qila olishi mumkin, lekin juftlashsak, ikkita bo‘lsak, ko‘p ishga qodir bo‘lamiz deya tushunish mumkin. Shunga o‘xshash “Solmodon otliyman dab,

buting yirtilmasin” maqolida katta ketmaslik haqida gap bormoqda. Solmo so‘zi o‘g‘uz lahjasida ariq ma’nosini beradi.

Shevamizda shunga o‘xshagan o‘xshatishlarga boy maqollar talaygina. Ularning ma’nosi ham bir-birini takrorlamaydi. Bittasi shumlik to‘g‘risida bo‘lsa, yana biri tirishqoqlik haqidadir. Ulardan ba’zilarini tahlil qilib o‘tdik, yana ba’zilarini quyida keltirib o‘tamiz:

Hech bo‘lmag‘annan gech bo‘lg‘ani yaxshi;
Xo‘roz qichqirmasa-da, dong otovaradi;
Go‘rmak bor, yemak yo‘q;
Anangni ara baradi;
Ikki oyoqingni bir adika diqadi;
Ojjini ojji kasar, zaharni-zaxar;
Hayit o‘tgan so‘ng xinani orqonga yop.
It yotish, mirza turish;
Odi birni joni bir, qoni boshqani joni boshqa;
Dunyoni suv bossa to‘piqina chiqmiydi;
Ishi bitdi, eshaki loydan o‘tdi;
Yemakni qusmoqi bor;
Yiqilgan yerindan bir qisim tuproq oladi;
Ikki gama boshin tutgan g‘arq bo‘lar;
Dishlarim border og‘zimni qal’asi, dillarim border boshshimni balosi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, maqollar qayerda, qaysi tilda, qaysi shevada yaratilmasin shu joyning madaniyati va aholisining turmush tarzini ko‘rsatib beruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Maqollar orqali shu xalqning urf-odat, an’analarini, qadimdan shug‘ullanib kelayotgan mashg‘ulotlarini bilib olish mumkin. Demak maqollar tariximizni ko‘rsatuvchi ko‘zgulardan biri ekan, ularni asrashimiz, hozirgi davr hayoti bilan boyitib avlodlarga to‘lig‘icha yetkazish yosh avlod biz tilshunoslarning zimmasidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Suvonqulova. “O‘zbek xalq maqollari”. “Adabiyot uchqunlari”. – Toshkent, 2014.
2. V.Sultonov. “Xorazm xalq maqollari”. – Xorazm: “Mahmud az-Zamaxshariy” nashriyoti, 2024.
3.K.Avaz. “Sozanda”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.
4.Arxiv.uz

Dilnavoz XAYTAXMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
dilnavozxaytaxmatova174@gmail.com

OMON MATJON SHE’RIYATIDA MUHABBAT MOTIVI
(“Maqsudam” she’riy to‘plami misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning 2021-yilda Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashr etilgan “Maqsudam” she’riy to‘plamidagi she’rlar haqida ayrim mulohazalar qilingan. Omon Matjon “Yarador chaqmoq”, “Seni yaxshi ko‘raman” (1981), “Daraxtlar va giyohlar” (1984),”O‘rtamizda birgina olma” (1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” kabi ko‘plab she’riy to‘plamlar muallifi hisoblanadi. “Maqsudam” she’riy to‘plamidan joy olgan she’rlar tahlilga tortilgan. She’rlardagi badiiy san’atlar, g’oyalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar : *muhabbat, figura, gumanizm, badiiy san’at, taxmis.*

Annotation: published by Jehovah's Witnesses but now out of print. Omon Matjon said, "Yarador chaqmoq", He is the author of many poetic collections, such as "Seni yaxshi ko‘raman" , "Daraxtlar va giyohlar" , "O‘rtamizda birgina olma" , “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi”. The poems from the collection of poems "Maqsudam" are analyzed. Artifacts and ideas have been studied in poems.

Keywords: *love, figure, humanism, art, taxmis.*

Muhabbat deganda faqat sevgini tushunib, ko‘pincha uning keng ma’no qirralarini unutib qo‘yamiz. Aslida, muhabbat keng ma’no doirasiga ega konsept. Yaratganga muhabbat, yurtga muhabbat, insonga muhabbat, ota-onaga muhabbat, yorga, oilaga muhabbat, do‘stga muhabbat, ustozga muhabbat va bu ro‘yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Bularning bari ezgu tushuncha. Insonman degan har kasning yuragida bo‘lishi kerak. Ammo inson sharafli nom egasi bo‘lmog‘i bilan birga xom sut emgan banda ham. Har birimizda yuqoridagi fazilatlar turli darajada. Biroq shoir baribir estetik tarbiyachi. U o‘qituvchi singari bilvosita tarbiya bermasa ham, asarlari orqali bevosita tarbiyachi maqomiga ega. Uni o‘qigan o‘quvchi undan baribir nimanidir olishga harakat qiladi. Demak, shoirning muhabbatsiz bo‘lishga haqqi yo‘q. Uning Xudoga, insonga va vatanga muhabbati butun bo‘lmog‘i zarur. Shoir bo‘lsa-yu, Xudoga ishonmasa, shoir bo‘lsa-yu, insonni sevmasa, vatanga muhabbati bo‘lmasa, uning shoirligidan kimga nima naf. Men adabiyotning birinchi galdagi vazifasi insonni sevish, ya’ni insonparvarlik ekanini hech qachon

takrorlashdan charchamaganman. Qisqasi buyuk shoir borki, barchasi insonparvar bo‘lgan. Ulardan keyin harchand rang-barang shoirlar kelmasin, hali gumanist shoirlardan o‘tib ketolgani yo‘q. Bunday bo‘lmaydi ham. She’riyat yalovi hamisha inson nomini sharaflagan ijodkor qo‘lida. Zero, insonni sevgan shoirninggina samimiyligiga ishonish mumkin. Shukrki, biz tadqiqot doiramizga kiritgan Omon Matjon ana shunday shoir, chin ma’nodagi gumanist.

Gumanizm hamma ijodkorda ham bir xil emas. Bu ayniqsa, ijod va shaxsiyat masalasida bo‘rtib ko‘rinadi. Kimdadir san’atkorlik yuksak darajada, ammo insoniylik shu qadar tuban. Biroq shu o‘rinda Tolstoyning, san’atkor ijodda tengsiz bo‘lsa-yu, axloqda tuban ketsa, uning san’atkorligi bir pul degan fikri haq ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Omon Matjon ijodining bosh kredosi – insonga va vatanga muhabbat desak yanglishmaymiz. U adabiyotga kirib kelgan dastlabki davrlardanoq ijtimoiy shoir sifatida namoyon bo‘lgan. Ijtimoiy shoirlar adabiyotda kam. Chunki ularni hamma ham zavq va sabr bilan o‘qiyolmaydi. Sababi u inson va vatanning, jamiyatning og‘riqli tomonlarini kuylaydi. Dardni ko‘tarmoqni esa Xudo hammaga ham chiqarmagan. Ammo Omon Matjon ayrim ijtimoiy shoirlar kabi zerikarli emas, uni o‘qisangiz baribir zavq olasiz. Biz tahlilga tortayotgan she’riy to‘plamda ijodkorning 70 ta she’ri bor. To‘plam 2021-yil O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashr qilingan. “Yurakka”, “Maqsudam”, “Xayolimda yashar bir nargis…”, “Sirlarim”, “Yonayotgan daraxt”, “Eshigingdan o‘taman” singari she’rlarida, ayniqsa, muhabbat motivi, falsafiy xarakter yetakchilik qilgan.

To‘plamdagi dastlabki she’r “Yurakka” deb nomlangan. She’rda shoir yurakka murojaat qilib, tabiatning rashki kelganidan uni tor siynaga abadiy bandi qilganini husni ta’lil san’ati orqali ifodalaydi.

“O‘zi yaratdi-yu seni tabiat,
Lekin tinchimadi sen yaralgandan.
Bu tor siyna ichra bandisan abad,
Tabiatning senga rashki kelgandan.” [1,3]

Husni ta’lil (ar. – chiroyli dalillash) – biror voqeani unga bevosita daxli bo‘lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash san’ati. Bunda shoir o‘zi tasvir etayotgan hodisaga biror go‘zal sabab ko‘rsatadi. Bu asoslash mantiqiy va hayotiy bo‘lmasdan, aksincha, xayoliy, shoirona shaklda namoyon bo‘ladi.[2,188]

Bundan tashqari, ushbu she’rda nido, tashxis, mubolag‘a singari san’atlar ham qo‘llangan.

“Belanchakda yotar koinot” deb boshlanuvchi she’rda esa ijodkor bizni chayqab turgan bu hayot kimlarningdir so‘nggi qo‘shig‘i ekanini, somon yo‘li qand yuqi ekanini aytadi. She’rda tashbeh san’ati yetakchilik qiladi. Ijodkor asarida sifatlash, jonlantirish kabi san’atlardan ham mohirona foydalangan.

“Men na kun, na tunman samoda,
Bir oshiqman yerda bor-yo‘g‘i.
Menga nelar etasan va’da,
Ey sevgining so‘nggi qo‘shig‘i?!” [1,5]

Adibning bu to‘plamiga nafaqat she’rlari balki Navoiy, Ogahiy kabi mumtoz adabiyotimizning yirik figuralari g‘azallariga bog‘lagan taxmislari ham o‘rin olgan. Omon Matjonning Ogahiyning mashhur “Ustina” radifli g‘azaliga bog‘lagan taxmisi poetika qoidalariga amal qilingan holda yozilgan. Ijodkor oxirgi bandning 3-misrasida taxallus qo‘llash orqali mumtoz adabiyot namoyondalari an’anasini davom ettirgan.

“Birdan tilimni tishladim, izza boqib yon-vergakim,
Darkormi so‘z ustozlaring so‘z aytmagan bir yerdakim.
Bor jur’ating, yozgin, Omon, yurting ovozin she’rgakim,
Ne jur’at ila Ogahiy ochgay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina!” [1,19]

“Nega har bir g‘olib kiyavermas toj,
Nega mag‘lub ham qolmas beiloj?!
Bildimki, osmonning eshigi bitta,
Dardli munojotga ochilar Me’roj.” [1,57]

Ushbu to‘rtlikda ham ijodkor o‘z qarashlarini misralarga jo qilgan. Xulosa qilib aytganda, Omon Matjonning ushbu to‘plamidagi qaysi she’rni o‘qimaylik, gumanistik g‘oyalar unda mavjudligini his qilamiz. To‘plamga kiritilgan to‘rtliklari ham falsafiy xarakterga egaligi bilan boshqa she’rlardan ajralib turadi. Ayrim to‘rtliklari didaktik ruhda, ayrimlarida esa muhabbat motivi yetakchilik qiladi. Bevosita she’rlarni o‘qish davomida biz Omon Matjon she’riyatida ham tasavvuf elementlariga duch kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Omon Matjon. Maqsudam. – T.: Adabiyot, 2021.
2.Yusupova.D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020.
3. Bahodir K. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asosi. – T.: Navoiy universiteti, 2018.

Shohista ADUQODIROVA,
Buxoro davlat universiteti
3-bosqich talabasi

TA'LIMGA OID SAYTLARDA PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARNING IFODALANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'limiy saytlarida e'lon qilingan nutqlarining mikro matnlar orqali ifodalanishi pragmalingvistik yondashuv asosida o'rganildi. Ushbu maqsadda Britaniya maktab ta'limiy saytlaridan ixtiyoriy tanlash asosida 10 ta ma'muriy murojaatlar tanlab olinib, pragmatik tahlil qilinib, natijalar olindi. Bunday turdagi matnlarning mikromatnlarda ifodalanishi pragmatik nuqatayi nazardan ko'zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *vebsayt, axborot, reklama, diskurs, pragmalingvistika, turkologiya, tadqiq, sotsiopragmatika, siyosiy pragmatika, tahlil, auditoriya.*

Аннотация: в данной статье на основе прагмалингвистического подхода исследовано выражение речей, опубликованных на образовательных сайтах, посредством микротекстов. Для этого на основе добровольного отбора с британских школьных образовательных сайтов были отобраны 10 административных обращений, прагматически проанализированы и получены результаты. Представление такого типа текстов в микротекстах важно для достижения намеченной цели с прагматической точки зрения.

Ключевые слова: *сайт, информация, реклама, дискурс, прагмалингвистика, тюркология, исследования, социопрагматика, политическая прагматика, анализ, аудитория.*

Annotation: in this article, the expression of speeches published on educational sites through micro-texts was studied based on the pragmalinguistic approach. For this purpose, 10 administrative appeals were selected based on voluntary selection from the British school educational sites, pragmatically analyzed and results were obtained. Representation of such type of texts in microtexts is important in achieving the intended goal from the pragmatic point of view.

Keywords: *website, information, advertising, discourse, pragmalinguistics, Turkology, research, sociopragmatics, political pragmatics, analysis, audience.*

Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar hamda vebsaytlar orqali tarqalayotgan ma'lumotlar boshqa ma'lumot manbalari: televideniya, radio yoki gazeta-jurnallardan ko'ra tezroq insonlar orasida tarqalib, ularning bilish jarayonlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Universitet yoki maktab vebsaytlari ta'lim muassasalarining eng muhim qismlaridan biri hisoblanib, ular o'quvchi va ota-onalar uchun o'ta muhim ta'sir doirasiga ega. Yaxshi faoliyat olib boruvchi vebsayt talabalar, o'quv ishlari va boshqaruv apparati o'rtasidagi ichki aloqalarni yaxshilaydi, shuningek, ota-onalar bilan yaqindan munosbat o'rnata oladi. Vebsaytga qo'yilgan har bir belgi, rasm yoki uning nomi, hattoki sayt dizayni, tanlangan ranglar o'sha ta'lim muassasasi to'g'risida qo'shimcha axborot berib turadi. Asosiy axborot esa minimal matnlar orqali e'lonlar tarzida yoki qisqa xabarlar tarzida berib boriladi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida tan olingan pragmalingvistikaning muammolaridan biri aynan matn masalasidir. Bugungi kunda tilshunoslar axborot va reklama matnlarining tahliliga, ularning pragmatik hamda kognitiv xususiyatlarini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqdalar.

Tadqiqotchi birinchi marta oliy ta'lim sohasidagi polikodli ingliz tilidagi reklama matnini ko'p qirrali o'rganishni amalga oshiradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi haqiqiy materialning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanib, Buyuk Britaniya universitetlarining veb-saytlari kognitiv-diskursiv, ijtimoiy-pragmatik va semiologik pozitsiyalardan tahlilga tortiladi. 2013-yilda esa Uxova.L.V "Reklama matnining samaradorligini o'rganishning nazariy muammolari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida reklama matnining samaradorligi muammosi perlokutiv tilshunoslik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi, uning fikricha, ommaviy aloqaning samaradorligi nafaqat xabarning o'ziga xos xususiyatlariga, balki individual idrok etish omillarining umumiyligiga ham bog'liq. Axborotni elakdan o'tkazadigan "filtr" funksiyasi ma'lum bir ijtimoiy guruhga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy stereotiplar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, ommaviy axborot vositalari inson ongi tomonidan sintez qilingan dunyo tasviriga kuchli ta'sir ko'rsatadi va bu asl haqiqiy voqelikni "matnli haqiqat" bilan almashtiradi. Tadqiqotchi o'z ishida reklama matnini institutsional va intensional jihatdan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Unga ko'ra, institutsional reklama nutqi ekstralingvistik me'zonga asoslanib, ommaviy kommunikatsiyalarni tashkil etish qonunlariga bo'ysunadi hamda uning maqsadi, qabul qiluvchisi va aloqa natijasi kabi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkologiyada ham pragmalingvistika sohasiga doir ilmiy izlanishlarni ko'rishimiz mumkin. Ulardan Kalbike Esenova, qozoq tilshunosi, 2017-yilda

“Pragmalinguistic studies in linguistics” nomli monografiyasini e’lon qildi. Ushbu monografiyada qozoq media tekstini o‘rganishda asosiy pragmalingvistik yondashuvlar, mediatekst turlari va medialingvistikaning asosiy muammolari yuzasidan olib borgan izlanishlari xususida atroflicha to‘xtalib o‘tadi. Tadqiqotchi Mass medianing rivojlanishi axborot maydonida turli ijodiy izlanishlar olib borishga keng imkoniyatlar ochganligini ta’kidlagan holda bunga ikkita asosiy sababni keltirib o‘tadi. Birinchidan, sovet senzurasining yo‘q qilinishi hamda mustaqillik bilan bir qatorda ijodiy erkinlikka erishilganligi, ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligi tufayli matbuot xizmatining bozor sharoitidagi yangi tendensiyalarining yuzaga kelganligi, shuningdek, axborot maydoni raqobatbardoshligining oshganligi bilan tavsiflansa, ikkinchi sabab esa ommaviy ongning yangi bosqichga ko‘tarilganligi.

Pragmalingvistikaga oid ishlarning debochasi sifatida esa Sh.Safarovning 2008-yilda e’lon qilingan “Pragmalingvistika” monografiyasini e’tirof etish mumkin. Mazkur monografiya tilshunoslik fanining nisbatan yangi sohasi bo‘lgan pragmalingvistikaning bugunga qadar erishgan yutuqlarini umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga bag‘ishlangan. Bu tadqiqot pragmalingvistikaning “zurriyotlari” bo‘lmish etnopragmatika, sotsiopragmatika, siyosiy pragmatika va boshqa qator ilmiy yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati to‘g‘risida keng ko‘lamdagi ilmiy materiallar jamlangan ilk tajribalardandir.

Ushbu maqola uchun O‘zbekistonning 10 ta maktab veb-saytidan shu maktablar direktorlarining ommaga, ota-onalarga murojaat nutqlari tanlab olindi. Ular 126 tadan 503 birlikkacha bo‘lgan oraliqdagi so‘zlardan iborat matnlar bo‘lib, 200 dan ortiq belgiga ega matnlar 40 tadan 65 tagacha so‘zdan iborat ixcham formatdagi mikromatn bilan ifodalangan. Uning yonidan “ko‘proq o‘qish” tugmachasi orqali murojaatning to‘liq shaklini ko‘rish mumkin.

Psixologik nuqtayi nazardan bir qarashda o‘qib tushuniladigan matn ko‘pchilik tomonidan o‘qilishiga va diqqat e’tiborni tortish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ushbu matnlar uslubiy jihatdan rasmiy matn hisoblanib, uning pragmatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ishtirokchilari - adresant va adresatiga egaligi, nutqiy muloqot jarayoni va uning maqsadiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Bunda matn adresantlari - nutq egasi yoki ma’lumot uzatayotgan tomon - maktab ma’muriyati direktorlari bo‘lsa, adresat esa tinglovchilar - shu maktabga qiziqish bildirayotgan auditoriya, ya’ni talabalar, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi vasiylar bo‘lishi mumkin. Biz ushbu matnlarga reklama matnlari sifatida qarashni taklif qilamiz.

Bunda yashirin muloqot orqali aynan shu nutq doirasida, uzatilayotgan axborot doirasida muammosi bo‘lgan insonga yechim taklif qilinadi. Ota-onalarga farzandlarini o‘qitish uchun eng yaxshi maktab kerak va har bir maktabda turli xildagi bir-biridan farq qiluvchi o‘ziga xos taraflari bor. Bu o‘rinda veb-saytlarda e’lon qilingan administratsiya murojaatlari o‘z maktablarining boshqa maktablardan ustun jihatlarini ta’kidlagan holda ota-onalarni eng yaxshisi mana shu maktab ekanligiga ishontirish va farzandini shu maktabda o‘qitishga undash vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘rganilgan maktab ma’muriyati murojaatlari matnlarining asosiy maqsadlari kerakli auditoriya e’tiborini jalb qilishda iborat bo‘lib, potensial mijozlar, qabul qiluvchilar yoki maqsadli auditoriya tahlil qilinayotgan mikromatnlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Ta’lim muassasalari ma’muriyati murojaatlari reklama matnlarining asosiy xususiyatlari va strategiyalari (mahsulot yoki xizmatni sotish xohishi, uning afzalliklari va afzalliklari tavsifi, mijoz va agent rolida ishtirokchilarning muloqoti, vositachilik vaqt va makon va boshqalar)ga mos keladi. Bunda namunadagi matnlar ta’lim muassasalarni aniq reklama qiladi va o‘zida faktik ma’lumotlarni mujassam etadi. Bundan tashqari, barcha bu turdagi matnlar maktab ta’lim muassasalarining veb-saytlarida joylashgan va shuning uchun ham adresant va adresat aloqalar juda aniq Internet rejimida amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abduqodirova Sh, Leksik-semantik razmetkalash nazariyasidagi qarashlar, Modem scientific research:achievements innovations and development prospect Germaniya 2023

2.Toirova G. About the technological process of creating a national corps. // Foreign languages in Uzbekistan. Electronic scientific-methodical journal. Tashkent. 2020, NN№ 2 (31), -8.57-64 https://journal.fledu.uz/uz/2-31- 2020

3.Mirxodjayeva F. Xushmuomalalikni o`rganishda asosiy yondashuvlar. O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2022, [1/9] ISSN 2181-7324.

4.Qurbonova M, Yo`ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: “Universitet”,2014.

5.Taubayev Z.T. Eponyms in political discourse: pragmalingvistic aspect.
Ph.D. dissertation abstract. – Almaty, 2019.

6.Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.

Azizbek IBRAGIMOV,
Urganch davlat universiteti talabasi

ORZU LIRIKASIDA ISHQ MAVZUSI

Annotatsiya: ishq mavzusi azaldan mumtoz adabiyotning asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. G‘azal janrining paydo bo‘lishi va rivoj topishi ham insonlarning his-tuyg‘ularini ifodalash, muhabbatini izhor etish zaruriyatiga borib taqaladi. Ishqiy g‘azallar Atoyi, Lutfiy, Navoiy kabi ijodkorlar qatorida Orzu Urganjiyning bizga yetib kelgan ijodiy merosida ham yetakchilik qiladi. Maqolada shoirning ishqiy g‘azallari va ishq ta’riflangan o‘rinlarga diqqat qaratilgan va misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ishq, dominantlik, ilohiy ishq, lirik qahramon, mubolag‘a, mumtoz adabiyot, majoziy ishq, g‘azal.*

Annotation: the theme of love has long been one of the main themes of classical literature. The origin and development of the ghazal genre goes back to the need to express the feelings of people and their love. Romantic gazelles also dominate Orzu Urganjiy’s lyrics, such as the ones of Atoyi, Lutfiy, Navoi. The article analyzes romantic ghazals and examples written about love.

Keywords: *love, dominance, divine love, lyrical hero, hyperbole, classical literature, figurative love, gazelle.*

Аннотация: тема любви всегда была одной из главных тем классической литературы. Возникновение и развитие жанра газели восходит к необходимости выразить чувства людей, выразить свою любовь. Романтические газели есть среди таких поэтов, как Атойи, Лютфий, Навои, которые также являются лидерами творческого наследия Орзу Урганджи. В статье основное внимание уделяется романтическим газелям поэта и анализируется любовь.

Ключевые слова: *любовь, доминантство, божественная любовь, лирический герой, гипербола, классическая литература, образная любовь, газель.*

Asrlar osha shakllanib, rivoj topib kelayotgan mumtoz adabiyot o‘z ichida ko‘plab mavzularni qamrab oladi. Vatan mavzusi, xalq dardi ifodasi, hajviy, axloqiy-ma’rifiy mavzular orasida ayni ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Chunki shoir zotining qo‘liga qalam tutqazgan ilhom aksar hollarda ishq tufayli paydo bo‘ladi. Xususan, shu paytgacha eng ko‘p istifoda etilgan va hozir ham dominant janrlardan biri- «g‘azal» atamasining paydo bo‘lishi ham oshiqlikka bog‘liq bo‘lib, bu so‘z, aslida, «ayollarga xushomad» ma’nosini anglatishi ham tasodif emas. Ishq-muhabbat mavzusidagi g‘azallar Lutfiy, Atoyi, Navoiy kabi she’riyatimiz ustunlari ijodida juda katta o‘rinni egallagani holda, biz tahlilga tortishni niyat qilgan Orzu Urganjiy ijodida ham o‘z ahamiyatiga ega. Garchi shoir asosiy e’tiborini pand-nasihatga, hikmatlarga qaratgan bo‘lsa-da, uning lirikasida ishq, ayriliq, yor ta’rifi, hijron, visol kabi yondosh mavzular tarannumiga ham alohida o‘rin berilgan. Alisher Navoiy o‘zining «Mahbub ul-qulub» asarida ishqni uch turga bo‘lib, ularni «avom ishqi, xoslar ishqi, siddiqlar ishqi» [1,52] deya nomlagan edi. Ishq so‘zining lug‘aviy ma’nosini izlaydigan bo‘lsak, bu so‘z «arabcha «ashqa» so‘zidan olingan bo‘lib, ashqa – chirmovuq o‘t kabi o‘ralib, yopishib o‘sadigan o‘simlik hisoblanadi. Bu ramziy ma’no ishqning inson qalbiga xuddi shu chirmovuqday o‘ralib turishini anglatadi. G‘azzoliyga ko‘ra, sevgining oliy darajasi ishq deyiladi. Yassaviy esa ishqni ham dard va ham darmon, ham azob va ham rohat, deydi.»[4,43] Mumtoz adabiyot nuqtayi nazaridan ishqiy g‘azallar ikki jihatdan: ilohiy ishq va majoziy ishqqa bo‘lib tahlil qilinadi. Ilohiy ishq o‘z nomi bilan Ollohga bo‘lgan ishqni ifodalasa, bandaning bandaga bo‘lgan muhabbati majoziy ishq deyiladi. Orzu Urganjiy ijodida esa majoziy ishq ta’rifidagi g‘azalning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Muhabbat tuyg‘usini turli shoirlar turlicha ta’rif qilishgan. Navoiy hazratlari ishq haqida so‘z yuritar ekanlar, shunday degan edilar:

Bo‘lmasa ishq, ikki jahon bo‘lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo‘lmasun.[3,143]

Oradan o‘tgan vaqt mobaynida ta’riflar o‘zgara bordi. Har shoir sevgini o‘z hislaricha ifodaladi. Mumtoz adabiyotdan yetarlicha ilmga ega bo‘lgan Orzu Urganjiy ham ishqiy she’rlarida o‘ziga xos yo‘ldan bordi. Uning nafaqat g‘azallarida, balki qit’alarida ham ishq tarannumining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Xususan, quyidagi qit’asida shoir ishqni dard deya ta’riflaydi:

Ishq dardin o‘zga bilmas, mubtalo bo‘lgan bilur,
Jismida jon qolmayin har lahza bag‘rin tilur.

Dardim ilojin so‘rdim: bir tabib dono dedi:
Bilmas ishq dardi ilojin, garchi yuz Luqmon kelur. [2,64]

Jami ikki baytdan iborat qit’ada latif tasvir, voqea va xulosani ham anglashimiz mumkinligi shoirning badiiy mahoratidan darak beradi. 4-6 misrali qit’a yozish va unda pand-nasihat ruhini aks ettirish Navoiy hazratlariga xos uslub bo‘lsa, Orzu Urganjiyda buning uzviy davomini ko‘rishimiz mumkin. Va shoirga xos bo‘lgan didaktik qit’alar qatorida yuqorida keltirgan qit’amiz alohida ajralib turadi. Darhaqiqat, ishqning qanday dard ekanligini anglamoq uchun avval unga giriftor bo‘lish kerak. Tabiblar biror kasallikni davolashlari uchun avval o‘zlari u dard bilan og‘rishlari

shart emas. O‘z qobiliyatlari va bilimlari yordamida ular bemorlarning shifo topishiga sababchi bo‘la oladilar. Lekin ishq dardi shunday og‘ir va davosizki, uni hatto Luqmon kelsa ham, tuzata bilmas. Shu o‘rinda Luqmon ismi bilan talmih-«tarixiy shaxslarga murojaat qilish» san’ati namunasini aniqlashimiz mumkin. Bu shaxs tabiblarning eng kuchlisi, oqil inson sifatida ko‘plab asarlarda tilga olinib kelmoqda. Uni qo‘llash yordamida esa Urganjiy o‘zining badiiy maqsadini yanada ta’sirchan amalga oshira olgan.

Orzu o‘z lirikasida ko‘plab murojaatlardan foydalangan. Lirik qahramon goh yorga, goh saboga nido qilib, o‘z holini bayon etadi. Shoir yorga murojaatning ham go‘zal namunalaridan foydalangan, bir g‘azalida ma’shuqasini «ey mahvashi vafodor» desa, boshqalarida «ayo dilbar», «nigoro», «ey moh», «ayo gulchehra», «ayo sarvi ravon» kabi murojaatlarni qo‘llaydi. Bu bilan yorining dilbarligini o‘ziga xos tarzda ifoda etadi. Shoirning «Iltijo» g‘azalida lirik qahramon «sabo»ga yuzlanadi, unga dardini aytib, yoriga yetkazishni iltimos qiladi. Bu ta’rif bizga beixtiyor Furqat ijodini eslatadi. Birinchi o‘zbek jurnalisti deya ta’riflangan Furqatda qanchalik go‘zal murojaatlar bo‘lsa, Urganjiyning g‘azali ham badiiyat bobida undan qolishmaydi. G‘azal shunday boshlanadi:

Sabo, jonona arzim bir dili afkor, deb ayting,
Firoqing shiddatidan doimo bemor, deb ayting. [2,38]

Biz yuqorida tahlilga tortgan qit’ada ham, bu g‘azalda ham oshiqning ahvoli bemorlikka qiyos etilgan. G‘azal davomida ma’shuqasiga yetolmagan oshiq holi uzoq yillik hastaning holiga qiyos etiladi. Tabib esa bu hastaga shifo sifatida yor visoliga erishmoqni tavsiya etadi. Shu tarzda oshiq holi yor ta’rifi ila baytma-bayt davom etadi va shoirning xitobi yoriga yetib borishiga umid bilan tugallanadi.

Orzu Urganjiyning ishqiy g‘azallarida yor ta’rifi ustunlik qiladi. Har bir g‘azalda go‘zallik timsoli bo‘lgan ma’shuqaning sifatlariga alohida o‘rin beriladi, hatto boshdan oyoq ta’rifga bag‘ishlangan g‘azallarni ham uchratishimiz mumkin. Uning «Aylagach» radifli g‘azalining ayrim baytlariga diqqat qaratsak:

Hushimni oldi bir pari husnin namoyon aylagach,
Tanda madorim qolmadi zulfin parishon aylagach.

So‘zlarda og‘zi g‘unchasi uzra erur obi hayot,
O‘lmas kishi bir totsakim, la’lini xandon aylagach. [2,14]

Mumtoz adabiyotda zulfning parishonligi, labning la’lga o‘xshatilishi an’anaga aylanib ulgurgan. Ammo Urganjiyda ayni shu an’ananing ham original o‘zlashtirilishini ko‘ramiz: go‘zal yorning jamoli, ya’ni zulfi lirik qahramonni hushdan ketishga majbur qiladi, qimmatbaho qizil tosh-la’l kabi labi esa obi hayot-abadiy tiriklik suviday o‘zidan bir totgan odamni o‘limdan ozod qiladi. Shunga o‘xshash yor chiroyi ta’rifini «Hanuz» g‘azalida ham uchratamiz:

Qoshi kamon, o‘q kiprigi, jallodmi yo ikki ko‘zi,
Qilgach nazar, jon qolmayin jism ichra nimjonman hanuz. [2,30]

Go‘zallik belgilarini e’tirof etishda qoshning kamon-yoyga o‘xshatilishi(egikligi uchun), kiprikni paykon-o‘qqa qiyoslash, ko‘zlarni qoralikda va beayov mubtalo etishda jallodga mengzash mumtoz adabiyotimizda ming yillardan beri an’anaga aylanib ketgan. Ijodda yangilik qilish bilan birga an’analarni ham qo‘llash shoirlarda uchraydigan holat, bunday holni Orzu Urganjiyda ham ko‘rib o‘tdik. Keyingi misrada esa ana shu go‘zallik belgilari tufayli oshiqning jismiga dard cho‘kkani, nimjon holga kelgani aytib o‘tiladi. Demak, Urganjiy ijodida bir-birini to‘ldirmaydigan, izohlamaydigan va qofiya yoki vazn talabi bilan qo‘yilgan sun’iy ifodalar deyarli uchramaydi. Shoirlik iste’dodi tasvir badiiyatini yetarlicha qoplay olgan.

Hech bir shoirning ishq haqida yozishi besabab emas, sevgi ko‘ngilni ishg‘ol etsa, insonni she’r bilan mashg‘ul qilib qo‘yadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, sevib qolgan eng jiddiy insonlar ham bir qancha satrlar bitib,shoirga aylangani hayotda uchrab turadi. Didaktika yordamida insonlarni, o‘quvchilarini odob-axloqqa, ma’rifatga chorlab kelgan shoirning ishq haqida takrorlanmas misralar bitishi ham bejiz emas. U ishqning an’anaviy, shu bilan birga o‘ziga xos ifodasini quyma satrlarda aks ettirgan. Orzu Urganjiy lirikasi samimiy hislarni ifoda etgani uchun ham dillarda mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
2. Orzu. Hikmatlar gulistoni. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi, 2015.
3. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.
4. Ismoilova Sh.S. Azim Xoja hikmatlarida ishq falsafasining badiiy talqini: Magistrlik dissertatsiyasi. – Farg‘ona, 2021.

Sevinch MUXTOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich talabasi

DEVONAI HAQGO‘YLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada badiiy nasr poetikasidagi telba, darvesh obrazlarining vazifasi haqida mulohaza bildiriladi. Xususan, “O‘tkan kunlar” romani, “Shum bola” va “Galatepaga qaytish” qissalaridagi obraz mohiyati tahlillar asnosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *obraz, devona, g‘oyaviy yuk, haqiqat, mohiyat, syujet*

Annotation: in this article, the function of the madmen characters in artistic prose poetics will be discussed. In particular, the meaning of the image in the works “Bygone days”, “The Rascal” and “Galatepaga qaytish” (“Return to Galatepa”) will be analyzed.

Keywords: *image, madness, ideological load, truth, essence, plot*

Аннотация. в статье рассматривается функция образов сумасшедшего, дервиша в поэтике художественной прозы. В частности, анализируется сущность образа в романах “O‘tkan kunlar”, “Shum bola” и “Galatepaga qaytish”.

Ключевые слова: *образ, безумие, идеологическая нагрузка, истина, сущность, сюжет*

Ijodkor qo‘liga qalam olar ekan, asaridagi obrazlarga ma’lum ma’noda g‘oyaviy ma’no yuklaydi. Ya’ni hech bir obraz bejiz asar kompozitsiyasida harakatlanmaydi. Har birining o‘z maqsadi, o‘z aytar so‘zi va vazifasi bor. Shu jumladan, jahon adabiyotida ham, o‘zbek adabiyoti namunalarida ham ko‘p marta murojaat qilingan telbalar obrazi asar tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotiga taalluqli bo‘lgan uch yetuk asar syujetidagi darvesh va devonalar obrazi tahlilga tortilgan.

Telba obrazi o‘zbek adabiyotidagi ilk roman – “O‘tkan kunlar” romanida uchraydi. Romanda “o‘z zamonasining mashhur devonasi” deya ta’riflangan. Qovoq devona obrazi bor: “Bu devona Toshkandning barchasiga ma’lum; beklardan, boylardan; qisqasi, shaharning katta-kichigidan o‘ziga ixlosmandlar ortdirg‘an va ko‘blarning tarafidan qilg‘an karomatlari rivoyat etilgan bir majnun edi”. [1;153] Yozuvchi ushbu qistirma epizoddan mohirona foydalangan. Dastlab, muallifning obraz yaratishdagi o‘ziga xosliklariga e’tibor bergan holda fikr bildirilganda masala mohiyati oydinlashadi.

Ma’lumki, yozuvchi ma’shuqa obraz - Kumushni tasvirlashda ohorli tashbehlardan, metaforalardan ko‘p o‘rinda foydalangan. Zaynabning portretini ifodalashda esa “lo‘ppos (to’ladan kelgan; qo‘pol), o‘nta so‘zga arang javob qaytaradigan” kabi sifatlarni qo‘llaydi. Demak, ushbu o‘rinlardan muallifning o‘zidagi hissiyotni, ya’ni Kumushga bo‘lgan muhabbatni sezish qiyin emas. Yozuvchi Otabek va Kumushning to‘y tafsilotlarini asarda batafsil tasvirlagan: unashtiruv jarayoni, qizlar bazmi, mahr masalasi, Kumushbibining to‘yoldi erkaliklari, Otabekning hayajonlari. Otabekning Zaynab bilan to‘yi bo‘lganligini esa Qovoq devona haqidagi bobdangina bilish mumkin. Ya’ni muallif Otabekning ikkinchi bor uylanishini jiddiyroq bir personaj tilidan emas, balki aynan devona tilidan ayttiradi. Bu haqida atoqli o‘zbek yozuvchisi Xurshid Do‘stmuhammad shunday deydi: “Otabek bilan Kumushga, ularning ilohiy muhabbatlariga cheksiz mehr qo‘ygan va bu mehr-muhabbatni kitobxonga ham yuqtira olgan nozikta’b adib Otabekning keyingi uylanish voqeasini batafsil yozishga tili bormasligi ayon edi”.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida telbalar haqida shunday jumla uchraydi:

“Shayx debkim, - “Urma bu ma’nida dam,

Telbadurman, telbaga yuqtur qalam”. [8;328] Ushbu misralardan anglash mumkinki, telba odam uchun ilohiy ahkomlar ham, ijtimoiy qonun-qoidalar ham aql sohiblarinikidan farqli bo‘ladi. Telba odam qachon, qayerda va kimning oldida bo‘lishdan qat’i nazar haqiqatni ayta oladi. U uchun ikkiyuzlamachilik, soxtalik begona. O‘ylagani qadar gapiradi, o‘z fikrlarini bor holicha ifodalaydi: “Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog‘ini ko‘rsatib: - Manov Musulmon cho‘loq, - dedi, uning yonidag‘i kichkina tomosha qovoqni turtib: bunov, Xudoybachcha (Xudoyorbachcha), - dedi, suv qovog‘ini erkalab “Nor kalla” (Normuhammad qushbegi), - dedi”. [1;87] Yozuvchi davrdagi dolzarb muammolarga sabab bo‘layotgan kishilar nomini ham devona obrazi tilidan aytib oladi. Shuningdek, Qovoq devona obrazi orqali ko‘z og‘rig‘i Otabekning uylanganini, kelin bo‘lmish Toshkentdan ekanini bilib oladi va ana shu g‘oyaviy maqsadni bajargandan keyin Qovoq devona roman syujetida boshqa ko‘rinmaydi.

G‘afur G‘ulom qalamiga mansub “Shum bola” qissasida o‘z tarixiga ega bir necha jinnilar nomi keltirilgan. Ularning nima sababdan jinni bo‘lib qolganiga e’tibor qaratilganda nozik ma’nolarni ilg‘ab olishimiz mumkin. Muallif jinnilar obrazi orqali zamonaning kamchiliklari haqida aytmoqchi bo‘ladi. Masalan, Karim jinni haqida shunday deyilgan: “U

ilgari bo‘zchi ekan, chit ko‘payib ketganidan keyin bo‘z o‘tmay qolib, bozori kasodga uchrab, bola-chaqasini boqolmay, jinni bo‘lib qolibdi”. [2;6] Ushbu matn orqali yetishmovchilikdan aqldan ozib qolgan obrazni ko‘ramiz. Hunarmand-kosiblarning ishi yurishmay hattoki oilasini yetarlicha ta’minlay olmaslik hissi kishiga qanchalar ruhiy ta’sir qilishi ayon. Bundan o‘sha paytlarda xalqning iqtisodiy jihatdan ahvoli ancha og‘ir bo‘lganligini anglab olish qiyin emas. Xolparang jinni haqida gap ketar ekan: “Qo‘qonda baxmal to‘qir ekan. Keyin do‘kon-dastgohiga o‘t tushib, jinni bo‘lib qolibdi”, - deyilgan. [2;6] Ushbu tasvir orqali muallif mehnatkash, ammo jabrdiyda xalq hayotini ko‘rsatib bermoqchi bo‘lgan. Qisqa qilib aytganda, telbalik yechimsiz vaziyatda qolgan inson uchun yechim vazifasini o‘tagan. Shuningdek, asarda inson mavqeyining qadrsizlanishiga ishora qiluvchi o‘rinlar ham bor. Mayramxon jinni “Temir-tersak asboblar zavodlardan chiqa boshlagandan keyin “sinib” jinni bo‘lib qolganlardan”, - deyiladi. [2;7] Mahalliy hunarmandlarning Rossiya fabrikalari bilan raqobat qila olmay qolishi, natijada kosiblarning kasodga uchrashi, ishsizlik insonni har kuyga solishi haqidagi g‘oya Mayramxon jinni obrazi orqali berilgan. “Juft kaptarga hukumatdan tekkan edi, Kaufman bormi, Mochalov bormi, Nabi o‘g‘ri degan mirshab bormi - hammasini bir qozon qilib, martabasining pasti balandligiga qaramay so‘kaverar edi”. [2;6] Shu o‘rinda yozuvchi yuqori mansab egalaridan ham hayiqmay, jamiyatda ochiq-oydin ko‘rinib turgan voqelikka nisbatan boshqalar ayta olmagan gaplarni, haqiqatlarni telba obrazi tilidan ayttiradi. Quyidagi misralar ham buning yaqqol dalili: “Kunlardan bir kuni Tojixon jinni bitta ketmon dasta bilan o‘tgan-ketganni quvlab urib-so‘kib: “Hammang bir tomonga yur, tarqalib yurma!” , - deyar edi. Bunga Olim jinni: “Ahmoqsan, Toji, ahmoqsan. Yer, axir, taroziga o‘xshagan narsa bo‘ladi, hamma bir tomonga yursa, yer barkashday bir yoqqa og‘ib, hammamiz Qurdum daryoga g‘arq bo‘lib ketamiz-ku, - dedi”. [6;6-7] Birlasha olmayotgan xalq timsoli ushbu ikki devona dialogi orqali kinoya bilan berilgan. Darveshlarning dadilligi, haq gapni eng qaltis vaziyatlarda ham ayta olishi diqqatga sazovor. Darhaqiqat, atoqli yozuvchi O‘tkir Hoshimov aytganidek: “Telbalarga ta’zim qiling! Yuzta donishmand aytolmagan haqiqatni bitta telba aytadi”. [6;5] Ushbu obraz orqali yozuvchining ko‘nglidagi nozik asrorlarni yetkazishga harakat qilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, yozuvchi ayni ruhiy xasta obrazlarini keltirish orqali jamiyatdagi illatlarni tasvirlagan, deb ayta olamiz.

Shuningdek, Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” nomli qissasida ham ayni ruhiy holatning sharqona obrazi mavjud. Yozuvchi uni andisha bilan telba yoki devona deb emas, “Murod amaki” deb ataydi. Ushbu qissada keltirilgan telba obrazi ham adibning muayyan maqsadiga xizmat qilgan. Asar bosh qahramoni Toshpo‘lat G‘aybarov ona qishlog‘idan chiqib ketganiga ancha bo‘lgan edi. U shahar muhitiga moslashib, yaqinlaridan, hamqishloqlaridan ham jisman, ham ruhan uzoqlashib ketgan. G‘aybarov otasi o‘lganini eshitgandan so‘ng uyiga kelganida Murod amaki uni tanimaydi:

- Sen kimsan? - deb so‘radi Murod amaki. -Seni tanimadim.

- Mavlonning akasiman, - dedi G‘aybarov.

- Meni qayoqdan bilasan?

- Men Toshpo‘latman, amaki, Eslaysizmi, Toshpo‘lat? Mavlonning akasi Toshpo‘lat!..

- Mavlonning otasi o‘ldi, - dedi Murod amaki. [3;50]

Bolaligi shu amakining yonida o‘tgan Toshpo‘latni Murod amaki dastlab eslay olmaydi. Murod amakining G‘aybarovni tanimasligi - G‘aybarovning o‘zligini yo‘qotganligidandir. Shaharlashib ketgan, natijada o‘z qadriyatlarini unutayozgan, milliy ruhini his qilmaydigan odam xalq tomonidan tan olinmaydi. O‘zini anglagan odam qayerda bo‘lmasin o‘tmishini, ajdodlarini, qishlog‘ini unutmasligi kerak. Milliy g‘ururini saqlab qolishi kerak! Darhaqiqat, Murod amaki - elning odami: “Go‘yo u azal-abad Galatepaning xasmi, go‘yoki ming yillardan beri shu yerda yashab keladi”. [3;230] Murod amaki bolalikdagi beg‘uborligi bilan qolib ketgan obraz, u uchun soxtalik begona. Darhaqiqat, G‘aybarov ta’ziyadan so‘ng Toshkentga qaytib bormaslikka, o‘z qishlog‘ida qolish haqida o‘ylay boshlaydi: “U birdan o‘zini tug‘ilgan uyi va umuman, Galatepadan ayri ko‘rdi, so‘ng yolg‘izlik vahmini bosmoq istab, o‘zini tag‘in Galatepaga - bir mahallar zarracha nadomatsiz tashlab ketgan bir parcha makonga qaytadan payvand qilmoqchi bo‘ldi”. [3;223] Ushbu fikrlar Toshpo‘latning xayollarida aylanishi bu uning o‘zligiga qaytayotganining belgisi edi. Ana shu jarayonlardan so‘ng asar oxirida Murod amaki G‘aybarovni taniydi:

- Rais o‘lmagan... Sen uning o‘g‘lisan-ku, dedi Murod amaki.

G‘aybarov hayratlandi. Murod amaki soppa-sog‘day tiyrak, osuda boqib turardi.

- Sen Toshpo‘latsan, - dedi Murod amaki. - Raim raisning o‘g‘lisan, seni tanidim. [3;237]

Otasining o‘limi va undan keyingi jarayonlar G‘aybarovni poklagach, Arastu ta’biri bilan aytganda, katarsis vazifasini o‘tagandan keyin bosh qahramon o‘zligiga qaytadi. O‘zini qayta taniydi. Demak, ushbu qissada ham telba obrazi asar markazida turgan shaxsdagi evrilishlarni ko‘rsatishda muhim personaj bo‘lib xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, chin ma’noda yaxshi yozilgan asardagi har bir obraz - alohida olam. Mualliflar o‘z asarlarida nainki ziyoli insonlarni, balki ruhiy xasta personajlarni ham o‘z g‘oyaviy maqsadlariga xizmat qildira olishadi. Telbalarning ham o‘z olami, aql kishilariga-da o‘rnak bo‘la oladigan jihatlari, qolaversa, ular orqali adibning jamiyatga aytar

muhim so‘zi bor. Ushbu obrazdan unumli va o‘rinli foydalana olish yozuvchilarning mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – T.: Navro‘z, 2019.
2.G‘afur G‘ulom. Shum bola. – T.: Qaldirg‘och, 2018.
3.Murod Muhammad Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. – T.: G‘afur G‘ulom, 2009.
4.O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Davlat, 2018.
5.Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. – T.: Akademnashr, 2023.
6. Узоқ Жўрақулов. Назарий поэтика масалалари. Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом, 2015.
7. Арасту. Поэтика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011.
8. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Т.: Ёшлар матбуоти, 2022.
9.Баҳодир Каримов. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
10. Тўхта Бобоев. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.

Dilnura MADAMINOVA,
Urganch davlat universiteti talabasi
Email: madaminovadilnura56@gmail.com

ISAJON SULTONNING “TOSHKELINCHAK” HIKOYASI TAHLILI

Annotatsiya: har bir yozuvchining qalb olami betakror, tasvir yo‘sinlari bir-biriga o‘xshamaydi, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Toshkelinchak” hikoyasi tahlil qilinadi, shuningdek, hikoyaning mohiyati, yozuvchi mahorati, obrazlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, o‘zbek hikoyachiligi, badiiy asar mazmuni va g‘oyasi, tahlil va talqin, ijtimoiy fojia, yozuvchi mahorati.*

Аннотация: мир души каждого писателя уникален, образные пути не похожи друг на друга, одно не повторяет другого. В этой статье анализируется рассказ Исаджана Султана “Ташкелинчак”, а также рассказывается о характере рассказа, мастерстве писателя, образах.

Ключевые слова: *художественное произведение, узбекская сказка, содержание и идея художественного произведения, анализ и интерпретация, социальная трагедия, писательское мастерство.*

Annotation: the world of the soul of each writer is unique, the ways of the image do not resemble each other, one does not repeat the other. This article analyzes the story of Isajan Sultan “Toshkelinchak”, and also talks about the essence of the story, the skill of the writer, the characters.

Keywords: *fiction, Uzbek storytelling, content and idea of fiction, analysis and interpretation, social tragedy, writer's skill.*

Adabiyot ko‘ngil ochish vositasi ham, bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazadigan ermak ham emas. Badiiy asar – yurakning yurak bilan so‘zlashuvidir. Yozuvchi o‘z asarida hayot haqiqatini isbot qilishi emas, ko‘rsatishi lozim. Badiiy tilni egallash ulkan qunt-sabotni, mehnatni talab qiladi. Yozuvchi keng ma’lumotli, bilimdon bo‘lishi barobarida til asoslarini puxta o‘rganishi, o‘zlashtirishi lozim. Mirmuhsin aytganidek, “tili no‘noq kimsa har qanday narsa yozmog‘i mumkin, ammo chinakam adib bo‘lolmaydi”. Ijodkor mahorati asar badiiyatining tarkibiy qismidir. “Badiiy mahorat – so‘z san’atkori asarlarining ichki nurlanishlarini o‘zida mujassamlashtirgan bamisoli oftob linzasi”.[6:172]

“Inson borliqning jamuljam go‘zalligi, eng oliy nafosatning ziyoparvar manbayi ekan, adabiyot shu jamuljam go‘zallik ifodachisidir”, – deb yozadi Ibrohim G‘afurov[6:174]. Hozirgi o‘zbek adabiyotida ana shu ziyoparvar inson obrazi qanday aks ettirilyapti? Bu obrazning porillab turgan qirralari nimalarni ifoda qiladi? Badiiy asarni, chunonchi, yozuvchining hayot va odamlarga muhabbati, iste’dodi, mahorati hamda yozuvchi qalamining sehri, mutanosiblik va me’yor, muhit va manzara, ibtido va yechim zamonaviy adabiyotda qay shaklda tasvirlanyapti?

Quyida Isajon Sultonning “Toshkelinchak” hikoyasi tahlili orqali ijodkorning hikoyaga yuklagan ma’no va mazmunni, g‘oya va maqsadini aniqlashga harakat qilamiz. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo‘llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog‘liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega.

Yozuvchining “Toshkelinchak” hikoyasi qachonlardir bo‘lib o‘tgan muhabbat rivoyati haqidadir. Isajon Sulton bu rivoyatning yoyilib ketishini asarda o‘ziga xos chiroyli chizgilar bilan beradi. Nazarning qishloq chetidagi ziyoratgoh sanalgan qadim tosh ustida o‘z xayollari bilan band bo‘lib kun o‘tkazishini ta’riflar ekan: “Ziyoratgoh yonidan katta yo‘l o‘tgan, bir yog‘i O‘shdan Ergashtomga, bu yog‘i Qamchiq dovoni oralab, Toshkentdan Qozog‘istonning bepoyon cho‘llariga qarab ketadi. Turli-tuman uzun-qisqa arobalar qatnovi bir zum bo‘lsin tinmaydi”, – deydi. Ushbu jumlalardan anglash mumkinki, “Toshkelinchak” hikoyasi eski rivoyatning badiiy talqini sifatida yozma adabiyotga olib kirilgan. Hikoya syujetiga e’tibor

qaratadigan bo‘lsak, hikoyaning har bir satriga milliy ruh, an’analar va urf-odatlar singdirilgan. Ayni paytda, yozuvchining ijodiy o‘ziga xosligini ham ko‘rishimiz mumkin. “Toshkelinchak” hikoyasida dastlab sodda va to‘pori qishloq yigiti tasvirlangan bo‘lsa, voqealar rivoji davomida bu to‘pori yigit ishqqa mubtalo bo‘ladi. Asar boshida Nazarga shunday ta’rif beriladi:

“Bizlardan bir-ikki yosh katta Nazar baquvvat, chayir, quyuq qoshlari chimirilgan, qora ko‘zlarida o‘t chaqnab turadigan shijoatli yigitcha edi.”

“O‘zg‘irlikda va bezorilikda ham unga bas keladigan kimsa yo‘q. Kimningdir tovug‘ini o‘g‘irlab ketgan ham shu Nazar. Birovning itini urgan ham shu. Bizga o‘xshagan bolalar biror noma’qul ish qilsak, hammadan dakki eshitardik, ammo o‘sha noma’qulni Nazar qilsa, kattalar “Ha, endi” deb bosh chayqab qo‘yaqolishardi.”

“Nazarning otasi dalada suvchi, onasi uyda, mehnatkash kishilar edilar. Bizlar gohida ota-onamizning buyurgan ishlaridan bo‘yin tovlasak ham, Nazar sira unday qilmasdi, qaytanga, yumushlarni jon jahdi bilan, berilib bajarardi. Shu sababli otasi ham, onasi ham uni juda yaxshi ko‘rishardi.”

Bosh qahramonimiz xarakterini ochib berishda, yozuvchi ortiqcha dabdababozlikka berilmay xalqona, qahramonimizga mos so‘zlar bilan shunday ta’riflaydi: “Birgina u shunaqa edi: hech kimni nazar-pisand qilmaydigan, mag‘rur, chaqnoq, jasur Nazar.” Ishq uning xarakterini mutlaqo o‘zgartirib yuboradi. Nazarning Ummugulsumni sevib qolishi, unga ko‘nglini ochishi, rad javobini olishi va xarakteridagi ijobiy o‘zgarishlar... Kitobxon Nazarning sevgisidan hikoya qahramonlari bilan birgalikda xabar topadi: “Nazarning kimni yaxshi ko‘rib qolgani ma’lum bo‘ldi: narigi ko‘chadagi Samad novchaning qizi Ummugulsum ekan. E, dedim hafsalam pir bo‘lib. Cho‘pday ozg‘in, sochi kalta bir qiz-ku? Nimasi Nazarni mahliyo qilganini bilolmas edim” yoki “O‘sha kuni Nazar qo‘shnining g‘o‘zapoyasini yoqib yubordi, keyin Samadning sigirining qorniga panshaxa tiqib oldi. Daraxtlarning mevali katta shoxlarini sindirib-sindirib tashladi, kuchuk-mushuklarni urdi. Bekor qildi, shu to‘s-to‘polon tufayli hamma Nazarning sevgisidan xabar topdi...”

Nazarning Ummugulsumga muhabbati xalq og‘zaki ijodidagi devning parilarga oshiq bo‘lish motivlariga o‘xshab ketadi. “Qarang-a, qanaqa bezori bola edi, ko‘ngil qo‘ydi-yu bosildi-qoldi, – deyishardi kishilar”. Asarda Ummugulsumning boshqaga turmushga chiqib ketishi, shundan keyin Nazarning odamovi bo‘lib qolishi, keyinchalik uning ko‘chalarda ko‘rinmay qolishi odamlar nazariga tushadi. Qizning qarindosh-urug‘lari Nazarga undan voz kechish talabini qo‘yganda Nazarning “– Axir, men sen bilan bitta bo‘lib qolganman-ku, qanday qilib ketay, – dermish. – Axir, ko‘zim sendan boshqani ko‘rmaydi-ku? Shafaqni rangiga qarasam ham seni ko‘raman. Oyga qarasam ham, quyoshga qarasam ham seni ko‘raman. Qayga boqsam, sen borsan”, deya bergan javobida muhabbatning kuchi insonni qay ko‘yga solganiga e’tibor qilsak, ikkinchi tarafdan adibning bu obrazni qadim sharq adabiyotidagi Majnun obrazi bilan sintezlashtirganini ko‘rish mumkin. Bu hikoyada roviy, Nazar, Ummugulsum, Murod, Samad kabi obrazlarni uchratasiz. Voqealar, Nazarning ahvoli roviy tilidan hikoya qilinadi. Roviy Nazarga hech kim, u faqat hikoya qiluvchi. Lekin roviy zimmasiga bu ishq qissasini kitobxonlarga yetkazish yuklatilgan. Bu holatni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, kuzatgan roviy bu vazifani yaxshi bajaradi. Roviyning voqealarni so‘zlab berishi, kitobxon onggida uyg‘onishi mumkin bo‘lgan savollarga javob berib ketishi ham hikoya syujetiga mohirlik bilan kiritilgan: “Toshkelinchakning Ummugulsumga nima daxli bor? Ota-ona irodasiga bo‘ysunib, boshqa bir xonadonga palaxmon toshiday otilib ketayotgan bo‘lsa? Shu kuni Nazarning umid gavhari ham toshga urilganday chil-chil sindi, shodon davra uning holidan keyinroq xabar topdi.”

“Toshkelinchak” – qayg‘uli, hasratli ishq dostoni. Isajon Sulton bu hikoyasi qahramoni Nazar qiyofasida asrlar osha adabiyotimizda yashab kelayotgan Majnunni aks ettirgan. Uning ham Layli ishqida ado bo‘lgani kabi hikoya qahramonining Ummugulsum hajrida kuyib, o‘rtanib yonishini tasvirlagan. Ummugulsum ikkinchi farzandini dunyoga keltirolmay olamdan o‘tadi. Nazar esa Toshkelinchak qabri yonida jonini Haqqa topshiradi.

Keltirilgan ushbu hikoyadan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi doimo hayotdan nimadir oladi. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri hayotni tasvirlamaydi, balki hayotni qayta yaratadi. Isajon Sulton hikoyalari allaqachon har bir kitobxonning ko‘nglidan joy olib ulgurgan, uning hikoyalari hayotning asl mazmunini anglashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G‘. Adabiy asar tilini o‘rganish haqida. – Toshkent. Fan.1966.
2. I.Sulton. Asarlar. Hikoyalar. 1-jild. Toshkent: G‘afur G‘ulom. 2017. 381-b.
3.Hamdam U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi,2002. 200-b.
4.Isajon Sulton nasri badiiyati: ilmiy maqolalar, taqriz, adabiy suhbatlar, maktublar/ to‘plab nashrga tayyorlovchilar: G.Sattorova, M.Qo‘chqorova. - Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017. Risola. –T., Ma’naviyat, 2000. 112-bet.
6. N.Rahimjonov. Badiiy so‘z estetikasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 236 Q.Yo‘ldoshev. So‘z yolqini. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 265-b.
7. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: “Sharq” NMAK, 2007. 305-b.

Dostonbek AXMADOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi
dostonbekaxmadov2005@gmail.com

MIRZAKALON ISMOILIYNING 30-YILLAR DAVRI IJODI
(“So‘na” romani tarjimasi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada mashhur tarjimon Mirzakalon Ismoiliyning o‘tgan asrning 30-yillaridagi tarjimaviy ijodi ingliz yozuvchisi E.L.Voynich qalamiga mansub “So‘na” romani tarjimasi misolida tadqiq etiladi. Asar tarjima qilingan davrdagi unga bo‘lgan talab va retsepsiya masalasi misolida Ismoiliy ijodiy laboratoriyasiga kirib borish imkoniga ega bo‘lamiz. Mutarjim ijodiy evolyutsiyasini kuzatish maqsadida asar tarjimasining turli yillardagi nashrlari o‘zaro qiyoslanadi.

Kalit so‘zlar: *tarjimon, retsepsiya, nashriy tafovut, tarjimon mahorati, realiya tarjimasi.*

Аннотация: в данной статье рассматривается переводческая деятельность известного узбекского переводчика Мирзакалона Исмаили в 30-е годы прошлого века на примере перевода романа “Овод”, написанного английским писателем Э.Л. Войничем. У нас будет возможность войти в творческую лабораторию Исмаили на примере вопроса о ее востребованности и рецепции в период перевода произведения. Чтобы проследить творческую эволюцию переводчика, сравниваются издания перевода произведения разных лет.

Ключевые слова: *переводчик, рецепция, издательское отличие, переводческое мастерство, перевод реалий.*

Annotatsiya: this article examines the translation activities of the famous Uzbek translator Mirzakalon Ismaili in the 30s of the last century using the example of the translation of the novel “The Gadfly,” written by the English writer E.L. Voynich. We will have the opportunity to enter Ismaili’s creative laboratory using the example of the question of its relevance and reception during the period of translation of the work. To trace the creative evolution of the translator, editions of the translation of the work from different years are compared.

Keywords: *translator, reception, publishing distinction, translation skills, translation of realities.*

Kirish. Mashhur yozuvchi va tarjimon Mirzakalon Ismoiliy mutarjimlik mahoratining yaqqol namunasi bo‘lgan ingliz adibasi Etel Lilian Voynichning mashhur “So‘na” romani o‘tgan asrning 30-yillarida o‘zbekchalashtirilgan.

Italiyani bosqinchilar zulmidan xalos qilish ishiga o‘z umrini tikkan yosh italyan vatanparvarlarining inqilobiy kurashlar bilan to‘la tahlikali va porloq hayoti haqida hikoya qiluvchi bu roman dastlabki besh yilliklar zahmatida toblangan barcha mehnatkashlarning, xususan yoshlarning eng suyukli asarlaridan edi. Zero, bu romanning badiiy quvvati, ruhi shu qadar jozibaliki, u Artur, Jemma, Martini singari “Yosh italiyaliklar”ning o‘tli orzu-armonlari, ezgu maslaklari yo‘lidagi muqaddas kurashlarini naql etibgina qolmay, o‘quvchini shu armonlar va suronlar dunyosiga olib kiradi, uning qalbiga ham nurli tilaklar baxsh etadi. “So‘na” romani, E. L. Voynich ijodining tadqiqotchisi Yevgeniya Taratuta yozganidek; uni o‘qib chiqqan har bir kishining hayotida bir davr bo‘lib qoladi [1: 6].

Mazkur roman 1934-yilda o‘zbek tilida nashr etildi [2]. Asar muvaffaqiyat bilan tarjima qilinganligi tufayli o‘quvchilar orasida katta e’tibor qozonadi va biron yil o‘tar-o‘tmas tanqis kitobga aylanadi. Buni hisobga olgan mutarjim asarni jiddiy tahrir qiladi va roman 1936-yilda yana qayta bosilib chiqadi.

“So‘na” romanini nima sababdan tarjima qilganligim, bu romanni nima uchun bu qadar sevishim, undan olgan shaxsiy taassurotlarim haqida ko‘p so‘raydilar, – degan edi Mirzakalon Ismoiliy. – Menga o‘z maslagi yo‘lida qat’iy intilib, dunyoning barcha azoblarini totgan yosh Arturning yorqin xarakteri, uning o‘z otasi – g‘oyaviy dushmani bo‘lmish katolik ruhoniysi Montanelli bilan yashirin va oshkor muhorabasi tasviridagi dramatik vaziyatlar, ona-yurt ozodligi yo‘lida xazon bo‘lgan pok muhabbatining so‘zsiz marsiyasi... bularning hamma-hammasi yoqadi. Har gal roman tarjimasini qayta tahrir qilib, birmuncha ichki qoniqish bilan nashrga topshirsam-da, bosilib chiqqach, yana takror-takror ko‘zdan kechiraman, tarjimada hali ham nimalardir yetishmagandek tuyuladi, bu tarjima ustida yana ishlagim, uning butun jozibasini, nazokatini ona tilimda to‘la jonlantirgim keladi. Uni xuddi o‘zim yozgandek sevaman...” [3: 150]

Mana shu sevish, asardan o‘zi olgan bahrani boshqalarga ham mumkin qadar to‘la yetkazish ishtiyoqi “So‘na” tarjimasi muvaffaqiyatining omili bo‘ldi. Mazkur roman xorijiy ellar hayoti bilan o‘zbek o‘quvchisini tanishtiruvchi go‘zal bir asar bo‘libgina qolmay, ayni zamonda, chet el adabiyotining birinchi o‘girilgan yirik namunasi sifatida ham qadrlidir.

Asosiy qism. “So‘na” tarjimasi xususida bir qator tadqiqotlarda maxsus to‘xtalib o‘tilganligini e’tiborga olib, bu o‘rinda tarjima variantlarini qiyoslash, mutarjimning tahrir va to‘ldirishlarini kuzatish bilan cheklanamiz.

“Артур сидел в библиотеке духовной семинарии в Пизе и присматривал стопку рукописных пропе-

ведей” [1: 45].

“So‘na” romanining ruscha tarjimasi shu jumla bilan boshlanadi. Bu gap 1934-yilgi tarjimada “Artur Piza ruhoniy seminariyasining xonasida o‘tirib, bir to‘da qo‘lyozma va’zlarini ko‘zdan o‘tkazar edi” [2: 7] tarzida o‘girilsa, 1936-yilgi tahrirda esa “Artur Piza ruhoniy seminariyasining kutubxonasida o‘tirib bir to‘da qo‘lyozma kitoblarni ko‘zdan kechirmoqda edi” [4: 6], deb birmuncha ma’qul holatga keltiriladi. Biroq “пропеведь” ni “kitob” so‘zi bilan ag‘darish mutarjimga o‘rinsiz tuyuladi va 1956-yilgi (romanning keyingi nashrlari aynan shu nashr asosida tayyorlangan) tarjima varianti, nihoyat, asliyatga ancha muvofiq bo‘lib chiqadi:

“Artur Piza diniy seminariyasining kutubxonasida bir to‘p qo‘lyozma va’zlarni ko‘zdan kechirmoqda edi” [5: 7]. So‘nggi tahrirda avvalgi nashrlardagi “o‘tirib” so‘zining qisqartirib tashlanishi mutarjimning asar tili ustida jiddiy mehnat qilganini ko‘rsatadi. Zero, garchi asliyat matnida (ruscha tarjimada) “Артур сидел...” deyilgan bo‘lsa-da, katta kontekst – asar voqealaridan ma’lum bo‘lishicha, Artur biron asarni jiddiy mutolaa qilayotgani yo‘q, balki ustozi uchun qandaydir va’znomani qidirmoqda. Binobarin, bu holat tasviri uchun qahramonning “o‘tirishi” shart emas.

30-yillarda xorijiy ellar adabiyotining tarjimalari orqali chet mamlakatlar, jumladan Yevropa xalqlari, ularning urf-odatlari bilan ilk bor tanishayotgan keng o‘quvchilar ommasiga, masalan, katolik mazhabi, uning peshvolari, ularning o‘ziga xos atamalari hali noma’lum edi. Ushbu romanda tasvir etilgan voqealar yuz bergan chog‘larda Rimda papa hukumat boshlig‘i lavozimida bo‘lib, barcha buyruq va hukmlar uning nomidan ijro etilar edi.

Masalan, tiqilinch bozor ichida Artur va uning isyonchi sheriklarini tutib olish uchun oshiqqan politsiyachilar boshlig‘i papa nomidan amr etadi:

“Прочь с дороги! – крикнул капитан. – Именем его святейшество!” [1: 256]

“Папа” so‘zi va uning mohiyati o‘quvchilarga majhul bo‘lganligi sababli bu jumla dastlabki tarjimada jo‘nlashtirib ag‘darilgan edi:

“Qoch yo‘ldan!.. – dedi baqirib kapitan” [2: 244].

1936-yilgi tarjima:

“Kapitan:

– Zoti muqaddas xotiri uchun yo‘ldan qochingiz, po‘sht, – deb baqirdi” [4: 252].

1956-yilda esa bu jumla shunday holga keltiriladi:

“Po‘sht, – deb qichqirdi kapitan. – Papa hazratlarining tabarruk nomlari bilan buyuraman: yo‘l beringlar, po‘sht!” [5: 267]

Garchi so‘nggi tahrirda shiddatli buyruq birmuncha yoyilib ketgan va unda “ero святейшество”ning ajoyib ekvivalenti bo‘lgan “zoti muqaddas” kalimasi qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, so‘nggi tarjima eng tushunarli shaklda berilgan.

Roman voqealari shunday yakunlanadi: to‘s-to‘poloni chiqib ketgan bozor ichida otishma vaqtida bu yerga kardinal (eng yuksak mansabdagi katolik ruhoniysi) Montanelli kelib qoladi. Artur o‘z to‘pponchasiga ko‘ksini kergan Montanelliga – o‘zining eng asosiy dushmaniga ayni zamonda bu yorug‘ jahonda birdan-bir jigarporasi – o‘z otasi bo‘lgan kardinal hazratlariga o‘q otishdan ojiz qoladi. Artur ushlanib, otiladi. Faqat so‘nggi damdagina Arturning o‘z farzandi ekanligini, uning o‘limiga ham o‘zi sababchi bo‘lganini payqab qolgan sho‘rlik ota, yuragi yorilib o‘ladi. Arturning sevgilisi Jemma Arturning aslida Montanellining o‘g‘li ekanini eshitib, hayratga tushadi:

“Джемма быстро взглянула на Мартини, и он, пожав плечами ответил на её невысказанную мысль:

– Что же вы хотите, мадонна? Разрыв сердца – разве это плохое объяснение? Оно не хуже других” [1: 358].

Mazkur parcha tarjimalarini ko‘rib chiqaylik:

1934-yilgi nashrda:

“Hech gap emas, xonim... Yurak yorilishi har qanday boshqa so‘zdan yomon emas” [2: 315].

Bu nashrda markazdagi bir gap tarjimada tushirib qoldirilgan.

1936-yilgi nashrda:

“Nima deb o‘ylaysiz, xonim? Yurakning yorilishi ham har qanday izhorholdan qolishmaydi” [4: 336].

1956-yilgi nashrda:

“Nimaga ajablanasiz, madonna? Yurakning yorilishi hech boshqa har qanday ravshan izohdan qolishmaydi” [5: 339].

Xulosa. “So‘na” romani tarjimasi Mirzakalon Ismoiliy ijodining dastlabki yillarida amalga oshirilganiga qaramay, u nafaqat shu yillar, balki butun o‘zbek tarjimachiligining eng yaxshi namunalaridan sanaladi. Romanning o‘zbekcha o‘girmasini nafaqat tarjima uchun vositachi vazifasini bajargan rus tili yoki bevosita –ingliz tili bilan solishtirish, balki qo‘shimchasiga yozuvchi tiriklik davrida chop etilgan barcha nashrlarni o‘zaro matniy jihatdan solishtirish tarjimashunosligimiz oldidagi asosiy masalalardan biri sanaladi. Bu orqali mashhur mutarjim ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq kirib borish, u yashagan adabiy-tarjimaviy muhit sirlaridan voqif bo‘lish imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Войнич Э.Л. Собр. соч. в трех томах. Т. 1. – Москва: Литература, 1954. – 540 с.
2. Voynich E.L. So‘na: roman – Tashkent – Samarqand: O‘znashr, 1934. 320-b.
3. O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi: jamoaviy monografiya – T.: Fan, 1988. 240-b.
4. Voynich E.L. So‘na: roman – T.: O‘zdavnashr, 1936. 342-b.
5. Voynich E.L. So‘na: roman – T.: Davr-press, 2012. 352-b.

Dildora HUSANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi
Navoiy nomidagi davlat stipendianti

BARCHA SHODLIK SENGA BO‘LSIN...

Annotatsiya: ushbu maqolada Erkin Vohidovning “”Yoshlik devoni” to‘plamidan o‘rin olgan “Barcha shodlik senga bo‘lsin” deb boshlanuvchi g‘azali tahlilga tortiladi. G‘azal shakl va mazmun nuqtayi nazaridan badiiy poetik xususiyatlari jihatidan ko‘rib chiqiladi. Muallifning so‘z qo‘llash mahoratiga alohida e’tibor beriladi.

Kalit so‘zlar: *Erkin Vohidov, “Barcha shodlik senga bo‘lsin” g‘azali, tazod, matla’, yor, oshiq, qofiya, aruz.*

Annotation: in this article, the ghazal of Erkin Vahidov from the collection "The devan of youth" starting with "All joy be yours" is analyzed. The ghazal is considered from the point of view of form and content in terms of artistic poetic features. Special attention is paid to the author's skill in using words.

Key words: *Erkin Vahidov, ghazal "All joy be to you", tazad, matla', yor, ashik, kafiya, aruz.*

Аннотация: в данной статье анализируется газель Эркина Вахидова из сборника «Ёшлик Дивано», начинающаяся со слов «Пусть вся радость будет твоей...». Газель рассматривается с точки зрения формы и содержания с точки зрения художественно-поэтических особенностей. Особое внимание уделяется мастерству автора в использовании слов.

Ключевые слова: *Эркин Вахидов, газель «Пусть вся радость будет твоей...», тазад, матла, ёр, ашик, кафия, аруз.*

Oshiqning ishq bobida ma’shuqadan ustunligi shuki, u har qancha qiyinchilik bo‘lmasin, o‘z matlabidan qaytmaydi, chin oshiqlar yor uchun bor-yo‘qlarini berishga tayyor bo‘lishadi. Erkin Vohidovning ushbu g‘azali eng go‘zal g‘azallardan biridir. Bu g‘azal allaqachon qo‘shiqqa aylanib ko‘ngillar tubidan joy olishga ulgurgan. Erkin Vohidovning juda ko‘p she’r-u g‘azallari qo‘shiqqa aylangan, ularni xalqimiz ardog‘idagi eng nufuzli san’atkorlarimiz kuylashgan.

Masalan, “Barcha shodlik senga bo‘lsin” g‘azali o‘zbek xalqining sevimli hofizlari va xonandalari ijrosida o‘z muxlislarini topgan, yana ko‘plab qo‘shiqchilar tomonidan ijro etilgan. Bu ham yuksak hurmat va e’tibor namunasidir. Xo‘sh, nega shoir she’rlari, g‘azallari tezda qo‘shiqqa aylanadi. Chunki Erkin Vohidov hamisha eldan olib elga bergan, berganda ham billurdek sayqallab, ming turfa jilo berib, go‘zalligiga yanada go‘zallik qo‘shib, his-tuyg‘ularni insonlarga xos jonlantirib, barini omuxta qilgan holda yoqimli ifoda yo‘siniga solib xalqqa qayta hadya qilgan. Quyidagi shoir qalamiga mansub misralar so‘zimiz isboti:

Xalq – ustozim, men esa – tolib,
So‘z durlarin termoqdir ishim.
Odamlarning o ‘zidan olib,
Odamlarga bermoqdir ishim .

Mana shunaqa yurakka yaqin g‘azallardan biri bu “Barcha shodlik senga bo‘lsin” g‘azalidir. Avvalo, g‘azal boshdan oyoq tazod san’ati asosiga qurilgani bilan e’tiborimizni tortadi. Deyarli har misrada o‘zaro zid so‘zlarni qo‘llash orqali o‘ynoqi, insonni o‘ziga tezda jalb qiluvchi ritm yaralgan. G‘azal mazmunan ikki insonning muhabbatini qalamga olib, oshiq tomonidan o‘ziga va o‘z yoriga ravo ko‘radigan jihatlarni sanash asosiga qurilgan. Oshiq hamisha mahbubasiga dunyoning eng yaxshi ne’matlarini tilaydi, o‘ziga esa eng yomonlarini tilaydi. Bunday go‘zal va mehr to‘la so‘zlardan yaralgan ohanglar qaysi ko‘ngilni rom etmasligi mumkin?!

Barcha shodlik senga bo‘lsin, bor sitam, zorlik menga,
Barcha dildorlik senga-yu, barcha xushtorlik menga.

Har bir baytdagi zid ma’noli so‘zlarga e’tiborimizni qaratib boramiz. Birinchi baytning birinchi misrasida shodlik – sitam, zorlik, ikkinchi misrada esa dildorlik – xushtorlik so‘zlari tazodga sabab bo‘lgan, qolaversa, bu so‘zlar ichki va asosiy qofiya vazifasini ham bajargan. Ichki qofiyalar shodlik – dildorlik, asosiy qofiyalar esa zorlik – xushtorlik so‘zlaridir. Qolaversa, takrir san’ati ham qo‘llangan, 3 marta barcha, 2 marta senga, 2 marta menga so‘zlari takrorlangan. Takrorlardan ko‘p foydalanish nutqning g‘alizligiga sabab bo‘ladi. Biroq she’riyatda takrorlar badiiy ifoda vositasi hisoblanadi. Yuqoridagi baytda ham takrorlar ma’lum ohang va ritmni ta’minlashga xizmat qilgan.

E’tiborlisi, bu g‘azalda radif qo‘llangan, radif bu misra oxirida takrorlanuvchi so‘zdir. Radifi bor g‘azallarni ikkita nom bilan atash mumkin. 1) Matla’ning bosh misrasi yoki undagi boshlang‘ich birikma bilan; 2) “…” radifli g‘azal; shaklida atash mumkin. Demak, ushbu g‘azalni “Menga” radifli g‘azali deb ham qo‘llashimiz mumkin.

Matla’ga qaytsak, ey yor, dunyo shodliklari senga bo‘lsin, hech jabr-u sitam ko‘rma, zorlik nimaligini bilma, ularni menga ber, menga bo‘lsin, dildan sevilish, dillarni rom qilishlik senga tilayman, bu jihatlaringga xushtorlik faqat menga bo‘lsin, bu yerda oshiqqa xos ajib qizg‘anish ham bor.

Sen mening jonimni olgin, men sening darding olay,
Barcha sog‘lik senga bo‘lsin, barcha bemorlik menga.

Bu baytda tardi aks’ san’atini ko‘rishimiz mumkin, birinchi misradagi “sen mening”, “men sening” birkmalari akslantirib qo‘llangan. Bu birikmalarda ham ichki tazod

bor. Asosiy tazodlar esa jon va dard so‘zlari, sog‘lik va bemorlik so‘zlaridir. Sog‘lik va bemorlik so‘zlarining zid ma’noli ekanligi tushunarli.lekin jon va dard so‘zlari-chi? Antonimlarning ham qo‘llanilishi, tuzilishiga ko‘ra bir qancha turlari mavjud. Masalan, nutqiy, uslubiy, kontekstual, lug‘aviy, grammatik va h.k. bu yerda jon va dard so‘zlariga kontekstdan, matndan kelib chiqib izoh berish mumkin. G‘azalning umumiy mazmunini aytib o‘tdik, demak, dardi bor inson go‘yo jonsizdek, qilayotgan ishlariga beparvo, loqayd, hayoti faqat shu dard bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Shu sabab ham jonga dard almashyapti, jon bu yana yorug‘ hayotga qaytish, dard qorong‘ulashayotgan hayot ma’nosida deb tushunsak, bu so‘zlarning zidlanish asosi ayon bo‘ladi.

Senga bo‘lsin barcha husn-u menga bo‘lsin barcha ishq,

Kori xunxorlik senga-yu, mehri poydorlik menga.

“Xunxorlik” so‘zi asosiy qofiya “poydorlik” so‘ziga ichki qofiya vazifasida kelgan. Qolaversa, bu so‘zlar orqali tazod san’ati ham yuzaga kelgan. Ey yor, husnda tengsizlik senga bo‘lsin, bu go‘zallikka oshuftalik esa menga bo‘lsin, betakror husningning ishqi menga tushsin. Bu ishqda sen menga ko‘p xunxorlik ko‘rsatasan, bu yerda xunxorlik yorning jafolari, u sabab oshiq uchraydigan qiynoqlar, jabr-sitamlarga ishora qilib kelgan. Meni shuncha qiynagan yor xuddi qonimga (xun – qon) tashnadek ko‘rinadi. Biroq menda mehri poydorlik bor, qancha jafolar qilmasin, men undan mehrimni ayamayman, poy – oyoq, mehrim oyoqosti bo‘lsa ham, bu poydorlik menga bo‘laversin. Bunday so‘zlar faqatgina chin muhabbatni anglagan, ishqini har narsadan yuqori ko‘ruvchi haqiqiy oshiqlar dilidan va tilidan chiqishi mumkin. Keyingi baytlarda bu holat yanada yorqin tasvirlanadi.

Bu jahonning rohatin ol, bor azobin menga ber,

Senga bo‘lsin barcha orom, barcha bedorlik menga.

Birnchi misrada rohat – azob, ol – ber, ikkinchi misrada senga – menga, orom – bedorlik so‘zlari tazodga sabab bo‘lgan. Sen rohatda yashagin, men azoblaringni olay, orom, huzur-halovat senga bo‘lsin, bedorlikning bari esa menga bo‘lsin. Darhaqiqat, tazod san’atining ta’siriy quvvati bu g‘azalda juda katta ahamiyatga ega, g‘azal shaklan bir oqimda ketsa-da, mazmunan har misrada bo‘linish bor. Xuddiki ko‘z oldingizda oshiq va ma’shuqa turibdi-yu, oshiq yoriga dil so‘zlarini aytyapti. O‘yga tolasiz, shunday muhabbat hammaga ham nasib qilsa deb. Erkin Vohidovning she’rlarida jon bor, tiriklik bor. Ularni o‘qiganingizda so‘zlar birdan tilga kiradi, harakatlana boshlaydi va ko‘z oldingizda o‘sha asar o‘z qa’riga yashiringan ma’no maxzanini tuhfa qila boshlaydi. Shaxsan o‘zim xuddi shu holatga tushaman, shoirning har bir asarida o‘ziga xos tuyg‘ular, situatsiyalar atmosferasi bor.

Ol o‘zing koshonalarni, menga qo‘y mayxonani,

Barcha hushyorlik senga-yu, barcha xummorlik menga.

Koshona – mayxona, ol – qo‘y so‘zlari birinchi misrada, xushyorlik – xummorlik, senga – menga so ‘zlari ikkinchi misrada tazodni hosil qilgan. Bu baytda mumtoz adabiyotdagi tasavvuf ta’limotiga xos adabiy timsollar ham bor. Jumladan, mayxona – tasavvufda ilohiy ishq beriladigan joy, pirlar dargohi dir. Xumorlik esa ilohiy ishqdan mast bo‘lgan oshiqning sifatidir. Demak, bu yerda ilohiy ishqqa xos belgilar ham o‘z ifodasini topgan. Sen koshonalarda bo‘lgin, sening o‘rning shunday go‘zal va hashamatli joylarda, menga esa mayxonalar yetarli. Yana sen hamisha xushyorsan, men esa ishq gadosi, sening husningga mubtaloligimdan mastman, xumorman. Baytda ma’noni yanada kuchaytirish uchun geminatsiyadan foydalanilgan. Geminatsiya – ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi: muddat, izzat kabi. Bunday qavatlanish ma’lum uslubiy maqsadlarda yuzaga keltirilishi ham mumkin: rosa > rossa, juda > judda . Demak, bu yerda “xummor” so‘zi uslub jihatidan geminatsiyaga uchrab, ma’no kuchayishiga va vazn ohangiga xizmat qilgan.

Senga bo‘lsin nurli kunduz, menga qolsin qora tun,

Barcha gulshan senga bo‘lsin, bor tikanzorlik menga.

Nurli kunduz – qora tun birikmalari birinchi misrada birikma holatida kelib kuchli tasviriy ifodani keltirib chiqargan, bu baytning ta’sir kuchini yanada oshirgan, senga – menga so‘zlari esa barcha baytlarda ichki zidlanishni ta’minlab kelgan. Ikkinchi misrada gulshan – tikanzorlik so‘zlari tazod bo‘lib, oshiq yorga gulshan-u bog‘larda yurishini tilasa, o‘ziga tikanzorlarni istaydi, aytganimizdek, g‘azalda oshiq boshdan oyoq yor uchun eng yaxshilarini xohlaydi, o‘ziga esa har qancha qiyin bo‘lmasin azoblarni so‘raydi, uning uchun yor xushnudligi muhim.

Sen shahanshohlikni olgin, menga qullik bo‘lsa bas,

Bor jafokorlik senga-yu, bor vafodorlik menga.

Mumtoz adabiyotimizda yana bir an’anaviy obrazlar bu shahanshoh va qul, gado timsollaridir. Ko‘plab g‘azallarda bu obrazlardan oshiq va yorning holatini ifodalashda keng foydalaniladi.

Mayli, ostonangda yotsam, mayli quvsang tosh otib,

Bor dilozorlik senga-yu, bor dilafkorlik menga.

Ikkinchi misrada dilozorlik va dilafkorlik so‘zlari o‘zaro zidlangan. Devonadek ostonangda yotsam ham mayli, balki meni tosh otib u yerdan haydamoqqa mahkum etarsan, bunga ham roziman. Axir dilga ozor berish yorga xos bo‘lgan xislat, bundan paydo bo‘ladigan dilxundalik, qalb og‘rishi-yu dilxiraliklar menga bo‘lsin.

Senga she’rni bitsin Erkin yirtib otmoq o‘z ishing,

Kasbi inkorlik senga-yu, aybda iqrorlik menga.

Senga atab Erkin she’r bitdi, uni nima qilmoqlik o‘z ixtiyoringda, balki uni yirtib otarsan, muhabbat ila to‘yingan bu she’rimni tan olmassan, axir kasbi inkorlik, ya’ni rad etmoqlik, oshiq nazdida uning tuyg‘ularini yor

tinimsiz inkor qilganidan yor uchun bu kasbga aylangan, oshiq nima qilsa ham, yor oldida aybdor, lekin yorga bo‘lgan muhabbati bularni yengib o‘tishga kuch bag‘ishlaydi. Shu sabab ham yor nima desa ham iqror bo‘lishga majbur. Yori uchun bunday fidokorlik, o‘zidan-da kechish haqiqiy jasoratdir. Shunda oshiq, albatta, o‘z maqsadiga yetadi, yori ila shirin visolga erishadi.

G‘azal hajm jihatdan 9 baytni tashkil qiladi. Ushbu g‘azlada ham shoir o ‘z taxallusini qo‘llagan. Qofiyalari: zorlik – xushtorlik – bemorlik – poydorlik – bedorlik – xummorlik – tikanzorlik – vafodorlik – dilafkorlik– iqrorlik. Ichki qofiyalar: shodlik – dildorlik – sog ‘lik – xunxorlik – hushyorlik – jafokorlik – dilozorlik – inkorlik. Aruzning an’anaviy ramali musamamani mahzuf vaznida yozilgan:

Bar cha shod lik / sen ga bo‘l sin / bor si tam zor / lik men ga,
fo i lo tun fo i lo tun fo i lo tun fo i lun
– V – – – V – – – V – – – V –
Bar cha dil dor / lik sen ga yu / bar cha xush tor / lik men ga.
fo i lo tun fo i lo tun fo i lo tun fo i lun
– V – – – V – – – V – – – V –

“Shoirning “Yoshlik” devonidan joy olgan “Barcha shodlik senga bo‘lsin” deb boshlanuvchi g‘azali boshdan oyoq tazod san’ati bilan ziynatlangani diqqatga sazovor, chunki bu g‘azal ijodkorning qanchalik badiiy mahorat egasi ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga vafodor oshiqning ma’shuqasi uchun hamma azoblarga, qiyinchiliklarga tayyor ekanligi ham ifodalangan ”.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidovning har bitta asari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va ularning barini bitta nuqtada tutashtiruvchi jihat bu shoirning samimiyligi, so‘zga tirik jondek qarashi, shu sabab uni asrab-avaylab she’r misralariga marjondek terib chiqishi, har bir yaralajak asarning yurak tubidan qaynab chiqishi, xalqona va diltortar ohanglardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymuratova N. Muhabbat tarannumi. – T.: “Yoshlik”, 2013. 9-son. 48-bet.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: “Talqin”, 2005. 77-bet.
3. Solijonov Y. Yoshlik devoni. Ruhiyatni yoritgan shoir. – T.: “Sharq yulduzi”, 2013. 2-son. 35-bet.
4. Sulaymonov M. Barcha shodlik senga bo‘lsin. Erkin Vohidovning so‘z qo‘llash mahorati. To‘plam. – Guliston: GulDU, 2020. 60-bet.
5. Vohidov E. Yoshlik devoni. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. 192-bet.

Sabinabonu QAXRAMONOVA,
ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi
E:mail: sabinabonuqaxramonova@gmail.com

BOTIN METAFORASINING SURREALISTIK TASVIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada argentinalik yozuvchi Xulio Kortasarning “Aksolotl” hikoyasi tahlilga tortilgan. Hikoyaning bosh g‘oyasini ochib berishda ramzlarning o‘rni va ifodasiga tayanib, talqinda obrazlar tizimliligiga yondashilgan. Hikoyadagi metamarfoza syujetning sirt va teran strukturasiga qay darajada ta’sir o‘tkazganligi borasida ayrim mulohazalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *hikoya, obraz, tahlil, talqin, ramz, metamorfoza, surrealizm.*

Аннотация: в данной статье анализируется рассказ аргентинского писателя Хулио Кортасара “Аксолотль”. Для раскрытия основной идеи рассказа, интерпретация строится на системности образов, опираясь при этом на роль и выражение символов. Были даны некоторые трактовки относительно того, насколько метаморфозы в рассказе повлияли на поверхность и углубленность структуру сюжета.

Ключевые слова: *рассказ, образ, анализ, интерпретация, символ, метаморфоза, сюрреализм.*

Annotation: this article analyzes the story “Axolotl” by Argentine writer Julio Cortazar. Relying on the role and expression of symbols in revealing the main idea of the story, the interpretation is based on the systematicity of images. Some thoughts were given on the extent to which the metamorphosis in the story influenced the surface and deep structure of the plot.

Key words: *story, image, analysis, interpretation, symbol, metamorphosis, surrealism.*

Kirish. Hikoya epik turning eng kichik janrlaridan bo‘lib, undagi voqea-hodisalar kam sonli personajlar atrofida aylanadi. Muallif hikoyaning g‘oya va mazmunini qisqa syujet ichiga singdiradi. Hikoyalari bilan Lotin Amerikasi adabiyotida realizmning yuksalishiga hissa qo‘shgan yozuvchi Xulio Kortasar ijodining rang-barangligi, mavzularining xilma-xilligi bilan alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi repertuarining asosiy qismini hikoyalar tashkil qiladi. U o‘zining qisqa hikoyalarida turli ramzlardan foydalanib, insonning ichki holati, uning jamiyat bilan munosabatini ifodalaydi.

Asosiy qism. Ramziylik asosiga qurilgan “Aksolotl” hikoyasi adabiyotshunoslar o‘rtasida chuqur mulohazalarga sabab bo‘lgan. Mazkur hikoya 1956-yil “O‘yinning tugashi” to‘plami tarkibida chop etilgan. “Aksolotl” ko‘p qatlamli va o‘ylantiruvchi hikoya bo‘lib, Kortasarning ijodkorlik qobiliyatini namoyish etadi. Hikoyaning surrealligi o‘quvchilarni ham, tanqidchilarni ham o‘ziga jalb etib kelmoqda. Voqealar akvariumda vatani Meksika bo‘lgan aksolotllarni kuzatishga berilib ketgan odam tomonidan hikoya qilinadi. Bosh qahramon har gal botanika bog‘iga arslonlar va qoplonlarni ko‘rish uchun borardi. Bir kuni akvariumga kirganida aksolotllarni ko‘radi va qahramonda ularga nisbatan g‘ayrioddiy qiziqish va mehr uyg‘onadi. U tez-tez akvariumga boradigan bo‘ladi, hatto qaytganida ham aksolotllar uning xayolidan chiqib ketmaydi. Vaqt o‘tishi bilan hikoyachi g‘alati o‘zgarishlarni boshdan kechirayotganini sezadi. Hikoyachi bilan aksolotl o‘rtasida tushunarsiz, ayni damda aniq hodisalar ro‘y berayotgan edi. Qahramon har gal aksolotllarning ifodasiz yuziga termulganida ularning nigohida sirli hayot nishonasini ko‘radi.

Kitobxonga aksolotl haqida tasavvur paydo bo‘lishi uchun yozuvchi hikoya ichida ushbu jonzot haqida ma’lumot beradi: “Ayo-Jenevya kutubxonasida lug‘atlarni titkilab, aksolotllar, aslida, amblistomalar oilasiga mansub yo‘lbarssifat samandarlarning (Ambystoma tigrinum) oyquloqli g‘umbaklari ekanini bilib oldim. Akvariumdagi lavhadan tashqari urvoqqina hindoviy pushti yuzlari ham ularning vatani Meksika ekanidan darak berar, ammo suvsizlik mahali quruqlikda kun kechirib, yog‘inlar mavsumida esa ko‘lmaklarda yashayveradigan ba’zi turlari Afrikada ham uchrashi ma’lum edi” [5: 32]. Yozuvchi aksolotllar va ularning tana qismlarini turli metaforalar yordamida mohirona tasvirlaydi. Hikoyani olimlar turlicha talqin qilishgan, jumladan, adabiyotshunos Nazar Eshonqulning quyidagicha talqin qilishi ham o‘rinlidir: “Hikoyada xunta bilan kelishgan va uning mafkurasiga aylangan istehzo ufurib turadi. Xuntaning xizmatini qilayotgan ziyolilar ham ma’lum ma’noda xuntaga aylanadi. Albatta, bu – hikoya talqinlaridan bittasi” [5: 17]. Yozuvchilar jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy muammolarni o‘z asarlarida turli tasvirlar orqali keltiradi. Yuqoridagi talqinda ham shunday. Kortasar Argentinaning siyosiy ahvoli, jamiyatdagi tuzum, hukumatdagi o‘zgarishlarni ushbu hikoyasida ramzlar orqali ifodalagan. Asardagi obrazlar qanday ramziy ma’no ifodalashiga to‘xtalib o‘tsak:

1. Muallif aksolotllarni insonga eng yaqin jonzot deb baholaydi: “Ammo baribir ular bizga shunchalar yaqin, o‘xshash va monand edi... Antropomorfik alomatlar, ko‘plar o‘ylaganidek, maymunlarni bizga yaqinlashtirmaydi, bil’aks, ular bilan bizning oramizdagi masofani urg‘ulaydi, xolos. Aksolotl bilan inson zoti o‘rtasidagi ayniylik alomatlarining mutlaqo mavjud emasligi, hartugul, taxminim noto‘g‘ri emasligini tasdiqlar edi. Ammo ularning jimitdek qo‘lchalari-chi... Zararsiz, kaltakesakda ham shunaqa panja bor axir. O‘ylashimcha, hamma gap aksolotlning uchburchakka moyil pushti boshi-yu uning tillorang ko‘zlarida edi” [5: 35]. Insonning aksolotlga aylanib qolishini metamorfozaning ramzi sifatida ko‘rsatish mumkin. Evrilish natijasida inson ham xuddi aksolotl singari “akvarium”ga tushib qoladi. U insonlardek tafakkur qilishdan to‘xtamaydi, zero aksolotllar ham odamzod kabi mushohada qilardi va xayol surardi.

Key competencies are understood as a holistic system of universal knowledge, abilities, skills, as well as the experience of independent activity and personal responsibility of students.

The competency-based approach to education is based on the following principles:

• education for life, for successful socialization in society and personal development;

• assessment to provide the student with the opportunity to plan his own educational results and improve them in the process of constant self-assessment;

• various forms of organizing independent, meaningful activities of students based on their own motivation and responsibility for the result.

When mastering new technologies together with children, you need to teach them to work in a group, conduct research, and organize educational discussions. The competency-based approach requires a change in the assessment system: the assessment is given not for understanding the text, but for the ability to work with information, assessment becomes more differentiated and more transparent.

You should learn to understand the concept of “competence”. The concept of “competence” is distinguished by some authors through the term “skill”. Many authors believe that competencies are goals, and competencies are results. The measure of achieving goals is the indicators of competence.

What should an ideal elementary school student be like? Curious, interested, actively exploring the world, mastering the basics of the ability to learn....

What key competencies should primary school graduates have for this?

Competence is a systematic education in the personality of a primary school student, which includes the following components:

• cognitive - theoretical knowledge of the academic field;

• activity-based - practical application of knowledge in a specific situation;

• value - semantic - assessment, attitude, emotions, will.

In modern society, a person is required to have the ability to navigate information flows, master new technologies, self-learn, seek and use missing knowledge, and possess such qualities as universality of thinking, dynamism, and mobility. Therefore, today one of the most pressing problems of education is the formation of student competence, and the competency-based approach can be considered as a way out of the problematic situation that has arisen due to the contradiction between the need to ensure the quality of education and the inability to solve this problem in the traditional way by further increasing the amount of information, subject to assimilation. In modern society, a person is required to have the ability to navigate information flows, master new technologies, self-learn, seek and use missing knowledge, and possess such qualities as universality of thinking, dynamism, and mobility.

In order to activate students in the lesson, you can use various techniques, in which the following are fundamental:

• the teacher is not above the student, but with the student;

• inclusion of not only the senses, but also the emotional sphere of the child;

• students perform all the work independently, based on their abilities, interests, personal experience;

• smoothing of traditional assessment, it is to some extent replaced by self-esteem, mutual assessment, self-correction, self-education.

The main feature of problem-dialogical learning is that new knowledge is not given in a ready-made form. Children “discover” them themselves in the process of independent research activities. Children learn better not what they received ready-made and memorized, but what they discovered themselves and expressed in their own way. The teacher only directs this activity and finally sums it up, giving a precise formulation of new knowledge and introducing the generally accepted notation system. Thus, new knowledge acquires personal significance for children and becomes interesting not from the outside, but, in essence. In such lessons, children think more, speak more often, and form thinking and speech more actively. They learn to stand up for themselves, take risks, take initiative, and as a result develop character.

The technology of problem-based learning is as follows: the teacher creates a problem situation, guides students to solve it, and organizes the search for a solution. Thus, the child becomes the subject of his learning, and as a result, he develops new knowledge and masters new ways of acting.

Methodological techniques for creating problem situations:

- the teacher brings the students to a contradiction and invites them to find a way to solve it themselves;

- presents different points of view on the same issue;

- invites the class to consider the phenomenon from different positions (for example, a commander);

- encourages students to make comparisons, generalizations, conclusions from the situation, and compare facts;

- poses specific questions (for generalization, justification, specification, logic of reasoning);

- identifies problematic theoretical and practical

tasks (for example: research);

- poses problematic tasks (for example: with insufficient or redundant initial data, with uncertainty in the formulation of the question, with contradictory data, with obviously made mistakes, with limited time for solution, to overcome “psychological inertia”, etc.).

List of used literature:

1.Методические рекомендации к организации и проведению уроков обобщающего повторения в форме дидактической игры на материале морфологии. -Л.: ЛГПИ, 1985. -94 с

2.Методические рекомендации к организации и проведению факультативных занятий по русскому языку в педагогических классах средней школы (в соавторстве). -Л.: ЛГПИ, 1987. -59 с.

3. Ю.В. Лутфуллина - Gospodarka i Innowacje., 2023 СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ВОСПИТАНИЯ УЧЕНИКОВ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

4.Lutfullina Y.V. Modernization of the Content of Doctorial and Lexical Work in Russian Lessons, Content and Types of Vocabulary Work || INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1 (5), 86-89

5. Методические рекомендации по использованию игр в обучении лексике в школе и вузе (в соавторстве) -Семипалатинск, 1992. -37 с.

6. Ю.В. Лутфуллина - ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ || International Journal of Economy and Innovation | Volume 48 | Gospodarka i Innowacje

Rufina ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
o‘zbek filologiyasi fakulteti
3-kurs talabasi

MUNIS XORAZMIY TUYUQLARI BADIIYATI

Annotatsiya: Munis Xorazmiy lirikasidagi muhabbat, do‘stlik, sadoqat, vafodorlik kabi tushunchalarni ilmiy tahlil etish, tuyuqlari badiiyati, ya’ni tuyuqning qaysi turlaridan foydalangani, undagi tajnislar va qaysi vaznda yozilganligi katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada shular haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *tuyuq, tajnis, radif, vazn, qofiya.*

Annotation: the scientific analysis of concepts such as love, friendship, loyalty, and loyalty in Munis Khorazmi's lyrics, the artistry of tuyuq, i.e., what types of tuyuq he used, the tajnis in it, and in what weight it was written, are of great importance. This article is about them.

Аннотация: огромное значение имеет научный анализ таких понятий, как любовь, дружба, верность, верность в лирике Муниса Хорезми, художественность туюка, т. е. какие виды туюка он использовал, таджнис в нем и в каком весе он был написан. важность. Эта статья о них.

Ключевые слова: *туюк, тайнис, радиф, вес, рифма.*

Mumtoz o‘zbek she’riyatida shunday janrlar borki, she’riy san’atlarni mohirona qo‘llash natijasida hosil bo‘ladi. Bu esa asarning ta’sirchanligini hamda shoirning so‘z qo‘llash mahorati qanchalik yuksak ekanligini ko‘rsatib beradi. Shunday she’riy janrlardan biri tuyuqdir. Ushbu she’riy janr tajnis san’atini yuksak cho‘qqiga olib chiqdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mumtoz adabiyotda Lutfiy, Navoiy, Munis, Ogahiy, Bobur ijodida tuyuqning yetuk namunalarini uchratamiz. Zamonaviy adabiyotda esa Faxriyor, Abdumajid Shomirzayevlar ijodida yangicha tuyuq namunalari mavjud. Ammo ushbu tuyuqlar ramalda emas, barmoq vaznida yozilmoqda. Mumtoz adabiyotdan farqli ravishda bugungi kundagi asarlar tuzilishi ham, mavzusi ham turlicha.

Tuyuq (turk. tuymoq, his qilmoq) – to‘rt misradan iborat mustaqil she’r shakli. Asosan turkiy xalqlar she’riyatida qo‘llanilgan. Tuyuq ko‘p hollarda ruboiy singari qofiyalanadi, lekin ba’zan b-a, v-a tarzida ham qofiyalanishi mumkin. Ruboiydan farqli o‘laroq, tuyuqda qofiyaning o‘rniga asosan tajnis (shakldosh so‘zlar) qo‘llaniladi. Tuyuq o‘ziga xos maxsus vaznda – ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur vaznida yoziladi. Ruknlari va taqte’si:

Foilotun/foilotun/foilun yoki foilon

-V--/-V--/-V- yoki –V~) vaznida yoziladi. Shundan kelib chiqib, tuyuqning uch muhim xususiyati mavjud:

1. To‘rt misrali bo‘ladi;
2. Aruzning muayyan vaznida yoziladi;
3. Tajnis (shakldosh so‘zlar) bilan qofiyalanadi.

Turkiy adabiyotshunoslikda tuyuq haqidagi dastlabki ma’lumot “Funun ul balog‘a” asarida keltirilgan. Muallif tuyuqni ruboiyning bir turi sifatida sanab o‘tadi.

Turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq Lutfiy devonida

uchraydi, lekin, N. Mallayev yozishicha, tuyuqning ilk namunalari Burhoniddin Sivosiy tomonidan yaratilgan. Adabiyotda tuyuqlarning quyidagi turlari mavjud:

- Uch misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq;
- Ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq;
- Radifi tajnis bo‘lgan tuyuq;
- To‘rt misrasi qofiyalangan tuyuq;
- Faqat juft misralari qofiyalanuvchi tajnissiz tuyuq;
- Uch misrasi qofiyalanuvchi tajnissiz tuyuq.

Turkiy adabiyotda tuyuqning ko‘proq birinchi turi keng tarqalgan (Yusupova, Aruz va mumtoz poetikaga kirish, 2020). Shermuhammad Munis bir qancha zavqli tuyuqlar ham yaratib, o‘zi yangidan kashf etgan tajnis (omonim) so‘zlardan qofiyalar tuzgan. Munis tuyuqlari ichida ungacha o‘tgan shoirlar tomonidan qofiya sifatida ishlatilmagan ko‘p ma’noli so‘zlar tajnisli qofiyalar bo‘lib keladi:

Yuzin ochg‘och misoli oyina,
Ayladi charx ta’nai oyina,
Anga dedim, vafoni oyin qil,
Dedi mayl aylabon, bu oyina (Munis, Saylanma,1980).

Bu tuyuq radifi tajnis bo‘lgan tuyuq hisoblanadi va oyina so‘zi tajnislangan. Ya’ni, oyina – shisha, oyna (deraza) ma’nolarida qo‘llangan.

Har necha o‘qingg‘a og‘u yoqib ot,
Qilg‘usi daf’a ani g‘am taryoqi bot,
Garchi shomim tiyradur boshim uza,
Sur dami turnoqidin o‘t yoqib ot.

Ikki misrasi tajnislangan tuyuq bo‘lib, “ot” so‘zi tajnislangan. Ma’nosi: Har qancha o‘qingga zahar yoqib otsang ham g’amga qarshi dori bu g’amni tezda daf’ qiladi. Garchi tunim g‘am-g‘ussada o‘tsada sur dami (nafasi)dan o‘t yoqib otgin.

Meni vasling yo‘lig‘a bir yondur,
Dushmanim g‘am o‘tig‘a biryondur,
Rahm ushshoq aro bu xastag‘akim,
Bir tarafdur, alar, bu bir yondur (Munis, Saylanma,1980).

Mazkur tuyuq radifi tajnis bo‘lgan tuyuq hisoblanadi. “Bir yondur” so‘zi tajnis bo‘lib kelgan. Ma’nosi: Dushmanim sening g‘amingda qovurildi, u xastalarga rahm aylagin. Ular bir taraf, lekin meni shu vasling bilan bir yondirgin.

Do‘stlar mehmonlig‘ etsa boringiz,
Sina jon uyiga undab boringiz,
Ey balo xayli, manga qilmang g‘ulu,
Boringiz ahli jahong‘a boringiz.

Mazkur tuyuq radifi tajnis bo‘lgan tuyuq turiga kiradi. “Boringiz” so‘zi tajnis bo‘lib kelgan. Bu tuyuq do‘stlarning diydori haqida. Ya’nikim, do‘stlaringiz mehmon qilib chaqirsa, bor joning bilan, ya’ni kuching bilan boshqalarni ham undab bor. Ey yomon ko‘rguvchilar menga shikoyat qilmang, boring jahonga qiling. Bu do‘stimni menga yomonlamang ma’nosida yozilgan.

Angla, ko‘nglum ishqboz ori erur,
Balki ko‘nglum ishq bozori erur,
Oshiq ersang shodlig‘din uz tama’,
Zor ko‘nglum ishq bozori erur.

Ushbu tuyuq radifi tajnis bo‘lgan tuyuq hisoblanadi, ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan “Bozori erur” shakldosh so‘zlari tajnis san’atini yuzaga keltirgan. Ma’nosi: Ko‘ngil bu bir ishq bozori kabidir. Agar rostan oshiq bo‘lsang shodligingdan umid uzaver, anglaginki, ko‘nglim shubhasiz oshiqdir.

Raxshi himmat men tutub mahkam yolin,
Yor izidin et, karam qil, deb yolin,
Yo‘qu borimni yoqib kul ayladi,
Ishq o‘tidin ko‘kka chirmoshgon yolin (Munis, Saylanma,1980)

Keltirilgan tuyuq “yolin” so‘zi tajnisi asosiga qurilgan bo‘lib, radifi tajnis bo‘lgan tuyuq hisoblanadi. Undan quyidagi ma’no anglashiladi: “Ishq o‘tidan borliqqa taralgan uchqunlar mening bor-yo‘g‘imni yondirib, kulga aylantirdi. Endi, ey ko‘nglim, himmat otining yolini mahkam ushlab, yor izidan bor va undan karam so‘rab, yalinib-yolborgin".

Tig‘ ila ne hojat o‘lturmak ani,
Dahr elin xar sori gar boqsa qiyo,
Dardu g‘am chektim xumor ichra base,
Emdi ahvolimg‘a bir boq soqiyo.

Ushbu tuyuq ikki misrasi tajnislangan tuyuq hisoblanadi. Va boqsa qiyo va boq soqiyo shakldosh so‘zlari tajnis san’atini yuzaga keltirgan. Ma’nosi: Dahr eli agar eshakka qiyo boqsa uni tig‘ bilan o‘ldirishga ne hojat. Ey soqiyo, ahvolimga qara xumor ichida juda ko‘p dard alam chekdim.

Muniso, to‘lmay yigirma yetti yosh,
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh,
Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingga yetti yosh.

Ushbu tuyuq devon shoirning 27 yasharligida tuzilganidan dalolat beradi. Ushbu tuyuq ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, radifi tajnis bo‘lgan tuyuq hisoblanadi. “Yetti yosh” so‘zi tajnis bo‘lib kelgan. Unda shoirning chuqur hayotiy falsafasi yashiringan.

Shermuhammad Munis Xorazmiy yetuk shoir va hozirga qadar ko‘plab sharq va g‘arb olimlari tomonidan uning hayoti va ijodi, asarlari, adabiy merosi, lirikasi o‘rganilganiga guvoh bo‘lamiz. Shermuhammad Munis tuyuq janrida ham samarali ijod qilgan. Munis tuyuqlari ichida ungacha o‘tgan shoirlar tomonidan qofiya sifatida ishlatilmagan ko‘pma’noli so‘zlar tajnisli qofiyalar bo‘lib keladi. Munis tuyuqning radifi tajnis bo‘lgan tuyuq va ikki misrasi tajnisli qofiyalangan tuyuq turlari ijod etgan. Uning tuyuqlari asosan ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan va turli mavzuda xususan, ishqiy, falsafiy, ma’rifiy ruhda yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaxo‘ja N, Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asri yarmi). (2020). – Toshkent. Innovatsiya-Ziyo.
2. Niyozov K. Munis devonining tarkibiy qismi va mumtoz adabiyotdagi ahamiyati. (2022).
3. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. (1945). – Toshkent.
4. O‘zbek poeziyasining antologiyasi. (1948) – Toshkent.
5. Shermuhammad Munis Xorazmiy. Saylanma. (1980). – Toshkent. G‘afur G‘ulom.
6. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish (2020). – Toshkent. Akademnashr.

Madina ALIMOVA,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

ANDRAGOGIKADA IKKINCHI TILNI O‘QITISHDA XORIJ TAJRIBASI

Annotatsiya: bugungi kunda til o‘rgatish metodikasi alohida fan sifatida shakllanganligi hammaga ma’lum. Tilni o‘rgatishda ona tili, ikkinchi til va chet til kabi yo‘nalishlar mavjud. Maqolamizdan asosiy maqsad ikkinchi tilni o‘qitishga oid ma’lumotlarni tahlil qilish.

Kalit so‘zlar: *andragogika, o‘zbek tili, xorijiy til, ikkinchi til, yondashuv, o‘qitish.*

Аннотация: сегодня общеизвестно, что методика преподавания языка сформировалась как отдельная дисциплина. В языковом обучении есть такие области, как родной язык, второй язык и иностранный язык. Основная цель нашей статьи-проанализировать информацию, касающуюся обучения второму языку.

Ключевые слова: *андрагогика, узбекский язык, иностранный язык, второй язык, подход, обучение.*

Annotation: today it is well known that the methodology of language teaching has been formed as a separate discipline. In language learning, there are areas such as native language, second language and foreign language. The main purpose of our article is to analyze information related to learning a second language.

Keywords: *andragogy, Uzbek language, foreign language, second language, approach, training.*

Xorijiy til va ikkinchi til o‘rganishdagi farqlardan biri xorijiy til ona tili muhitida o‘rganiladi (masalan, ona tilisi fransuzcha bo‘lganlar ingliz tilini Fransiyada (EFL) yoki ona tilisi ispan bo‘lganlar fransuz tilini Ispaniya, Argentina yoki Meksikada o‘rganadi(FFL)). Odatda bu jarayon darajalarga ajratiladi. Ikkinchi tilni o‘rganish deganda, ona tili bo‘lmagan tilni aynan o‘rganilayotgan til muhitida o‘qitish tushuniladi. Masalan, ona tilisi nemis bo‘lganlar yapon tilini Yaponiyada (JSL)o‘rganishi yoki ona tilisi panjob tili bo‘lganlar ingliz tilini Birlashgan qirollik davlatlarida o‘rganishi (ESL)kabi. Bu jarayonlar sinfda yoki sinfdan tashqarida sodir bo‘lishi mumkin. Bu yerdagi asosiy masala o‘rganiladigan til, til egalari bor muhitda amalga oshayotganida [3:22].

Susan M.Gass va boshqalar muallifligida nashr etilgan “Second language acquisition an Introductory Course” kitobida ikkinchi tilni o‘rganish sohasi bir vaqtni o‘zida ham yangi, ham eski soha deya ta’kidlangan. Eski soha deyilishiga sabab tilni xorijiy til sifatida o‘rgatish masalasi doim olimlarni o‘ziga jalb qilgani bo‘lsa yangi deyilishiga sabab mazkur sohani hozirgi qiyofasi qiriq-ellik yil oldin paydo bo‘lganida. Ko‘plab maqolalarda tilni o‘qitish masalalariga oid izlanishlar bo‘lgan, biroq tilni o‘zlashtirish masalasi ikkinchi darajali mavqega ega edi. Boshqa so‘zlar bilan aytganda til o‘rganish sohasiga bo‘lgan turtki pedagogik qarashlar sabab paydo bo‘lgan. Oxirgi 40 yil ichida SLA (xorijda ikkinchi tilga nisbatan SLA qisqartmasi ishlatiladi, uning so‘zlardagi ifodasi second language acquisition ya’ni ikkinchi tilni o‘zlashtirish, egallash degan ma’nolarni anglatadi) mustaqil va o‘z tadqiqot dasturiga ega sohaga aylandi. Mazkur yo‘nalish doirasida konferensiyalar soni oshgani hamda SLA sohasiga aloqador jurnallar (masalan, Studies in Second Language Acquisition, Language Learning, Second Language Research) borligi hamda ularda faqat ikkinchi tilni o‘zlashtirishga oid tadqiqotlar nashr etilishi fikrimizga asos bo‘lib xizmat qiladi [3:17]. Olima Susan Gassning ta’rifiga ko‘ra, ona tili bola birinchi o‘rgangan til. Ona tili termini asosiy til yoki birinchi til sifatida ham qo‘llaniladi. Umuman olganda, SLA ona tili yoki asosiy tildan keyin o‘rgangan til jarayoniga nisbatan taalluqli termindir. Ikkinchi tilni odatda L2 (“second language”) deb atashadi. Birinchi tildan keyingi o‘rganilgan har qanday til ikkinchi til bo‘lishi mumkin ya’ni, bu siz o‘rgangan ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi yoki beshinchi tilingiz bo‘lsa ham.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, millatimiz tarixida olim, shoir, ziyolilar, davlat arboblari o‘rtasida zullisonayn kishilar juda ko‘p bo‘lgan. Markaziy Osiyo hududida arab, fors, turkiy va boshqa tillar aloqa vositasi sifatida xizmat qilgan bo‘lib, bir nechta tilda muloqot qila olish o‘qimishli va ziyoli shaxslarning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan. Jadidlar millat tili va

ta’lim tili birligini ko‘zlab harakat qilgan bo‘lsalar-da, boshqa tillarni o‘rganishni ham faol targ‘ib qilganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1913-yilda yozgan “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida shunday yozadi: “Biz turkiystoniylarg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozumdur”. Ushbu maqolada Behbudiy bu tillarda har birining ta’lim tizimida tutgan o‘rnini alohida ochib beradi. Bu ma’lumot orqali tilimiz tarixida ikkinchi til sifatida bittadan ko‘p til o‘rganilganligi ma’lum bo‘ladi. Jadidlarning say-harakati bilan ma’rifiy-pedagogik adabiyotga “o‘zbekiy”, “o‘zbekcha”, “o‘zbek tili” atamalari ham kirib kela boshladi[5:44].

Ikkinchi tilni egallash jarayoni sinf xonasi bilan birga tabiiy holatda amalga oshishi mumkin. Birinchi tilni bilish darajasi ikkinchi tilni o‘zlashtirishda rol o‘ynaydi biroq ikkinchi tilni o‘rganish tabiiy hodisa emas. Vaqt va mehnat talab qiladigan jarayondir [3:28]. Til o‘rganuvchilar boshqa tilni ya’ni, ona tilini (birinchi tilni) bilishi ikkinchi tilni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etishiga sohaga “ikkinchi tilni o‘rganish” nomi berilganidan ham ma’lumdir. Julia Herschensohn muallifligidagi “The Cambridge handbook of second Language Acquisition” kitobida ikkinchi til tushunchasining Yevropada kelib chiqish tarixini milodiy VI yoki VII asrlardagi G‘arbiy Yevropadagi Rim tarixi bilan bog‘laydi. Uning aytishicha, VI asrga kelib lotin tili hech kimning ona tilisi emas edi. Rimliklar ona tilisidan shu qadar uzoqlashdilarki, endi ular bu tilda gapirishmasdi. Yangi avlod Rim jamiyati tomonidan juda qadrlangan shoirlar va ma’ruzachilarning klassik adabiyotlarini o‘qish uchun chet tilini o‘rganishlari kerak edi. Aynan shu holat ikkinchi tilni o‘rganishga ilk qadam sifatida qaraladi[4:26]. Qadimgi Rimlik Kvintilian yetti yoshdan boshlab o‘quvchini lotin va grek tillarida savodini chiqarish bo‘yicha dastur ishlab chiqqan. Kvintilianning nazarida, har ikki til ham bir xil sharoitda o‘rgatilsa bir biriga halaqit bermaydi. Biroq u davrda nemis, kelt (hind-yevropa tillari), etrusk (Markaziy hamda Shimoliy Italiyadagi boshqa yozuv tizimlari uchun asos vazifasini o‘tagan), umbria va oksitan(provansal tili) tillariga ham e’tibor qaratilganini hisobga olmagan. 1507- yilda Benedetto Varki (1503-1565) ona tili bo‘lmagan til – bu odam tabiiy ravishda gapirmaydigan, ma’lum vaqt oralig‘ida shu tilni o‘rgatuvchilardan, kitoblardan yoki shu tilda gapiruvchilardan o‘rganadigan til, deb ta’rif bergan. Boshqachasiga aytganda Varki uchun tabiiy o‘zlashtirilmagan til tabiiy o‘zlashtirilgan tildan turi bo‘yicha farq qilmaydi, biroq bir so‘zlovchi uchun ona tili bo‘lgan til boshqasi uchun ona tili bo‘lmasligi mumkin edi. Va bu xulosalar ikkinchi tilni o‘zlashtirish tarixida muhim ahamiyat kasb etadi[4:30]. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar hamda J.Jalolovning “Chet tili o‘qitish metodikasi” darsligidagi ma’lumotlarga tayangan holda chet tili va ikkinchi til o‘rtasidagi asosiy farq tabiiy muloqot muhitida amaliy sinash imkoni yo‘qligida degan xulosaga keldik. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun’iy muhitda o‘rganiladi[1:22]. Ona tilidan keyingi o‘rganiladigan har qanday til (til egalari bor muhitda) ikkinchi til bo‘loladi. Izlanishlarimiz natijasida, ikkinchi til tushunchasiga turlicha qarashlar borligini aniqladik. Masalan, Tatariston Respublikasida davlat tilini o‘qitish bo‘yicha qabul qilingan konsepsiyada tatar tilini tatarlarga ona tili sifatida, tatar bo‘lmaganlarga xorijiy til sifatida o‘qitish haqida so‘z boradi[2:21]. Rossiya federatsiyasida rus tilini xorijliklarga o‘rgatish masalasini o‘rganish jarayonida ikkinchi til terminini uchratmadik. U yerda rus tili ona tili (родной язык), ona tili bo‘lmagan (неродной язык (non-native) va xorijiy til (иностранный язык) sifatida o‘rgatilar ekan. E.G.Azimov va A.N.Shukinning “Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)” lug‘atida неродной язык terminiga – ona (mahalliy) til bo‘lmagan til. Millatlararo aloqa tili, til muhitida va undan tashqarida o‘rganiladigan chet tili tushunchasini o‘z ichiga olgan umumiy tushuncha tarzida ta’rif berilgan.

Xulosa qilib aytganda, til ta’limida tilni ona tili sifatida o‘qitish va chet tili yoki ikkinchi til sifatida o‘qitish farqlanadi. Til o‘qitishda bu juda muhim bo‘lib, ta’lim mazmuniga ham, ta’lim metodlariga ta’sir qilmay qolmaydi[2:4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi:darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012
2.Muxitdinova X.S.,O‘zbek tilini ikkinchi til sifatda o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023
3. “Second language acquisition: an introductory course/Susan M.Gass with Jennifer Behney and Luke Plonsky.-4th ed., 2013
4. The Cambridge handbook of second language acquisition/ edited by Julia Herschensohn, Martha Young –Scholten., 2013
5.Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida):darslik/Durdona nashriyoti 2021, 424-b.

Zarina TURSUNOVA
Bukhara state university,
English Literature and Translation studies Department
z.f.tursunova@buxdu.uz

REPRESENTATION OF SADNESS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation: this article explores the representation of sadness in English and Uzbek languages, delving into the diverse vocabulary, expressions, and cultural contexts surrounding this universal human emotion. By examining the linguistic and cultural nuances of sadness in these two distinct languages, we gain a deeper understanding of how different cultures express and convey this profound feeling. Through an analysis of vocabulary, idiomatic expressions, and literary traditions, we unveil the rich and varied ways in which English and Uzbek capture the complexities of sadness.

Key words: *sadness, representation, language, culture, emotion, English, Uzbek, vocabulary, expressions, literary traditions, cultural context.*

Аннотация: эта статья исследует представление печали в английском и узбекском языках, углубляясь в разнообразный словарь, выражения и культурные контексты, окружающие эту универсальную человеческую эмоцию. Изучая языковые и культурные нюансы грусти в этих двух различных языках, мы получаем более глубокое понимание того, как различные культуры выражают и передают это глубокое чувство.

Ключевые слова: *печаль, представление, язык, культура, эмоции, английский, узбекский, лексика, выражения, литературные традиции, культурный контекст.*

Annotatsiya: mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida qayg‘uning ifodalanishini tadqiqot qilib, ushbu inson emotsiyasini turli xil vaziyatlarda, fikr va madaniy kontekstlarda qo‘llanilishi o‘rganiladi. Ushbu ikki turli tilda madaniy nyuanslarini o‘rganiladi.

Kalit so’zlar: *qayg‘u, ta’rif, til, madaniyat, hissiyot, ingliz, o‘zbek, leksika, fikr, adabiy an’analar, madaniy kontekst.*

Introduction. Sadness is a profoundly ingrained emotion in the human experience, and its representation in language provides important insights into the cultural and linguistic variations of many communities. The English and Uzbek languages, both with their own literary traditions and cultural settings, offer a wide range of methods to express and embody grief. This essay seeks to shed light on the various representations of melancholy in English and Uzbek, emphasizing the diverse vocabulary, idiomatic expressions, and cultural attitudes that define the linguistic landscape of grief in these two languages.

Analysis. Sadness is a universal emotion that is firmly rooted in the human experience. It is a complex and powerful emotion that individuals of different countries and backgrounds can relate to. The portrayal of grief in language is especially interesting since different languages and cultures may have distinct ways of expressing and transmitting this emotion. In this essay, we will look at how English and Uzbek depict grief, and how these two languages reflect the intricacies of this universal emotion.

English has a large vocabulary, which is especially useful for describing emotions like grief. There are several words and phrases in English that represent the full range of sadness, from melancholy and sorrow to anguish and despair. For example, English has a range of adjectives and adverbs that can describe varying degrees of sadness, such as "sad," "miserable," "gloomy," "despondent," "heartbroken," "dejected," and "forlorn." Additionally, English features a plethora of idiomatic expressions and metaphors related to sadness, such as "down in the dumps," "feeling blue," "heartache," and "a heavy heart." In comparison, the representation of sadness in the Uzbek language is also nuanced and expressive. Uzbek, as a Turkic language, has its own unique lexicon for describing and expressing sadness. In Uzbek, there are words and phrases that capture specific shades of sadness, such as "qayg'u," which refers to a deep, soulful sorrow, or "ishqiy kayfiyat," which conveys the emotional distress of lovesickness. Similarly, Uzbek utilizes idiomatic expressions and proverbs to convey sadness, such as "ajoyib xazinlar," which means "wonderful sadness," and "yuragim go'zal," which translates to "my heart is beautiful" and expresses a poetic sadness. Beyond words and emotions, the representation of grief in language encompasses the linguistic and cultural environment in which it is communicated. English and Uzbek, for example, may have different cultural perspectives on how melancholy is seen and communicated. In English-speaking countries, sadness may be openly discussed and shared, whereas in Uzbek culture, stoicism and emotional control may be valued.

Furthermore, both languages' artistic and literary heritage influence how sadness is represented. English literature has produced timeless works that dive into the depths of human grief, from Shakespeare's sad plays to Emily Dickinson's poetry and Charles Dickens' novels. Meanwhile, Uzbek literature, entrenched in Central Asian heritage, provides a plethora of poetic phrases and storytelling that portray the people's melancholy and longing.

Conclusion. The way that grief is portrayed in Uzbek and English reflects the distinctive linguistic, cultural, and artistic characteristics of these two different languages. English and Uzbek both provide an insight into the human experience across all countries and traditions by offering rich and varied methods of expressing and embodying the emotion of grief. We can better appreciate the profound and enduring character of grief by delving into the subtleties of language's representation of this emotion.

Used literature

1. "The Emotional Power of English Words and Word Formation: Theory and Application" by Jacek Mandes.
2. "A Dictionary of English Synonyms and Synonymous or Parallel Expressions" by Richard Soule.
3. "Emotion and the Structure of Literary Experience: Building Bridges" by Willie Van Peer and Sonia Zyngier.
4. "A Grammar of Qumul (Ili Turki)" by Arienne M. Dwyer.
5. "Languages of the World: An Introduction" by Asya Pereltsvaig.
6. "Uzbek-English / English-Uzbek Concise Dictionary" by A. Khaitov and J. Akhunjanov.
7. Magdalena Ngongo & Nanda Saputra & Lasino Lasino & Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna, 2023. "A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay," (https://ideas.repec.org/a/rfa/smcjnl/v11y2023i5p33-40.html) Studies in Media and Communication, (https://ideas.repec.org/s/rfa/smcjnl.html) Redfame publishing, vol. 11(5), pages 33-40, June.
8. Axmedova M.B. Frame analysis of “ma’naviyat” concept in the Uzbek language//Actual problems of modern science, education and training. April 2024, 4. ISSN 2181-9750. – Khorazm. – B.74-78 (10.00.00 № 22).
9. Barotova Saodat Uktamovna. ““LOVE” AS A SEMANTIC GROUP OF ‘SPIRITUALITY’ SEMANTIC FIELD”. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 8.036, vol. 13, no. 05, May 2024, pp. 16-19
10. Fayziyev Bahodir Baxshullayevich. (2023, июль 6). INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA O'SMIRLAR MUAMMOSI O'RGANILISHINING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE, Boston, USA.
11. Fayziyev Bakhodir. (2023). MYTHS OF THE PEOPLES OF THE WORLD IN CHILDREN’S READING. International Journal Of Literature And Languages, 3(06), 56–61.
12. TZF Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Cognitivism, Cognitive Linguistics. International Journal of Inclusive and Sustainable Education 2 (8), 1-5, 2023
13. T.Z. Farkhodovna. Variety of Emotional Phenomena Classification. International Journal on Integrated Education (IJIE) 6 (8), 5-11, 2023
14. TZ Farkhodovna. EMOTIONS, THE CONCEPT OF EMOTIONALITY, EMOTIVENESS. " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 261-264, 2023

Mehriniso KHUSENOVA
A teacher at Bukhara State University
khusenovamehriniso@gmail.com

THE GOALS AND OBJECTIVES OF TERMINOLOGY AND LEXICOGRAPHY AS A FIELD OF LINGUISTICS

Annotation: terminology and lexicography, as fields of linguistics, share a common goal: to document and organize language. However, they differ in their focus and methods. Both terminology and lexicography play crucial roles in documenting and organizing language. Terminology focuses on creating controlled vocabularies for specific domains, while lexicography strives for a comprehensive documentation of a language's vocabulary. Their shared goal is to promote clear communication, understanding, and knowledge sharing.

Key words: *dictionary, lexicography, phrase, terms, terminology.*

Annotatsiya: terminologiya va leksikografiya tilshunoslik sohalari sifatida umumiy maqsadda bir-biriga bog`liq sohalar. Biroq, ular o'zlarining usullarida farqlanadi. Terminologiya va leksikografiya tilni hujjatlashtirish va tartibga solishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Terminologiya muayyan sohalar uchun boshqariladigan lug'atlarni yaratishga e'tibor qaratadi, leksikografiya esa tilning lug'atini to'liq hujjatlashtirishga intiladi. Ularning umumiy maqsadi aniq muloqot, tushunish va bilim almashishni targ'ib qilishdir.

Kalit so'zlar: *lug'at, leksikografiya, ibora, atamalar, terminologiya.*

Аннотация: терминология и лексикография как области лингвистики имеют общую цель: документировать и организовывать язык. Однако они различаются по направленности и методам. И терминология, и лексикография играют решающую роль в документировании и организации языка. Терминология фокусируется на создании контролируемых словарей для конкретных областей, а лексикография стремится к всестороннему документированию словарного запаса языка. Их общая цель — способствовать четкому общению, взаимопониманию и обмену знаниями.

Ключевые слова: *словарь, лексикография, словосочетание, термины, терминология.*

In the fields of science, technology, agriculture, and industry, the terminology used has evolved over time to represent specific subjects clearly. The distinction between terms and simple words is crucial, as indicated by experts in the respective fields. Here are some key characteristics of terms:

1. Terms have a single, specific meaning;
2. Terms serve a clear, naming function without emotional or expressive connotations;
3. The meaning of a term is synonymous with the concept it represents;
4. Terms are stylistically neutral;
5. Terminology forms a distinct system.

V. G. Gak categorizes the relationship between terms and words into three types :

1. Single-level lexical unit - simple word;
2. Single-level lexical unit – term;
3. Two-level lexical unit - a simple word in one context and a term in another

According to linguist V.P. Danilenko, terminology evolves based on scientific and technical progress as well as general language development laws .

Lexicography involves developing resources like books, software, or databases for public access. It includes tasks such as writing, editing, and creating dictionaries. The individual responsible for creating or editing a dictionary is known as a lexicographer. This field differs from lexicology, which focuses on analyzing the words within a language, exploring their history, changes, definitions, uses, and applications. Lexicography, the field of compiling dictionaries, serves various social functions:

1. Facilitating language learning;
2. Describing and standardizing languages;
3. Supporting interlanguage relations;
4. Analyzing and interpreting language lexicons.

Lexicography plays a vital role in linguistic studies across all languages. Dictionaries are essential tools for language development and dissemination worldwide. While Uzbek and English dictionaries share similarities, differences arise in specific vocabulary terms and internal structures. Nonetheless, both types of dictionaries are generally classified based on their purpose, content, and scope.

In conclusion, Terminology and lexicography, while separate areas, are closely linked. Terminologies frequently serve as the foundation for particular entries found in dictionaries and lexicons. The study of terminology enhances lexicography by providing a more profound insight into the precise definitions and applications of words across various fields.

References

1. Xodjayeva D.I Lexicographic codification of terms connected with nouns in explanatory dictionaries. Международный академический вестник//Научний журнал № 1(33)2019. – 82-84 b.
2. Xodjayeva D.I. Tilshunoslik terminlarining leksikografik tahlili (ingliz, rus va o`zbek tillari izohli lug`atlari materiallari misolida). Ph.Diss. Toshkent- 2018.
3. Khusenova, M. U., & Khusenova, M. U. (2021, march). Lexicographic analysis of orthographic terms. In E-Conference Globe (pp. 113-117).
4. Xusenova, M. (2023). Termin lisoniy tadqiqotlar obyekti sifatida. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 97-102.
5. Khusenova, M. (2020, December). Actual problems of terminological lexicography. In Конференции.
6. Xusenova, M. (2023). TERMIN LISONIY TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 97-102.
7. Uktamovna, K. M. (2021). THE IMPORTANCE OF DICTIONARIES AND ITS TYPES. Academy, (1 (64)), 61-63.
8. KHUSENOVA, M. U. (2021, March). LEXICOGRAPHY, TYPES OF DICTIONARIES. In E-Conference Globe (pp. 130-135).
9. Dadaboyev, Hamidulla. 0 ‘zbek Terminologiyasi: o’quv qo’llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 136 b.
10. Uktamovna, K. M. (2024). UZBEK TERMINOLOGY. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(5), 493-496.

Oysha RAJABOVA,
O‘zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari
Akademiyasi katta o‘qituvchisi

XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHNING IMKONIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada davr talabi bo‘lgan xorijiy tillarni o‘rganish va uning imkoniyatlari, til o‘rganishda e’tibor qilish lozim bo‘lgan usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *onlayn mashg‘ulotlar, yangi o‘rganilgan so‘z, ovozni yozib olish, og‘zaki amaliyotni yaxshilash, bog‘lovchi so‘zlar, xorijiy tilda o‘qish, qo‘shiq tinglash, fikr bildirish.*

Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarning xalqaro aloqa vositasi sifatida tobora ortib borayotgan roli bilan xorijiy tillarni o‘rganish shaxs va ko‘p millatli davlatning rivojlanishi uchun zaruriy imkoniyatlardan biri bo‘lib qolmoqda. Demak, bugungi kunda har qanday soha vakillari xorijiy tillarni mukammal o‘rganishi daromadning kaliti hisoblanadi. Internet olamining cheksizligi hamda til o‘rganishning to‘rttala kompetensiyasi bo‘yicha til vakillarining ijtimoiy tarmoqlar orqali berib borayotgan onlayn mashg‘ulotlari til o‘rganish uchun cheksiz imkoniyatdir. Siz yuksak cho‘qqilarni xorijiy tillar bilan zabt etmoqchisiz, unday bo‘lsa quyidagi maslahatlarga amal qiling:

– oddiy jumlalar bilan so‘z va iboralarni o‘rganing. Yodlash ishi samaraliroq bo‘lishi uchun yangi o‘rganilgan so‘zni kontekstga moslashtirish muhimdir. Shunday qilib, siz kashf etgan har bir yangi so‘z yoki iboraning yoniga odatiy jumlani yozishga harakat qiling;

– muntazam ravishda ovoz chiqarib o‘qishni mashq qiling va vaqti-vaqti bilan o‘z ovozingizni yozib oling. Til – bu talaffuzingizni mukammallashtirish uchun tanish bo‘lishingiz kerak bo‘lgan musiqa. Buning uchun muntazam ravishda qo‘shnilaringizning g‘azabini tortmasdan ovoz chiqarib o‘qing. Sizning og‘zaki ifodangiz faqat yaxshi bo‘ladi. Va asosiy kamchiliklaringizni bartaraf qilish uchun vaqti-vaqti bilan sizga eng kam tanish bo‘lgan so‘zlarni yoki tovushlarni yozib oling.

Hatto asosiy mavzularda ham gapirish uchun sizga taqdim etilgan barcha imkoniyatlardan foydalanish kerak. Yaxshi o‘zlashtirilishi uchun so‘z og‘zaki ravishda o‘n marta qo‘llanilishi kerak. Shunday qilib, vaqtni behuda sarflashga hojat yo‘q! Shu sababli ham onlayn mashg‘ulotlarda yoki o‘qituvchilar bilan videokonferensiya orqali til kurslarida ishtirok etish bu tilni og‘zaki amaliyotini jozibador yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi.

Xorijiy tilda gaplar tuzish uchun so‘zlar va foydali iboralarni bog‘lashni o‘rganing.

Chet tilida suhbatda qatnashishda ravonlikka ega bo‘lish, fikringizni ifodalash uchun mulohazalaringizni va standart jumlalarni yoki iboralarni tuzishda bir qator bog‘lovchi so‘zlarga ega bo‘lish juda foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu iboralar va bog‘lovchilardan foydalanish imkon qadar tabiiy bo‘lishi kerak, bu sizning nutqingizda o‘zingizni qulay his qilishingizga va suhbatdoshingiz tomonidan yanada aniqroq tushunilishiga yordam beradi ;

– chet tilidagi materiallarni iloji boricha tez-tez tinglang yoki tomosha qiling.

Tilni tinglash va tushunish sizning fikringizni ifoda etish qobiliyatingizni belgilaydi! Shunday ekan, asl tilda subtitrli yoki subtitrsiz seriallarni tomosha qilishdan, xorijiy matbuotni, romanlarni asl tilda o‘qishdan, radio eshittirishlar yoki qo‘shiqlarni tinglashdan tortinmang;

– asosiy nutq xatolaringizni bartaraf etish uchun yordam oling.

Talaffuzni yaxshilash va qisman o‘z-o‘zini to‘g‘rilash uchun o‘zingizni yozib olish samarali bo‘lsa-da, siz tilni mukammal biladigan kishi tomonidan tuzatishingiz kerak bo‘ladi. Biz grammatika, lug‘at va talaffuzdagi bir xil xatolarni takrorlashga moyilmiz va xususiy o‘qituvchining xizmatlarini yollash ularni tezda bartaraf etishga yordam beradi ;

– idioma va maqollarni o‘rganing.

Chet tilidan maqol va idiomatik iboralarni o‘rganish sizning so‘z boyligingizni qiziqarli va boshqacha tarzda boyitish imkonini beradi. Bu sizga til bilan bog‘liq madaniyatni kashf qilish imkonini beradi va suhbat davomida bunday iboralarni oqilona ishlatsangiz, suhbatdoshlaringiz yanada xushomad qilishadi ;

– tushkunlikka tushmang va o‘rganish dinamikasida qoling.

Tushkunlikka tushmang! Chet tilini muntazam ravishda mashq qilishingizga qaramay, ba’zida sizda turg‘unlik yoki hatto biroz orqaga ketish hissi paydo bo‘ladi. Bu mutlaqo normal holat, tilni o‘zlashtirish, ayniqsa, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish doimiy bo‘lmasa, uzoq muddatli ish hisoblanadi. Agar siz yaxshi darajaga erishgan bo‘lsangiz ham, ba’zi lug‘at yoki grammatik qoidalarni muntazam ravishda ko‘rib chiqishga harakat qiling.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini qanday rivojlantirish mumkin?

"Og‘zaki tushunish va fikr bildirish" dasturlari bo‘yicha ishlash uchun asosiy ko‘nikmalar quyidagilardir:

– og‘zaki xabarni, bayonotni, nutqni, o‘qilgan matnni tushunish uchun tinglash;

– tinglovchilarni hisobga olgan holda gapirish;

– turli vaziyatlarda muhokamalarda ishtirok etish orqali natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o‘rganishda to‘rtta ko‘nikma: tinglab tushunish, o‘qib tushunish, yozish va gapirish nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish muvaffaqiyatning kalitidir. |O‘z fikringizni xorijiy tilda bayon etishdan aslo cho‘chimang, yuksak marralar hamrohingiz bo‘lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azhar Ilyas Butt. Le développement de la compréhension orale par live-listening en laboratoire de langues. Année universitaire 2020-2021, p. 7-64.

2. O.D.Raximov, O.M.Turg‘unov, Q.O.Mustafayev, H.J.Ro‘ziyev. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent : “Fan va texnologiya nashriyoti”, 2013. 200-bet.

3. Gapirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida. Jalolov J. // Chet til o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi nashriyoti, 2012.